


**TOHIR
MALIK**



**MURDALLAR
GAPIRMAÝDALAR**

UO'K: 821.512.133 – 3

KBK 84(50')6

M 22

M 22 Malik, Tohir.

Murdalar gapirmaydilar. Qissalar / T. Malik. — T.: «Sharq», 2019. — 544 b.

«Agronom yigitning suvgaga cho'kib o'lgani haqidagi ma'lumotni o'qigan boshliq ajablandi: «Suvga yaqinlashishga qo'rqaqidan, suzishni bilmaydigan odam qanday qilib suvgaga cho'kib ketishi mumkin? Chindan ham baxtsiz hodisami yo...»

«Charxpalak» qissasini o'qigan kitobxon shu kabi savollarga javob topadi.

Hech qanday zulm jazosiz qolmaydi. «Murdalar gapirmaydilar» qissasida ana shu hayot falsafasi haqida fikr yuritiladi.

ISBN 978-9943-26-874-6

UO'K: 821.512.133 – 3

KBK 84(50')6

ISBN 978-9943-26-874-6

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2014, 2019.

Qabz tarif u yoz-bu yozga yaranib bo'lgan hajmi qolish
qadimlik beshinroq yurushiga o'tqizib qolish bo'lgan shoga
yanqida shashchi o'yincha buasi edi. Salg'ov — qo'shishchi,
yer-shaxsiyatlardagi shaxsliklarning xizmatchilari
bilanbir hajd o'tti. Chala-chulot o'satishni yuqorida
choga tori.
Yoz-bu yozga yaranib bo'lgan hajmi qolish
qadimlik beshinroq yurushiga o'tqizib qolish bo'lgan shoga
yanqida shashchi o'yincha buasi edi. Salg'ov — qo'shishchi,
yer-shaxsiyatlardagi shaxsliklarning xizmatchilari
bilanbir hajd o'tti. Chala-chulot o'satishni yuqorida
choga tori.

CHARXPALAK

(Qissa)

*«...vujudi kirlanib ketganday o'zidan o'zi
hazar qildi:*

*kuyov bilan yolg'iz qoldi — dahshatdan
o'zini qayerga urishni bilmadi, uning hadigi
boshqa yerda bo'lди — sir ochilishidan qo'rqi-
di. Kuyov duduqlanib gapirdi — shokolad
uzatdi, turmushimiz shirin bo'lsin, dedi. Go'yo
zahar uzatganday, «Gunohingni bo'yningga
ol-u ichib o'la qol», — deganday tuyuldi
unga».*

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

No 38137

BAXTSIZ HODISA YOXUD «ARZIMAS ISH»

Yig'ilganlar tarqalishdi.

Boshliq huzuriga kirganida kapitan Ravshan Odilov xotirjam edi. O'tgan oy davomida uning rayoni nisbatan osoyishta bo'ldi. Mast holda suvgaga cho'kib o'lish tasodifiy, baxtsiz hodisa hisoblanadi. Shunday ekan, dam olishdan qaytgan boshlig'ini u «CHP»siz qarshiladi, deyish mumkin. Bugungi yig'ilishda hech bo'lmasa og'-zaki tashakkur eshitarman, deb umid qilgan edi. Ammo kutilmaganda ish chappasiga ketdi. Polkovnik Sultonov qo'shni rayonlarda ro'y bergan qotillig-u o'g'irlilik tafsilotlariga, jinoyat qidiruv bo'limlarining faoliyatlariga qanchalik e'tibor bergan bo'lsa, agronomning suvgaga cho'kib o'lgani haqidagi o'sha «Ish» bilan ham shunchalik qiziqdi. Aslida agronomning o'limi hech bir jinoiy ishga bog'liq emas. Boshliqqa aytishmasa ham bo'lardi. Polkovnik, odatda, bunaqangi baxtsiz hodisalarning ikir-chikirlarini sinchiklab surishtirmas edi. Qolaversa, agronomning o'limi shu kungacha biron kimsada bo'lsin, gumon uyg'otmadidi. Polkovnikning bir necha varaqli «Ish»ni qayta-qayta o'qib chiqishi uning ko'ngliga g'ulg'ula soldi. Xonadan mashqi tushgan holda chiqdi.

Polkovnik Sultonov oblastda so'nggi oy davomida sodir bo'lgan qotillik va bir o'g'irlilik ildizining ochilishini shaxsan o'zi kuzatmoq niyatida «Ish»larni olib qolgandi. Kapitan Odilov to'g'ri payqagan edi; o'n uchinchi sovxozi bosh agronomining o'limi haqidagi axborot chindan ham polkovnikda shubha uyg'otdi.

Sultonov agronom yigit bilan yigirma kun muqaddam Boltiq dengizi sohilida uchrashgan edi. Kurortga kelgan kunining ertasigayoq sohilda o'tirgan bir yigit uning e'tiborini tortdi. Kimdir cho'milib, kimdir to'p o'ynab, yayrab yurgan bir paytda... o'ttiz yoshlardagi bu yigit hech kimga qo'shilmasdi. Yoniga ikki shisha pivoni qo'yib olib, usqqa tikilganicha o'yga cho'mib o'tirardi.

Goho turib u yoq-bu yoqqa yurardi. Bo‘yi uzunligidan qaddini bukibroq yurishga o‘rganib qolgan bu yigit suvgaga yaqinlashishni o‘ylamas ham edi. Sultonov oqshomda, yemakxonada uni yana uchratdi. Yigitning xayoli nima bilandir band edi. Chala-chulpa ovqatlandi-yu, tashqariga chiqib ketdi.

Sohildagi kunduzgi besaranjomlik tingan, saxiy odamlarning marhamatiga o‘rgangan oqchorloqlar non ushoqlari ilinjida qirg‘oq bo‘ylab uchishardi. Yumshoq qumga erkanib bosh qo‘yayotgan zaif to‘lqinlardan ikki qadam berida qo‘llarini orqaga qilib turgan yigit ko‘zlarini bir nuqtadan uzmashdi.

Yigitning nigohi qadalgan manzara sayrga chiqqan Sultonovning diqqatini tortdi; qirg‘oqdan o‘n qadamcha narida bir oqchorloq mushtday keladigan non atrofida xotirjam suzib, goh-goh cho‘qilab qo‘yadi. Bir gala oqchorloq esa o‘ljaga sherik bo‘lish ilinjida charx urib aylanadi. Ammo pastroq va shiddatliroq uchayotgan oqchorloq esa ularni nonga yaqin yo‘latmaydi. Bunday himoyadan mammun qush esa nasibasini tezroq yeishga oshiqmaydi. Burda non atrofida mag‘rur suzadi...

Sultonov tomosha nima bilan tugashiga qiziqib, anchagina turib qoldi. Qushlarning harakati shu qadar diqqatini tortdiki, yonida «odamovi» yigit turganini ham unutib, unga so‘z qotganini o‘zi ham sezmay qoldi:

— Bu modasi bo‘lsa kerak, — dedi u non atrofida suzib yurgan oqchorloqqa ishora qilib.

— Xo‘rozi juda fidoyi ekan, o‘zi aqalli bir marta ham cho‘qilamadi, — dedi yigit hamsuhbatiga qaramay.

— Hali «qallig‘i»ning roziligini olmagandir-da, shuning uchun jonini jabborga berayotgandir.

— Riyokorlik qushlarda ham bor, deysizmi?

Sultonov «odamovi» yigitning bu savoldidan gangib qoldi. Gapni chuvalashtirmay: «Aytdim-qo‘ydimda», — dedi. Yigit ham bu javobdan qoniqib, uni boshqa savolga tutmadidi. Yigit shu savoli bilan yuragida bir dard borligini oshkor qilib qo‘ygani uchun ham Sultonovda u bilan suhbatlashish istagi tug‘ildi. Uning yuziga zimdan tikildi. Yosh bo‘lishiga qaramay manglayiga ajin oralabdi. Lab-

lari qalin. Ko'zining osti salqigan. «Ko'p icharkan», — deb o'yaldi Sultonov.

— Hali sizni sohilda ko'ruvdim. Yoningizga pivo qo'yvolib, huzur qilib o'tirgan ekansiz, — dedi Sultonov.

Yigit shu gapdan keyin unga o'girildi:

— Pivoni yaxshi ko'raman. Ayniqsa, bu yerniki xush-tam'ekan.

— Sizning o'rningizda bo'lsam, bu yerda ichmas edim. Suvdan chiqmagan bo'lardim.

Yigit «nachora» degandek yelkasini qisib, kulimsiradi:

— Suzishni bilmayman.

— Suv tizzangizdan ham kelmaydi.

— Baribir qo'rqaman. Nazarimda o'pqonga tushib ketadigandayman.

Sultonov yigitning gapidan bildiki, odamovi emas. Ammo nimadir uni odamlardan chetga tortadi. O'sha «nimadir» Sultonov uchun qorong'i edi.

— Men sizni taniyman, — dedi yigit unga tik qarab. Shundagina Sultonov uning ko'zlarida beg'uborlik, samimiylik borligini sezdi. — O'n uchinchi sovxoza agronomiman, — dedi u so'zini davom ettirib. — Sizni bir-ikki majlisda ko'rganman.

— Tanigan bo'lsangiz...

— Bir «ayb»im bor — kattalardan uzoqroq yurgim keladi. Sababini o'zim ham bilmayman. Tortinchoqroq bo'lsam kerak.

— Tortinchoqlik yigitga husn sanalmaydi, uka, — dedi Sultonov. — Aksincha...

— Ilib ketdi! — dedi yigit uning gapini bo'lib. — Qarang! Ilib ketdi!

Oqchorloqlarning dovyurakrog'i shartta pastga sho'n-g'ibdi-yu nonni ilibdi-ketibdi. Sultonov gap bilan bo'lib buni ko'rmay qoldi. Boyagina kerilib suzib yurgan qush endi qanotlarini suvg'a urib, alam bilan chag'illardi.

— Kuyovto'ra qalliqsiz qoladigan bo'ldi, — dedi Sultonov kulib.

— Balki sho'rlik erving sho'riga sho'rva to'kilgandir, — dedi yigit.

Oqchorloqlar galasi patday to'zg'idi. Sultonov qo'l-larini orqasiga qilib, sekin yurdi. Yigit unga ergashdi.

— Odamlarga qo'shilmay yurib zerikmaysizmi? — deb so'radi Sultonov.

— Yo'q, atayin yolg'iz yuribman. Xayolimni tindir-yapman.

— Tushunmadim?

— Sovxoza kelgunimcha ilmiy ish bilan shug'ullanardim.

— Demak, sovxoza nazariyani amalda sinab ko'rmoqchisiz?

— Shunaqa desa ham bo'ladi. Bu yerda... odamlardan xoliroq yurmoqchi edim. Siz meni yovvoyi deb o'yagan-dirsiz?

— Ha. Rejangizni buzib qo'yibman-da, uzr.

— Rejam buzilmadi. O'n kunda ancha tiniqib oldim. Ertaga ketaman. Bu yerda yigirma to'rt kun yurishga toqatim yetmaydi. Moskvaga borishim kerak. Fazogirlar bilan bamaslahat pishadigan gap bor.

— O'h-ho'!.. Paxta masalasimi yo?..

— Paxta masalasi. Fazogirlarga paxtamiz xizmat qiladi, paxtaga ham arzimas xizmat qilib bering, deb so'ramoqchiman.

— Tanishingiz bormi?

— Yo'q.

— Unda boshqa yo'l bilan, ehtimol, Akademiya orqali so'rash kerakdir?

— Odatda, shunaqa qilishadi. Amma bu juda uzun yo'l. Masalaning marraga yetib borishiga ko'zim yetmaydi.

— Bir oblastdan bo'lsak ham sizni bilmas ekanman, — Sultonov sigaret olib unga uzatdi. — Marhamat, cheking.

— Rahmat, chekmayman. Tashlaganimga o'ttiz ikki yil bo'ldi.

— Yaxshi qilibsiz, — Sultonov beixtiyor shunday dedi-yu, keyin yigitning hazilini anglab kulib yubordi. — Yoshingizni bilib oldim. Ismingiz...

— Komil.

* * *

«Komil Sadirov, 1950-yilda tug'ilgan. Millati o'zbek. Uylangan. Farzandsiz. 1982-yil 22-avgustda suvga cho'kib o'lgan. Baxtsiz hodisa».

O'sha suvga tushishga, cho'milishga yuragi betlamagan yigit... kanalda cho'kib o'lgan. Guvochlarning shohidlik berishicha, joniga qasd qilgan. Guvochlardan biri — To'xtamish Omonturdiyev — sovxozi direktori...

Polkovnik Sultonov agronom yigitning o'lganini eshitib, achindi. Avvaliga unda hech bir shubha uyg'onmagan edi. «Ish»ni shunchaki varaqlay turib bir hujjatga ko'zi tushdi-yu...

«Spravka.

Berildi ushbu spravka Komil Sadirovga shul haqdakim, u 1982-yilning 22-avgustida haqiqatan ham suvga cho'kib o'lgan.

Vrach...»

(Familiyasini ekspert aniqlab bermasa, Sultonov o'qiy olmadi.)

Bunaqa hujjatni kaltafahm vrachgina berishi, nodon tergovchi esa dalil sisatida uni «Ish»ga tikishi mumkin. «Ish» qo'l uchida o'r ganilgan-u shosha-pisha yopilgan. Sultonov bundan ham darg'azab bo'ldi, ham shubhalandi.

Sultonov guvochlarning ma'lumotlariga ko'z yugurtirdi.

Sovxozi direktori To'xtamish Omonturdiyev: «Komil Sadirov bilan institutda birga o'qiganman. Ilimga berilgan bola edi. Ammo hech omadi yurishmadidi. Suyanadigan tog'i bo'lmanidan keyin quruq ilmi bilan ishni qoyil qilomadi. Amalga oshmaydigan xomxayollaridan nari-ga o'tmadi. Shaharda siqilib yurardi. Rahmim kelib, sovxoza chaqirtirdim. Ishi yurishmaganidan siqilib, ko'p ichadigan bo'lib qolgan ekan. Erta-yu kech ichgani ichgan. Do'stligimiz hurmatini qilib indamadimi. Sharoit yaratib bersam ham nolirdi. Jonimdan to'ydim, derdi. Oilaviy ahvoli ham chatoq edi. Xotini chiroyli bo'lGANI bilan orada farzand yo'q edi. Keyinchalik bir qiz bilan ko'z urishtirib yurgan ekan, chamamda, don olishib qo'ygan. Xullas, jonidan to'yishiga sabab ko'p yig'ilib

qolgan. Oxirgi marta yigirma ikkinchi avgustda ertalab ko'rganman. O'shanda ham kayfi taraq edi...»

Biolaboratoriya xodimi Latofat Hamidova: «Komil aka ko'p ichardi. Menga tegajog'lik qilardi. Yangamga aytib beraman, desam ham qo'ymasdi. Mast bo'lib olib, yangamdan nolirdi, «O'zimni o'zim o'ldiraman», — derdi. Yigirma ikkinchida ertalab ham mast edi...»

Boshqa hech kim guvohlik bermagan.

Sultonov bularni o'qib, Komilning gaplarini esladi... Paxtaning yangi navini yaratmoqchi edi... «Yo'q, shunday umid bilan yashayotgan odam o'zini o'zi o'ldirolmaydi. Qizga tegajog'lik qilishi ham shubhalii. Kurortda bitta imoga ilhaq ayollar turgan joyda uyidan, xotinidan uzoq yerda bu yo'lga yurmagan odam... Yo'q, bir gap borga o'xshaydi. Tekshirib ko'rish kerak». Sultanov shu qarorga kelib, «Ish»ni olib qolgan, shu bilan rayon ichki ishlar bo'limi boshlig'i ko'ngliga g'ulg'ula solib qo'ygan edi.

Hamma chiqib ketgach, Sultanov tergov bo'limining boshlig'i mayor G'ani Bo'tayevni chaqirdi.

— Odilovning mas'uliyatsizligini aytganimda, hali yosh, o'zini tutib oladi, deb meni ishontiruvdingiz.

— Hali ham shu fikrdaman, o'rtoq polkovnik.

— Ishonch bilan ish bitmaydi. Balki boshqa sohada o'zini tutib olar, deb kutish mumkindir. Lekin bizda bunday ish yuritib bo'lmaydi. Biz odamlarning taqdirini hal qilamiz, — Sultanov shunday deb agronomning o'limi tafsiloti bitilgan «Ish»ni bo'lim boshlig'iga uzatdi. — Bu voqeadan xabarlingiz bormi?

— Ha. Baxtsiz hodisa, — dedi Bo'tayev papkani ochmay.

— Spravkani o'qing-chi.

Bo'lim boshlig'i papkani ochib, spravkani o'qigach, kulimsiradi:

— Vrachning savodi sal chatoqroq ekanmi?

— Vrach-ku savodsiz ekan, tergovchiga nima deysiz?

Uning ko'zi qayoqda edi?

Bo'lim boshlig'i indamadi.

— Bu ishni qayta ko'rib chiqish kerak. O'zimizdan biror kishiga topshiring.

— Qosimovaga bersak-chi?

Sultonov bo'lim boshlig'ining ko'k ko'zlariga qarab uning muddaosini fahmladi. O'tgan yili universitetni bitirib kelgan Qosimovaga bo'lim boshlig'i ro'yxush bermaydi. Mayda-chuyda ishlarni topshirib, bezdirmoqchi bo'ladi. Nazarida tergovchilik erkaklarning ishi, ayollar esa oyoq ostida o'ralashib xalaqit beradilar, xolos. Mayor Bo'tayev manavi ishni nazariga ilmayapti. Uning fikricha, Qosimova yugurib-yelib, oxir bir kun rayon tergovchisining xulosasini tasdiqlashga majbur bo'ladi. So'ng... uni boshqa osonroq, mas'uliyatsizroq bo'limga o'tkazishga bahona topiladi.

Bo'lim boshlig'ining niyati shunday edi. Sultonov buni aynan tushundi.

— Juda yaxshi! — dedi u. — Ayollar sermulohaza bo'lishadi. Birovlarning taqdiriga befarq qarashmaydi. Qosimovaga aytинг, shu bugundan ishga kirishsin.

Bo'tayev ma'qul degandek bosh irg'adi-da, o'rnidan turdi. Sultonovning qaroridan mamnun ekanini ko'zidagi nur fosh etib qo'ydi.

— Ammo bir shartim bor: Qosimovaga bundan keyin boshqa ish topshirmayman, — dedi u hujjatlar tikilgan papkani olaturib.

— Siz haddingizdan oshyapsiz! — Sultonov shunday deb o'rnidan turib ketdi. G'azabini yashirmagan holda unga tik bordi. — Bu yer bozor emas sizga! Savdolashishingizga yo'l qo'ymayman! Qosimovani qo'llash o'rniga yordamingizni ayaganingizni bilsam... mendan xafa bo'lib yurmang.

Sultonov, gap tamom, deganday orqasiga burildi. Bo'lim boshlig'i qovun tushirib qo'yganini sezib, indamay chiqib ketdi. Oradan yarim soat o'tmay, yordamchisi eshikni qiya ochib: «Qosimova kirmoqchi, qabul qilasizmi?» — deb so'radi.

Sultonov bunday bo'lishini bilardi. Hadeb mayda-chuyda ish topshirilaverishi juvonning hamiyatiga tekkan. Sultonov uning iste'dodi qay darajada ekanini hali bilmas edi. Amaliy ishda suyagi qotmagan, ammo universitetning ijobiyl tavsiyasi bilan kelgan bu juvon bilan bir-ikki

gaplashdi. Uning aqli, og'ir tabiatli ekanini shu suhbatlar davrida ilg'ab oldi. Qosimova, qanchalik mułohazalı bo'lmasin, tajribasizligiga borib, cho'kib o'lish haqidagi «Ish»ni mensimasligini Sultonov sezgan edi. Shuning uchun o'ylagani ro'yo bo'lganidan g'ijindi.

— Ichkariga kirib, eshikni yoping, — dedi u yordam-chisiga. Yordamchi eshik tabaqasini yopib, xona o'rtasiga kelgach, uni so'roqqa tutdi: — Nimaga kirmoqchi ekan, sezmadingizmi?

— Kim bilsin, sa-al xafaroq ko'rindi.

Sultonov go'shakni ko'tarib, Bo'tayevni chaqirdi-da, masalani oydinlashtirgach, diqqati oshib, peshanasini silab qoldi.

— Chiqib aytинг, qabul qilolmayman, — dedi yordam-chisiga qaramay. So'ng eshikka yetmay, uni to'xtatdi: — Bunday deng, ertagayoq Nurli rayonida ish boshlasin. Uni rayonga borib kelganidan keyin qabul qilaman. Hisobot bilan kirishga tayyorlansin.

U chiqib ketgach, Sultonov bir nafas eshikdan ko'zini uzmay turdi. Nazarida Qosimova buyruqqa itoat etmay, hozir kirib keladiganday edi.

TO'YDAN UCH KUN OLDIN

Nozima Qosimova buyruqni eshitdi-yu, Sultonovning muddaosini angladi. Demak, bu ish Bo'tayev emas, balki shaxsan Sultonov nazoratida ekan. Qabulxonaga kelganidan pushaymon bo'lib iziga qaytdi.

Ertalabdan beri Nozmaning dili xufton, yegan-ichgani tativaydi. Qaynonasi bu tong ham «Ishdan bo'shab, bola-nigizga qarang, bog'chada ozib ketyapti», — deb ko'nglini yana xira qilgan, shu bois Nozima ezgin bir kayfiyatda ishga kelgan edi. Bo'lim boshlig'i chaqirib, «Baxtsiz hodisa tufayli cho'kib o'lgan» odamning «Ish»ini top-shirgach, dastlab o'zini tutolmay qoldi. Xo'rliги keldi. Ana shu xo'rlik zo'ri Sultonovning qabulxonasiga yetaklagan edi. Ishni hatto varaqlab ko'rmaganidan afsuslanib, orqasiga qaytdi. Xonasiga kirib, anchagacha harakatsiz o'tirdi. «Tasodifan cho'kib o'lgan odam... — deb o'yaldi u. —

Polkovnik nimadan gumonsirayapti? Nima sir bor ekan bunda? Yoki meni yana sinash uchun topshirishdimi bu ishni?» Nozima shu savollarga bandi edi.

... Nozima rayonga borib kelishi lozimligi, shu sabab uyg'a kechroq qaytishi mumkinligini aytib, eriga qaradi. Muxtor o'qiyotgan kitobidan ko'zini olmadi. Nigohi bir nuqtada qotgan, demak, o'qimay o'ylayapti. Xotinining gaplarini eshitgan. Ammo tuzukroq javob topolmayapti. Avvalgidek: «Ishingni o'zgartir», — desa gap chuvalashadi. «Va'dangiz qanaqa edi?» «Va'da bergenimda orada bola yo'q edi». «Kasbimni bilardingizku?!» «Kasbingni emas, ishingni o'zgartir, deyapman». «Men ham sizga shunday desam yoqarmidi?» «Qo'limdan boshqa ish kelsa-ku, maktabdan jon-jon deb ketardim-a». «Ana, ko'rdingizmi?...» Shunga o'xhash gaplarning adog'i bo'lmasligi mumkin. «Menga ishonib mustaqil ish topshirishdi. Boshliqning o'zi nazorat qilar ekan. Agar uddalasam, ishim yurishib ketadi. Epolmasam, mayli, siz aytgancha bo'la qolar...»

Muxtor xotinining ishi o'ngidan kelishini istasa-da, ko'nglining bir chekkasida epolmay, kasbini o'zgartira qolsaydi, degan ilinj ham yo'q emas edi. U noroziligini shu zaylda unsiz bayon etdi. Nozimaga shuning o'zi kifoya. Ertalab erining ko'ziga qaramay xayrlashdi: «Ketyapman», «Kech qolma». Shu bilan gap tamom. Ostona hatlayotganida yuragi g'alati bo'lib ketdi. To'rt yil turmush qurib, bugun birinchi marta shunday sovuq xayrlashishdi. Yaqin-yaqingacha Muxtor ishga otlanayotganda Nozima, Nozima otlanayotganda Muxtor bir bahona bilan ichkariga kirar, tuni bilan bir-biriga to'ymagan vujudlar yana chirmashar, Muxtor Nozimaning ko'zlaridan beozorgina o'pib qo'yardi. Endi... nimalar bo'lyapti? Kasbini o'zgartirsa basmi? Eri istaganidek ketma-ket yana ikki farzand tug'ib bersa, avvalgiday suyumli bo'lib qoladimi?

Rayon ichki ishlar bo'limida uni kutib turishgan ekan. Odilovning xonasida qirraburun, jingalak sochlari mosh-guruch bo'lib qolgan o'ttiz besh yoshlardagi chayir bir kishi o'tirardi. Xonada bemalol sigaret tutatishiga qaraganda boshliqqa haddi sig'adiganga o'xshaydi.

Kapitan Nozima bilan mensimayroq ko'rishib, qitra-burun kishini tanishtirdi:

— O'rtoq Omonturdiyev — o'n uchinchi sovxozi direktori. Ishga aloqador bo'lganlari uchun chaqirtirdik.

— Rahmat, o'rtoq kapitan. Bundan buyon o'rtoqlarni bamaslahat chaqirsak, huda-behudaga ovora qilmasak.

Nozimaning: «Ishga tumshug'ingizni tiqmay turing», — demoqchi bo'lganini Odilov sezdi. U To'xtamish Omonturdiyevga tagdor qarash qildi. «Dimog'i balandku...», — deb o'yaldi Odilov. Omonturdiyev ham sergak tortdi. Kecha oqshomda agronomning o'limi tafsilotlari bilan boshqarmadagilar qiziqayotganini eshitib, ichidan qirindi o'tgan edi. Ertalab «Ish»ni «kovlashtirish» mutlaqo tajribasiz juvonga topshirilganini aniqlagach: «Ha, bu shunchaki bir gap ckan-da», — deb qo'ygandi. «Mutlaqo tajribasiz juvon»ning osmondan kelishidan bildiki, bu shunchaki bir gapga o'xsharnaydi. Shuni fahmladi-yu tergovchi kirganda o'midan turib so'rashmaganidan assuslandi. Bu juvonni hovlidayoq ko'rgan edi, peshvoz chiqib kutib olsa birov uni mansabidan olib tashlarmidi? Organning odamlari oldida havolanishni kim qo'yibdi unga? E nodon, ketib-kelib shu zaifaga kekkayadimi? Kimsan, To'xtamishbek, ayollarning ko'nglini olishga ustaligi bilan faxrlanmasmidt? Qaysi shayton uni yo'ldan ozdirdi?

Ajab! Nimaga müncha hovliqyapti? Nimadan qo'rqa-yapti? Komilni suvgaga itarib yubormagan bo'lsa. Agronom o'zini suvgaga tashlagan. O'zi cho'kkani. Uning nima aybi bor? Latofatga qo'shilib guvohlik bergenimi? Bunaqa guvohlik berish jinoyat emasdир?»

To'xtamish Omonturdiyevning yuzida daf'atan paydo bo'lgan sarosima buluti bir nafasdayoq yo'qoldi. Oniy sarosimadan o'zining g'ashi kelib, tirtiq engagini qashib qo'ydi. Yo'q, sarosimalikdan g'ashi keldi, desak, to'g'ri bo'lmas. U: «Nimadan qo'rqaaman!» — deb o'ziga dalda berayotgani bilan yuragidagi hadikdan qutulolmagan edi. U agronomning o'limi sababini bilardi. Hech kim o'likni tiriltirolmagani kabi birovning bu sirni ochishga qurbi yetmasligiga amin bo'lsa-da, nima uchundir ko'ngil

g'ashligidan qutulolmagan edi. Bu hadikning yana bir boshqa sababi ham bor. Komil o'limidan bir kun avval aytgan gaplarini o'zi bilan olib ketmay, bularga xabar qilishga ulgurgan bo'lsa-chi? To'xtamish o'lim sababining ochilishidan ko'ra ko'proq mana shundan cho'chirdi.

Nozima gapining bularga og'ir botganini sezdi. Lekin sir boy bermay, sovxozi direktoriga zimdan qarab oldi. «Ko'rinishidan kalondimog'ga o'xshaydi. Katta boshini kichik qilib meni kutib o'tirishiga sabab nima?»

Bir lahzalik taraddud, ajablanish, sarosima barham topib, uchovlari bo'lajak jiddiy suhbat uchun fikrlarini jamlab olishdi.

— O'rtoq Qosimovaga malol kelmasa, sovxoza borsak. Yo'l yurib kelganlar. Bir piyolagina choy ichsak... — Omonturdiyev shunday deb jilmayishga harakat qildi.

— Sovxoza, albatta, boramiz. Choyni keyinroq ichamiz. O'rtoq kapitanga bir-ikki savolim bor edi. Malol kelmasa, qabulxonada biroz kutib tursangiz.

Boshiga to'qmoq bilan urilganday Omonturdiyevning ko'zlaridan olov sachrab ketdi. U Odilovga yalt etib qaradi. Ammo o'zini qo'lga oldi, o'rnidan turib, zalvorli qadam tashlagancha xonadan chiqdi.

— O'rtoq leytenant, odob doirasidan chiqmasligingizni talab qilaman. Bu odam yosh bola emas, rayonning ko'zga ko'rigan rahbarlaridan.

— O'rtoq kapitan, — dedi Nozima pichingga piching ohangida javob berib, — odob doirasidan chiqmaslikka harakat qilaman. U kishi siz uchun «ko'zga ko'rigan» rahbarlardan biridir. Men uchun esa oddiy guvoh. Siz bilan guvoh ishtirokida gaplashishni istamadim. Bunga haqqim bordir?

Odilov barmoqlarida o'ynab turgan qalamni jahli bilan stol ustiga tashladi. «Ha, bor», — deb to'ng'illadi-da joyiga o'tirdi. Nozima bir necha sahifadan iborat «Ish»ni portfeldan olib ochdi. Guvohlarning bayoni, antiqa spravka qariyb yod bo'lib qolganiga qaramay, varaqlab qo'ydi. Ularning savol-javobi sovuq ohangda, qisqa va lo'nda bo'ldi:

— Nima uchun jasad tekshirilmadi? — deb so'radi Nozima qog'ozlardan ko'z uzmay.

— Tekshirilgan. Vrachning xulosasi bor-ku, — dedi Odilov uning qo‘lidagi «Ish»ga imo qilib. Nozima miyig‘ida kulib, bosh chayqab qo‘ydi.

— Guvohlar «marhum mast edi», deyishyapti. Bu tekshirilmabdi-ku? Jasadda shikastlangan joy bormi-yo‘qmi, bu ham noma’lum.

— O‘zbeklarning odatini bilasiz-ku, murdaga yopishib olishadi.

— Buni-ku bilaman, ammo... tartib, qonun-qoidani ham bilaman.

— Gapirish oson... — Odilov shunday deb teskari qarab oldi.

— Sovxozi direktori bilan agronomning aloqalari yaxshi bo‘lganmi?

— Agronomni shu direktor odam qilib yurgan edi. Institutda birga o‘qishgan ekan. Ilmiy ishni uddalolmay haydalib, xor bo‘lib yurgan ekan. Aroqxo‘rga kimning toqati bor. O‘rtoq Omonturdiyev insof qilib uni qanotiga oldi, amal berdi, uy berdi. Hatto kurortga ham yubordi. U yoqda ikki hafta ham turmabdi. Ichgan bo‘lsa, haydashgan-da...

— Qaysi kurortda?

— Bilmayman.

— HaydalGANI aniqmi yo?...

— Nima, siz meni so‘roq qilyapsizmi?

Nozima «haydalGAN» degan so‘zni doira ichiga olib, qo‘shaloq «shox» chiqardi-da, biri qarshisiga «institutdan», ikkinchisiga «kurortdan» deb yozib qo‘ydi.

— Omonturdiyev bilan qayerda gaplashsam bo‘ladi?

— Shu yerda gaplashavering.

— Yolg‘iz gaplashmoqchiman.

— Yaxshi, — Odilov qovoq uyib o‘rnidan turdi.

— Latofat Hamidova bilan ham gaplashishim kerak.

— Hamidova shu yerda... — Odilov shunday deb eshikni ochdi-da, sovxozi direktorini muloyimlik bilan ichkariga taklif qildi.

Nozima sovxozi direktori bilan uzoq gaplasha olmadi. Asosiy savollarga o‘tgan chog‘da Odilov kirib keldi. Suhbatga xalal bergani uchun uzr so‘rashni xayoliga ham keltirmay to‘rsayganicha borib joyiga o‘tirdi.

— O'rtoq leytenant, guvoh Hamidova bilan sakkizinchil xonada gaplashasiz, — dedi buyruq ohangida.

Uning bu qilig'idan Nozima hang-mang bo'lib qoldi... G'azabini yashirmay shart o'midan turdi. Qog'ozlarni betartib ravishda portfelga joyladi. Omonturdiyevga: «Xayr, siz bilan yana ko'rishib, suhbatlashaman», — dedi-da, eshikka yo'naldi. Ikki-uch qadam yurmey Odilov to'xtatdi:

— O'rtoq leytenant, sizga bir maslahat: bu ishda faqat universitet bilimiga suyansangiz xato qilasiz. Hayot boshqa, bilim boshqa.

— Rahmat, o'rtoq kapitan, e'tiboringiz uchun. O'sha bilimlar asosida hayot tajribasi yotadi. Shu bilim kaltabin vrachning ahmoqona spravkasiga ishonib ish yuritishga yo'l qo'ymaydi.

Nozima bu gapni aytishga aytdi-yu, shu zahoti tilini tishladi. Bularga ilmoqni ko'rsatib qo'ymadimi? Chakki qildi. Bu gapni aytmasligi kerak edi. Oblast boshqarmasida ba'zan Odilov haqida noxush gaplar oralab qolardi. Shuni bilaturib, unga o'chakishgani yaxshi bo'lmadi. Tajribasizligi tufayli qoqildi. Yana qoqilmasligi uchun aytadigan har bir so'zni avval ming o'ylab olishi shart.

Leytenantning gapi chindan ham ularni sarosimaga soldi. Bir-birlariga qarab olishdi. Odilovni Nozimaning dag'al muomalasi emas, so'nggi gapi dovdiratib qo'ydi. Nozima bundan foydalanib (o'zining afsusini sirtga chiqarmadi) iziga qaytdi.

— O'rtoq kapitan, voqeа sodir bo'lgan joyni ko'rishim kerak. Umuman, sizni hadeb bezovta qilmaslik uchun shu ish bilan shug'ullangan tergovchini menga hamroh qilishingizni so'rayman.

— Tergovchi Nusratov ham sizni sakkizinchil xonada kutib o'tiribdi.

Nozima rahmat aytib, chiqib ketdi.

Kun peshindan og'gandan so'ng Nozima bugungi ishini tugatishga oshiqdi. Erining tund qiyofasi ko'z oldiga kelaverdi. Shuning uchun Latofat bilan ham, Nusratov bilan ham gapni qisqa qildi. Agronom cho'kkан kanalni birrov borib, ko'rди-yu, iziga qaytdi. Sadirov qayerda

cho'kkан, murdани qayerdan chiqarib olishgan — hech kim bilmaydi.

Omonturdiyev bilan Hamidova agronomni ertalab ko'rishgan ekan. Kechqurun o'lganligi haqidagi xabarni eshitishibdi. Bo'lgan gap shu... Sunbula tug'gan, suvlar tinigan palla. Biroq kunning tafti qirqilmagan. Uyidan chiqar mahalida ko'ngliga oralagan noxushlik kapitan Odilov bilan gapi qovushmagach, yanada gazak olib, uni ishdan sovitay dedi. Peshinda choy ham ichmadi. Tamaddi ham qilmadi. Ana endi oftobda qizib turgan avtobusga chiqib o'tirgach, ochiqish, toliqish azobini sezdi. Lohaslandi. Havo yetishmaganday bo'ldi. Avtobusda odam ko'p emasdi. Mudrab o'tirgan ikki qariya, kitobga muk tushgan, yoshi o'tinqiragan kishi va bir semiz ayol... Ikki kishilik o'rindiqni egallab olgan bu ayol muzqaymoq yergi. Nozimaning ham ko'ngli sust ketdi. Ammo ayolning yuzidan oqayotgan terga ko'zi tushib, behuzur bo'ldi. Sumkasidan ro'molchasini chiqarib yelpindi. Sal orom topdi. Qariyalardan biri toqatsizlanib, ko'zini ochdi-da, atrofqa alangladi. Yelkasiga tashlab olgan oq belbog' bilan bo'ynini artib, uf tortib, dedi:

— Bu qizitaloq aptobusni qizdirib, non yopmoqchimi, yuradiganga o'xshamaydi-ku?

Sherigi, uyqu durustgina elitgan ekanmi, ko'zini arang ochdi.

— Vaqt bo'limgandir-da, — dedi lanjlik bilan, so'ng yana ko'zlarini yumdi.

Birinchi qariya belbog'i bilan yelpingan bo'ldi, yuragi hapriqib ketdi, shekilli, o'rnidan turib, pastga tushdi. Keyin dispatcher o'tiradigan uychaga qarab, ovozi boricha: «Hoy shopur bola!» — deb qichqirdi.

— Koshki eshitsa... — dedi semiz ayol muzqaymoq qog'ozidagi yuqni hafslala bilan yalayturib. Kitob o'qiyotgan kishi qariyaga bir qarab olib indamadi. Qariya yana bir baqirdi, javob bo'limgach, uycha tomon yurdi. Dam o'tmay beo'xshov qorin qo'ygan yigitchani boshlab qaytdi.

— E tog'a, hali picha vaqt bor, yurib ketsam, xo'ja-yinlar so'kadi, — dedi yigitcha joyiga o'tirgach.

— Enangni haqi ham qolmadi, haydayver, — dedi qariya.

Yigitcha biroz ikkilanib turgach, avtobusni yurgizdi. Ichkariga shabada yugurgilab, Nozima sal o‘ziga keldi.

Avtobus uch-to‘rt silkingach, ikinchi qariyaning uyqusi qochdi. Hamrohiga norozi qiyofada qaradi:

— Sigiring doyasiz qolyaptimi, hovliqishingni qara.

— Kunlar g‘animat. Erta-indin direktoring ko‘z ochirmay qo‘yadi. Osmondan tushganmisan, fe’lini bilmaysanmi?

Nozmaning ko‘z oldiga To‘xtamish Omonturdiyev keldi. U Omonturdiyevni bir ko‘rishdayoq yoqtirmay qoldi. Engagi chandiqli direktoring kibr-u havo bilan ko‘z suzib qarashidan: «Men — ildizi mustahkam chinorman, uncha-muncha bolta payimni kesolmaydi, sen ham ko‘p chirampa-yu, yaxshisi, soyamdan bahramand bo‘la qol», — degan ma’noni uqdi. Xonada ikkalasi qolishgach, uning nigohidagi kiborlik o‘rnini ishrattalablik egalladi. Nozima shunaqa erkaklarni jinidan battar yomon ko‘rardi. Qizlarga ko‘zini lo‘q qilib, bezrayib tikiluvchi erkak: «Aylot zoti faqat bir narsa uchun — ko‘ngilxushlik, ko‘ngil dardini bosish uchun yaratilgan», — deb hisoblaydi. Bunday toifa shahvat kafaniga o‘ralib, dunyodagi bor ezbilikdan yiroqlashadi. Shunday erkaklarni ko‘rganida Nozimada faqat nafrat emas, balki achinish hissi ham uyg‘onadi. Avvalo, shunday erkakning ruhan majruh ekaniga, so‘ng esa bu ishrattalab qarashlarga darrov bandi bo‘lib qoluvchi ayollar qismatiga ham achinadi.

Nozima yo‘lda ketaturib yuzma-yuz bo‘lgan suhbatni miridan sirigacha esladi. Bunday savol-javobdan nati-ja kutishning o‘zi bema’nilik. Guvohlar avvalgi ko‘rsatmalarini tasdiqlashdi, xolos. Agar ular chindan ham voqeanning shohidi bo‘lishsa-yu, chalg‘itish niyatida gapni shunday chuvalashtirishsa, bunday savol-javob bilan ish bitmaydi. Ularning ichidagini tashiga chiqaruvchi «ilgak» lozim. Qanday bo‘lmasisin, Nozima shuni topishi kerak. Bugun gapdan ilinishmadı. Javobga tayyorlanganliklari ko‘rinib turdi.

«Komil Sadirovni nima sababdan sovxoza olib kel-dingiz?»

«Men do'starning taqdiriga befarq qaray olmasdim».

«Sadirov ko'p icharkan, ishiga bu ta'sir qilmasimdi?»

«Sovxoza u aytarli foyda bermas edi. Umuman, bal-ki bilarsiz, hozir agronomga muhtojlik qolmagan. Chigit ekihsin, deb buyruq keladi, ekamiz, sug'orilsin, deyishadi, sug'oramiz. Mana, erta-indin terilsin, deb qolishadi, terimni yalpisiga boshlab yuboramiz. Hech kim agronomning gapi bilan ish qilmaydi».

«Unda nima uchun Sadirovni sovxoza olib keldингиз?»

«Ilmiy ish qilayotgandi. Shaharda eplay olmadi. O'zini o'nglab olsin, devdim».

«Ilmiy ishi bilan tanishmidingiz?»

«Bilardim. Umri qisqa g'o'za yaratmoqchi edi».

«Umri qisqa?»

«Ha. Shunaqa xomxayol edi».

«Latofat Hamidova bilan munosabatlari qanaqa edi?»

«Buni qizning o'zidan so'raysiz».

«Siz bilmaysizmi?»

«Harholda yigitchilik-da, Hamidova deganimiz ham ko'zga yaqin qiz. Ishqi tushgan bo'lsa, tushgandir».

«Sadirovning oilasi qanaqa edi?»

«Xotinimi? Yaxshi juvon. Biz birga o'qiganmiz».

...Yaxshi juvon... Birga o'qiganmiz...

Qiziq, qanaqa juvon ekan? Nozima marhumning xotini bilan ko'risholmadi. Lekin shu ayol haqida gap ochilganda Omonturdiyev sal o'zgardi.

«Yaxshi juvon... Birga o'qiganmiz...»

Nozima Latofatning sarosimada ekanini ko'zlaridan payqdadi. Qoramag'izdan kelgan bu qiz sira unga tik qaray olmadidi. Shahlo ko'zlarini javdiratib hali devordagi jadvallarga, hali deraza osha hovliga qaraydi. Xuddi ish tikayotgan kabi barmoqlari tinch turmaydi. Hali yigirmani qoralamagan bu qizning to'lishibroq qolgani, yuziga bili-nar-bilinmas dog' oralagani ham Nozimada shubha uy-g'otdi: «Guvoqlikda aytilgan «shilqimlik» me'yordan

oshmagantmikin? Sadirov ko'p icharkan. Mastlikda balki... Keyin nomus kuchlilik qilib...»

Nozima Latofat bilan ham yolg'iz gaplashdi.

«Sadirov qanaqa odam edi?»

«Komil akam... yaxshi edilar».

«Munosabatlaringiz yaxshi edimi?»

«Ha».

«Shilqimlik qilardi, debsiz. Shu rostmi?»

«...»

«Quchoqlaganmi, o'pganmi?»

«Jon opa, jon opajon, meni qiyamang. Men... men turmushga chiqyapman. Uch kundan keyin to'y. Odamlar gap qiladi. Endi meni chaqirmanglar. Hammasini yozib bergenman. Jon opajon...»

Latofat yig'lamadi. O'zini tutdi. Faryod bosib kelayotganda o'zini tutish qanchalik azob ekanini Nozima yaxshi biladi. Shuning uchun savol-javobni bas qildi. Nusratov bilan ko'p gaplashmadı. Universitetda sirtdan o'qiyotgan bu yigit faqat bajaruvchi rolini ijro etgani kunday ravshan edi. «Ishni nimaga pala-partish olib borgansiz? Kim aytgan? Kimlar o'rta ga tushgan?» — degan savollar javobsiz qolishi aniq edi, shuning uchun: «Erta-indin yana kelaman», — deb gapni kalta qildi.

«Turmushga chiqyapman... uch kundan keyin to'y...»

O'zini qayerga qo'yishni bilmay sarosimada o'tirgan qizning qiyofasi ko'z o'ngidan ketmay qoldi.

«Nimadan xavotirda? Odamlar gap qiladi, deydi. Ni-mani gap qiladi? Xo'p, militsiyaga chaqirilibdi, gu-vohlik beribdi, nima bo'pti? Yo'q, u boshqa narsadan cho'chiyapti. Uch kundan keyin to'y... Agar Sadirov chindan ham chegaradan chiqqan bo'lsa, masala oydin-lashadi. Nimaga? Kuyov bilmay qolsa yoki bilmagan-ga olsa-chi? Qizning to'yi avvalroq shu kunga belgilanganmidi yo Sadirovning o'limidan keyin tezlashdimi, shuni aniqlash kerak...»

Shaharga kiraverishda qariyalar, yana yuz metrdan ke-yin semiz xotin tushib qoldi. Avtostansiyada odam ko'p edi. Bo'shagan savat, chelak, tog'ora, qog'oz qutilar ko'-targan ayollar, yigitlar eshik ochilishi bilan o'zlarini ich-

kariga urdilar. Sal bo‘lmasa oqim Nozimani yana joyiga olib borib o‘tqazib qo‘yayozdi. U hay-haylab, turtinib-surtinib tushib oldi. Kela-kelguncha kitobdan bosh ko‘tar-magan kishi esa ichkarida qolib ketdi.

Hovliga kirdi-yu oshxonada sabzi to‘g‘rayotgan erini ko‘rib Nozmaning ko‘ngli yorishdi.

ODAMGA NIMA KERAK?

Kapitan Odilovning xonaga bostirib kirishidan Omonturdiyev ham norozi bo‘ldi. Tergovchining ters muomallasи hali sal hamiyatiga tekkaniga qaramay, uning qad-di-qomati, ayniqsa, anordek bo‘rtib turgan ko‘kragi, to‘liq boldiri... nazaridan chetda qolmagan edi. Xonada ikkalasi qolishgach, tergovchiga oshkora suq bilan tikildi. Savollarga esa qisqa-qisqa javob qaytardi. Omonturdiyev shu kunga qadar tergovga ishi tushmagan bo‘lsa-da, savollarning jo‘nligidan bildiki, bu juvon hali g‘o‘r. Bu-naqa ofatijonlarga restoranlarda oyoqlarini chalishadir, etaklarini salgina ko‘tarib o‘tirishlar, erkakning biqinidan asta chimchilab: «Rostdan bo‘ydoqmisiz yo aldayapsizmi?», «Keyin tashlab ketmaysizmi?» — degan nozli savollar yarashadi. E, Omonturdiyev xotinlarning makralarini ko‘raverib ko‘zları pishib ketgan.

Mana, ro‘parasida o‘tirgan huriliqo ham uni savolga tutyapti. Begunoh ekanligini biladi, ammo baribir savol-javob qilishi kerak. Rasmiyati shunaqa. Komilning o‘limi sababini ikki dunyoda aniqlay olmaydi. Guvoh yo‘q. Yagona shohid — Latofat. Uning og‘zi esa mahkam. Gullasa, o‘ziga qiyin. Bir umr badnom bo‘ladi. Erga tegib oлganidan keyin qiymalab chopsang ham g‘ing demaydi.

Tergovchining savollari tugagach, Omonturdiyev uni bir «o‘ramoqchi» bo‘ldi. Eri, bolasi bo‘lsa kerak. Shunga qaramay komandirovkalarda yuribdi. Bunaqalarni ildirish oson. Kiftini keltirib maqtasa, bas: «Ko‘zlarizing chiroyli ekan, bunday tikilmang, yuragim to‘xtab qolyapti». «Voy, bu yerda unaqa gaplarni aytmang, birov eshitsa noqulay bo‘ladi». «Eshitsa—eshitar, rosti, judayam chiroyli ekan-siz. Yengil, kalta ko‘ylak sizga yarashar ekan. Faqat bir

narsa yetishmay turibdi: tilla zanjir! Tug'ilgan kuningiz qachon edi? Keyingi haftagami? Qayerda uchrashamiz? Bo'ldi. Buyog'idan xotijam bo'ling. Xo'jayin qayerda ishlaydilar? Boshlig'i uni keyingi haftada komandirovkaga yuboryapti, eshitmadingizmi? Komandirovkali ish emas, deysizmi? Be, komandirovkasi yo'q joyning o'zi yo'q. Xohlasangiz bir oyga, yo'q, ikki oyga Moskvaga, malaka oshirishga ketadi. Bundan oson ish yo'q. Xullas...» Bunaqa gaplarga xotin kishi ekan-ku, tosh ham erib ketadi. Osmondan kelayotgan bu xonimcha uzala tushganini o'zi ham sezmay qoladi.

Endi avrayman deb turganda bu galvars kirib turibdi. «E xomkalla! O'zicha menga yordam bermoqchi. Bu qilig'idan keyin tergovchi hadiksirab qolmaydimi? Bularning tili bir, bo'lgan voqeani yashiryapti, deb o'ylamaydimi?» Omonturdiyevning ensasi qotib, kapitanning: «Choylashaylik», — degan taklifiga ham qaramadi. Ayniqsa, tergovchining spravka haqidag gapidan jo-ni halqumiga keldi. «Shuni ham eplab rasmiyplash-tirmabsizda?» — dedi □ ijinib «Spravkani siz berdingiz-ku?» — dedi kapitan yelka qisib. «Men yoi-yo'rig'ini qaydan bilay, ko'z bormi o'zi sizda?» Omonturdiyev aslida: «Kalla bormi o'zi sizda?» — demoqchi edi, kapitanni xor qilmay deb, tilini tiydi. Dahlizda turgan Nusratovga: «Latofatga ayt, to'g'ri raykomga borsin», — dedi-da, tashqari chiqdi.

Raykomda qiladigan ishi yo'q edi. Ammo qiz bilan uchrashishga bu atrofda boshqa qulay joy yo'q. Baxtiga raykomdagilar tushlikka chiqishgan ekan. Ichkari issiq bo'lgani uchun tol soyasidagi so'riga borib o'tirdi. Latofat uzoq kuttirmadi. Omonturdiyev uning yurishiga qarab, saro-simada ekanini sezdi.

— Ha, nima bo'ldi? — deb so'radi dag'al ovozda.

— So'roq qildimi?

— Agronom bilan munosabatlaring qanaqa edi, deb so'radi.

— Xo'sh?

— Indamadim.

— Nega?

— Bilmadim...

— Menga qara, esingni yig'ib ol. Bekinmachoq o'yna-yotgani yo'q sen bilan. Meni qo'yaver, sen o'zingni o'yla.

Latofat titroq barmoqlari bilan yuzini to'sib, yig'lab yubordi.

— Uningni o'chir. O'zingni bosib ol. Do'xtirga bor-dingmi?

Yig'isini to'xtatish uchun labini tishlab turgan Latofat bosh i r a b[□]ha» ishorasini qildi.

— To'g'ri bo'ldimi?

Latofat yana bosh irg'adi.

— Pulini oldimi?

— Ha.

— Ana, ko'rdingmi, vahima qilib yuribsan. Bitmay-digan ish yo'q bu dunyoda. Chimildiqqa onasi o'pmagan qizday bo'lib kirasan. Bo'pti, sen boraver. Birga turga-nimizni ko'rishmagani ma'qul. To'ydan keyin yo'l-po'lda ko'rishib qolsak ham salomingni ber-u indamay o'tib ke-taver. Tergovchi yana keladi. Esingni yig'ib ol. So'rasa, shaharda birga... bo'lganlaringni yashirmay aytaver.

Omonturdiyev o'rnidan turib, raykom binosi tomon yurdi. Latofat uning ortidan qarab qoldi. Keyin yana portlay deyayotgan yig'isini ichiga yutib, boshini xam qilganicha orqasiga o'girildi. Omonturdiyev raykom bi-nosiga kirgan zahoti o'girilib, tashqariga qaradi. Bitta-bitta bosib ketayotgan, xo'rsiniqdan kifti silkinib-silkinib qo'yayotgan qizga tikilib, «Shuni deb bir balo bo'lmasam edi», — deb qo'ydi. Uzoq yillardan beri qilmagan ishini qildi: o'zini la'natladi.

Inson umri bo'yi xatolarga ham yo'l qo'yadi. Ba'zan nojoiz gapni aytib qo'yib, tilini tishlaydi; ba'zan do'stini dushman, dushmani esa do'st deb bilib, qoron[□] k[□]-chalarda tentiraydi; ba'zan suyib ruju qo'ygan narsasi oqibatda zahar bo'lib chiqadi; ba'zan nurli cho'qqiga olib boradi, deb o'ylagan yo'lidan yurib jarga qulaydi. Ana o'shanda yuz attang, ming attang, deydi. Koshki edi bu attanglardan foyda chiqsa...

To'xtamish Omonturdiyev qoroni k chalardak p tentiramagan. Shundanmi, afsus-nadomatlari y qarajada. U tabiatan ehtiyotkor edi, m ljalnboshqalarga nisbatan uzunroq olardi. «Sen qoyaga suyanib jon saqlashni orzu qilma. zin goya bolodamlar panoh izlab senga intilsinlar». Otasining bu gituning uchun aqidaga aylanib, bosgan har bir qadamini yoritib keldi.

Sinfdoshlari ichida u hammadan baquvvat edi. Bolalar undan hayiqib turishardi. Tuzukroq qiyidiganlaham uning xizmatini qilishga majbur... Esidan chiqmaydi: oltinchchi sinfda q i byrganida uylariga mehmon keldi. T r i r o u odam kolxozga ish bilan kelib, yotoq b 1-magani sababli ularnikiga q n g a nedi.

— Mana bizning toyloq, oltinchida qiyapti,— degan edi otasi faxr bilan.

— azamat yigit b libdi. qishla z rmi?

— Z r.

— E, malades. Rais b lisan gerak?

— Qanaqa rais? — degan edi To'xtamish ajablanib.

— E, omon b 1!Bizning o o iotryad sovetining raisi. Gavdangga qarab senam shunaqamisan, debman...

Mehmonning gapini eshitdi-yu x rlig ikeldi. Bu qanaqasi: z rman,deb kerilib yuraveribdi-ku, otryad sovetiga rais b lishni ylamabdi. Shu topgacha hech kim unga bu savolni bermabdi! Sinfdoshlari Ozodchani saylaymiz, desa u ham q shiliq k taraveribdiT x - tamishning kallasi bolaligida ham tez va aniq ishlardi. Masalani s h ondayoq hal qildi. K chag shiqib Murod mu ambim topdi.

— Ozodchadan kaltak yebsan-ku? — dedi To'xtamish dabdurustdan.

— Menmi? Qachon? — dedi Murod mu ambidov-dirab.

— Kaltak yemadingmi?

— Vey, jinnimisan? Kim shanda kaltak yeydi? Qizlarni ham chertolmaydi-ku?!

— Undan q rqmaysanmi?

— Q rqmayman.

— Mendan-chi? — To'xtamish uning yoqasidan oldi.

— Senga nima qildim, qo'yvor, nimaga urasan? — dedi Murod yig'lamsirab.

— Shallaqilik qilma, hali urganim yo'q. Lekin rosa kaltak yeydigan bo'lib yuribsan.

— Nimaga?

— Men Ozodchadan zo'rmanmi?

— Zo'rsan.

— Ozodcha ahmoqmi yo menmi?

— Nimagaydi?

— Ayt.

— Ozodcha bo'lsa kerak.

— Nimaga unda Ozodchan ni saylading?

— Nimaga saylabman?

— Mug'ambirlilik qilma, otryad sovetiga nima uchun Ozodcha rais bo'lishi kerak?

— Bo'lmasa... — To'xtamish hali uning yoqasini bo'shatmagan edi. — Unda o'zing bo'la qol. — Shu gapdan keyin yoqasi bo'shadi.

— Yo'lini top.

— Yo'li... Sanjar akamga ayt.

— Ahmoqsan. Shuning uchun ham seni saylashmagan.

— Ko'zim uchib turgani yo'q. Har kuni majlisga qolish kerak.

— Seni saylashdi-yu, sen noz qildingmi? Bo'pti, kallangi ishlat. Yo'lini qilish kerak... — Yo'lini qidirishning hojati yo'q edi. To'xtamishning o'zi topib qo'ygandi.— Ertaga Ozodchaning yonida paxta terasan. Etagidagi paxtasiga kesak, tosh, ko'rak aralashtirib tashla. G'ing desa...

— Tumshug'iga solaman.

— Yo'q, qo'rqt. Paxtasini ovqat mahali olib chiqsin. Hammadan keyin chiqinglar. Sen: «Ozodcha g'irromlik qilyapti, ishyoqmas, ko'zbo'yamachi, raislikka noloyiq», — deb g'alva chiqarasan. Bolalarga tayinlab qo'y: baqrayib turishmasin.

— E, zo'rsan, To'xta, kallang zo'r!

— Meni saylasalaring hammangni kinoga olib tushaman.

Mana bunisi Murod mug'ambir uchun yangilik bo'ldi. Odatda, To'xtamish kinoga pul sarflamas edi. Boshqalarning hisobidan tushardi.

— Aldamayapsanmi?

— Ikki martadan olib tushaman.

Xullas, To'xtamish aytgandek bo'ldi. Uni o'sha kuni otryad sovetiga vaqtinchalik rais qilib saylashdi. Paxta terimi tugagach, bu masalani qayta ko'rmoqchi bo'lishdi. To'xtamishning baxtiga terim cho'zilib, o'qish yangi yil arafasida boshlandi. «Qayta k o'rishmasalasi hammaning yodidan ko'tarildi. U otryad sovetiga rais bo'lib qolaverdi.

«**z in goya bo'l**», — deb otasi o'shanda aytgan edi.

Murod mug'ambir o'sha kuni To'xtamishning nomzodini aytganda, bolalar bo'lajak raisga hadiksirab qarab qo'yishdi-yu, indashmadi. To'xtamishning tanballigi, hali uning, hali buning tergan paxtasi hisobiga kun ko'rishi ay on bo'lsa-da, uni «eng i l oterimchi» sifatida raislikka saylashdi. Saylashdi-yu, baloga qolishdi: avval unga bir kilodan teradiganlar endi ikki, ikkidan teradiganlar uchdan beradigan bo'lishdi. Harholda, otryad soveti raisining obro'si — butun otryadning obr si-da!

Oradan uch yil o'tgach, butun sinf komsomol tashkiloti kotibining obro'si uchun paxta teradigan bo'ldi. Uning uchun dars tayyorlash yo biror ish qilish sinfda bahs yoki norozilik uyg'otmaydigan odat tusiga kirgan edi. Birov nolimas, shikoyat qilishdan esa cho'chirdi. Yillar esa shu zaylda o'tib, bolalar maktabni bitirishdi-yu To'xtamishdan qutulishdi.

To'xtamish dadasi bilan shaharga tushib, imtihon topshirib yurgandayoq institutning ichki tartib-qoidalarini surishtirib bildi. Birinchi sentabr kuni esa maktabda olgan faxriy yorliqlari-yu komsomol tashkilotining kotibi bo'lganligini tasdiqlovchi hujjatlarini ko'tarib avval dekanga, keyin komsomol komitetiga kirdi. «Jamoat ishlari jon-u tani ekani»ni, har qanday topshiriqqa tayyorligini bildirdi. Bir haftadan keyin u kurs starostasi qilib «saylandi». Keyin «paxta yig'im-terimidan chetga qolmaylik!» — deb tashabbus ko'tarib chiqdi-yu faol jamoatchi sifatida ko'pning nazariga tushdi. Terim payti etak bog'lamadi — umrida she'r o'qimagan, qo'shiq aytmagan yigit «agitbrigada»ga a'zo bo'lib oldi...

To'xtamish Omonturdiyev qayerga qadam qo'yishni oldindan chandaladi. «Hayot — botqoq, oyoq bosadigan joyni puxta tanlamasang, ch□kibnobud b□lasan». Bu uning aqidasi. Shuning uchun qilgan ishlaridan ko'p afsus chekmas edi. Eng katta nadomati to'rtinchi kursda bo'lgan. Endi Komilning o'limidan so'ng, attang, deb turibdi. To'rtinchi kursda-ku, suvdan quruq chiqqan. Bu safar-chi?

Latofat ko'zdan yiroqlashgach, To'xtamish Omonturdiyev raykom binosidan chiqdi. Yarmi soyada, yarmi oftobda qolgan mashinasi tomon yurdi. Shofyor mashina eshiklarini ochib qo'yib, orqa o'rindiqda uyquni urayotgan edi. Turtib uyg'otdi:

- Soyaga qo'ysang o'lasanmi?
- Soyada edi.
- Uyquga to'ysanmi o'zing. Bo'l tez.

Shofyor direktorning fe'li buzuqligini bilib, to'ng'illashiga e'tibor bermay, mashinani yurgizdi.

Omonturdiyev yuzini shamolga tutib, o'yga toldi: «Asli Komilni chaqirishga ko'nglim chopmagan edi. Ni-magayam olib keldim? Hatto yalindim-a! Hammasi bitta qanqiqni deb bo'ldi. «Latofatxon, oy Latofatxon...» Shuni o'qishga kiritaman demaganimda, Komilga yaqinlashmas ham edim. Chiroyli bo'lgani bilan turgan-bitgani nahs ekan buning. Shunga o'ralashganidan beri g'alva-ya... Lekin ofatijonlikka ofatijon... Endi bir umr traktorchiga yem bo'lib yuradi. Qovunning yaxshisini it yeysi, deganlari shu-da. Mavluda ham Komilga yem bo'ldi-ku... Shunday qiz-a!..»

To'xtamish Mavludani yaxshi ko'rardi. Ammo Mavluda uni kuydirgandan kuydirdi. To'rtinchi kursdagi o'sha voqeadan keyin esa «Beting qursin», deb To'xtamishga qaramay qo'ydi. Keyin Komilga tegib oldi.

To'xtamishning armoni ham shu. Shunday huriliqoni qo'ldan chiqardi...

Eh, Mavluda ham shirin qovun ko'yiga tushdi...

Orqasidan shuncha yurib muddaosiga yetolmagani uchunmi, To'xtamish Mavludani ko'p □ylardi.U buni chin muhabbat deb bilardi.

Komilni sovxoza taklif qilganda Mavludani \square ylama-dimi? \square yla s ham gapmi?! Lekin To'xtamish uchun hech kutilmaganda Mavluda rayon markazidagi mактабга ishga kirdi. Mavluda eriga \square shilibsovxoza kelgani bilan tuzoqqa ilinmasligini shu y \square bilan bildirdi. To'xtamish aynan shunga hayron b \square ldi. Fatvosini topolsa, noz-u firoqsiz \square yni g \square iradi-ya. Lekin sovxozdan, ya'ni To'xtamish Omonturdiyevdan yiroqroqda yurishing boisi nima? T \square xtamishn \square rarg \square z yo'q ekan, sovxoza bormayman, desa, tamom. Komil \square i n gdeya olmasdi. Komil unga er emas, qui edi-ku! Nahot t \square rtinch \square kursdagi \square s h \square oqeani hanuz unutmagan?

To'xtamish yuz \square yladiming \square yladiammo Mavludaning xatti-harakatiga tushuna olmadi. Nafsilaмrini aytganda, tushunishi mumkin emas edi. Buning uchun farosatga \square shimcha \square avishda oddiy insoniy tuy \square ulakerak edi. T \square \square r \square i, Mavludani hol-joniga \square yma yyurdi. Muhabbat ham izhor etdi. Ammo tavallolari yerda changga qorishib ketdi. Axir, ont ichgan odamidan topmagan vafoni Komilda k \square rg a nekan, Mavluda nechun unga sadoqatli b \square lmasin? Ayolni ermak emas, ilohiy mavjudotday ko'rib ardoqlagan tan mahramini nechun oniy lazzatlarga almashsin?! Yo'q, Mavluda To'xtamishning soyaday ergashib yurganini unutmagani bilan Komilga xiyonat qila olmas edi. Odamga bu dunyoda k \square marsa jumboq bo'lib qolaveradi. Mavludaning tuy \square ular \square To'xtamish uchun shunday jumboq edi.

Komilni sovxoza chaqirishdan maqsadi faqatgina Mavludaga yetishish, nafsi qondirib yurish emas ekan, nimaga taklif qildi? Olim bo'lmoqchi edimi? Ha, lekin Komilsiz ham dissertatsiya yoqlashi mumkinmidi? Ha. Dissertatsiya uchun nima kerak? Yo zaring, yo zo'ring. To'xtamishda har ikkisi bor. O'sha ilm dargohlari atrofida oylikka ko'z tikib yashaydigan chalamullalar bor. «Besh- \square ntangaga» bir yildayoq dissertatsiya degan narsani taxt qilib berishadi. Uni o'qimayoq hamd-u sano aytuvchini topish qiyin ekanmi?

To'xtamish Omonturdiyevning shunaqa yo'li ham bor edi. Biroq buni tanlamadi. Oddiygina kandidat-direktor

bo'lishning unga qizig'i yo'q. Unga yangilik, kashfiyot kerak edi. Chalamullalarning dissertatsiyasi ertami-kechmi fosh qilib qo'yishi mumkin, dalada «manaman» deb turgan yangilik esa kandidatlik diplomini o'zi chaqirib oladi. Komilni shuning uchun chorladi. Shuning uchun pul sarf qildi. Charxpalaklarigacha yasattirib berdi.

Hozir shularni eslab To'xtamish Omonturdiyevning ichi kuydi.

— Bog'ga hayda, — dedi shofyorga.

«Hammasi tugadi, — deb o'yaldi u. — Qayerdadir xato qildim. Qayerda? Komilga ishonmasligim, uni sovxozi ishlariga aralashtirmasligim kerak edi. Kasofatni siylamoqchiydim, chorig'i bilan to'rga chiqib ketdi. O'sha «boyvachcha» o'qituvchisini ko'riboq, fahmlashim zarur edi. Buni qarang-a, ustiga tuzukroq kiyim olishga qurbi yetmaydi-yu, menday odamning yegan-ichganiga pul t - laydi. Bunaqa o'qituvchida ta'llim olgan bola odam bo'l-maydi. Buni o'shandayoq tushunib yetishim kerak edi».

Kaftdek dalaning o'rtasi do'nglik, sovxozung mehmon kutadigan bog'i shu yerda. Atrof yonaman deydi. Bu yerdan esa shabada arimaydi. Mashina shu do'nglikdagi shiypon yoniga kelib to'xtadi.

— Oshxonaga bor, — dedi To'xtamish shofyorga. Keyin ichkariga qarab baqirdi: — Murod!

Javob bo'ljadi.

— Mug'ambir, o'lganmisan?

Uyqusi o'chmagan Murod mug'ambir qornini osiltirib, lapanglab chiqib keldi.

— Uxlamasang o'lib qolasan-da, a? Qani, nimang bor?

— Hammasi tayyor. Nimadan boshlay?

— Anor suvidan ber.

— Achchiqroq-da.

— Zahar bo'lmaydimi? Olib kel, tez.

Murod semiz bo'lgani bilan chaqqon edi. Birpasda dasturxon bezadi. To'xtamish piyolani to'ldirib aroq quyib ichdi. Ketidan anor suvini sipqardi. Badani rohatlandi. Ertalabdan beri ta'bini xira qilayotgan g'ashlik tarqaldi.

— Murod, — dedi To'xtamish kerishib, — odamga nima kerak?

— Yo zar, yo zo'r.

— E ahmoq, odamga kalla kerak, kalla, — u shunday deb ko'rsatkich barmog'i bilan boshiga nuqib qo'ydi.

O'G'IL BOLA GAP

(1980-yilning erta kuzidagi voqeа)

Bu uchrashuv tasodifan bo'ldi, deyilsa, «baxtli» degan sifat berilishi kerak. Muallimi atay qidirib kelgan ekan. Komil unga bir umr qulluq qilsa arziydi. Agar muallimi shaharda, deylik, ko'chadami, oshxonadami, sayrgohdami ro'para kelib qolganida, «baxtli tasodifiy uchrashuv» deyish mumkin edi. Uning shahardan yigirma besh chaqirim narida, Komil tajriba o'tkazadigan dalada paydo bo'lishi «tasodif» chegarasiga kirmas. Garchi muallimning o'zi buni tasodifga yo'yan bo'lsa-da, Komil uning atay izlab kelganini fahmladi.

Maktabda fizikadan dars bergen Mahkam akaning kiyinishi odmi edi. Shimiga dazmol tegmagan, pidjagining yoqasi shoyigulning ochilayotgan bargiga o'xshab buralib qolgan. To'g'ri, uning bu yurishiga qishloqda hech kim ahamiyat bermaydi. Komil ham vaqtida e'tibor qilmagan, ammo shaharga ham shu ahvolda tushib kelaverishidan jindak g'ijindi. «Nimaga keldi ekan, shaharga tushgan b□lsajoyning ilojini qilolmay, meni qidirgandir-da», — degan xayolga ham bordi. Biroq dam o'tmay, g'ijingani uchun ham, noto'g'ri xayolga borgani uchun ham o'zini o'zi koyidi.

— Shaharingda choy-poy ichadigan tuzukroq joy yo'q, yur, avval bir choylashaylik, — dedi muallim.

Dalaning katta yo'lga tutashgan yerida — baland teraklar ostida choyxona bor edi. O'sha yerda gurunglashishdi.

— Paxtaning yangi navini topmoqchi eding, topding-mi?

Komil kulimsiradi. Qisiq ko'zlari yumilib ketayozdi.

— Gapingiz qiziq bo'ldi-yu, yangi nav ko'chada yotgan tangami, qidirib topsam.

Mahkam aka bu gapdan og'rindi. Choydan ho'plab, tomoq qirdi:

— Endi qishloqchasiga so'radik-da, olimlarning ta'biri bilan aytay bo'lmasa: ixtiro qildingmi?

Komilning yuragiga bir nima sanchilganday bo'ldi. Muallimini ranjitganini sezdi. Uzr so'rashi kerak edi, ammo so'ramadi. Buni o'ziga or deb bildi (hali bu uchun ham o'zini la'natlaydi).

— Topmadim, — dedi go'yo pichingni payqamagan bo'lib. — Qiyin kechyapti. Ko'pchilik bosh qotiryapti. Bir men emas.

— G'o'za bargini o'zi to'kishi kerak ekanmi?

— Uydagilar aytishdimi?

— Bo'lmasa kimdan eshitaman? Dadang bilan kunda-kunora choylashamiz. Og'zidan tushmaysan. Niyatlaring butun qishloqqa ma'lum. Yaxshi niyat — yarim mol, deyishadi.

— E, bu bir gap, Mahkam aka. Bu ishda niyat yarim mol emas, sariq chaqaga ham arzimay qoladi. Tugunni topdim, yechdim, deb o'ylayman. Isbotini bir yil kutaman. Natija yo'q.

— Vaqtida barg to'kmayaptimi?

— To'kadi, lekin men mo'ljallagan paytdan ancha kech to'kyapti. Ko'saklar qovjirab qolyapti. Men noto'g'ri yo'lidan boryapman, shekilli.

— Domlalaring nima deydi?

— Nima deyishardi... Farazlarim to'g'ri. Mana, qarang: o'simliklarning har biri o'z umri bilan yashaydi. Bin bahorda, boshqasi yozda, yana biri kuzda, biri kech kuzda gullab, meva tugadi, shu bilan xazon bo'ladi. Nimaga shunday? Hammasing umri genetik kod asosida boradi. Genetik kodni bilasizmi?

— Qani, gapiraver-chi.

— Ularning ko'karishidan tortib gullashi, meva tu-gishi, urug' to'kishi, qurishi tabiat tomonidan programmalashtirilgan. G'o'za ham kuzning ma'lum davriga yetgach, bargini to'kadi. Biz buni kutolmaymiz. Dori

sepamiz. Yon-atrofni zaharlaymiz. Chigitni zaharlaymiz. Xullas, g'o'zani emas, o'zimizni zaharlaganimizni bilmaymiz. Tabiat — yechish qiyin bo'lgan jumboq. Qarang, chinor sekin o'sadi, lekin uzoq yashaydi. Terak tez o'sadi, lekin tez xazon bo'ladi. Men g'o'zaning umrini qisqartirishni o'ylagan edim. Tezroq o'ssin. Ammo avgustga borib umrini yashab bo'lsin, degan niyatim niyatligicha qolib ketyapti.

— Umrini qanday qisqartirmoqchi eding?

— Har xil kasalga chalintirib ko'rdim.

— Kasalga chalingan g'o'za yaxshi paxta beradi, deb o'yladingmi?

Komil yana g'ijindi. Bu odam nima uchun aql o'rgatadi? Ovloqdagi bir mактабда fizikani arang eplashtirib yurgan bo'lsa, seleksiya nima, genetika nima, hujayralar injeneriyasi nima — bu gaplar tushiga kirmagan bo'lsa. Endi bir boshdan tushuntirishi kerakmi?

— Mening qayerdanligimni bilasanmi?

Komil yalt etib muallimga qaradi: bu savol qiziq bo'lди-ku?

— Chigitkuydi degan joyni eshitganmisan?

Bunaqa nom Komilning qulog'iga chalinmagan edi.

— Sizlar Mirzacho'lga Farg'onadan kelgansizlar. Unda kichkina bola eding, eslayolmasang kerak.

— Eslayman.

— Cho'lga bizlar tog'dan tushganmiz. Yoppasiga ko'chganmiz. O'zimizning joylar bog' edi. Cho'lga kelib obod qildig-u qishlog'imiz sondan chiqdi. Ke, qo'y, bu dardimni ochmay. Gap boshqa yodda. Qishlog'imiz yuqorisida Chigitkuydi degan joy bor. Yalanglikka yaqinlashishdan hamma qo'rqardi. Jinlar makoni degan tu-shuncha bola-baqradan tortib, oqsoqollargacha singib ketgan edi. Buvamdan shu joy haqida g'alati gap eshitganman. Burun zamonda bir odam o'sha yerda ikkita charxpalak yasab, chigit ekkan ekan. Charxpalak tikkasiga emas, yotiq holda aylanarkan. Mulla-pullalar o'sha odamni jodugarlikda ayblab, toshbo'ron qilib, chigitlarini kuydirib tashlashgan ekan. Bobomning aytishicha, u odam boshqa yurtlarda bo'lgan, donolar suhbatini olgan. O'sha-

lardan biri unga, odamzod yulduzlarga ucha oladi, degan ckan.

— Kim ekan?

— Bashoratiga qaraganda Siolkovskiy, shekilli?

— Siolkovskiyning chigitga nima aloqasi bor?

— Endi bu yog'ini eshit: Siolkovskiy bilan suhbatlashgani chin bo'lsa, Yerning aylanishi, tortish kuchi haqida ma'lumot olgan. Demak, vaznsizlik holati haqida ham bashorat qilingan, xo'-o'sh... Yer o'z o'qi atrofida yigirma to'rt soatda bir aylanadimi? Bir emas, ikki marta aylansa-chi? Tortish kuchi qirqilib, biz ham uchib yurmaymizmi? Vaznsizlik holatida hujayralarning rivojlanishi tezlashmaydimi? Umr qisqarmaydimi? Mana gap nimada! U charxpalak vositasida sun'iy vaznsizlik holati yaratmoqchi boimaganmi?

— Bu afsona-ku?

— Men ham shunday deb yurardim. Axiyri Chigitkuydiga chiqdim. Charxpalakning «izi»ni topdim. Katta soyning yoqasida ekan. U odam anoyi bo'limgan, fizikani yaxshi bilgan. Tushunyapsanmi, fi-zi-kani! Yog'ochdan shesternyalar ishlagan. Ho'kiz aylantiradigan jo'ngina charxpalak emas, harakat tishli g'ildiraklar orqali uzatlувчи murakkab moslama yaratgan. Hazilakam gapmi bu?

Komil muallimga hayrat bilan tikilib qoldi: o'ngimi bu yo tushimi? Ro'parasida o'tirgan odam darsiga erinchoqlik bilan kirib, lanjlik bilan savol-javob qiluvchi fizika muallimimi? «Siolkovskiy, chigit, vaznsizlik holati, hujayralarning rivojlanishi... Nimalar deyayotganini biladimi o'zi? Axir, olimman, deb ko'kragiga mushtlab kerilib yurganlarga yangicha tadqiqot yo'lini ko'rsatib beryapti-ku! To'xta... To'xta... Xulosa chiqarishga shoshilma. Faraz qiziqarli. Ammo ilmiy nuqtayi nazardan taroziga solib ko'rish kerak. Shoshilma, o'yla... o'yla... Muallim aslida shuni aytgani kelgan. Atay izlab kelgan. Meni xijolatga solib, «qarzdor» qilib qo'ymaslik uchun «Tasodifan ko'rib qoldim», deyapti. Qiziq, shuncha yil qo'lida o'qib, bir qishloqda yashab, fe'lini bilmagan ekanman. Yo boshqa dardi bormi? Hademay institutlarga

qabul boshlanadi. To'xtamishga o'xshab... Aytmoqchi, To'xtamish kutadi-ku?»

Komil soatiga qaradi.

— Shoshyapsanmi?

— Bir kursdoshim kutmoqchi edi. — Uchrashuv restoranda bo'lishi kerak edi. Muallimni aytsammi, aytmasammi, deb ikkilandi. Oxiri aytdi: — Siz ham birga bo'l-sangiz...

Muallim tarang qilib o'tirmadi.

— Kechki poyezdda qaytmoqchiman. Ungacha biroz suhbatlaringni ola qolay.

To'xtamish devorlari oq, zinalari esa qizg'ish marmar bilan qoplangan restoran oldida ularni kutib oldi. Muallimni ko'rib ensasi qotdi. Qo'l uchini berib so'rashgan bo'ldi. Komil ularni tanishtirdi. Muallim kalondimog' sovxoz direktorini ko'riboq iziga qaytmoqchi edi, Komilning hurmatini qilib ichkariga kirdi. U restoranni bиринчи ко'rayotgани yo'q. Vaqtida oshnalari bilan Toshkentga xo'p kelgan, restoranlarda xo'p kayfichog'liq qilgan. Yoningda xushta'b jo'ralar bo'lsa, restoranning shovqini ham yoqarkan. Bo'lmasa, bosh og'rig'i qo'z-g'arkan. Muallim direktorning chala-yarim gaplaridan fahmladiki, bir dardi bor. Komilni bejiz restoranga taklif qilmagan. Sovxoziiga borib ishlashga ko'ndirmoqchi. Dardi bor uning... Bunaqlar odam qadrini juda past baholaydi. Restoranga olib kirdim, deydi. Aroq... ovqat... Qarabsizki, yegan og'iz uyaladi. Axir, odam deganning qorni arzimas narsaga to'yadi, yana biroz sarf qilsa, kayf ham bo'ladi. Shuni deb birovga tobe bo'lib o'tirish! «Arzimas» iltimosini rad eta olmaslik! Pastkashlik, borib turgan pastkashlik bu...

Muzika shang'illaydi. Direktor Komilning kiftiga qo'l tashlaganicha gap uqtiradi.

Ofitsiant kelib, bir nima deb shipshigach, direktorning ko'zi olma-kesak terdi. O'rnidan turdi. Bir qiz bilan o'yinga tushdi. Keyin shim kiygan ikki do'ndiqni boshlab keldi. Ofitsiantni chaqirib, yana ichimlik buyurdi. Muallim endi o'zining tamomila ortiqcha ekanligini sezib, sekin o'rnidan turdi.

Komil buni ko'rdi-yu, shamollab kelmoqchidir, degan o'yga borib indamadi. Keyin yonidagi qizlar bilan andarmon bo'lib, uni esidan chiqaribdi. Qizlar mayizday b□ - lishgach, To'xtamish Komilga ko'z qisib qo'ydi.

— Mana bu nima? — dedi u vazadagi olmalarga imo qilib. So'ng qanotlarini yozdi-da, qizlarning yelkasidan kuchdi. — Olma, a? Endi hammamiz bir tishlamdan yeymiz. — Shunday deb bitta olmani to'rtga bo'lди-da, ulushini og'ziga soldi. Boshqalar unga qo'shildi. — Endi nima bo'ladi? — Qizlar yelka qisib hirninglashdi. — Odam Ato bilan Momo Havvoga nima deyilgan? Olmadan yema, deyilgan. Olmani yeb qo'yishgandan keyin nima bo'lgan? X□ s hqani, ketdikmi?!

«Balo bu, balo!» — dedi Komil uning uddaburonligiga qoyil qolib.

To'xtamish ofitsiantni imlab chaqirdi.

— Qani, oyimcha, hisob-kitob qilib yuboring-chi, — u shunday deb kissasidan bir nechta elliktalik chiqardi.

— To'lashdi-ku, — dedi ofitsiant. — Keyingi konyakning haqini bersangiz bo'ldi.

— A? Kim to'ladi? — To'xtamish savol nazari bilan Komilga qaradi.

— Mana bu yerda o'tirgan boboy.

Komilning kayfi birdan tarqadi.

— O'zi qani?!

— Ketdi.

— Qayoqqa?

— Ketdi... Ko'chaga chiqib ketdi. Ancha bo'ldi.

To'xtamish bitta elliktalikni glijimlab ofitsiantning kaftiga tashladi-da, qizlarning qo'lting'idan olgancha eshikka yo'naldi. U muallimning nima uchun bunday qilganini o'ylab o'tirmadi. Komil esa... garang, nima qilishini bilmay qolgandi. Ko'chaga chiqib, qadamini tezlatdi.

— Komil, mashina to'xtat, bugun bir sabanto'y qilaylik!

Komil eshitmadi. Duch kelgan mashinaga qo'l ko'tarib, to'xtatdi-da, vokzalga jo'nadi.

Muallimning poyezdi ketib qolgan edi.

U vokzalda anchagacha qolib ketdi.

«Mahkam aka meni deb kelgan. Charxpalak uning uchun kutilmagan yangilik edi. Shu yangilikni ichiga sig'dirolmay meni izlagan. Boshim osmonga yetishini kutgan. Men nima qildim? Qayerga olib bordim? Dunyoda bitta to'ng'iz bo'lса, o'sha menman. Ikkita bo'lса, ikkinchisi... ikkinchisi ham o'zimman. Charxpalak... Charxpalak... Qiziq g'oysa...»

Komilning fikri yarq etib yorishib ketdi.

Komil xayolga berilib, ko'chaning o'rtasiga tushib borayotgan ekan, yonidan o'tgan mashina signal berib, hushiga keltirdi. Yo'l chetiga chiqdi-da, chirog'ini bir yoqib, bir o'chirib kelayotgan mashinaga qo'l ko'tardi.

Shaharning yangi mavzesida To'xtamishning ikki xonali uyi bor edi. Kimning nomiga, nima uchun olganini Komil bilmaydi, qiziqib ham ko'rмаган. Ammo uch marta shu uyda pivoxo'rlik qilishdi. Komil hozir To'xtamishni shu uydan topishiga amin edi.

Komil yanglishmadи.

— E inson, qayoqlarda yuribsан. Axir, bular o'ldirib qo'yay dedi-ku meni, kir, tezroq. — To'xtamish uni bilaganidan ushlab, ichkariga tortdi. — Ana, tanla bittasini.

— Ularinги jo'natvor. Bilasan-ku meni... Gap bor. Gapolishib olishimiz kerak.

— Do'stning amri vojib. Bularni uchirib yuborsak ham bo'ladi. — To'xtamish shunday deb qo'shni xonaga kirib ketdi. — Qani, qushchalar, qanot qoqadigan paytlaring keldi.

Ichkaridan nozli ovoz eshitildi. Komil g'ijinib, balkonga chiqdi. Hademay g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tindi-yu eshikning qarsillagani, so'ng qulfnинг shirqillagani quloqqa chalindi.

— Qorasini o'chirdim, — dedi Omonturdiyev. — Ichasanmi?

— Yo'q, ko'ngil tortmayapti. Menga qara, sovxozinga astoydil chaqiryapsanmi?

— «Mi»sini olib tashla.

— Odatimni bilasan. Mana bunaqa ishlaringga toqatim yo'q.

— Xotirjam bo'l, bunaqa ishlар sensiz bo'ladi.

- Bir paytlar oramiz buzilgan edi, esingdami?
- Esimdamas, eslashni ham xohlamayman. Gapni kalta qil, shartingni ayt. Yo'q, aytma, hammasiga roziman. Borsang bo'ldi.
- Unda sen ayt shartingni.
- Shartingni? — To'xtamish kuldii. — Qanaqa shart?
- Bekorga chaqirmayotgandirsan?
- O'g'il bola gapni aytaymi? Hisobli do'st ayrilmash, deydiilar. Birinchidan, yonimda aqli, ishonchli odamlar bo'lishi kerak. Busiz sovxozi eplab bo'lmaydi. Ikkinchidan, ilm qilmoqchiman. Institutda, o'zing bilasan, jamaat ishlariga ko'mib tashlashuvdi. Endi sovxozi... Yordamingsiz eplolmayman.
- Chindan ham o'g'il bola gap qilding. Qoimdan kelgan yordamimni ayasam, nomardman. Ertaga qishloqqa jo'nayman. Haligi o'qituvchim bilan maslahatlashishim kerak.
- To'xtamish o'rnidan turib qo'shni xonaga kirdi-da, pul olib chiqdi.
- Ma, yo'l xarajating.
- Kerakmas.
- O', boyvachcha, sovxozi komandirovka qilyapti. Bi-letlaringni hisobot uchun topshirasan hali... — To'xtamish shunday deb iljaydi. Komil pichingni tushunmay, to'g'ri gapday qabul qildi. — Mana bunisini o'qituvchingga berib qo'y. Menga boyvachchalik qilmasin.
- Kerakmas, baribir olmaydi.
- Unda sovg'a-povg'a ol. Pulini restoranga to'layman, deb olib kelmagandir. Bola-chaqasi bordir?
- Komil pulni olib, T \square xtamishning «yo'tib qol», deb zo'rplashiga qaramay chiqib ketdi.
- Ketarkansan, nima qilarding qushchalarni hurkitib, — dedi To'xtamish uning orqasidan eshikni yopar ekan.

GUMONLAR

Nozima axborot berayotib, kechagi gaplarning allaqa-chon yetib kelganini bo'lim boshlig'i avzoyidan sezdi.

— Odilov kichkina odam emas, uni guvohlar oldida obro'yini to'kibsiz? — dedi mayor Bo'tayev ensasi qota-yotganini yashirmay.

Nozima unga yer ostidan qaradi-yu, u-bu desa gap chuvalashib ketishini o'ylab, indamadi. Bundan boshliqning zahri toshsa toshdiki, kamaymadi. U Nozimaning gap qaytarishini, izoh berishini kutgan edi. Shunday bo'l-gan taqdirda aytadigan gaplarini tayyorlab, chaqadigan nishlarini charxlab qo'ygandi. Afsus, zahari ichida qoldi. Yumshoqlik bilan «nasihat» qilishga majbur bo'ldi.

Boshliqning «tarbiyaviy daqiqasi» tugagach, Nozima unga bir varaq qog'oz uzatdi:

— Nima bu?

— Latviyaga yuborilgan xatning mazmuni. Guvoh-larning aytishicha, Sadirov ichkilikbozligi uchun kurortdan haydalgan.

— Xo'sh, nima bo'pti?

— Shuni aniqlash kerak.

— Sadirov Boltiq dengiziga cho'kibdimi?

— Baribir aniqlashimiz kerak.

— Shart emas. — Bo'tayev shunday deb qog'ozni stoli ustiga tashladi. — Boshqa ishlarni qila turing. Bu masalani o'ylab ko'ramiz.

— Hozir Sadirov ishlagan institutga bormoqchi edim.

— Sadirov qayerda o'lgan o'zi?

— O'rtoq mayor, men Sadirovning shaxsini aniqlama-gunimcha bir xulosaga kelolmayman.

— Bilganingizni qiling, — boshliq shunday deb qo'l siltadi.

Institut direktori - sochlari siyraklashib qolgan, qarashlari muloyim kishi Nozimani iliq kutib oldi.

— Xo'sh, nima gunoh qilibmiz? — dedi u Nozimaning qarshisiga o'tirar ekan.

— Gunohingiz yo'q. Shunchaki bir kishini surishtirib keldim.

— Kimni? Militsiya «bir odamni» surishtirdimi, demak, gap bor.

— Sadirovni.

— Komilmi? E-e, ancha ovora bo'libsiz-ku. Avval

telefon qilib so'rasangiz, bekorga urinmas edingiz. Sadirov bizdan ketgan, o'tgan yili... Ha, direktorlikka yangi tayinlangan kunlarim edi. Meni xafa qilib ketdi.

— Nimaga?

— Axir, katta niyatlar bilan ish boshlayotganingda qobiliyatli yosh olim qutlash, yordamlashish o'rniga ariza ko'tarib kirsa, albatta, xafa bo'lasan-da kishi.

— Uni oldindan bilarmidingiz?

— Studentligidan bilaman. Miyasi butun bola edi. Uning kursida ucharroq bir yigit bo'lardi. Ismi esimda yo'q. Aytishlaricha, o'sha Sadirovning boshini aylan-tiribdi.

— Omonturdiyevmi?

— Uni ham bilasizmi? Demak, masala jiddiyga o'x-shaydi. Biron mashmashaga aralashib qoldimi? Komil jinoyat qilmaydi, ammo aralashib qolishi mumkin.

— Yo'q, unaqa emas. Faqat... u kanalga cho'kib o'libdi. Shuning tafsilotini aniqlashim kerak.

— Cho'kib o'libdi? Shunday yigit-a?! — Direktor boshini sarak-sarak qilib, o'rnidan turib ketdi. — Eh o'jar bola-ya! Ketma, dedim. Hatto yalindim! Dunyoning teskariligini qarang: ustoz shogirdga yalinsa. Yuzingda ko'zing bormi, demay ketvordi. Mana oqibat. Yaxshi bir olimni yo'qotdik. Kim aybdor? Biz, biz! Uni ushlab qololmagan institut... — Direktor deraza oldiga borib uf tortdi. Keyin orqasiga keskin o'girildi. — Nima bo'pti o'zi, aniqladingizmi?

— Aniqlayapmiz. Ba'zi narsalarni so'rab olishim kerak.

— Marhamat.

— Sadirov icharmidi?

Direktor o'ylanib qoldi.

— Xabarim yo'q, singlim. Men uni faqat qobiliyatli, yo'q, o'ta qobiliyatli olim deb hisoblardim. Yurish-turishi, oilasi bilan qiziqmagan ekanman.

— Bu yerdan ketishiga, ehtimol, oilaviy ahvoli sabab bo'lgandir?

— Bilmayman, singlim, bilmayman. Shunga ahamiyat bermagan ekanman. Afsus, ming afsus. Endi bunday

qilaylik: Sadirovning ilmiy iqtidori bo'yicha savolningiz bo'lса, marhamat, men javob beray. Fe'l-atvori bilan qiziqsangiz, ilmiy rahbari bilan gaplashganingiz ma'qul edi. Afsuski, u hozir xorijda. Aytmоqchi, Sadirovning do'stiga uchrasha qолинг. Mashinangiz bormi? — Nozima aybdor odamday yelka qisdi. — Hechqisi yo'q. Mening mashinamga o'tiring-da, tajriba dalasiga borib kelng. O'sha yerda Yahyo degan yigit bor. Sadirov ikkalasi qadrdon oshna edi...

Tajriba dalasiga borgach, shofyor mashinadan tushdi-da, borib Yahyonи ergashtirib keldi. Yahyo yuzlari oftobda qoraygan, ko'zлari botiq, past bo'yli, ozg'ингина yigit ekan. Nozimaning ish joyini eshitgach, u hayron bo'lib turib qoldi. Shuning uchun Nozima darrov muddaoga o'tdi:

— Komil Sadirov yaqin do'stingiz ekan, bu yerdan ketganidan keyin ham u bilan uchrashganmisiz?

— Ha.

— Oxirgi marta qachon ko'rgan edingiz?

— Yaqinda... Yigirmanchi avgustda. □□limni tug g'ilgan kuni edi. Xotini bilan keldi.

— O'sha yigirmanchida nima haqda gaplashdilaringiz?

— Tinchlikmi o'zi? Nega Komilni surishtirib qoldingiz?

— Avval siz savolimga javob bering. Iltimos, o'sha kungi gaplarini eslay olasizmi?

— Uncha-bunchaga unutiladigan gap bo'lmadi o'sha kuni. Komil o'n to'qqizinchida ertalab Moskvadan uchib kelgan edi.

— Moskvadan?

— Ha. Kurortga ketgan edi, dam olish o'rнiga Moskvaga o'tibdi. Kosmonavtlar bilan uchrashibdi. Og'zi qulog'ida edi. Fazogirlar yordam beramiz, deyishibdi.

— Qanaqa yordam?

— Komil bir yangilik ustida ishlayotuvdi. Mana shu dalada Komil ikkalamiz tajriba o'tkazardik. Umri qisqa g'o'za navini yaratmoqchi edik. Komil birdan boshqa usulga o'tib ketdi. Fazogirlarga borib, avtomatik stansiyada besh-o'n tup g'o'za o'stirib, hosilini olib beringlar,

degan ekan. Ular tegishli boshliqlar orqali masalani ijobiy hal qilib beramiz, deyishibdi. Komilning fikricha, vazn-sizlik holatida g'o'za boshqacha rivojlanarkan. Shu fikrini tekshirmoqchi bo'lgan. Buning hech jinoyatli joyi yo'q.

— Biz Sadirovni ayblamoqchi emasmiz.

— Unda nimaga so'roq qilyapsiz?

— Yigirma ikkinchi avgust kuni do'stingiz suvgancho'kib...

Yahyo og'zini ochganicha baqrayib qoldi. Ko'zlari ich-ichiga yanayam botib ketganday bo'ldi.

— Nima dedingiz? Yo'g'-e... adashmayapsizmi?

— Suvga cho'kkani.

— Bo'limgan gap! Bo'lishi mumkin emas. U suvdan qo'rqardi. Suzishni bilmasdi-ku, axir. O'zi... Qayerda cho'kibdi?

— Kanalga, o'sha sovxozdagi kanalga cho'kkani.

— Yo'-o'q, kichikroq anhorga tushishi mumkindir-u, katta kanalga... Yo'-o'q! Bo'lishi mumkin emas!

Bu Nozima uchun kutilmagan yangilik edi. Yahyoning gaplarini batafsilroq yozib oldi.

— Yigirmanchida uchrashganlaringda ichgandirsizlar?

— Ha, ichdik. Musallas ichdik. Bir shisha, ikkinchi shishadan yuz grammcha. U kam ichardi.

— Pivo-chi?

— Pivoni yaxshi ko'rardi.

— Uchrashganlaringda hech nolirmidi?

— Esimda yo'q.

— Yetti yil ishlab tuzuk natija chiqara olmabdi. Shunda ham nolimasmidtি?

— Men ham yuribman-ku? Bizda ish tez bitmaydi.

— Farzandi yo'qligidan ham nolimasmidtি?

— Ichidan ezilardi. O'g'limni erkalaganda sezardim.

— Shu masalada... u kimni ayblardi?

— Hech kimni. Lekin ayb xotinida bo'lsa kerak. Bir kuni: «Boshqaga uylana qolmaysanmi?» — deganimda, yoqamdan bo'g'ib olgan. Mavludani juda yaxshi ko'rardi.

— Boshqa ayollar bilan yurmasmidi?

— Xayoliga ham keltirmsad. Aytyapman-ku, bir og'iz gapimga bo'g'ib tashlay dedi.

— Mayluda-chi? Uni yaxshi ko'rarmidi?

— Ha. Judayam inoq yashashardi.

Yahyo Nozima bilan noxush bir kayfiyatda xayrashidda, paxtazor ichiga kirib ketdi. U og'ir-og'ir qadam bosar, go'yo oyog'iga botmon-botmon tosh osilgan edi. Yahyo do'stining o'lganini eshitib cho'kdi-qoldi. Axir, shu dala-da Komilning izlari qolgan, ko'katlarga, daraxtlarga ovozi singgan... Endi g'o'zalar orasidan dam kuyinib, dam suyunib qarab turganday bo'laveradi.

Kasalga chalingan har tup g'o'za uchun kuyinadigan, qurigan bir shoxi uchun butun vujudi zirqiraydigan odam endi yo'q. Qurigan g'o'za nima ekan, eksang, o'rniga chiqaveradi. Uning o'rniga esa... boshqa Komil dunyoga kelmaydi endi...

Hayot poyezdga o'xshaydi. Birov chiqadi, birov tushib qoladi. Ma'lum bir bekatlar orasida kim bilandir tanishasan, do'st tutinasan. Ko'nglingga o'tirishib qolsa, yana uchrashishga ahslashib, xayr-xo'shlashasan. Hayot poyezdidan esa kimki tushib qolsa, u bilan qayta ko'rishmaysan. Komil bevaqt tushib qoldi... Barvaqt, hech kutilmaganda tushdi. Quvnab turib, hali uzoq yurajagini aytib turib, poyezd to'xtamayoq tushib qoldi. Poyezd esa Yahyoni olib, yelib ketyapti...

Yahyo yelkasiga shu dardlarni olib paxtazorga tobora singib borardi. Uning kichkina gavdasini g'o'zalar borgan sari o'rab olardi.

Nozima undan ko'z uzmay qarab turdi. Yahyo dala-ning o'rtasiga bordi. Keyin birdan ko'rinnmay qoldi — o'tirib oldi, shekilli... Shig'il hosil tukkan g'o'zalar, bu keng dala uning dardini sig'dira olarmikin?..

Nozima bu ishning murakkabligini shu suhbatlardan keyin aniq his etdi. To'xtamish Omonturdiyev va Latofat Hamidovaga bo'lган gumoni ortdi. Komil Sadirov mast holda cho'milayotib cho'kkан yoki joniga qasd qilgan, degan xulosa yanada mavhum bo'lib qoldi. Bu da'vosini isbot etish uchun eksgumatsiyaga ruxsat olish lozim. Uning o'sha kuni mast bo'l'maganini tibbiy ekspert tas-diqlasagina kalavaning uchini topadi. Ana undan keyin eng qiyin jarayon — tugunlarni birma-bir yechish boshlanadi.

Xo'sh, Sadirov mast holda suvgaga tushmagan ekan, joniga ham qasd qilmagan bo'lsin, unda o'zi bir umr qo'rqqani — suvgaga tushishiga sabab nima? Omonturdiyev bilan Hamidova nima uchun chalg'itmoqchi bo'lishyapti? Hamidova nimadan cho'chiyapti? Nima uchun yigirma ikkinchi avgustda Sadirovni faqat shu ikkovi ko'rgan?

Nozima qaytguniga qadar shu o'ylar iskanjasida bo'lди. Sadirovning institutdan ketishi direktor uchun kutilmagan voqeа. Direktorning gapiga qaraganda, Sadirovni Omonturdiyev yo'lдан urgани. Qiziq, Omonturdiyev bilan Sadirov munosabati qanday ekan? Birga o'qishgan, oradan yetti yil o'tgach, Omonturdiyev Sadirovni sovxoziга ishga taklif qilgan. O'limidan keyin esa salbiy fikr bildiryapti?

Shu zaylda yondaftarchadagi so'roq belgilari ko'payib qoldi. Nozima institutga kelib, Sadirov haqida faqat ijobjiy gaplar eshitgan bo'lsa-da, aniq bir qarorga kela olmas edi. Ayniqla, dastlabki guvohlarning gaplari bilan bugungisi o'rtasida qarama-qarshilik mavjud ekan, tekshirmay xulosa chiqara olmaydi. Harholda, bular ikki yil avvalgi Sadirov haqida gapirishdi. Ikki yil badalida odam o'zgarib ketishi hech gap emas. Ammo qarama-qarshi fikrlariga asoslangan holda Nozima aniq xulosaga keldi — Sadirovning o'limi tasodif emas, qandaydir jinoyatning hidi anqib turibdi. Polkovnik ishni bejiz qo'zg'amagan ekan.

Uyga odatdagidan yarim soatcha kech qaytdi. O'g'li hovlida arg'imchoq uchyapti. Eri ayvonda yonboshlab olgan. Avzoyiga qaraganda, choy ham ichmaganga o'xshaydi. Muxtorning odati shu — ishdan ertaroq qaytsa, Nozimani kutadi. Birga choy ichadi. Nozima kech qoldimi, tamom, bir yoqda och qorinning g'alvasi, ikkinchi tomondan «Nimaga kechikyapti?» degan savolga javoban keladigan har xil o'ylar uchrashadi-yu, havoga quyuq qora bulut toshgani kabi fe'li ayniydi. Bunday paytlarda nima qilishni Nozima yaxshi biladi: eriga salom beradi, kiyimini tezgina almashtirib chiqadi-yu, oshxonaga sho'ng'iydi. Muxtor dam oshxonaga kiradi, dam bo'sag'ada turib piching toshlarini otadi. Nozima esa chidaydi. Erining gaplari ba'zan quyushqondan chiqqanda

ham, yuragi zirillab ketganda ham chidaydi. Shu bilan olam — guliston.

— Bugun unday bo'lmadi.

— Nozima oshxonaga o'tayotganda eri uni to'xtatdi:

— Bugun rayonga chiqmayman, devding-ku?

— Guvohlardan biri dalada tajriba o'tkazayotgan ekan, shunga borib keldim.

— Misorolda nima bo'pti, eshitmadingmi?

— Yo'q, nima bo'pti?

— Bankni urmoqchi bo'lishibdi-ku?

— Kimdan eshita qoldingiz?

— Ovqatga unnayver, hozir bilasan.

— Ayta qolmaysizmi endi.

Muxtor sirming bir uchini chiqarib, keyin yalintirishni yaxshi ko'rardi. U mammun jilmayib, chalqancha yotib oldi.

Yog' dog' bo'lmay, kichik qaynog'asi bilan ovsini kirib keldi. Ovsini to'g'ri oshxonaga qarab yurdi.

— Ha, opa, tinchlikmi? — dedi Nozima uning ko'zlarini qizarganini ko'rib.

— Tinchlik... Tinchlik bo'lmay o'lsin! — Ovsini shunday deb yig'lab yubordi. Nozima gazni o'chirib, uni tashqariga boshladi.

Muxtor chordana qurib o'tirib olgan, akasi esa ayvon panjarasiga suyanib turardi.

— Anavi kishining o'tirishlarini, tursangiz-chi, joy qilaylik, — dedi Nozima ayvonga yaqinlashib. Muxtor erinibgina o'rnidan turdi. Nozima chaqqonlik bilan joy solib, mehmonlami taklif qildi. Ular o'tirishgach, choy damlay, deb endi o'rnidan qo'zg'alayotgan edi, qaynog'asi unamadi.

— Kelin, bir yumush bilan keldik. Opangizning dardi bor.

Nozima ovsiniga qaradi: u quyi labini qimtib olgan, o'pkasi to'lganidan gapirolmas edi.

— Kecha Misorolda besh-to'rt mishiqi bankdagilarni qo'rqitmoqchi bo'lishibdi, — dedi qaynog'asi. — Shularning orasida opangizning ukasi ham bor ekan.

— Kim?

— Qodir-da. Hayronman, muttahamlarga qanaqasiga qo'shilib qoldi ekan u?!

Nozima ovsinining kenja ukasini yaxshi bilardi. Oila-ning erkasi bo'lgani uchun uni ko'pam tergashmasdi. Ovsini uning bebosh bo'lib ketayotganini, kechqurunlari daydib yurishi-yu kimdandir karateni o'rganayotganini gapirganda Nozima Qodir bilan uchrashib, nasihat qilib qo'ygan edi. Oilada bolaga qattiq turilmasa, bitta-ikkita nasihat kifoya qilarkanmi? Mana, oqibat... Ovsinining ahvoli-ruhiyasiga qaraganda, bolalar, qaynog'asi aytganday, bankdagilarni shunchaki qo'rqtigan emas...

— Men buni sizlardan eshitib turibman. O'zлari necha kishi ekan?

— Beshta.

— Hammasi Qodir tengimi?

— Chamamda boshqalari sal kattaroq... Gapisangchi, ov-v, axir, sen bilib kelding-ku?

— Hm, boshqalari kattaroq...

— Endi, kelin, temirni qizig'ida bosish kerak. Bola juvonmarg bo'lmasin. — Bu gapni eshitib Nozimaning ovsini ho'ngrab yubordi. — E, uvlamay tur, hali hech gap yo'q-ku, — u shunday deb Nozimaga qaradi. Hamisha kiborlik bilan boquvchi ko'zlarida xotiniga nisbatan zarracha achinish hissi yo'q edi. — Shu ishni to'g'rillasangiz bo'lmaydi.

— Nima bo'lganini bilmay turib...

— Nima bo'lsa ham aralashib, to'g'rila berasiz. Ilo-jini topib bugun yo ertaga ertalab tergovchi bilan uchra-shasiz. Jiyanboyev degan odam ekan, tanirsiz? Og'ziga siqqanini so'rasin. Ish to'g'ri bo'lib ketsa, sizni ham xursand qilamiz.

Bu gapdan Muxtor og'rinib, bir qimirlab oldi. Nozimaning vujudida birdan portlagan g'azab tomog'iga tiqildi. Agar unga to'g'ridan to'g'ri: «Sen poraxo'rsan», deyilsa, garchi bu tuhmat bo'lsa-da, unchalik alam qilmasdi. Nozimaning boshqa narsadan x□rligikeldi: u jinoyatning izini pul bilan yopmoqchi bo'lgan odamlarga toqat qilolmasdi. U hali maktabda o'qib yurgan kezlarida, tergovchi bo'lish xayoliga ham kelmagan paytda, ikki

akasi, tog'ni ursa tolqon qiladigan yoshdagi ikki norg'ul yigit o'ynab-kulib ziyofatga ketib, ertasiga... jasadlarigina qaytib kelgan edi. Qotillarni o'sha kuniyoq qo'lga olishdi. Bir dasturxon atrofida o'tirib, yeb-ichib, bir gap bahonasida janjal qo'zg'algan-u ish odam o'ldirish bilan tugagan. Qotillar ayon, guvohlar ayon, ammo tergov, sud jarayoni uzoq cho'zilgan edi. Oraga pul aralashib, jazoni yengillatish yo'li qidirilayotganini Nozima, faqat Nozima emas, hamma sezib turardi. Biroq ularga qarshi biror ish qilishga otasi yo'l bermasdi: «Bular otilgani bilan o'g'llarim qaytib kelarmidi, qo'yaveringlar, fatvosini topishsa, ozod qilishaverishsin». Shu bilan hamma dardini ichiga yutgan, biroq o'shandan beri Nozmaning ko'nglida pora bermoqchi bo'lganlarga nisbatan beayov bir nafrat uyg'ongan edi.

Hozir ana shu nafrat birdan bosh ko'tardi. Qaynog'asiga butun zahrini sochishni, sochib-sochib xumordan chiqishni istadi. Biroq ayollik, kelinlik ibosi bunga yo'l bermadi.

— Aka, meni pora oladi, deb o'ylarmidingiz? — dedi u alamini ichiga yutib.

— Bu poramas, suyunchi, hamma narsani pora deyarverar ekan-da?!

— Gapingizga qaraganda, Jiyanboyevga uchrashganga o'xshaysizlar. Nima dedi?

— Darrov nima derdi? Qo'rsgina odam ekan. Unga nima, ishni qancha orqaga sursa, shuncha yaxshi. Chigalni ko'paytirsa, tushumi ham tuzuk bo'ladi. Shuning uchun otni qamchilash kerak. Qush tilini qush biladi. Har bitta ish uchun oladigan ma'lum-ku.

— Aka!..

— Nima, aka! E, qiziqsiz-a, men gapiradigan bo'lsam, ko'rib, bilib turib gapiraman. Agar shunaqa oldi-berdilar bo'lmasa, tomga chiqib baqirsangiz ham arzirdi. Ha, kim olmaydi? Oladi. Pul bo'ladi-yu olmaydimi? Siz olmassiz, to'g'ri, lekin Jiyanboyevningiz oladi. Ko'zidan bilinib turibdi. Ikkita beramiz desak: «Nima, men pora xo'rmanmi, xuddi o'zingizni ham qamayman», — deb do'q uradi. Uchta desak: «lye, qo'ying bu gapni», —

deydi, to'rtta desak: «Shunaqasi ham b□ladimi?» — deb hirninglaydi. Q□lig abeshta tutqazsak: «Bolani o'zingiz olib ketasizmi yo olib borib qo'yaymi?» — deydi. Ana shunaqa, kelinjon, hayotda ko'raverib pishib ketganimiz.

— Aka, qo'limdan nimaiki yaxshilik kelsa, opam uchun qilaman. Opamning dardi — mening dardim. Lekin borib Jiyonboyevga mana buni oling-da, bolani qo'yib yuboring, deya olmayman.

— Bu ishga aralashmayman, demoqchimisiz?

— Men faqat surishtirib...

— Nimasini surishtirasiz, hammasi ma'lum-ku?

— To'xtang, dadasi, mayli, surishtirib ko'rsinlar. Nozimaxon, umringizdan baraka toping, ishqilib topgan-tutganlaringiz Dilshodjonning to'ylariga buyursin, yana qo'sha-qo'sha o'g'illar ko'ring, nima ketsa, bizdan ketsin, yordam bering.

— Yordam beradi, bo'ldi, — dedi Muxtor. U Nozimaning e'tirozga og'iz juftlaganini ko'rib, gapni shartta kesdi. Nozima erining maqsadini tushundi — bularga gap uqtirib bo'lmas edi. Shuning uchun qisqa qilgani ma'qul.

Mehmonlar ovqatga o'tirishmadi. Ovsini duo qila-qila, qaynog'asi: «Sal evi bilan so'rasin, ishxonada obro'yingiz bordir, axir», — deb xayrlashdi.

Nozima yana oshxonaga kirib ketdi.

Ovqat pishay deganda qaynonasi qo'shnisiniidan, qaynotasi choyxonadan chiqib keldi.

Ovqatdan so'ng qaynonasi «o'□liniñboshiga (ya'ni o'rtanchasining) tashvish tushganini, nima qilib bo'lса ham bolani chiqarib olish lozim»ligini tayinladi.

Nozima bankka hujum qilishning oqibatini yaxshi bilgani uchun ham □rtagushib, «ishni bir yoqli qilish» niyati yo'q edi. Qaynog'asini yoqtirmagani sababli emas, balki Qodirning bu jinoyatga kirib kelish tarixini bilgani tufayli ham yordam berishni o'ylamasdi. Qodir bu qorong'i ko'chaga barvaqt kirgan, u yer-bu yerda ko'ringan yalt-yult chiroqlar xayolini o'g'irlagan edi. Hozir uni jazodan olib qolishsa, ertaga bu ko'chaga yana kiradi. To peshanasi taq etib devorga tegmaguncha ko'zi ochilmaydi. Ba'zi adashgan bolalarini bu ko'chadan tez

qaytarish mumkin, ammo yaltiroq hayotning ta'mini totganlarning ishi qiyinroq. Qodir shu toifadan edi. Qodirni ozod qilish qo'lidan kelmasligini uydagilarga isbot etish uchun avval jinoyat tafsiloti bilan qiziqib ko'rishi lozim edi. Shu sababli ishga kelgan zahotiyoq Jiyanboyevga uchrashishni niyat qilib borayotgan edi, tergovchining o'zi ro'paradan chiqib qoldi. Sochlarni tepaga tarab, hamisha orasta kiyinib yuruvchi Jiyanboyev Nozimani ko'rib, to'xtadi. Qoshlarini chimirib, salomlashdi.

— Ko'rganim yaxshi bo'ldi, menga qarang, Qosimova, sizni ogohlantirib qo'yemoqchiman: bundan keyin menin uyimga qarindoshlaringizni yubormang. Men pachakilashib o'tirmayman.

Bu dag'dag'a Nozimaning miyasiga chaqinday urilib, dovdiratib qo'yidi.

— Kimni... qanaqa...

— Nimaga talmovsiraysiz? Bir piyola choy ichishga ham ulgurmadi. Bostirib borishdi. Avval ko'z yoshi, keyin falon-pismadon va'dalar. Bundan nimaning hidi kelayotganini sezyapsizmi?

— Kechirasiz, Asad Jiyanboyevich, o'rtoq kapitan... men tushunmayapman.

— Demak, siz hech kimni yubormagansiz?

— Sizdan eshitib turibman.

— Tushunarli, odatdag'i nayrang. Hali mingta odamni ro'para qilishadi.

— Lekin... agar Misoroldagi voqeа bo'yicha borishgan bo'lsa, ularni taniyman, to'g'rirog'i, qarindoshligi bor... Turmush o'rtog'im tomonidan.

— Shunday deyishdi. Xo'sh?

— Men shu masalada sizga uchrashmoqchi edim.

— O'rtaga tushishni o'ylamang. Bu, — Jiyanboyev ko'rsatkich barmog'i bilan yuqoriga ishora qildi, — nazoratida.

— O'rtaga tushmoqchi emasman. Agar mumkin bo'lsa, nima gapligini bilib qo'yemoqchi edim. Tushuntirishim kerak ularga.

— Tushuntirish? Chuchvarani xom sanar ekansiz. Hozir ularning qulog'iga gap kiradimi? Endi ular zada

bo'lgan jonivorday o'zlarini har teshikka urishadi. Sizdan ish chiqmasa, boshqaga, boshqadan ish chiqmasa, — Jiyانboyев ko'rsatkich barmog'i bilan yana yuqoriga ishora qildi, — yo'l topishadi. Lekin bir ish chiqarishlari qiyin.

— Jinoyat nima deb izohlanyapti?

— Banditizm.

— A?

— Ha, siz nima deb o'ylovingiz? Besh kishi. Uchtasida pichoq, qolganida qirqma miltiq. Ikki kishi yaralangan. Bittasining ahvoli og'irroq. Qarindoshingiz chetda turganda ham, jinoyatchilarining sherigi sifatida ja-zolanardi. Buni o'zingiz yaxshi bilasiz. Lekin u jim turmagan. Bevosita ishtirok etgan. Qochmoqchi bo'l-gan. Keyin militsionerning jag'ini yorvoray degan. Karateni bilarkan u tirrancha. Sheriklari katta yoshdagi yigitlar. Bittasi avval sudlangan. Boshlig'i o'sha bo'l-sa kerak. Lekin qarindoshingiz: «Men boshliqman», — deb turibdi. Bu tirranchalar qonunni besh qo'lday bilishadi. Hali o'n oltiga to'lмаган, demak, banditizmda ayblab bo'lmaydi, shundan foydalanib sheriklarining gunohlarini kamaytirmoqchi. Tushunyapsizmi, hammasini puxta o'y-lashgan — bank olinsa pul qanday bo'linadi, qo'lga tushilsa kim nima deyishi kerak, qanday chalg'itish lo-zim — obdan kelishilgan. Hali bu ish ancha gap-siz bo'ladi. Yana savollar bormi?

— Yo'q, rahmat.

— Xo'p, xayr, — Jiyанboyев shunday deb nari ketdi-da, bir-ikki qadam yurmay to'xtadi. — Ha, Qosimova, og'ir ahvolda qolganga o'xshaysiz. Eringizning qarindoshi bo'l-sa, qulog'ingizni tinchitishmaydi. Siz ularga tushuntirib o'tirmang: «Tergovchi bilan gaplashdim, uch-rashing», — deng, vassalom. U yog'ini o'zim boplayman. Ikkinci og'iz ochmaydigan bo'lishadi. Yoshroq juvon bolaning opasi, shekilli? O'sha kelsin. Boshqa odam kelsa ham mayli. Faqat anavi jikkak, o'g'riko'z qorasini ko'rsatmasin. Pora bermoqchi, deb qamatib yuboraman-a!

— Yo'q, yo'q, unday qilmang.

— Eringizning qarindoshi o'shami?

— Ha, akalari.

— Xudo bergan ekan, xo'p, omon bo'ling.

Nozima xonasiga kirishi bilan polkovnik Sultonov y□qlayotganiniaytishdi. U Komil Sadirovning o'limi haqidagi «Ish»ga qo'shilgan yangi sahifalarni olib, qabulxonaga keldi. Sultonov band ekan, kutdi. Birozdan keyin xonadan Jiyanboyev chiqdi, Nozimaga qarab: «Ko'r-dingizmi, jiddiy ish bu», — deganday imo qilib qo'ydi.

— Xo'sh, o'rtoq leytenant, qanday yangiliklar bor? — dedi Sultonov uni qarshi olib.

— Ishni o'rganyapman.

— Qani, eshitaylik-chi?

— Mahalliy organning ikki guvoh-u bir nodonning spravkasiga ishonib jinoiy ish qo'zg'amagani meni shubhalantiryapti.

— Xo'sh, xo'sh?

— Men Sadirov ishlagan institutda bo'ldim. U yerdagilaming gapi bilan avvalgi guvohlarning ko'rsatmasi orasidajiddiy qarama-qarshilik bor. —Nozima qog'ozlarni ochib, gapiraveraymi, deganday polkovnikka qaradi. Uning diqqat bilan quloq solayotganini ko'rib davom etdi: — Dastlabki guvohlar Sadirov mayparast edi, hamisha mast yurardi, voqeа sodir bo'lgan kuni ertalab ham kayfi taraq edi, deyishadi. Institut direktori, marhumning eng yaqin do'sti esa ichmasligini ta'kidlashdi.

— Mutlaqo ichmas ekanmi?

— Pivoni yaxshi ko'rар ekan.

«To'g'ri», — deb qo'ydi polkovnik o'zicha.

— Demak, mast holda suvgaga tushib ketgan, deb taxmin qilish ham noo'rin. Lekin keyingi guvohlar Sadirovni avvalgi odatiga asoslanib gapirishdi. Pivoni ichgan odam istagan paytida aroq ichib, g'irt mast bo'lib dumalab qolishi mumkin.

— Qani, davom etavering-chi?

— Mast holida cho'milmoqchi edi, degan taxmin ham noto'g'riga o'xshaydi. Guvohlarning aytishicha, Sadirov suzishni bilmagan.

— Yana?

— O'zini o'ldirgan, degan taxminda ham shubha

bor. Yon-atrofdagilar hamisha unga yaxshi munosabatda bo'lishgan. Iste'dodini qadrlashgan. Ruhan ezilishi uchun asos yo'q. Aksincha, o'n to'qqizinchı avgust kuni Moskvadan xush kayfiyatda qaytgan ekan. Ilmiy taxminining isboti uchun kosmonavtlar yordam beradigan bo'lishibdi. Demak, bu ruhiy holatda odam o'zini o'zi o'ldirish kayfiyatidan yiroq bo'ladi. So'nggi taxmin: avvalgi guvohlarning ko'rsatmasida Sadirov Hamidovaga tegajog'lik qilardi, degan ma'lumot bor. Keyingilarning gapiga qaraganda, Sadirov oilasi bilan inoq bo'lgan. Suyuqligi sezilmagan. Demak, Hamidovaga... Hamidovani zo'rlab, so'ng qo'rqqanidan o'zini o'zi o'ldirgan, degan taxmin ham shubhali.

- Yana?
- Hozircha shu.
- Ikki kunda hamma yoqni gumonga to'ldirib tashlab-siz-ku?
- Boshqa iloj yo'q.
- Taklifingiz?
- Eksqumatsiya qilish kerak. Shunda jinoiy ish qo'zg'ash uchun dalil topilishi mumkin.
- Jinoiy ish... Balki suvg'a tasodifan tushib ketgandir?
- Yo'q, o'rtoq polkovnik, sovxozi direktori, Hamidovaning xatti-harakati shubhali... Kapitan Odilov ham...
- Ularni qotillikda ayblamoqchimisiz?
- Hozircha bir narsa deyish qiyin.
- Eksqumatsiyadan keyin nima qilmoqchisiz?
- Sadirov o'qigan institutga boraman. Sadirov, Omonturdiyev, Sadirova birga o'qishgan ekan. Surishtirib ko'rish kerak. Balki oralarida eski adovat bo'lgandir?
- Keyin-chi?
- Sadirova bilan hali gaplashganim yo'q. Baxtobodda ekan.
- Baxtobodda?
- Ha, Sadirovning ota-onasini kida. Sadirovni o'sha yerda dafn etishgan.
- Keyin-chi? Keyin nima qilasiz?
- Nozima bu yog'ini o'y lab ko'rмаган edi.
- Voqeа sodir bo'lган joyni qachon aniqlaysiz? Sa-

dirov suvgaga qayerdan tushgan, qachon tushgan, murdani qachon olishgan, qayerdan olishgan, ust-boshi qanaqa edi? Buni o'ylamadingizmi? Ishni kapitan Odilov bilan gap talashishdan emas, mana shularni aniqlashdan boshlash kerak edi.

— O'rtoq polkovnik...

— Endi tushuntirmay qo'ya qoling. Bo'lgan gap bo'lib o'tgan. Bu sizning birinchi mustaqil ishingizmi? Hechqisi yo'q, asta-sekin o'rganasiz. Bu ishni topshirganimizdan norozi emasmisiz?

Nozima javob bermay, bosh egdi.

— Singlim, bu sohaga nimalarni orzu qilib kirkansiz, bu menga noma'lum. Har qalay, ayol boshingiz bilan mushkul kasbni tanlabsiz. Endi og'irliklariga chidashga majbursiz. Chidashga ko'zingiz yetmasa, hali kech emas. Bu orzu-havas uchun qiladigan ish emas. Undan keyin, ikki qulog'ingizga quyib oling: bizda kichkina, katta ish yo'q. Jamiyatga zarar beradigan zarracha jinoyat ham biz uchun jiddiy ish bo'lishi kerak. — Nozima polkovnikning gaplarini indamay eshitdi. Ko'zini yerdan uzmadidi. Shuning uchun Sultonov gapni qisqa qildi: — Tushungan bo'lsangiz, manavi xatni ishga tikib qo'ying, jiddiy tani-shing, kalavaning bir uchi shu xat egasining qo'lida.

Sultonov shunday deb Nozimaga katak daftarning bir varag'iga yozilgan xatni uzatdi: «Komil akaning o'zi ch~~□~~kmadi tekshiringlar». Xatni o'qidi-yu, Nozima yalt etib polkovnikka qaradi:

— Kim yozibdi?

Sultonov kulimsiradi.

— Bu savolga javobni men sizdan olmoqchiman. Eks-gumatsiyani yaxshi o'yabsiz. Ekspertlarni oling. Qiynalib qolsangiz, istagan paytingizda o'zimga uchrashing.

Nozima rahmat aytib, chiqib ketdi.

Sultonov Sadirovni tanishini Nozimaga atayin bilda-madi. Bu ishga xalaqit berishi mumkin edi.

Ikki kunga Baxtobodga ketayotganini Nozima eriga qanday aytishni bilmadi. Kechqurun xoli qolishgach, Jiyanboyev bilan uchrashganini, jinoyatning jiddiy ekanini tushuntirdi.

— Baloga qolganing rost bo'libdi, — dedi Muxtor uning yelkasiga qo'l tashlab. — Mening ham qulog'im tinchimaydi. Yana bitta shunaqa ish boshingga tushsa, kasbingni o'zgartirishga rozi bo'lganiningni o'zing ham bilmay qolasan.

— To'g'ri aytasiz... Adasi, men ertaga rayonga chiqishim kerak.

— Chiqaver.

— Ikki kunga.

— Ikki kunga? Bir o'zingmi?

— Uch kishimiz. Ikki ayol, bir erkak.

— Kim ular?

— Sudmedekspertlar.

— Ikki kun nima qilasizlar?

— Eks... murdani go'rдан olib tekshirish kerak.

— A? — Muxtoming eti junjikib ketdi. — Senam tepasida turasanmi?

— Boshqa ilojim yo'q. Ishni men tekshiryapman-ku?

— Bunaqa gaplarni menga gapirma...

Ekspertlar Nozimaning gumanini tasdiqlashdi: voqeа sodir bo'lган kuni Sadirov ichmagan ekan. Orqa miyasiga o'tmas narsa bilan urilgan. Murdaning o'ng qo'l panjasи usti tirnalgan. Ekspert bu iz ayol kishining tirnoqlaridan qolganini aniqlab berdi. Nozimaning ko'z o'ngiga Lato-fat, uning bejo ko'zлari keldi. «Sadirov Hamidovani zo'r-lamagan», — degan yozuv ro'parasiga so'roq belgisi qo'ydi. «Orqa miyaga urilgan...» Shuning o'ziyoq «baxtsiz hodisa» degan xulosani to'laligicha inkor etardi.

Eksgumatsiya davrida xolis guvoh sifatida chaqirilganlardan biri Sadirovning muallimi ekanini bilib, Nozima u bilan suhbatlashdi. O'zini Mahkam Xonaliyev deb tanitgan bu odam Komilning bolaligini ko'p gapirdi, ammo uning hikoyalaridan Nozima ish uchun biror yangilik olmadi. «Oxirgi marta qachon ko'rgan edingiz?» — degan savoldan so'ng muallim shaharga tushganini, Komilni daladan topganini, charxpalak haqida gapirib bergenini, restoranda o'tirganini, sovxoz direktori ziyoфat bergenini, Komilning oldidan juda xursand qaytganini va nihoyat, oradan bir kun o'tmay, Komilning o'zi yetib kelganini aytib berdi.

XIYONAT

(1980-yil erta kuzdagi voqeanning davomi)

Mahkam aka Komilning qo'qqisidan kirib kelishidan ajablanmadi. Uning salomiga xotirjam alik olishidan, tagdor qarashidan: «Kelishingni bilardim, bunga imonim komil edi», — degan ma'noni o'qish mumkin edi. Komil, muallim meni ko'rib xursand bo'lар, quchoq ochib kutib olar, deb o'ylamagan ham, kutmagan ham edi, shu bois Mahkam akaning muomallasidan dili og'rimadi. Aksincha, u o'zini ranjigan muallimining norozi qiyofasiga, ta'nadashnomlariga tayyorlagan edi. Yo'q, Mahkam aka restoran voqeasini hatto shama qilib ham eslatmadi.

O'sha kuni muallim poyezdda kela-kelgunicha, bekatga yarim kechada tushib, o'n chaqirim naridagi qishlog'iga piyoda yetib olgunicha Komilni, restoranni... o'yaldi. Muallim: «Restorandagi ziyofat xarajatlarini to'lab to'g'-ri ish qildimmi?» — deb o'ziga-o'zi savol bermadi. Chunki u tabiatan mulohazali odam, o'ylab ish qiladi. Restorandagi dasturxon haqini to'lashi sovxoz direktoriga emas, Komilga shapati bo'lib tushishini bilardi, bu shapati shogirdining ko'zini ochishiga ishonardi. Biroq u Komilni shunday ziyofatlarga o'ch, degan yanglish xayolga borgan edi. Zohiran muallimning adashmog'i o'rinli: Komil hali unvoni bo'lmasa ham, paxta bilarmonlaridan hisoblanadi. Hali u, hali bu rahbar ish bilan unga murojaat etadi. Hozir quruqdan quruq «murojaat» etish rasmi yo'q. Dard-hasrat, albatta, «bir piyola choy» ustida aytilishi kerak. «Bir piyola choy»ning nimaligi ma'lum, restoran, ziyofat...

Muallimning o'yи shunday edi. U Komilning otasini yaxshi biladi: vijdonli, kamsuqum odam. Shunday kishining o'g'li mo'ltoni bo'lishi mumkinmi? Muallim: «Shahar sharoitida odam yomon tomonga o'zgarib ketishi mumkin», — deb hisoblab qisman yanglishar edi. Qisman, deyishimizning boisi fe'l-atvori buziladigan yigit-qizlar ham mavjud. Bundaylarning ruhiy poydevori aslida bo'sh bo'ladi. Qishloqning ma'naviy havosi ularning kavak vujudlarini pufakdek shishirib, to'ldirib turadi. Shaharda bunday havodan mahrum bo'lgach, asliga qaytadi: noz-

ne'mat, yasan-tusan, yaltiroq narsalar ko'zini ko'r qilib qo'yadi, sovuq temir odamga aylanadi. Ma'naviy mag'zi butun odam esa ota-onasini, yaqinlarini qishloqda qoldirib, nima uchun shaharda yurganini unutmaydi. Shaharda nima maqsadda qolgan bo'lsa, shu niyatlariga erishish uchun tirishib, talashib yashaydi. Atrofidagi bezakli hayot xayolini o'g'irlay olmaydi. Komil shunaqa toifadan edi. Mahkam aka buni farqlay olmadi. Ko'pchilik birinchi toifadan o'lchov olib xulosa chiqarishga odatlangan. Chunki ikkinchi toifa birinchisining soyasida qolib ketadi, uncha-muncha odam buni ilg'ab ololmaydi. Umuman, odam nimani yoqtirmasa, qaysi ma'naviy xastalikdan hadiksirasa, biron-bir yaqinroq kishisining shu kasallikka chalinib qolishidan cho'chiydi. Bu o'y xayolida uzoqroq saqlansa, nazarida haqiqatga aylanadi va o'sha yaqin kishisining ahvolidan ranjiy boshlaydi. Mahkam aka ham shu holatda edi.

Restorandagi voqeа chindan ham Komilga shapati bo'lib tushdi. Ammo u muallimning maqsadini boshqacha anglatdi. «Mahkam aka e'tiborsizligimdan, uyga taklif etmaganimdan ranjidi», — deb o'yldi. Muallimning yuqorida zikr etganimiz, xayollari yetti uxbab, bir tushiga kirmagan edi.

Shu asnoda muallim bir o'y bilan, shogird o'zga fikr bilan uchrashdilar.

Novdalari hafsala bilan qizlarning qirq kokiliday taralgan, g'uj-g'uj uzum boshlari ko'zni oladigan baland ishkom ostidagi suyanchiqsiz so'rida o'tirdilar. Mahkam aka chordana qurib oldi. Komil oyoqlarini pastga osiltirib, sal bukchayibroq o'tirdi.

Hol-ahvol so'rash kattalardan lozim, Komil bu udumni unutmagan edi, muallimga «sorang» deganday savol nazari bilan qaradi.

— Qiynalmay yetib keldingmi?

— Kelib-ketib yurgan joyimiz...

— Otang bardamginami, xursand bo'ldimi?

— U yoqqa hali kirganim yo'q. To'g'ri siznikiga tushdim.

— Meni izzat qilganing uchun qulluq. Ammo avval ena-otani yo'qlash lozim.

Komil indamadi. Qo'lida muallimga atalgan sovg'a-salom bor edi, shuning uchun uyiga kirmaganini aytib, tushuntirish ortiqcha.

— Shaharda tuzukroq gaplasha olmadik. Charxpalak haqidagi gapingiz miyamga o'rnashib qoldi.

— Ha-a... — Mahkam aka bir qimirlab oldi. Yuziga g'olib odamning mammunligini oshkor qilguvchi nim kulgi yugurdi. — Men bu gapni nazarga ilmading, debman. Aytganimga pushaymon yeb, bir chalailm o'zicha charxpalak yasagandir, olim bolalarning miyasini nimaga achi-tasan, deb o'tiruvdim.

— Mahkam aka, piching qilsangiz ham mayli. Ammo men o'sha narsaga astoydil qiziqib qoldim. Kelishimning sababi ham shu. Chigitkuydiga bir borib kelishning iloji yo'qmi?

— Nimaga iloji bo'lmas ekan. Men hozir bekorchi odamman. Yuring, desang, bas, ketaveramiz.

— Bugun ketsak bo'ladimi?

— Shoshilyapsanmi?

— Ikki kunga ruxsat tekkan.

— Yangang oshga unnadi. Osh pishguncha ena-otangi ko'rib kel. Qorinni to'qlab, yo'lga chiqamiz.

Muallim aytganiday bo'ldi.

Mahkam aka osh dam yeguncha transport masalasini ham pishitib qo'ygan ekan.

Tog' yonbag'ridagi qishloqqa poda qaytayotgan ma-halda kirib borishdi. Paxsa devorlar, pastak tomli loy-suvoq uylar podadan ko'tarilgan chang pardasi ortida oqarinqirab ko'rindi.

— Ilgari bu imoratlar, devorlar ko'rindas edi, — dedi Mahkam aka ichki bir afsus bilan. — Ko'm-ko'k gilamga o'xshardi. U bog'lar yana qayta ko'karguncha...

— O'ylanmay qilingan ishning oqibati-da bu, — dedi Komil.

— Ilmda o'ylanmay bir ish qilish kerakmas. Yangilik o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, bilaman. To kashfiyotga yetib kelguncha qancha yanglishishlar bo'ladi. Lekin odamlarning taqdiri bilan bunaqa o'ynashish yaramaydi. Yoppasiga ko'chirmay, hech bo'lmasa yarmini, yoshroq

oilalarni yuborishsa ham mayli edi. Qolganlar qishloqni obod qilib o'tirardi. Endi nima bo'ldi, cho'lda bir qishloq tiklandi, bunda yashnagan qishloqning rangi o'chdi. Odamlar baribir ota qishloqlariga birin-sirin qaytishyapti. Bu yerlardan ham foyda ko'p ekan, yangi sovxozi qilishdi. Shuni oldindan o'ylashsa asakalari ketarmidi?

— Kalta o'ylaganlarning ilmga nima aloqasi bor?

— Men bir narsaga tushunmayman. Bitta qishloq yashnadimi, qurib qoldimi, unchalik katta gap emas. Yerimizning cheki-chegarasi yo'q, sezilmaydi. Lekin Orol dengizining qurib borayotganini eshitib hayron qolaman. Daryolarning suvi cho'llarga tortilyapti. Cho'l obod bo'lyapti, dengiz chekinyapti. Oqibatini o'yla-chi, ilmga daxldormikin? Oltmishto'rт yarim ming kvadrat kilometrda yangi cho'l paydo bo'lmaydimi? Bir emas, salkam yettita Mirzacho'l paydo bo'ladi! Kattaligi jiha-tidan Yer yuzida to'rtinchi hisoblangan dengizning yo'qolishini tasavvur qilgin?

— Tasavvur qilyapman, Mahkam aka, boshqalar ham shu masalada bosh qotirishyapti. Eng yuqori tashkilotlarga o'layapti buni.

— Ana ko'rdingmi, eng yuqori tashkilotgacha! Avvalroq o'ylamay qilingan ishning oqibati endi hammani tashvishga solyapti.

Komil muallimga ajablanib qaradi. Mahkam aka bu gaplari bilan uni ikkinchi marta hayratga soldi. Bu bilim, bu gaplar, bu dard unda avvallari, Komil o'quvchi ekanida ham bormidi yo keyin paydo bo'ldimi?

— Mahkam aka, siz bu gaplarni darsda aytmas edingiz?

— Darsda? — muallim istehzo bilan iljaydi. — U paytda aytganim bilan tushunmasdilaring.

— Tushunadigan qilib gapirsangiz, tushunardik.

Ko'nglidagi gaplарини очиқ айтib kelayotgan Mahkam aka birdan boshi berk ko'chaga kirib qolgандай bo'ldi. Axir uning ko'ngliда qanchадан qanchа gapлari bor edi. Hamqishloqlарим ilmdan uzoq dedi, ular bilan dardlasha olmади. Bolalar hали g'o'r, tushunmaydi dedi, ularga yuragini ocholmади. Faqat gohi-gohida institutda o'qiy-

digan yoki tahsilni bitirib shaharda ishlayotgan shogirdlari bilan uchrashganda, dilkash suhbat qurilguday bo'lsa, ichida saqlab yurganlarini aytardi. Biroq ko'p hollarda aytib taskin topmasdi. Shogirdlari bu gaplarga yoki tushunishmasdi, yoki befarq qarashardi. «Tushuntiradigan qilib gapirsangiz, tushunardik...» Demak, o'sha shogirdlarining befarqligiga o'zi aybdor ekan-da? Bu xulosadan kutilmaganda tutaqib ketdi. Zardasi qaynadi. Go'yo barchasiga Komil aybdorday unga o'qrayıdi:

— Programmada yo'q edi bu gaplar, bilasanmi? Haq-qim yo'q edi senlarga aytishga. O'zing o'ylab ko'r-chi, Orolning qurishiga fizikaning nima daxli bor?

Komil muallimning bu qadar tez lovullashiga hayron bo'ldi.

— Siz xafa bo'l mang, Mahkam aka, bu hamma o'qituvchilarga tekkan kasal. Programmadan bir enlik chetga chiqishga qo'r qishadi.

— Xo'sh, seningcha nima qilish kerak?

— Yuqorida tasdiqlangan programma — umumiy yo'naliш. Lekin har bir o'qituvchinining o'z programmasi bo'lishi kerak. Chunki uning boshqalardan farq qiluvchi o'z o'quvchilari bor. O'quvchilar yildan yilga o'zgarib boraveradi, programma esa o'sha-o'sha. Mana, biz boshqa edik, bugungi bolalar boshqa, to'g'rimi? Lekin siz bizga elektr paydo bo'l shini qanday tushuntirgan bo'lsangiz, bularga ham shunday tushuntirasiz. Hozirgi bolalar televizorga mixlanib o'tirib, ko'p narsani o'rganadi. Siz bizga Nyuton unday kashfiyat qildi, Om bunday, deb dars o'tgansiz. Nyuton qanaqa odam edi, Om qanaqa edi, bilmaymiz. Darsda olimlar shaxsi hamisha chetlab o'tiladi. Nazarimda, siz xafa bo'l mang, Mahkam aka, ko'p o'qituvchilar olimlarning shaxsiy hayotini o'zlar ham bilmaydilar. Aytaylik, bir o'quvchingiz bir olimga ixlos qo'ydi. Ilmiy kashfiyotlarini o'rganib chiqdi. Kelajakda shu soha egasi bo'l shiga ahd qildi. Institutga kirdi. Ikkinchimi, uchinchimi kursdaligida o'sha olim shaxsi haqidagi ma'lumotga duch keldi: u uzoq yillar ixlos qilgan buyuk olim — do'stlariga sadoqatsiz, shogirdlaridan faqat o'zini maqtashni talab qiladigan manman, ota-onasini

tashlab ketgan... xullas, odamzod hazar qiladigan illatlar egasi bo'lsa!!! O'sha shogirdingizning ahvolini tasavvur qiling. Qo'lini yuvib, qo'litiqqa urmaydimi?

— Shunaqa degin. Demak, seningcha, olimlarning shaxsini bolalarga ochishimiz kerak ekan-da? Demak, bola olimga mehr qo'y may, unga ergashmay, maktabdayoq «qo'lini qo'litiqqa urishi» kerak ekan-da? Olim ham tirik odam. Uning qobiliyatiga yarasha sen aytgan illatlar ham katta bo'ladi. Buni tarozi pallasiga solish kerak, odamzodga uning qobiliyati mahsuli zarur. Illati u qadar zararli emas. Manman yoki bemehr bo'lsa, uch-to'rt odam jafo chekar. Dunyoda bemehr, manman kammi? Ammo kim tortish kuchini ixtiro qildi? Kim nisbiyat nazariyasini yaratdi? Necha olim kashfiyotini deb qurban bo'lib ketdi? Ularning ham bola-chaqalari, ota-onalari bor edi. Bizning o'lchovimizda ular ham bemehrlik qilganlar.

— Mana shularni sinfda muhokamaga tashlash kerak-da. Bolalar o'ylasin, bahslashsin, oq-qorani ajratishsin. Qachongacha formula yodlab kun kechirishadi? Bola bir xil programma asosida harakat qiladigan robot emas-ku? Yaqinda bir kino ko'rdim. O'quvchi adabiyot darsida: «Tolstoyni o'qimayman», — dedi. Tolstoyni-ya! «Tolstoy yoshligida buzuq bo'lgan, ko'p noma'qulchiliklar qilgan ekan, o'zining «Tavba»sida o'qidim, undan ko'nglim qaytdi», — deydi. Qarang, bola bularni bilib, dahshatga tushgan. □ qituvchi «Yozuvchi ham odam, kamchiliklari bo'ladi», — deb tushuntirishi mumkin edi-ku? Yo'q, bu programmada yo'q gap. She'r yodlatish kerak, formula yodlatish kerak. Kim yaxshi yod olsa — besh. O'sha she'rga yoki formulaga tushunadimi-yo'qmi, baribir. Oqibatda qo'liga oltin medal tutqaziladi. Men bir narsaga hayron qolaman. Mahkam aka, katta-katta olimlarimizning tarjimayi holiga qarasam, oltin medallilari kam. Har yili necha ming oltin medalli o'quvchi chiqadi. Ular qayerga izsiz singib ketyapti?

— O'-o'... sen qarichni juda katta olyapsan.

— Men baribir sizga qoyilman, Mahkam aka.

— Nimaga?

— Bizga aytmasangiz ham, shuncha dardingiz bor

ekan. Ko'proq ayb bizda. Biz bir narsaga qiziqib, atrofingizda o'ralashaver ganimizda, bir kunmas, bir kun aytardingiz. Dengizning qurishini fizikaga aloqador jihatlarini ham topib, tushuntirardingiz. Biz bularni o'ylamay, paxtaning orqasida o'ralashib yuraverganmiz.

— Bu gaping ham to'g'ri.

Muallimning ko'ngli sal yorishdi.

Ular qishloqning tuproq ko'chalarini oralab, bir hovliga kirishdi.

— Otameros uyim — shu, — dedi Mahkam aka. — Jiyanlar turishibdi.

Hovli sahni tor, imoratdan o'n qadamcha naridan behizor boshlanib ketgan. Ariqdan tiniq suv oqib yotibdi. Uning tubidagi qip-qizil o'tlar yayrab to'lqin uradi. Buni ko'rib Komilning bahri-dili ochildi. Shaharda-ku suvo'tlari anqoning urug'i bo'lib qoldi, hatto qishloqda ham bu manzara kam uchraydi. Bu o'tlar toza suvdagina o'sadi. Shahar ariqlaridagi suvga faqat kalamushlar chidaydi, hatto qora zuluklar ham qirilib ketdi...

Hovlida uzoq turishmadi. Jiyanlar hali ishdan qaytishmabdi, kelinlarning yumushi ayni qizigan payt — poda qaytgan. Muallim Komilni bostirma ortiga boshladи. Chiriy boshlagan, yo'g'onligi chaqaloqning belidek keldigan, uchli tomoni tishli g'ildirak — shesternyasimon o'yilgan xodachalarni po'stlog'i archilgan tol novdalaring orasidan ajratib, yerga yotqizdi. Komil cho'n-qayganicha xodachalarga go'yo noyob yozuvlar bitilgan-ularning tilsimini ochayotganday ko'z tikdi. Keyin xodachalarni tiklab qo'yib, kelinlar bilan xayrlashishidda, Chigitkuydiga piyoda chiqib ketishdi. Ikkovi ham yalangoyoq bo'lib, pochalarini himarib olishdi. Bilqillagan tuproqda hali quyosh harorati saqlangan, qadam bosishgan sayin jon rohatlanardi.

— Komiljon, sendan bir narsani so'rayman, faqat xafa bo'lmayсан, — dedi muallim.

— So'rayvering.

— Institutni tugatganingga yetti yildan oshdi. Nima uchun dissertatsiyaning ketiga tushmayapsan? Odamlar ~~iki~~, uch, nari borsa to'rt yilda nomzod bo'lib olishyapti? 133

— Haloli qandini ursin. Ammo ucharlarning qo'li-dagi diplomni olib qo'ying-chi, o'zлari sariq chaqaga arzirmikan?

— Har holda, yo'rig'i shunaqa bo'lib turibdi. Avval unvonli odam gapiradi...

— Qo'ying, Mahkam aka, bu masalada menga tash-viqot qilmang. Men unvon olaman, deb shaharda yur-ganim yo'q. Rostini aystsam, dastlabki yillari disser-tatsiya yoqlash, unvon olish marosimi hatto tushlarimga kirib chiqardi. Keyin o'ylab qarasam, bu o'tkinchi bir havas ekan. Mening bittagina niyatim bor: paxtaning yangi navini yaratishga umrim yetsa, bas. Boshqa narsa kerakmas. Odamning tirikligi, ishlashi uchun juda oz narsa kerak ekan. O'sha oz narsa menda bor — oilam tinch, qornim to'q, boshpanam bor. Qolgan narsalar ishga xalaqit beradi, odamni meshchanlashtirib yuboradi. Dissertatsiya orqasidan quvish — shuning bиринчи bos-qichi. Shu bosqichdan o'tib oldimmi, orqadan darvoza berkiladi, ko'proq o'zimni o'ylayman, mo'lroq maosh chiqadigan yerni mo'ljal qilaman, kafedra mudirligi bo'sh ekan, falonchiga qulluq qilay, deyman, bo'lim bosh-liqligi bor ekan, pistonchiga yaxshi ko'rinish deyman, shunaqa qilib ilm qolib ketadi. Maosh oshdimi, oq-qora televizor ko'zga xunuk ko'rinishi, rangliligining orqasidan tushaman, gilam, mebel, mashina... E, — Komil qo'l siltadi, — meshchanlik-ku, bu hammasi! Pilla qurtiga o'xshab pillaga o'ralaverasan, o'ralaverasan... Mahkam aka, unvonlar qayerdan chiqqan, bilasizmi?

— Umuman, bilaman. Yo'q, to'g'risi, bilmayman.

Komil xaxolab kulib yubordi. Muallimning yelka-laridan quchdi.

— Qoyilman, Mahkam aka, qoyilman. Buni o'zim ham aniq bilmayman, ammo taxmin qilaman. Qadimda olimlarga hozirgiday maosh berishmagan. Insofiroq shohlar ularni xazinadan ta'minlab turgan. Demak, shohga ma'qullari durust aqcha olganlar, qolganlari kamroq yoki butunlay olmaganlar. Ana o'shanda ilmni aylanib o'tish boshlangan. Ba'zi befarosat shohlar allomalaming bilimiga emas, ta'zimiga qarab aqcha beradigan bo'lishgan. O'zi-

ga ishongan alloma shohga huda-behudaga qulluq qilarkanmi? Shu zaylda biri burda nonga, biri esa yurtga zor bo'lib yuravergan. Yevropada ham shunaqa edi. Keyin-keyin fan ijtimoiy hayotni tebratuvchi kuchga aylana borgach, xalq eng ulug' olimlarga hurmatini izhor etish uchun unvonlar bergen. Buyuk ixtirolari uchun mukofotlagan. Mana qarang: Mendeleyevga unvon, mukofot lozimmidi, lozim edi. Nyutonga, Pavlovga... Endi siz aytgan ikki-uch yilda dissertatsiya qiladiganlarni tarozi-ning bir pallasiga qo'yaylik.

— Oshirvoryapsan. Hammani ilmsizga chiqarma. Diplom ishini doktorlik dissertatsiyasi sifatida qabul qilinayotganlar-chi?

— Ammo ular dissertatsiya orqasidan quvmaganlar-ku? Yana avvalgi olimlarga qaytaylik: ular avval bir ishni qotirib, evaziga hurmat olganlar. Endigi, siz aytgan uchar nomzodlar-chi? Ularga avval hurmat, shart-sharoit kerak, keyin xohishlari bo'lsa, biron yangilik yaratib beradilar. «Begona o'tlarning g'o'za hosildorligiga ta'siri» deb dissertatsiya yozadiganlarga ham qulluq qilish kerakmi? Yo'q, Mahkam aka, men o'zimni oqlamoqchi emasman, balki o'sha dissertatsiyaga ham aqlim yetmas, lekin baribir bu yo'lni o'zimga munosib deb bilmayman. Agar shu unvonlar, shu mukofotlar bo'lmasa, fanda faqat fidoyi olimlar qolardi. Demak, keraksiz ig'vo-yu bo'htonlar, chalishlar, bir-birini turtib, yuqoriga intilishlar yo'qolardi. Shunga ketgan vaqt fanga sarflanardi. Buning foydasini chamalab ko'ring-a?

Mahkam aka kulimsirab qo'ydi:

— Xomxayolsan.

— Xayol dastlab xom bo‘ladi, bora-bora pishadi.

— Gaplaringni eshitib, yoshligim esimga tushib ketdi.

Ilgari men ham senga o'xshab osmonda yurar edim. Senga o'xshab fikrlardim.

— Olimlar masalasidами?

— Ha. Bir paytlar men ham aspirant bo‘lganman-da.

Komil bir zum to'xtadi. Hayratomuz tikilish muallimning hamiyatiga tegishini angladi-yu ko'zlarini olib qochdi. Uning yalt etib qarashiyoq hayratini oshkor qilgan

edi, muallim buni sezdi. Ammo ranjimadi. Chunki Komilning gaplari yuragidagilarni qo'zg'ab qo'ygan, hozirdardini yozishni istab qolgan edi.

— Hayron bo'lma, men ham oltin medal bilan tutgaganman mактабни. Institutda ham oldi student edim. Aspiranturada olib qolishdi. Magnit maydoni bilan shug'ullanardim. Bir ixtiromni qabul qilishdi. Patentni kutaman, darak yo'q. Sekin surishtirsam, patent ilmiy rahbarim nomiga rasmiylashtirilibdi. Bundan sal avvalroq yozgan maqolamni «o'qib qo'yaman», deb olib qolib, o'z nomidan chiqartirgan edi. Sochlarim tikka bo'lib oldiga borganimda: «Qarang, redaksiyadagilar befarqliк qilib, familiyangizni tushirib qoldirishibdi», — devdi ishshayib. «Sizning familiyangizni kim qo'ydi?» — deganimda: «Siz kaminaning shogirdisiz. Unvoningiz hali yo'q. Bunaqa dadil fikrlarni mening imzomsiz baribir chiqarishmas edi. Men sizga yaxshilik qilmoqchiydim», — devdi. Patent masalasida ham shu gap. Ozgina uyalsa ham mayli edi. «Agar sendaqa pastkashlarga qulluq qilib olim bo'ladigan bo'lsam, yig'ishtirdim hammasini», — deb shartta tashlab ketvordim. Qishloqda qancha malomatlarga qolsam ham shaharga qaytmadim. O'lguday o'jar edim.

— Endi achinyapsizmi?

— Endimi? Achinmayman, desam, baribir ishonmaysan. Afsuslanaman, albatta. Lekin o'sha sharoit qaytib kelsa, baribir qaytmasdim. O'shanaqa odamlarni hazm qilolmayman. Lekin o'sha sullohnning bir gapida jon bor: «Jiddiyroq farazni o'rtaga tashlasang, avvalo, «Unvoni bormi buning?» deb so'rashadi».

— Mahkam aka, men ilmiy ishingizdan bexabarman. Lekin bir narsaga aniq ishonaman, siz o'shanda xiyonat qilgansiz!

— Xiyonat? — Muallim Komilni yelkasidan ushlab, ko'ziga qadalib qaradi. — Nima deding?

Komil nigohini olib qochmadi.

— Ilmiy rahbaringiz ablah ekan, fanda nima gunoh? Siz fanga ozgina bo'lsa ham yangilik kirita olishingizga ishonarmidingiz? Ishona turib, chekindingizmi? Nimaga achchiq qildingiz, nimadan qo'rqedingiz? Ablahlarni yan-

chish o'tniga hamma qochaversa, fanning ahvoli nima bo'ladi? Mana shuni qip-qizil xiyonat deydilar.

— Sen menga... bola, og'zingga qarab gapir!

Muallimning lablari titradi. Komilning yelkasini mahkam qisib siltadi. Keyin qo'lini bo'shatdi-da, tez-tez yurib ketdi. Chigitkuydiga yaqinlashib qolishgan edi. Komil muallimga gap qotmay, ergashib boraverdi.

O'tlar sarg'ayib, qovjiray boshlagan yalanglikka chiqishgach, muallim to'xtadi.

— Mana shu yer, — dedi hansirab. U tez yurganidan hansirardimi yo achchiqlanganidanmi, Komil farqlay olmadi. Avvaliga kechirim so'ramoqchi bo'ldi. Yana gap kovlanmasin, deb o'zini bilmaganga soldi.

Muallim Komilni soy bo'yiga boshladi.

— Bitta rosmana charxpalakni suv aylantirgan. Charxpalakning uzun yog'och o'qini hali ko'rding. O'sha o'q sopol quvurdan o'tib, yer ustida yassi o'matilgan charxpalaklarni aylantirgan. Kattasi taxminan mana bunday bo'lgan, — muallim cho'p olib radiusi uch qadam keldigan katta doira chizdi. — G'ildirakning tishiga qara ganda, u sekin aylangan. Demak, kattasiga tuproq to'latib, chigit ekkan. Mana bu yerda, — endi radiusi bir qadamli doira chizdi, — tez aylanadigan kichik charxpalak bo'lgan. Kelgusida ekiladigan chigitlarni shu charxpalakka tashlab, sun'iy vaznsizlik holati yaratmoqchi bo'lgan. Men shesternyalarga, charxpalakning diametriga qarab aylanish tezligining taxminiy hisobini chiqardim. Vaznsizlik holatiga yaqin ham kelmaydi.

— O'sha odam, balki boshqa narsani nazarda tutgandir?

— Bilmadim. Buni o'zing o'ylab ko'r. U xomxayol bo'lgan. Xayolni senga o'xshaganlar pishitishi kerak.

— Mahkam aka, iltimos, kesatmang.

— Kesatayotganim yo'q. Yog'ochdan shesternyalar yasab, harakatlarni uzatish — katta gap. Lekin o'sha odam chindan ham bilimsiz bo'lgan. Charxpalak qanday tezlikda aylanishi kerak, soat millariga monandmi yoki aksincha yo'nalishdami, qiyaligi necha gradusni tashkil etadi, og'irlilik kuchlari, barcha zarralar qiymat va yo'-

nalish jihatidan bir xil tezlanish ololadimi, hamma zarralarning dastlabki tezligi bir xilmi — bularni bilgan deb o'ylaysanmi? Agar bu usul aqlga sig'adigan ish bo'lib tuyulayotgan bo'lsa, unnab ko'r. Turli tezlikda, turli yo'nalishda, turli qiyalikda sina; chigitning, g'o'zaning o'zgarishini tekshir. U odamda bunday imkoniyat yo'q edi-ku, axir? Xullas, fizikaga qaytishing kerak. Sen bu usulda yangi nav yaratmaysan. Yo'q. Sen fizik yo'l bilan g'o'zani boshqarishni kashf qilasan. Farqni sezyapsanmi: bosh-qa-rishni! Bu anov-manov gap emas.

Keyingi gaplar Komilning qulog'iga kirmadi. U sehrli girdobga tushib qolganday bo'ldi. Avval cho'p bilan chizilgan doira atrofida aylandi. Osmonga qaradi: yalanglik bekorga tanlanmagan — kungay, oftob tig'i. Bir tomoni suv. Komil soy bo'yiga borib cho'kkaladi. Suvga uzoq tikildi. «Muallim erinmasdan yog'och shesternalarni qazib olgan. Bu muzeylear uchun noyob yangilik. Ayniqsa, fan tarixi bilan shug'ullanadiganlarga. Muallim buni ularga ma'lum qildimikan? Charxpalak yasagan odam anoyi emas. Ko'p narsani bilgan. Shunday donishmand bu ovloqda nima qilgan? Tajriba o'tkazish uchun yashaganmi? Yo shahardan quvilganmi? Savollar ko'p, javob topadigan zot yo'q. Faqat uning farazlari qolgan. Chigitni magnit maydonida tutib ko'rdik, nur berdik, kasalga chalintirdik — foyda chiqmadi. Vaznsizlik holatida paxta yetishtirish... Yuragim shunga chopyapti. Marra ko'rinxmayapti, unga yetguncha uzoq yurish kerak, lekin yo'l o'ziga tortyapti. Ideal vaznsizlik koinotda mavjud. Ammo ungacha farazni yerda sinash kerak. Ozgina asos uchquni topilsa... keyin koinot! Kosmik stansiya... Hazilakam gapmi bu!!!» Komil o'midan turib yana charxpalak o'rni belgilangan doira bo'ylab aylandi, osmonga qaradi.

— Mahkam aka, shu yerda yotib qolmaymizmi? — dedi qontalash ufqqa tikilgan ko'yi.

Muallim seskandi. Jinlarga ishonmasa ham, bu yerda yotib qolish taklifi yuragiga g'ulg'ula soldi. Yog'och shesternyalarni qazib olayotganda ham, kunduzlari shu yerda ko'zi ilinganda ham cho'chimagan edi. Ammo hozir Komilning gapi unga g'alati tuyuldi.

— Qaytmasak bo‘lmas... — dedi quruqqina qilib.

— Unda o‘zim qolaman, Mahkam aka, siz boravering.
Uydagilarga aytib qo‘yarsiz, xavotir olishmasin.

Muallim nochor xayrlashdi.

Komil bu yerda uxlay olmadi. Bir o‘tirdi, bir turdi. U xayollariga bandi edi. U o‘ylar, mo‘jiza charxpaklakning sirini ochishga intilardi. Afsuski, bu sir yer qa‘riga singib ketgan. Uni xodachalarni qazib olganday ochish mumkin emas. Lekin bu suv, bu yalanglik asr avvalida bir fojianining guvoхи bo‘lgan. Agar bu tuproq tilga kirolganda edi, hozir Komilga shu fojiani aytib berardi.

* * *

Qishloqda tirikchilik vajhidan imomlik qiluvchi, ilmdan yiroq bo‘lsa-da, o‘zini «qori» hisoblovchi Zoir bu yoqlarga murid ovlab keluvchi shayxning yo‘liga zoriqib ko‘z tikmoqda edi. Bir chalamulla ikkinchi chala pирning madadidan umidvor edi. Guzarga chiqqanida bo‘lgan bu suhbatni unga hech kim eslatmasa ham, «qori»ning ichi yonardi. «Shayx»ni zoriqib kutardi.

O, qiyomat bo‘lgan edi o‘shanda!

Guzarga chiqqanida oq chakmonini kanda qilmovchi Karimberdi bu safar nechukdir yaktakchan edi. O‘n chog‘li hamqishloqlari davrasida o‘tirib, ularga nimanidir uqtirmoqchi bo‘lardi. Zoir «qori» masjiddan qaytayotib ko‘rdiki, shu hol: iblis yo‘ldan ozdirdimi, ishqilib, u ham shu davraga yaqinlashdi.

Karimberdi O‘rusiyada ko‘rganlarini gapirayotgan ekan.

— O‘rusiyada bir donishmand bilan tanishib qoldim. Xo‘p ajoyibotlarni orzu qilib yuribdi. Aytadiki, odamga qanot yasamoq mumkin. Yana aytadiki, odamzod oyog‘ini yerdan uzib, Oyga, undan o‘tib yulduzlarga ham ucha olishi mumkin...

Karimberdi gapiryapti, choyxo‘rlar og‘zini ochib mal‘unning makriga laqqa tushib o‘tirishibdi. Zoir «qori» bunga qanday chidasin? Karimberdi u otgan la’nat toshlari ostida qoldi. Bu Karimberdi deganlari ham o‘ziga yetgancha sur ekan. Boshqa mo‘min-muslim —

insof egasi bo'lganda sharmandalik yukidan cho'kib, yerga kirib ketardi. Bu «bezbet» tirjayib o'tiraverdi. Zoir «qori»ning qarg'ish xaltasidagi la'nat toshlari tugagach, Karimberdining yanada beorlik qilgani o'Iganning ustiga tepgan bo'ldi. «Qori, siz o'zingiz johil bo'lganingiz holda odamlarni ham bu botqoqqa botirmang!» – dedi-ya?! Yo alhazar! Bu qanday bedodlik! Bu qanday shakkoklik! Poko parvardigor nechun bu shakkoklarga qahrini socha-qolmaydi! Tijorat sababi bilan tog'asining etagini ushlab sarhad hatlagan har mo'min shakkok bo'lib qaytaversa, bu yorug' olamda muslim qoladimi??!

Qishloq mo'minlarini insofga chaqirib turuvchi Zoir-dek «qori» odamni bir betavfiq johillikda ayblas? «Qori» isbot talab qildi. Karimberdi savol berdi:

— Siz, «qori», Qur'oni sharifni ro'kach qilib gapirasiz. Kalomullohni bilganingiz holda ayting-chi, suratul Baqaruning «Inna-l-la-zina omanu va-l-lazina hadu va-n-nasoro va-s-sabiina» deb boshlanuvchi oyatida nimalar deyilgan?

«Qori» g'olibona jilmaydi. Oh, uning yuzidagi g'oliblik shuurini ko'rsangiz edi! Oyatni qiroat bilan o'qib berdi.

— Balli, endi ahli muslimga mazmunini ham aytib bering.

«Mazmuni? Qayerdan chiqqan gap bu?!!»

Bu savoldan keyin «qori»ning yuziga qaragan odam baraka topmas edi.

Karimberdi javobni uzoq kutdi.

— Bu oyatlarda Olloh yahudiylar bilan nasroniyarlarni insofga chaqirgan. Harakatingizga qarab turib, Ollohnинг bu muborak gaplari sizga ham atalmaganmikin, deb qo'ydim.

Karimberdiga atab bir nafas ilgari yorilishi lozim bo'lgan yer endi «qori» uchun yorilmaydimi, uni qa'rige tortib, sharmandalikdan xoli qilmaydimi...

Bu gaplarga odamlar kulmadi. «Qori»ni mazax qilmadi. Ammo uning ustidan la'nat xarsangi bosib o'tgандай bo'ldi. Yaxshiki, shu onda Yaratgan uni tildan olmadi. Karimberdini qarg'adi. Qarg'ab-qarg'ab xumordan chiqdi. Biroq uyat tamg'asini o'chirib tashlashga qurbi yetmadni.

Nihoyat, «shayx» keldi. Yonida sodiq muridlari bilan keldi — muddaoning o‘zi bo‘ldi. Zoir «qori» butun dardlarini unga to‘kib soldi; Karimberdining namoz o‘qimasligi, bolalarni kofirchaga o‘rgatmoqchi ekani, g‘alati charxpalak yasagani, uning gapiga kirib, qishloq ahlidan imon ketayotgani... Hamma-hammasini aytди.

Faqat... xalq oldida sharmanda bo‘lganini yashirdi.

«Shayx» o‘yga toldi: Urusiyaga borgan bo‘lsa, Karimberdi aqlini peshlab qaytgan. U bilan san-manga borishning nafi yo‘q. «Shayx» bundaylar bilan betma-bet bo‘lib ko‘rgan. Karimberdi bilan necha tangalik ishi bor? Namoz o‘qimasa o‘qimas. Charxpalak yasasa yasar. Biroq ulusdan imon ketayotgan bo‘lsa, bunisi yomon, ya’ni imon ketsa, murid kamayadi. Murid kamaysa, xurjundan baraka ketadi. «Shayx» bunga yo‘l qo‘ya olarkanmi?..

— Charxpalak yasagan, dedingmi?

— Shunday, taqsir, charxpalakka o‘xshagan narsa.

— Qayerga suv chiqarar ekan?

— Betavfiqning maqsadi suv chiqarish emas. Charxpalagi ko‘p g‘alati, taqsir, tikkasiga emas, yotqizib qo‘yilgan. Kichigi tez, kattasi sekin aylanadi.

— Aylanadi? Iya, o‘zi yotiқ bo‘lsa, tag‘in aylansa?

— Sababi bandasiga qorong‘i, taqsir.

«Urusiyadan orttirgani bu...»

— Aylanib nima qiladi?

— Kichigiga chigit sochib qo‘ygan, deyishadi. Kattasiga tuproq solib, chigit ekkan emish.

— Chigit? Shu tog‘da paxta bitarmishmi?

— Bo‘ladi, deydi.

— Jodu...

— A, labbay?

— Jodusi bor. Jodugar, u to‘ng‘iz qavmida ketishi kerak.

— Albatta, albatta...

Odatda, ko‘ngli qora odamlar, agar ularni odam deyish joiz bo‘lsa, tezgina til topishadilar. Donolardan biri ikkinchisining gapini hazm qilguniga, ma’qullaguniga qadar ko‘p suvlar oqib o‘tadi. Ayrim hollarda yaxshilar bir-birining gapini hazm qilolmay yoki tushunolmay, eng

yomoni — bir-birini qo'llay olmasdan o'tadilar. Shuning uchun yaxshilar ko'p afsus chekadilar. Ular afsus zahridan nadomat chekib yurganlarida ikki baxil, ikki falokat bir ko'z qarashdayoq oshna tutinadi. Tabiatning xunuk hazilini qarangki, biz nodon hisoblagan odamlar, agar ularni odam deyish mumkin bo'lsa, ko'p hollarda donolarni dog'da qoldiradilar.

Bu gal ham shunday bo'ldi.

Tong Zuhro yulduzini yutmay turib zikr boshlandi. Tug' ko'targan «shayx» kunchiqarga qarab harakatsiz turdi. Odamlar uning bu turishidan hayratlandilar. Bir payt shayxning badaniga titroq yugurdi. Tug' ushlagan qo'l-larini baland ko'targanicha vahima solib baqirib yubordi:

— Qiyomat!!

Olomon tosh qotdi.

— Nima qilib qo'ydinglar, ahli muslim! Axir, bag'-ringizga jodugar in qo'yib olgan ekan-ku?! Qiyomat... Qiyomat!..

«Shayx» shunday deb tisarildi. Tisarila-tisarila to'xtadi. Engashib chap qo'liga tosh oldi. So'ng yuqoriga o'rلان so'qmoq bo'ylab qadamini tezlatdi.

— Qishloqni jodugardan xalos etmoq kerak! — Bu Zoir «qori»ning ovozi edi. «Shayx»ga ergashganlar kim baqirdi, deb o'ylab o'tirmay, qo'llariga tosh oldilar.

Olomonni hayrat bilan qarshilagan Karimberdini tosh-bo'ron qilayotganlar: «Bu bechorada nima gunoh, nimasi jodugar, axir, o'zimiz bilan o'sgan, o'zimiz qatori unib-o'sgan yigit-ku», — deb o'ylamadi ham.

Karimberdi izsiz ketdi. Charxpalak buzildi. Etagidan ikki tegirmon suv oqib o'tuvchi yalanglik «xudo la'natalagan yer» ekani ma'lum bo'lgach, odamlar bu tomonga qadam bosmay qo'yishdi.

Bu yalanglik jinlar bazm quradigan joy emish. Yalanglikka yaqin yurganni jin chalarmish.

Kichkina charxpalakda yarim xalta chigit bor edi. «Shayx» kuydirib tashlatdi.

Shundanmi, yalanglikni «Chigitkuydi» deb atashadi. Hali-haligacha nomi shunday.

Nimagaligini odamlar unutishgan...

Komil shu yalanglikda tongni kutdi. Kun yoyilmay turib muallimnikiga ko'zlar qizargan bir ahvolda kirib keldi.

— Agar hamma o'qituvchilar sizday bo'lganida, har bir mактабдан kamida ikkitadan chinakam akademik yetishib chiqardi, — dedi muallimni quchoqlab.

— Tilyog'lamalik qilma, — dedi muallim yolg'on po-pisa bilan. — Undan ko'ra kechagi gapingni qaytarib ol.

— Qaysi gap?

— Xiyonat qilgansiz, deding-ku!

Komil kuldi.

— Gapimni qaytarib olganim bilan nima o'zgaradi? Xiyonatligicha qoladi-ku!

U shunday deb muallimning yarasiga yana bir karra tuz sepib o'tdi.

JAROHAT

Muallim kaftiga iyagini tiragancha bir nuqtaga tikilib goldi.

— ...Shunaqa bo'ldi, meni xiyonatda ayblab ketdi. Men o'zimni isyon qurboni deb ovutib yursam, chin aybimni bo'yninga qo'ydi-ya. Aslida qilmishimning chindan ham xiyonat ekanini yaxshi bilardim, faqat tan olgin kelmasdi. Komil esa jo'ngina qilib, o'zim kutmagan bir alfovza ishontirdi. Endi bu tamg'an uzoq ko'tarib yurolmayman.

Muallimning dardi Nozimaga kerak emasdi. Shuning uchun gapni maqsadga burdi:

— Keyin ko'rishmadingizlarmi?

— Ko'rishdik. Yo'l-yo'lakay kirib o'tardi. Laqillab o'tiradigan odati yo'q edi. Hol-ahvol so'rab, jo'navorardi. Chigitkuydiga ko'proq chiqarkan. Jiyanlar aytib turishardi. Shu farazga qattiq ishonib qoluvdi. Shuni deb o'sha sovxozagga borgan. Ajal quvgan ekan-da... Ayb menda. Aytmaganimda institutida tinchgina ishlab yuruvdi.

— Bekorga o'zingizni ayblayapsiz.

— Shunaqa deysiz-u, ammo mana bu yerim, —

muallim shunday deb chap ko'kragiga urib qo'ydi, — boshqacha gap aytadi, qizim.

— Farzandsizligidan hech nolirmidi?

— Bu haqda sira so'z ochmaganman. O'zi indamasdi. Otasi menga bir-ikki hasrat qilgan. Ota-da, bolasiga kuyadi, nevara ko'rsam, deydi. Gap ochishsa, Komil qaytarib tashlarkan. Chamanda, xotinini benihoya yaxshi ko'rgan. Tug'masa ham undan kecholmagan. Shunaqa oilalar bo'ladi. So'raganning aybi yo'q, qizim, murdani ham tinch qo'ymadinglar, mayli, ishinglar shunaqa ekan, birovdan gumon qilyapsizlarmi?

— Hozircha bir narsa deyish qiyin. O'zingizning birortadan gumoningiz bormi?

— Meningmi?.. Men uning do'st-yoronalrini bilmasam. Agar birov joniga qasd qilgan bo'lsa, begonamas, o'zini do'st deb tanitib yurgan dushman qilgan.

Uchastka inspektori eshikni olib, Mavluda Sadirova kelganini ma'lum qildi. Muallim: «So'raydigan boshqa gapingiz yo'qmi?» — deganday Nozimaga qaradi. Nozima uning gaplari yozilgan qog'ozni uzatdi:

— O'qib chiqib, qo'l qo'ying.

Muallim ko'zlarini sal qisib, xatni o'qidi. Imzo chekkach, xayrlashib chiqib ketdi.

Ostonada qora paypoq, ko'k ko'yak kiyib, boshiga qora durra o'ragan Mavluda ko'rindi. Kirib, to ro'paraga o'tirguniga qadar Nozima undan ko'z olmadi. Mavluda pardoz-andozsiz, motam libosida ham go'zal edi. «Sadirov bejiz yaxshi ko'rmagan ekan. Shu chiroyi uchun ham farzandsizligiga qaramay yashagandir-da. Shunday go'zal xotini bor odam jonidan to'yishi mumkinmi?.. Mumkin. Faqat bir holda... Lekin bu ayol unaqaga o'xshamaydi. Ko'zlar toza. Balki... motam tufayli ko'zidagi nur qochib, asl qarashlarini berkitayotgandir? Kim bilsin...»

Nozima daf'atan so'roqni boshlay olmadi. Taraddudini yengishga ulgurmay, kutilmaganda Mavluda so'roqqa tutib qoldi:

— Uni nimaga bezovta qildilaring? — Mavluda shunday deb pastki labini tishladi. Ko'zlaridan yosh duv oqdi.

— Kimni? — Nozima uning nima demoqchi ekanini tushunmadi. Mavluda qo'lida g'ijimlab turgan ro'molcha bilan ko'z yoshlarini artib, Nozimaga qaradi. Bu qarashida alam, hatto g'azab zohir edi.

— Hech bo'lmasa go'rida tinch qo'ysalaring... — u gapini tugatolmadi. Ho'ngrab yubordi. Nozima atrofga alanglab suv izladi. Chaqqon turib, bo'sh grafinni oldi-da, eshikka qarab yurdi. Dahlizda o'tirgan inspektorni suvg'a yuborib, orqasiga qaytdi. Mavludaga yaqinlashib, uning ikki yelkasidan ushladi.

— O'zingizni bosing. Siz o'qigan, tushungan odamsizku. Bunaqa hollarda ekspertizasiz ish bitmaydi. Har xil gumonlar bor. Qabrga qo'ymasdan oldin ekspertiza qilinmagan. Endi shunga majbur bo'ldik.

— Kechiring... odamga og'ir botarkan. Ota-onasi ezilib, adoyi tamom bo'lishdi. Baxtsiz hodisa, deb taqdirdiga tan berib...

— Shunday ekaniga o'zingiz ishonasizmi? — Nozima shunday deb cheti uchgan piyolaga inspektor keltirgan suvdan quyib, Mavludaga uzatdi.

— Bilmayman... bilolmayman... — Mavluda suvdan ikki ho'plab, lablarini ro'molcha bilan artdi. — O'zim ham hayronman. Ertalab chiqib ketib...

— O'shanda kayfiyatları qanday edi?

— Kayfiyatları?.. — Mavluda yelkasini qisdi. — Odatdagiday.

— Ertalab yoki bir kun oldin xafalashib qolmagan-midingizlar?

— Biz sira xafalashmasdik. Rost, ko'pchilik bunga ishonmas edi. Er-xotin bo'ladi-yu, g'alva chiqmaydimi, deyishardi. Lekin biron marta ham janjallahsmaganmiz. U kishi... — Mavluda ro'molchasini g'ijimlab yerga tilkildi, — ba'zan achchiqlanib baqirardilar. Keyin darrov jahldan tushib, ko'nglimni olishga tirishardilar. To'yimizdan oldin ham birdaniga arazlab qolardilar-u, keyin derazamiz oldidan o'taverardilar. Ko'ngillari toza edi.

— O'sha kuni ertalab ichganmidilar?

— Ertalab ichish odatlari yo'q edi.

— Pivo-chi?

- Pivoni ham... azonlab ichganlarini ko‘rmaganman.
— Bir kun avval, oqshomda ichganmidilar?
— Yo‘q.
— Uyga kech qaytganmidilar?
— Hali... kun botmagan edi.
— Shundan keyin ko‘chaga chiqmadilarmi?
— Yo‘q.
— Balki ko‘chadan ichib kelgandirlar-u, siz sezmagandirsiz?
— Ko‘chadan unaqa ichib kelmasdilar. Shaharda, ba’zan ulfatlari bilan uchrashib qolishsa, ichib kelardilar. Lekin mast bo‘lganlarini ko‘rmaganman. Bu yerda hech ichmadilar. Odamlar begona. Bitta-yarim mehmon bahonasida jinday kayf qilsalar ham darrov sezardim. Ko‘zları sal suzilib, sergap bo‘lib qolardilar. Hadeb hazillashardilar. U kuni... yo‘q, ichmagandilar. To‘g‘ri daladan kelgan ekanlar. Ha, esladim. Beshinchı brigadadagi charxpalak to‘xtab qolgan ekan. Kimdir suv tagidan xodacha tiqib qo‘yibdi. Yo o‘zi tiqilib qolganmi, shundan sal xafaroq edilar.
— Xodachani o‘zları olibdilarmi?
— U kishi suvgaga tushishga qo‘rqardilar. Bir shogirdlari bor, o‘quvchi bola, doim atroflarida yuradi. Olimlikka qiziqadi. O‘scha bola chiqaribdi.
— Ismi nima?
— Sharifjon... Familiyasini bilmayman. Uchinchi bo‘limdan...
Nozimaning xayoliga polkovnik Sultonov bergen xat keldi. Daftarchasiga «Sharifjon — xat» deb yozdi-da, tagiga qalin qilib chizib qo‘ydi.
— O‘scha kuni qaysi kiyimda chiqqan edilar?
— O‘scha kuni... Jinsi shimda, yengi kalta fikon ko‘ylakda edilar. Nima edi?
— Dalaga shu kiyimda chiqarmidilar?
— Dalaga etik kiyardilar. Oddiy triko shim, yengi uzun kulrang xalat, savat shlapa... Oftobda ko‘p yurishadi-ku, shuning uchun xalatsiz chiqmas edilar. U kuni beshinchidagi charxpalakdan xabar olib, keyin bu yoqqa, otanolarini ko‘rgani kelmoqchiydlar. «Terim boshlanib ketsa, uch-to‘rt oy borolmayman», — devdilar.

- Suvdan chiqarishganida o'zingiz ko'rdingizmi?
- Ha... — Mavludaning lablari titradi. Yana bir ho'plam suv ichdi.
- Murdani qayerda chiqarishgan?
- To'rtinchi bo'limda to'g'on bor. O'sha yerdan.
- Soat nechchilarda?
- Menga soat to'qqiz yarimlarda xabar keluvdi.
- Uydan nechchida chiqqanlar?
- Radioda «Pioner ertaligi» boshlangan vaqt edi.
- Kiyimlarida o'zgarish yo'qmidi? Yirtilmaganmidi?
- Nimaga yirtildi?
- Badanlarida jarohat ko'rmadingizmi?
- Qanaqa jarohat?
- Masalan, hech yerlari tirmalmaganmidi?
- Sezmadim. Ko'zimga hech nima ko'rinnovdi. Jarohat bor ekanmi?
- Jarohat degulik emas, sal tirmalgan. Bir kun oldin yoki o'sha kuni ertalab o'ng qo'li, aniqrog'i, panjalarining usti tirmalmaganmidi? Balki charxpalakni yurgizaman, deb tirmab olgandirlar?
- Panjalari? O'ng qo'llarimi? Yo'q... — Mavluda unga tikilib qoldi. — Aniq esimda, tirmalmagan edi. O'ng qo'llarining tirnog'ini ololmas edilar. Ertalab tirnoqlarini olib qo'ydim. Aniq esimda...
- Murdani kim chiqarib olgan, bilmaysizmi?
- Bir mexanizator. Oti... Subhonmi, So'pixonmi, esimda yo'q.
- Ertalab uydan chiqqach, yana qayerga kirishlari mumkin edi. Yoki kim bilan uchrashishlari ehtimoli bor edi?
- Kirgan bo'lalar, to'rtinchi bo'limdag'i biolaboratoriyyaga kirgandirlar. Har qalay, yo'l ustida. Uchrashgan bo'lalar o'sha yerdagi qiz bilan yoki shu atrofda ishlab yurgan bitta-yarimta odam bilan uchrashgandirlar.
- Biolaboratoriyyadagi qiz kim?
- Latofat degan bir jikillagan bor.
- Siz uni yoqtirmaysizmi?
- Bu mening shaxsiy ishim... — Mavluda Nozimaga tik qaradi.
- Rashk qilmasmidengiz?

— O'zingiz-chi? Eringiz atrofida yoshroq narsa jikillab yursa, g'ashingiz kelmaydimi?

— Siz bu gapni ko'nglingizga olmang. Men, shunchaki, qiziqqanim uchun so'rayotganim yo'q. Ishga daxldor savollar bular.

— Rashkning nima daxli bor?

— Bor. Buni keyinroq tushuntirib beraman. — U Latofatning ko'rsatmalarini aytishni ep ko'rmadi. Aytsa, Mavluda yonib ketishi mumkin edi. — Siz, imkon bo'lса, o'rtog'ingiz bilan baqamti o'tirib suhbatlashgan kuni-
ngizni eslang.

— Bir kun oldin uzoq gaplashgan edik.

Shu asnoda Mavluda o'sha suhbatni yodga oldi.

* * *

Komil mototsiklni ko'chada qoldirib, yuz-ko'zi changga belangan holda hovliga kirdi.

— Choy-poying bormi? — dedi u ayvonda turgan xotiniga qarab.

— Sabzi-piyozni bosib qo'ydim. Yuvinguningizcha damlayman, — dedi Mavluda.

— Iye, oshxo'rlikmi bugun? — Komil shunday deb kelayotgan yerida to'xtadi.

— Ha, nima bo'ldi? — dedi Mavluda erining qilig'iga tushunmay.

— To'qqizinch bo'limda to'y bor edi. Osh qilgan bo'lsang, bormay qo'ya qolay. To'yda baribir och qolaman. Ming-ming sarflashadi-yu, qorinda turadigan yegulik ovqat qo'yishmaydi. Oling-iching, deb bezor qilishadi.

— Nechuk?

— Nima «nechuk?»

— Ichkilikdan bezor bo'libsizmi? — dedi Mavluda erining qitiq patiga tegib.

— Hey, senam meni piyanistaga chiqarib qo'yganmiding?

— Yana kim piyanista deyapti?

— To'xtamish-da! «Shaharda aroqxo'rlik qilib, mastalast daydib yuruvding, bu yerda ishing yurishyaptiku?» — deydi haromi.

— Gapingizni qarang, birdan ayniysiz-a?

— Nima, noto‘g’rimi, haromi-da! Senga og‘ir botdimi? Bir paytlar atrofingda girdikapalak bo‘lardi-da, a? «O’tmish esa hamisha totli», — degan ekan bir shoir.

Mavludaning labi titrab ketdi.

— Yana boshlayapsizmi? — deb shart orqasiga o‘girildi.

Komil hazili xotinining izzat-nafsiga tekkanini bilib, xatosini to‘g’rilash uchun unga ergashdi. To‘g’ri borib, Mavludaning yonog‘idan o‘pdi.

— Oshing ham o‘zingga o‘xshab shirin bo‘ladiganga o‘xshaydi.

— Boring, suyulmang. Yuvinib chiqing. Yana shu gapni aytsangiz...

— Aytmayman. Ishonmasang, tilimni chaynab tashlashim mumkin. Lekin unda o‘zingga qiyin bo‘ladi.

— Nimaga qiyin bo‘larkan?

— Yaxshi gaplarim yomonidan ko‘proq. Shularni aytolmay qolaman.

Komil hazil-huzuli bilan oradagi g‘uborni ko‘targan bo‘ldi, so‘ng chiqib mototsiklini hovliga olib kirdi. Atrofi shifer bilan to‘silgan qo‘l bola dushxona hovlining etagida edi. Komil kirib, yuvinib chiqquncha Mavluda oshni damlab, ayvonga joy qildi.

— Ayvon dim-ku, ochiqqa joy qilmaysanmi? — dedi Komil.

— Ochiq joyingizda tuzukroq daraxt bo‘lsaykan, soyasida o‘tirsangiz. Ayvon yaxshi.

— Mana, rayhon tomon salqin-ku? Hozir oftob ham yo‘q, shekilli? — Komil shunday deb boshini ko‘targancha turgan joyida gir aylandi.

— Rayhonning hidi yurakka ta‘sir qilarkan, zarari bor ekan, gazetada yozishibdi, — dedi Mavluda erining qiling‘idan kulib.

— Rayhonning hidi zarar ekanmi? — Komil shunday deb yuragini changalladi. — Nima foydali ekan, yozishmabdimi? Ha, defoliantning hidi. To‘g’rimi? — Komil xotiniga yaqinlashib, sochiqni uning yelkasiga tashladi. — Sening do‘stligingni ham, dushmanligingni ham bilib bo‘lmaydi.

— Ha, yana nima bo‘ldi?

— Shu yerga kelib qolganimizni aytaman. Yur, desam, ergashib kelaveribsan. «Hoy inson, issiq joyingizni sovitmang, shu yerda ham charxpalak qilaversiz», — demaysanmi, «Qishloqqa bormayman», — deb turib olmaysanmi? «Sovxozdagi nayranglar sizga to‘g‘ri kelmaydi», — demaysanmi? Yo bilmasmid?

— Bilganda nima? Sizga issiq ham, sovuq ham yoqmaydi o‘zi. Yana bir gap o‘tdimi?

— Bir emas, ko‘p gap o‘tdi. Gaplarga e’tibor qilmasa ham bo‘lar. Lekin kimdir beshinchidagi charxpalakka xodacha tiqib, to‘xtatib qo‘yibdi. Bu — to‘rva-xaltangni yig‘ishtir, degan ishora emasmikan?

— O‘zi suvda oqib kelib tiqilib qolgandir?

— E, yo‘q, juda puxta qo‘yilgan. Sharif olib chiqdi.

— Kimga zarari tegibdi?

— Har holda bu yerda ishlashimiz to‘g‘ri kelmay qoldi, shekilli...

— Oralaringdan yana gap qochganga o‘xshaydi.

— To‘xtamish bilanmi? Yo‘q... Lekin harom ishlarga sherik bo‘lib qolyapman. Ko‘nglim shunday kirlanib ketyaptiki, gohida o‘zimdan o‘zim irdaganaman. Dalaning changini yuvsaga ketadi. Ichimdagisi kirdan qanday qutulaman, bilmayman. Ke, qo‘y shu gaplarni, oshni olib kel.

Mavluda eriga yaqinlashib, yuzini siladi.

— Hammasini ko‘ngilga olaversizmi? Harom, harom deysiz? Bir o‘zingiz farishta bo‘lib qayerga borardingiz? Qaysi sovxozdza nayrang yo‘q? Ko‘rib, bilib turibsiz-ku?

— Menga qara, sen mакtabda ishlaysanmi, bog‘chadami? — Komil shunday deb mug‘ambirlik bilan qovoq uydi. Bunaqa paytda badanga ignadek sanchiladigan piching gap chiqishini Mavluda bilar edi. Shuning uchun erining ko‘ziga boqdi.

— Xo‘sh, gapi ravering-chi?

— Sen tarbiyachi opaga, men bog‘cha bolaga o‘xhab ketdim shu topda. Yana birpas indamay tursam, oldimga sochiq tutib, oshni yegizib qo‘yadigan shashting bor. Keyin tarbiyaviy soat o‘tkazarmid. Lekin bekor ovora bo‘larding, nasihatlariningni baribir tushunmasdim. Axir, men bog‘cha bolaman-ku?

— E, boring-e, sizga gapirib ham bo‘lmaydi, —
Mavluda shunday deb oshxona tomon burildi.

Komil ayvonga chiqib, ko‘rpachaga yonboshladi. Ikki hovlini ajratib turuvchi pastak yog‘och panjara ortida qo‘snnisi ko‘rindi. Peshanasini oq ro‘mol bilan tang‘ib olgan o‘rtta yoshlardagi kishi ketmoncha bilan gullarning tagini yumshatar edi. Qo‘snni ham shaharlik. Oldinma-keyin ko‘chib kelishgan. Hovlilar bir xil. Lekin qo‘snni kelgan yiliyoq daraxtlarni kesib tashlab, hamma yoqni gul qildi. Dastlab Komil bu ishiga tushunmadi. Gulga ishqiboz desa, ming tup atrofidagi gul ishqibozga nimaga kerak? Kech kuzga borib gulxona usti yopilib, issiqxona qilindiyu, Komil muddaoga tushundi. Shu bir parcha yerning «sog‘in sigir»ga aylanganini fahmlab, qo‘snni bilan ko‘pam yaqinlashmadı. O‘zini qo‘snnidan olib qochgani sayin u, aksincha, yaqinlashishga harakat qildi. Komil go‘l emaski, uning maqsadini tushunmasa. Gulga o‘g‘it kerak, dori kerak, do‘konga borsa, pul ketadi, sovxozniki esa tekin... Yaxshi hamki simyog‘ochlar odamga hazm bo‘lmaydi, yo‘qsa, yamlamay yutardi bu toifa. Komilning hovlisidagi shaftolilar bu yil mevaga kirdi-yu, qo‘snni ham yolchib qoldi. Bolasiga o‘rgatadimi yo bolasi ham shunday bezbet bo‘lib tug‘ilganmi, paqircha ko‘tarib kiraveradi. Uyda hech kim yo‘qligida panjara oshib tushib olinadigan shaftolilar qayoqqa ketadi — Komil bilmaydi.

Mavluda chinni laganga do‘ppiday qilib osh suzib kelib, Komilning ro‘parasiga o‘tirdi.

— Pullarning parvarishiga kirishibdi-yu, — dedi Komil qo‘snni tomonga imlab.

— Ha, endi, cho‘qilagan sayin pul unadi-da. Yana bir yil ishlashsa, shahardan hovli olib ko‘chib ketisharmish.

— Olaverishsin, bunaqa, «shoir»lar olsa yarashadi.

— Qanaqa shoir?

— «Gul»ga «pul»ni qofiya qilib yuribdi-ku, bu ham o‘ziga yarasha shoir-da, — Komil shundy deb, xotiniga qarab kuldi.

— Hm, nima gap yana?

— To‘yga bormadim-ku, haqini bermaysanmi?

— O‘zingiz quyib ichavermaysizmi?

— Sen quyib bersang, mazasi boshqa-da.

Mavluda erinibgina turib, yarim piyoladan ko'proq aroq quyib berdi.

Uch-to'rt osham osh olgach, araq qonlarini jo'shtirib, Komilning bahridili yayradi.

— Men manavinaqa odamlarga hech tushunolmayman. Dardi — pul, maqsadi — pul. Pul deb uyg'onadi, pul deb uxlaydi. Bu yerda osh, bu yerda, — Komil achchiq-chuchukli likopchanli ko'rsatdi, — bir xum tillasi bo'l-masa, yegan ovqati ichiga tushmaydi.

— Oshingizni yeng, sizga nima? O'g'irlilik qilayotgani yo'q-ku, mehnat bilan topyapti. Qarang, cho'qilagani-cho'qilagan.

— Sen buni o'g'irlikkä qo'shmaysanmi? — Komilni hiqichoq tutdi. Mavluda uzatgan issiq choyni puflab-puflab ichib, chuqur nafas oldi. — Bu ham o'g'irlilik, xonim, juda katta o'g'irlilik. O'marib kelayotgan o'g'it-po'g'itlari hisobmas, sovxozda bundan battarlari bor. Bilasanmi bu odam nimani o'qirlayapti? — Komil o'ng qo'liga osh olib, chap qo'lining barmoqlarini bukdi. — Birinchidan, o'zining, bola-chaqasining umrini o'g'irlayapti. Ular dam olish o'rniغا shu hovlida ivirsishadi. Hali qarab tur, pulni to'plashga to'playdi-yu, bir kasal orttirganini sezmay qoladi.

— Oshingizni yeng.

— Yeyapman, gapimni bo'lmay eshit: keyin topganini davolanishga sovuradi. Ikkinchidan, — Komil yana bir barmog'ini bukdi, — moddiy boylik nimaning evaziga to'planadi? Albatta, ma'naviy qashshoqlanishning! Pul ko'paygan sayim ma'nан qashshoqlanib boraveradi. Qo'shning qirmizi gullarda go'zallikni emas, boylikni ko'radi. O'zining-ku, bo'lari bo'lgan, bukurni go'r to'g'rileydi. Bolalariga achinaman. Bolalari shulardan ortib qayerga boradi? Mehnat — azob, mehnat — faqat pul topish uchun, deb ishonib qoladi-ku, mehnatdan lazzat olish nima ekanini bilmaydi-ku? Oqibatda kamroq mehnat qilib, ko'proq pul ishlash yo'lini izlab qolmaydimi? Izlaydi! Topadi! Keyin biz, jinoyatchilar qayerdan paydo bo'ldi, deb falsafa so'qib yotamiz. Xo'p, sen haqsan,

deb faraz qilaylik, mehnati halol, topgan puli halol. Boylikni nimaga sarf qiladi? Ahmoqona narsalarga! Agar topgan-tutganlarini bolalariga sarf qilishsa, indamasdim. Bolalarga vaqtida issiq ovqat bermasa, kiyim-boshiga qaramasa, o‘qishi bilan ishi bo‘lmasa...

— To‘yga borganingiz ma‘qul edi. Oshxo‘rlik deb, yeganingiz shumi? Tomog‘ingizga tegdi, aqlingiz qaynabtoshib ketadi.

— Agar pulim shunaqa ko‘p bo‘lganda, aspirantlarga bo‘lib berardim.

— Oh, oh, saxiy to‘ra-ye!

— Ana, Yahyonikida sezdingmi, er-xotin bir-biriga tumshayadi. Sekin so‘rab bilsam, xotinining ko‘ngli bir palto tusabdi. Yoqasi juda zo‘rmish. Narxiyam... shunga yarasha-da... Yahyo qayerdan oladi? «Dissertatsiyaning ketiga tushmasam bo‘lmaydi», — deydi. Eshityapsanmi? Dissertatsiyani tezlashtirmoqchi!

— To‘g‘ri qiladi. Allaqachon yoqlashi kerak edi.

— Men-chi?

Mavluda yerga qaradi, indamadi.

— Menga bunday demaysan. Chunki prinsiplarimni bilasan. Bila turib, «Yahyo to‘g‘ri qildi», — deysan. Demak, bitta palto uchun fanda g‘irromlikka o‘tish mumkin.

— Nima, Yahyo unvon olsa arzimaydimi?

— Arziydi. Ming marta arziydi. Shuning uchun ham u bunaqa bachkanalikdan baland yursin. Xonimchasining ko‘ngliga qarab yerparchin bo‘lmasin!

— To‘xtamishingiz pul bermoqchi ekan-ku, olavermaysizmi, shunaqa aspirantlarga tarqatardingiz.

— Xonim!!! — Komilning oshamoqchi bo‘lgan oshi qo‘lida qoldi. — Xonim! — dedi u yana qat’iy ohangda — Siz meni haqorat qilyapsiz.

— Qo‘ying, hazillashdim.

— Bunaqa hazil qilmang, istasangiz tiz cho‘kib yalinay.

— Xo‘p...

Mavluda lagandan qo‘lini tortdi. Shundagina Komil chegaradan chiqqanini payqadi. O‘tgan yili To‘xtamish Komilga beli bukilmagan yigirma beshtalikdan bir dasta

bergan edi. Komil bu pullarning amalda topshirilmay, qog'ozda rasmiylashtirilgan paxta hisobidan ekanini bilib, To'xtamishni haqoratlash darajasiga borgan, keyin ikki-uch kungacha o'ziga kelolmay, diqqinafas bo'lib yurgan edi. Mavluda: «Sizga nima bo'ldi?» — deb so'rayverganidan keyin yorilgandi. Ochig'i, shungacha u Mavludadan xavotirda edi. «Bekor qilibsiz, issiq joyingizni tashlab kelganingizdan keyin olavermaysizmi, ulushingiz ekan-ku!» — deb qolsa, boshimni qaysi toshlarga uraman?» — deb cho'chirdi. Baxtidan ming o'rgilsa arzirkan, uning suygani, uning joni-jahoni bunday demadi. «Agar o'sha pulni olib kelganingizda, odamlarning halolligiga bo'lган ishonchim butunlay so'nar edi», — dedi! Komilga yana qanday maslakdosh kerak?! Xotinlar yaxshi yostiqdosh bo'lishi mumkin, yaxshi ona... bo'lishi mumkin, ammo chin maslakdosh bo'la oladiganlari peshanasi yaraqlagan yigitlarga nasib etadi. Komil buni o'shanda kashf etdi. Ilgari: «Xotinim meni yaxshi ko'radi, meni ayaydi, shuning uchun aytganimga ko'nadi», — deb o'yldi. Agar o'shanda... Mavluda shunday demaganida, Komil hammasiga qo'l siltab ketvorardi. Yangi farazlari ham ko'ziga ko'rinsiz edil. Muallimni xiyonatda ayblagan odam bir haromxo'rning dastidan shu xiyonat ko'chasining og'ziga kelib qolgan edi. Mavluda uni ostonada to'xtatdi. Bir og'iz so'z bilan haromdan chekinish emas, balki unga qarshi kurashish lozimligini ham eslatdi.

U — joni-jahoni hazillashsa, Komil jirillab o'tiribdi...

Mavluda oshdan qo'lini tortgani bilan eridan xafa bo'lmadi. Komilning injiqqliklari, ba'zan beo'xshov, ba'zan chegaradan chiqadigan hazillari, o'rinsiz rashkleri — hamma-hamasiga ko'nikib ketgan. Gohi mahallari o'sha injiqlikni, o'sha beo'xshov, chegaradan chiqadigan hazillarini, o'rinsiz rashklarini ham qo'msab qoladi. Sakkiz yil turmush qurib, yaqinda birinchi marta yigirma kun ko'rishishmadidi. Komil kurortga ketib, undan Moskvaga o'tib Mavludani sog'intirgandan sog'intirdi. Mavluda sog'indigina emas, jinni bo'lib qolayozdi. Yaxshiki, opasinikida jiyanlari bilan ovundi. Yo'qsa, o'zinig nazarida, telba bo'lishi turgan gap edi.

Erining fe'lini bilgani uchun ham, gap aylanib, chegaradan chiqay deganda, u «arazlaganini» oshkor qiladi. Hozir ham xotinlargagina xos o'sha nayrangni ishlatdi.

Agar Komilning fikrlarini quvvatlasa, gap cho'zilaveradi, qarshi chiqsa, eri achchiqlanadi. Eng yaxshi yo'l — araz. Bo'Imasa, Mavluda bu qo'shni, bu To'xtamish toifasidagilarni bilmaydimi, ulardan nafratlanmaydimi? Biladi. Nafrati Komilnikidan ko'p bo'lsa ko'pdirk, kam emas. Mavluda bu toifani kalamushga o'xshatadi. Kalamush eng iflos suvlardan ham hazar qilmaydi. Iflos suvlarda yurib, qayerda toza don, toza ozuqa borligini biladi. Kishi bilmas yer kovlab, unga yo'l topadi.

Opasinikida turganida Mavluda jiyanlarining kitob-chasidan bir to'rtlikni o'qib, yodlab olgan edi:

*Kalamushvoy, kalamush,
Savoding sal chalamush.
Yoz, desalar «temir» deb,
Sen yozibsan «kemir» deb...¹*

Mavluda bu to'rtlikning qaysi kalamushlarga atalganini fahmladi. Kalamush toifa odamlarga o'n yil savod o'rgatish hayf. Ularga beshtagina harf o'rgatilsa bas: «K», «E», «M», «I», «R». Tildagi necha yuz ming so'zni o'rgatmay, birgina so'z bilan tanishtirish kifoya: KEMIR! Tamom. Ularga boshqa narsa kerakmas. Don to'la ombor yo'lida vijdon bo'lsa — kemiradilar, insof, diyonat, imon, e'ti-qod bo'lsa — kemiradilar, hatto... muhabbatni kemirib o'tadilar. Mavluda bular bilan murosa qila oladimi? Murosasi kelishganda Komilni er qilib, boriga shukr qilib yasharmidi?

Qanday qabohat!! Shu kalamushlarning biri qachonlardir ko'ziga momiq yungli begunoh quyoncha bo'lib ko'rrimmoqchi edi.

Balki u qadar qabohat emasdir! Balki qo'lida erkayotgani quyon emas, kalamush ekanini bilib, avvaliga bir seskanib, keyin ko'nikib ketarmidi? Ko'zlari muhabbat

¹ Anvar Obidjon she'ri.

o'tidan emas, balki yoqut-u zumradlar nuridan ko'r bo'lib yuraverishi mumkinmidi?.. Shu fikrning o'zidanoq uning a'zoyi badani muzlab ketadi. Onasi — bo'yni marvarid, bilaklari bilaguzuk, barmoqlari tilla uzuk ko'rmagan onasi ko'z oldida gavdalandi. Shunday ham yashash mumkin ekan. Shu zeb-u ziynatlarsiz ham bolalarni boqib, katta qilish mumkin ekan. Mavluda eslamaydi (eslashi ham mumkin emas, unda chaqaloq edi), onasi aytmagan, opasidan eshitgan, opasi esa xolasidan... Onasi ikki qizini olib, uch-to'rt kunga deb mehmonga ketadi. Daf'atan, Mavluda isitmalaydi-yu qarindoshlarinikida qolishga ko'ngli bo'lmay, uyiga qaytadi. Kelib ko'radiki, eri, ya'ni Mavludaning otasi begona xotin bilan... Onasi janjal ko'tarmaydi, o'ziga isnod — kimsan, falonchi suyuqning avvalgi ayoli, degan tamg'a qoladi — uy eriniki, undan orttirgani shu ikki qiz. Taqinchoqlarini tashlaydi-yu (qanday taqinchoqlar edi, Mavluda bilmaydi), bolalarini olib, chiqib ketadi. Er masala tinch hal bo'lganidan xursand, kelgusida nafaqa talab etilmaganidan xursand.

Mavluda onasining qilmishini yuz o'ylasa ham, ming o'ylasa ham tushunolmaydi. Uning o'zidan: «Nima uchun shunday qildingiz?» — deb so'ramagan. Anavi-ku (Mavluda uni ota deyolmaydi) iblislik qilibdi, nima uchun u jazosiz qolishi kerak?! Nima uchun jabr ko'rgan ayol hamma narsadan voz kechishi kerak?! Onasining xattiharakatini nima deb baholash mumkin? Mag'rurlikmi? Mardlikmi? Kenglikmi? Tantilikmi? Mavluda onasining bu qilmishidan ham faxrlanadi, ham o'ksiydi. Onasi bosmaxonada harf terardi, ishdan keyin farroshlik qilardi. Qizlarini o'qitdi, turmushga berdi. Tayyorlagan seplari manman degan oilalarnikidan kam bo'lmadidi.

Komilga ko'ngil qo'yishi, so'ng hayotini unga butkul baxshida etishiga ham onasidan «yuqqan» dunyoqarash sabab bo'lgandir?

Mavluda erini yaxshi ko'radi desak kamlik qiladi. Chunki yaxshi ko'rishning olovi pov etib yonib, keyin sham kabi lipillab qolishi mumkin. Erkakning qosh-u ko'zi, topar-tutari, shirin gapi, shirin jilmayishi... tunda erkalashlari uchun yaxshi ko'rish mumkin. Ammo er-

ning halolligi, pokizaligi, vijdontiligi, vafosi... uchun unga e'tiqod qo'yish kerak. Komilda ana shu fazilatlar, Mavludada esa ana shu e'tiqod bor. Bir shinam oilaga yana nima kerak?

Roviyarning naql qilishlaricha, er-xotin qadimda bir vujud ekan, bu ikki jins yana yaktan bo'lish murodida bir-biriga talpinarkan. Shu rivoyatga ishonilsa, yagona vujud — osh ustida o'tirgan ana shu er-xotin.

Biri xotinini ranjитib, endi ko'nglini ovlashga yo'l izlayapti.

Biri eridan tansiq gap istab, mug'ambirlik bilan «arazlab» o'tiribdi.

Xayoliga durustroq gap kelavermagach, Komil qolgan choyni ichdi-da, piyolani chertdi.

— Choydan bormi?

Mavluda indamay piyolani olib, choy quyib uzatdi.

— Qadimda xotinlar eriga choy uzatayotganda o'rni-dan turar ekan, zap ozodlikka chiqib oldilaring-da, a? — dedi Komil xotiniga yer ostidan qarab.

— Ha... shunaqa ozodmizki...

— Sendan yana iltimos...

— Aytavering.

— Endi meni biron yoqqa yakka-yolg'iz yuborma.

— Ho, nechuk? «Tulaga otlangan odam samovar olib bormaydi», — degan kim edi?

— Bu mening gapim emas, maqol-ku? Bo'pti, tavba qilyapman-ku, endi yolg'iz yuborma, janjal qilsang ham mayli.

— Birdan insofga kirib qoldingiz, tinchlikmi?

— Shu desang, kurortda qo'rqedim. Qizlar: «Akajon, qachon uylanasiz?!» — deyishaveradi, deyishaveradi.

— Shunaqa yosh ko'rinihsiz-da ko'zlariga?

— Ko'rdingmi, shunday norg'ul ering bor, kerilsang arziydi.

— Voy savil...

— Oshdan ol.

— Tavba... — Mavluda bosh chayqab qo'ydi-da, laganga qo'l uzatdi...

— Rassomlar farishtaning rasmini menga qarab chizsa

ham bo'ladi. Ikki biqinimdan qanot chiqarsa, kifoya... — Komil endi o'zini maqtovchi hazillarini boshladi.

Har nechuk, Mavludaning «arazi» besamar ketmadi.

Komil mehri jo'shib, xotininining qozon-tovog'igacha yordamlashgan bo'ldi.

— Haligi gap nima bo'lyapti, xabar olyapsanmi? — deb so'radi Komil yotar mahalida.

— Opam xabar berishlari kerak. O'zingiz o'g'il bo'l-sin, degansiz-ku. Kutasizlar deyishyapti.

— Dadam sira ro'yxush bermayaptilar. Ertaga borib, yana bir so'rayman. Endi xo'p, der?! Ertadan qolsam, terim tashvishi boshlanib, borolmayman...

* * *

Mavluda to'satdan uyg'onib ketdi. Tush ko'rmayotgan edi. Cho'chimadi ham. Komil boshini uning ko'kragiga qo'yib, yengil xurraq otyapti. Uyg'otib yubormay deb, qimirlamadi.

Ertami, indinmi bu uy to'lishib, fayzli bo'lib qoladi — chaqaloq isi kiradi. Kechalari yig'laydi. Mavluda ko'krak tutadi. «Astoydil mehr qo'yib emizsa, sut keladi», deyishadi, kelarmikan? Bola ko'krak isidan begona odamlar qo'lida ekanini sezmasmikan? Bolasini qoldirib ketadigan ayol qiyalmasmikan? Bola — ona vujudining bir bo'lagi-ku, qanday uni yulib tashlay olarkin? Mavluda hali ko'rmagan, balki umr bo'yi ko'rmaydigan o'sha «ona»ga ham achinardi, ham undan nafrattanardi. Garchi bunday hodisalar yuz berib tursa-da, ularga bolasini tashlab ketishi mumkin bo'lgan xotin topilishiga nimagadir ishongisi kelmas edi. G'oyibdag'i bu «ona» ba'zan uning ko'ziga sochlari parishon, ko'zlar to'la mung, faryod urayotgan mushtipar bo'lib, ba'zan yo'rgaklangan bolaga sovuq nazar tashlab, teskari o'girilgan yalmog'iz bo'lib ko'rinardi. Har ikki holda ham yuragi ezilardi.

Tabiatning ishlariga tushunib yetish qiyin. Bir ayol bola tug'sam deydi, tunlarim bedor o'tsa deydi, bolamni emizsam, deb ko'kraklari tirsillaydi. Boshqa bir ayol esa to'qqiz oy ilgarigi oniy lazzatlarini la'natlay-la'natlay go'dakni bag'ridan yulib, yetti yot begonalarga tashlab

ketadi. Zamon og‘ir bo‘lganda tushunish mumkin edi. Bolani boqolmay tashlab ketgan, deb kechirish mumkin edi. Endi-chi? O‘sha noma’lum ayol Mavludaga bolasini qoldirib, demakki, bu xonadonga shodlik, balki baxt in’om etayotgan bo‘lsa-da, Mavluda uni kechira olmas edi. Chaqaloq yig‘laganida uni bir la’natalashiga, shirin kulganida ming la’natalashiga ishonar edi. Mavluda ba’zan o‘zini «ona» o‘rniga qo‘yib ko‘rmoqchi bo‘ldi. Ana o‘shanda go‘yo yuragi to‘xtab qolardi. Nafasi bo‘g‘ziga tiqilib, ko‘z oldi qorong‘ilashib ketardi. Yo‘q, o‘zi och qolsa ham, xor bo‘lsa ham chidardi, ammo bolasini birovlarga bermasdi... Balki... o‘sha «ona» ham tug‘masidan ilgari shunday deb o‘ylagandir? Keyin... Yo‘q, yo‘q! Nima bo‘lganda ham Mavluda buni hazm qilolmadi... Lekin bolani asrab oladi. Bor mehrini, o‘z tuqqaniga atalishi lozim bo‘lgan mehrini, umrini shu begunohga ataydi...

U uylarida chaqaloq paydo bo‘lishini ana shunday og‘ir bir yurak to‘lg‘og‘i bilan kutardi.

Hozir to‘satdan uyqondi-yu o‘sha to‘lg‘og‘i tutdi.

O‘zi yetim o‘sgan emasmi, nazarida tug‘ilajak bolalar ning taqdiri ham shunday edi. Ko‘ziga zor qaqlayotgan bolalar ko‘rinaverardi. Shu sababli ham Komilga tegib, bo‘yida bo‘lmanida avvaliga quvondi. Yillar o‘tib, quvonch cho‘g‘i so‘na boshladi. Farzandsiz o‘tishini bilgach, o‘ksiy boshladi. Bola asrab olish haqida ko‘p o‘yladi. Bu tashabbus eridan chiqishini kutdi. Nihoyat, Komil aytди...

Bu tomonlarga kelib qolishining sabablaridan biri, ehtimol, asosiysi ham shu. Tanishlardan uzoqlarda asrab olsa, keyin o‘zi tuqqanday gap tarqatsa... Bola ulg‘aygach, shaharga qaytib kelsa... Hech kim bilmasa, asrandiligini bolaga birov aytib qo‘ymaydi.

Hali bolani asrab olishgani yo‘q-ku, ammo Mavludada hozirdan shu xavotir uyg‘oq. Ishqilib etga bitgan tirnoq bo‘lib ketsin...

U erining sochlarni siladi. Shunday yigitga qo‘sha-qo‘sha o‘g‘illarni o‘zi tug‘ib bersa bo‘lmasmidi...

Uning o‘pkasi to‘ldi. Mijjalariga yosh quyildi.

IKKI OLAM ORASIDA

Nozima ko'zi yoshga to'lgan Mavludaga qaragani bilan uning ko'ngidan nimalar o'tganini bilmadi.

Mavluda bu gaplarni aytmadi. Aytolmasdi. U yolg'iz erini emas, ham orziqib, ham biroz xavotir bilan kutayotgani — notanish chaqalog'ini ham dafn etgan edi. Bularni qanday aysin, bu gaplar qanday uchsin tilidan?!

— Eslolmayapsizmi?

— Nimani eslay? Er-xotinning o'rtasidagi oddiy gaplar.

— Unda boshqa bir savolga javob bering: To'xtamish Omonturdiyev bilan munosabatlari qanday edi? O'qib yurganlarida oralardan gap o'tmaganmidi? Axir birga o'qigan ekansizlar-ku?

Mavludaning yuragi shuv etib ketdi. Nozimaga yalt etib qaradi.

— Oralardan... Siz To'xtamishdan gumonsirayapsizmi? Nahot u...

— Hozircha hech kimdan gumonsirayotganim yo'q, — Nozima Mavludaning sarosimasini sezdi. «Bu go'zal xonimda gap ko'p. Faqat ochilmayapti. Ichidagilarni bili-shim kerak. Juda muhim...»

Mavluda tergovchining tikilib turishini boshqacha tushundi. «Nimaga bu savolni beryapti. Biladimi? Bilsa nimaga so'raydi? O'z og'zimdan eshitmoqchimi?...»

— Ularning oralari yaxshi edi.

— Demak, institutda o'qiganda ham, sovxoza birga ishlashganda ham munosabatlari yaxshi edi, shundaymi?

— Ayollarning oiladagi o'rnni bilasiz-ku, o'zingiz ham eringizning do'stlari bilan uncha qiziqmasangiz kerak. Erning ulfati kelsa, oshxonadan chiqmaymiz.

— Omonturdiyev faqat Sadirovga emas, sizga ham kursdosh, balki do'st bo'lgan?

— «Balki» deb nimani nazarda tutyapsiz?

«Bir narsani biladi bu xotin, «balki do'st...» deb nimaga ishora qilyapti? Qayerdan biladi? To'xtamish aytganmi?...» Mana shu xayol uni biroz dovdiratdi. Hatto ovozi titradi. Nozima buni sezmaganday, xotirjam ohangda shunday dedi:

— Kursdoshlarning hammasi ham bir-biri bilan do'st bo'lavermaydi. Shuni nazarda tutyapman. Ehtimol, siz Omonturdiyevni yoqtirmagandirsiz? Bu holda eringizning u bilan munosabatiga qiziqishingiz kuchliroq bo'lardi.

— O'zingizcha krossvord yechyapsizmi?

— Topdingiz, — Nozima shunday deb jilmaydi. — Menga yechimi og'ir krossvord topshirilgan. Agar siz yordam bersangiz, ishim yengil ko'chardi.

— Men bo'yin tovlayotganim yo'q-ku!

— Bo'yin tovlaganingiz yo'q. Ammo ro'yxush berma-yapsiz. Keling, chalg'imaylik. Demak, ularning munosabatlari yaxshi bo'lgan, shundaymi?

— Ha.

— Unda siz nima uchun sovxoza emas, rayon markazidagi mактабда ishlardingiz? Orasi uzoq...

— Bu... erimning xohishi edi. U bosh agronom, men birorta bo'limda agronom bo'lsam... Ish deb oramiz buzilib qolishidan cho'chirdi. Er-xotin bir yerda ishlasa, halollik chekinishga majbur bo'ladi, derdi.

— Sovxoza мактабда ishlasangiz-chi?

— O'sha yili bo'sh o'rinn yo'q ekan.

— Omonturdiyev sovxoza 1976-yili direktor bo'lgan. Sadirovni nima uchun o'shanda emas, balki to'rt yildan keyin sovxoza chaqirdi?

— Bilmayman. Balki ilgari ham chaqirgandir. Komil akam unamagandirlar.

— Chaqirgan-chaqirmaganini aniq bilmaysizmi? Chaqirdi ham deylik. Sadirov nima uchun ko'nmagan?

— Ko'nmasliklari tabiiy edi. Buni mening tushuntirishimsiz ham anglash mumkin-ku? U kishi... Komil akam jiddiy tajribalar bilan mashg'ul edilar. Chunki u kishi na amalga, na daromadga qiziqardilar. Dard-u fikrlari faqat yangi paxta navi edi.

— Daromad deganda nimani nazarda tutyapsiz?

— Bilmaydiganday so'raysiz. Sovxoza rahbarlar orasida qanaqa daromad bo'lishi ma'lum-ku?

— Ma'lum bo'lmasa-chi?

— Unda qiziqib ko'ring. Men bu masalada bir nima deya olmayman, — Mavludaning dardli ovozida qat'iyat paydo bo'ldi.

«Asabiylasha boshladi. Demak, haqiqatga yaqin bor-yapman. Munosabat... Daromad... Ikkita yarasi bor. Hozir indamaydi. Azobga chidamoqchi. Yara madda olguncha chidar. Isitma oshkor qilgunicha tishini tishiga qo'yar. Ungacha men qorong'i ko'chalarda garangsib tentiraymanmi? Yo'q, xonim, dardlaringizni barvaqtroq ochishingiz kerak... Sovxoza rahbarlar orasida qanday daromad manbayi bo'lishi mumkin? Ko'zbo'yamachilik, qo'shib-chatib yozishlar... evaziga keladigan mablag'... Ammo avval aniqlab, isbotlash kerak. Og'zaki gap bilan emas, ashvoyiy dalillar bilan. Balki «daromad»ni bo'lishda kelishmovchilik yuz bergandir?» Nozima daftarchasiga «daromad» deb yozib, qarshisiga so'roq alovatini qo'ydi. Mavluda ko'z qiri bilan uning harakatini kuzatdi. Biroq nima yozganini anglay olmadi.

— Maslahatingiz uchun rahmat, albatta, qiziqib ko'raman, — dedi Nozima daftarchasini yopib. — Endi yana bir savol: charxpalak g'oyasi chiqmaganida sovxoza bormas edilar, dedingiz. Nima, bu ish institutda qilinsa bo'lmasmidt?

— Bo'lardi. Lekin ko'p vaqt ketardi. Institutning rasmiyatichiligi, qog'ozbozligi ko'p. Keyin direktor o'n sakkizta joyga charxpalak o'rnatib berdi. Erta bahordan kech kuzgacha harakatdan to'xtamaydi. Institutda birikki yil ichida bunaqa keng miqyosda sharoit bo'lishi dargumon.

— Yigirma ikkinchi avgust kuni ertalab Omonturdiyev eringizni qayerda ko'rishi mumkin edi?

— O'sha kunimi?.. — Mavluda qo'lidagi g'ijim ro'molchaga tikilib o'yladi. So'ng Nozimaga tik qaradi. — Hech yerda.

— Nima uchun?

— Direktor shaharda edi. Qanaqadir majlisga ketgan edi. Kiryuvdi kuni kelib, ota-onasidan ko'ngil so'rab ketdi.

— Qiziq, o'zining aytishicha, o'sha kuni Sadirovni ertalab ko'rgan... Sadirov... mast bo'lgan.

— Yolg'on! — Mavluda o'midan turib ketdi. Nozimaga hayrat bilan boqdi. — Shu gapni o'zi aytdimi, o'z og'zi bilan aytdimi?

— Aytdi, yozib ham bergen.

— G'alamis, g'alamis... — Mavluda mushtumini qat-tiq qisdi. Pastki labini tishladi. Ko'zları chaqnadi. Shu topda bor gapni — bir paytlar Omonturdiyev o'ziga oshiq-u shaydo bo'lganligi-yu uning keyingi nayranglari, Komilni haromga tortishga uringanlari — hamma-hammasini aytishga chog'landi. Bir zum, faqat bir zum shu qarorda turdi. Keyin aytadiganlarining hammasi erining ruhini bulg'ashi mumkinligini o'ylab, fikridan qaytdi. Erining haromdan hazar qilishini qanday isbot etadi? To'xtamish bez bo'lib olib, teng sherik edik, deb tursa, dodini kimga aytadi? Yo'q, yo'q, bu gaplarni ichiga yutadi. Aytmaydi, aytolmaydi...

— Nima uchun yolg'on guvohlik bergen, sababini bilmaysizmi?

— Sababini... o'zidan so'rang.

— Ba'zi gaplarni ochiq aytolmayapsiz, sezib turibman. Aytgingiz kelib qolsa, mana, mening telefonim, idoramizning manzili. Istanasangiz qo'ng'iroq qiling, yo'-lingiz tushsa, kirib o'ting. — Nozima shunday deb bir varaq qog'ozga manzil, telefon raqamini yozib uzatdi. — Savol-javobimizni bir mulohaza qilib ko'ring. Nimalarga qiziqayotganimni bilib oldingiz. Keyin... institutda o'qib yurganda Omonturdiyev bilan Sadirov o'rtasida bo'lib o't-gan xafagarchilikni batafsilroq eslashga urinib ko'ring. — Nozima shu yerga kelganda tavakkal qildi. Institutda besh yil birga o'qigan ikki qadrdon oshna o'rtasidan ham katta-kichik gap o'tishi tabiiy. Balki ular jiddiy san-manga borishgandir? Nozimaning ko'zini yumib otgan o'qi kutilmaganda nishonga tegdi. Mavluda qarmoqqa ilinganini o'zi ham sezmay qoldi:

— Axir unda Komil akamda zarracha ayb yo'q edi. Haromga chidamay, to'g'ri gapni aytganlar. Muhokamada boshqalar ham gapirishgan. Komil akamning ayblari, «Haydalsin», deb taklif kiritganlar.

— Keyin-chi?

— Keyin... majlis qaror qabul qildi. Ammo Omonturdiyev haydalmadi.

— O'sha majlis qaysi yili bo'lgan edi?

Mavluda unga yalt etib qaradi: «Bilmasmidi?!» G‘isht qolipdan ko‘chdi, javob berishga majbur.

— To‘rtinchi kursda, paxtada. Demak... — Mauluda o‘yga tolganday, bir nuqtaga tikildi. Holbuki, bu kunni sira unutolmas edi. Yarim tunda shirin uyqusidan uyg‘otib so‘ralsa ham soatigacha aniq aytib bera olardi. — 1971-yil... noyabrda, bayram kunlari...

— Mayli, buning ahamiyati yo‘q. Eng oxirgi savolim: buni so‘ramay devdim, chunki sizga og‘ir botishini bilaman. Lekin ilojim yo‘q. Savolim farzand masalasida... Guvohlar Sadirov farzandsizligidan siqillardi, deyishgan?

Mavluda ro‘molchasi bilan og‘zini to‘sdi. Darrov javob bermadi. Boshini egib oldi. Chuqur xo‘rsindi.

— Kim siqilmaydi? — dedi u boshini ko‘tarmay. — Lekin birovga arz-dod qilmaganlar.

— Ayb u kishida bo‘lganmi?

Mavluda shart boshini ko‘tardi.

— Yo‘q, yo‘q, — dedi u shoshib, — menda edi. Men... qizligimda qattiq shamollagan edim. Shuning asorati.

— Kerak bo‘lib qolsangiz sizni shu yerdan topaman-mi?

— Yo‘q, «qirq»larini o‘tkazib, shaharga, opamlarnikiga qaytaman. Bu yerda... ortiq turolmayman. — Mauluda o‘zini tutolmay yig‘lab yubordi. — Ketaman. Ketsam, mozorda yolg‘iz chirqillab qolayotganga o‘xshaydilar. Ketmasam, qaynonam kun bermaydi. Har qadamda qarg‘aydi. «Seni deb bolamdan surriyot qolmadi», — deydi. Menga qolsa... — Mauluda o‘rtandi. — Menga qolsa, etaklarini bolaga to‘ldirib tashlamasmidim...

Mavluda yig‘lay-yig‘lay chiqib ketdi.

Nozima shu ikki kun badalida benihoya toliqdi. Betinim og‘ir yuk ko‘taraverib suyaklari zirqillagan, shu mehnati evaziga la‘nat eshitib, ruhi chilparchin bo‘lgan odam ahvoliga tushdi. Chakkalari og‘rib, qovoqlariga bir nima qadalayotganday tuyuldi. Uchastka inspektoridan bosh og‘riq dori so‘ragan edi, u yelkasini qisib, kulib qo‘ydi.

«Yelkasini qisgani-ku tushunarli, ammo nimaga ishshayadi? — deb o‘yladi Nozima u bilan xayrlashgach. — «Boshog‘riq ishning orqasidan yurib, boshingizni og‘ritib

nima qilasiz?» — demoqchi bo'ldimi? Yo: «Eplagan odam ishlaydi bu ishda», — deb tirjaydimi? Hali bu ishni tugatguncha validolga o'tib olmasam edi. Namuncha!!! Bosh og'rig'iga shuncha gapmi?! Ilgari og'rimasmidi? Sal charchadim. O'tib ketadi... O'tib ketadi... O'tib ketadi... Ana, zirqirashi qoldi. Issiq choy bo'lsa... Kechgacha uyg'a yetib olishim kerak... — Mashinaga chiqib o'tirib, soatiga qaradi. — Ulguraman, Dilshod: «Ayam qani?» — deb so'rayverib, hammani bezor qilib yuborgandir? Ikki kunda ikki vagon gap yig'ilib qolgandir uyda. Ikki kunlik yurishim uchun ikki haftalik qosh-qovoqqa chidayman endi. Yo tavba!»

Nozima bularni o'ylagan sayin bosh og'rig'i zo'raydi. Xayolini chalg'itish uchun atrofga qaradi. Daraxt kam. Uylar tartibsiz sochilib yotgan qutilarga o'xshaydi. Yo'l chetida yerning sho'ri chiqib yotibdi. Atrofda e'tiborni tortadigan narsa ham yo'q. Uchastka inspektorining lutfi bilan topilgan «Zaporojes» ko'kyo'tal odamga o'xshab yo'talib-yo'talib, silkinib-silkinib qo'yadi. Haydovching xotirjamligiga qaraganda, mashinaning kasali «o'ladigan»mas, avtostansiyaga yetib olsa bo'ladi.

Baxtiga shaharga borayotgan avtobus endi qo'zg'a layotgan ekan, chiqib oldi. O'rtadagi bo'sh o'ringa o'tirdi. Bosh og'rig'i zo'rayib, avtobusdagilarga tuzukroq razm solmay, boshini oynakka qo'ydi-da, ko'zlarini yumdi. Oldingi qatordan bolaning yig'isi eshitildi. Nozima ko'zini ochmadi. Bola ham tinmadi. Ovutolmay toqati toq bo'lgan onaning ovozi keldi:

— Ha chakaging o'chsin-a, itvachcha...

Shu gapdan keyin Nozima ko'zini ochdi. Yaltiroq durra, yaltiroq ko'ylakli ayol. Qizchasida ham yaltiroq ko'ylak. «Isib ketgan. Sun'iy tolaning zararini har kuni gapirishadi. Lekin yaltirashiga havas qilib kiya verishadi. O'zлari kiysa mayli, bolani mayib qilishadi, — deb o'yladi Nozima ensasi qotib. — Befarosat...» Ayniqsa, ayolning: «Chakaging o'chsin, itvachcha», — deyishidan Nozima og'rindi. Ona astoydil qarg'amaydi, uning qarg'ishi ijebat bo'lmaydi, deyishadi-yu, lekin baribir ona o'z bolasini, ayniqsa, go'dakni qarg'asa, juda xunuk eshitiladi. Bu

naqa paytlar Nozimaning joni uzilib, halqumiga kelib qolganday bo‘ladi. Balki onasidan sira og‘ir gap eshitmagani uchun shundaydir? U ham bola bo‘lgan, ayb ishlar qilgan, lekin onasining baqirganini, qarg‘aganini yoki chimchilab olganini eslolmaydi. «Quloqqinang sitilgur, supur deb necha marta aytishim kerak!» Bunaqa gaplar xonadonlariga oralamagan. «Qizimxon, esingizdan aylanib ketay, supurishni unutdingizmi?» Mana shunaqa muomala bilan ulg‘aygan, esini tanigan Nozima qo‘pollikni hazm qila olmas edi.

Bolaning yig‘isi sabab bo‘lib, Mavludaning kuyib aytgan so‘nggi so‘zlarini esladi: «Menga qolsa, etaklarini bolaga to‘ldirib tashlamasmidim...» Ko‘ngli dardga to‘lib, o‘ksib-o‘ksib aytди bu gapni. «Menga qolsa...» Ni-maga shunday dedi? «Men tug‘ishni xohlardim, lekin bu erimdan bola ko‘rolmasdim», — degani emasmi? Yoki «Tug‘mas xotin bo‘lib qolmaganimda...» deganimi? Una-qasiga tushunsa ham bo‘ladi, bunaqasiga ham. Har holda tekshirib ko‘rish kerak. Odamning yuziga qarab bilib bo‘lmaydi. Gap-so‘zidagi ohang, ko‘z qarashlari ham aldashi mumkin...

Bola ko‘targan ayol yarim yo‘lda tushdi-yu, Nozima sal tinchidi. Yana boshini oynakka qo‘yib, ko‘zini yumdi. Shu o‘tirishda ko‘zi ilinibdi. Shaharga yetay deganda uyg‘ondi. Tomog‘i qaqrab, lanj bo‘lib uyg‘ondi. Avtobusdan tusha solib, suvga intildi. So‘ng taksi to‘xtatib, uyiga shoshildi.

O‘g‘li quchoqlab olganicha anchagacha qo‘yib yubormadi. Qaynonasi oshxonada ekan, bir qo‘lida qoshiq ko‘targanicha chiqib, salomga alik olgach:

— Bugun ham qolarmikinsiz, debmiz, — dedi.

«Pichinglar boshlandi...»

— Vaqtliroq qaytmoqchi edim, ikki kishini so‘roq qilishga to‘g‘ri kelib qoldi.

— Bolangizning yuragi uzilib ketdi.

Nozima ham mehri jo‘shib, ham dili poralanib o‘g‘lining yuziga yuzini qo‘ydi.

— Adasi ko‘rinmaydilarmi?

— Oshxo'rliqi bor ekan. O'zimizga mastava solib qo'ydim.

Muxtor shirakayf holda qaytdi. Nozima bilan quruq emas, har holda, noxush so'rashdi. Nozima: «Erim kechikkanim uchun xafa», — deb o'yladi. Muxtor yotar mahalida bu kayfiyatining boisini aytdi:

— Buguncha birga yotmaylik, — dedi u. O'rin sola-yotgan Nozima yostiqni ushlagancha dong qotdi. — Ko'nglingga kelmasin. Lekin ikki kundan beri ko'z yumsam, seni murdaning ustida ko'raman. Badanim muzlab ketyapti. Irganayotganim yo'q, xafa bo'lma. Lekin... aytmaganing yaxshi edi. Bir-ikki kun o'tsin, odatimni bilasan-ku...

Biladi. Muxtor hatto ko'ngli tortmagan odamning piyolasidan choy ichmaydi. Suyuq odam bilan ko'rishguday bo'lsa, qo'lini qayta-qayta yuvib, atirda artadi. Qaysi bir yili mashina uning ko'z oldida mushukni majaqlab o'tgan ekan, to'rt-besh oy go'sht yemadi... Nozimaga bu odati ma'lum. Shuning uchun indamadi.

O'rinni boshqa soldi.

Ko'zi yorib, chillasi chiqqandan beri bo'lak o'rinda yotmagan edi. Xo'rliqi keldi. Dardini ichiga yutdi.

Ertalab choy tayyorlayotganda ovsini kirib keldi.

— Jiyانboyevga uchradik. Gapimizni eshitmadni, — dedi u hol-ahvol so'rashgach. — «Agar atrofimda shunaqa o'ralashaverib, o'rtaga odam qo'yaversangiz, «153» bilan «154»ni naq peshanangizga yopishtiraman», — deydi. «Bu nima deganingiz?» — desak, «O'sha qarin-doshingizdan so'rang, tushuntirib beradi», — dedi.

Nozima qaynonasiga choy uzatib, biroz o'yga tol-ganday jim o'tirdi. U tergovchining maqsadini darhol anglagan, lekin buni ovsiniga, qaynonasiga qanday tushuntirishni bilmay, garang bo'layotgan edi. Qaynotasi bu ishga aralashmaydi. Bahorda shamollasa, kuzda aksa uradigan toifali bo'lgan qaynotasining shu odati yaxshi — mayda-chuyda gaplar bilan ishi yo'q...

Har qalay, Nozima dasturxon atrofida javob kutayot-ganlarga tushuntirishga majbur.

— «153» bilan «154» degani jinoyat kodeksining

moddalari. 153 — sizga, 154 — menga tegishli. Pora ber-
gan odam uch yildan sakkiz yilgacha, o'rtada turgan —
yetti yildan o'n besh yilgacha...

— A?! — Muxtor o'midan turib ketayozdi. — O'n
besh yilgacha?

— Ha, buning ichida mansabni suiiste'mol qilish ham
bor.

— Sen aralashma bu ishlarga, eshitdingmi, aralash-
ma! — Muxtor shunday deb piyolani xontaxtaga do'q etib
qo'ysi. — Turmaga ovqat tashishim qoluvdi.

— Birov xotiningni qamayotgani yo'q-ku, muncha
hovliqasan, o'zingni bos, — dedi onasi.

— Voy, biz faqat maslahatga kelyapmiz-ku, — dedi
yangasi.

— Maslahatga kelsangiz, eshigimiz ochiq. Lekin bu-
ning, — Muxtor Nozimaga imladi, — boshini qotirmang.
Bo'pti. Men ketdim.

Nozima erini kuzatishni ham, joyida o'tiraverishni
ham bilmadi. Qaynonasining tumtayganini ko'rib, joyidan
jilmadi.

— Tergovchiga yana pulni shama qilganga o'xshay-
sizlar, — dedi Nozima dasturxon uchini beixtiyor qayirib.

— Yo'-o'q, baraka toping, dedik, bolalaringizning
rohatini ko'ring, dedik, to'ylaringizda xizmat qilaylik,
dedik...

— Shu gaplar shartmidi? Bolalarni gumon bilan emas,
jinoyat ustida qo'lga olishgan. Odamlar yaralangan. Har
qancha duo qilganingiz bilan jazodan qutqarib qolol-
maymiz. Jiyancoyevning aytishicha, ukangiz o'ziga-o'zi
qilyapti. «O'g'riboshi men edim», — deb turganmish.

— Voy sho'rim, nimaga o'g'riboshi bo'larkan?

— U hali balog'atga yetmagan. Boshqalar o'n sakkiz-
dan oshgan. Ular og'irroq jazo olishadi. Ulardan biri
o'g'riboshiligini bo'yniga olsa, jazosi yana ham og'ir-
lashadi. Ukangiz mardlik qilib, sheringining jazosini yen-
gillatmoqchi. Tergovni chalg'itgani uchun bo'yniga qo'-
shimcha ayb qo'yiladi. Buni tushuntirib qo'yish kerak
unga.

— Baraka topkur, o'zingiz tushuntiring.

— Bu ishga aralashishga haqqim yo‘q. Tergovni men-ga topshirishganda ham rad etishim shart edi. Chunki qarindoshchilimiz bor. Lekin men yana Jiyaboyev bilan gaplashib ko‘raman. Balki ukangiz bilan suhbatlashishga ruxsat etar. Har holda, ukangiz to‘g‘ri ma’lumot bersa, tergov yengillashadi-ku.

— Bo‘yniga olsa, necha yil beradi? — dedi qaynonasi.

— Hozir bir nima deyish qiyin.

Ovsini «onasiga qiyin bo‘lgani, dadasining rangi sarg‘ayib ketgani»ni aytib, ko‘ziga yosh oldi. Qaynonakelinning o‘zaro gaplari boshlanganini sezgan Nozima uzr so‘rab, o‘midan turdi. Qaynotasiga yana bir choynak choy damlab berdi-da, ishga otlandi.

Xonasiga kirgan hamono stol ustidagi gazetaga ko‘zi tushdi. Odatda, stoli ustida hech narsa qoldirmasdi. Hayron bo‘lib, gazetani qo‘liga oldi. Birinchi sahifada «Qimmatli tashabbus» degan yirik sarlavha. O‘ttada surat. Suratda... To‘xtamish Omonturdiyev. Bir qo‘lida buklog‘liq gazeta, ikkinchi qo‘li bilan paxtazorni ko‘rsatib gapiryapti. Atrofidagilar uning gapini go‘yo jon qulog‘i bilan eshityapti... Nozima tik turganicha maqolani o‘qib chiqdi. Ma‘lum bo‘lishicha, o‘n uchinchi sovxozi paxtakorlari hosilni o‘z kuchlari bilan terib olishga, shahardan hasharchi chaqirmslikka qaror qilishibdi. Tashabbus Markazkomda qizg‘in ma‘qullanibdi...

Nozima ajablandi: gazetani kim qo‘yan? Nima maqsadda? Omonturdiyev bilan o‘ynashma, uning obro‘yi baland, demoqchimi? Bu tashabbuslar, shov-shuvlarning «Ish»ga nima daxli bor? Omonturdiyev jinoyatchi bo‘lib chiqqan taqdirda ham bu tashabbusi evaziga jazodan olib qolinmaydi-ku? Yoki bu «qo‘rqan oldin musht ko‘tarar»ning bir ko‘rinishimi?

Shu o‘ylar bilan band bo‘lib turganida eshik qiya ochilib, bo‘lim boshlig‘i ko‘rindi.

— Ha, keldingizmi? — dedi u ostona hatlab. — Gazetani kecha men qo‘yuvdim. O‘qigandirsiz?

— Ha, o‘qidim. Lekin nima maqsadda qo‘yaningizga tushunmadim.

— Nimasiga tushunmaysiz? — Bo‘tayevning qoshlari

chimirildi. — Ehtiyyot bo'lib ish ko'ring, direktor kattalarning nazariga tushgan odam.

— Kattalarning nazariga tushgan bo'lsa, «Ish»ni yengil-yelpi yopish kerakmi?

— Singlim, avvalo sizdan yoshim katta, qolaversa, mansabim yuqori. Shuning uchun betga chopmang bunaqa. Ayol kishi hatto bizning sohamizda ham muloymiligi yo'qotmasligi kerak. Bunaqada siz bilan uzoq ishlay olmaymiz. Xo'-o'sh, eksgumatsiya natijasi qanday?

— Guvohlarning da'vosi tasdiqlanmadidi. Marhum ichmagan ekan. Bundan tashqari, orqa miyasiga o'tmas narsa bilan urilgan.

— A? — bo'lim boshlig'i eshikni yopdi. — Ichmagan bo'lsa... Qiziq, qiziq. Endi nima qilmoqchisiz?

— Ertaga marhum cho'kkani, murda chiqarib olingan yerlarni aniqlayman. Yana ba'zi gumonlarimni oydinlash-tirib olishim kerak. Umuman, jinoiy ish qo'zg'ash kerakka o'xshaydi. Men buni polkovnikka aytdim.

— Xo'sh?

— U kishi hali ertamasmikan, dedilar.

— Erta... Ha, hali erta. Bu sizning birinchi mustaqil ishingiz. Har qadamingizni o'chab bosing. Ochig'i-ni aytay, sizni bunchalik astoydil kirishasiz, deb o'yalmovdim. Lekin «Ish»ni yaxshi yakunlashingizga hali ham to'la ishonch hosil qilmadim.

— Ochiq aytganingiz uchun rahmat, o'rtoq mayor. Menga nima uchun ishonmasligingizni bilaman.

— Nima uchun?

— Ayolman-da.

— To'g'ri, Sherlok Xolmslik erkaklarning ishi. Fikrimga qo'shilmaysiz, bilaman. Hech bo'lmaganda uchinchi kursdaligingizda sizni ko'rganimda, bu yo'ldan qaytarardim. Endi kech... Hozir boshqa bo'limda ishlaganingizda ham, balki sizga bunaqa muomala qilmasdim... Kerak bo'lsam, kirarsiz...

Bo'lim boshlig'i chiqib ketdi. Nozima ishga kelgandan beri ro'yxush bermayotgan boshlig'i bilan endi sal ochilib gaplashishi. U boshlig'ining nima uchun «ochilib» gaplashganini bilmaydi, lekin birdaniga ko'ngli ilidi. Biroq

bu ish ayol kishiga bo'ladi, bunisi to'g'ri kelmaydi, deyishi noto'g'ri. Nozima boshliqning shu fikrini hazm qila olmadı.

Nozima telefon qilib Jiyanboyevni yo'qladi-da, maqsadini bildirdi. Jiyanboyev Qodirni yarim soatlardan so'ng so'roqqa olib kelishlarini aytib, Nozimanı taklif qildi.

Nozimaning nazarida Qodirning yuzi shishinqiragan, qisiq ko'zlarida bezovtalik zohir edi. Nozima avval unga oilasidagi ahvolni, ota-onasi g'oyat tashvishda ekanini bildirib, so'ng nasihat qilgan bo'lidi. Bo'yniga nimalarni olayotganini tushuntirdi. Qodir uning gaplarini indamay eshitdi. Ahyon-ahyonda Jiyanboyevga o'g'rinchä qarab qo'ydi. Jiyanboyev esa undan ko'zini uzmay o'tirardi.

— Opangning gaplarini eshitdingmi, chuqurroq o'ylab ko'r, — dedi Jiyanboyev.

Qodir unga qarab istehzo bilan kuldi:

— Opachamizni bekorga ovora qilibsiz. O'sha gapim — gap!

Buni eshitib Nozima sapchib tushay dedi, aralashganiman ming pushaymonlar yedi. Jiyanboyevning ko'ziga qaray olmay qoldi. Jiyanboyev esa o'rnidan turib, Qodirning tepasiga keldi. Qodir bezrayib o'tiraverdi.

Nozima o'zi istamagan holda uni yana insofga chaqirmoqchi bo'lidi:

— Qodir, ahvolingga bir qara, sen shunaqa kursida o'tiradigan bola emassan-ku?

Qodir Nozimanı birinchi marta ko'rayotganday boshdan oyoq razm solib chiqdi. «Ilgari bunday bezbet emasdi yo men sezmasmidim?» — deb o'yladi Nozima.

— Bunaqa kursida o'tiradigan bola qanaqa bo'lishi kerak? Nimaga menga aql o'rgataverasiz? Menga shunaqa hayot yoqsa-chi? Sizga nima?

— Boraver, bugungi so'roq tugadi, — dedi Jiyanboyev.

Qodir turib, qo'lini orqasiga qilganicha eshik tomon o'girildi.

— Shunday bo'lishini biluvdim, — dedi Jiyanboyev militsioner Qodirni olib chiqib ketgach. — Bu ahvolida qamalib chiqqanidan keyin ham baribir hamtovoqlari bilan

topishadi. Bizning bu nasihatlarimiz uy yonib bitgandan keyin sepilayotgan suvgan o'xshaydi. Bunaqalarni ko'raverib ko'zim pishib ketgan. Siz ham ko'nikib qolasiz. Bugun ishim ziqroq, leytenant, xafa bo'lmasiz.

Qodirning qiliq'idan ham izza chekib, ham g'azabga kelib o'tirgan Nozima o'rnidan turdi-da, Jivanboyevga rahmat aytib, chiqdi.

Xonasiga kirib, qo'li ishga bormadi. Jag'ini qo'liga tirab o'tirib oldi. «Nimaga aralashdim? — deya o'zidan xafa bo'la boshladi. — Menga nima zarurligi bor edi? Bu bolaning insogfa kirishiga ishonarmidim? Yo'-o'q... O'tgan yili gaplashganimdayoq ma'lum edi uning fe'li. Xo'p, aqlini topib, bor gapni ochiq aytdi, deylik. Tergov ishi biroz yengillashishi mumkin, bu yaxshi. Lekin baribir chekiga tushganini oladi. O'tirib chiqadi. Qolgan sheriklari ham bir-ikki yil oralab ozod bo'lishadi. Yana topishishmaydimi? Jazoni o'tab kelishgach, yana pes pesni qorong'ida topganday topishishadi. Bitta-yarimtasi esini tanib, balki to'g'ri yo'lga tushar. Qodir-chi? Qurolli odamlar qo'riqplaydigan bankka hujum qilishdan tap tortmagan bola ko'chada sayr qilib yurgan begunoh bir qizga yoki bir yigitga qasd qilishdan qaytarmidi. Qimmataho telpak yoki jinsi shim uchun o'ldirib ketishi hech gap emas. Uning qo'li qaltiramaydi o'sha topda, yuragi bezovta urmaydi. Ko'ziga odamning joni emas, telpak yoki shim ko'rindi. Men shunaqa bolaning jazosini yengillatish uchun o'rtaga tushdim!! Qanday kaltabinlik! Men o'zim shundaylarning jazosini berish uchun bu kasbni tanlagan bo'lsam-u, yana xohishimga qarshi yursam?! Nimalar bo'lyapti o'zi? Ishim, maqsadim bo'lak, uyim, turish-turmushim bo'lak. Ikkovi ikki olam. Bu yerda qonun yuzasidan talab qilaman. U yerda esa mute-man. «Bola og'ir jinoyat qilgan, shunga yarasha jazosini olishi shart», — deb aytishim mumkinmidi? Nima uchun aytolmadim? Tili qisiqlik joyim bo'lmasa... Keyingi g'idi-bidilardan cho'chidimmi? Erim men tomonda-ku? Yoki yuz-xotirlik kuchlimi menda? Agar shu gaplarni dangal aytsam, menga nima bo'lardi? Hech nima, faqat ular bilan yuzko'rmas bo'lib ketardik. Bir bezori, yaramas uchun

shuncha tashvish... Bezori uchunmi? So'nggi daqiqada shunday deymiz. Axir u bezori bo'lib tug'ilmaganku? Uni qora kursiga yo'llagan odamlar endi zir yugurishyapti-ku? «Oy tug'sa ham o'g'limga tug'sin, kun tug'sa ham...» — deb havolatishning achchiq mevasini totib, boshlarini qaysi toshga urishni bilmay faryod chekishyapti-ku! «Menga shunaqa hayot yoqadi», — deydi. Yoqmaychi! Ota-onasining yugurib yurganini biladi. Qutqarib oladi, deydi. Shuning uchun osmonda. Hozir qutqarib qolisholmaganda ham, ozod bo'lgach, quchoq ochib kutib olishlarini biladi. Shu qilmishi uchun barcha yuz o'girib ketsa, u buni bilsa, o'zini boshqacharoq tutardi. Ha, mayli, busiz ham tashvishlarim yetib ortadi. Ertaga o'n uchinchi sovxoza borishim kerak. Hamidovaning to'yi o'tgandir, u bilan gaplashishim lozim. Kelinchakni qanday chaqirdim? Hozir uning har qadami hisobli. Yo'lini topishim kerak. Bugun Sadirov o'qigan institutga borsammikan? Hech bo'lmasa o'sha majlisning protokolini ko'taray...»

Nozima shu qarorga kelib, o'rnidan turdi. Mayor Bo'tayevga borayotgan yerini aytib, ko'chaga chiqdi.

Dekan baland bo'yli, go'shtdor kishi ekan. Tez gapirganidan Nozima uning so'zlarini dastlab uqmadi. «Darsni studentlar qanday tushunarkan?» — deb o'yladi. Diqqat bilan quloq tutdi. Dekan Omonturdiyevni darrov esladi.

— O', chapdast yigit edi, — dedi u. — Bunaqlar kesakdan olov chiqarib berishi mumkin.

— Yaxshi o'qirmidi? — deb so'radi Nozima.

— Yo'q, umuman, bunaqlarni har xil ilm bilan boshlarini qotirmaslik kerak. Ularga tuproq tarkibida necha protsent kaliy borligini bilish shart emas. Chunki bunaqa yigitlar oqibatda, albatta, ishboshqaruvchi bo'la di. Mana, Omonturdiyev — sovxozi direktori! Bilasizmi, u sovxozi yo'qdan bor qilgan. Unga rayonni topshirishsa, rayonni ham gullatadi. Kechagi gazetani ko'rdingizmi? Tashabbusidan xabar topgandirsiz? Agar barcha xo'jalikning rahbarlari paxtani o'z kuchlari bilan terib olish masalasini hal qilsa, studentlar ham, maktab o'quvchilari ham faqat o'qishni o'ylashadi. Albatta, biz shogirdimiz bilan faxrlanamiz. Lekin haqiqatga ko'cha

digan bo'lsak, bu ishlarni institutimizda o'qimayoq qila-verardi. Buni tug'ma talant deydilar.

— Sadirov-chi? Sadirovni eslaysizmi? Omonturdiyev bilan birga o'qigan ekan.

— Komilmi? Nimaga tanimay? O'qishni bitirib, o'zimizda besh-olti yil ishladi.

— Ishladi?

— Ha, maxsus kurs o'tardi. Asosiy ishi ilmiy tekshirish institutida edi. Yigirma yil dekan bo'lib, Komilday aqlli yigitni ko'rmaganman. Buning zuvalasi boshqacha edi. U Omonturdiyevning butunlay aksi. Mana shunaqalarni o'qitish kerak. Yaxshi bilim bersangiz, evaziga fanga boylik qo'shiladi. Studentligida men bilan olishardi. Ha, ha, men fan kandidati bo'lganim bilan yangilikdan vaqtida xabar topolmayman. U, bilishimcha, boshqalarga o'xshab kino-kafe qilib yurmas ekan. Kutubxonaga uya qurgan studentlardan qo'rqish kerak! — dekan shunday deb kului. — Kutilmagan savol bilan «nokaut» qilishi mumkin. Dars o'tayotib Komilga ko'p qarardim. Domla sifatida ham puxta edi. Studentlarni o'ziga jalb qila olardi.

— Nima uchun uni butunlay shu yerga chaqirma-gansiz?

— U yangilik ustida ishlardi. O'zining biz tushunishimiz qiyin bo'lgan dunyoqarashi bor edi. Uning kallasi bilan ikki yilda dissertatsiya yoqlash mumkin. Lekin u hatto bu ishga kirishmadi. Umuman, fanda shunaqa fidoyilar bo'ladi. Qishda bir ko'rinvud. Omonturdiyevning odami o'qir ekan. Shuning orqasidan kelibdi. Bunaqa odati yo'q edi, hayron bo'ldim.

— Kim ekan u?

— Bilmadim, xushro'ygina qiz.

— Familiyasi... Hamidova emasmidi?

— Eslayolmayman. Har holda, o'sha sovxozdan birgina student o'qisa kerak. Lozim bo'lsa aniqlaymiz.

— Agar malol kelmasa...

Dekan kotibani chaqirib, topshiriq berdi.

— Siz o'n yil avvalgi bir voqeani eslay olmaysizmi? Bayram kunlari, paxta terimi paytida bo'lib o'tgan?...

— Omonturdiyev masalasidami? — dekan Nozimaga

qarab kulimsiradi. — Bilmagan narsalaring yo‘q. Axir, u jinoiy ish emas-ku? Ma’naviy buzuqlikka qarshi kurashish uchun muhokama qilganmiz.

— Har holda... batafsilroq aytib bersangiz...

— Omonturdiyev qizlar masalasida ham chapdastroq edi. Bir qizimiz bilan... xullas, juda xunuk ahvolda qo‘lga tushishgan. Qiz o‘zim xohladim, deb turib oldi. Omonturdiyev uylanaman, dedi.

— Uylandimi?

Dekan o‘ylanib turib, bosh chayqadi:

— Keyin qiziqmabmiz.

— Komil Sadirovning bu ishga qanday aloqasi bor edi?

— Komilmi?.. U bunaqa ishlardan chetroqda yurardi.

— Majlisda gapirmaganmi?

— Majlisda... gapirgan edi, shekilli?.. Ha, bo‘ldi, esladim, ikkovini haydashni taklif etgan.

Kotiba kirib, o‘n uchinchi sovxozdan faqat Hamidova o‘qishini aytди.

— O‘sha majlis protokoli bilan tanishmoqchiman, — dedi Nozima kotiba chiqib ketgach.

— Uni komsomol komitetidan so‘rash kerak. Majlis komsomollarniki edi. Yuring, men sizni komsorg qizimiz bilan tanishtirib qo‘yaman.

Protokol arxivdan topilguncha ancha vaqt o‘tdi. Paxta sharoiti sabab bo‘lganmi yoki majlis kotibi dangasaroq ekanmi, protokol g‘oyat siqiq, qisqa yozilgan edi. Ayniqsa, Komilning so‘zлari bir necha jumлага jo bo‘lgan edi: «Inson hayvondan nimasi bilan farq qiladi? Avvalo, hirsini jilovlay olishi bilan. Sharm-hayoni yig‘ishtirib... butazordami... iskashadigan odamning itdan yoki boshqa hayvondan nima farqi bor? Hech qanaqa. Odamzodga xos bo‘lgan eng pokiza fazilatni bulg‘aganlar boshqa pastkashliklardan hazar qiladi, deb kim kafillik beradi? Boshqalarni bilmayman-u, men kafolat bera olmayman. O‘sha butazordagi bir lahzalik rohati uchun bular hamma narsani sotib yuborishlari mumkin. Shularga diplom berib, bor, dehqonlarga aql o‘rgat, deymizmi? Yo‘q, bular bu ishonchga loyiq emas! Taklifim — komsomoldan o‘chirib,

institutdan haydash kerak. Haydaganda ham davlatning sarf-xarajatlarini to'laydigan qilib haydash kerak...»

Nozima ko'chaga chiqib, ishxonaga borsammi, bormasammi, deb ikkilandi. Borsa, bir soat o'tiradimi, yo'qmi, uya qaytadi. Undan ko'ra bu yer uyiga yaqinroq. O'g'lini bog'chadan vaqtiroq olib, ovqatga barvaqt unnagani ma'qul emasmi? Shu qarorga kelib, bekatga o'tdi. Soyabon ostida uch qiz, to'rt yigit davra qurib, bor ovozlari bilan nimanidir bahslashishardi. Gohi-gohida soyabon ustuniga suyanib turgan yigit-qizga qarab-qarab qo'yishadi. Yigit-qiz atrofdagilarga mutlaqo e'tiborsiz. Go'yo bu yorug' olamda yakka-yolg'izlar... «Sadirovning gapida jon bor. Inson hayvondan hirsini jilovlay olishi bilan farqlanadi».

Yigit-qizning bir-biriga intilishi, xilvatdagi o'pichlar, entikishlar Nozimaga begona emas. U xiyobondagi, majnuntol ostidagi kechalarni hali unutmagan. Qarib, mun-killab qolganda ham entikib eslasa kerak bu onlarni. Muxtor akasining shivirlashlari... yuziga urilgan iliq nafasi... Lekin... odamlarning ko'z oldida suykalish?.. Hozir, bolalik bo'lganidan keyin ham qaynona-qaynotasi oldida eriga termilib qarashdan uyaladi. O'sha iymanishning, yolg'iz qolishga intilishning gashti bor. Hammasi ochiq-oydin bo'laversa... Ilgari yosh oila farzand ko'rsa, «Bolam», deyishga ota-onasidan uyalarkan. Shuning uchun bola otasini — aka, onasini — opa, deb ulg'aygan. Er: «Xotinin», deyishga, xotin: «Erim», deyishga xijolat bo'lib, bir-birini to'ng'ichining ismi bilan atab chaqirgan. Hozir ham unda-bunda uchraydi. Lekin ko'pchilik o'zini bunday qiynamaydi, lekin Nozimaning nazarida, bu odat odamda sharm-hayoni tarbiyalaydi. Ota-onasida hayo ko'rgan bola hech qachon behayolik ko'chasiga kirmaydi.

Avtobus kelib, Nozimaning xayoli bo'lindi. Studentlar chug'urlashib, o'zlarini eshikka urishdi. Bir-biriga suykalayotgan yigit-qiz jilmadi. «Demak, avtobus kutishmayapti. Bu joy shunchaki niqob...»

Nozima ertalab sud ekspert fotografni bilan o'n uchinchi sovxoza borishi kerak edi. Suratkash betoblanib qolibdi.

Bo‘lim boshlig‘i: «Siz boravering, kapitan Odilovga telefon qilaman, yordam beradi», — degach, yo‘lga tushdi.

Uni kichik leytenant Nusratov kutib oldi.

— Kapitan raykomga ketdi. Suratkash kerak ekan, o‘zim olaveraman, — dedi u.

— Qayerda cho‘kib, qayerdan chiqarib olinganini aniqladingizmi?

Nusratov yelka qisdi. «Tergovchining ahvoli», — deb o‘yladi Nozima g‘ijinib.

— Murdani kim suvdan chiqarib olganini-chi?

— O‘tgan safar ham mendan g‘ashingiz kelgan edi. Bu ishni tekshirmaganman. Qo‘limga berishgan qog‘ozlar bilan rasmiylashtirganman, xolos. Loyqasi chiqishini kim bilibdi?

— Hamma ishlarni shunaqa rasmiylashtirasizmi?

— Unaqa deb o‘ylamang, men kichkina odamman.

— Durust. Endi katta bo‘lguningizcha faqat loyqasi chiqmaydigan ishlarni rasmiylashtirishga harakat qiling.

— Siz meni... mendan bekorga achchiqlanayapsiz. O‘zim ham tushundim aybimni. Kelib-ketganingizdan beri ich-etimni yeb yuribman.

— Bu gaplarni nimaga menga aytyapsiz?

— O‘zimni oqlamoqchi emasman. Siz men qiladigan ishni qilyapsiz. Shunda yordamlashmoqchiman. Nimadan boshlashni bilmayapman. Tajribam yo‘q.

— Omadingiz yo‘q ekan, men ham tajribasizman. Bu — birinchi mustaqil ishim. Sizdan ikkita iltimosim bor: avvalo, Omonturdiyevning oilaviy ahvoli bilan tanishsangiz, xotini kim, bolalari, necha marta uylangan... Keyin Hamidova bilan uchrashish yo‘lini topish kerak. To‘yi o‘tgandir?

— Chaqirib so‘roq qilaveramiz-da...

— Yo‘q, — Nozima bosh chayqadi, — kelinchakning sha’niga dog‘ tushishi mumkin. Har holda, u aybdor emas, guvoh. Hozir to‘rtinchi bo‘limga boramiz. Murdani o‘sha yerdan chiqarib olishgan.

To‘rtinchi bo‘limga kelishganda kun qizigan edi. Biolaboratoriyanı osonlik bilan topishdi. Oqlab qo‘yilgan

bir qavatlari binoning soyasida uch kishi dam olib o'tirgan ekan. Nusratov ular bilan salomlashib, Nozimani tanishtirdi:

— O'tgan oyda bosh agronomingiz kanalga cho'kkан екан. Shu masalada yuribmiz, — dedi Nozima.

— Ha-a, bechora yosh ketdi, — dedi choponi ustida chordana qurgan mo'ylovli kishi.

— Agronomni o'sha kuni ko'rghanmidilaringiz?

— Men ko'ruvdim, — dedi o'sha kishi. — Juda po'rim bo'lib yasanib olgan ekan. Oqsoqolni ko'rib kelay, devdi.

— Qayerda ko'ruvdingiz?

Mo'ylovli kishi tizzalab, bo'ynini cho'zdi.

— Hov yolg'iz tutni ko'ryapsizmi, o'sha yerda burilish bor, o'tib kelgan bo'lishlaring kerak.

— Agronom mast edimi?

— Kallayi saharlab-a? Men sezmadim. Nazarimda, kayfi yo'q edi.

— Bu tomonga nima uchun burilganini bilmaysizmi?

— Hov yerda, — mo'ylovli kishi kanal tomonni ko'r-satdi, — charxpalagi bor. O'shandan xabar olmoqchi bo'l-gandir. Yoki bu yerda ishi bordir... — U oq binoga imo qildi.

— Bu tomonda odam ko'rinnmadimi?

— Bu yoqqa qaramovdim. Sal yurganimdan keyin Subhonni ko'rdim. Shu yoqqa kelayotgan ekan. Agronomni so'radi. Shu bolaning kayfi bor ekan. Bir qadam naridan ham hidi kelib turuvdi. To'nda bo'kib ichgan bo'lsa kerak.

— Murdani shu Subhon suvdan chiqarganmi?

— Ha, shu. Suvga tushganini uzoqdan ko'ribdi, chammarda.

— U kishini qayerdan topsa bo'ladi?

— Ulgursangiz uyidan topasiz, bugun ko'chmoqchi edi.

— Uyini ko'rsatilmaysizmi?

Mo'ylovli kishi erinibgina o'midan turib to'nini yerdan olib qoqdi-da, ketmon dastasiga tashladi.

Subhon ko'chlarini eshik og'ziga yig'ib, mashina poylayotgan ekan. Mo'ylovli kishi: «Seni izlab kelishibdi», — dedi-yu, iziga qaytdi. Subhon militsiya kiyimidagi Nusratovni ko'rib biroz sarosimaga tushdi.

— Ha, yo‘l bo‘lsin? — dedi Nusratov unga qo‘l uzatib.

— Tuz-nasibamiz bitdi bu yerda, qishloqqa qaytyap-miz, — dedi aybdor odamning ovozida.

Uzun bo‘yli, ozg‘in, oftobda qorayib ketgan Subhon chaqirilmagan mehmonlarni qayerga taklif qilishni bilmay garangsidi.

— Ko‘chayotganingizni bilib to‘g‘ri kelaverdik, — dedi Nozima. Oradagi noqulaylikni ko‘tarish uchun muddaoga o‘ta qoldi. — Eshitishimizcha, agronomning cho‘kkanini siz ko‘rgan ekansiz?

— Ha, ko‘rganman, uni suvdan o‘zim olib chiqqaman.

— Batafsilroq aytib berolmaysizmi?

Subhon ko‘chdagagi katta tugunni yechdi-da, orasidan ko‘rpacha sug‘urib olib, devorning soyasiga to‘sadi.

— O‘tiringlar... — Mehmonlar o‘tirishmadid. Subhon tik turganicha gap boshladi: — O‘sha kuni ertalab uzoq-dan ko‘rdim. Biolaboratoriya yonida bir qizning qo‘lidan ushlab turgan ekanlar. Xalaqit bermay, deb bormadim.

— Qizni tanidingizmi?

— Yo‘q... Bittasiga o‘xshatdim-u...

— Kimga?

— Latofatga o‘xshab ketdi. Lekin aniq bilmayman. Keyin qarasam, qiz kanal tomon yuguryapti. Komil aka quvib ketdi. Bu qanaqasi bo‘ldi, deb hayron qoldim. Komil aka hadeganda qaytavermadi. Boshim qotib, kanal bo‘yini qaradim. Qiz ham yo‘q, Komil aka ham yo‘q. Komil aka qishlog‘iga bormoqchi ekan. Kanal oshib o‘tib ketmaydi, katta yo‘lga qaytishi kerak.

— Sadirovning uyiga bormoqchi bo‘lganini qayerdan bildingiz?

— Eshqo‘zi akadan. Sizlarni boshlab kelgan odam. O‘sha aytdi. Xullas, ko‘nglimga g‘ulg‘ula tushdi. Ikkovi cho‘kib ketgan-ov, dedim. Kalla tashlab, qidirib ko‘rdim. Keyin to‘g‘onga yugurdim. Ikki soatlardan keyin topdik.

— Yoningizda odamlar bormidi?

— Ha, to‘g‘ondagilar birga qidirishdi. Keyinroq do‘x-tir paydo bo‘ldi. Hammamizning g‘ashimizga tegib, o‘rgatib turdi. Komil akani topdik, qiz chiqmadi.

- Do'xtir deganingiz kim?
— Qamalib chiqqan bir do'xtir bor.
— Nima ish qiladi?
— Tayini yo'q. Do'xtirga ham o'xshamaydi. Bir sovuq odam.
— Ismi nima?
— Shonazir... Familiyasini bilmayman.
— Murdaning kiyimi qanaqa edi?
— Yengi kalta oq ko'yak, jinsi shim. Bitta tuflisi tu-shib qolgan ekan, to'rt kundan keyin kanal bo'yidan top-dim. Hozir biolaboratoriya turgandir.
— Bu gaplarni nima uchun hech kimga aytmadningiz?
— Kimga aytaman? Birov so'rasha aytaman-da. Mana, siz so'radingiz, boshdan oyoq gapirib berdim. Xotiniga ham aytganman.
— Qiz bilan turganini hammi?
— Hammasini.
— Eshqo'zi akaning aytishicha, ertalab agronomni so'ragan ekansiz?
— Ha, so'rovdim... Bilsangiz... to'yda ko'proq... bo'lib ketgan ekan. ertalab tursam, boshim tars yorilay deydi. Komil akamda yaxshi pivo bo'lguchi edi. Vaqtibemahal mehmon qilib turardilar. Biolaboratoriyanida xoldilnikdan pivo arimasdi. Shuning ilinjida borayatuvdim.
— Bizga kanal bo'ylarini ko'rsatolmaysizmi?
— Hozir mashina kelmoqchi edi... Mayli, birpas kutar.
Subhon shunday deb oldinga tushdi. Komilning qiz bilan turgan yerini, taxminan qayerda suvgaga tushgani, qayerdan chiqarib olganini ko'rsatdi.
Nusratov ko'rsatilgan yerlarni suratga olib, o'lchab, qog'ozga tushirayotgan paytda Nozima papkani ochib, polkovnik Sultanov bergen xatni ko'rsatdi:
— Siz yozganmisiz?
Subhon xatni o'qidi.
— Yozib nima qilaman. Til-zabonim yo'qmi?
— Balki ochiq aytishga cho'chigandirsiz?
— Be, besh kunlik dunyoda kimdan cho'chiyman? Tarashaga o'xshaganim bilan haqimni qo'ymayman, ha.

— Terim endi boshlanyapti. Ko'chib ketishingizga tushunolmayapman.

— Qovun-tarvuzlarni yig'ishtirib oldik. Tomorqani ship-shiydon qilib qo'ydik. Paxtalarini, ana, do'ndirib berdik. Sovxozning haqi qolmadi.

— Har holda...

— Endi, opa, nasihatni ko'p eshitdik. Nasihat bilan qorin to'ymaydi. Biz bu yerga besh-o'n tanga topamizmi, deb kelganmiz. Bo'lmasa paxta o'zimizda ham bor. To'rt yil bu yerning oftobida qovjirab ketdim. Birim ikki bo'lmasdi.

— Sovxozi ilg'orlardan ekan-ku, planni har yili bajarkan?

— Oshirib bajaradi. Yuz o'ndan kam bo'lganini bilmayman. Lekin biz qo'limizga arzimagan chaqa olamiz. Bizni go'l deb o'ylashadi. O'g'ri bo'l, g'ar bo'l — insofli bo'l-da! Planni bajarmagan sovxozda so'miga bir so'm-u yigirma tiyindan chiqqan. Ularda pul aylanmagan, bor paxtani berib, haqini olishgan. Shularga qarash kerak, opajon, sovxozdan bir men ketayotganim yo'q. Paxtani terib, topshirganimiz bilan sariq chaqa ishlayolmaymiz.

— Bilar ekansiz, xabar qilsangiz bo'lmaydimi?

— Kimga?

— Kattalarga.

— Ular bilmaydimi? — Subhon qo'l siltadi. — Gappingiz bo'lmasa, boray endi...

— Sadirov bilan turgan qizni yana bir eslab ko'ring.

— Komil akani uzoqdan ham tanish mumkin. Bo'ylari menga o'xhash uzun edi, qadlarini bukibroq yurardilar. Qizni uzoqdan tanish qiyin bo'ldi. Buning ustiga, hali aytganimday, boshim tars yorilay deb turuvdi.

— Sadirovning xotiniga bu voqeani aytganingizda Latofat Hamidovadan gumonsiramadimi?

— Qiziq gaplarni topib gapirasiz-a, men-ku unga gapirdim, lekin uning qulog'iga kirdimikan? Hali erining o'ligi sovumagan edi...

— Sadirov bilan Hamidovaning aloqalari qanday edi? Balki... gap-so'z bo'lgandir?

— Men erta-yu kech shu daladaman. Latofat ham,

asosan, shu biolaboratoriyyada bo'lardi. Ko'z urishtirganini sezmaganman. Lekin shaharga birga tushib turishardi. Nimagaligini bilmayman. Latofatda ozgina o'ynoqilik bor, buni sezmagan erkak erkakmas. Ammo bu qiz anoyilardanmas. Chiroyidan xo'b bilib foydalanadi.

— Bu nima deganingiz?

— Bizga o'xshab oftobda qovjirab yuradiganlar orasida bir rivoyat bor: ikkita qiz bor ekan. Ikkovi ham bir xil ishlarkan-u, lekin birining shuhrati ortib, boshqasi ammamning buzog'iday yuraverarkan. O'shanisi donishmandga borib arz qilgan ekan, donishmand: «E sodda qiz, dugonang chiroyidan bilib foydalanadi, sen uning fahmiga yetmaysan, kerakli odamlarga ko'z suzmaysan, boshlagan yeriga bora qolmaysan», — degan ekan.

— Demak, Hamidova Omonturdiyev bilan?..

— Men bunaqa deganim yo'q. Bilmaganimni gapirmayman. Lekin bir narsani aytib qo'yay: kecha... ha, kecha, direktorning yugurdagi bor, Murod degan, o'sha: «Latofat bilan Komil don olishib yurardi, bog'da o'zim ko'rganman», — deb qoldi. He yo'q, be yo'q, bu gapning chiqib qolganiga hayronman.

Nozima Subhonning ko'chib borayotgan yerini yozib olgach, ruxsat berdi. Yondaftarchasiga esa: «Subhon. Tekshirish kerak», — deb yozib qo'ysi. Bu orada Nusratov ham ishini yakunladi: voqeа sodir bo'lgan joyni turli nuqtalardan suratga olib, xaritasini hafsalan bilan chizdi.

Biolaboratoriyyaga borib, ichkariga kirishdi. Nozima dahlizga tashlab qo'yilgan bir poy tuflini ko'rib, qog'ozga o'rabi oldi. Xolodilnikda beshta pivo turgan ekan, birini olib, yorliqdagi zavodning belgisiga qaradi: «20.VIII.82». Nozima pivoning birini ham o'rabi. Stol tortmasidagi Komilning kundaligi, o'nga yaqin xatlarni olib, shaharga qaytdi.

* * *

Ertasiga tuqli bilan pivoni ekspertizaga topshirib, xonasiga kirdi. Endi kundalikni varaqlagan edi, telefon jiringladi.

— Men Nusratovman. Kechagi topshirig'ingizni bajar-

dim: Omonturdiyev bir marta uylangan. Olti bolasi bor. To'rt qiz, ikki o'g'il. Xotini — Sharifa Ziyodullayeva, 1951-yilda tug'ilgan. 1968-yil 9-may kuni nikohdan o'tishgan. Ishlamaydi. Partiyasiz. Ma'lumoti — to'liqsiz o'rta. Doktor masalasida: Shonazir Shog'iyosov. 1942-yilda tug'ilgan. Meditsina institutini bitirgan. Sudlangan. 102-modda bilan. 1980-yilda qamoq muddatini o'tab qaytgan. Murod G'aniyev, 1949-yilda tug'ilgan. Ma'lumoti o'rta. To'xtamish Omonturdiyev bilan bir maktabda o'qigan. Endi uchinchi topshirig'ingiz: Latofat Hamidova hozir rayon tug'uruqxonasida. Ikki kun burun ko'p qon yo'qotib, olib kelishgan. Kecha Omonturdiyev uni yo'qlagan, ichkariga qo'yishmagan.

— Unga nima bo'libdi?

— Qovun tushirmay, deb ko'p surishtirmadim. Balki o'zingiz kelarsiz?

— Ha, hozir yo'lga chiqaman. Shog'iyosovni chaqirishning iloji bormi? Topolsangiz, xonangizda o'tira tur-sin. Men tug'uruqxonadan telefon qilaman sizga.

CHEKINISH

1981-yilning bahori o'zining latofati, o'zining injqliklari bilan yuz ochdi. Kechagi laylakqor dalani ola-chalpoq qilib qo'ygan. Kanaldan loyqa suv to'lib oqadi. Quyosh bulutlar orasidan qaraganda odamning badaniga jon yugurgandek bo'ladi, bulut chimmatini yopganda pistirmadagi izg'irin qo'zg'alib, etga igna yanglig' san-chiladi.

Komil tabiatning ana shu qilig'iga bandi bo'lgan holda kanal yoqasida turar edi. Sho'ri yuvilgan dalaga hali traktor kirolmaydi — shudgor ham qilingani yo'q. Komil esa to'rtinchi bo'limdag'i charxpalagining chorak qismiga chigit ekdi. Havo yurishib ketsa, chigit chirimay unib chiqishi mumkin. Unda, Komilning xomcho'ti bo'yicha, paxtasi avgustning boshidayoq yetiladi. Nazariy jihatdan to'g'ri, lekin amalda qanday bo'ladi?

Studentlik chog'i kutubxonada tasodifan meditsinaga oid maqolalarga ko'zi tushib, Finleyning sariq bezgakka

qarshi olib borgan kurashi bilan tanishgan edi. Sariq kasalni chivinlar tarqatadi, degan g'oyani Finley yigirma yil himoya qildi. Isbot etishga urindi. Uning haqligi vaftidan keyin bilindi. Finleyning taxmini to'g'ri edi, ammo u bir narsani — bemorni chaqqan chivin faqat o'n ikki kundan keyingina kasal yuqtirishi mumkinligini hisobga olmagan edi. Hozir bu oddiy haqiqat bo'lib tuyuladi. Lekin bu haqiqatga kelguncha necha yillar azobda o'tdi. Necha ming odamning yostig'i quridi, necha olim farazini o'z tanasida isbot etaman deb qurban bo'ldi... Komil o'shalarga sajda qildi. Fandagi yo'lini belgilashda Finley kabi olimlarga ergashdi.

Charxpalaklarni o'rmatishda ham Finleyning qismatini unutmadi. Ular farazini isbot etish uchun kasalni o'zlariga yuqtirganlar: vrachlar moxovlar, sariq kasal, o'latga chalinganlar...ning kiyimini kiyishgan, bir kosadan ovqatlanishgan... ko'p hollarda davo yo'li noto'g'ri bo'lib chiqqan... Komil farazini bunday isbot eta olmaydi. Sehrgar kuch uni chigitga aylantirsa, tuproq bag'riga kirishga, g'o'za bo'lib, ko'sak tugib ko'z ochishga rozi edi. Lekin buning iloji yo'q. Uning yo'li faqat bir — kutish. Komil hech qachon shoshilmagan, deyilsa, lof bo'ladi. Shoshilgan, tezroq yangi navning hosilini ko'rishga oshiqqan. Lekin bu oshiqishning ortida shuhrat, unvonlar... diplom... yo'q edi, ishonavering.

Yeti yillik izlanishlarini birdan kesib qo'yib, yangi faraz ketidan tushishga barcha ham jur'at etolmaydi. Komil institutdagi tajribalarining puch gap ekaniga ishonib qolgan, ammo xomxayol o'mini egallaydigan tayinli taklifi yo'q bo'lgani uchun yarim tavakkal, yarim ishonch bilan davom ettirayotgan edi. Muallimi Xizrday paydo bo'ldi-yu, yangi faraz yo'lini yoritib berdi.

Farazni Yahyoga aytganda, u kului: «Ibtidoiy usul-larga qaytmoqchimisan?» «Har narsaning avvalboshi — ibtido». «Aqlga sig'maydigan narsa». «Agar Beruniyga paxta mashinada terib olinadi, deyilsa, u ham ishonmas edi». «Necha yil yurasan bu farazingning izidan?» «Odam, biologik imkoniyatiga qaraganda, yuz ellik yil umr ko'rarkan. Men yarmisiga ham roziman. Demak, qirq

yil vaqtim bor. Yetar-a?» «Doktorga ko‘rinishing kerak». «Ko‘rindim. Oshnangizni olib keling. Namuncha badbin bo‘lib ketdi, deyapti...»

Charxpalak bir me'yorda aylanadi. Kattasi — tuproq to‘ldirilgani sekinroq, kichigi — chigit sochiladigani tezroq. Kanal suvi bir tekisda oqadi. Shuning uchun ham charxpalaklarning tezligi aytarli o‘zgarmaydi.

Biolaboratoriya tomonda direktorning «Volga»si ko‘rindi. Komil nima gap ekan, deb shu yoqqa qarab qoldi. Kanal tomoniga keladigan yo‘lning balchig‘i chiqib yotibdi. Mashina oq imorat oldida to‘xtab, signal berdi. To‘xtamish mashinadan tushib, qo‘lini havolatib Komilni chaqirdi.

— Ha, tinchlikmi? — dedi Komil rezina etigining loyini endigina rang olayotgan chimga artib.

— Idorada senga ham xona berganmiz, joyingda o‘tirsang bo‘lmaydim?

— Idorangda nima qilaman, hisobchilaring o‘tirisha-versin. Sen menga shu biolaboratoriyaga bitta stol qo‘yib ber. Men dalaning odamiman.

— O‘zing bilasan, — dedi To‘xtamish ensasi qotibroq. Keyin qoshlarini chimirib Komilga qaradi: — Mehmونlar qani? — U g‘azabdan portlab ketay deyayotgan bo‘lsa-da, Komilga zahrini sochishga botinmadni.

— Kim? Ha, obkomdan kelgan vakilmi? Ketdi.

— Nimaga kelibdi?

— Nimaga kelardi, sovxozdagilar yerni bilmaydi, paxtani bilmaydi, o‘rgatib ketay, deydi-da.

— To‘g‘ri gapiraver.

— To‘g‘risi shu. Qachon chigit ekasiz, deydi. Orqamdan yuring, dedim. Dalaga olib chiqdim. O‘n qadam loy kechdim. Qarasam, turibdi. Ha, desam, «Loy-ku?» — deydi. Traktor sizga o‘xshab yaltiroq tufli kiyib yurmasa ham, baribir loyga tusholmaydi. Yana bir kelganiningizda dalani ham uzunasiga, ham ko‘ndalangiga bosib o‘tasiz. Keyin chigitni ekaveramiz. Agar biror sovxozi dirijablda turib ekayotgan bo‘lsa, aytинг, o‘rganaylik, dedim.

— Xo‘sish?

— Nima, xo‘sish? Ketdi.

— Indamadimi?
— Indadi... xayr, dedi.
— Maynavozchilik qilma.
— Og'zidan chiqqan gapni ayt yapman.
— Choy-poy qildilaringmi?
— Yo'q. Bunaqa ishlarga toqatim yo'q.
— Hurmat degan narsani bilish kerak.
— Sovxoz hisobidan mehmon qilish hurmatga kirmaydi. Agar obkom vakilining shu mehmonorchilikdan ilinji bo'lsa, uni umuman hurmat qilmay qo'yaman.
— Komil, og'ayni, — To'xtamish jahl bilan ish pishtib bo'lmasligini bilib, yumshoq muomalaga o'tdi. — Kelishib olaylik: dalachilikning o'z taomili bor. Ba'zan qoidadan chiqilsa, osmonga sapchima. Shaharning yo'-rig'i boshqa — har qadamda yemakxona. Arzimagan pul bilan mehmonning qornini to'ydirasan. Bu yer qishloq — yo'l odamni qoqib tashlaydi, har qadamda oshxona yo'q. Bu birinchidan. Ikkinchidan, mehmonlar masalasiga aralashma. Men bo'lmasam, partkom bor, rabochkom bor, o'zları eplashadi. Sen, mana, dalangni bil. Paxtani bil. Ertagayoq stolingni shu yerga olib kelib berishadi. Shunday qilsak, oshnachiligidiz buzilmaydi.

Komil To'xtamishga tikildi.

Xo'p odamga hamtovoq bo'ldi-da! Ming yil bir qozonda qaynatsa ham qoni qoniga qo'shilmaydi. Komil To'xtamishning qanday odamligini unutdimi? O'sha buzuqligini qoralagani, haydashni taklif etganini unutdimi? Yo'q. Boshqa kursdoshlarini yoddan chiqarsa chiqaradiki, buni unutmeydi. To'xtamish xotiradan ko'tarilmaydigan nusxa. U o'tmishni yerga ko'mdim, deydi. Komil bu gapga ishondimi? Ishonsa, bu dunyodagi so'ngi go'l odam shu — Komil bo'lmasmidtı?

Ha, To'xtamish o'tgan gaplar ustiga tuproq tortdi. Lekin xuddi sabzini ko'mganday tortdi. Kerak paytida tuproqni sidirsa har bir so'zi, tinish belgilarigacha mana men deb qad rostlaydi. Buning uchun uch-to'rt yil vaqt o'tadi. To'xtamish fan kandidati bo'lib olishi kerak. Shuning evaziga tishini tishiga qo'yadi, bu haqiqatparastning qiliqlariga chidaydi.

Komil esa tajribalari uchun yaratilayotgan sharoit evaziga bu muttaham bilan osh-qatiq bo'lishga majbur, u ham tishini tishiga qo'yadi, chidaydi. Ba'zi masalalarda chekinsa ham ajab emas.

Mana, birinchi arzimas to'qnashuvda chekinishga to'g'ri kelyapti.

Chekindi.

To'xtamishning yuzini mammunlik yeli silab o'tdi. «Oshnasining» yelkasiga qo'l tashlab, shaharga tushgанини,sovxoza nimalar undirib kelganini bir-bir aytdi. Komilga bu gaplarning ahamiyati yo'q, uning ko'zi kanal bo'yidagi charxpalakda.

Charxpalak bir me'yorda aylanadi.

* * *

Chigitkuydi Komilni sehrlab qo'ygan edi. Bu joyning, odamlar cho'chigandek, g'ayritabiyy kuchi bo'lмаган. Nomi unutilgan donishmandga qiziqmagan odam uchun Chigitkuydining qadr topishi mumkin bo'lgan jihat yo'q. Tog'li qishloq yuqorisidagi yalandlik mingta bo'lsa, Chigitkuydi shu mingning biri, yuzta bo'lsa, yuzning biri. Ammo Komil uchun bu yalandlik ilohiy bir kuch kasb etgan: shu joyda buyuk kashfiyat dunyo yuzini ko'rishi ehtimoli bor edi. Shu joy endi hayotida hal qiluvchi o'rinni egallashi mumkin... Har holda, Chigitkuydi Komilni nimasি bilandir o'ziga tortardi. Ayniqsa, o'ylab o'yiga yetolmagan kezлari o'sha joyni qo'msardi.

Charxpalakdagи g'o'zalar qad rostlagan mahalda Komil Chigitkuydiga yo'l oldi. Ertasiga qaytsaki, Yahyo bilan domlasi kelib ketibdi.

Mavluda uning qo'liga xat berdi.

— Qolishga fursatlari yo'q ekan, — dedi u, — fikrlarini yozib ketishdi.

Komil bir varaq qog'ozga mayda harflar bilan yozilgan maktubga ko'z yogurtirdi. Xatda oshiqcha lutf-u karamsiz, quruq tarzda, asosan, kerakli fikrlar bayon qilingan edi. Ilmiy rahbari suhbatlashganda ham gapni ko'paytirmasdi — maktubida ham odatini kanda qilmagan: «Komiljon, charxpalaklaringni ko'rib, kundaliging bilan tanishdim.

Charxpalakdagi g'o'zalar daladagiga nisbatan tezroq yetilgani quvonarli hol. Ammo hozircha tabriklash uchun asos ko'rmayapman. Sen inkor etgan usulda — nur bilan to'ydirilgan chigitlarida Yahyo durustroq natijaga erishgan. Uning g'o'zalari o'n kun oldinda. (Maqsad — seni tashviq qilib qaytarish emas, shunchaki axborot tariqasida bildiryapman.) Charxpalaklar xususida mening fikrim:

1. Harakat tezligida farq yetarlimi?
2. Nima uchun duragay navlarni ekmading?
3. Charxpalakka tuproq to'kishda g'o'za ildizining uzunligini hisobga olmaganga o'xshaysan. Tuproq qalnligi yetarli emas, ildiz temirga borgach, g'o'za qiynaladi. Charxpalakdagi tuproq ostini temirdan emas, boshqa materialdan qo'yish kerak. Chunki: a) temir qiziysi. Demak, g'o'zaning ildizi ham issiq sharoitda rivojlanadi; b) tuproqning nafas olishi o'zgaradi. Charxplakdagi tuproq dala yeridan farq qilmasligi kerak. G'o'zaning tezroq rivojlanishi ildiz atrofidagi issiq natijasida ham bo'lishi mumkin. Bu holda sen yanglish xulosa chiqarib qo'yasan, ehtiyot bo'l.

4. Charxpalaklardagi tuproq tarkibida ham farq kam. Albatta, talabni oshirib yuborish noto'g'ri, ammo biz faqat paxtanening tez pishishini emas, balki sho'rxok yerlarda kam suv ichib yetishadigan g'o'zalarni ham nazardan qochirmasligimiz kerak.

Omad tilayman senga, «raqobatchi» do'stim».

Komil bosh chayqab kulimsiradi.

— O'qidingmi? — deb so'radi xotinidan.

— O'qidim.

— Kayfiyatlar durustmidi?

— Har doimgidek.

— Agar charxpalak bilan boshqa odam shug'ulanganida men unga kamida yuzta maslahat berardim.

— Maslahatlari yoqmadimi?

— Yoqdimi, yoqmadimi, buning ahamiyati yo'q. Domlaning kayfiyati chatoqroqqa o'xshaydi. Xo'jako'r-singa uch-to'rt maslahat bilan qutuladigan odam emas. Balki... miyada tuzukroq fikr qolmagandir?

— Qo'ysangiz-chi?

— Shunaqa odamlarni ko'rsam, o'g'itdan tortib qo'yilgan g'o'za ko'z oldimga keladi. Hozirgi g'o'zalarimiz bangi: ma'dan berib turmasang, o'limtik bo'lib qoladi. Bir xil olimlar unvon-u darajaga yetishgach, o'sha ma'dandan mahrum bo'lib, o'sishdan to'xtaydi. Hamroqul aka — ustozim. Uni kamsitishga haqqim yo'q. Lekin haqiqatdan yuz o'girgim ham kelmaydi.

— Hamroqul akaning yoshlarini hisobga olmayapsiz. Har qanday aqlning ham cheki-chegarasi bor.

— Gaping to'g'ri, lekin ko'pchilik «ustunlarimiz» buni tan olmaydi. Oqibatda, aqlлari zaiflashganini sezmay, o'zlaridan esliroq yoshlarga nasihat qilaverib, kulg'i bo'ladilar, ilgarigi obro'laridan ajralib qoladilar. Hamroqul aka unaqa emas. Lekin yosh bilan faqat biz emas, o'zлari ham hisoblashishlari kerak.

Eshik oldida yuk mashinasi to'xtab, ularning gaplari bo'lindi. Komil yangi kelganda To'xtamish unga shu yuk mashinasini bergen edi. Komil mashinada ikki kun dala aylandi-yu, keyin shunday katta mashinaning o'zi uchun band ekani erish tuyulib, mototsikl so'radi. To'xtamish «bosh agronomning alohida mashina, alohida haydovchisi bo'lishi — xalq oldidagi obro'yini oshirajagini» tushuntira olmagach, Komilning o'z puliga kajavali mototsikl to'g'-rilab berdi. Shundan beri bu yuk mashinasi bosh buxgalter ixtiyoriga o'tib, xizmatini beminnat qilib yuribdi.

Komilning hisobchilarga ishi kam tushardi. Shu sababli boshbuxni ko'rib ajablandi. Yerga qarab, iymanib gapiradigan, yumshoq supurgi boshbux Komil bilan astoydil hol-ahvol so'rashgach, papkasidan qog'ozlarni chiqardi.

— Oy oxiri, hisobli dunyo, deganlar... Siz qo'l qo'yadigan qog'ozlar bor. Mana, mana bunga, — shunday deb qog'oz uzatdi.

— Nima bu o'zi?

— Bu... mehmon-izmon deganday... shuning sarf-xarajati, ya'ni ishchilarga issiq ovqat deganday...

— Qancha ekan? Adashmaganmisiz? Yuzmi, mingmi?

— Ming, ming... Sovxoз rayon markaziga yaqin bo'lsa ham sho'ring ekan, mehmonning oyog'i uzilmaydi.

— Bu yulg'ichlikka men aralashmayman, direktor biladi-ku?

— Sal o'ylab gapirsalar, ya'ni yulg'ichlik deyishingiz insofdanmas. Kecha o'zlarining mehmonlari ham quruq qaytishmadi.

— Shunaqa deng?! — Komilning qoni qaynadi. Mayludaga qaradi. Xotini indamay uyg'a kirib ketdi. — Mehmonimga bir piyola choy berib, yulg'ichligingizga, ha, ha, yul-g'ich-li-gingiz-ga sherik qilmoqchimisiz? Yo'-o'q... Mehmonlarimga qancha sarf qildinglar?

— Biz alohida-alohida hisoblamaymiz.

— Bo'Imasa, istisno qiling-da, kechagini alohida hisoblang. Xarajatini maoshimdan ushlab qoling. Bundan keyin meni deb aziyat chekmanglar, mehmon kutadigan uyim bor, bir cho'qim osh qilib beradigan xotinim bor. Direktorga shunday deb qo'ying.

Boshbux qog'ozlarni joyiga qo'yib, boshini ko'tarmay dedi:

— Aytmoqchi, direktor buva yo'qlayatuvdilar sizni.

— Siz ketavering, hozir boraman.

Komil idoraga borganda boshbux direktorga shipshishga ulgurgan edi. Ammo To'xtamish sir boy bermadи — uni iliq qarshiladi.

— Raykomdagilar «prognоз» so'rashyapti, gektaridan necha sentnerdan bo'ladi, deb qiziqishyapti.

— Hozirdan-a? Bu yer nari borsa yigirmadan berishi mumkin.

— O'ylab gapiryapsanmi?

— O'zing ham bilarsan?

— Bosh agronom mendan yaxshiroq bilishi kerak, ayniqsa, plan, majburiyat degan gaplarni, — To'xtamish shunday deb telefon go'shangini ko'tarib, raykom bilan bog'landi. — Ziyod Shermatovich, mana, bosh agronom ham tasdiqlayapti, ellik sentnerdan kam bo'lmaydi bu yil, ishonavering, — dedi Komilga nigohini qadab. Komil esankirab qoldi. Bu nima? Esi bormi buning? Ellikdan?! To'xtamish Komilning sarosimasini payqasa ham pinagina buzmadi. Ziyod Shermatovichning gaplariga qulquttdi. Jilmaydi, sal egildi: — Albatta, albatta, Ziyod

Shermatovich, shuni eplayolmasak, nima qilib yuribmiz direktor bo'lib. E, yo'q, yo'q, ishonchingizni oqlasak — shuning o'zi bizga katta mukofot. Rahmat, rahmat, o'g'itlardan ozgina yordam bersangiz, bas. Rahmat. — To'xtamish go'shakni ohista qo'ydi.

— O'ylab gapirdingmi? — dedi Komil unga tik kelib. — Oxirgi ko'sakni yig'ib olsang, yigirma beshdan berasan. Qolgan yigirma beshni qayerdan topasan?

To'xtamish zaharxandalik bilan kului.

— O'pkangi bos. Gazet o'qiysanmi o'zing! Qara, olt-mish-yetmish beraman, deb ko'krakka urishyapti odamlar.

— Yolg'on! Ular ham yolg'on gapiradi. Mumkin emas buncha hosil olish.

— Men mumkin deyapmanmi? Ular qayoqdan olishadi?

— Bilmayman.

— Bilasan. Osmondan tushgan emassan. Paxtaning ichida yurgan odamsan. Men ham bilaman. Va'da — telefondag'i gap. Yoki mana bu qog'ozda qolib ketadi. O'sha — borini beraylik, u yog'iga Xudo poshsho.

— Bu yerlardan yigirmadan olsang ham berishadi o'sha mukofotni, — dedi Komil g'ijinib. To'xtamishning ko'zlaridan o't chaqnab ketdi.

— Nima deding? Qa-na-qa mukofot?!

— Ishonchni oqlash — mukofot, deding-ku?

— Sen gapni aylantirma. Pichinglaringni menga qilma, og'ayni. Ordenga qo'yishganda, nomzodimni o'zim olib tashlattirganman, o'tgan yili. Shoqulovga berishdi, oddiy mexanizatorga. Bilib qo'y!

— Nimaga chaqiruvding, haligi gapingga sherik qilish uchunmi?

— Ha. Boshbuxni nimaga xafa qilding?

— Yozgan pulini ko'rtingmi? Mehmonga deb besh panjasini og'izga tiqibdi-ku?

— Hisobi to'g'ri. Bu pulni men ham yemaganman, sen ham yemagansan.

— Bu ishlarga aralashmaysan, deganding-ku?

— Ora-sira aralashib turganing ma'qul ekan, gap-so'z chiqishi mumkin.

— Kechagi mehmonlar xarajatini maoshimdan ushlab qolsin.

— Komil! — To'xtamish o'zini bosolmay stolni mushtladi.

— Stolning aybi yo'q, ammo devorning qulog'i bor. Ehtiyyot bo'l, — Komil shunday deb orqasiga burildi.

— Nima, sotmoqchimisan? Qo'rqadigan yerim yo'q. Men top-tozaman!

Komil to'xtadi. Titrab ketdi. To'g'ri To'xtamishning ustiga bostirib keldi:

— Sotmoqchimisan, dedingmi? — To'xtamish Komilning avzoyini ko'rib o'rnidan turdi. — Hali meni shu darajada mal'un deb yuruvdingmi?

— Kechir, og'ayni, og'zimdan chiqib ketdi. Seni yaxshi ko'raman, bilasan-ku?

— Qulog'ingga quyib ol: men haqiqatdan chetga chiqmayman, lekin gap tashish odatim ham yo'q. Sotadigan bo'lsa, ana, atrofingda egilib yurganlar sotadi.

Komil shunday deb xonadan chiqdi.

QAHRI QATTIQ AYOL

Nozima ish shoshilinch bo'lgani uchun navbatchi mashinada yo'lga chiqdi.

Tug'uruqxona bosh vrachi Nozimaning hujjatini ko'r-gach, davolovchi vrachni chaqirtirdi.

— Latofat Hamidova, yoshi yigirmada, 1982-yil 17-sentabrda nikohdan o'tgan, — dedi vrach o'zi bilan olib kirgan varaqaga qarab. — 1982-yil 19-sentabr tungi soat uchdan qirq minut o'tganda og'ir ahvolda olib kelangan. Ko'p qon yo'qotgan. Buning sababi: bemor taxminan bir oy avval bolasini oldirgan. Tajribasiz vrachning qo'li sezilib turibdi. Bemor Hamidova bu vaqt ichida rayonimiz ginekologlariga murojaat etmagan. Abort nikohdan oldin qilingan, demak, g'ayriqonuniy ish tutilgan, deyishga asos bor.

— Jinoyatchi kim? Aniqmi? — deb so'radi Nozima.

Davolovchi vrach yelkasini qisdidi:

— Buni siz topasiz. Men sizni meditsina xulosasi bilan tanishtirdim.

- Hamidova aytmadimi?
- Aytmasa ham kerak. Siri ochilsa malomatga qoladiku?
- Har holda, so'ragandirsiz?
- So'radim, «Abort qildirmaganman», deb turib oldi. Qiyin-qistovga olmadim. Bunga haqqim yo'q, bila-man. Lekin uning asabi ham joyidamas. Bugun nevro-potolog chaqirganman maslahatga. Chamamda, bemorni jismoniy azobdan ko'ra ruhiy azob ko'proq qiynayapti. Shuning uchun unga uchrashmay turishingizni iltimos qilmoqchiman. Uch-to'rt kun o'tsin. O'ziga kelsin.
- Yaxshi, kutamiz. Unda sizdan ham iltimosim: mening qiziqayotganimni aytmang. Oldiga hech kimni qo'y mang.
- Tartib-qoidani bilasiz-ku, bemor oldiga odam qo'y maymiz, — davolovchi vrach shunday deb chiqib ketdi.
- Siz Shonazir Shog'iyosovni taniysizmi? — deb so'radi Nozima bosh vrachdan.
- Shog'iyosov?
- Ha. 1976-yilda qamalgan. G'ayriqonuniy abort qilgани учун.
- Esladim yigit o'lgurni. Gulday xotinning umriga zavol bo'lgan. Lekin men unda bosh vrach emasdim.
- Hozir u qayerda, bilmaysizmi?
- Shu atrofda, qaysidir sovxoza bo'lsa kerak. Bu sohada ishlamaydi, ishlasa bilardim.
- Balki hali ham eski hunarini qilayotgandir? Uzunquloq gaplar kelib turar, axir?
- Buni eshitmadim. Eshitsam, o'zim ham tinch qo'ymas edim.
- Hamidova-chi?
- O'shaning ishi deysizmi? Qaydam. Hozir istagan shaharga borib abort qildirib kelish mumkin-ku?
- To'g'ri aytasiz. Telefon qilib olay, mumkinmi? — Nozima Nusratovga qo'ng'iroq qildi. — Aytgan odamni topdingizmi, rahmat. Hozir yetib boraman. U xona-ningizdami, yaxshi. Endi unga qarab turib, gaplarimni takrorlang, ko'zingizni uzmang, o'zgarish bo'ldimiyo'qmi, borganimda aytasiz. Demak, boshladik: «Tug'u-

ruqxonadan gapiryapsizmi?» «Shunaqa ekanmi?» «Abortning oqibatimi?» «Nomlarini aytdimi?» «Ekspert xulosasi tasdiqlandimi?» «Kutaman...».

Nozima trubkani qo'yib, bosh vrach bilan xayrlashdi-da, rayon militsiyasi tomon yo'l oldi.

U to'g'ridan to'g'ri savol-javobdan ish chiqmasligini bilib, dangal harakat qilmoqchi edi. Nusratovning takrorlab aytgan gaplari Shog'iyosovni taslim bo'lishga ruhan tayyorlab qo'yishi lozim edi. Besh yillik qamoq nima ekanini unutmagan Shog'iyosov bo'yniga bu jinoyat ilinsa, ahvoli nima bo'lishini bilardi. Shu sababli Nozmaning birinchi savoldayoq o'zini oqlashga tushdi.

— Qamoqdan chiqqanidan beri bu ish bilan shug'ullanmayman. Latofatxon menga kelgan edi. Ko'nmadim. Yana besh yil o'tirishga toqatim yo'q, dedim. Rohatini ular ko'rishsin-u azobini men tortaymi, besh yilda juda esimni topib olganman.

Nozima Shog'iyosovning sarosimada javdirayotgan ko'zlariga tikildi. Shog'iyosov ko'zini olib qochdi.

— Latofatxonni surishtirib kelganimni qayoqdan bilasiz?

— Grajdan tergovchi, axir, tug'uruqxonadan... Eshituvdim. Erga tegmay tur, devdim unga. E! — Shog'iyosov asabiylashib yuzlarini siladi.

— Nimaga, «grajdan tergovchi» deyapsiz? Jinoyatni bo'yningizga olganingizmi bu?

— Yo'q, men... oldingi so'roqlarda... o'r ganib qolibman, kechiring. Men uni abort qilganim yo'q.

— Bo'lmasa kim?

— Bilmayman.

— Hamidova sizni aytyapti.

— Yolg'on!!! Men bu ishga qo'l urmayman, deb qasam ichganman.

— Gapingizga ishondim deylik. Lekin siz abort qilgan odamning kimligini aytishni istamayapsiz. Aybdorni yashirishga urinish, yolg'on guvohlik berishning ham jinoyat ekanini bilmaysizmi?

— Ming la'nat!.. — Shog'iyosov boshini qo'llari orasiga oldi. — Holi-jonimga qo'yishmasa nima qilay?

— Kim?

— Shu, Latofatxon... Men unga bir adres berdim. Qo'li yengil edi uning.

— Aniqroq ayting: adres berdingizmi, xatmi yo birga bordingizmi?

— Xat yozib berdim.

— Mana bu yerga o'tiring. — Nozima stolni ko'rsatdi. — Yana bir xat yozing.

— Nima deb?

— Hamidovaga nima deb yozgansiz?

Shog‘iyosov biroz o‘ylandi-da, xatni yozib, Nozimaga uzatdi:

«Salimaxon, singlimiz ishonchli odam. «Ximhistka»ni o'zingizga ishondik. Shonazir».

Nozima maktubga ko'z yogurtirib, bu dastxatni qayerdadir ko'rganday bo'ldi. O'ylab qoldi. Yana xatga diqqat bilan tikildi. Keyin birdan chiroq yoqilganday bo'l-di. Bunaqangi baxtli tasodif kamdan kam hollarda yuz beradi.

— Familyasi Zaripova, mana, adresini yozib, borish yo'llarini tushuntirdim. Telefoni ham bor.

— Uni qayerdan taniysiz?

— Birga o'qiganmiz... Uni qamaysizlarmi?

— Biz qamash bilan shug‘ullanmaymiz. Ammo yangi jinoyatning oldini olishimiz kerak. Zaripova yana abort qilmaydi, bir ayolning joni xavf ostida qolmaydi, deb kim kafillik beradi sizga? Tanishimiz xafa bo‘lmasin, deb aybini berkitamiz-u, boshqa birovning hayoti garovga qo‘yilganini o‘ylamaymiz, to‘g‘rimi, o‘rtoq Shog‘iyosov?

— To'g'ri, to'g'ri.

«O'rtoq» degan so'zdan keyin Shog'iyosovning bordaniga sal qon yugurganday bo'ldi.

— Endi boshqa masalaga o'tamiz. 22-avgust kuni qayerda edingiz? Taxminan o'nlar atrofida? Yaxshilab eslang.

— Yigirma ikkinchida? Sovxoza edim, ishda edim.

— Aniqrog'i?

— To'tinchi bo'limdagi to'g'on boshida. Agronom cho'kkан kunni aytapsız-da, a?

— Suvdan chiqarishda birga bo‘lgan ekansiz, cho‘kmasdan avval ko‘rvudingizmi?

— Yo‘q, birdan Subhon hovliqib kelib qoldi.

— Sadirovning kiyimi qanday edi?

— Yengi kalta oq ko‘ylak. Jinsi shim.

— Hamidova bilan Sadirovning aloqasi ma’lummidi sizga?

— Yo‘q... ochig‘i, Latofatxon o‘sha ish bilan kelganlarida sal uchini ochganday bo‘luvdilar. Chamamda, Komiljon sho‘xlik qilganlar.

— Siz qutqaruvchilar orasida meditsina bilimiga ega bo‘lgan odamsiz, murdani tekshirdingizmi?

— Yo‘q. Tekshirish kerakmidi?

— Tekshirmagan bo‘lsangiz, spravkani nimaga yozdingiz?

— Spravkani... bilmasam, direktor aytdi, yo‘q deyolmadim. Uch kundan keyin yozib berdim. Qog‘ozni o‘zi keltirdi.

Nozima chuvalgan kalavaning uchini topganday bo‘ldi. Shog‘iyosov ko‘rgan-bilganlarini yozgach, unga ruxsat berdi-da, Nusratov bilan birga o‘n uchinchi sovxozi bog‘iga qarab yo‘l oldi.

Sovxozi markazida odam, mashina ko‘p edi.

— Hasharchilar kelyapti, — dedi Nusratov.

— Iye, gazetada boshqa gap edi-ku? — dedi Nozima hayron bo‘lib.

— To‘qqiz gettar yerga bir odam to‘g‘ri keladi bu sovxoza. Hasharchisiz eplay olmaydi. Gazetaga o‘ylamasdan yozaveradi-da. Bog‘ga tezroq bormasak bo‘lmaydi, hasharchilarni joylashtirishgach, boshliqlarni mehmon qilishadi.

Ular markazda to‘xtamay, jadal o‘tib ketishdi.

Darhaqiqat, Murod mug‘ambirning qo‘li-qo‘liga tegmayotgan edi. Nozima bilan tanishib, rangi bir o‘zgardiyu, darrov o‘zini tutdi. «Komil bilan Latofat ko‘p o‘tirgan bu bog‘da. Ichkari kirib ketardi, nima qilishganini men qaydan bilay?» — deb gapni kalta qildi.

Sadirovga yordam berib yuradigan, charxpalakka tiqilgan xodachani olib tashlagan bolani kecha kelganida

topa olmagan edi, bu safar topib, gaplashdi. Ammo u ham tayinli gap aytmadı. Polkovnik bergen xatni shu yozgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilgan edi. Bola Sadirovni 22-avgust kuni ko'rmaganini yozib bergach, ikki xatni solishtirdi. Dastxatda farq katta edi. Shunday bo'lsa ham idoraga qaytgach, ekspertizaga topshirdi.

Ertasiga ertalab Nozima polkovnik Sultonov huzuriga kirib, uni to'plagan ma'lumotlari, fikrlari, rejalar bilan tanishtirdi. Maslahat va ko'rsatmalar olgach, Zaripovaga telefon qildi. Zaripova uni kechqurun soat to'qqizda kutadigan bo'ldi.

Nozima Sadirovning kundaligini varaqladı. G'o'zalarning kunlik, haftalik o'sishi, o'zgarishlar, jadvallar... xullas, tajribaning har kuni tartib va aniqlik bilan yozilgan, unda odamlarga yoki bo'lak voqealarga nisbatan biron fikr bildirilmagan edi.

Zaripovanikiga birga boradigan tergovchi bilan gaplashib olgach, uyiga ketdi. Eri qo'lida tokqaychi bilan gulzorda yurgan ekan. Uni ko'rib ishni to'xtatdi. Nozima kiyimini tezgina almashtirib, ovqatga unnadi.

— Bugun shoshib qolibsanmi? — dedi eri uning yoniga kelib.

— Soat to'qqizda bir joyga boramiz... siz bilan.

— Qayoqqa?

Nozima deraza osha hovliga qaradi. Atrofda hech kim bo'lmasa ham ovozini pastlatib dedi:

— Bir vrachnikiga boramiz. Abort qiladigan vrachnikiga.

— Nima? Nima deding?

— Voy, sekin. Baqirmang. O'sha vrachni qo'lga olishimiz kerak.

— Mening nima aloqam bor?

— Erimmisiz, axir? Birga olib borasiz. Yo boshqa odam bilan boramanmi?

— Borib ko'r-chi!

— Jo-on adajonisi, shirinchani bog'chadan olib keling.

— Yaqin orada pasportlarni almashtiramiz-da, seni er, meni xotin deb rasmiylashtiramiz.

Nozima nozlanib, erining yelkasiga bosh qo'ydi. Ko'cha eshigi tomonda qaynonasining ovozi keldi-yu, ikkovi sapchib tushdi. Muxtor hovliga otilganini o'zi ham sezmay qoldi.

Zaripova Shonazirning xati bilan kelgan er-xotinni juda iliq kutib oldi. Nozimaning «analizlari» qayd etilgan qog'ozlarga qarab olib, Muxtorga: «Kuyovto'ra, siz shu yerda choy-poy ichib turing», — dedi-da, Nozimani yon xonaga boshladi. Nozimani maxsus kresloga o'tqazib em ignasiga dori olayotganda, eshik jing'irog'i ketma-ket asabiy jiringladi. Zaripova ignani stolga qo'yib, Nozimaga savol nazari bilan qaradi. Keyin igna ustini oq mato bilan yopdi.

— Kiyining, eringizning yoniga chiqib turing.

Zaripova xonani qulflab, eshikni ochdi. Oldinda tergovchi, orqada guvoh sifatida chaqirilgan ikki qo'shni kirib keldi.

Zaripovaning rangi quv o'chdi.

— Siz g'ayriqonuniy ravishda abort qilishda ayblanasiz, — dedi tergovchi, keyin Nozima tomonga qaradi: — Bular kimlar?

«Tomoshaning o'zi», — deb o'yladi Muxtor.

— Bu singlim, bu kuyovim... — dedi Zaripova du-duqlanib.

— Bu xonada kim bor?

— Bu... bu xonada tanishim turadi. Hozir komandirovkada. Eshigi qulflog'liq.

— Zaripova, — dedi Nozima o'rnidan turib, — qo'-ying, berkinmachoq o'ynamaylik. Bu o'rtoq — mening hamkasbim. Bu kishi chindan ham erim. Bular — guvohlar. — Nozima shunday deb sumkasidan qog'oz olib Zaripovaga uzatdi. — Mana, prokurorning ruxsatnomasi. Guvohlar ishtirokida tintuv qilamiz. Eshikni oching.

Tintuv tugab, guvohlar chiqib ketgach, Zaripova uvvos tortib yig'lay boshladi. Muxtorga bularning hammasi qiziq tuyuldi. Ayniqsa, xotinining o'zini tutib turishi, chertib-chertib gapirishidan lol qoldi. Muxtor uni bu holda hech ko'rmagan, hatto tasavvur ham qilmagan edi. Uyda mo'mingina bo'lib yuradigan xotin shunday qahrli tusga

ham kirarkan, tavba. Mana bu xotin yig'lab, ezilyapti. Nozima-chi? Suv berdi. Endi qovoq uyib turibdi. Yupiterishga urinmayapti. Qoidasi shunaqamikan?

Zaripova yig'idan to'xtagach, Nozima unga Latofatning suratini ko'rsatdi.

— Bir oy avval kelgan, eslaysizmi? Bunda ham Shog'iyosovning xati bo'lgan.

— Shog'iyosov... juvonmarg bo'lgur, meni ham tortdi oxiri... Bu xotin esimda, sal vaqtini o'tkazib kelgan edi. Yo'q, desam ham qo'ymadni. Uyimda uch kun o'zim boqdidi.

— Kim bilan kelgan edi, mana bu odamlardan biri bormidi yonida? — Nozima uzatgan to'rt suratning biri Komilniki, biri To'xtamishniki edi.

Zaripova suratlarga qaramadi ham.

— Yolg'iz edi. Turmushga chiqmagan ekan, uvol bo'lmasin devdim.

— Keyin yana keldimi? Boshqa ish bilan? — Nozima Muxtor bilan tergovchi oldida ochiq so'rashga uyaldi. Zaripova buni sezdi. Erkaklarga qarab olib, bosh irg'ab tasdiqladi.

Uyga qaytishganda hamma uxlاب qolgan edi.

— Qahring qattiq ekan, bechora o'pkasi to'lib yig'-layapti-ku, qovoq-tumshug'ingni osiltirib o'tiribsan, — dedi Muxtor o'rın solayotgan xotiniga.

— Rahmdillik bilan ishni buzib qo'yishimiz mumkin. O'sha rahmingiz kelayotgan xotin, biz indamasak, odam o'ldirishi mumkin, hech bo'lmasa mayib qiladi.

— Yig'isi ayyorlikmidi hali?

Nozima eriga kulib qaradi:

— Dadam aytadilar-ku, xotin kishining makri qirq tuyaga yuk bo'ladi, deb...

Bu kech Nozmaning uyqusi kelmadni. O'ylab o'yiga yetolmay yotdi.

U Komilning kanal tomonga bir qiz ortidan yugurganini biladi. Qiz — Latofat. Bunga imoni komil. Kanal bo'yida nima bo'ldi? Latofatning izi nima uchun yo'q? Komil qizni nima uchun quvdi? Nima uchun suvgaga tushdi? Kanal bo'yida birov kutib turib, so'ng... Tarixda

vannaga cho'kib o'lganlar ham bo'lgan. Badanda iz yo'q, go'yo hushidan ketgan-u cho'kkon. Hatto shu qottilik izi ham topilgan. Komilning ishi esa... Guvoohlar bor, ko'rishgan... lekin haqiqat uzoqda, ochilmay turibdi. Har holda, Komil — Latofat munosabati chigalliklarni ochib beradi. To'xtamish-chi? U voqeа sodir bo'lgan kuni shaharda ekan (Nozima buni aniqladi). Har qanday gumondan xoli bo'lgan holda nimaga yolg'on guvohlik bergen? «Ish»ning qayta tekshirilishi mumkinligini bilmay yo o'ylab o'tirmay, osonlik bilan yopib qo'ya qolish uchun shunday qilganmi? Yoki bir narsadan hadigi bormi? Ammo nimadan? Nozimaga shular qorong'i edi. Bir qizni badnom qilib, uylanaman deb chap bergen, hasharchi olmayman, deb tashabbus ko'tarib, so'ng hasharchilarni birinchilardan bo'lib chorlagan odam anoyi emas. Unda gap ko'p. Bu gaplardan balki Komil xabardor bo'lgandir? Paxtachilik sovxoziда qanday nayranglar bor? Qo'shib yozish, yolg'on ma'lumotlar... Bunday nayranglardan bosh agronomning bexabar qolishi mumkin emas. Balki Komil — To'xtamish mojarosi shundan kelib chiqar? Qanaqa mojaro? Bu haqda na kundalikda, na guvohlarning ko'rsatmalarida kalima bor. Lekin Nozima shunday mojarolarning mavjudligiga tobora ishonardi. Shuning uchun ham To'xtamishni hozircha tek qo'yishga qaror qildi. Bunaqa ilonning dumini bossang, chaqadiyu qochadi. Lunjini shishirib turganda birdan bo'g'zidan olish kerak...

TO'RTINCHI KIMSAGA AYON BO'LGAN SIR

Mavluda Nozima bilan xayrlashib chiqdi-yu, ko'cha eshigi oldida bir nafas to'xtab qoldi. Nimanidir ichkarida qoldirganday tuyuldi. Qo'lida g'ijimlangan ro'molchasi. Kelayotganda ham ro'molchadan boshqa narsasi yo'q edi. Ammo nimasidir qolganga o'xshaydi. Nimasi?.. Bir chimdim xotirasini yuragidan uzib olib tergovchingning stoli ustiga tashlab chiqdi... Shu gap xayoliga keldi-yu, eti uvishdi. Bu qanaqasi? Avaylab-asrashi lozim bo'lgan sirning bir ulushini ayon qildimi? Komilning o'limiga

nima daxli bor edi? Nahot o'sha gaplar uchun To'xtamish endi o'ch olgan bo'lsa? Yoki qing'ir ishlarning ochilishidan qo'rqedimi? Qo'rqlasqa-qo'rqlasqa Komilning fosh qilish niyati yo'q edi-ku? Niyati bo'lgani bilan qo'lida biror dalilsiz, quruq gap bilan fosh etarmidi?..

Mavluda Nozimaning chiqib kelayotganini ko'rib teztez yurib ketdi. Anchagina yo'l bosgandan keyin to'xtadi. Katta ariq yoqasidagi qovjirab-kuyib yotgan o'tlarga tikilib qoldi. O'tlarga sepilgan dori bo'g'ziga yopishganday nafasi qaytdi. Orqasiga o'girildi. Militsiya xonasasi oldida zog' ko'rilmaydi. Eski «Zaporojes» turgan edi, tergovchi shunda ketgan bo'lsa kerak. Mavluda shoshilmay iziga qaytdi. Bu ko'chaga burilganiga o'zi ham hayron bo'ldi. Nozimaning chiqayotganini ko'rib sarosimaga tushgani nimasi edi? Nozima bilan yana yuzma-yuz bo'lishdan nima uchun cho'chidi? Xotiralarining hammasini to'kib solishdanmi? Qarashiga dosh berish qiyin ekan bu ayoqning. Xushro'ygina, ko'zlar munchoqdekkina, ovozi ham mayin... Lekin tikilib qarasa, gapirib yuborganingni bilmay qolasan. Xuddi avraganga o'xshaydi.

U militsiya xonasiga yaqinlashib, hovliga o'g'rinchal qaradi — hech kim yo'q. Shunday bo'lsa ham qadamini tezlatdi. Militsiya xonasidan uzoqlashgan sayin Nozimaning gaplari quloqlari ostida qattiqroq jaranglayverdi. Go'yo Nozima uni ta'qib qilar, nuqul bir gapni qaytarar edi: «O'sha kuni Sadirovni ertalab ko'rgan. Sadirov mast bo'lgan...»

Komil ertalab uning yuzidan o'pgan edi. Yonog'iga urilgan iliq nafasi hali sovimapdi. «O'sha kuni ichmagan edi. To'xtamish nimaga bunday dedi? Sovxoza yo'q edi-ku? Nimaga chalkashtiryapti... Maqsadi nima? Hech kim militsiyaga arz qilgani yo'q. O'zlar tekshirishyapti. Nahot birov... Kim? Nima sababdan?» Mavluda hozir bu savolni hazm qila oladigan holda emasdi.

Pala-partish xayollar girdobida alahsirayotgan Mavluda birdan Subhonni esladi. Erining jasadi ustiga o'zini tashlab faryod urayotgan chog'da Subhon nimalardir degan edi. Nima devdi?..

Mavluda to'xtadi. Xayolini jamlamoqchi bo'ldi. Ko-

milni Subhon suvdan chiqargan edi. Bir nimadir deb tushuntirdi. O'sha paytda qulog'iga gap kirmadi. Keyin-roq-chi? Nima uchun Subbonni uchratmadı? Hali ham kech emas, gaplarini eshitishi kerak. balki eri o'lar oldida bir nima degandir? Balki... Subhon nima degan edi? Qiz haqida gapirgandi. Bu esiga tushdi. O'sha faryod orasida qiz to'g'risidagi gapni ilg'ab qolganiga e'tibor bermagandi. Ko'z oldi qorong'i bo'lib turgan paytda «Qiz? Qanaqa qiz?» degan fikr bir yalt etib o'tgan-u so'ngan edi. Hozir o'shani esladi. Shuni aytish kerakmadi? Yo'q!.. «Qandaydir qizga ilakishish oqibatida cho'kkon», — degan la'nat tamg'asi bosilsinmi? Yo tergovchi buni bilarmidi? «Latof o'lgurni nimaga so'radi? Hiring-hiring qilib yurardi. Nahot Komil akam?!» Bu fikrdan vujudi qoq ikkiga ajralib ketganday, ko'kragi huvullab qolganday tuyuldi. Boshi aylanib, to'xtadi. Ko'kragini ushladi. Shu xunuk fikr qanday tez kelgan bo'lsa, shunday tez haydashga kirishdi. Sir emas, ilgari ham shunday rashk o'tiga bandi bo'lib qolardi. Ayniqsa, kurortga ketgan kunlari, gumonsirash uchun zarracha asosi bo'lmasa-da, ming azobda to'lg'andi. Ammo erining qo'yniga kirishi bilan o'sha azoblar o'n chandon lazzat bo'lib qaytdi. U paytlar o'tdi-ketdi... U rashkning azobi ham, lazzati ham bor edi. Endigi gumon-chi? Erining ruhiga bosiladigan la'nat tamg'asidan boshqa narsa emas bu!! Ilgari eriga qizg'anishini bildirsa, u shiringina jilmayib: «Siz meni lotereyaga yutib olgansiz, boshqalarga atalmaganman», — derdi yoki: «Men devman, siz meni xurmachadan chiqarib oldingiz, demak, qulingizman», — derdi... Endi-chi? Endi nima deydi?..

Mavludaning mijjalariga to'lgan yosh ko'z oldiga xira parda tortdi. Ana shu xira parda ortida Komilning jilmaygan chehrasi ko'rindi: «Meni xurmachaga solib qo'ydilar-ku?» Komilning ovozini aniq eshitdi. Cho'chib ketdi. Yurak urishi ham, nafas olishi ham to'xtadi. Shoshilib orqasiga qaradi: atrofda hech kim yo'q. Ro'molchasi bilan ko'z yosollarini artdi. Uyga yaqinlashay debdi. Qadam olishi beixtiyor sekinlashdi. Uyga kirkisi kelmadi.

Shu hovlida, shu ko'chalarda Komilning bolaligi o'tgan, uyning devorlariga Komilning nafasi singib ketgan. Shu daraxtlar, shu tuproqdan Komilning ovozi chiqayotganday bo'ladi. Mavluda ba'zan u bilan gaplashadi. Erining ovozini eshitib, qo'rqib ketadi. Taxtadek qotadi. Kechasi tiq etgan narsadan sapchib tushadi. Bu uyda faqat xotira tirik. Qolgan odamlar Mavluda uchun jonsizday. Ba'zan qaynota-qaynonasi ham ko'ziga ko'rinnmaydi. Mavluda o'n yillik erini yo'qotdi. Ular o'ttiz ikki yil qalblari to'rida avaylagan farzandlaridan ajraldilar. Mavluda ularga og'irligini biladi, ammo yuraklariga zardob to'lganini, faqat tanalari tik turganini, ichlari huvullab qolganini his qilolmaydi. Buning uchun avvalo farzand to'lg'og'ini tatish kerak, uyqusiz tunlarni ko'rishi, farzandi isitmasida yonishi, bolasining tizzasi qonaganda yuragidagi tomirchaning biri uzilishi... lozim. Mavludaga bu azoblar begona. Uning dardi bo'lak. Shuning uchun qaynona-qaynotasiga el bo'lomaydi. Xotira bilan birga yashaydi...

Kechasi chinqirib uyg'ondi. Qaynonasi ham sapchib tushdi: «Nima bo'lidi?» «Yomon tush ko'rdim». «Kalima qaytarish kerak». «Nima deb?» «Tavba, kalimani bilmasa bular...» Qaynonasi g'udrab-g'udrab yotdi. Mavluda ko'-zini qorong'i bo'shliqqa tikib o'tirdi.

Avvaliga tushi shirin xotiralar ummonidan suv ichayotgan edi. To'xtamish bilan... Birdan Komil kirib qoldi, To'xtamish unga tashlanib bo'g'a ketdi...

O'trsa yuragi siqilaverdi, turib hovlida aylanishga qo'rqi. Yotishga yuragi betlamadi. Komil yoniga yana qaytdi. Endi Mavludaga ishonmagani uchun qaytdi!! U To'xtamish bilan... Qanday sharmanda!!

Mavluda yelkalarini quchoqlab, boshini xam qildi.

Komilga xiyonat qilish xayolida ham bo'limgan — yuzi yorug'.

Sovxoza kelishganda To'xtamish bir necha marta qarmoq tashladi. Komilni kurortga yuborishi ham bejiz emas. Ko'nglida biror egrilik bo'lmasa, putyovkani ikkita qilib bermasmidi? Mavludaning opasinikiga jo'nagani yaxshi bo'ldi. Sovxoza qolganida, kim biladi, shayton shaytonligini qilsa... Ta'ziyaga kelganda ham suqlanib

tikildi. «Komilning o'mini o'zingiz oling. Xo'jalikka ayol rahbarlar kerak», — dedi. Xo'jalik ayol rahbarsiz ham kunini ko'rар, To'xtamishning niyati boshqa. Mavluda bilmas ekanmi? Biladi. Shu sababli ham To'xtamish bilan uchrashganini tergovchidan yashirdi — gap chuvalashadi.

Mavluda Komilning aytganlarini esladi: «Tulki os-monga mahliyo bo'lib turgan ekan, laylak kelib qolibdi. «Ha, oshna?» — debdi laylak. «Uchishni o'rganmoqchi-man», — debdi tulki. Go'l laylak unga uchishni o'rgat-moqchi bo'libdi. Ko'tarib osmonga uchibди. Keyin tash-lab yuboribdi. Tulki xashak g'arami ustiga tushibdi. «Uchishni o'rgandingmi?» — deb so'rabdi laylak. «Uchishni o'rgandim-u, qo'nish qiyin ekan», — debdi tulki. «E, bundan oson ish yo'q, eng qiyini ko'tarilish, yana bir ko'tarilsang, qo'nishni ham o'rganib olasan». Laylak shu gap bilan tulkini ko'tarib yana balandroq uchibdi-yu, so'ng tashlab yuboribdi. Bu safar tulki to'ppa-to'g'ri botqoqqa tushib, uch gaz bo'yи botib ketibdi. To'xtamish — o'sha tulkinining o'zi. Yerdagи o'limitik tovuqlarga to'yaydi. Osmonga uchmoqchi. Qanoti yo'qligini bilsa ham uchmoqchi. Bir marta uchib-ku xashak ustiga «qo'ndi». Esingdami, Adolatni xor qilgani. Boplab aldab ketdi. Hozir yana uchib yuribdi. Botqoqqa botishi aniq. Lekin qachon botadi?! Yerga tushguncha osmonda turib hamma yoqni qachongacha bulg'aydi?..»

To'xtamish haqida gap ochilsa, Mavludaning asabi buzilardi. Komil buni bilgani uchun ham To'xtamishni kamroq tilga olish harakatida bo'lardi. To'xtamishning nayranglariga chidamagan kezlari, ayniqa, pul bermoqchi bo'lganida Komil u haqda ko'proq gapirgan edi. Astoydil ezilib, bo'g'ilib gapirgandi.

Dugonasi aldanganidan keyin Mavluda To'xtamishning qo'lidan har qanday ablalilik kelishiga ishonib qolgan edi. Shu sababli erining kuyib-yonishini, To'xtamishni insof yo'liga boshlamoqchi bo'lganini bekor deb bildi. Ammo buni sezdirmadi. Unga dardkash bo'ldi. Vijdon azobida to'lg'anib aytilgan ko'p gaplar yodiga mixlandi. Agar orada o'lim bo'lmanida, sovxozdan ko'chib ketishganida, balki bu gaplar vaqt o'tishi bilan xayolidan

ko'tarilardi. Endi unutilmaydi. Kunlar o'tgan sayin arzimas tuyulgan gaplari ham yodiga tushaveradi. Komil shu gaplari, o'sha kuyib-yonishlari, o'sha jilmayishi, o'sha hazillari bilan tirik qoladi.

Nozima Mavludani yomon qyinoqqa solib ketdi. Komilning cho'kib o'lishida kimningdir qo'li bor, deb gumonsiragani ham, To'xtamishning yolg'on guvohlik berishi ham uni dovdiratib qo'ydi. Suyganidan ayrilib yolg'iz qolganiga asta-sekin ko'nikayotgan, taqdirliga tan berayotgan ayol po'rtanaga tushib qoldi. To'lqinlar uni dam suv yuzasiga xas kabi ko'tarib tashlaydi, dam to'ymas dengiz qa'rige tortadi.

Kunduzi picha ko'zi ilingan edi. Yana yoqa bo'g'i-shayotgan To'xtamish bilan Komilni ko'rdi. Uyga sig'-madi. Hovliga chiqdi. Hovliga sig'madi. Ko'chaga chi-qolmadi — istihola qildi, «azador xotin» degan nomi bor. O'rik daraxti yonida nafasi qaytib uzoq o'tirdi. Tergovchiga To'xtamishning nayranglarini aytmaganidan pushaymon qildi. To'xtamishning Komilga pul bermoqchi bo'lganini, paxtani qo'shib yozishlarini aytishi lozim edi, tekshirsin edi o'sha tergovchi. Balki shu yo'l bilan haqiqat ildiziga yetardi. Qolgan gaplar — sevgi o'tida yonishlar, farzand dog'ida kuyishlar — uning shaxsiy dardi edi, ammo To'xtamishning muttahamligini aytishi darkor edi. Aytmay chakki qildi. Tergovchi yana kelarmikan?

Kechadan beri qimirlab tinchlik bermayotgan «Komilni To'xtamish o'ladirgan», degan fikr birdan suv yuzasiga qalqib, Mavludaning ko'zları kosasidan chiqib ketay dedi. Ostонадаги кузнинг исини олган о'рик барглари шивирлаб фикрини тасдиқ этгандай бо'лди. Пешанасини тиззасига qo'yib, ko'zini chirt yumdi. Daraxt shiviri ham to'xtadi, qushlar chug'uri ham, suvning shildirashi ham... bir nafas dunyoning joni uzildi. Bir nafas. Keyin... Qaynonasi uv tortdi: «Tirnoqqa zor o'tgan boleem...» Mavluda merovsirab, boshini ko'tardi. Notanish ayolga ko'zi tushdi. Qaynonasi dardini to'kib yig'laydi. Uning to'kilgan dardlari Mavludaning yuragiga nayza bo'lib sanchiladi. Yuragi to'lib-to'lib yig'laydi. Ayolni tanimasa ham, dardini aytgisi keladi. Aytolmaydi. (Buning uchun

halı qaynonasidan dakki eshitishini biladi). Qanday ayt-sin? Qay birini ayt-sin? Bu ayol shunchaki ko'ngil so'rab kelgan, dardini olish uchun emas. Dardini kim oladi? Kimga kerak uning dardi? Bu xotinning ham o'ziga yetgulik dardi bordir... Mavluda bularni hozir emas, keyinroq, notanish ayol qaytgach o'ylaydi. Hozir xayoliga bu gaplar kelmaydi. Yig'laydi, to'lib-to'lib yig'laydi.

Yolg'iz qolgach, yana: «Komilni To'xtamish o'ldir-gan», — degan xayol uyg'onadi. O'zini chalg'itmoqchi bo'ladi. Hovliga suv sepati. Supuradi. Keyin yana o'sha xayol.

Ikki kun shunday bo'ldi.

Uchinchi kun ham shunday boshlandi.

U ortiq chidolmasligini bildi. Qaynonasiga shaharga tushib chiqajagini ayt-di. Tergovchiga uchrashish niyati borligini yashirdi. Qaynonasi: «Qirqi o'tmay ketmang, arvohi chirqiraydi», — deganicha qolaverdi.

* * *

Nozima Komilning kundaliklarini mulohaza qilib o'tirgan edi. Navbatchi qo'ng'iroq qilib, Mavluda Sadi-rova kelganini aytgach, shoshib qoldi. U Mavludaning ke-lishiga ishonardi. Lekin bunchalik tez kelar, deb kutmagan edi.

Mavluda dabdurustdan maqsadini aytolmadı. Endi muddaoga o'taman, deganda Nozmaning ko'ziga ko'zi tushdi-yu, gapdan adashdi. Oxiri:

— Iltimos, menga tikilmang, ko'zingiz o'tkir ekan, — deyishga majbur bo'ldi.

Nozima deraza tomonga qaradi.

Tunov kuni Muxtor ham shunday devdi. Ishga berilib, qarashlari ham o'zgarib ketibdimi? Tikilganlarni o'zi ham yoqtirmas edi. Nahotki ko'zni lo'q qilish odat bo'lib qolsa?

Mavluda biroz sarosima bilan gapirdi. U kela-kel-guncha ko'p gaplarni ko'ngliga tukkan edi. Nazarida kam deganda ikki soat gapirishi lozim edi. Hozir bir necha daqiqada so'zlari tugab, boshi birdan bo'shab qolganday bo'ldi.

Nozima gapning davomini kutdi. Mavludadan sado chiqavermagach, unga qaradi:

— Bor gap shumi?

«Yana nima deyishim kerak?» — deb o‘yladi Mavluda.

— To‘xtamish Omonturdiyevdan gumoningiz bormi?

— Ha... yo‘q... Lekin tekshirib ko‘rish kerak.

— O‘sha kuni shaharda bo‘lgan-ku?

— Kelib-ketish qiyinmi?

Gumonni tasdiqlashi mumkin bo‘lgan bu gap xayoliga qanday kelib qoldi — Mavludaning o‘zi ham sezmadni.

— Tekshirib ko‘ramiz... Omonturdiyevning qing‘ir ishlari bor ekan. Sadirov... eringiz bilar ekan. Fosh qilishga urinmaganmi? Biron joyga xabar bergenmi, majlisda tanqid qilganmi?

— Yo‘q-yo‘q, bunaqa niyatlari bo‘lmagan.

— Nimaga? Jinoyatni bila turib yashirska, jinoyatga sherik bo‘ladi.

— Sizlarning qarichingizda o‘lchansa shunaqa, Komil akamning bu ishlarga sira daxllari yo‘q.

— Yaxshi, bu gaplarni qo‘ya turaylik. Meni hozir boshqa narsa qiziqtiryapti. Siz bilan uchrashganimdan keyin ba’zi narsalarni aniqladim. Sadirovni suvga cho‘kishdan oldin bir qiz bilan ko‘rishgan. Taxminimizga ko‘ra u qiz — Latofat Hamidova. O‘tgan safar ularning munosabatlarini aytmovdingiz?

— Munosabatlarimi? Men Komil akamga ishonardim. Iltimos, ishonchimni o‘ldirmang, o‘tinib-o‘tinib so‘rayman, o‘ldirmang.

— Haqiqatga yetguncha turli gumonlarga borishga majburmiz. O‘tgan kuni yana bir yangilik aniqlandi: Hamidova Sadirov kurortdaligida bolasini oldirgan.

— Nima?! — Mavluda o‘rnidan turib ketdi. Nozimaning ustiga bostirib keldi. — Nima dedingiz? Bolasini oldiribdimi? Komil akamdan ko‘ryaptimi megajin?! Bekorlarni aytibdi! Bunday bo‘lishi mumkinmas!

Nozima ham o‘rnidan turib unga tikildi:

— Nima uchun mumkinmas? Sadirovdan bola bo‘lmasmidi?

Mavluda og‘zini ochganicha serryib qoldi. Nozima ning savolidan so‘ng siri ochib qo‘yanini sezdi. Labini tishladi. Gapni chalg‘itmoqchi bo‘ldi:

— Nimaga unday deyapsiz? Ayb mendaydi degandim-ku?

— Hozirgi gapingiz-chi? Qo‘ying, opa, bu yashiradigan gap emas-ku? Aytganingiz bilan ovoza bo‘lmasa... Ayb kimdaligini o‘tgan uchrashuvimizdayoq sezganman. Esingizdam, «Menga qolsa, etaklarini bolaga to‘ldirib tashlamasmidim», devdingiz?

Mavluda Nozimaga hayrat bilan tikildi: Esida... aytgan edi. «Buncha ziyrak bo‘lmasa bu juvon... Hamma gapini chertib-chertib saralabdi-da...»

— Hozir-ku Hamidova Sadirovni ayblamadi, — dedi Nozima Mavludadagi o‘zgarishni sezmaganday. — Berdisini aytguncha o‘zingiz qovun tushirdingiz. Xo‘sish, ertaga: «Bola Sadirovdan edi», — deb tursa, «Sadirov shu isnodga chidamay o‘zini suvgaga tashlagan», — desa ham tuhmat yukini ko‘tarib yuraverasizmi?

Mavluda birdan yumshadi. Qarshisida — endi ikkinchi marta ko‘rayotgani, yetti yet begona emas, balki ko‘pdan qo‘msagani — qadrdoni, dardkashi turganday tuyuldi. Yelkasiga bosh qo‘ygisi, to‘lib-toshib yig‘lagisi keldi. O‘zini tutdi. Ammo sirlari saqlanadigan yuragi kalitini berishdan tuta olmadı.

— Ayb u kishida edi. Tekshirtirganmiz.

— Diagozlari?

— Ikki tomonlama kriptarxizm. Urug‘ o‘lik tusharkan.

— Seksopatologning ism-sharifi, ish joyi esingizdam? Mavluda aytdi. Nozima yondaftarga yozib oldi.

— Ayb eringizda ekanini yana kim bilardi?

— Hech kim.

— Omonturdiyev yoki Hamidova bu bilan qiziqish-maganmi?

— Yo‘q. To‘xtamish bir so‘raganda, «ayb menda», deganman...

Seksopatolog, Komil, Mavludagagina ma’lum bo‘lgan haqiqat to‘rtinchi odamga ham ayon bo‘ldi. Necha yil badalida qo‘rqib avaylagan sir ochildi. Mavluda dastlab

bu haqiqatni bilganida dahshatga tushgan, eridan ayribil qolganday bo'lgan edi. Komil g'amga cho'kib, dardli ovozda ochig'ini aytgan, o'sha kuni bearmon ichgan edi, ertasiga ham... Keyin o'ziga kelib, Mavludaga ruxsat berdi: mayling o'zingda, dedi.

Mavluda shu odamni tashlab keta olarmidi?! Komilni-ya?! Muhabbatga bo'lgan ishonchi o'lgan qizni muhabbatning tiriltiruvchi suvi bilan ko'zini ochgan yigitni-ya?! Yo'q, Mavluda tashlab ketmadi. Komil tashlab ketdi... Yuragini vayron qilib, tiklab bo'lmas darajada xaroba qilib tashlab ketdi... «Tug'mas xotin» degan la'nat tamg'asini bir umr ko'tarib yurar edi. Nima qilsin, suyganiga otilgan xas uning boshiga cho'qmor bo'lib tushgani yaxshimasmi? Komil akasiga bu sharmandalikdan ko'ra «Pushti kuygan ekan», — degan gap durustmasmi? U erini oqlash uchun aytib yubordi-ku bu sirni?

Mavluda shu o'ylar bilan o'zini o'zi yupatmoqchi edi. Nozimaga o'tinch bilan tikildi:

— Bu gapni birov bilmasin. Shu paytgacha Komil akamning yuzlari yorug' bo'lgan, endi qora chaplanmasin.

— Agar Hamidova da'vo qilmasa, sir ochilmaydi. Bo'lmasa, majburmiz. Meni yana bir narsa qiziqtiradi. Institutga borib, to'rtinchi kursdagi o'sha voqeа bilan qiziqdim. Sadirovning majlisdagi gaplari bilan ham tanishdim. Hozir Adolat Quramboyeva qayerda, bilmaysizmi?

— Yurtiga ketgan edi. To'xtamish pastkashlik qildi. U esa mardlik bilan javob qaytardi. Adolat yarim yilgacha birga turdi. Keyin bilsak, u muttahamning qishloqda bolachaqasi bor ekan. Adolat g'alva ko'tarmadi. Bo'yida bo'lgan ekan, tug'ib oldi. Institutni biz bilan birga bitirdi. Bolasini olib ketdi. Turmush qurdi, bo'lmabdi. Keyin bir bevaga yulduzi to'g'ri kelibdi. Undan ham bolalari bor. O'zining qizi, erining uch bolasi, keyin tuqqanlari bilan chuvalashib o'tirgandir. Uni bezovta qilish kerakmas.

— Bezovta qilish niyatim yo'q. Taqdirini bilmoqchi edim. Omonturdiyevning shaxsini aniqlash uchun kerak bu.

— O'tgan safar bir gapni yashirdim: To'xtamish ta'ziyaga kelganda meni ishga taklif qilgan. Bosh agronomlikka.

- Rozi bo‘ldingizmi?
- Mening o‘rnimda bo‘lganiningizda ko‘narmidingiz?
Nozima yelka qisdi.
- Men endi boray, — dedi Mavluda uf tortib. U ancha yengil tortganday bo‘ldi.
- Yana yashirgan gaplaringiz chiqib qolsa, kelaver-
ring.
- Yo‘q, singlim, boshqa yashirgan gapim yo‘q...
Bor-u, bu ishga daxlsiz.

OQ LIBOSLI KELINCHAK

Kelinchaklik sarpolarini kiyish orzusi dastlab tu-
g‘ilganda Latofat yo beshinchi, yo oltinchi sinfda o‘qirdi.
Unga qadar ham qo‘shni qizlar uzatilganda yo kelin
kelganda oppoq libosda ochilib ketgan kelinchaklarga
havas bilan qarardi. Ammo o‘zini kelinchak libosida
ko‘rish istagi vujudini hali yondirmagan edi. Bir kuni
ro‘parasidagi qo‘shnisinikiga chiqib qotib qoldi: chillali
kelin-kuyov kuppa-kunduz kuni oshxona oldida bir tup
anjir panasida quchoqlashib turishardi. Qo‘shni qiza-
loqning ham havas, ham qiziqish bilan tikilayotgani
xayollariga kelmasdi. Qizaloq nima ekan, dunyo bilan
ishlari yo‘q edi! Kelinchak erining quchog‘idan sirg‘alib
chiqquncha Latofat joyidan jilmadi. Keyin nima uchun
kirganini ham unutib, iziga qaytdi. Yursa ham, tursa ham
ko‘ziga o‘sha anjir ortidagi chirmashgan tanlar kelaverdi.
Bu holat unga yangilik emas, kinolarda ko‘raverib ko‘-
zi pishib ketgan, ba’zan kechalari bexos uyg‘onib, ota-
onasining shivir-shivirini ham eshitgan, xullas, bu ajib
olamning sirlarini sal bo‘lsa-da tushunib qolgan edi.
Biroq anjir panasidagi holat... Ikki kundan keyin...
orqa partadagi boladan xat oldi, so‘ng... yuqori sinfda
o‘qiydigan boladan. U maktabga oshiqardi, lekin kallasiga
dars kirmsadi, totli orzular osmonida suzib yurgan qizga
darsning nima keragi bor?! Ko‘zguga qarab xumor ko‘z-
laridan o‘zi mast bo‘lardi. Mastlik uzoq davom etdi,
juda uzoq. Ko‘ngli bahor shamoliday beqaror edi. Necha
bolaga ko‘ngil qo‘ydi, nechtafiga burnini jiyirdi.

To‘qqizinchida o‘qiyotganda tashabbus ko‘rsatish navbatiga unga kelib qoldi. Sababini o‘zi ham bilmaydi. Ko‘kraklari besh yashar bolaning mushtiday bo‘rtib, ko‘zga yanada yaqin bo‘lgan kezlar edi. «Kuniga yuz ellik kilogrammdan teraman, deb ayt», — deyishdi. Aytdi, majburiyat oldi. Unga nima, har yili shu takrorlanadi. Birov kulmaydi, urishmaydi. Qaytaga yaxshi — boshqalardan kamroq terasan, tepangda nazorat qilib turishmaydi. Tushlik paytida hali u brigada, hali bu xo‘jalikka olib borishadi, majlislarda gapiradi, hammaning ko‘zi unda... Qarsak chalishadi... Gazetada rasmi chiqadi...

Shunday bo‘ldi. O’ninchida ham aynan takrorlandi. Mukofotlar, faxriy yorliqlar oldi. Dastlabki mukofoti — bir kiyimlik sakkiztepki atlas olayotganda chapak chalayotgan o‘rtoqlaridan sal uyaldi. Keyin o‘rganib ketdi. Yuz ellik kilodan «terayotganiga» o‘zi ham ishonib qoldi.

Attestatdagi baholarga hukmini o‘tkaza olgan bu faxriy yorliqlar, bu rahmatnomalar institut eshigini lang ochadi, deb yanglishgan ekan. Peshanasi devorga taq etib tegdi. Tegdi-yu, ko‘zi ochilmadi. Aksincha, iziga qaytaman, deganda uning to‘riga ilindi. Go‘zal, ammo nodon g‘azola misoli ilindi. O, uning ehtirosli gaplari! «Birgina g‘amzangizga domlalarни qarshingizda tiz cho‘ktiraman...» Ha, shunday degan edi. Aytganini qildi. Kelgusi yili oppa-son o‘qishga kiritdi. Unga maylini o‘shanda berdimi? Yo‘q, avvalroq. Qanday yaxshi ko‘rib qoldi? Oilasi borligini bilardi-ku? Havas bilan ishqni ajrata olmadimi? Qulog‘iga shivirlaganda etlari jimirlab ketardi. Imtihon bahona shaharda sarxush yurishlar... Avval pivo ichishdi. Go‘yo qanot chiqarib uchdi. Bag‘riga tortganda qarshilik bildirmadi. Aksincha, quchog‘iga singib ketdi. Hammasini unutdi: bu dunyoda nomus degan tushuncha borligini, kelajagi ko‘proq shunga bog‘liq ekanini — hamma-hammasini unutdi. Ilohiy rohat bilan to‘lg‘andi. Bo‘salar orasida entikish bilan aytilgan gaplarga iyib ketdi. Siynabandi yechilayotganda «Yaxshi ish bo‘lmayapti», degan fikr yashin singari bir yalt-yult etdi-yu so‘ndi. Qanday bo‘larkin, deb uzoq yillar o‘ylagani amalga oshdi.

O'shanda zarracha afsus chekmadi. Qiziq, qo'rqinch ham uyg'onmadi. Bu hislar ancha keyin yuz ochdi. Afsus ham, qo'rqinch ham shu yillar ichi vujudida vulqon yanglig' kuch to'playotgan ekan, bir lahzada portladi-yu, borlig'ini parcha-parcha qilib tashladi. «Voy jonim!» — dedi-yu, ohini eshitguvchi topilmadi.

Mana hozir, tug'uruqxonaning ikki kishilik palatasida oq parda tutilgan deraza yonida shiftga tikilib yotib shularni o'yldi.

O'sha pivodan keyingi ilohiy rohatni his qila olmadi. Avvallari esiga tushganda badanida sarxush his uyg'o-nardi. Hozir bunday bo'lindi.

O'zidan o'zi jirkanib ketdi. Uning nafasi yonog'iga urilganday, vujudi seskandi — xuddi sovuq, shilimshiq bir narsaga tegib ketganday seskandi. Qaddini ko'tarib, tizzasini quchoqlab o'tirib oldi.

Nimaga shoshdi? Nimadan ko'zi ko'r bo'ldi? Va'da-larga uchdimi? Hamma qatori juvonlik dunyosiga o'tish kunini ham intiqlik, ham xavotir bilan kutib yuraversa bo'lmasmidi? Axir uyqusi qochgan kezlar bu o'y lazzat ham berardi-ku?

Oq libos kiyganda hamma qatori ichdan quvonsa, suyuklisi bilan yolg'iz qolganda ozgina hadikda ko'zlarini yerdan olmay o'tirsa, uning duduqlanib gap boshlashini, asta qo'lidan ushlashini kutsa... bo'lmasmidi?!

O, oq libos kiydi! Ammo vujudi kirlanib ketganday o'zidan o'zi hazar qildi: kuyov bilan yolg'iz qoldi — dahshatdan o'zini qayerga urishni bilmadi, uning hadigi boshqa yerda bo'ldi — sir ochilishidan qo'rqi. Kuyov duduqlanib gapirdi, shokolad uzatdi, turmushimiz shirin bo'lsin, dedi. Go'yo zahar uzatganday, «Gunohingni bo'yningga ol-u ichib o'la qol», — deganday tuyuldi unga. Shokoladni titroq qo'llari bilan oldi. O, kuyov bu barmoqlarning titrayotganini ko'rgan, ha, ko'rgan, ammo buni hayajondan deb o'ylagan. Qanday razolat! Latofatni ezayotgan dahshat yukini u qayerdan bilsin! Barmoqlarining titrashi sirni oshkor qilib qo'yayotganday, shokoladni mahkam qisdi. Qaynoq kaftda shokolad tez erib ketdi. Kuyov uni bilagidan ushlab o'ziga tortdi.

Latofat sapchib tushdi — uning badani boshqa kaftga ko'nikkan ekan, bunisi chayirroq, g'adir-budurroq...

O'sha kech yarashisholmadi. Vrach ko'nglini xotirjam qilgan bo'lsa-da, qo'rqi. Sapchib tushaverdi. Kuyov tongotarda boshini xam qilib chiqdi uyan...

Ertasiga... dahshat, qanday dahshat?! Latofat o'limiga rozi edi. Nimaga o'lindi? Uni bu yerga kim olib keldi? Erimi? Eri?! Qaysi eri? Axir, u chin tanmahrami emas, mudhish xatosini yashirishdagi niqob-ku? Latofat unga achinmaydi. Yaxshi ko'rganda balki achinardi. Ko'nglida unga nisbatan zarracha iliqlik yo'q. Xo'jayinning og'-ziga termilib turadigan go'l yigitlar achinishga arzimaydi. Latofatning qiyognog'i boshqa yerda. U o'zini o'zi arzon-garovga sotganiga chidolmaydi. Ishq nima, havas nimaligini farqlay olmaganidan nafratlanadi. «Bu traktorchini ko'rarga ko'zim yo'q, nima bo'lsam bo'l-dim», — degan qarorga kelib, rad etolmagani uchun o'zini la'natlaydi.

Butun tan-u joni bilan sevib qolayozgani, dilbar bir yigitning cho'kayotgani, tipirchilab suv yuziga chiqishi, ko'zlarini baqraytirib «Aybim nima edi?» deganday qarashi xayolini egallab oldi. Dam nikoh kechasingning ertasi, dam suvga cho'kayotgan Komil ko'z oldiga kelaverdi. Kipriklariga uyqu ilinmaydi. Nazarida qandaydir dahshat bulut kabi bosib kelayotganday tuyulaveradi. Asablari qaqshab, chirs-chirs uzilib ketganday. Qalbning qontalash yaralariga xotiralar tuz sepadi. Unsiz ingraydi. Yuzini tizzalariga bosib unsiz oh uradi. Ohini kim eshitadi, dardiga kim davo beradi?!

Shu azoblar burovoda o'tirganda eshik ochilib, avval davolovchi vrach, so'ng... Nozima kirib keldi. Latofatning joni uzilganday karaxt bo'lib qoldi. Ko'z oldi qorong'ilashdi.

Nozima undagi o'zgarishni sezdi. Shunday bo'lishini kutgani uchun ham o'zini sezmaganga oldi. Endi unga ko'p narsa ayon, bu yerga kelishidan maqsad bir: farazlarini isbot qilmoq edi. Davolovchi vrach Latofatning hamxonasini emlash bahonasida olib chiqib ketdi.

Nozima stulni karavot yoniga qo'yib o'tirdi. Latofat choyshabni tuzatgan bo'ldi, keyin yana tizzasini quchoqladi. Ko'zlarini devorga tikdi.

— Tuzukmisiz? — deb so'radi Nozima. Latofat bosh irg'adi. — Endi ochiqroq gaplashsak ham bo'lar, berkin-machoq o'ynamaylik!

Latofat labini tishlab, peshanasini tizzasiga qo'ydi.

— Bu yerga qanday kelib qolganingizni aytishgandir? Savolga javob bo'lindi.

— Zaripova jinoiy javobgarlikka tortildi. U hammasini bo'yniga oldi. Yashirishingizning hojati yo'q.

— Zaripovangiz kim? — dedi Latofat boshini ko'tar-may.

— Sizni abort qilgan ayol.

Latofat shart boshini ko'tardi. Uning ko'zlarida dahshat aks etdi. Nimadir demoqchi bo'ldi — gapirolmadi, lablari titradi, xolos.

— O'zingizni bosing. Sadirovni so'nggi marta siz ko'rgansiz. Shuning uchun haqiqatni ochishimizda bizga yordam berishingiz kerak. Dastlabki ko'rsatmangizda Sadirov mast edi, degansiz, shuni hozir ham tasdiqlaysizmi?

Latofat darrov javob bermadi. Birozdan keyin siniq ovozda «Ha», deb qo'ydi.

— Boshqa guvohlar ichmagan, deyishyapti?

— Bilmadim.

— Biolaboratoriya yonida nimani gaplashdilaringiz?

— Esimda yo'q.

— Nima uchun qo'lingizni ushlab oldi?

Latofat: «Bularni qayerdan biladi?» — deganday hayrat bilan tikilib qoldi. Mijjalaridan yosh sizib chiqdi. Yana labini tishlab, teskari qaradi.

— Nimaga tortardi... ichkariga tortdi...

— Demak, siz qochdingiz?

— Ha, boshqa ilojim yo'q edi.

— Kanal tomonga yugurdingizmi?

— Ha...

— Keyin-chi? Kanaldan suzib o'tdingizmi?

— Yo'q... Nimaga? Kanal bo'ylab yuguraverdim...

— Sadirov sizga tez-tez shilqimlik qilib turarmidi?

- Bo‘lmasa abort qildirarmidim?
 - Uning farzandsiz ekanini bilasiz-ku?
 - Ayb xotinida bo‘lgan.
 - Kim aytgan bu gapni sizga?
 - Direktorimiz...

«Ilindi», — deb o'yładi Nozima. Direktor bunaqa gap-ni duch kelgan odamga aytavermaydi. Demak, kalavaning uchi yana To'xtamish tomonga ketyapti. Tug'uruqxonaga kelib turishi ham bejiz emas. Lekin haqiqat qani? Unga olib boruvchi yo'l topildi. Ammo yo'l adog'i tutun ichrag'arq bo'lib yetibdi.

— Sadirov institutdagi o'qishingizga yordam berib turarmiði?

— Ha.

— Demak, oralaring yaqin ekan. Hatto... bo‘yingizda bo‘lgan. Unda o‘sha kuni nimaga qochedingiz?

— Jonimga tegdi hammasi, bildingizmi?!

— Bu o'zingizning gaplaringiz emas. Kimdir o'rgatgan. Sadirovni o'limga majbur qilgan odam o'rgatgan. O'sha odam kim, nomini aytинг?

— Menga hech kim gap o'rgatgani yo'q.

— Sizni insofli juvon deb o'ylovdim, afsus, yaxshi gap bilan haqiqatni ochmas ekansiz. Endi bilib qo'ying: Sadirovning mast bo'Imaganini ekspertiza tasdiqladi. Jasad qabrdan olib tekshirildi. Siz qirg'oq bo'ylab yugurmagansiz, bu ham aniq bizga. Eng muhimi — homilangiz Sadirovdan emas!

Bu gapni eshitib Latofatning ko'zlarini ola-kula bo'lib ketdi. Yuzini kaftlari bilan to'sdi. Avval unsiz yig'ladi, keyin ho'ngrab yubordi. O'zini tutolmay uzala tushdi. To'lg'andi. So'ng yuztuban bo'lib yostiqni quchoqladi. Bu ham dardiga malham bo'lmagach, barchasiga yostiq aybdorday, mushtlay ketdi. Xumordan chiqmadi. Yostiqni itqitib yubordi. Yostiq ostidagi bir parcha qog'oz uchib kelib Nozmaning oyog'i ostiga tushdi.

Davolovchi vrach shu atrofda ekanmi, yig'i ovozini eshitib, shoshilgancha kirdi. U Latofat bilan ovora bo'layotganda, Nozima qog'ozni ko'tardi. «Opajon, tuzalib ketdingizmi? Bizni so'rasangiz o'ynab-kulib yuribmir»,—

deb boshlanuvchi maktubdagi harflar Nozimaga tanishday tuyului.

— Kechirasiz, singlim, buguncha xoli qo‘ying, asablari qaqshayapti.

Vrachning bu gapini eshitib Nozima xatni sumkasiga soldi-da, tezgina chiqdi. Nusratov bilan birga Latofatning qizlik uyi tomon ketdi. Xat muallifi — Nazokat — o‘n besh yoshlardagi qiz xuddi opasi kabi chiroyli edi. Ammo uning qarashlari boshqacharoq ekan. Latofat odamdan hech tap tortmay tikiladi, Nazokatning ko‘zlarida ma’sumlik bor. Balki Latofat ham bu yoshda shunday bo‘lgandir?

Nazokat Nozmaning gaplarini yerga qaragancha churq etmay eshitdi. Keyin: «Xat meniki emas, hech narsa bilmayman», — deb turib oldi. Nozima uni ko‘p qiynamadi. Bu yoshdagi qizlarning o‘jar fe’li ma’lum unga; bahor havosiga o‘xhash o‘zgaruvchan bo‘ladi. Qizning voqeaga guvoh ekani aniq. Haqiqat yuzi to‘silayotganiga chidolmay xat yozgan, dastlab qalbi tug‘yoniga qulqutgan-u, opasining taqdirini o‘ylamagan. Endi opasi og‘ir ahvolga tushganda, ikki yo‘l orasida qolib ketdi. Nazokat haqiqat ochilishini istaydi, ammo bu ishda o‘zining ishtiroki bo‘lishini xohlamaydi. «Men xabar berdim, bas, vijdonim oldida yuzim yorug’, bu yog‘ini endi o‘zingiz eplang» — qizning qarori shu. Bu qarorni o‘zgartirish oson emas. Quruq gap bilan ta’sir etish qiyin. Qiz opasining taqdiridan, aldanganidan xabar topishi kerak. Shunda yorilishi mumkin. Lekin birinchi uchrashuvdayoq hamma gapdan boxabar qilishni Nozima lozim topmadidi. Nazokat bilan iliq xayrlashib, iziga qaytdi.

Latofatning tunda tug‘uruqxonadan qochib chiqib, o‘zini osib qo‘ygani haqidagi xabar unga tongda yetib keldi.

* * *

Dono akalaridan biri To‘xtamishga: «Sen cho‘qqiga qarab uchishni boshladling. Uchta narsa qanotingni qayiradi, bilib ol: pora, o‘ynash, ichkilik», — deb ogohlantirgan edi. Pora olmaydi, boshqalarga beradi. Gunohi ham o‘shalarga ketadi. Ammo o‘ynash bilan

ichkilikdan o'zini tiyolmaydi. Ko'ngil bilan nafsnasi nasihat jilovlay olmas ekan.

Latofatga ilashganda ko'ngli bir yomon narsani sezgan edi. Shunda ham to'xtamadi. Mana oqibat! Latofatni Komilga oshirib yuborib, singan chinnini chegalaganday bo'lib edi, endi bilsa, chega ham ishonchksiz narsa ekan. U qayerdadir yanglishdi. Ammo qayerda? Bu savolga javob topolmay boshi garang.

Tergovchining o'ralashib yurganini bilsa ham sir boy bermadi, unga yaqin kelmadi. Arqonni uzun tashlamoqchi edi, bo'lindi. Shonazir ginekologni fosh qilgach, ish jar yoqasiga borib qolganini sahmladi. Arqonni uzun tashlamoqchi bo'lgan odamning ko'z oldi birdan ravnashlashdi. «Nimaga meni tinch qo'ydi, maqsad ni-ma?» — degan savol uni ming ko'chaga boshlab kir-di. Bugun tergovchining yana kelgani, Latofat bilan uchrashganini eshitdi. (Devorning qulog'i borligi yaxshida!) Latofatning singlisi bilan nima sababdan uchrashdi, nimalarni gaplashdi, shunisi unga qorong'i bo'lib, dilini xufton qildi. Arining uyasisiga cho'p suqilsa, oqibat ma'lum. Tashvish ham shunaqa — biri uchib chiqdimi, qarindosh-urug'larini chaqiraveradi. Komilning o'limi, Latofatning ahvoli yetmaganday, paxta punktdagilar qiliq chiqarishdi. Har yilda day do'ppi tor kelganda harakat qilmay, hozirdan qo'shib boraylik, deb kirib, ulardan: «Bu yil eplomasak kerak, tekshiruvning hidi kelyapti», — degan gapni eshitdi. Daryoning suvi tog'ga qarab oqar ekan, desa ishonadi-yu, punktdagilar qo'shmaydigan bo'libdi, desa u dunyo, bu dunyo ishonmaydi. Qaysi ahmoq bebiliska puldan yuz o'giribdi? Paxta punktdagilar kim bilan tirik? To'xtamishga o'xshaganlar bilan! To'xtamish buni bilmaydimi?

To'xtamish punkt mudiri bilan jilmayib xayrlashdi. Ichida eng makruh haqoratlar qaynab-toshay deyayotgan bo'lsa ham sir boy bermadi. Idorasiga qaytib kassirni chaqirdi.

— Qancha puling bor? Punktdagilarni yo'qlaydigan payt keldi.

— Hozirmi? — kassirning ko'zida nur paydo bo'ldi.

- Ha, — To'xtamish uning jonlanganini sezdi.
- Pul yo'q, — kassir shunday deb ko'zini lo'q qildi.
- «Is biladi bu haromi. Bu ham narxini oshiryapti», — deb o'yjadi To'xtamish g'ijinib. Uning basharasiga tupurgisi keldi. Kassirning ulushi hammanikidan kam edi. Shunga qanoat qilganiga rahmat deyish kerak. Ko'ngli zada qilinsa, yaxshilikka olib bormaydi. Pul deb odamlar jondan kechadi, sotqinlik nima ekan? To'xtamish shuni eslab, tupugini boshqalarga asrab qo'ydi.
- Basharangga qaragan odam rost gapiryapti, deb o'ylaydi.
- Xo'jayin, ikki oydan beri ishchilarga maosh ham bermayapmiz-ku? Seyfni ochgan o'g'ri ming pushaymon bo'ladi. Hemiri ham yo'q. Ishonmasangiz yuring, o'zingiz ko'ring.
- Ertaga mana bu yerda tursin pul, — To'xtamish shunday deb stol ustiga kaftini urib qo'ydi.
- O'sha eski gapmi?
- Bu yil kam bo'lmarysan. Qitmirlar yo'q endi. Glavbuxga ayt, bank bilan gaplashsin. Bu yil xirmon katta bo'ladi. Belni baquvvat qilish kerak.
- Xo'jayin, vedomostlarni ham tayyorlab qo'yish kerak, — kassir shunday deb mug'ambirona tirjaydi.
- Ertaga. Kechki payt gaplashamiz.
- Kassir ta'zim bilan chiqdi.
- «Yaxshi yigit ikkoviyam, — deb o'yjadi To'xtamish, — mug'ambirlik ham yigitga husn. Har narsaga laqqqa tushadigan go'llardan asrasin...»
- U raykomga hisob berib, uyiga qaytganda yarim kecha bo'lib qolgan edi. Xotini, bolalari allaqachon uxbol qolgan. Ilgari bunga e'tibor bermasdi. Hozir osmonga qarab og'zini ochgancha pishillayotgan xotinini ko'rib g'ashi keldi. Tepib uyg'otmoqchi ham bo'ldi, o'zini tutdi. «Molga o'xshamay o'l», — deb g'udrandi-da, qo'shni xonaga chiqib divanga yonboshladi. Ko'zi ilinganda deraza taqillaganday bo'ldi. Erinib ko'zini ochdi. Yana taqilladi. Derazaga yaqinlashdi. Qorong'ida kimningdir sharpasi ko'rindi. Yelkasiga to'n tashlab tashqariga

chiqdi. Ko'cha eshigi og'zida ayol kishiga ro'para kelib gangib qoldi.

— Bu menman...

— Latofat?

— Ha.

— Nima qilib yuribsan?

— Tergovchi qonimga tashna qilib yubordi, nima qilay?

— Shuni so'ragani keldingmi?

— Biror yoqqa qochib ketaylik, To'xtamish aka!

— A?! — To'xtamish uning yelkalarini changalladi.—

Nima deding? Qochib ketaylik deysanmi? Nima, jinni bo'lganmisan?

— Nima qilay bo'lmasa?

— Uyingga bor. Ko'rpangni Sovutma.

— Unga ko'nglim yo'q. Birga yotolmayman.

— Ko'ngil qo'yganing o'lib ketdi. Boshqasi yo'q.

— Siz-chi?

— Men? Esingni yedingmi? Biz aka-singil edik, shekilli? Yigitning xo'rozini qo'lingga qo'ndirib berdim. Nomusing pok ekan. Kuyov xursand. Ikki-uch yilda qahramon bo'ladi ering, deputat bo'ladi. Ayshlarining surib yuraverasanlar. Aka deganning marhamati shunchalik-da endi.

Latofat piqillab yig'lay boshladi.

— Uyingga bor.

— Ko'z ochib ko'rganim sizsiz.

— Bekor gap! Ko'z ochib ko'rganing ham, bola orttirganing ham o'lib ketdi. Pivoga uyqu dori qo'shib, qo'y-niga kirganing esingdan chiqdimi?

— Esimda. Lekin tergovchi bolaning kimdan bo'l-ganini bilarkan.

To'xtamish bu gapni eshitib sapchib tushdi. Latofatni bo'g'ib oldi.

— Aytdingmi, qanjiq! Ovora bo'lasan, guvohing yo'q!

Latofat uning bilagini qattiq timdaladi.

— Nima qilyapsan! — dedi To'xtamish uni qo'yib yuborib.

— Hali men qanjiq bo'ldimmi?! — dedi Latofat

hansirab. — Hali shunaqami?! Endi ko'tasiz mendan. — U burilib ketmoqchi edi, To'xtamish belidan mahkam quchib oldi.

— O'zingni tut, jonim, — u shunday deb Latofatning yuz-ko'zi, tomog'idan o'pa ketdi. — Bu dunyoda sendan bo'lak kimim bor mening. O'lib bo'ldim-ku, yur, ichkariga kiraylik.

Latofatning bag'riga sal issiqlik yugurdi. Shu iliqlik bilan birga badaniga kir narsa o'rmalaganday bo'ldi. Ko'ngli ag'darildi. Ko'kraklarini siqa boshlagan o'sha kir narsa iliqlikniga daf etdi. Miyasiga to'qmoq urila boshladi. Har urilganda «Qanjiq!» «Qanjiq!» deb sado beraverdi. Latofat qattiq ingradi-da, To'xtamishning bag'ridan yulqinib chiqdi.

— Qo'rwmang, aytmayman. Erkakman deb yuribsizmi hali... — Latofat shunday deb orqasiga tisarildi. Keyin shartta o'girildi-da, yugurib ketdi.

To'xtamish uni quvlab tutishni ham, joyida qolishni ham bilmay kalovlandi. Keyin picha o'zini bosib: «Aytmaydi, aytganda ham birov ishonmaydi. Tergovchi Komilni bepusht deb qo'rqtimoqchi bo'lgandir. Xo'p, balki bepushtdir. Menga nima? Bolaning mendan bo'lganini baribir isbot qila olmaydi-ku. Battar bo'lsin!» — degan qarorga keldi-da, uyiga kirib ketdi.

Latofat oyog'idan mador ketgunicha yugurdi. Oyoqlari chalishib, bir munkib tushgandan keyingina to'xtadi. Picha tik turdi. So'ng tiz cho'kdi. Entikdi. U hozir qayerdaligini idrok etmas edi. Qayerdaman, deb o'yamasdi ham. Miyasiga bosqondek urilayotgan so'z yo'qoldi. Nazarida juda uzoq umr ko'rganday, ana shu uzoq umri faqat azob-uqubatda o'tganday edi. Birdan xayoliga «Yashab nima qildim?» degan fikr urildi. Avval ham bir necha marta shu xayolga borgan edi. Ammo unda qo'rqqandi. Bu safar cho'chimadi ham. O'midan turdi. Oyoqlarida jon bormi, yo'qmi, bilmadi. Nazarida yurganday bo'ldi — demak, jon bor. Shu zaylda bemajol oyoqlarini sudrab ko'p yurdi. U umrining tugagini haqidagi haqiqatga tobe bo'lib qolgan, ammo tugash nuqtasi qayerda ekani, qachon yetib borajagini bilmasdi. Sudralib yurardi. O'zi

his qilmayotgan tuyg'u esa uni o'sha so'nggi nuqtaga — ota uyiga qarab boshlardi.

Hovlisiga kirib, daf'atan hayron bo'lди: «Qanday keldim, nimaga keldim?» «Ha... bilaman, bilaman... Og'ilxonada arqon bor. Pishiq, juda pishiq. Mol so'yishganda osishgan. Turganmikan...» U telbalarcha harakat qilardi. Og'ilxona deb oshxonaga kirdi. Timirskilandi. Keyin adashganini sezib, o'zidan o'zi nafratlanib ketdi. «Atay o'zingni go'llikka solyapsan. Oshxona qayerda, og'ilxona qayerda — bilmaysanmi? Bilasan. Qo'rqyapsanmi? Qo'rqyapsan. Ahmoq, nimadan qo'rqasan? Ming yil yashading. Nima ko'rding? Ezilib ketding-ku! Yana ming yil yashamoqchimisan? Nima ko'rasan? O'shanda cho'kib keta qolmaysanmi Komiling bilan. Ana, baribir yoniga chaqiryapti-ku, baribir chaqirib oladi-ku...» Shu xayollar girdobida og'ilxonaga kirib, arqonni topib chiqdi. Sirtmoq yasab, joy qidirdi. Tarvaqaylab o'sgan tolni tanladi. Arqonning bir uchini tol shoxiga bog'lab, orqasiga tisarildi. Sirtmoq qimirlab, uni o'ziga chorlaganday bo'lди. Oyoqlaridan jon chiqdi. Tiz cho'kib qoldi.

«Avval tavba qilib olishim kerak. Kinolarda ko'rsa-tadi-ku, o'lim oldida tavba qilinadi... Yo'q, bu boshqa dindagilarning ishi. Musulmonlar nima qiladi?» Buni Latofat bilmassi. Bilmasa ham tiz cho'kkancha turaverdi. Chunki maqsad tavba emassi. So'nggi nuqtaga olib boruvchi yo'lni uzaytirish edi. Buni tan olgisi kelmay, tavba bahonasida tiz cho'kib turardi.

Sirtmoq harakatsiz bo'lib qoldi. Latofatning yurak dukuri ham shunga monand picha tinchidi. «Yetar, tur endi. Senda gunoh yo'q. Ko'p yashading, juda ko'p yashading. Izzatingni bil. Senda gunoh yo'q...» Senda gunoh yo'q... Birdan uning fikri yorishib ketdi. «Senda gunoh yo'q... Senda gunoh yo'q... Nimaga gunohkor bo'larkanman? Nima yomonlik qildim? Nimaga o'lishim kerak?» Latofat yerga o'tirib oldi. Sirtmoqqa qaradi. To'lin oy sirtmoqqa tushib qolibdi. Latofatning eti junjikib, yuzini teskari burib oldi.

«Kimga achchiq qilyapman? Kimdan qo'rqaman? Erim bo'lsa bor, afti basharasi binoyi. Uning oldida yuzim

yorug‘ bo‘ldi. Uzoqlarga ko‘chib ketsak, yana kim bilib o‘tiribdi. Nimaga o‘lishim kerak?!!»

Latofat nafas yutdi. Nuqul: «Uzoq yashading», — deb o‘limga chorlovchi ovozning yana kelishini qo‘rqinch bilan kutdi. Xayriyat, kelmadi. Yengil tin oldi.

«Nima bo‘ldi menga? Sal qoldi-ya! Bo‘lgan ishlar bo‘lib o‘tdi. To‘xtamishning basharasi qursin. Komil o‘lib ketdi...»

Birdan ko‘ziga Komil ko‘rindi. Qo‘rqananidan ko‘zini chirt yumib oldi. Qarashi o‘sha: «Nima bo‘ldi?» — degan savol bor. Cho‘kayotganda shunday qaragan edi. O‘sha tunda uyg‘onganda ham qarashi shunday edi...

...Imtihonlardan o‘tgach, To‘xtamishning ikki xonali uyiga borishdi. Ozginadan ichishdi. Komil pivo ichdi. To‘xtamish ko‘proq ichirmoqchiydi, evini qilolmadi. So‘ng Latofatga dori berib, bir bahona bilan ko‘chaga chiqdi. Komil uyqu dori aralashgan pivoni ichib qotdi. Latofat uni o‘zi yechintirdi. Qo‘yniga kirdi. Komil yarim tunda uyg‘onib, yonidagi Latofatga hayrat bilan tikilib qoldi. Ko‘zlarini katta-katta oolib hayratga tushgan edi o‘shanda... Hozir ham shu ko‘zlar bilan qarab turibdi. Latofat yuzlarini kaftlari bilan to‘sdi. Komil baribir bos-tirib kelaverdi. Yetib kelib bo‘yniga sirtmoq tashladи. Latofat jon holatda qichqirib yubordi. Sirtmoq tortildi. Latofat qattiqroq chinqirdi.

Sal o‘tmay uy tomondan ham chinqiriq eshitildi.

Ufq bo‘zarib qolgan edi...

QAMAL HOLATINING TUGATILISHI

— Men keldim.

To‘xtamish avvaliga gangib qoldi. Chunki u Mavludanining kelishini, ayniqsa, shu kunlar ichi kelishini sira kutmagan edi. Latofatning qilig‘idan xunobi oshib, sahar-mardonda dono akalaridan biriga uchragan, tuhmatlardan ezilib tamom bo‘lganini, tergovchi hamma yoqni bulg‘ayotganini aytib nola-yu fig‘on qilgan, u yerdan qaytib, dalaga ham chiqmay, idorasiga Mavludanining emas, tergovchining kirib kelishini kutayotgan, dono akasining

tasallisidan ruhlanib, tergovchini «tuzlash» qasdida o'tirgan edi.

Boshiga qora harir durra o'ragan, egniga kalta yengli ko'k ko'yak kiygan Mavluda To'xtamishga savol nazarri bilan tikilgan holda ostonada turar edi. Faqat kattalargagina peshvoz chiqishga o'rgangan To'xtamish dastlab odatini kanda qilmay, «Keling», — deb jilmaydi. O'sha onning o'zidayoq miyasiga to'qmoq tushganday seskanib, fikri ravshanlashdi. Sapchib o'rnidan turdi.

— Iye, keling, Mavludaxon, biz g'ariblarni yo'qlaydigan kuningiz ham bor ekan-ku, a?

— Siz... g'aribmisiz hali... ancha bo'ldimi? — dedi Mavluda unga qo'l uchini berib.

— Bilmaganga olmang o'zingizni, xonim. Siz mana bu yerni, — To'xtamish chap ko'kragiga mushtladi, — yetim qilib qo'yaningizdan beri mendan g'aribroq yo'q bu yorug' dunyoda.

Mavluda hazin jilmaydi. U To'xtamishning bunaqa gaplarini ko'p eshitgan.

— Uslubingizni o'zgartirmabsiz, hali ham o'sha-o'sha.

— Mavluda! Siz meni tashlab ketgandan ko'ra o'ldirib yuborsangiz yaxshi bo'lardi. Yuragimni qarang, — To'xtamish Mavludaning kaftini olib, ko'kragiga bosdi. Mavluda qarshilik bildirmadi. To'xtamish buni muletlik alomati deb fahmlab, to'lib-toshgan ko'yi gapini davom ettirdi. — Temirchining bosqoni ham bunchalik gupullamas, a?

Mavluda qo'lini asta tortdi.

— Men oldingizga ersirab kelganim yo'q. Ishga taklif qiluvdingiz, esingizdam?

— Esimda ham gapmi? Kutaverib ko'zim to'rt emas, sakkiz bo'lib ketdi-ku. Hoziroq buyruq yoziladi. Yuqori bilan o'zim kelishaman. Bosh agronomisz sovxozi sovxozi? Direktorming joni bitta, bu tashvishlarni Alpomish ham eplab ko'tarolmaydi.

— Men-chi, men ko'tara olamanmi?

To'xtamish o'zini majbur qilib xaxolab kului.

— O, til o'lsin-a, til o'lsin, besuyak-da. Siz hech cho'chimang. Bu tashvishlarni sizga ravo ko'rgan — nomard.

Hammasiga balogardon o‘zimiz. Sizni faqat ko‘rib tursam, bas.

— U holda savdomiz pishmadi, To‘xtamish aka, — Mavluda shunday deb o‘girildi. To‘xtamish qo‘lini eshik tutqichiga qo‘yib oldi.

— Darrov arazmi? Hech bo‘lmasa bir nafas o‘tiring, ostonadan qaytmang.

Mavluda ichkari kirib, suyanchig‘iga oq jild tutilgan stulga o‘tirdi.

— Men endi ilgarigi Mavlu emasman. Beva degan nomim bor. Gap-so‘zdan qo‘rqaman. Keyin... balogardon-ligingizni Latofatxon bilib qolsalar, tinch qo‘ymaslar? — Mavluda shunday deb To‘xtamishning ko‘ziga tikildi. To‘xtamish istehzo bilan jilmaydi.

— Latofatning egasi boshqa edi, xonim, yanglish-mang.

— Boshqa edi?

— Ha, gap shu yerda qolsin, uni kovlab ham o‘tirmaylik, har holda, biz oshna edik, oramizda u-bu sir ham bor edi.

— Rostmi shu?

— Bosti-bosti qilgan akangiz bo‘ladi. Tug‘ib qo‘yishi-ga oz qoldi-ku.

— Ablah! — Mavluda titrab o‘rnidan turib ketdi. Yuzini chetga burib labini qattiq tishladi.

— O‘tgan ishga salavot, marhumlarni yomonlik bilan eslash yaxshi emas. Hamma ish tinchigan, unga otladigan toshlar yo‘q endi, — To‘xtamish Mavludaning holatini o‘zicha tushunib, tasalli bermoqchi bo‘lar, Mavluda esa bunga sari battar bo‘g‘ilar edi. Dodlab yubormaslik uchun, bu marazning yuziga chang solmaslik, bo‘hton so‘zlarini uchirayotgan tillarini sug‘urib olmaslik, suq bilan tikilayotgan ko‘zlarini o‘ymaslik, quchoqlashga tay-yor turgan qo‘llarini qayirib tashlamaslik uchun o‘zini tutardi. Vujudida uyg‘ongan beadoq g‘azab yuragini timdalar, bunga ham qanoat hosil qilmay, qo‘shpanjasni orasiga olib obdan ezg‘ilardi. Odatda, ayol yuragi bunday azobga dosh bermaguvchi edi. Bunisiga chidadi. Bul-g‘anayotgan xotirani poklash ahdi chidashga majbur etdi.

O, hali azoblarning qanchasiga chidashi kerak bu yurak, chidashi shart, zarur! Erining nomini oqlash, ona sutiday oq xotirasini dog'lardan tozalash uchun dunyoning bor azoblariga chidaydi. Birinchi azob changalida potirlayotgan yurak egasining qasami bu!

To'xtamish esa bundan bexabar. Uning nazarida bu qushcha kutilmaganda uchib keldi. «Tuzog'ingiz qayda, akajon, qayga qo'nay?» — degan iltijo bilan keldi. Tuzog'i qayda bo'lardi, to'shakda-da!

Kenggina xonada niyatlari ayri-ayri ikki odam turidi. Biri To'xtamish — juvonni shu onning o'zidayoq quchog'iga olishga tayyor. U o'zini ayollar fe'l-atvorining bilimdoni deb biladi va Mavludanining uzil-kesil, shashubhasiz mag'lub bo'lganiga imoni komil. Bu go'zalning qarshiligi necha yillar davom etdi, a? Agar bu juvon qal'a bo'lsa, To'xtamish ayyor qo'mondon edi. Qal'aga hujum qilib sillasini quritmadi. Shunchaki qamalga oldi. Toqat bilan kutdi. Mana, qal'a darvozalari ochilib, yurakning kaliti shohi ro'molchaga solingan holda olib kelindi. Bu g'alaba sabrli qo'mondonni ozgina bo'lsa-da, shubhaga solmadi, desak, haqiqatdan chekingan bo'lamiz. Sababi: qamal uzoq yillar davom etgani bilan hal qiluvchi onlar cho'zilmadi. Mavludanining, yaqindagina erini qora tuproqqa bergen juvonning bu qadar tez fursatda tiz cho'kishi g'olibni sergaklantirdi. Yo'q, u hozir, ayni damda, juvonning nafasini his qilib turgan onda shubhalar girdobiga tushmaydi. Bunga hali picha vaqt bor. Qoni sovib, o'zini bosib olgandan keyin o'lay boshlaydi. Hozir uning uchun eng muhimi — qamalning g'alaba bilan yakunlanishi!

To'xtamish chaqqon yurib joyiga o'tirdi-da, qog'ozga buyruq yoza boshladidi.

— Ishni qachondan boshlaysiz?

Uning bu savoli Mavludani o'ziga keltirdi.

— Hoziroq... — dedi u titroq ovozda. — Bosh agronomga muhtojman, deyapsiz-ku?

— Gapingiz rost. Komilning xonasi dalada edi, nima qilamiz?

— Bosh agronom qayerda o'tirishi kerak?

— Idorada. Demak, stol-stullarni olib kelamiz.

— Faqat bitta shartim bor.
— Har qanaqa shartingizga roziman.
— Men bilan mushuk-sichqon o'ynamaysiz. Hammasi ochiqchasiiga bo'lishi kerak.

— Munosabatimizmi?

— Ishni aytayapman. Ochig'ini aytaymi: paxtaning qog'ozda bitadigan ishlari ham bo'ladi. Buni yo ko'r, yo befahm odam bilmaydi. Men shuncha vaqt cho'lda kuyib-yonib, yakka o'zim ikki qo'limni burnimga tiqib qaytmoqchi emasman. Siz bilan ikki mavsum ishlayman, bilib qo'ying. Ikki yil. Bo'ladigan bo'lsam shunda bo'l-volishim kerak.

Bu gaplarni eshitib To'xtamish dong qotdi.

— Mavlu... bu gaplarni sizdan eshityapmanmi? Mavlu... siz... o'g'il bola ekansiz-ku! Chiningizmi bu?

— Siz ham o'g'il bola ekansiz. «Menda bunaqa nay-rang bo'lmaydi», dermikansiz deb turuvdim.

To'xtamish turib, stolni aylanib o'tdi-da, Mavludaning yoniga kelib yelkasidan quchdi.

— Mavlu... itingizning yalog'igacha oltin bo'ladi. Siz... malikasiz, eng go'zal, eng boy malikasiz...

Mavluda o'zini chetga oldi.

— Men ersirab kelmadim, dedim-ku. Xonamni ko'rsatib qo'ying.

Idorada bo'sh xona yo'q edi. To'xtamish bu masalani bir onda hal qildi. Bosh buxgalterni iqtisodchining xonasiga ko'chirib, Mavludani «yon qo'shni» qilib oldi.

O'sha kuniyoq idora ahli bir-biri bilan ma'nodor ko'z urishtira boshladi.

* * *

Latofatning o'zini osmoqchi bo'lgani haqidagi xabar sovxozdan rayon markaziga, undan shaharga borgunga qadar «Latofat o'zini osib qo'yibdi», degan gapga aylangan edi. Sovxoza ne tashvishli fikrlar bilan yetgan Nozima haqiqatni bilgach, o'ziga keldi. Tungi voqeа Nazokatni larzaga solib, bor gapni ochiq aytishga majbur etdi. Gumonlari tasdiqlanganidan ko'ngli to'q bo'lgan Nozima To'xtamish Omonturdiyev bilan uchrashish ni-

yatida idoraga kelib, kiraverishda Mavludani ko'rdi-yu, ajablanib to'xtadi. Ularning savol-javobi ko'pga cho'zilmadi. To'xtamish ichkarida yangi bosh agronomga xona bo'shshattirish bilan band edi. Tergovchining kelib-ketganini bilmay qoldi.

Nozima Mavludaning ishga kelganini bildi-yu, direktor bilan uchrashish niyatidan qaytdi. Garchi beva juvon kulimsirab gaplashgan bo'lsa-da, ko'zlaridagi mungni yashira olmadi. Bu mung azaning tamg'asi emasdi. Yo'q, Nozima buni qiynalmasdan farqlay oladi. Dastlab uchrashishganda Mavludaning ko'zlarida, darhaqiqat, ayrliliq alami, qora kulfat soyasi bor edi. Hozirgi qarashlarida boshqacha dard ko'rdi. Qandayligini bila olmadi. Har holda, bevada bir sir borligini sezdi. Shu bois ham direktor bilan uchrashish fikridan kechdi.

Boshqarmaga yetib kelguncha qora durra, ko'k ko'y-lakli juvon ko'z oldidan nari ketmadi.

Mavluda direktoring ishga taklif etganini aytib edi. Ammo bu taklifning qabul bo'lishini Nozima kutmovdi. Xo'p, Mavludaning maqsadi nima? Erining ilmiy ishini davom ettirishmi yo direktoring jazmaniga aylanishmi? Bu fikrdan Nozmaning eti jimirlashib ketdi. U Mavludani hali yaxshi bilmasa ham, bunchalikka borar, degan fikrni hazm qila olmasdi. Hatto eng suyuqyoq xotinlar ham darrov bunaqa qilishmasa kerak. Xo'p, unda sabab nima? Mavluda direktoring taklifini aytganda Nozmaning xayoliga bir fikr kelgan, ishga boring, idorada nayranglar bo'lsa aniqlang, bizga yordam bering, demoqchi edi, ammo juvonni o'rganmay turib, bunday taklifni o'rtaqa qo'yishdan o'zini tutdi. Hozirgi savolga javob izlashda shu fikrni ham esladi, javoblar qatoriga tirkadi. Biroq baribir savoliga uzil-kesil aniq javob topolmadи.

«Mustaqil ish, mustaqil ish... — dedi u o'ziga-o'zi xonasiga kirib o'tirgach, — mana, mustaqillikning tuzini ham totib ko'rdim. «Arzimagan ish» edi. Suzishni bilmagan odam cho'kib o'lgan. Yo'q, o'rtoq leytenant, oddiy ish emas. Bunga nisbatan Jiyانboyevdagi ish oson-roq. Qurolli hujum. Jinoyat ustida qo'lga olingan... Be... nimalar deyapman. Bu sohada oson ish bor ekanmi? O'zi oson ish qayerda bor?»

Nozima «Ish»ni ko'tarib polkovnik Sultonovning xonasiga yo'l oldi.

Qabulxonada uzoq o'tirdi. Polkovnikning xonasidan chiqqan bo'lim boshlig'ini ko'rib, noqulay ahvolda qoldi. Polkovnik: «Qiyalsangiz to'g'ri o'zimga uchrayvering», — degani bilan bo'lim boshlig'ini chetlab kelishi qoidaga xilof edi. Lekin Nozima uchun kutilmaganda boshliq qovoq osmadi, aksincha, xiyol jilmayib salomlashdi-da, «Keyin menga kiring», — deb chiqib ketdi.

Sultonov Nozimaning gaplarini oxirigacha eshitdi.

- Taklifingiz? — dedi u Nozima gapini yakunlagach.
- Jinoiy ish qo'zg'ab, keskin choralar ko'rish kerak.
- Keskin choralingizga nimalar kiradi?

— Birinchidan, Shog'iyosov bilan Hamidovani qamoqqa olish kerak, hech bo'lmaganda o'z hayotiga yana qasd qilmasligi uchun. Direktorni so'roqqa chaqirib tilxat olish kerak, biron yoqqa ketib qolmasin. OBXSS xodimlarini ishga jalb qilish lozim.

— OBXSSni qo'ya turaylik. Direktor tilxatsiz ham hech qayoqqa ketmaydi, hozir terim payti. Umuman, keskin choralingizga vaqt bor. Avvalambor, prokuror sanksiya bermaydi. Hozircha gaplarining xom. Aniq dillarimiz yo'q. Bir qizchaning guvohligi yetarli emas. Undan tashqari, taktikamizni ham o'ylab ko'raylik. Hadeb tikka hujum qilaverish yaxshi natija berimaydi. Menda bir taklif bor, ishga hozircha nuqta qo'yamiz. «Baxtsiz hodisa» degan xulosaga kelamiz. Bo'lim boshlig'ingiz bilan sovxoza borib, direktorni, Hamidovani xulosamizdan ogoh etib, bezovta qilganimiz uchun uzr so'raysiz. Sizga boshqa ish topshiramiz. Biron sabab bilan bo'lsa ham sovxoza tomonga bormaysiz. Bu ishingizga aloqador shaxslar bilan uchrashmaysiz. Kelishdikmi?

Nozima hayron bo'ldi. Bu qanaqasi, kecha qo'llab-quvvatlab turgan odam bugun orqasiga tisarilsa? Qotillik sodir bo'lgani endi aniq-ku? Omonturdiyevning qo'li shu yerga ham yetib keldimikan? Kerilib yurishida bir gap bor ekan-da, a? Nozimaning ko'ngli poralandi. Ko'zini yerga qadadi. Bunaqada ishlab bo'ladimi? Kalavaning uchi topilganda qo'llash o'rniga... Nusratovga ham shunday qilishgan-da... Bu yigitni landovur deb yuribdi...

— Kelishdikmi, o'rtoq leytenant? — polkovnikning ovozidagi haligi mehribonlik ohangini endi qat'iylik egalagan edi.

Nozima boshini ko'tardi.

— Arizamni yozaveraymi?

— Siz ham tez ekansiz-ku? Boshliqning har bir buyrug'iga javoban ariza yozaveramizmi?

— Axir...

— O'rtoq leytenant, buyruq tushunarlimi?

Nozima qad rostlab, qog'ozlarini qo'liga oldi.

U xonasiga qaytib, o'yga toldi. Polkovnikning muomalasi qiziq tuyuldi. Gaplarini bir-bir esladi. «Hozircha nuqta qo'yamiz... Sovxoz tomonga bormaysiz... Aloqador shaxslar bilan uchrashmaysiz...» Bu nima degani? Boshqa biror jiddiy gap borga o'xshamayaptimi? Ishni yopib Omonturdiyevni xotirjam qilib, sovxozeni jiddiyoq kuza-tishmoqchimi? Unda nimaga polkovnik qo'rslik qildi?.. Nozimaning xo'rlici keldi. Erining gapiga kirmaganiga pushaymon edi. Chindan ham ayol kishi qiladigan ish emas ekan. Sarson bo'lib yurib-yurib nimaga erishdi? «Hozir Bo'tayevga chiqib aytaman, «Gapingiz to'g'ri ekan», deyman. Arizani beraman-u ketaman...» Nozima shoshilib arizani yozdi-da, bo'lim boshlig'inining xonasiga yo'l oldi.

— Gplashib oldingizmi? — dedi mayor qog'ozlardan bosh ko'tarmay. — O'tiring. Gap bunday: sizga yangi ish topshiramiz. Sadirovning ishi bo'yicha xulosa yozib qo'ying. Ertaga kunning ikkinchi yarmida sovxoza borib kelamiz.

Nozima arizani to'rt buklaganicha, lom-mim demay iziga qaytdi. «Demak, hamma ishni pishitib olishgan. Lekin menga aytgilari yo'q. Nimaga? Umuman olganda, bu ularning xohishi. Ammo, har holda, shu ishni men boshlagan edim. Birdan chetlashtirishlari... Ishonish-madimi? Ayolligim uchunmi?» Nozima o'zini o'zi ovutishga harakat ham qilib ko'rди. Biroq ko'ngliga botgan toshni eritib yubora olmadı.

BALIQ

Bu kech ikki kishi mijja qoqmadi.

Biri To'xtamish.

Yana biri Mavluda...

To'xtamish bankka borib kelgach, sovxoziqning kattakichik rahbarlarini yig'di. U Mavludani tanishtirib, «direktor qanday hurmat qilinsa, bosh agronom ham shunday izzatlanishi lozim»ligini alohida ta'kidlab qo'ydi. Kasaba soyuz raisi bu yangilikdan behad shod ekanini aytib, yangi bosh agronomning qadami qutlug' kelishi va planlar yuz emas, ikki yuz bo'lib ketishiga ishonch bildirdi. Shundan so'ng odatdagiday kunning hisob-kitobi boshlandi.

To'xtamishning kayfiyati yaxshi edi. Ertalab Mavluda keldi, peshinga yaqin himmatli akalaridan biri telefon qilib, Komilning ishiga nuqta qo'yilganini bildirdi. Serhimmat akalaridan biri punktdagilar bilan ham gaplashib qo'yibdi. Xullas, ishlar zo'r bo'ladiganga o'xshaydi. Bu o'n kunlikda respublika bayrog'ini ololsa, bas, Omon-turdiyevning oshig'i olchi turgani shu.

Brigadirlar hisob berayotganda To'xtamishning fikri shular bilan band edi.

So'nggi brigadir hisob berib bo'lgach, o'tirishini ham, turaverishini ham bilmay To'xtamishga qarab qoldi. Kimdir yengil yo'taldi. To'xtamish shundagina o'ziga kelib, ko'zlarini xiyol qisib, brigadirga tikildi.

— Vatanga nima kerak? — dedi ma'nodor ohangda.

Daf'atan berilgan bu savoldan brigadir kalovlandi.

— Bilmadim, — dedi duduqlanib.

— Bilib oling, bilmasangiz brigadirlikni topshiring. Vatanga paxta kerak!!! Oppoq, yuqori navli toza paxta kerak! Xo'sh, o'zingizga nima kerak?

Brigadir hayron bo'lib, indamay qo'yishni lozim topdi.

— Sizga non kerak, qozoningizga moy kerak. Sizga ham, sizga... hammamizga shu kerak. Xalq qozonim moyga to'larmikin, deb paxtaga ko'z tikib turibdi. Biz nima qilyapmiz? Bahona bilan qozon moyga to'lmaydi.

— Men bahona qilayotganim yo'q, direktor bova, ikki kundan keyin planni bajaraman, — dedi brigadir soddadillik bilan.

— Planni bajarasizmi? Rahmat, — dedi To'xtamish piching bilan. — Sovxozung planini kim bajaradi? Rayonnikini-chi, oblastnikini, respublikanikini kim bajaradi?

U o'midan turib hammaga bir-bir qarab chiqdi. Mav-luda hayron edi. Nahot To'xtamishda shunday tuyg'u bo'lsa? Nahot u shu qadar keng miqyosdagi tashvishlar bilan band? Yo odatdag'i artistligimi bu?

To'xtamish sukut saqlab olgach, jikkak gavdasiga katta mo'ylovi yarashmagan kishiga nigohini qadadi:

— Xo'sh, Chori og'a, siz qachon bajarasiz?

Mo'ylovli kishi og'rinib o'midan turdi.

— To'g'risini aytaymi? — dedi u biroz sarosimalanib.

— Ayting, faqat respublika to'ldirgandan keyin, demang.

— Yigirma olti yildan beri birkatman. Xo'jayinlarning har xilini ko'rdim. Paxtani hali kvadrat uyalab ek, deyishdi, hali qo'shqator deyishdi. Hammasiga ko'ndik, hammasida ham o'lib-tirilib bo'lsa ham planni bajardik. Lekin bu yil bajarolmayman, bo'lgan gap shu.

— Bu qanaqasi? Bultur orden olgan brigadirning ahvolimi bu!?

— Gapning po'stkallasi shuki, ordenga noloyiq bo'l-sam, qaytarib beray, lekin plan bajarilmaydi.

— Bu gapni qo'ying. Orden bulturgi mehnatingizga berilgan. Plan bajarilmasligining sababini ayting.

— Xo'p, ayt, desangiz, aytaveraman. Yozda oblastdan kattamiz keluvdi, a? Dalani ko'rib, «Sug'oring», deb ketdi. Siz ham sug'orasiz deb qonimga tashna qilib yubordingiz. Komiljon rahmatli, sug'ormang, dedi. Oqil yigit edi, paxtani bilardi. G'o'zam o'sha kunlari chanqamagan edi. Sizot suv yaqin, dedim, ildizining uchi suvda, dedim. Ko'n madingiz. Kattaning gapini ikki qilmang, tekshirib qolsa rasvo bo'lamic, paxtani bilmasa bir gap aytarmidi, dedingiz. Xullas, egatning tepasida turib sug'ortirdingiz.

— Shunaqami? — To'xtamishning qoshlari chimirildi. Hamma hozir baqirib beradi, deb o'ylagan edi. Unday bo'lmadi. — Bo'lim agronomi qani? — pidjagi tars yorilib ketay deyayotgan semiz yigit o'midan turdi. — Shunaqa bo'luvdimi?

— Bil... madim, esimda yo'q, — dedi yigit ko'zlarini lo'q qilib.

— O'tir. Siz ham o'tiring, Chori aka. Eshidilaringmi? Esida yo'q, emish. Mening esimda bor. Og'a to'g'ri aytди. Kattamiz avliyo emas, men ham avliyo emasman. Ishda yanglishamiz. Xato qilsak, kim to'g'riliishi kerak? Siz — kollektiv. Ko'rdingizmi, o'rtoq bosh agronom, bizning kollektivda prinsipiallik yetishmaydi. Oqibatda mana bu-naqa diydiyo qilamiz. Sizdan iltimos, agronomlar bilan yaxshilab gaplashib oling. Hosil taqdiriga obkom sekretari ham, sovxozi direktori ham javob bermaydi. Javobgar bitta — agronom. Agar Chori og'aning brigadasi planni bajarmasa, sen bilan boshqa yerda gaplashaman. Esiz senga agronomning diplomi!

Mavluda uning ustaligidan hayratga tushdi. O'z bo'y-niga tashlangan ayb sirtmog'ini hech kimga sezdirmay xomsemiz agronomning bo'yniga tashladi-qo'ydi. Tashlaganda ham osilajagini aniq qilib, tortibroq qo'ydi. Kal-takning bir uchi Komilga ham tushdi. Agar Mavluda bo'l-maganda: «Bosh agronom unday edi, bunday edi», — deb tuproqqa qorishtirib tashlarmidi. Bunaqa ishdan qaytmay-di u. Mavluda yana bosh ko'tarayotgan nafratini ichiga yutib, indamay o'tiraverdi.

To'xtamish prinsipiallik, halollik, kollektivizm haqida ancha gapirdi. Kunlik oshirilgan norma bo'yicha yangi grafik belgiladi. Hammasi tushunarli bo'lib, savollarga hojat sezilmagach, xonada faqat bo'lim boshqaruvchilari qolishini iltimos qildi. Ruxsat tekkanlar chiqib ketgach, Mavludaga yuzlandi:

— Siz ham damingizni oling. Bizning erkakcha gapi-miz bor.

Mavluda dahlizga chiqib, qabulxona eshigini qiya yopdi. Xonasiga kirib, eshigini ochiq qoldirdi.

— Kassirni chaqir, — dedi To'xtamish poygakda o'tirgan yigitga. Kassir ularni uzoq kuttirmadi.

— Seyfingda qancha pul bor? — dedi To'xtamish stoli tortmasidan nimadir qidirgan bo'lib.

— Uch-to'rt so'm bor.

— Mingmi?

- Ha, uch-to‘rt ming.
- Hey, qanaqa odamsiz o‘zi, — dedi kassirni chaqirib kelgan yigit, — hali men so‘raganda tiyin yo‘q devdingiz-ku?
- Men hisobni direktorga beraman, senga emas.
- Xo‘sish, pul senga nima uchun kerak bo‘lib qoldi? — dedi To‘xtamish unga qovoq uyib.
- Odamlar ikki-uch oydan beri maosh olishgani yo‘q. Norozi bo‘lishyapti.

To‘xtamish o‘rnidan turib u tomon bostirib keldi.

— Vey, Hotamtoy aka, odamlar pulsiz qolishdimi? Rahmingiz kelyaptimi? Biz berahm, zolimlar pulni kurk tovuqday bosib yotibmizmi?.. — To‘xtamish unga yeb qo‘yguday bo‘lib tikildi. — Hoy boyvachcha, million puling bo‘lsa, ana, odamlaringga bo‘lib ber. Sen nimangga kerilasan o‘zi! Grafikdan chiqolmay tuproqqa belanib yotibsan-u, aql o‘rgatasanmi menga. Men bilan olishma, bola, churrang tushib qoladi!

Dircktorning xonasida chindan ham erkakcha gap boshlangan edi. Mavluda hozirgina yuksak tuyg‘ular haqidagi gaplar chiqqan og‘izdan endi uchayotgan so‘zlar, dag‘dag‘alarni eshitib, hayratga tushardi. To‘xtamishning nayrangi, tilyog‘lamaligi, ayyorligi unga ma‘lum edi. Bunaqa osmondan kelishiga esa endi guvoh bo‘lishi. Xuddi ertakka o‘xshaydi, sehrgarlar bir yumalab sherga, bir dumalab quyonga aylanishgandek, direktor Vatan manfaati uchun qayg‘uruvchi dono rahbardan bozordagi pattachiga aylandi-qoldi.

To‘xtamish g‘azab o‘qlarini «Hotamtoy» bo‘lim bosh-qaruvchisiga otib bo‘lgach, joyiga kelib o‘tirdi.

— Yana kimning bo‘limidagilar norozi, kimga maosh berish kerak? — To‘xtamish g‘azab o‘qlaridan yaralanib, chalajon bo‘lgan yigitga bir o‘qrayib, «Sendan o‘rgildim», — deb to‘ng‘illab qo‘ydi. Go‘yo bu bilan uning jon tomirini uzib tashlagandek, ko‘ngli joyiga tushdi. — Hammalaring vedomost tayyorlalaring. Har bir bo‘limga norma bor. Pullar qayoqqa ketishini bilasanlar. Mening cho‘ntagimga tushmaydi. Shu o‘n kunlikda bayroq olishi-

miz kerak. — U birdan kassirga qarab o‘dag‘ayladi. — Xoda yutganmisan, bo‘l, tarqat qog‘ozlarni!

Kassir shoshilib bo‘sh vedomostlarni tarqatib chiqdi.

— Ertalab tashlab ketamiz, — dedi kimdir.

— Ha, shunaqa qilaylik, — dedi boshqasi.

— Xotinchang yostig‘ingni quchoqlab turaturadi. Hozir o‘tirib yoz, imzolarini ham qo‘yinglar.

— Direktor buva, ba’zan odamni yer qilib yuborishingiz yomon-da, terim payti xotin esga keladimi?

«Hotamtoy bo‘lim boshqaruvchisi» kassir bergen vedomostni stol ustiga qo‘ydi.

— Ha? — dedi To‘xtamish o‘tirgan joyida. — Yana nima qiliq?

— Bo‘lim busiz ham planni bajaradi. Meni bunaqa g‘irromlikka aralashtirmang.

To‘xtamish shaxt bilan yurib kelib uning yoqasidan oldi.

— Nima deding? G‘irromlikmi?! Sen o‘zing kimsan? O‘g‘ri, muttahamsan! Qorning to‘yib qoldimi?

Ularni ajratib qo‘yishdi.

— Saidali, o‘chakishib nima qilasan? Yilda qiladigan ishimiz. O‘tirib yozib ber.

— Yo‘q, yozmasin! Senlar ham yozmanglar. Ol, yig‘ishtirib ol. Qani, ko‘ray-chi, qanaqasiga bajararkinsan. Bo‘ldi, hammangga javob! Majburiyatdan bir gramm kam paxta bergen odam to‘g‘ri raykom byurosiga boraversin.

— Direktor buva, keling endi, burgaga achchiq qilmang. Hali yosh, esi kirib qolar, aybidan o‘ting.

— Senlarga yaxshilik qilaman deb qora kursida o‘tirishga toqatim yo‘q. Gap tamom!

Hamma chiqib ketgach, To‘xtamish dovdirab turgan kassirga yaqinlashdi.

— Ishni puxta qil. Ertaga bitta-bitta keladi hammasi. Sen bulturgiga qarab tayyorlab qo‘yaver, qo‘l qo‘ydirib olasan. Opachang ham qo‘l qo‘yib beradi.

Bu gapdan keyin kassirning ko‘ngli biroz yorishdi.

— Opacham shu yerdalar, — dedi quvlik bilan.

— Rostdanmi? Jo‘na bo‘lmasa.

To'xtamish kassirning orqasidan dahlizga chiqib, bosh agronomning eshigini tortdi: berk. Mavluda ichkarida mojaro kuchayib, To'xtamish: «Gap tamom!» — deyishi bilan chiqib ketgan edi.

Ancha nariga borib qolgan kassir yelka qisdi.

— Hozir kirayotganimda shu yerda edilar, — dedi aybdor ohangda.

— To'xta, shpionlikni senga kim qo'yibdi! Olib chiq hammasini, punktga boramiz.

Punkt darvozasi oldida paxta ortilgan temir aravalar tirband edi. To'xtamish kassirni mashinada qoldirib, o'zi hovliga o'tishi bilan sovxozi vakili qulluq qilib keldi.

— Grafikdan chiqadiganmizmi?

— Qiyin-ov...

— Xo'jayin shu yerdami, sen kutib tur. — To'xtamish shunday deb idoraga kirdi. Tamaki hidi anqiyotgan xonada paxta zavodining direktori bilan punkt mudiri o'tirgan edi. To'xtamish ular bilan kunduzi omonlashgan bo'lsa ham qaytadan so'rashdi.

— Bizning ishimiz nima bo'ladi endi? — dedi suyan-chig'i likillab turgan stulga omonatgina o'tirib.

— Sizning ishingiz nima bo'lardi, besh bo'ladi-da, — dedi zavod direktori unga jilmayib qarab. — Sizga qayishmasak, kimga qayishamiz? Qabul qiluvchingizni cha-qiring-chi?

Punkt mudiri chiqib ketdi. To'xtamish zavod direktori uzatgan choyni olib ho'pladi.

— Bizdan ko'nglingiz to'q bo'lsin. Hozir desangiz hozir. Mashinada turibdi.

— Yo'q, hozir emas. Endi bu yerga olib kelmang. Ikki kundan beri organning odami aylanib yurganmish.

— O'zimizdanmi?

— Ha, Nusratov degan yigit ekan.

— E, u bir mishiqi bola, shundan cho'chib o'tiribsizmi?

— O'ynashmang, ular bilan o'ynashmang. Shu mishiqlari yomon.

Ularning gapi chala qoldi. Punkt mudiri bilan qabul qiluvchi oldinma-ketin kirib keldi.

— Qancha paxtang bor? — deb so‘radi zavod direktori.

— Hozircha yuzta, — dedi qabul qiluvchi.

— Hammasini akangga yoz. Shu o‘n kunlik akang aytgandek bo‘lishi kerak. Boshqalarni sal tortib qo‘y.

— Xafa bo‘lishadi-da.

— O‘zim tushuntiraman. Bu yil hosil yaxshi, hech kim dog‘da qolmaydi, nima dedingiz, To‘xtamish Omon-turdiyevich?

— Sizlar bor, nima g‘amimiz bor.

— Bo‘pti, sen boraver, — dedi zavod direktori qabul qiluvchiga. — Ana, ish pishdi, direktor buva, endi uyingizga borib, yangamni xursand qilavering. Menam boray.

To‘xtamish kassirni uyida tushirib qoldirib, idoraga keldi. Ichkari kirib divanga yonboshladi. Bo‘lim boshqaruvchilarining holati ko‘z oldiga kelib, kulimsiradi. «Ishtoni yo‘qlar ishtonini yirtiqqa kulib nima qilarkan? Ahvoli ma‘lum-ku, hammasining. Zo‘rman degani to‘qsonga yetishi mumkin. «Hotamtoy»ning ishni buzgani bir jihatdan yaxshi bo‘ldi. Endi tilim uzun. O‘zlari yalinib kelishadi. Orada guvohsiz bitadi ish. Nur ustiga nur! «Hotamtoy» bilan keyin gaplashaman. Zavod direktorining ishi qiziq. Rostdan qo‘rqaaptimi? Nusratovdanmi? Be, bu bola gapi ni eplab gapirolmaydi-ku. Komilning ishini yop, dedik, indamay yopdi. Punktga kelgan bo‘lsa ish bilan kelgandir. Yo direktor punkt mudiri bilan til topishmay turibdimi? Har holda, mudir yangi, akaxonlarning odami ekan, lat-tachaynarga o‘xshamaydi. Orqasida tog‘ bo‘lgandan keyin shu-da. Hayronman, nahot direktor ikkovi murosa qilolmasa? Yo‘q, direktor vasvos bo‘lib qolgan. Puli bitlab ketgan, qimirlab, es-hushini olib qo‘ygan...»

Soat tungi ikkiga zang urgach, o‘rnidan turdi. Hovliga chiqib biroz ikkilandi. Uyga borgisi kelmadi. Mashinani to‘g‘ri Mavludanikiga haydadi.

Ilgari biron nimadan bo‘g‘ilsa, dardini Latofat olardi. O, u kunlar qani endi? Latofat qochib ketmaydi, bugun bo‘lmasa ertaga: «Sog‘indim, akajon», — deb keladi. U kelguncha Mavluda bor. Bir yigitga omad berilsa shuncha

beriladi-da, unisi bo‘lmasa bunisi... To‘xtamishni bu uygaga uzoq yillik armon boshladi. Mavludani ko‘z oldiga keltirishga harakat qildi. Mavluda unga har safar bir ko‘rinishda — ich ko‘ylakda, ko‘zlarini xiyol yumib, labini bo‘saga chog‘lagan holda ko‘rinadi.

«Shunday juvon... shunday jonon! Axiri yetishadigan bo‘ldim-a!! Tug‘magan xotin qizdan durust. Nozkarashmalari oldidan o‘nta qiz o‘taversin. Shunday bebahoylik isqirt bir odamning kir cho‘ntagida qariyb o‘n yil mog‘orlab yotdi-ya! Qariyb o‘n yil bir landavurning to‘shagini obod qildi-ya shunday go‘zal! Eh Komil, Komil... Baribir tashlab ketar ekansan, nima qilarding boshini aylantirib. Unga uylanardim. Qizlarning ko‘pini aylantirdim, ammo bunga uylanardim, xotinimni qo‘yib bo‘lsa ham uylanardim. Yo‘-o‘q... balki uylanmasdim. Chiroyli qiz xotinlikka yaramaydi, o‘ynashlikka durust. Ha, nima, erining oyligiga qaram bo‘lgandan o‘ynashning durlariga ko‘milib yashash yaxshi emasmi? Har qanday xotin jon deydi bu turmushga. Komil ham durga ko‘mishi mumkin edi, o‘zi istamadi. Marhumning orqasidan yomon gapirmaslik kerak-ku, ammo uning ahmoqligini ham unutish mumkin emas. Jaraq-jaraq pullar... Egilib ish-lamasang, yelib-yugurmasang... Pullar cho‘ntagingga oqib tursa... Bunaqadan kim yuz o‘giradi? Faqat ahmoq odam. Vijdon, vijdon derdi. Vijdon — ahmoqlarning niqobi, zaif, qo‘rroq odamlarning kasali. Vijdonni pesh qilib, asablarimni zirqiratib tashladi-ya... G‘alamisligi yo‘q edi, shu jihatdan tengsiz edi. Bo‘lmasa o‘tgan yiliyoq ag‘dar-to‘ntar qilib yuborardi...»

* * *

Havoning qosh-qovog‘i uyilib, shunga monand ravishda odamlarning fe‘li ham buzildi. Sovxoz yigirma sentnerga yetmay dala qorayib, shudgor boshlaydigan ahvolga tushib qoldi. Biroq sovxochning ko‘rsatkichlari, Komil kutganday, pasaymadi. U To‘xtamishning nima bilan mashg‘ul ekanini bilsa ham aralashmadi. Direktor ellik sentnerni va‘da qilgandayoq, oqibat g‘irromlikka boshlashini bilgan edi. Yo‘q paxtalarning «topshirilishi»



evaziga haq olinishi Komil uchun yangilik emas. Lekin muttahamlid dan chetda bo'lgani uchun barcha kabi bunga odatiy hol deb qarar edi. Endi shu qozonda birga qaynayotgan mahalda vijdoni tinchlik bermay qo'ydi. Sovxoz hisobotidagi har bir protsent nayza bo'lib bo'g-ziga qadalaverdi. «Kimni aldayapmiz, orqa-oldimizga qaramay majburiyat olamiz. Gapimizga ishonib, paxta zavodi-yu to'qimachilik korxonalarini, yuz-yuz idoralar rejalarini belgilashadi. Ular ham: «Shuncha mahsulot ishlab chiqaramiz», — deb va'da berishadi. Paxta mo'l-jaldagidan kam bo'lgach, mahsulot qayda? O'sha mahsulotni do'konma-do'kon yurib qidirib izg'iyimiz. Mahsulot yo'q. Lekin hamma planni oshirib bajargan, mukofot olgan, gazetalarda maqtalgan... Paxta o'rniga, mahsulot o'rniga pul aylanayotganini sezmay yuraveramiz. Xo'p, men-ku To'xtamishni insofga qaytararman. Boshqalarchi? Bu ahvolda odamlarning e'tiqodi xastalanmaydim? To'xtamish... To'xtamish... Vijdonini sotgan senday palidga ming la'nat. Senga hamtovoq bo'lgan menga ming-ming la'nat...»

Komil hammasiga qo'l siltab, jo'navormoqchi ham bo'ldi. Lekin sakkiz charxpalakdagi g'o'zalarning avgustdayoq yetilib, barg to'kkani uning qalbidagi umid cho'g'ini alanga oldirib, yana bir yil, nari borsa ikki yil chidashga majbur etdi.

Bugun yettinchi bo'limga kelib charxpalak ustida o'tirgan qizlarni ko'rди-yu, fig'oni oshdi. Hasharchilarning rahbariga zahrini sochmoqchi bo'ldi, ammo o'sha zahoti fikridan qaytdi: unda nima ayb?

Qizlarga gap tushuntirmoqchi bo'lib turganda hasharchilar rahbarining ovozi eshitildi:

— Baraka topkurlar, termasalaring ham dalada yuringlar, birov kelsa g'alva qiladi.

— Paxta bo'limasa nimani teramiz? — dedi dala che-tiga kelib qolgan hasharchilardan biri. — Sovqotib ketdik. Insof bormi o'zi?

— Menga qolsa hammalaringga ruxsat berib yubormasmidim?

— Shtabga borib, paxta yo'q, odamlarni ushlab turishga hojat bormi, deng. Sovxoz planni bajargan, deng.

- Sovxoz bajargani bilan respublika bajarmagan.
- Sovuqda diydirab yursak bajaradimi?
- Shoimov, uka, ishbuzuqlilik qilma. Bittadan chekib turinglar, hozir tushlik bo‘ladi.

Daladan chiqmoqchi bo‘layotgan yigitlar biroz o‘ylanib turishdi-da, orqalariga qaytishdi.

Bu ahvol ham Komilga ma’lum. Talabalik chog‘larida domlatari: «Dalada yura turinglar», — deb yalinishardi. Paxta bo‘lsa-ku, sovuqmi, tosh yog‘ib turibdimi, terishardi. G‘o‘zapoyada bitta ko‘sak qolmagan, izg‘irin zirillatsa-yu, butunlay qaytish u yoqda tursin, issiqroq xonada o‘tirish mumkin bo‘lmasa!!! Buning sababini Komil keyinroq tushundi: paxtasiz plan bajarmoqchi bo‘lgan xo‘jalik rahbarlari uchun hasharchi niqob o‘rnida kerak. Xo‘jalikda shuncha hasharchi bor, shunchadan paxta teryapti, deb hisob berish uchun kerak. Shahardagi o‘qish tura turadi, ish tura turadi, oilasi, bola-chaqasi kuta turadi. G‘irromlikni oxiriga yetkazib olish kerak. Birov gumonsiramasin uchun hasharchi izg‘irin dalada yurgani ma’qul. Bundan o‘zgacha sabab yo‘qdir. Bo‘lmasa: «Paxtasi yo‘q dalaga nima uchun chiqmayapsizlar?» — deb qaysi johil g‘alva ko‘tarishi mumkin? Axir, bular mardikor emas, hasharchi hisoblansa... Mehnatidan azob topib, norozi bo‘lib ketishi kerakmi? Paxtalarni terib berishgandan keyin, rahmatni eshitib, o‘ynab-kulib qaytishmaydimi? Kelgusi yili terim boshlanganda o‘ynab-kulib yana kelishmaydimi? Paxta tugagandan keyin ham xo‘jako‘rsinga yurish xo‘jaliklarga qancha zarar yetkazadi?

Komil shularni o‘ylab o‘yiga yetolmaydi.

Uning xayolini yana hasharchilar rahbarining ovozi bo‘ldi:

— Shoimov, uka, bu yoqqa qaranglar, qarashib yuboraylik!

Komil ovoz kelgan tomonga qaradi: bostirma yaqinida ikki yuk mashinasi, beriroqda hasharchilarning rahbari bilan agroxim turibdi.

Yigitlar daladan chiqib, yuk mashinalari tomon yurishdi. O‘sha yerda biroz chekib, hangoma qilishgach,

qoplarni tushira boshlashdi. Komil qoplarni bostirma os-tiga emas, tashqariga taxlashayotganini ko'rib ajablanganicha bostirmaga yaqinlashdi.

— Bugun siylab yuborishibdimi? — dedi qoplarga imo qilib.

Agroxim qo'l siltadi.

— Nimaga tashqariga qo'yishyapti? Yomg'ir tashlay deb turibdi, — dedi Komil.

— Yomg'ir yuvsa yuvar, keragi yo'q, — dedi agroxim hafsalasizlik bilan.

— Nima o'zi bu?

— Metilmerkoptofos.

— Biologik kurashga o'tilgan-ku?

— Lekin zaharlarni beraverishadi.

— Direktor biladimi?

— Bilmasa olib kelarmidi?

— Keraksiz bo'lsa ham ustini berkitish kerak. Yomg'ir yuvib, atrofnı zaharlaydi.

Komil shunday deb mototsiklga o'tirdi-da, idoraga jo'nadi.

To'xtamish aylanadigan kresloga yastanib, huzur qilib sigaret tutatardi. Ko'rinishidan kayfiyati durust edi. Komilni divanga taklif etdi.

— Hozir oldingga bormoqchi edim. Sovuqda pivo ichaverib sovug'ing oshgandir, bir ichingga o't yoqsammi, devdim. Bog'ga boramiz. Murodga qovurdoq buyurib qo'yanman. Ish bilan keldingmi yo?..

— Agroximni ko'ruvdim. Metilmerkoptofos tushiryapti.

— Xabarim bor.

— Bizga keragi yo'q-ku?

— Zavod chiqarib yotibdi, rayonga wagonlab kelyapti. Rayon xo'jaliklarga bo'lyapti. Hech ajablanadigan yeri yo'q. Men ham, rayon ham aybdor emas.

— Qorning ochsa qovurdoq o'miga xashak yemaysan-ku? Yo boshing og'risa surgi ichasanmi? Olmayman, deb oyoq tirasang asakang ketadimi? Tekinga berilmaydi-ku bular?

— O'... o'... og'aynijon, osmondan pastga tushing.

Buning ham o'ziga yarasha siyosati bor. Oyoq tirasam, akkumulatorlardan umidimni uzaman, kaliyning yarmini ham ololmayman. Sen shartimizni unutib qo'yyapsan... Bunaqa ishlarga aralashma. Boshqalar nima bo'lsa, biz ham shu.

— Bilganingni qil, — Komil shunday deb qo'l siltadi. — Meni bekorga eslamagandirsan? Ishing bormidi?

— Bor, — To'xtamish shunday deb Komilning tizzasiga urib qo'ydi. — Minimumlarni topshirib qo'ysam-mikin? Spesni o'zingga ishonaman. Qolganlariga ishonchli odamlardan topish kerak.

— Mavzu-chi?

— Sen mening norasmiy ilmiy rahbarimsan. Men seni sovxozi tashvishlaridan ozod qildim, sen meni bu tashvishlarga aralashtirma. Kelishganmiz-ku?

— Ha... ha... kelishganmiz, — Komilning nafasi qaytib, ko'kragiga bir narsa qadalganday bo'ldi. — Kelishganmiz, — dedi u yana. — Shu hafta ichi aniqlab beraman. O'zing ham sal harakat qil. Domlalarning oldida og'zingni ochib turma.

— Xotirjam bo'l.

To'xtamish o'rnidan turib seyfga yaqinlashdi. Osilib turgan kalitni burab, eshikni ochdi-da, qappaygan konvert oldi. Indamay kelib Komilga uzatdi. Komil bir To'xtamishga, bir konvert ustidagi yozuvga qaradi: «Sadirov. 2500».

— Nima bu?

— Mukofot. Paxtamiz yaxshi bo'ldi. Bosh agronomisz buncha hosil olib bo'larmidi?..

— Mukofot?.. Balki... poradir?

To'xtamish pulni Komilning yoniga tashlab, qah-qah urib kulib yubordi.

— Voy ovsar, men senga nima uchun pora beraman?

— Tushunarli, — Komil o'rnidan turib To'xtamish bilan yuzma-yuz bo'ldi.

— Nima tushunarli? — To'xtamishning yuzidagi xushchaqchaqlik yo'qoldi.

— Biz sen bilan hech qachon do'st bo'lмаганмиз. Hozir bir-birimizga jilmayishимиз vaqtinchalik. Buni

bilasan. Lekin hech qachon do'st bo'lolmasligimizni o'ylab ko'rganmisan?

— Qani gapiraver-chi?

— Farqimiz bilimda emas. Istashang, men bilgan narsalarni sen ham bilib olasan, kallang joyida. Bizni bir-birimizga yaqinlashtirmaydigan bir narsa bor — sen vij-doningni sotishing mumkin, men qiyimalab tashlasang ham bunday qilolmayman.

— Ho'oshnajon, sal osmondan tushing...

— Tusholmayman, oshnajon, tusholmayman. Yerda sizdaqalar bilan yashasam, nafasim qaytib, o'laman.

To'xtamish konvertni divandan olib kaftiga urib-urib qo'ydi.

— Shu odatingni yaxshi ko'raman, o'g'il bola gapni gapirasan. Tilyog'lamalik qilayotganim yo'q, ishonaver. Sen xavfli odam emassan, ko'nglingda kiring yo'q. Lekin dangalliling o'zingga ziyon. Odamga o'xshab yashashing qiyin bo'ladi. Pulni olmay chakki qilyapsan. Bu o'g'irlilik pul emas. Mayli, o'zing bilasan. Seyfda tura turadi. O'yab ko'r.

— Boshqa fikrga kelgan kunim — o'lgan kunim.

— Shunaqami? — To'xtamish konvertni seyfga qo'yib, eshigini qulfladi-da, kalitni cho'ntagiga soldi. — Unda bugun sen bilan ko'rishganimiz yo'q. Ikkalamiz yomon tush ko'rdik, to'g'rimi?

— Koshki edi tush bo'lsa...

— Qani, yur, qovurdoq tagiga olmasin.

Komil uning ayyorona boqib turgan ko'zlariga tikildi.

— Hayronman, sen bilan hech urishib bo'lmaydi. Bاليقسان، qo'lda turmaysan. Ha, ha, bاليقسان. Bir shoir aytgan: «Dumingni likillatasan, olg'a ketasan», — degani baliqning falsafasi ekan.

To'xtamish boshini orqaga tashlab kulib, Komilning yelkasiga shapatilab qo'ydi.

— Men bilan to'g'ri gaplashaver, urishishni o'ylama.

— Bاليقسان deganimga rozimisan?

— Balki...

— Bاليقنانing ko'zi bor-a? Unda nimaga qarmoqqa ilinadi? Shuni o'ylab ko'r. Bo'pti, men ketdim.

Komil shunday deb chiqib ketdi. To‘xtamish uning ortidan g‘azab bilan tikilib turdi-da: «Ahmoq, padarla’nat ahmoq!» — deb g‘udrandi.

Ba‘zan odamning u yer-bu yeri lat yesa, qizig‘ida bilinmaydi. Sal fursat o‘tgach, og‘riq azobi iskanjasida to‘lg‘anadi. Komil ham shu ko‘yga tushdi. To‘xtamishning pul uzatgani avvaliga og‘ir botmadi. Shuning uchun o‘zini tutdi, piching bilan To‘xtamishga xanjar urganday bo‘ldi nazarida. Keyin mototsikl uni idoradan uch-to‘rt chaqirim nariga olib ketgach, chinakam og‘riq boshlandi. Shu paytgacha uni birov bu darajada haqorat qilmagan, bulg‘amagan edi. «Nimaga basharasiga solmadim? Uriurib xumordan chiqsam bo‘lmasmidi? Iflos... iflos... Meni ham o‘ziday iflos deb o‘yladimi? Boshqalar-chi? Yozin-qishin tuproq yalab, ostobda kuyib ishlayotganlar-chi? Ular ham meni olchoq deb o‘ylaydimi? Oq it, qora it — baribir it. Pulni olmaganimni, vijdonim pokligini kim bilib o‘tiribdi? Ovoza qilmayman-ku vijdonim pokligini?! Nimasi pok? Ifloslikni ko‘ra-bila turib indamaslik, «qo‘rqinchli tush ko‘rganini» tan olib chiqib ketish poklikka kiradimi? Hammayog‘im bulg‘anib ketdi...»

Yomg‘ir yuzlariga do‘lday urildi. Komilning ust-boishi iviy boshladi. Tomehilar kiprigiga yosh kabi qo‘nib, nigohini xiralashtirdi. U mototsiklni to‘xtatdi. Chuqur nafas oldi. Rulni mahkam ushlagancha boshini egib o‘ti-raverdi. Yomg‘ir tezlashdi. Buni sezmadi.

Donishmandlardan biri: «Agar aqling qo‘li nafsing jilovini ushlasa, seni yomon yo‘llardan saqlar», — degan ekan. To‘xtamishning nafs jilovi allaqachon uzilgan. Balki bunday jilov unda umuman bo‘lmagandir? Sut bilan kirib, jon bilan chiquvchi maslagi asli nopol bo‘lsa, bunday jilov, bunday jilovni ushlovchi aql qo‘li nima qilsin? Komilda-chi? Bormi shunday qo‘l, shunday jilov?

Savol miyasida g‘uv-g‘uv aylanadi. Javobga undaydi. «Bor!» — deb dangal aytishga jur‘at qilolmaydi. Cho‘chiydi. Ayniqsa, «qo‘rqinchli tush»dan keyin. Unga qadar o‘zida shunday qo‘l va jilov mayjudligiga amin edi. Hozir ham imoni komil, ammo bu qo‘lning kuchi qancha, erta-indin yana «qo‘rqinchli tush» ko‘rsa, quvvatdan ketib,

jilovni qo'yib yubormaydimi? Uning jur'atsizligi ham, cho'chishi ham shundan.

Yirtqich yomonlikni tirnoqlari, tishlari bilan daf qiladi. Odamning afzalligi shundaki, u farosati, zehni, aytar so'z-lari bilan yomonlikka zarba beradi. Komil-chi? Nima qildi? Na tish-tirnoqlari, na farosati, na so'zлari bilan ustun keldi. Laycha kabi dumini qisdi-yu, qochvordi. Yaxshi hamki qovurdoqqa bormadi. Unda itdan hech qanday farqi qolmas edi.

Hayot so'qmoqlardan iborat, deyishadi. Haq gap. Amмо To'xtamishga o'xshaganlar tekis, yurish oson bo'l-gan yo'lni qanday topishadi? Tekis yo'l vijdon evaziga sotib olinadimi? Yoki bu yo'l boshiga «Insolfi, vijdonlilar kirmasini» degan lavha qo'yiladimi? Komil: «Mal'un odamlar yegan ovqatdan yemasam, totgan lazzatdan totmasam, nafas olgan havodan nafas olmasam, hatto o'l-ganimda ular bilan bir tuproq ostida yotmasam», — derdi. Biroq istak bilan majburiyat bir-biriga vafo qilmas ekan, na iloj?

Komil ana shu xayollar iskanjasida uzoq o'tirdi. Eg-nidagi kalta to'n butkul ivib, badaniga sovuq o'tgach, seskanib, o'ziga keldi. Atrofga qaradi. Qayerda turganini darhol anglamadi. Keyin butunlay boshqa xo'jalik yerlarida ekanini fahmlab, mototsiklni orqaga burdi.

* * *

To'xtamish Mavludanining uyiga yaqinlashgan chog'da Komil bilan bo'lgan o'tgan yilgi o'sha to'qnashuvini esladi. «Haqiqatparvarligi tutib lov etib yonardi-yu, darrov o'cha qolardi. Shu odati yaxshi edi. Lekin lovullashlariga boshqa toqat qilib bo'lmadsi. Ayb o'zida... Mavludani undan oldin o'zim ilintirgandim. Happai halol o'zimning luqmam edi. Menga tashlab ketdi baribir...»

Mavludanining ko'chasiga burilgach, mashinani sekin-latib, chiroqni o'chirdi.

Derazan asta taqillatishi bilan uydagi chiroq yondi.

«Uxlamagan ekan, demak, meni kutgan!»

Mavluda chindan ham uxlamagan edi...

Chindan ham To'xtamishning kelishini kutgan edi.

Aniqrog'i, To'xtamishning, albatta, kelishini bilgan edi. Ertalab, idoraga kirib kelgan onda To'xtamishning g'ala-ba nashidasidan mast bo'layozganini Mavluda sezmadimi? Uning xiyol suzilgan ko'zlarida qora niyat sharpasini ilg'amadimi? So'zlarida ishrattalablikni anglamadimi? Qizlik faslining eng baxtiyor, eng shirin, eng sururli damlarida soyadek ilashib yurgan bu o'ktam yigitning (ha, ha, ayol zoti uning o'ktamligini tan olmasa bo'lmas) shu kech vujudidagi eng pokiza tuyg'ularni o'g'irlash, yo'q, o'g'irlash emas, toptash uchun kelajagiga amin edi. To'xtamish bunaqa ishlarni paysalga soladigan toifadan emas. O'shanda totli kunlarda ham boshqalarga o'xshab gapini yo'qotib, domdirab, titroq barmoqlari bilan bilagini ushlagagan. Ikkinchchi uchrashuvdayoq kinodan chiqqanlaridan so'ng ovloqroq joyda: «Sizni yaxshi ko'-raman», -- degan-u, javobini kutmay, mahkam quchib, labini labiga bosgan edi. Mavluda dastlab domdirab qolgan, g'azabdan yonib ketgan edi. Qiz bolaga shunday muomala qilgan yigit bevaning ko'ngliga qarab turarmidi...

Biroq... deraza taqillashi bilan chiroqning tez yongani zinhor To'xtamishni kutganidan emas. Buning sababi boshqa.

Mavluda uyiga qaytgach, kutilmaganda yuragida qo'rquv uyg'ondi. Dam hovlining qorong'i burchaklarida, dam uy ichida Komil yurganday bo'laverdi. Mavluda yuragida zaif titroq bilan u xonadan bunisiga kirdi, hovliga chiqdi. Komil uni ta'qib qilaverdi. Nuqlu xo'rsinganday bo'ladi. Hatto nafasi Mavladaning bo'yniga urilganday ham tuyuldi. Etlari seskanib ketdi. Uy ichidagi, hovlidagi chiroqlarning hammasini yoqib qo'ydi.

Komilni yerga qo'ygandan keyin bu uyda birinchi marta tunashi edi. Avgustning huzurli oqshomida birga o'tirib osh yeyishgandi. Jindek arazlashishgandi... O'sha oqshom, o'sha kech, so'ng erta-sahardagi gaplari esidan chiqmaydi. Xuddi uning o'limini sezib har bir so'zlarini yodida atayin muhrlab olganday.

Kech topib, erta yo'qotgani — bu pokiza odamning indamaslar dunyosiga ketganiga sira ishongisi kelmaydi.

Murdaning sovuq ko‘zlaridan o‘pganda ham, qabrnı quchoqlab yig‘laganda ham ishonmadı, nazarida buning hammasi tush — noxush, qo‘rquinchli, xunuk bir tush edi. Qaynonasini kida yolg‘iz qolgan kezlari ro‘parasida jilmayib turgan Komil akasi paydo bo‘lardi. Erta-sahar xayrlashib ketayotganda Komil shunday jilmaygan edi. Endi-endi o‘ylab qarasa, Komilning o‘sha jilmayishida qandaydir ma‘yuslik, siniqlik, dard bor ekan.

Shu yigitni deb dunyodan befarzand o‘tishga ham rozi bo‘lib edi. Shuncha yil malomatlarni ko‘tarib yurdi. Bu ma‘yus jilmayib turgan yigit nega uni alda tashlab ketdi? Ilgari tashvish aravasini birga tortishardi, endi bu dunyo sitamlarini bir o‘ziga tashlab ketdi-ku? Tashlab ketdi... Tashlab ketdi... Shu rostmi? Yo tush ko‘ryaptimi? Bu sabil uyqudan qachon uyg‘onadi, bu jirkanch tushning zulmidan qachon qutuladi...

Qaynonasini kida yashab yurganda Komilning o‘limini faqat yig‘i-sig‘i-yu qaynotasining ojizgina oh urib qo‘yishi tasdiqlab turardi. Bu yerda, bu tun bag‘rida unday kuch yo‘q. Ana, Komil hovlida yuribdi. Yo‘q, endi keladi, daladan horib-charchab, uyda birpas mizg‘igani, Mavludaning qo‘ynida birpas tin olgani keladi. Tong otar-otmas mototsiklini tarillatib yana ketadi... Yo‘q, u shaharga ketgan. Qaysi bir bemehr onadan qolgan go‘dakni yo‘rgaklab, ko‘tarib kirib keladi. Shu bilan uylarida yangicha hayotning nafasi ufuradi.

Mavludaning tomog‘iga nimadir tiqildi. Nafasi qaytdi. Ichkariga kirdi. O‘zini yetim qolgan to‘sakka tashladiyu, yig‘lab yubordi. Bu uyda hamma narsa yetim endi. Faqat yetim bola yo‘q... Faqat yetim bola yo‘q... Shunday yigit bu dunyoda surriyot qoldirib ketmadi-ya!!!

Yig‘lay-yig‘lay ovungach, haligi qo‘rquv Mavludani kutilmaganda tark etdi. Shu bilan birga uyda sassiz yurgan Komil ham g‘oyib bo‘ldi.

U o‘rnidan turib, chiroqlarni o‘chirdi. Nazarida chiroq yoqib, ustiga-ustak ho‘ngrab-ho‘ngrab Komil akasini quvganday edi. Endi qorong‘i xonalarda sarsari kezdi. Balki... Komil ham To‘xtamishning kelishini bilib qaytib ketgandir? Qanday razolat!!! Qanday tubanlik!! Erining

issiq nafasi ko'tarilmagan uyg'a haromni ilashtirib yuruchi bir ablah kirib kelsa?! Komil undan hazar qilgani uchun g'oyib bo'lgandir? Ha... unda Mavludadan ham hazar qilar?.. Mavluda yana bo'g'ildi. Qanday qilsin, axir, u shu begunoh arning xotirasi bulg'anmasin, deb keldiku. Xotirasini poklagunga qadar o'zining nomi ne-ne balchiqlarga belanarkan?! Elning-ku og'ziga elak tutib bo'lmaydi, har holda, Mavludaning niyati boshqalarga qorong'i. Komil akasi biladi-ku?! Qaynonasinkida yashab yurganida kechalari derazadan jilmayib qaragan Komil akasiga tergovchining gaplarini ma'lum qilib, To'xtamish to'qigan bo'htonlarga chiday olmasligini aytgan edi-ku?..

Ana shu cho'g'lar ustida yalangyoq zir yugurayotgan damda deraza taqilladi. Komil akasi kech qolganda shunday taqillatardi. Yuragi hapriqib ketib, chiroqni yoqqanini o'zi ham sezmay qoldi.

Tashqarida esa To'xtamishning ko'ngliga chiroq yoqildi. Ammo bu chiroq aldamchi edi, darrov so'ndi. Chunki Mavluda darvozani emas, derazani ochdi. Ochganda ham xuddi To'xtamish temir panjara orasidan suqilib kirib oladiganday, qiya ochdi.

— Menman, jonim... — dedi To'xtamish uning harakatini tushunmay.

— Nimaga keldingiz, hoziroq keting!

— O'n yil kutdim, axir, bunchalik bemehr bo'lmasangiz?

— O'n yil kutgan... yana ozgina kuting, hali aytdim-ku.

— Keling endi, Mavlu, birov bilmaydi...

«Birov bilmaydi, birov bilmaydi... Qanaqa odam bu o'zi!! O'zim-chi, o'zim ham bilmaymanmi? Yo mening bilishim hisobga kirmaydimi? Birov bilmasa har qanday haromga qo'l uraverish mumkinmi? Odamning o'zidagi izzat-nafs, vijdon, nomus bir chaqami?»

To'xtamish hozir bu tuyg'ular bilan hisoblashadigan kayfiyatda emasdi. Uning uchun eng muhimi — hamma uyquda. Juvonning jim qolishi esa rizolik darvozalarining ochilishi. Hozir deraza yopiladi. Chiroq o'chiriladi. Darvoza ochiladi va... haroratli nafaslar birlashadi...

— Shu ko'chada yana ko'ringan kuningiz yo'limiz boshqa-boshqa tushadi!

Mavluda chindan ham derazani yopdi. Chiroqni o'chirdi. Ammo darvoza ochilmadi. Haroratli nafaslar birlashmadi.

To'xtamish yigit bo'lib bunchalik xorlanmagan edi. Alam qildi. Dam derazaga, dam darvozaga yana birpas ilinj bilan qarab turdi. So'ng bo'ralab so'kindi-da, mashinaga o'tirdi. Ehtiyyotkorlikni ham unutib, chiroqlarni yoq-qanicha vag'illatib haydab ketdi. «Ha qanjiq, taroziga solyapsanmi? — dedi u o'ziga-o'zi g'azabdan titrab. — Hali qarab tur, seni shunday xor qilayki... Pulning dardida kelgan bo'lsang, noz qilishni kim qo'yibdi senga...»

To'xtamish mashinani bog'ga qarab burdi. Murod mug'ambir sergak edi. Terim payti direktorning yarim tundami, erta tongdamni kirib kelishiga ko'nikib qolgan. Besh-o'n kishilik mehmon kutishga kecha-yu kunduz shay turadi.

Bir piyola konyak badanni qizdirdi-yu, itday haydal-gani battar alam qildi. Tomog'idan ovqat o'tmadni. Shiy-ponga uzala tushdi. Xayol har tomonga olib qochib, uyqu elitganini sezmay qoldi.

Ertalab uni telefon jiringi uyg'otdi. Kapitan Odilov obdan hol-ahvol so'ragach, mayor bilan leytenantning kechirim so'ragani kelayotganini xabar qildi.

— Bog'ga boshlayvering, mazam yo'qroq, idoraga bormayman, — dedi To'xtamish jonlanib.

— Hamidova ham bo'lishi kerak ekan.

— Shart emas, kasalxonada-ku, — shunday deb gapni kalta qildi-da, yotgan yerida: «Murod!» — deb baqirdi. Murod mug'ambir uni kuttirmadi. — Hushyor tur, nozik mehmon keladigan bo'lib qoldi.

— Biz tayyormiz, kelaverishsin.

— Sandig'ingni ochib, bitta to'n bilan bir kiyimlik atlas o'rabi qo'y, — deb To'xtamish o'rnidan turib o'tirdi. «Do'ppi tor kelib qolibdi-da, mayorning o'zi qadam ranjida qilayotgan bo'lsa, demak, akaxonim yaxshilab tuzlaganlar. Jonon ham kelarkanlar-da. Bir ko'z urishtirib olsammi... Asqatib qolar... Olamni ostin-ustun qilib

yuboradiganday ish boshlovdı. Mana, oyog'imga bosh urib kelyaptı. Ishlar yomon emas...»

Uning xayolini traktorning tarillashi buzdi. Bu atrofga traktor yaqinlashmas edi, shunga hayron bo'lib, bo'ynini cho'zib qaradi. Shatak aravalalarini qayerdadır qoldirgan traktor temir mo'risidan qop-qora tutun ufurib, to'g'ri bog'ga qarab kelardi. Traktor darvoza oldida to'xtab, undan bir ayol tushdi. To'xtamish tikilib qaradi, ko'ziga ishonmadi: Latofat! «Kasalxonaning ham karvonsaroydan farqi qolmaganmi, bu yerga nimaga keldi?»

To'xtamish bir qo'lini panjaradan osiltirib, uni jilmayib qarshi oldi.

— Qaysi shamol uchirdi, Latofatxon, opoq bo'lib ketdingizmi?

To'xtamish u shiyponga chiqar deb o'ylagandi. Latofat ro'paraga kelib to'xtadi.

— Siz so'ragandan beri, — deb javob berdi u piching bilan.

— Traktordagi ering, shekilli? Nima bo'ldi, tinchlikmi? Har xil mish-mishlar eshitdim?

— O'zini osib qo'yibdi, deb eshitdingizmi?

— Juda unaqamas-u, ammo shunga yaqinroq.

— Nimaga osaman, o'ladigan ahmoq yo'q. Erim yaxshi ko'radi, men ham uni... jonimdan ortiq sevaman. Gunohim yo'q. Unga tekkuncha onasi o'pmagan qiz edim.

To'xtamish o'zi aytgan bu gapni juvon og'zidan eshitib, istehzo bilan kuldi.

— Faqat onangizzina o'pmagan qiz edingiz...

— Endi mayna qilyapsizmi, ha, mayli, til sizniki, gapi-ravering, bizga ham navbat kelib qolar.

— Nima qilmoqchilar, onasi o'pmagan qiz?

— Tergovchiga aytadigan gaplarim to'planib qoldi.

— Ovora bo'lasiz. Ish yopilgan. Tergov to'xtagan. Endi gaplaringiz bir pul, — To'xtamish shunday deb qaddini ko'tardi. Qovog'ini uydi. — Nimaga kelding, dardingni ayt-u jo'na? Hozir komissiya kelishi kerak bu yerga. Erjoning ham kutib qoldi.

— Kutsa ko'zi qora bo'ladi, qo'yavering. Ikkita tala-bim bor. Birinchisi: erimga «Jiguli» berasiz.

— Onamnikidan olamanmi?

— Tashabbuskor sovxoz bayroq olib qolar? Erimga bersangiz arziydi, ilg'or mexanizatoringiz.

— Ilg'orki, u yoq-bu yog'i yo'q. Terim paytida paxta tashimay, go'zal malikalarini kataysa qildirib yuribdilar... Xo'p, yana nima deysan?

— Shahardagi uyni menga berasiz, ko'chib ketamiz.

— Shaharni tag-tugi bilan nomingga o'tkazib bera-qolay?

— O'ylab ko'ring, yo'q desangiz, hech narsadan qaytmayman. Tergovni to'xtatgan bo'lsangiz, raykom bor, obkom, markazkom bor. Dodimni hech kim eshitmasa, Moskovgacha boraman. Bilib qo'ying.

— Uningni o'chir. Tergovni to'xtatgan bo'lsam, seni deb to'xtatdim. Sharmandang chiqmasin, dedim. Muncha lovullaysan! Uyni senga beraman. Aytmasang ham shu niyatim bor edi. Xohlasang, shu uyni ol. Biroz kutaman, desang, bundan zo'rini to'g'rilab beraman. Men gilam sotsam, qo'shniga sotaman, chunki bir chekkasida o'tirish niyatim bor. Men bilan arazlashishga haqqing yo'q. Biz aka-singilmiz-a?! Singiljon, akangizni zinhor xafa qilmang. Endi boravering.

— Shu hafta ichi bo'lsin.

— Singiljon, deyapman, jonimni so'rang, hoziroq bcrib yuboray. Faqat o'qraymang, bu chiroyli ko'zlarga ishva yarashadi.

Latofat shart burilib keta boshladi. Uch-to'rt qadam yurgach, to'xtab, orqasiga qaradi:

— Bir hafta, bilib qo'ying.

To'xtamish zaharxandalik bilan kulib qo'ydi. Latofat to traktorga chiqib o'tirguncha undan ko'zini uzmadi.

«Qanday kunga qoldim. Shu g'unajinning do'q urishi yetmay turuvdi. Voy qanjiq, voy haromi, meni qo'rqi-moqchi bo'lasanmi. He, enangni... To'g'ri aytaver, shu-shu kerak, deb. Bermagan nomard. Sendan hali kechmagan bo'lsam... He...»

To‘xtamish o‘rnidan sapchib ketdi. Nima qilarini bilmay turdi-da, «Murod!» deb baqirdi.

Oshxona eshigida Murod ko‘rindi.

— Hamma narsa tayyormi? Buncha ivirsiysan? Bo‘l tezroq. Joyni ichkariga qil.

U pastga tushib, daraxtzor oraladi. Ko‘ngil xijilligi sal yozilganday bo‘ldi. Shiyponga yaqinlashayotib suv kraniga ko‘zi tushdi. Kranning uch tomoniga qo‘ngan musicha jildirayotgan suvdan ichmoqchi bo‘lib tumshug‘ini cho‘zdi. Ichiga suv kirdimi-yo‘qmi, cho‘chib boshini ko‘tardi-da atrofga alangladi. Keyin yana tumshug‘ini cho‘zdi. To suvgaga qonguncha bir necha marta shunday qildi.

«Sho‘ring qurg‘ur. O‘zining soyasidan cho‘chiydi. Men-chi? Men... cho‘chiyapmanmi? Be... Shunchaki ko‘nglim g‘ash. Shu musicchaga o‘xshab qolganimdan ko‘ra o‘lganim yaxshi. Men burgutday chang solishim kerak. Burgutday yuqori ko‘tarilishim shart. Bo‘lmasa o‘zimdan o‘zim rozi emasman. Hozirgi voqealar o‘tkinchisharpa. Odamlar bundan battarini eplashtirib yuboradi...»

Kun og‘a boshlaganda darvozadan havorang «Volga» kirib keldi. To‘xtamish mehmonlar bilan alohida-alohida sertakalluf salomlashdi.

— Sovxoziimizga tergovchi kelibdi, deb eshitamiz-u, ammo o‘zlarini ko‘rolmay dog‘da qolamiz. Sizni ko‘radigan kun ham bor ekan-ku...

To‘xtamish bu gaplarni Nozimaning ko‘ngli uchun emas, balki uzatilgan qo‘lni uzoqroq ushlab turish uchun aytди.

Odamning jonidan boshqa hamma narsa mavjud bo‘lgan dasturxon atrofida eski qadrdonlardek chaqchaqlashib o‘tirishdi. Mayor latifaga usta ekan. Nozimani hayratga solib, davrani gullatib o‘tirdi.

Nozima To‘xtamishning qarashlarini sezdi. U yo‘lga chiqqanda ko‘ngli g‘ash edi. Shu sababli mayor bilan gaplari qovushmadidi. Keyin o‘ylab-o‘ylab, qani, tomosha nima bilan tugarkan, deb kutdi. Chiroyi ochilmadi.

Davrada mayorning salobati bosgani uchun kapitan Odilovgina begonasirab o‘tirardi.

Latifalar tugab, suhbat mavzusi sayozlasha boshlagach, mayor asta muddaoga ko‘chdi:

— To'xtamish Omonturdiyevich, dolzarb paytda sizni ishdan qo'ydik, uzr.

— Nima deyapsiz, shunaqa bahonada bir dam olvolamiz biz sho'ring qurg'urlar ham. Ish ko'plikka ko'p. Hozir kimga oson, dalada paxta terganga oson. Ertalab turadi, normasini teradi, uyiga borib yotadi. Uyimdagilar meni ro'yxatdan ham o'chirib tashlashgandir. Yarim kechada svodka beramiz: bugun paxtaga qancha odam chiqdi, tushgacha qancha edi, tushdan keyin qancha qoldi, bir kishi qancha terdi, ertaga qancha odam chiqadi, qancha teradi, qanchasi erkak, qanchasi xotin, nechta mashina ishlab turibdi, qanchadan teryapti... Shu svodkalar qaritsa kerak meni.

— Yaxshi niyat qiling, To'xtamish Omonturdiyevich, hali boshqalardan svodka talab qiladigan amallar sizni kutib turibdi.

— Agar kattaroq stolni olsam, svodka deganni yo'q qilaman. Paxtang bormi, ter, planni bajar-u do'ppingni osmonga otib yuraver, azamat!

— Shu kunlarni ko'raylik. Endi, To'xtamish Omonturdiyevich, bizni bu tomonlarga bir uyatli ish olib keldi. Xodimimiz yoshlik qilib, tajribasizlik qilib tekshirib, to'g'-ri xulosalangan ishni chalkashtirib yuboribdi. Sizni shu sababli ancha bezovta qildik. Sizni fe'li keng, mard odam deb bilamiz, singlimizni, shu kishi orqali bo'limimizni kechiring. Ish bor joyda kamchilik ham bo'lar ekan.

— Ilgari xafa bo'lmasam ham endi xafaman sizdan. Shu gap sizdan lozimmi? Singlimizda nima ayb? Ishni ko'rishlari kerak edi. Ko'rdilar. Kasblaringiz o'zi shunaqada. Siz tuya so'yib chorlab bo'lmaydigan odamsiz. Vaqt topibki, yo'qlab kelibsiz, ming rahmat. Haligi gaplarni qo'ying. Siz aytmadningiz, men eshitmadim, — To'xtamish shunday deb o'midan turdi-da, zinaga oyoq qo'yib: — Murodjon ukam, qayerdasan?» — deb chaqirdi. Shu zumda oshxonadan ko'rinish bergen Murod mug'ambiriga imlab qo'ydi. U qog'ozga o'rog'liq sovg'alarni olib kel-di. — Shu yerdagi bugungi o'tirishimizdan esdalik. Terimdan qutulib olaylik, paxta bayramida boshqacha kutib olamiz.

Mayor sovg‘alarni uncha tarang qilmay qabul qildi. Nozima olmadi. Murod direktorning imosi bilan sovg‘alarni mashinaga qo‘yib keldi.

Oqshom tushmay xayr-xo‘splashib yo‘lga chiqdilar. Yo‘l-yo‘lakay kapitanni tashlab o‘tdilar.

Qaytishda ham gaplari qovushmadidi. «Atlasni mashi-nasida qoldiraman, xotiniga olib borib bersin... Yo‘q, polkovnikka olib kiraman...»

Nozima shaharga yetguncha bir qarorga kelolmay garang bo‘ldi. Mayor mashinani boshqarma eshigi oldida to‘xtatdi.

— Men mashinani garajga qo‘yib kelaman. Siz anavi sovg‘alarni olib, rasmiylashtirib qo‘ying.

Nozima bo‘lim boshlig‘iga hayratlanib qaradi. Ishning yopilishi niqob ekaniga endi uning shubhasi yo‘q edi.

* * *

Nozima ishni nimadan boshlashni bilmay o‘tirgan damda eshik ochilib, bo‘lim boshlig‘i ko‘rindi.

— Xo‘sh, o‘rtoq arazchi, ginalarni uyingizga tashlab keldingizmi? Uyalmay aytavering. Ishni indamay yop-ganiningizda uyalsangiz bo‘lar edi. O‘ziga ishonmagan odamdan tergovchi chiqmaydi. Ish hali ora yo‘lda bo‘lsa ham kapitulyatsiyamni qabul qiling.

— Osongina taslim bo‘lyapsiz, o‘rtoq mayor, ishongim yo‘q.

— Shubhalaringizni jinoyatchilaringizga asrab qo‘ying, menga ishonavering. Qani, Sadirovning ishi bo‘yicha yig‘gan bisotlaringizni oling, polkovnik kutyapti.

Nozima ishni yopish uchun tayyorlab qo‘ygan qog‘oz-larni oldi.

— O‘rtoq mayor, kechagi tomosha-ku Omonturdiyevni cho‘chitib qo‘ymaslik uchun qilindi, tushundim, menga berilgan yolg‘on buyruq nimaga kerak edi?

— Ana xolos, shuni ham bilmadingizmi? Ishni yoping, deganimiz sizga yoqmadi-ku, to‘g‘rimi? Ana shu norozililingiz yuzingizdan, xatti-harakatingizdan sezilib turishi kerak edi. Omonturdiyev oraga odam qo‘ydi. Hozir hamma narsadan cho‘chiydigan vaqtি. O‘sha odamning

gapi bilan ishni yopishimizni bilsa ham, to‘la-to‘kis ishonmaydi. Siz u yerga xotirjam borib, o‘ynab-kulib kel-ganiningizda xavotir uyg‘otib qo‘yardingiz.

— Demak, menga ishonmagansizlar?!

— Ha, ishonmadik. Bunaqa sharoitda usta aktyor ham pand berib qo‘yishi mumkin.

Polkovnik Sultonovning xonasida yana ikki kishi — OBXSS boshlig‘i va jinoyatga oid qidiruv bo‘limi boshlig‘i bor edi. Mayor bilan Nozima kirkach, Sultonov hech bir taraddudsiz muddaoga ko‘chdi:

— Leytenant, taxminlaringiz bilan bizni tanishtiring.

Nozima bunga tayyor emasdi. Ishni yopish haqida buyruq olmasdan oldin uning bir necha taxmini bor edi. Nazarida har bir taxmin aniq dalilga asoslanardi. Keyingi ikki kun ichida bularning barchasi puch gap ekaniga o‘zini ishontira boshlagan, endi esa o‘scha puch gaplarni haqiqatga aylantirib bayon qilishi lozim edi. U qog‘ozlar ichida nimanidir qidirgan bo‘lib, bahonada xayolini jamlab oldi. Sultonov uni shoshirmadi. Yonida o‘tirgan OBXSS boshlig‘ining qulog‘iga shivirladi. OBXSS boshlig‘i ma‘qul ishorasini qildi. Nihoyat, Nozima qog‘ozdan ko‘z uzib polkovnikka qaradi. Sultonovning xotirjam ekanini ko‘rib hayajoni biroz bosildi.

— Sadirovning cho‘kib o‘lishiga doir bir necha taxminlar bor edi. Birinchisi, mast holda cho‘kib o‘lgan.

— Isbotlanmagan taxminlarni aytib o‘tirmang. Men o‘rtoqlarni bu ish bilan umumiy tarzda tanishtirganman. Siz asosiy gumonlaringizni va takliflaringizni aytинг.

— Asosiy gumonimmi? Sadirov o‘ldirilgan. U Omonturdiyevning ayrim sirlaridan xabardor bo‘lgan va bu sirlarni ochishga harakat qilgan. Omonturdiyev Latofat Hamidova va Shonazir Shog‘iyosovlarni ishga solib uni o‘ldirtingan. Omonturdiyev Sadirovning ertalab yo‘lga chiqishini bilgan. Hamidovaning vazifasi Sadirovni yo‘lda uchratib, kanal tomon boshlashdan iborat bo‘lgan. Hamidova tayyorlangan suiqasddan bexabar bo‘lishi ham mumkin. Ammo Shog‘iyosov o‘ldirish maqsadida kutib turgan.

— Sadirovni nima uchun boshqa yerda emas, aynan to‘rtinchi bo‘limda kutishgan?

— Birinchidan, Sadirovning idorasi shu yerda. Ikkinchidan, shu bo'lim yaqinidagi charxpalak to'xtatib qo'yilgan. Sadirovning undan xabar olishi tayin edi. Omonturdiyev bu ishda shaxsan ishtirok etmagan. Shog'iyosov tergovni chalg'itish uchun ginekolog Zaripovani osongina aytilib bergan.

— Ikkinchchi gumon Subhon Solmonovga tushadi. Uni ertalab mast holda ko'rishgan, — dedi Bo'tayev. — Atrofda undan bo'lak odam ko'rinnagan. Bundan tash-qari, ko'p o'tmay ko'chib ketgan.

— Men o'rtoq mayorning gumonlariga qo'shilmayman. Birinchidan, Sadirov bilan Solmonovning orasi yaxshi bo'lgan. Ikkinchidan, hammaga ko'ringan odam bu ishni qilmaydi. Uchinchidan, murdani qidirishni Shog'iyosov emas, u boshlagan, to'rtinchidan, spravkani...

— Yaxshi, — Sultonov shunday deb uning so'zini bo'ldi. — Takliflaringizni aytинг.

— Ishni «yopganimizdan» keyin boshqa yo'lni o'ylab ko'rish kerak. Men ularni chalg'itish maqsadida Solmonovni ayblab turmoqchi edim. Endi bu usul o'z-o'zidan chetga chiqadi.

— Omonturdiyev guvohlarni yo'qotishga harakat qilmasmikan? — deb so'radi jinoyatga oid qidiruv bo'limi boshlig'i.

— Bo'lishi mumkin.

— Shunday qilishi aniq, — dedi mayor Bo'tayev. — Omonturdiyevning bunaqa ishlarda tajribasi yo'q. Shuning uchun eng oson yo'lni tanlaydi. Guvohlarning ikkovi ham o'ziga yaqin odam, demak, zaharlab o'ldirishi mumkin. Yoki o'zini o'zi o'ldirishga ruhan majbur qiladi. Hamidovaning o'zini osmoqchi bo'lganini unutmaslik kerak.

— Taklifingiz?

— Shog'iyosov bilan Hamidovani Omonturdiyevning ko'zidan qochirish kerak.

— Qanday qilib? Shog'iyosovni qamoqqa olsak, Omonturdiyev shubhalanib qoladi.

— Men buni o'ylab qo'ydim, — dedi jinoyat qidiruv bo'limi boshlig'i. — Shog'iyosovni bezoriligi uchun

qamoqqa olamiz. U rayon markazidagi restoranda ko‘p o‘tirar ekan. Kichkina janjal chiqaramiz. Hamidovani ikki-uch oyga malaka oshirish o‘qishiga yuborish kerak.

— Omonturdiyevni qanday qo‘lga olamiz? O‘ylab ko‘rdilaringmi? Uni quruq gap bilan emas, jinoyat ustida ushslash kerak, bo‘lmasa qo‘ldan sirg‘alib chiqib ketadi. U ayrim hujjatlarni yo‘q qilishga urinishi ham mumkin.

— Bu masalada Sadirova bilan kelishib qo‘yanmiz. Punktdagi o‘rtoqlar ham sergak, — dedi OBXSS boshlig‘i. — Hozircha Omonturdiyevning qay yo‘sinda pul berishi aniqlanmadи. Aniqlanishi bilan ishga kirishamiz.

Nozima Mavludaning sovxozagа kelib qolish sababini endi angladi. Uning ko‘nglidagi gapni OBXSS boshlig‘i qanday bilib, Sadirovani qanday ko‘ndirdi ekan? Nozima uchun bu hozircha qorong‘i, Mavludaning uni qidirib kelgani, tasodifan Sultonovga duch kelib, maqsadini aytgani, so‘ng Sultonovning OBXSS boshlig‘ini chaqirib ish rejasi tuzishganini u keyinroq biladi. Hozircha, aniqrog‘i, ish yakunlanguncha turli taxminlarda yura turadi.

Shu kuni har bir bo‘lim qiladigan ishlар aniq belgilandi. Nozima Komil Sadirovning so‘nggi ishlari haqida qo‘shimcha ma’lumot to‘plashi lozim edi. Shu sababli yig‘i-lish tugashi bilan ilmiy tekshirish institutiga telefon qilib, Sadirovning ilmiy rahbari xorijdan qaytganini bildi-yu, yo‘lga chiqdi.

Hamroqul Ismoilov — Sadirovning ilmiy rahbari — yoshi ellikdan oshgan, past bo‘yli, ko‘rinishi chayir odam edi. Sochlari butkul to‘kilgan boshiga qo‘ndirgan gilam do‘ppisi oftobda ancha rangini oldirib qo‘yan edi. Nozimaning maqsadini eshitib chuqur xo‘rsindi-da, stolni chertib-chertib qo‘ydi.

— Kelgan kunimoq eshitganman, bola bekorga nobud bo‘lib ketdi, — u shunday deb stolni yana chertdi. — Bu yerga men olib kelgan edim uni. Bunaqa joylarga falonchi falonchiyevlarning bolalari-yu jiyanlari tuxum qo‘yishga ishqiboz. Issiq joy-da, ishlamay maosh olaveradi, birov g‘ing demaydi. Komilga o‘xshaganlarni boshlab kelmasang, o‘zi yaqinlashmaydi. Avval shunaqa edi. Yangi direktor institutni ancha tozaladi. Komilday

tirishqoq bola kam topiladi. Sal betoqatlik qildi. Ucharlar ikki-uch yilda dissertatsiya yoqlab olishyapti. Komilning o'rnida bo'lganimda menga ham alam qilardi. Yetti-sakkiz yil ishladi. Maqsadi yaxshi edi. Men ketishiga to'g'anoq bo'lmadim. Qaytishiga ishonuvdim. «Domlajon, — meni «domlajon» derdi, — yana institutga qaytdim», — deb kirib kelishini kutardim.

— Nima uchun? Qaytishiga sabab bor edimi?

— Sabablar bor edi. Avvalo, uning farazi, tajribasi kutilgan natija bermasdi. Genetik kodni bu xilda aniqlab, o'zgartirish mumkin emas. Kechirasiz... siz buni tushunmasangiz kerak?

— Shu ishning orqasida yurib, yangilikning dovrug'ini sal-pal eshitdim.

— Avvallari g'o'zaga, asosan, kimyoviy yo'l bilanta'sir o'tkazilar edi. Biz ko'proq fizikaviy ta'sir tarafдорларимиз. Комил о'simlik, jumladan, g'o'za ham biz o'ylagandek yovvoyi, ongsiz emas, deb hisoblardi. Униг фикрича, inson a'zolarini miya boshqargani kabi o'simlikning ham shunday nuqtasi bor edi. О'sha nuqtani topmoqchi edi. Shunda insonni biotok oqimi orqali boshqarish mumkin bo'lganidek, o'simlikni ham o'zimiz istagancha boshqarish mumkin bo'lardi. Vaznsizlik holati shu yo'ldagi urinishlaridan biri edi. — Hamroqul Ismoilov barmoqlariga tikilib jimb qoldi. — Sizni bu gaplar qiziqtirmasa kerak, a?

Daf'atan berilgan bu savoldan Nozima o'ng'aysizlandi.

— Men o'zim qiziqqanim bilan «Ish»ga unchalik...

— Tushunib turibman. Yahyo aytib berdi hammasini. Ichish-ichmasligi bilan qiziqibsiz?

— Ha. Buni aniqlashim shart edi.

— Turmush qurganga o'xshaysiz, so'raganning aybi yo'q, eringiz ichadimi?

— Ha, oz-moz.

— Oz-moz. Hm, oz-moz. Hozir ichgan odamdan emas, ichmagandan hayratlanadilar. Buni qarang-a, sog'liqni saqlash ministrligi ichmang, sihatning buziladi, deb ogohlantiradi, savdo ministrligi esa: «Aroq ichgan yetar murodga», — deb jar soladi.

- Yo‘g‘-e, unday emas.
- Aynan shunday, qizim. Siz esa qo‘yib berasiz. Savdo plani bajarilmayaptimi, aroq sotaver, bitta so‘rasa, ikkita sot. Ichsin, kayf qilsin, bir-biriga pichoq ursin, suvga cho‘ktirsin, keyin jinoyatchini o‘zimiz topib olamiz, deysiz.
- Ilmiy rahbar gaplarini dona-dona qilib, hovliqmay, e’tirozga o‘rin qoldirmay gapirardi.
- Shunaqa, o‘rtoq tergovchi, bu aroqlarni yo‘q qilmas ekansiz, jinoyatni tugata olmaysiz.
- Gapingiz to‘g‘ri, lekin bu biz hal qiladigan masala emas.
- Mana endi o‘zingizga keldingiz. Bu masalani biz hal qilmaymiz, deb yuraveramiz.
- Siz Sadirovning ichish-ichmasligini aytmoqchi edingiz?
- Hamma qatori ichardi.
- Mast-alast yurmasmidi?
- Yetti yil birga ishlab mast yurganini ko‘rmaganman. Ammo pivoni juda yaxshi ko‘rardи. Pivoni kunduzi, ish paytida ham ichaverardi. Bir shisha pivo odamni mast qilmaydi-yu, hidi qurg‘ur yomon. Og‘izdan hidi kelib turgandan keyin ichgan hisoblanaveradi. Ziyofatlarda ham ko‘p birga bo‘lganmiz. Mast bo‘lish darajasida ichmagan. Og‘aynilaridan ham: «Komil dumalab qoldi», — deb eshitmaganman.
- Demak, ichkilik uchun ishdan haydalмаган?
- Nima deyapsiz? Direktorning o‘zi yalingan-a?
- Sadirovning institutga qaytishi uchun sabablar bor edi, deb turib chalg‘ib ketdingiz. Yana qanday sabablar bor edi?
- Komil sovxozi sharoitida ishlay olmas edi. U pok yigit edi. Sovxozdagi nayranglar uni ezib qo‘yardi... Aniqroq aystsam — ezib qo‘ygan edi. Uzoq chidolmasligiga ko‘zim yetardi.
- Sovxozdagi noma’qul ishlarni bilarmidi?
- Komil ko‘r ham, kar ham, befarosat ham emasdi.
- Buni bilaman. Savolimga aniqroq javob bering: nayranglar Sadirovga shunchaki ma’lummidi yo u sherik edimi?

— Sherik? — Hamroqul Ismoilov bosh chayqadi. — Yo‘q-yo‘q, bu gumoningiz chakki, qizim, boshqadan kutsam ham buni Komildan kutmayman.

— Sadirov sovxozdag'i nayranglarni sizga hech aytganmi?

— Aytgan.

— Qachon?

— Oxirgi uchrashuvimizda.

— Qachon, qayerda uchrashgansiz, sovxozdami yo Sadirov bu yerga kelganmi?

— Moskvada, Domodedovoda uchrashganimiz. O'n to‘qqizinchi avgustda.

* * *

Komil e'loularni o‘qiyotgan qizning shirali ovozini, to‘g‘rirog‘i, xushxabarini orziqib kutmoqda edi. Qiz uchishning yana besh soatga kechikishini aytayotganda ovozi ham yoqimsiz tuyulib ketdi. Ikki soat badalidagi diqqatchiligi yetmagandek, yana ipsiz bog‘lanishi kerak. Besh soatdan keyin uchadimi yoki shunaqa «xushxabar» bilan tong ottiradimi? Hozir Toshkentdan kelgan samolyotga chiqadiganlar o‘n ikki soat kutishibdi. Komil besaranjom zalda bo‘g‘ilgandan bo‘g‘ilib, tashqariga chiqdi. Bir qo‘lida jomadon, ikkinchisida katta qovun ko‘tarib kelayotgan ilmiy rahbarini ko‘rdi-yu, ko‘ngli birdan ravanlashib ketdi.

Hamroqul Ismoilov, borar mehmonxonasi tayin bo‘lsa ham, Komil: «Yarim kechada nima qilasiz yurib?» — degach, qahva ichishga rozi bo‘lib, ichkari kirdi. Tik turgan holda yengil tamaddi qilishdi. Gap orasida Komil Moskvada qilgan ishlarini hayajon bilan aytib berdi.

— Va‘da berishgani oshig‘ing olchi, degan gap emas.

Komil ilmiy rahbarining ehtirosga berilmasligini bildi. Shunday bo‘lsa ham kosmonavtlarning va‘dasini befarq eshitganidan ajablandi. Ko‘ngli og‘ridi.

— Men bu yangilikdan xursand bo‘lasiz, deb o‘ylovidim, — dedi u ranjiganini yashirmay.

— Hali quvonishga vaqt bor.

— Bu gapingiz kimyoviy kurash tarafdoqlarini esimga solyapti.

— Rahmat, konservatorlarga o'xshayman deb o'yla-movdim sira.

— Gapimni og'ir olmang, domlajon, har bir odamning qonida konservativizm borga o'xshaydi. Olim — chuqur fikrlovchi, shu chuqur fikrlashi tufayli haqiqatning ildiziga yetib boruvchi odam deganimi? Ilmda yanglishishlar bo'lishi tabiiymi? Xo'sh, unda nima uchun olim buni tan olmaydi?

— Meni nazarda tutyapsanmi?

— Umuman, aptyapman. Yana bittadan qahva ichaylik.

Hamroqul Ismoilov navbatda turgan odamlarga qarab oldi.

— Kerakmas, gapingni bo'lma.

— Sizni xafa qilib qo'ydim, shekilli?

— Tilyog'lamachi emasding, shekilli? Gapisaver. «Berdii»sini aytirmadi, domlam, deb yurmagin tag'in.

Komil kulimsiradi. Haligi xafaligi biroz ko'tarildi.

— Zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurashni kashf etganlar biologik kurashni tan olmay turibdilar. Bu o'z g'oyasiga sodiqlikmi?

— Niqob bu, ular sodiqlikni niqob qilishadi.

— Men ham shuni aymoqchiman-da, ular xudbinlar, mag'lubiyatni tan olgilar kelmaydi. Vaqt ularning kashfiyotini tufurib tashladи. Odamzodga maqbul yangilik kashf etildi. Mard olim, chin olim, donishmand olim ko'-zini yummay, yangilikka oq yo'l berishi kerak.

— Men qaysi biriga kiraman?

— Sizmi... menga oq yo'l bergansiz, esingizdan chiqdimi?

Hamroqul Ismoilov shogirdiga jilmaydi:

— Ayyorsan, bola, ayyorsan. Lekin bu ishingni puxta o'yla. Ideal vaznsizlik faqat koinotda mavjud, bu bor gap. Lekin u yerda necha marta hosil olish kerak?

— Qadimgi sovchilar kuyov bo'lmishning yoki kelin bo'lmishning yetti pushtini surishtirishar ekan. Balki odamning nasli yetti avlodda o'zgarar? Shu rost bo'lsa, g'o'zaning ham olti-yetti avlodini koinotda yetishtirishga to'g'ri kelar?

— Gapingda jon borku-ya... ammo bug'doyda elita urug'inining asli o'n bir yilda qaytarilishini unutma. O'yagan rejangning xavotirli yeri ham bor: koinotda yetishtirilgan bug'doylar doni puch chiqqanmish. Irsiyatga zarar keltiradigan jihatlar mavjud bo'lsa, sen hech nimaga erisha olmaysan.

— Men buni ham o'yladim. Ishimiz koinot bilan bo'lmasa yerda amalga oshar? Charxpalaklarda ijobjiy o'zgarish sezildi-ku?

— Tezlik tufayli g'o'zalaringning «yotiqlik» kasaliga uchraganini aptyapsanmi?

— Faqat bu emas, soat miliga qarama-qarshi harakat qilgan charxpalakdagi g'o'zalarda xuddi makkajo'xoriga o'xshab havo ildizlari paydo bo'ldi. Siz borganingizda buni ko'rmagansiz. Bu ildizlar orqali havodagi azotdan oziqlanishi hisobiga g'o'zalar baquvvaturoq bo'ldi, ko'sakning og'irligi ham oshdi. Endi bu tajribalarga yana bir yangilik kiritish mumkin.

— Avval shu yangilgingni oxiriga yetkazib ol.

— Bu ham siz aytayotgan yangilik tarkibiga kiradi. Endigi yil chigitlarni tuvakka eksam-da, kunduzni ikkiga bo'lsam.

— G'o'zalarni qorong'i tushdi deb aldamoqchimisan? Bu sinalgan usul, yangilik emas.

— G'o'za uchun yangilik. Kunduzi tuvakdagi g'o'zalarni qorong'i uyga olib kirib ikki-uch soat saqlasakmikan? Axir, g'o'za ham tirik jon-ku? U ham kun sanasa kerak? Hujayralari kun va tunni farqlasa kerak?

— Seni yo'ldan urmayman. Xayolingga kelgan fikrlaringni pishitaver. Ish rejasи tasdiqlanadigan paytda shu fikrlaringdan eng saralarini o'tkazishga harakat qilish kerak. Qaytganimdan keyin direktorga birga kiramiz, undan Akademiyadagi rahbarlarga ham chiqamiz. Har holda, yarim yo'lda to'xtashni o'ylama.

— Domlajon, shu gapga bittadan qahva ichmasak bo'lmaydi, restoran ishlaganda boshqacharoq nishonlardik, konservator degan gapimni qaytarib oldim.

Komil iliq qahvani dumaloq stol ustiga qo'ydi.

— Terim tugagandan keyin qaytmoqchiman, ishga olasizlarmi?

Bu gapni hazil ohangida aytgan bo‘lsa ham ilmiy rahbar uning ovozidagi hazinlikni sezdi.

— Joningga tegdimi?

Komil darrov javob bermadi. Qahvadan ho‘pladi.

— Jonimga tegdi, — dedi domlasining ko‘ziga qarashga botinmay. — Chidolmayman.

— Nima bo‘ldi?

— Mana bu yerim kirlanib ketyapti, — Komil shunday deb ko‘kragiga urib qo‘ydi.

— Ochiqroq aytishing mumkinmi?

— Ochiqroqmi... mumkin. Sovxozlarda uncha-muncha nayranglar bo‘lishini bilardim-u, ammo besh qo‘l barobar og‘izga solinishidan xabarim yo‘q ekan. Yo‘q paxtalar bilan plan, majburiyat bajarishadi. Aystsam tilim, aytmasam dilim, deyishadi-ku... Yaqinda bir bo‘lim boshqaruvchisi menga yorilib qoldi. Terilmagan paxtalar terildi deb vedomost tayyorlasharkan, odamlarning o‘rniga o‘zları qo‘l qo‘yisharkan. Shunga meni ham sherik qilmoqchi bo‘ldi. Bultur pul bermoqchi bo‘luvdi.

— Olmadingmi?

— Yo‘q.

— Vijdoning yo‘l qo‘ymadimi?

— Ha. Paxtani paxta desam, boshqa ishlardan ham latta hidi ketyapti. Bu yil ellik gektarga sholi ekdik. Qog‘ozga qarasam — o‘ttiz gektar. Indamadim. Keyinroq borib o‘n besh gektardagi urug‘ chirib ketdi, deb akt qilishdi, keyin yana yetti gektarga. Xullas, topshiriladigan sholi urug‘likni ham qoplamasa kerak. Sabzavotlar ham shu. Bolalar berkinmachoq o‘ynashadi-ku, esingizdam, bir bola ko‘zini yumib: «Bo‘ldimi, bo‘ldimi», — deb turadi. «Bo‘ldi!» — deyilganda qaraydiki, atrofida hech kim yo‘q. Bularning ishi ham shunaqa. Polizlarga qarab: «Pishdimi, pishdimi?» — deysiz. Ular «Yo‘q, yo‘q», — deb turishadi. Birdan: «Pishdi!» — deyishadi. Ko‘zingizni ochasiz-u bo‘m-bo‘sh dalani ko‘rasiz....

— Menga qara, sholining aktlariga qo‘l qo‘yganmis?

— Ha.

— Unda «akt qilishdi» emas, «akt qildik», «bularning ishi shunaqa» emas, «kishimiz shunaqa», deyaver.

— Domlajon, unaqa demang, men ularga sherik bo'l-ganim yo'q, vijdonim pok.

— Vijdon, vijdon deysan... Nimasi pok?! G'irrom akt-larga qo'l qo'ysang, g'irromlikni ko'rib ko'z yumsang, yo'q paxtalar topshirildi deyilsa, qo'l qo'ysang... Shumi pokliging. Ha... u pul beribdi-yu, sen olmabsan, hazar qilibsan! Buyuk jasorat! Vijdon pok. Bosh agronomga hamma ta'zim qilishi kerak!

Komil o'zini oqlashga gap topolmay qoldi.

— G'irromliklarni ikki yildan beri ko'ryapsan. Nimaga shu topgacha indamading? Inday olmas eding. Sharjni buza olmasding. Sizdan ugina, bizdan bugina.

— Kim aytди sizga?!

— Birov aytishi shartmi? U senga charxpalak yasat-tirib berdi, sen unga dissertatsiya yozib berafan, g'irromliklarini ko'rib ko'rnatganga olasan. Shu ham poklikka kiradi-da, a? Charxpalaklarining kimning hisobiga qurilgan, sovxoz uchun bu ishga mablag' ajratilmaydi-ku? Afsus, ming afsus... Olim bo'lasanmi yo bo'lmaysanmi, ixtiyorin, ammo halol odam bo'lishga majbursan. Ilmda yangilik qilmasang, ranjimayman, haqiqatni yuzaga chi-qarish uchun kurashmasang, rozi emasman. Haromdan hazar qilgan odam pokiza bo'lavermaydi. Haromni yo'qotish uchun kurashgan odamni pok deydilar, shuni qulog'ingga quyib ol.

Qahva ichilmadi, sovidi.

Sovuqqina xayrlashdilar.

* * *

— Og'ir gapirib, ko'nglini ranjitganidann armon-daman. Komil nima qilgan bo'lsa ham o'zini o'ylab emas, ilmni deb qilgan, buni bilardim. Lekin shuni deb uni oqlay ham olmasdim. Men aytmasam ham kurashardi, bunga imonim komil. Lekin... qariganingdan keyin sernashihat bo'lib qolarkansan... — Hamroqul Ismoilov shunday deb yana stolni chertdi.

Ilmiy rahbarning gaplari Nozima uchun kutilmagan yangilik bo'ldi. Omonturdiyev bilan Sadirov orasida to'q-nashuv yuz berganiga shubhasi qolmadi. Sadirov yigir-manchida Yahyonikida bo'lib, sovxoza yigirma birinchida qaytgan. Yigirma ikkinchida... Demak, hamma masala yigirma birinchida pishib yetilgan...

* * *

To'xtamish Omonturdiyev ertalab xush kayfiyatda kirib keldi.

— Poyqadamingiz yoqdi bizga, Mavludaxon, — dedi u bosh agronomning qo'lini qisib. — Radioni eshitdingizmi, sovxoziimiz respublikada o'n kunlik g'olibi bo'ldi. Ish degan mana bunday bo'pti-da.

— Omadingizni bersin.

Mavluda shunday deb qo'lini tortib olmoqchi edi. To'xtamish qo'yib yubormadi.

— Omadimizni deng, — dedi juvonning ko'ziga tikilib.

— Ko'rib qolishadi, qo'ying.

To'xtamish uning qo'lini bo'shatdi.

— Oblastga chaqirishdi, kechgacha o'sha yerda bo'-lamani. Sovxozi sizga, sizni... Sizni hech kimga ishonib topshirmayman, bilib qo'ying. Bugun dalaga chiqib yurmang. Xonamda o'tira turing, o'rtoqlar telefon qilishi mumkin.

Mavluda direktorning xonasiga kirmadi, eshikni qiya ochib joyida o'tiraverdi. Telefon jonholatda jiring-layvergach, noiloj kirdi. Raykomdan chorva bo'yicha shoshilinch axborot so'rashdi. Mavluda bunday axborotdan bexabar edi, nima qilishini bilmay stol ustidagi qog'ozlarni ko'zdan kechirdi. Topolmagach, tortmani ochdi. To'xtamish tortmani berkitishni unutib, kalitni qufl og'zida qoldirgan ekan. Axborot bu yerda ham uchramadi. Biroq qog'ozlar ichidagi bir ro'yxat Mavludaning diq-qatini tortdi. O'ttizga yaqin familiya, har bir familiya qarshisida raqamlar. Familiyalarning hammasi tanish, sovxoza rahbarlaridan tortib kattalargacha bor. «17, Sadirov K. 2,5+1+0,5+3+2+1». Mavluda buni o'qib titrab

ketdi. Nafasi qaytdi. Gunoh ish qilayotganday qo'rqib atrofga qarab qo'ydi. U raqamlar nimani ifoda etishini dastlab anglamadi. Tushunib yetgach, g'azabdan bo'g'ildi. Ro'yxat yozilgan qog'ozni beixtiyor g'ijimladi. Oyog'idan jon chiqqanday bo'lib, yumshoq qizil kresloga o'tirdi. Qog'ozni g'ijimlab turgan mushtumiga peshanasini tiradi. «Bo'rining og'zi yesa ham qon, yemasa ham... Komil aka bo'ri emasdi. Bunday bo'rilardan hazar qilardi. Lekin... baribir bo'rilar ro'yxatida ekan-da. Pul olmasa ham oldi deb hisoblasharkan-da. Uning ulushini kim olgan? To'xtamishmi? O badnafs... Nafsi buzuq hayitda o'ladi, deyishardi, bu bo'rilarning hayiti qachon o'zi?»

Telefonda axborot kutayotgan raykom xodimi: «Allo! Allo!!» — deb baqirgach, Mavluda o'ziga keldi. Axborotni topolmaganini aytdi-da, go'shakni qo'yib, xonasiga yo'l oldi. U yerga sig'madi. Tashqariga chiqdi. Favvora yonidagi shiyponga borib o'tirdi. Xayollari favvora suvlariday sapchiydi. Sapchiydi-yu, dam o'tmay muddaoga yetolmasdan bemajol tarzda pastdagi toshlarga urilib chil-chil sinadi...

Pulni To'xtamish bo'lgan. Komil ham olgan desa, uning nohaqligini kim isbotlaydi. Mavludami? Qanday qilib? Quruq gap bilanmi?

Kassir yaqinlashib vedomostlarni uzatdi.

— Direktoring xonasiga qarasam yo'qsiz, — dedi u ishshayib.

— U yerda o'tirishga hali vaqt bor, — dedi Mavluda vedomostlarni olib.

— Asli o'sha stol sizga yarashadi...

«Ishshaymay qo'shmozor bo'l, yaldoqlanmagan sen qoluvding!»

Vedomostlarga qo'l qo'yayotganida ichkaridan yana telefon ovozi keldi. Mavluda noxush bir kayfiyatda o'rnidan turdi. To borib go'shakni ko'targuncha ham telefon jiringlashini qo'ymadi.

To'xtamish oqshomga yaqin keldi.

— Tabriklarga ko'milib ketdim, — dedi u Mavludaning xonasiga kirib. — Nimaga bu yerda o'tiribsiz, aytuvdim-ku? Bitta-yarimta telefon qilishi bor.

Mavluda unga bir parcha qog'oz uzatdi:

— Mana bu odamlar tabriklashdi.

To'xtamish ro'yxatga bir ko'z tashlab oldi, yirikroq, aniqrog'i, nozikroq odamlarning nomini uchratmadi, shekilli, qog'ozni to'rt bukladi.

— G'oliblarning yuki og'ir bo'ladi, bilib qo'ying, majburiyatga yana uch sentner qo'shishdi, xo'p deb yubordim, eplaymizmi?

— Omadingizni bersa...

— Siz tilak tiladingiz-ku, omadni menga bermay kimga berardi. Boshqa gaplar bo'lmadimi?

— Bo'ldi, — Mavluda stol ustidagi qog'ozga qaradi. — Kasaba soyuzdan telefon qilishdi. Shiyponlaring yaxshi emas, deyishdi.

— Shiyponlarimiz aylanib yotibdi-ku, nimasi yomon?

— Aylanib yotibdi?

— Axir charxpalaklar osmondan tushmagan-ku, shiyponlarning puliga qurilgan-da.

— Endi nima bo'ladi?

— Nima bo'lardi, davom ettirasiz.

— Yo'q. Ko'rarga ko'zim yo'q o'sha charxpalaklarni.

— Mayli, bo'pti, bu yog'i o'zimizga tan. Yana nima gaplar?

— Sovxozi boshqarmasidan shoshilinch bir odam so'rashdi. Malaka oshirish kursiga. Biolaboratoriya mudirasi kerak ekan. Hamidovani aytdim.

— Nimaga? — To'xtamishning ovozi o'zgardi.

— Sovxoza boshqa mudira yo'q-ku? Ertalab shaharda bo'lishi kerak ekan. Odam yuborib tayinlatdim.

— Bunaqa ishlarni faqat men hal qilaman. Siz ikkinchi aralashmang.

— Xo'p. Buni avvalroq aytib qo'ymaysizmi? Sen bosh agronom emas, qo'g'irchoqsan, deganingizda indamay o'tirardim.

— Darrov arazlamang-u, lekin direktor hal qiladigan ishlarga aralashmasligingiz ma'qul.

— Xo'p, tavba qildim, — dedi Mavluda zarda bilan. — Militsiyadan ham telefon qilishdi. Shog'iyosov deganni qamab qo'yishibdi.

— A? Nimaga? — To'xtamish joyida qotdi.

— Ichvolib mushtlashibdi. Raykom sekretari ham ko'-ribdi.

— Padaringga la'nat!! — To'xtamish shunday deb xonadan otilib chiqdi. Shofyoriga javob berib yuborib, rulga o'zi o'tirdi. Mavluda xonasining eshigini yopib, endi ketay deb turganda To'xtamish iziga qaytdi. Yo'lda, aftidan, fikri o'zgarganga o'xshaydi. Tafti ham ancha bosilgan.

— Ketyapsizmi? — dedi u. — O'tiring, oborib qo'yaman.

— Rahmat, piyoda yurgim kelyapti.

— Idorada o'tirib zerikdingizmi? Hay, mayli, unda ertalabdan sakkizinchi bo'limga chiqing. Paxtasi ko'p-u, terishining tayini yo'q. Boshqaruvchisiga ham xaridor chiqib turibdi. Yangi sovxoza bosh agronomlikka so'rashyapti. Yo'q, desam, kadrlarning o'sishiga qarshimisiz, deyishdi. Kadrni tarbiyalab, quruq qolaveramiz. Erta-indin ketsa, to yangi boshqaruvchi tayin qilgunimizcha o'zingiz eplashtirib turasiz.

Mavluda majlisdan keyingi «erkakcha gap»da direktor bilan aytishib qolgan yigitni esladi. «Taqdiri bir haftada hal bo'libdi-da, boyaqishning...»

Sakkizinchi bo'limni nazorat qilishning hojati yo'q edi. Hasharchilar ham, ishchilar ham aniq reja bo'yicha ish-lashardi. Bo'lim planni bajaray deb qolgan, lekin daladan go'yo paxta terib olinmaganday edi.

Boshqaruvchi tepasiga qamish tashlangan qo'l bola shiyponda hisob-kitob qilib o'tirgan edi. Mavluda bilan hol-ahvol so'rashgan bo'lib, ishni davom ettirdi.

— Sizni elchi qilib yubordilarmi kattamiz, — dedi bir vaqt qog'ozdan bosh ko'tarib. — Ovora bo'ladi, bittayam odamni yaqin yo'latmayman. Hamma o'zining paxtasini tersin.

— Men elchi emas, bosh agronomman, dalangizga kelishga haqqim bordir?

Boshqaruvchi qo'rsligi uchun mulzam bo'ldi.

— Kechirasiz, opa, direktor yettinchi bo'lim shu yer-dan paxta tersin, devdi, shunga kepsizmi, debman.

- Yangi ishga o‘tishingizni eshitdingizmi?
- Qanaqa ish?
- Yangi sovxozagga bosh agronom bo‘larmishsiz.
- Kattamizga qulluq qilarkanman-da, — deb bosh-qaruvchi kulimsiradi. — Bu menga qilgan yaxshiligi yoki yomonligimi?
- Agar buni xushxabar desangiz, yaxshiliqi, sovuq xabar desangiz, yomonligi.
- Xushxabarlikka xushxabar-a, lekin yaxshilik bilan jo‘natmayapti-da, shundan ko‘ngil xijil. Haqiqat talab qilib ko‘ziga xunuk ko‘rinib qoldim. Bilasizmi...
- Bilaman, eshitganman.
- Yo‘q, bilmaysiz. Komil akam bilardilar. Aytgan edim hammasini. Juda g‘azabga mingan edilar. Direktorni insofga chaqirmoqchiyidilar.
- Insofga? Qachon?
- Kurortga ketmaslaridan oldin. G‘irromliklarni sezar ekanlar-u, tagiga yetolmay yurgan ekanlar.
- Siz... siz... nimaga Komil akamga aytgansiz, nimaga boshqa odamga aytmadingiz?..
- Kimga aytaman? Kim eshitadi?
- To‘g‘risini aytинг, faqat to‘g‘risini aytинг... Komil akam olarmidilar?
- Nimani?
- Pul...
- Bilmayman. Guvoohlar bilan bitadigan ishmas-da bu.
- O‘zingiz-chi?
- Olsam haqiqat deb yuragim achisharmidi?
- Komil akam ham haqiqat derdilar.
- Bilaman. Shuning uchun shu kishiga yorilganman. Siz kuyunmang, opa, Komil akaning olganiga ishon-mayman.
- Boshqalar-chi?
- Boshqalar ham ishonmas. Chunki Komil aka haqida yomon gap oralamagan sira. Xotirjam bo‘lavering. Lekin sizning kelganingizdan unchalik rozimasman.
- Sezib yuribman. Eplolmaydi deyapsizlarmi?
- Yo‘-o‘q. Gap bunda emas.

— Tushundim.
— Xafa bo‘lib yurmang tag‘in, to‘g‘risini aytib qo‘ya goldim.

— Har bir odam o‘zidan o‘tganini o‘zi biladi.

Peshinga yaqin boshqaruvchini chaqirib ketishdi: oblastdan yo‘qlashibdi.

Mavluda hali terimchilar daladan chiqmay turib xomcho‘t qilib ko‘rdi: rejadagi ish bajarilibdi. Kechgacha bir yarim hissa bajarilsa ajab emas.

Oqshom chog‘i xirmonda terimchi ayollar gapga solib turishgan edi. Paxtalarni olib ketgan traktorchi yigit mototsiklni tarillatib kelib qoldi. Aft-basharasi qora terga botgan, hovliqqanidan eplab gapirolmaydi.

— Talashyapti, ayamay talashyapti, — dedi u. — O‘g‘ri ekan-ku bularingiz. Besh tonna deyishyapti.

Mavluda hayron bo‘ldi.

— Hammasimi?

— Ha. Sakkizta aravaning hammasi besh tonna chiqibди.

— Sovxoziqning odami bor edimi?

— Ha, tasdiqlab turdi.

— Paxtani ag‘dardilaringmi?

— Yo‘q.

— Qani, yuring bo‘lmasa.

Darhaqiqat, paxta ortilgan sakkiz arava bir chetda turardi. Mavluda punktning qabul qiluvchisiga yaqinlashib, aravalarni ko‘rsatdi.

— Hammasi besh tonna chiqdimi?

Qabul qiluvchi unga bepisand qarab qo‘ydi.

— Nima demoqchisiz?

— Qaytadan torttiring.

— Singlim, qo‘ying, foydasi yo‘q...

Sovxoziqning punktdagi vakili uni tinchlantirmoqchi bo‘ldi.

— Siz nima qilib o‘tiribsiz bu yerda, ko‘zingiz qayoqda! — deb tutaqdi Mavluda. — Bitta aravaga salkam bir yarim tonna paxta ketadi. Boring, bir tonnadan ketsa ham, sakkiz tonna chiqishi kerak. Maktab bolasi ham hisoblay oladi buni.

— Singlim....

— Qo'ying, ertaga direktorga tushuntirasiz bularni.

— Ana, o'zлari kelyaptilar...

Mavluda yugurguday bo'lib kelayotgan To'xtamishni ko'rib voqeani tushundi. Traktorchi g'alva boshlagandayoq sovxozi vakili To'xtamishga chopar yuborgan. Demak, bularning hammasi direktorning buyrug'i bilan bo'lgan.

To'xtamish traktor yonida turgan yigitga qarab qo'l siltadi:

— Punktga hayda, aravangni bo'shat!

Traktorchi: «Nima qilay?» — degan ma'noda Mavluda unga javob bera olmadi.

— Ha, o'rtoq bosh agronom, nima gap? — To'xtamish tez yurganidan hansirardi. Mavluda uning qattiq haya-jonda ekanini payqdadi. To'xtamish uni chetga tortdi. — Bu nimasi, siz nima qilib yuribsiz?

Mavluda tushuntirmoqchi bo'ldi.

— Bu ishlarga siz aralashmang. Hammasini bilaman. Paxtaning hisob-kitobini menga qo'yib beravering. Qani, yuring idoraga, gap bor. — U shunday deb bir-ikki qadam bosdi-da, to'xtab punktdagi vakilga o'girildi: — Yettingchiga yozdir... Ha, mahmadanani chaqir, tilini tiyib yursin.

Traktorchi yigit biroz hadik bilan yaqinlashdi.

— Vey, burning buncha uzun, duch kelgan teshikka tiqaversanmi? Traktorchimisan yo hisobchimisan? Yo direktorlikni bo'shatib beraymi?

Traktorchi nima deyarini bilmay yelkasini qisib turaverdi.

— Qadamingni bilib bos, bola, kimning o'g'lisan o'zing?

— Zamonali akaning.

— Otang suvchimi? Tappa-tuzuk odam-ku, senga kim tarbiya bergen o'zi? Otangga ayt, ertalab idoraga kelsin. Bitta «Moskvich» yozdirib qo'yanman. Sandiqda pul-muldan bormi?

Obdan so'kish eshitishga tayyor turgan yigit kutilmagan xushxabardan gangib qoldi.

— Bor... bordir, — dedi bu gapning rost-yolg'on ekanini bilolmay.

— Otangga o'xshagin, g'alamislarga qo'shilma. Bor, ishingni qil.

Yigit traktori tomon yugurib ketdi.

— Hozir hamma xo'jayin, hamma kattakon, — deb g'o'ladiradi To'xtamish. Yigitning orqasidan qarab, bo'ralab so'kinishning xonasiga edi-yu, yonida ayol kishi bor...

To'xtamish xonasiga kirib seyfini ochdi-da, konvert olib Mavludaga uzatdi: «Sadirova 1000».

— Nima bu? — dedi Mavluda go'yo tushunmaganday.

— Sovxozi o'n kunlikda g'olib bo'ldi. G'oliblarga mukofot beriladi, odatda.

— Mening xizmatim yo'q-ku...

— Bunaqa paytda uzumini yeng-u, bog'ini surishtirmang.

— Yaxshi, rahmat sizga.

— Ana bu boshqa gap.

— Bir narsani so'ramoqchiydim...

— So'rayvering...

— Shunaqa mukofotlardan... nima uchun Komil akanga berilmasdi?

— Berilmasdi? Hm... — To'xtamish Mavludaning ko'ziga tikildi: «Laqillatyaptimi bu xotin yo Komil indamaganmi unga? Nahot? «Pul bermoqchi edi, olmadim», demaganmikan?...» — Berilmasdi... deb yuruvdingizmi? Ishongim kelmayapti... Berilardi. — Mavludaning ko'zida o't ko'rindi: «Yashirgan ekan. Xotini bilmas ekan», — To'xtamish ayol ko'zidagi o'tni shunday talqin qilib ancha dadillashdi. — Teppa-teng berilardi. Ishonmasangiz... hisobli do'st ayrilmas, degan gap bor. — U tortmani ochdi. Mavluda uning nimani qidirayotganini bilsa ham sir boy bermadi. To'xtamish o'rnidan turib, seyfini ochdi, qog'ozlarni titkiladi. Lunjini ushlab, o'ylanib qoldi. Yana tortmani qaradi. — Bir qog'oz bor edi, hayronman. Topib ko'rsataman sizga, ishonavering. Olti-yettitaga yaqin olgan. Sizga bermagan bo'lsa shuncha pulni nima qilgan?..

— Hayronman. Bir kavakda yotgandir. Ertaga menga javob bersangiz...

— Terim paytida-ya?

— Buni, — Mavluda konvertga ishora qildi, — otanasiiga tashlab kelay. Ancha chiqimdon bo'lishgan. Orqamdan gap qilib yurishmasin.

— Xo'p, faqat bir kunga. Yuring, bir bog'ga chiqaylik. Murod tansiq ovqat qilib qo'ymoqchi edi.

— Bog'ga keyin chiqamiz, kelishganmiz-ku?

— Hunaringiz kuydirish ekan-da. Adoyi tamom qilasizmi meni?

— Qatiqni ham puftab ichishga o'rghanib qolibman...

«Biz qatiq bo'ldikmi hali, «asal akajonim» deb qolganingizda eslatib qo'yaman bu gaplaringizni».

Ertasiga Mavluda konvertdagi pul bilan ro'yxatni te-gishli odamga berib, sakkizinch bo'lim boshqaruvchisining gaplarini aytди.

* * *

Nurli rayon xalq sudi hukmi bilan Shog'iyosov yarim yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgach, Nozima Sadirovning ishi bo'yicha tergovni davom ettirdi. Omon-turdiyev Shog'iyosovni qutqarishga harakat qilmadi. Hatto sudga ham kelmadи. Shundan ma'lum bo'ldiki, Shog'iyosovning qismatidan ko'ngli to'q. Shog'iyosov ham, suddagi xotirjamligiga qaraganda, taqdiridan rozi. Uning xotirjamligi uzoqqa cho'zilmadi. Sudning ertasiga tergovga chaqirilayotganini bilib, esi og'ib qolayozdi. Nozimani ko'rgach, hammayog'ini sovuq ter bosdi.

Nozima birinchi tergovdan hafsalasi pir bo'lib qaytdi. Endi xonasiga kirgan ham ediki, telefon jiringladi. O'g'-lining bog'chasidan ekan. Ertalab o'g'li injiqlik qila-yotuvdi, isitmasi ko'tarilibdi. Nozima shoshib qoldi. Qo'g'ozlarini temir sandiqqa joyladi-da, bo'lim boshlig'ining xonasi tomon tez-tez yurib ketdi.

Mayor Bo'tayev xonasida OBXSS boshlig'i bilan nimanidir muhokama qilib o'tirgan edi. Nozima eshikni ochishga ochdi-yu, kirishni ham, kirmaslikni ham bilmay ostonada turib qoldi.

— Ana, o'zлari keldilar, — dedi mayor, keyin Nozima-ga qaradi: — Kiravering, hozir chaqirmoqchi edim sizni.

Nozima OBXSS boshlig'i bilan salomlashib, mayorning ro'parasidagi stulga o'tirdi.

— Operatsiya bugun tugallanadi, ertaga bosh qashishga ham qo'lingiz tegmaydi. Ishni o'zingiz oxirigacha olib borasizmi yo yordamga odam beraylikmi?

— Hozir yordam kerak emas. Omonturdiyev qo'lga olinadimi?

— Ha. So'nggi harakat rejasi tasdiqlandi. Biz uni tajribasiz deb yuribmiz. Pora berish yo'lini o'ylab topganini bilsangiz qoyil qolasiz. Omonturdiyev ertadan keyin Yaltaga uchadi. Bugun ertalab sovxozi bankdan katta miqdorda pul oldi. Demak, barcha bilan hisob-kitob qilib ketadi. Iotasangiz, operatsiyada qatnashishingiz mumkin.

— Jon der edim...

Mayor Nozimadagi sarosimalikni sezdi.

— Nima gap, tinchlikmi?

— O'g'limning bog'chasidan telefon qilishdi, isitmalab qolibdi.

— Tushunarli, boravering.

— Men boraman-u qaytaman, qaynonam qarab turarlar.

— E yo'q, o'rtoq leytenant, sizni endi hurmat qila boshlagan paytimda bunaqa gaplar bilan ixlosimni qaytaryapsiz. Bolaga qarang. Sizning ishingiz ertadan boshlanadi. Bugun ikki bo'lim oyoqqa turgan, shuning o'zi yetarli.

Nozima ming xijolat bo'lib o'midan turdi.

* * *

Kassir Mavludanining eshigini qiya ochib, direktor chiqarayotganini aytdi.

To'xtamish aylanadigan qizil kreslosiga yastanib, taltayib o'tirar edi. Stoli ustida sarg'ish diplomat.

— Kayfiyatlar qalay, a'lomi? Shaharga tushib chiqamiz. Bir-ikki idoraga kirib hisobot topshirishimiz kerak. Tayyor turing, yarim soatdan keyin jo'naymiz.



Mavluda xonasiga kirib, o'yga toldi. «Qanaqa hisobot? Kassir bilan uzoq o'tirishdi. Nima qilishdi? Pul bo'lishdimi? Endi tarqatadimi? Meni nimaga aralash-tiryapti? Qiziq...»

To'xtamish yarim soat emas, o'n daqiqadan so'ng eshikni ochdi. Qo'lida sarg'ish diplomat.

— Tayyormisiz, ketdikmi?

To'xtamishning kayfiyati yaxshi edi. Tinmay gapirib, kulardi. U mashinani shahar markaziga qarab burdi. Uch qavatli bino yaqinida to'xtab diplomatni ochdi.

— Shu uchta papkani tashlab chiqasiz. Direktor degan nomim bor, hisobot tarqatib yursam, uyat bo'ladi. Bu o'rtoqlarni taniysiz. Hisobot kutib turishibdi. Tashlaysiz-u chiqaverasiz.

Mavluda qog'oz papkalarni olib, mashinadan tushdi. Papkalar qog'ozga to'la edi. «Hisobot ham shuncha ko'p bo'ladimi?» U ichkariga kirib, yuvinish xonasiga o'tdi. Papkalardan birini ochdi: bir-biriga aloqasi yo'q qog'ozlar. Pul yo'q. Nimaga bunday qilyapti? Sezib qolganmi yo sinayaptimi? Mavluda shoshilib dahlizga chiqdi. Nima qilishni bilmay turgan edi, ro'parasidan kelayotgan yigit unga yaqinlashgach: «Boravering, biz kutib turibmiz», — deb o'tib ketdi. Mavluda unga ishora ham qila olmadi. Holsizlanib ikkinchi qavatga ko'tarildi. Undan uchinchisiga...

Ular yana ikki idoraga «hisobot» tashlab chiqishgach, To'xtamish mashinani hashamatli restoran oldida to'xtatdi.

— Keta qolaylik, — dedi Mavluda yalinish ohangida.

— Qorinni ham o'ylaylik. Direktor temirdan emas. Bu yilgi ishni do'ndirdik. Bir yayraylik endi.

Mavluda noiloj mashinadan tushdi.

— Dam olish tatimaydi menga. Birga borganimizda... — dedi To'xtamish qadahlarga konyak quyar ekan.

— Ayb mendami? — Mavluda shunday deb konyak quyilgan qadahni chetga olib qo'ydi. — Sovxozni menga, meni...

— Sizni hech kimga ishonmayman, bilib qo'ying, — To'xtamish shunday deb qadahni uning qo'liga tutdi. — Yaxshilik bilan uchrashishimiz uchun.

Mavluda ichmadi. To'xtamish esa ketma-ket ulab yubordi. Shisha bo'shabach, ikkinchisi ochildi. Shunda Mavluda To'xtamishni ketishga qistay boshladı. Mavluda yalingan sayin To'xtamish yayrardi. Nazarida bu go'zal ayol to'rdagi qushchaday tipirchilardi.

«Bu xotin hali qo'limga qo'nadi. Pullarni o'zi tarqatadi. O'zining ulushidan boshi osmonda. Agar «u yoq»ning odami bo'lsa, chuvi chiqdi. Endi unga ishonishmaydi. Pul topishni bilgan To'xtamish tarqatishni bilmas ekanmi?! Bu xotin... Bo'ldi. Bugundan qolmaydi. Bir oy sog'inib yashaydi keyin. Komil degan nom o'chadi, butunlay o'chadi. Dimog'i baland edi-ya, men uni kurortga yuboribman-u u meni fosh qilmoxchi bo'libdi. «Raykomga o'zing borib aytmish. Aytmasam o'zi fosh qilarmish. Hotamtoyni qara-ya, bir kun muhlat beribdi. Ota-onasini ko'rib kelguncha men sovxozeni topshirib, qamoqqa o'z ixtiyorim bilan borarkanman-da... He dovdir Komil-e, odam degan tesha bo'lishi kerak-da. Tesha degan o'ziga qarab chopadi. Bu esi yo'q omadini randaga o'xshatib nari itaradi-ya. Merov olimcha! Atrofimda qalin devor borligini bilmasang, nima qilarding kalla qo'yib. Xo'p, devorga kuching yetdi ham deylik, axir, mening devorim ichkariga yiqiladi-ku, tuproq tashqariga tushib oyoqosti bo'lmaydi-ku... He ahmoq, ahmoqligi boshini yedi. Nima qoldi undan? Shu xotinimi? U ham meniki endi...»

— To'xtamish aka, ketaylik endi. Bo'ldi, ichmang.

— Xo'p, ichmayman. Lekin olma yeyish mumkindir?

To'xtamish olma olib qo'li bilan artdi-da, shart ikkiga bo'lib Mavludaga uzatdi. Mavluda To'xtamish tikilib tur-gani uchun olmadan bir-ikki tishladi.

— Odam Ato bilan Momo Havvoga nima deyilgan? — dedi To'xtamish Mayludaga suq bilan tikilib.

— Bilmayman. Ketamizmi?

— Shoshilmang, hali erta.

To'xtamish ofitsiantni chaqirib yana allanimabalolar buyurdi-da, Mavludaga suq bilan tikilgancha sigaret tutatdi. Mavluda bir qarorga kelib o'midan turdi.

— Yana biroz o'tiramiz, — dedi To'xtamish buyruq ohangida.

— Hozir kelaman.

— Shunday bo'lsin. Yana uzoqib ketmang, naq yorilib o'laman-a!

Mavluda to'g'ri ko'chaga chiqdi-yu, mashina to'xtatib, opasinikiga jo'nadi.

Eshik yopilib, mashina o'rnidan jilishi bilan yig'lab yubormaslik uchun labini tishladi. U sershovqin, badbo'y restoranda xo'rangan ayol holiga tushgan edi. «Bas, yetar endi, hammasidan to'ydim, — dedi u o'ziga-o'zi. — Bunga Xudoning o'zi bas kelmasa, bandalari bas kelolmaydi. Men, esi yo'q, shu odamni yengmoqchi bo'libman, fosh qilmoqchi bo'libman. Ne kunlarga qoldim. Menga buzuq ayoغا qaragandek qarasa, og'ziga kelganini qaytarmay valaqlasa. Men dardimni ichimga yutib, ovsarday jilmayib o'tiraversam... Hammani laqillatdi. Qayerdan sezal qoldi ekan?»

Mavluda opasinikiga yetgunicha tushovsiz o'ylarga bandi bo'lib bordi. Opasini ko'rdi-yu, yig'lab yubordi.

Tongga qadar opa-singil hasratlashdilar. Shundan so'nggina Mavludaning ko'ngli biroz ravshanlashdi.

* * *

To'xtamish Mavludani uzoq kutdi. Hatto ko'chaga ham chiqib keldi. Keyin bisotidagi bor so'kishlarni qalashtirganicha yo'lga tushdi. Atrof zim-ziyo. Mashina chiroqlari yo'lni paypaslab borardi. G'ujg'on o'ynayotgan xazonlar ba'zan To'xtamishning ko'ziga pul bo'lib ko'rindi. «Bugun kassir olib kelgan pulni sochib yuborsa, bu xazonlar ip esholmay qoladi, — deb o'yladi u. — Hamma ish besh! Agar u megajin sotgan bo'lsa yana yaxshi. Laqillab qolishdi. To o'zlariga kelishguncha bu pullar tillaga aylanib egalariga yetadi. Mening hiylam yetti uxbab tushlariga kirmaydi. Shuning uchun akaxonim meni yaxshi ko'radi-da, keyingi yilda bitta rayonni berishsa... oshiqning olchi turgani shu-da».

* * *

Mavluda ko'chlarini olib kelish uchun keyingi haftada sovxozagda bordi.

Darvoza qulfiga kalit soldi-yu, xuddi bir narsa chaqib olganday qo'lini tortib oldi.

Nima qilyapti? Ko'chib ketish uchun uyga kiryaptimi? Komil akasini eslatib turuvchi go'shani tark etish uchun kiryaptimi?

Mavludaning yuragi gupullab urib ketdi. Nazarida Komil akasi kutib o'tirganday. Unga nima deydi? Nima deb aldaydi? Ichkaridan Komil chiqib kelayotganday orqaga chekindi. Nafasi qaytdi. Tisarilayotib oyog'i chuqurchaga tushib ketdi. O'tirib qoldi. Sovuq shamol qo'zg'alib sochlarini to'zitdi. Badaniga sovuq o'tib sal hushiga keldi. Uyga kirishga yuragi betlamay, dala tomon yurdi. Ana, biolaboratoriya oqarib turibdi. Ana, Komil akasi bosib o'tgan so'nggi yo'l. Mayluda oqarib ko'ringan bino tomon beixtiyor yurdi. Mana, Komil akasi kirib-chiqib turgan imorat. Uning ish stoli ham shu yerda edi... Shu binoda anavi suyuq bilan ishlagan. Suyuq bo'hton qildi. Komil akasi pokiza. Ichkari kirmoqchi bo'lib g'isht zinaga oyoq qo'ydi. Biroq cho'g'ni bosib olganday sap-chib chekindi.

Komil akasi bu yerga undan oldinroq yetib kelib berkinib olganday edi.

* * *

Mavluda tiz cho'kdi. Zinani xuddi qabrni quchganiday quchib, yuzini muzday g'ishtga qo'ydi. Ammo g'ishtning sovuqligini sezmadni. Nazarida Komil akasi hozir bosib o'tgani uchun zina iliq edi...

...O'sha tongda Komil umrining tuni tug'ib qolganini sezmagan edi. Atrof osuda, dala kunduzgi besaran-jomlikni jonhalaklik bilan kutib, asta titrab yotardi. Komil charxpalaklaridan xabar olish niyatida yo'lni biolaboratoriya tomon burdi. U yerda Latofatni ko'rib ajablandi:

— Latofat? Shu yerda yotib qolganmisiz?

Latofat kelib uning ko'ksiga boshini qo'ydi.

— Jinni bo'lib qoldim. Sizni ko'raman deb mijja qoqmadim. O'shandan beri qaramaysiz...

— Latofat, singlim, o'zingizni bosing. O'shanda... bilmayman...

— Nimani bilmaysiz? — Latofat qornini ushladi. — Bu kimniki?

— Nima? — ajablandi Komil.

— Bo'yimda bo'lib qolibdi, — u ho'ngrab yana Komilning ko'ksiga bosh qo'ydi.

— Latofat, o'ylab ko'ring, balki mendenmasdir?

— Nima?! — Latofat orqasiga tisarildi. — Osmon-danmi bo'lmasa?! Siz meni hali... Siz meni... O'zimni o'ldiraman! Bu sharmandalikdan ko'ra o'lganim yaxshi!

Komil uning bilagidan ushladi. Latofat chinqirib Komilning qo'lini timdaladi. Bir yulqindi-da, uning qo'lidan chiqib, kanal tomon yugurib ketdi.

U Komilning izma-iz yugurishiga ishonardi. Orqasidan kanalga tashlashiga ham amin edi. Kanalning u tomoniga o'tib olishgach, yana dod-voy, oh-voh qilib uni eritib olishiga ham ishonardi. U Komilning yumshoq ko'ngillagini bilardi, xotini tug'masligini ham... To'xtamish bilmay turib bir nima demaydi-ku... Agronom yigit uniki bo'lishi kerak... Latofat yugurib borar, oldinda daraxt panasida Shonazirning kutib yotganidan, sal nardagi daraxt panasida esa ertalab izidan poylab chiqqan singlisining dahshat to'la ko'zlar bilan tikilib turganidan bexabar edi...

* * *

— Isnodga qolay dedim, Komil aka.

— Menden rozimassiz, bilaman, kechirmaysiz...

— ...

— Haqiqatni ochaman deb keluvdim-ku bu yerga, bilasiz-ku, nimaga indamaysiz?

— ...

— Sizni oxirgi marta shu yerda ko'rishgan. Men ham shu yerga keldim izingizdan. Anavi bilan uchrashgan ekansiz. Nimani gaplashgansiz? Nimaga yugurdi u?

— ...

Mavluda boshini ko'tardi. Xayollari kimsasiz cho'lda besamar kezgan shamoldek o'zini har yon urdi. Foyda bermadi. O'rnidan turib kanal tomon yurdi. Egasiz qolgan charxpalaklar sarsari kezgan yetimdek bo'zlab aylanyapti. Kichigi bo'm-bo'sh. Kattasida g'o'zalar qorayib turibdi.

Charxpalaklar Mavludaning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Uning ovozi xunuk eshitildi. Charxpalaklarda Komil akasining izlari qolgan bo‘lsa ham xunuk ko‘rindi. Shu charxpalak bo‘limganda... tinchgina yurishuvdi shaharda...

Yelkasiga g‘o‘zalarni ortgan charxpalak zorlanib aylanardi...

Mavluda iziga qaytdi. Uyga kirishga yuragi betlamadi. Yuklarini keyinroq opasi olib ketdi.

OMADMI, TASODIFMI?

Polkovnik Sultonov bu darajada pand yemagan edi. Bir qancha mas’ul xodimlarning pora olganlikda gumon qilinib, taftish etilishi evaziga qat’iy hayfsan oldi. Hayfsan boshqalarga, jumladan, Nozimaga ham nasib etdi. Omonturdiyev «Ish»i shu zaylda nihoyasiga yetdi. «Baxtiyorlikka erishuvimga baxtsizlik ko‘mak berdi», — deb bejiz aytilmagan ekan. Bir tasodif sodir bo‘ldi-yu, kelgusi yilning yoz pallasida Omonturdiyev «Ish»i o‘z-o‘zidan yuzaga qalqib chiqdi.

Nozimaga odatdagiday yana «arzimas ish» topshirildi: bir uyni o‘g‘ri uribdi. Anchagina mol-mulkni o‘maribdi. Jinoyat-qidiruv bo‘limi bilan birgalikda harakat qilishi kerak.

Bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari kapitan Meliyev xonasida grajdan kiyimidagi ikki inspektor o‘tirardi. Nozima ular bilan salomlashgach, Meliyev xushchaqchaqlik bilan dedi:

— Omadli tergovchiga o‘xshaysiz. O‘g‘rini tutdik, tergovni boshlayverishingiz mumkin. Bu yigitlarni taniyisz. Ahmadjon bilan hatto birga o‘qigan ekansiz. Ham-kursingiz ishingizni ancha yengillatdi. Siz mana bu hujjatlar bilan tanishing: Bakir Xarisov. Yigirma sakkiz yoshda. Eski tanishim. O‘smirligidan bilaman. Qonundagi o‘g‘rilardan emas, bosyaklardan¹. Taxminimizcha, kecha Qrimdag‘i safardan qaytgan. Mana bu ekspertiza xulosasi, oyoq izlari, barmoq izlari... Atay qoldirgan izlarni, ayyor, juda ayyor bu. Men buni o‘smirligida qo‘lga olganman. O‘scha paytlardayoq iz qoldirmaslik yo‘llarini bilardi.

— Necha yoshida?

¹ Bosyaklar – yalangoyoqlar.

— O'n besh yoshda edi. Mana hujjatlari. Hammasi bor. Otasi mayxo'r bo'lgan. Buning ko'ngli esa mototsikl tusab qolgan. Otasiga tiqilinch qilgan. Otasi: «Pul top», — degan. U: «Qayerdan topaman?» — degan. Ota: «Ana, ko'cha to'la do'kon, birini o'mar», — degan. Mastlikda aytilgan gap bilan do'konga tushgan. Birinchisida o'g'-rini topa olmadik. Usul yangicha. Buning ustiga toza ishlangan. Gastrolyorlardanmi, desak, do'kon xarobgina, bunaqalar duch kelgan do'konni uravermaydi. Xullas, u pulni otasiga bergen, ota esa ichvorgan. U yana do'konga tushgan... Kinolarda ko'raverib ko'zlarini pishgan-da. Eks-pertiza nimaga qodir-u nimaga ojizligini biladi bular.

Xullas, Qrimda iz qoldirilmagan. Lekin bizga yuborishgan xabarlarg'a qaraganda usul shuniki. Qulfni ochishga suyagi yo'q buning. Keyin yakka o'zi ishlaydi. Sherikka toqatsiz. Ish boshlashdan oldin joyni obdan o'r-ganadi. Shuning uchun ishini tez bitiradi. Xo'-o'sh, endi jabrlanuvchiga ham ehtiyyot bo'ling. Da'vosi osmonda. Xarisov olgan molning ro'yxati mana bu. Jabrlanuvchi mana bu ro'yxatni berdi. Qarang, to'rtta gilam, ikkita qorako'l po'stin, zarhal ko'zalar... Ko'zi och odamga o'xshaydi. Xarisov haq. Bir o'zi buncha narsani ko'tarib ketolmaydi. Bundan tashqari, Qrimdag'i izini yopmoqchi bo'lgan odam bunaqa boylikka tashlanmaydi. Xarisovni so'roqqa chaqirganman. O'zingiz eshitib ko'rasiz.

Dam o'tmay Xarisovni olib kelishdi. Bo'limning ikki xodimi chiqib ketdi.

— Tanishib olinglar: ayblanuvchi Bakir Xarisov, — ozg'in, qirg'iyko'z yigit Nozimaga jilmayib yengil ta'zim qildi. — Ko'rdingizmi, juda madaniyatli-da, hech o'g'riga o'xshamaydi.

— Axir men o'g'ri bo'lib tug'ilmaganman-ku, grajdani tergovchi, men asli aqlli bola edim. Yana odobli bolaga aylanib qolishim mumkin.

Xarisov gapga chechangina ekan. Meliyev uni to'xtatmaganda hali-beri gapini bas qiladigan emasdi.

— Bu o'rtoq tergov bo'limidan. Leytenant Nozima Qosimova. Sening ishingni shu kishi olib boradilar.

— Minnatdorman, — Xarisov yana yengil ta'zim qilib jilmaydi. — Men bilan sira qiyalmaysiz, grajdanim

tergovchi, men suvni loyqalatmayman. Bilmasdan o'g'irlik qilib qo'yaman-u darrov bo'ynimga olaman. Aslida o'g'irlikka toqatim yo'q. Aytdim-ku, o'g'ri bo'lib tug'ilmaganman. Kechirasiz, grajdan tergovchi, necha yoshdasiz, juda yosh ko'rinasiz?

— Xarisov?

U kapitanga qarab oldi.

— Ha, ha, ayollarning yoshini so'rash gunoh. Shunchaki, mendaqalar sizni tez qaritib qo'yadi, demoqchi edim. Grajdan kapitan bilan uchrashganimda bu odam ham yosh edi. Endi qarang, — Xarisov bo'ynini xam qildi. — Nima demoqchi edim, ha, o'g'ri bo'lib tug'ilmaganman. Lekin bir narsa o'sha yoqqa tortaveradi...

— Qrimga ham o'sha narsa tortdimi?

U Nozimaning savolini eshitib bir seskandi.

— Provokatsiyami?.. Kechirasiz, unday demoqchi emasdim. Umuman... savolningizni yaxshi tushunmadim.

— Tushunding. Qrimdagi gastroling qanday o'tdi? Yetti yilni ko'tarar, a? — dedi Meliyev.

— Buni isbot qilish kerak, grajdan tergovchi.

— Xotirjam bo'l, buni bizga qo'yib ber. Ko'rdingizmi, o'rtoq leytenant, qonunlar majmuasini yoddan biladi. Bu shovvoz shaxmatda asp yurishni yaxshi ko'radi. Qrimdagi izlar yopilguncha bu yerga kelib yengilroq tomosha ko'rsatgan. Mayda-chuyda latta-putta, nari borsa ikki yil. Jabrlanuvchi bergen ro'yxatga qaraganda ikki yil kamlik qilar-ov...

— Jabrlanuvchingiz muttaham... kechirasiz, odobsiz ekan. Shuncha narsani bir o'zim qanday ko'taraman? Hali aytdim-ku, suvni loyqalatmayman. Men umrimda Qrimga bormaganman. Axir bir umr shimoldagi kurortlarda yurmayman-ku, to'g'rimi? Aytadilar-ku, esini tanisa so'fi bo'lar, deb. So'filikka o'tganda boraman Qrimga. Demak, bu gapingizni qaytarib oling, grajdan tergovchi. Men to'rt kun avval Qrimda emas, Kurganda edim. Oltmisht ikkinchi reys bilan uchib keldim. Ishonmasangiz tekshirib ko'ring. Biletini ham olib qo'yanman. Uyda pasportimning ichida.

— Kurganda nima qilib yuribsiz?

— Razvedkaga borgan edim. U yerda ish ko'rsatmadim. Tekshirishingiz mumkin.

- Razvedkangiz nimasi?
- Bu mening yangi sistemam, grajdanin tergovchi. Yangi sistema. Hunarimning siri shundaki...
- Xarisov, qisqaroq qil.
- Xo'p bo'ladi, grajdanin kapitan. Qisqasi, Ural tomonlarda bozorlar bor. Bozorlarda esa hamyurtlar bor, degandek... Endi tushungandirsiz? Jabrlanuvchingizga Kurganda qarmoq tashlovdim. Chamamda, yigirma ming bilan qaytdi. U pulni o'marganinda ham meni qamamasliklaring kerak. Men davlat mulkiga tegmadim. U shaxsning mulki ham o'g'irlilik. O'zi shaharda yashasa, Kurganga shuncha pomidorni qayerdan olib borgan? Indamaysiz, a?
- Yigirma ming haqida bu ro'yxatlarda hech gap yo'q-ku? Ro'yxatlarga qaraganda siz olmagansiz, jabrlanuvchi o'g'irlatmagan.
- To'g'ri, to'ppa-to'g'ri, grajdan leytenant. Yigirma ming topishni bilgan odam berkitishni ham biladi.
- Kurganda hid olgan odam bilmaydim?
- E grajdan tergovchi, o'g'ri bo'lib tug'ilmaganim bilan bunaqa ishda suyagim yo'q. Topdim. Suvni loyatmay ochiq aytaymi, ishonasizmi?
- Ayting-chi?
- Aslida u uydan bitta ro'molcha ham olmadim. Meliyev boshini sarak-sarak qilib kulib qo'ydi.
- Ana, ishonmaysiz... Qo'rwmaganimda uyiga kirib chiqqanimni Sherlok Xolms ham bilolmasdi.
- Qo'rwdingmi, sen-a?
- Keling, grajdanin tergovchi, ochig'iga o'taymi? Ammo ikkita shartim bor: birinchisi, aytganlarimni protokolga tushirmaysiz, magnitofoningizni o'chirib turasiz, yangi ish ochsangiz meni aralashtirmaysiz. Ikkinchidan, ishimni yengillatishga yordam berasiz. Axir, men sizga yordam beryapman-ku. Zo'r ishligini ko'nglim sezib turibdi. Yulduzning kattasini olishingiz tayin.
- Bu yer bozor emas, Xarisov!
- Kechirasiz, grajdanin kapitan. Odobli bo'lib bora-yotganim baribir inobatga olinishiga ishonaman. Men u pulni topdim. Chamamda, yigirmadan ham ko'p edi. Nafs

yomon-da. Shunga qanoat qilib chiqib ketavermaymanmi? Ichkarida ham biron narsa bordir deb o'yladim.

— Pul qayerda ekan?

— Ha, aytmoqchi, pul garajda. Shunday kirsangiz, o'ng tomonda, burchakda beshta ballon taxlab qo'yilgan. To'rttasi uncha urinmagan. Eng tagidagisi kalbosha o'xshab qolgan. Pul shu ballondagi kamera ichida. Jabrlanuvchingiz usta ekan. O'g'ri kirsa to'rtta yaxshi ballonni ko'tarib chiqib ketadi, eskisi baribir qoladi, degan-da. Siz qidirsangiz ham yerni kovlaysiz, devor orasini titkilaysiz, to'g'rimi? Mening ham tushimga kirmovdi. Garajda o'ra-po'ra bordir, devdim. Qarasam, ballondan sal narida rezina kley turibdi. To'xta, dedim. Mashinaning balloni yangi. Yana to'rttasi turibdi. Shunaqa odam ballonni o'zi yamarmidi, dedim. Gurnonim to'g'ri chiqdi.

— Ichkari uyga ham kirdingizmi?

— Kirdim-da. Yotoqxonasida Makkadagi machitning rasmi bor. Shuning orqasini, devor ichini qaramoqchi edim, uddasini qilolmadim.

— U yerda biror narsa bor deb o'ylaysizmi?

— Ko'nglim sezadi, grajdjan leytenant. Makkaning rasmini oyoq tomonga osishidan shubhalandim. Musulmonlar bunaqa qilishmaydi, to'g'rimi? Devor ichidagi xazinaga qarab yotish oson, shuning uchun rasmni oyoq tomon bo'lsa ham osavergan.

— Xo'sh, nimadan qo'rqeding, shuni ayt.

— Grajdjanin kapitan, yoshligingizda ham shoshqaloq edingiz, gapirtirgani qo'ymas edingiz. Xullas, u-bu bordir deb mehmonxonaga kirib javonning tortmasini titkilovdim. Anavi... bilasizmi... anavi...ning surati chiqib qoldi.

— Kimning?

— Anavi... magniton o'chirilgan, a? Ha, rahmat. — Xarisov sal dadillandi. — Ahdni buzmasligingizga ishonaman. Bilasizki, sotqinlikdan hazar qilaman. Demak, shunday Begemotning rasmini ko'rib qoldim.

— Begemot?

— Ha, ha... o'n ikki yillik kurortga shu yerdan jo'nagan. Uni ham Kurganda uchratuvdim... uzoqdan turib... Rasmini ko'rib qo'rqib ketdim. Yo bu uy egasi Be-

gemotning sheri, yo sizning odamingiz, deb o'yladim. Unday bo'lsa ham, bunday bo'lsa ham sho'srim quriydi, deb qochmoqchi edim, xotini uyg'onib qoldi. Indamay turaversam, yana uxbab qolardi. Lekin qo'rqedim. O'g'ri bo'lib tug'ilmaganman-da, tajribasizlik qildim.

— Suratdagagi rostdan Begemot edimi?

— Umrinda ko'z doktoriga bormaganman, grajdanin kapitan, qorong'ida bexato ishlayman-ku?

— Yana aytadigan gaping bormi?

— Hech narsa olmaganimga baribir ishonmaysizlar, deb anavi ro'yxatni o'ylab topganman. Bir yilga tortadi. Begemotdan uzoqroq turay.

— Bir yildan keyin topolmaydimi?

— Voy, grajdan kapitan, siz nima qilib o'tiribsiz bu yerda. Begemot yo sizning, yo sizga o'xshagan kapitanmi, mayorningmi suhbatiga keladi, yana safarga ketadi, to'g'rimi?.. Ha, endi u qaytguncha yo podsho o'ladi, yo eshak... — Xarisov ko'zini qisib, quvlik bilan kului.

Meliyev qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Navbatchi militsioner kirib Xarisovni olib chiqib ketdi.

— Gaplariga ishondingizmi? — deb so'radi Meliyev.

Nozima yelka qisdi.

— Anoyi emasga o'xshaydi, — dedi u. — Birpasda bizni boshqa yo'lda burdi-yu, muddaosiga yetdi. Yo'q, unda boshqa sir bor. Boringki, Begemotdan qo'rqedim, deylik. Unda nimaga iz qoldirdi? Tezroq ushlab, qamashsin debmi? Gaplariga ishonish mumkin-u, ammo iz qoldirgani shubhali. Yigirma ming — o'g'ri uchun yomon ov bo'lmasa kerak. Begemotdan qo'rqscha, yarmini berib qutulardi. Qayerdandir ko'proq boylik o'margan. Yigirma ming deb undan kecholmagan.

— Bu farazingizda jon bor, — dedi Meliyev. — Qrimdagagi o'g'irlilik buniki emasga o'xshab qoldi. U yerda umumiy hisobda sakkiz minglik narsa o'g'irlangan. Sizga bir maslahatim bor: Ittifoq bo'yicha so'rov yubortiring. Qayerda katta o'g'irlilik bo'lganini aniqlang. Kechasi Kamchatkada tilla do'konini urib, ertalab Kurganda paydo bo'lish hech gap emas. U yerda ham bekor yurmagan. Bu yoqlardan boradigan bozorning doimiy egalarini hisobga olib qo'ygan. Nayranglari ish berib, bir-bir yarim yil

qamalib chiqqach, shularning payiga tushadi. Biladiki, chayqovchi katta pulni omonat kassaga qo'ymaydi. Uyda saqlaydi. Puldan ajralgach, miliitsiyaga arz qilolmaydi. Shunaqa ayyor u. Hali boshingizni ko'p aylantiradi. Ehtiyyot bo'ling. Endi tintuv uchun ruxsat olish kerak. Tezroq borilmasa, «jabrlanuvchimiz» pullarni gum qilishi mumkin.

— Balki kuzatarmiz? Balki sheriklari bordir? Begemot degani balki boshlig'idir?

— Boshliq emasdир-u... shunga boshim qotdi. Begeomot — Narziyev degan kallakesarning laqabi. O'zlarining tili bilan aytganda «bezpredelshik». Bo'lim boshlig'ingiz yaxshi biladi. Bularga nima aloqasi bor ekan? Chayqovchi bilan kallakesar?.. Qiziq. Gapizingda jon bor, tintuv qilsak, boshqalarni cho'chitib qo'yarmiz. Kattalar bilan maslahat qilib ko'raylik-chi...

Tergov bo'limi boshlig'i Nozimaning gaplarini eshitib, hayratini yashira olmadi.

— Sizda bir jodu bormi o'zi, Qosimova, kichkina bir ishga qo'l ursangiz, yirikrog'i bosh ko'taradi. Begemot bilan hazillashib bo'lmaydi. Xarisovning qo'rqqani rostdir. Endi jabrlanuvchi... kim edi, ha, Ergashev masalasi. Kuzatish kerak. O'zingiz bordingizmi?

— Topshiriq olganimga hali bir soat bo'lgani yo'q-ku?

— Unda sizga maslahatim, zudlik bilan boring. Sir boy bermang. Jabrlanuvchiligidcha tura tursin. O'g'irlangan narsalarni qaytarishga va'da bering. Men Ergashev haqida ma'lumot to'plab qo'yaman.

«Jabrlanuvchi»ning uyi Nozima tasavvur qilgan darajada dang'illama emasdi. Hatto yon qo'shnilarinikidan pastroq edi. Ko'cha bo'ylab qator ekilgan daraxtlar shu uy oldida uzilib, so'ng yana davom etardi. Aftidan, «jabrlanuvchi» sahroyi tabiatga o'xshardi. Ko'pchilik boloxonaning ostini garajga moslagan bo'lsa, Ergashevni hovli to'rida, temir darvoza bilan to'silgan edi. Hovlida ko'zga tashlanadigan narsa ham yo'q. Tokqaychi ko'rmagan uch-to'rt daraxt tarvaqaylab yotibdi. Olma daraxting tagida yumaloq stol va besh-olti stul qo'yilgan.

Hovli bu ahvolda bo'lgani bilan uy ichining jimjimasi ko'zni olardi.

Uy egasi, ya'ni «jabrlanuvchi» — sochlarini tepaga silliq taragan qirq besh yoshlardagi serharakat malla kishi Nozimani noxush kutib oldi. Uyga ham istamaygina boshladi. Nozmaning uyni sinchiklab kuzatayotganini ko'rib to'ng'illadi:

— Yaqinda kelib ketishdi-ku odamlaringiz?
— Tergovni men olib boraman.
— Oldin o'g'rini tuting, keyin tergov qilasiz.
— Tutganmiz, xotirjam bo'ling.
— Yo'g'-e?
— Ha. Hozir uyi tintuv qilinyapti. Narsalaringiz balki ertaga qaytarilar.

— Bo'yniga oldimi?
— Kim darrov bo'yniga olardi? Qo'limizda dalil bor. Javoningizda barmoqlarining izlari qolgan. Javoningiz qaysi uyda, ko'rsam maylimi?

Ergashev uni o'ng tomondagi xonaga boshladı.
— Bu xonada nima bor? — dedi Nozima, chap tomon-dagi eshikni ko'rsatib.

— Yotoqxonamiz.
— Bo'lmasa shu yerdan boshlaylik.
— Bu uyga kirmagan.
— Qayerdan bilasiz? Ish uchun hamma uylaringizni ko'rsatishingiz kerak. Yo malol kelyaptimi?

«Jabrlanuvchi»: «Birato'la tintuv qilib qo'ya qolings-lar-da», deb to'ng'illadi-da, yotoqxona eshigini ochdi. Nozima ichkari kirasonib oyoq tomonga qaradi. Makkadagi machitning yaltiroq zarlar bilan ishlangan surati!!!

— Bu Samarqandmi? — deb so'radi Nozima o'zini bilmaganga solib.

— Ka'batullo, — dedi Ergashev sovuqqina qilib.
— Chiroyli ekan...

Suratning orqasiga sinchiklab razm solish imkonii bo'limgach, Nozima iziga qaytdi. Hovliga chiqib, garajga qaradi:

— Bu yer garaj, — dedi Ergashev uning qarab qol-ganini sezib.
— Ko'raylik.

Garajning ichi ham shinam edi. O'rtada chuqurlik, devorda tokchalar, o'ng tomonda esa... ballonlar!!! Beshta. Eng tagidagisi eski. Xarisovning aytganlari to'g'ri chiq-yapti. Ko'cha darvozada ham, garajnikida ham uchtadan qulfi. Xarisov qanday ochib kirdi ekan?

Ko'chaga chiqib, muyulishda eski «Jiguli»ning kapotini ochib kuymalanayotgan tanish yigitni ko'rib ko'ngili joyiga tushdi: demak, kuzatuv boshlanibdi. Yo'il-yo'lakay mashinadagi ratsiya orqali bo'lim boshlig'i bilan bog'lanib, ketmay turishini iltimos qildi.

Bo'lim boshlig'i xonasida yo'q ekan. Nozima uni ancha kutib qoldi. Betoqatlandi. Nazarida «jabrlanuvchi» boyligini shu damlarda yo'q qilayotganday, ular kechikib qolayotganday edi.

Bo'lim boshlig'i dahlizda xotirjam bir ahvolda ko'rindi. Qo'ltig'iga qog'oz papka qistirib olgan, bir qo'lida... qatiq, yana bir qo'lida shirin kulcha.

Bo'tayev joyiga o'tirib, Nozimaga qaradi:

— Xo'p, qanday gaplarni topib keldingiz?

Nozima bir boshdan gapirib berdi.

— Xarisov qo'lga tushganini aytmay tursangiz bo'ldi.

— Xayolimga bir fikr kelib qoldi, o'rtoq mayor. Qarasam, Ergashev juda xotirjam. Hatto parvoysi falak. Faqat machitning suratiga tikilib turganimda sal bezovtalandi, lekin sir boy bermadi. Nazarimda u boylikni berkitishga bugun-erta harakat qilmaydi. Uyiga o'g'ri tushganidan sheriklari bexabarga o'xshaydi. Ular darak topguncha pulni o'zimiz o'g'irlasak-chi?

— Nimaga?

— Bir-biridan gumonsirab qolisharmikin, deyman. Lekin u pul yo'qolganini bizga ma'lum qilmaydi.

— Ma'lum qilib jonidan to'yibdimi? Umuman, fikringizda jon bor. Pul ketsa, sheriklar orasidan mehr ketadi. Eng muhim, uy ichidagi boylik tashvishi tushadi. Sheriklari shiraga intilgan aridek yopiriladi. Balki oradan bir-ikkitasini olib tashlashga harakat ham qilishar. Ergashev haqidagi ma'lumotni menga berishdi: 1934-yilda tug'ilgan. Ikki marta uylangan. Birinchi oilasidan olti bolasi bor. Ular sharqiy rayondagi dang'illama uyda

turadi. Siz borganingiz otameros uy. Ikkinci xotini bilan shu uyda yashaydi. Ilgari sabzavot do'konida ishlagan. To'rt yil burun bo'shagan. Uch yildan beri qurilish tressining idorasida qorovul. Alimentni shu maosh hisobidan to'laydi. Sudlanmagan. Hozircha bori shu. Endi xonangizga chiqib, fikrlaringizni jamlay turing. Men ham o'ylab olay. Agar sheriklari bo'lsa, shu kech, nari borsa ertaga yo'qlab kelishi kerak.

Nozima xonasiga chiqib, iyagini qo'liga tirab o'tirdi. «Bunaqa ishning ochilib qolishi tasodifmi, baxtimmi yo baxtsizligimmi? — deb o'yaldi u. — Xarisov-ku bu ishni ko'rsatib berdi. O'zining ishini kim ko'rsatadi? O'zim titkilab topishim kerak. Bo'yniga qo'yishim kerak. Ergashevning ishi-chi? Bir o'zi bilan tugaydimi yo to'rlab ketadimi? Bunaqa ishslashda oilam nima bo'ladi?»

Bez bo'lib turgan telefon birdan asabiy jiringlab qoldi. Go'shakni ko'tardi-yu, bo'lim boshlig'ining so'zlarini nafas yutib tingladi.

— Zerikmayapsizmi? — dedi Bo'tayev. — Bunaqa kutish jinoyatchining orqasidan quvishdan ham azob. Gap bunday: yigitlar xabar berishdi. Ergashevnikiga oq «Jiguli»da bir odam kelgan. Mashina nomeriga qaraganda, Omonturdiyevning sovxoziidan, bunga nima deysiz? Siz Meliyev bilan katta yo'ldagi GAI postiga borasiz. Mashinani tekshirish kerak. O'zingiz ichkarida turib kuza-ting. Mashina egasiga ko'rinnang. Tez chiqing, kutib turishibdi.

Yarim yo'lga yetishganda mayor Bo'tayev ratsiya orqali ulanib, Ergashevning mehmoni yo'lga chiqqanini ma'lum qildi.

— Tez qaytildi. Ish pishmaganga o'xshaydi, — dedi Meliyev.

GAI postida jinoyatga oid qidiruv bo'limining yana uch xodimi turgan edi. U zinadan yuqoriga ko'tarilib, oynavand xonaga kirdi. Ochiq derazaga yaqinlashib pardani tortib qo'ydi.

Ergashevning mehmoni hayallamadi. GAI inspektorining ishorasi bilan oq «Jiguli» to'xtab, undan... Murod mug'ambir tushdi. Nozima ko'zlariga ishonmadni.

Xonasidagi savol yana miyasiga urildi: «Tasodifmi, baxtimmi, baxtsizligimmi?...»

Inspektor Murod mug‘ambir uzatgan hujjatlarni tekshirib chiqdi.

— Ishonch qog‘ozi yo‘q-ku? — dedi u.

— Endi, uka, biz shaxsan o‘rtoq Omonturdiyevning topshirig‘i bilan tushdik shaharga. Bilasiz, dalachilik, bosh qashlashga vaqt yo‘q. O‘rtoq Omonturdiyev betoqat bo‘layotgandirlar. Erta-indin qo‘l bo‘sasa, dachaga chiqasiz, gunohimizni yuvamiz.

Inspektor uning gapiga parvo qilmay, qo‘lidagi qog‘ozni karnay qilib Murod mug‘ambirga uzatdi.

— «Kuf» deng.

— Ichmaganman, ichgan bolamasman umrimda. Mana, ishonmasangiz, kuf-f.

Inspektor qog‘oz karnayni burniga olib keldi.

— Ichgansiz. «Jiguli» shu yerda qoladi, — u shunday deb mashina tomon yurdi. Murod mug‘ambir uning yo‘lini to‘sdi.

— Hoy oshnajon, bunaqa qilmang, yaxshililingiz yerda qolmaydi. O‘rtoq Omonturdiyev eshitsalar, xonumoningiz kuyadi-ya, shu yerda tirikchilik qilib turibsiz. Mang, manavini olib qo‘ying.

— Qo‘lingizni torting!

Shu mojaror ustiga Meliyev bordi.

— Nima gap?

— O‘rtoq nachalnik, bu bolangizga gap uqtirib bo‘lmayapti, o‘rtoq Omonturdiyev kutyaptilar meni.

— O‘rtoq Omonturdiyev?.. U kishini xafa qilish kerakmas. Oblastning hurmatli odamini ranjitib bo‘ladimi?

Murod mug‘ambir jonlandi.

— Ana, gapga tushunadigan odam ham bor ekan-ku!

— O‘rtoq kapitan, mashinaga ishonch qog‘ozi yo‘q.

Keyin haydovchi ichgan. Keyin pora bermoqchi bo‘ldi.

— O‘rtoq serjant, gapni bunday qilsak, o‘rtoq Omonturdiyevning nomi biz uchun o‘nta ishonch qog‘oziga o‘tadi.

— Otangizga balli! — dedi Murod mug‘ambir hujjatlariga qo‘l uzatib.

— Pora bermoqchi bo‘ldi, degan gapni ham unu-

ting, — dedi kapitan. — Berganda boshqa edi. U taklif qildi, siz rad etdingiz. Bo'ldi, gapni cho'zmang. — Meliyev shunday deb Murod mug'ambirga yuzlandi. — Shu ichganingiz chatoq ekan-da, biz sizni qo'yib yuborsag-u bir kori hol bo'lsa, ertaga gap eshitamiz. O'rtoq Omon-turdiyev ham ranjiydilar.

Murod mug'ambirning hujjatga uzatilgan qo'li muallaq qoldi.

— Voy, qanaqa odamsizlar, ichmaganman dedim-ku?!

— Endi, aka, besh minut vaqtingizni ayamaysiz. Tek-shiruvga borib kelasiz. Mashinangizni qulflang. Qimmatbaho narsangiz bo'lsa olvoling.

Murod mug'ambir jahl bilan qo'l siltadi.

— Qimmatbaho narsa nima qiladi, o' serjant bola, yur bo'lmasa!

U mashinani qulflamadi. Ketishlari bilan yigitlar mashinani tintib chiqishdi, ehtiyyot ballongacha qarashdi — hech nima yo'q.

Murod mug'ambir qaytib kelgach, Meliyev yana uzr so'radi.

— Siz-ku, odam tanir ekansiz, manaviningizga tayinlab qo'ying, kattalar bilan hazillashmasin, — dedi Murod mug'ambir, keyin serjantga qaradi: — Burningni do'xtir-po'xtirga ko'rsat, is bilmaydigan bo'lib qolibdi, — shunday dedi-yu gazni bosdi.

Meliyev ratsiya orqali bo'lgan gaplarni mayorga yetkazdi. So'ng Nozimadan so'radi:

— U odamni tanidingizmi?

— Tanidim. Omonturdiyevning oshpazi.

— Omonturdiyevning sovxoziда faqat paxta ekiladimi yo polizi ham bormi? Balki Ergashev pomidorni shu sovxozdan olgandir?

— Bilmadim, qiziqib ko'rmagan ekanman.

Bo'lim boshlig'inинг xonasida Ahmadjon bilan Xarisov o'tirardi. Bularni ko'rib Nozima ajablandi.

— Xarisov bizga yordam berishni istamayapti, — dedi mayor Nozimaga joy ko'rsatib.

— Istamayapti, demang, grajdan mayor, axir, o'g'irlik qilmayman, deb qasam ichganman. Qasamni buzsam, otam go'rida tik turadi.

— Xarisov!

— O'zingiz olib chiqavermaysizmi?.. Kechiring meni, siz olib chiqqanlarni ushlaysiz... Kasbimiz boshqa-boshqa, bilaman. Lekin... keyin borib bo'ynimga qo'ymaysizlarmi? O'zim bergan ro'yxat kuchda qoladimi?

— Xarisov, sen o'g'rimisan, chayqovchimisan?

— Tushundim, chayqovchilikdan Xudo asrasin. Ular-dan hazar qilaman. Men bilan bu o'rtoq... kechiring, grajdan boradilarmi? Kechiring, grajdan... sizda yo'tal tutish odati yo'qmi, aksirmaysizmi, necha minut nafas olmay tura olasiz? Menga qarang: — Xarisov nafasini ichiga yutdi. Ahmadjon ham shunday qildi. — Yaxshi. Umuman, menga assistant kerak emasku-ya, lekin siz aytsangiz... Xo*p, eshititing bo'lmasa...

Xarisov Ahmadjonga yo'l-yo'riq ko'rsatdi. Gapni cho'zib yuborsa ham indashmadi, ko'ngliga qarashdi.

— Esingda tursin, juda tartibli bo'lmasin, — dedi mayor uning ma'ruzasi yakunlangach. — Garajni titganing bilinsin, darvozasi ochiq qolsin...

— Bu yog'ini menga qo'yib bering. Demak, soat to'rtda yo'lga chiqamiz.

— Kech emasmi?

— E, ha, jabrlanuvchi hozir uxlayapti, deb o'ylaysizmi? Uxlab bo'pti. To'rtlargacha poyleydi. O'g'ri ikki bilan to'rtning orasida keladi, deb o'ylaydi. Kechadan beri uxlamagan, chidolmaydi. To'rtdan keyin qotadi.

Xarisov pand bermadi. Yarim soatda qaytishdi. Ballon ichidan qirq ikki ming pul chiqdi. Buni ko'rib Xarisovning esi og'ib qolayozdi.

TUZOQ

Maxsus guruh ertalabdanoq tergov bo'limining boshlig'i xonasiga to'plandi. Nozima kechroq qolgani uchun izza chekib chetroqqa o'tirdi.

— Jabrlanuvchini bugunga chaqirgan edingizmi? — deb so'radi mayor Bo'tayev Nozimadan.

— Soat o'nga kelishi kerak. O'g'irlangan narsalaringizni olib ketasiz, devdim.

— Kelmaydi, xotirjam bo'ling, hozir ko'ziga gilam-

pilam ko'rinmaydi. Ilonni dumidan bosdik. Hovlisida vishillab yurgandir. Ba'zi narsalar bizga aniq: Zuhur Er-gashevning kimligini bilamiz. Pul qayerdan kelgani, molni qayerdan olgani ham ma'lum. Uning o'n uchinchi sovxoz bilan aloqasi ko'p narsadan darak beradi. Lekin isbotsiz gapga suyana olmaymiz. Begemot masalasi... U o'tgan oyda qamoqdan chiqqan. Sud hukmi bilan yana ikki yil Kurganda yashashi kerak. Omonturdiyevning odami quruq qaytdi, demak, o'n uchinchi sovxozdan yana bir vakil kelishi kerak. Qolgan boylik u yerdagilarni tinch qo'yaydi. Operatsiya yakunlangunga qadar o'n uchinchi sovxozdagilarga tegmaymiz. Shubha ham uyg'otmaslik lozim.

Telefon jiringladi. Bo'lim boshlig'i go'shakni ko'tarib, navbatchining gaplarini diqqat bilan eshitib: «Nazoratni kuchaytiring, o'sha atrofda kutib turing», — deb buyurdi, o'tirganlarga bir qarab oldi.

— Vakil kelibdi, — dedi go'shakni joyiga qo'yaturib. — O'sha kechagi mashina. Faqat boshqa odam. Hamma joy-joyiga. Kapitan Meliyev, siz o'sha rayonga boring. GAI bilan bog'laning. Mashinani ushlab turish kerak. Ammo vakil shubhalanmay qaytib ketsin. Leytenant Qosimova siz bilan birga boradi.

Meliyev yo'lda ratsiya orqali mayor Bo'tayev bilan bog'landi.

— Vakil uydan shoshib chiqibdi. Bir gap bo'lganga o'xshaydi. Gulbog' ko'chasi tomon yuring. Leytenant Tojiyev oldidan kesib chiqmoqchi.

Gulbog'dagi kichik chorrahaga odamlar to'planib qolgan edi. Bir-biriga urilib o'ng qanotlari pachoq bo'lgan mashinalar oldida Ahmad bilan... Shonazir yoqa bo'-g'ishayotgan edi.

— Ginekolog-ku? — dedi Nozima.

— Omonturdiyevning odamimi bu ham?

— Ha, yugurdaklaridan.

— Unda mashinada o'tiring. — Meliyev shunday deb tushdi-da, mashmasha bo'layotgan tomon yurdi. — Kapitan Meliyevman, nima gap, o'rtoqlar?

— Ana ko'ring, — dedi Ahmad mashinaga «achinib».

— Avval mashinalarni urishtirib, endi o'zlarining urish-yapsizlarmi?

- E, g'irt mast bu, o'rtoq kapitan, — dedi Ahmad.
- Mastmasman... o'rtoq kapitan, bir og'iz gapim bor... — Shonazir Meliyevni chetga tortdi. — Kecha ichganman, to'g'ri, ammo hozir kayfim yo'q.
- Og'aynichalish, ishingiz chatoq. Belgini ko'ryapsizmi, yo'l bo'shatishingiz kerak edi. Qani, hujjatlarni oling-chi.
- Hujjatlar... uyda qolib ketibdi. Akam kasalxonada edi, og'ir yotibdi. Shuni ko'rgani keluvdik.
- Qayerdansiz?
- O'n uchinchi sovxozman.
- Iye, mash'al sovxozmanmi, o'rtoq Omonturdiyev eshitsalar...
- Shuni aytyapman-da, o'rtoq Omonturdiyev qattiq xafa bo'ladilar. Men u kishining ukaxonlaridanman.
- Meliyev chakkasini qashidi.
- Bolani rozi qila olasizmi?
- Bu yog'i bizga tan, sizni ham...
- Bel baquvvat bo'lsa bas, bizga. Qani yuring-chi, — Meliyev Ahmadning oldiga qaytdi. — Mashinaga o'tiring, orqamdan yuring.
- Nimaga? Akt tuzmaymizmi?
- Tuzamiz. Yuravering. — U Shonazirning mashinasiga o'tirib, chap tomondagi kichikroq ko'chaga burildi. Ko'p o'tmay to'xtadi. Ahmad ham to'xtagach, uni imlab chaqirdi. Ahmad kelib orqa o'rindiqqa, Shonazirning yoniga o'tirdi.
- Endi, uka, ikkalangiz ham o'zbek ekansiz. Bo'lar ish bo'libdi. Xafalashishning hojati yo'q. Mashina temir. O'zlarining omon ekansizlar — shu katta gap. Qog'oz-pog'ozni aralashtirmay, kelishib qo'ya qolinglar. Oshnamiz xarajatini beradilar. Mashinangiz yap-yangi bo'lib ketadi.
- Biluvdim, pichir-pichir qilib qoluvdingiz. Siz haqiqat qilmay jinoyatchining yonini olyapsiz! Shikoyat qilaman.
- Katta ketmang, uka. O'zingizga qiyin. Yugur-yugur qilib charchaysiz. Haqiqat qil, desangiz, mayli, hujjatlariningizi bering.
- Hujjatlarimni nima qilasiz, men aybdor emasman.

— Shunaqami... Mashinadan tushib turing, — Ahmad tushgach, Shonazirga yuzlandi. — Pulni oling, besh yuz bering, kamiga ko'nmaydi.

— Mana besh yuz. Bunisi sizga... Yuz...

— Yaxshi. Nariroqqa borib turing.

Shonazir nari ketgach, Ahmad yana orqa o'rindiqqa kelib o'tirdi.

— Nima bo'ldi? — deb so'radi Meliyev undan.

— Ergashevni bir balo qilganga o'xshaydi. Chiqishi boshqacha edi. Ergashevning xotini dod-voylab qoldi. Solijonov kirib ketuvdi.

Meliyev ko'zgu orqali Shonazirni kuzatdi: u dambadam mashinaga qarab qo'yardi.

— Sal tarxashlik qilgin-u, pulni ol. Mening haqqim alohida. Aralashtirib yuborma. Alohida-alohida rasmiy-lashtirasun.

Shonazir qo'lini paxsa qilib gapiroqotgan yigitga qarab: «Ahmoq ekansan sen bola», — deb g'udranib qo'ydi. Yigit uzatilgan pulni olmayman deb mashina eshigini ochib tushmoqchi bo'ldi. Keyin joyiga qaytdi. Kapitan unga uzoq gapirdi. Keyin ko'rsatkich barmog'ini niqtab, po'pisa ham qildi. Yigit pulni oldi. Sanadi. Bosh chayqab qaytarmoqchi bo'ldi. Kapitan yana po'pisa qildi. Hatto boshidagi furajkasini ham jahl bilan olib qo'ydi. Mashina eshigini ochib tushmoqchi edi, yigit uni yelkasidan ushlab to'xtatdi: «Yalinyapti, shekilli. Puldan sanab berdi... Ana, bo'ldi. Kapitan mol bozordagi dalolning o'zi ekan. Sotganni ham, olganni ham shildi. Balo ekan», — deb o'yaldi Shonazir.

Kapitan imladi. Shonazir yugurib keldi. Ahmad mashinadan tushdi.

— Akamga rahmat deng. Yap-yangi mashinani rasvo qildingiz, — dedi Ahmad do'ng'illab.

— Meniki eski ekanmi? — dedi Shonazir ishi bitganimidan dadillanib.

— Bas qilinglar. Tuya ko'rdilaringmi, yo'q. Sen ertaga GAiga kel. Spravkangni to'g'rilaq qo'yaman. Men bo'lmasam, Solijon degan yigit bor. VAZda Sattorov degan mexanikka uchraysan. Uch kunda to'g'rilaq beradi.

Ahmad bosh irg'ab, mashinasi tomon yurdi.

— Ko'rdingizmi, oshini chaynab, og'ziga solib qo'ydim. Istanasangiz mashinani tashlab keting, ustalarning zo'-riga beramiz.

— Rahmat, oshna, shu yordamingiz ham esdan chiqmaydigan bo'ldi.

Meliyev Shonazirni kuzatib yuborgach, Nozima keldi.

— Yarashdirib qo'ydingizmi? — dedi Nozima kulib.

— U-bulik ham bo'ldim. Hamkursingiz xasis ekan. Mana bergani, — Meliyev kulib cho'ntagidan uchta o'n so'mlikni chiqardi. — Anavi durust edi, yuz so'm berdi.

— Ergashevni o'ldirib qo'yay debdi. Boshini urib yoribdi. Kasalxonaga olib ketishibdi. Mayor bizni Ergashevning uyida kutyapti.

Ergashevning uyi oldidagi ikki «Volga» atrofida bolarlar chug'urlashishardi.

Ichkarida, stol ustida Nozimaga tanish surat — Makkadagi machitning zarlar bilan ishlangan rasmi turardi. Suratkash yigit uning yoniga sochib qo'yilgan tilla tangalar, ular yonida ko'zni olayotgan javohir donalarni suratga tushirardi. Guvohlikka chaqirilgan uch qo'shni o'zaro pichirlashib qo'yardi. Ergashevning ko'zlarini ko'kargan, xotini esa burchakdagi yumshoq o'rindiqda sassiz-sadosiz, karaxt bir ahvolda o'tirardi.

— Boyligimiz hozircha shu, yana qidirishyapti, — dedi mayor Nozima bilan Meliyevga.

— Javonda surat bo'lishi kerak edi, — dedi Nozima.

— Ha, topdik, — mayor yon cho'ntagidan suratni olib uzatdi: binoyi kiyangan, qoshlari qatin, ammo ko'zlaridan sovuq uchqun sachrab turgan odam. Orqasida badxat yozuv: «Jonuvuzdan azez jigaruvza Xekmatxo'jaga esdaleko». — Hikmatxo'jani tezda aniqlash zarur. Guvohlarga tayinlang: ichkarida ko'rganlarini tarqatishmasin. Sirni oshkor qilish qanday jinoyat ekanini ham eslatib qo'ying. Ko'chada mashina qolmasin. Odamlarga: «Shunchaki bezorilik yuz beribdi, bezorini tutamiz», — deb qo'yavering. Opergruppa kech soat to'qqizda to'planadi. Operatsiya bugun nihoyasiga yetadiganga o'xshaydi.

* * *

Shonazir osongina qutulganidan mammun bo'lib mashinani tezlatdi. Uning boshi tars yorilay der, yuz bergen voqealarni hali ham o'ziga singdirolmagan edi.

Ertalab xo'jayin tepib uyg'otdi. Shaharga tushasan, dedi. Bosh og'riqqa bir qultum ham bermadi. Shaharga borguncha adoyi tamom bo'ldi. Zuhurning uyiga kirdi. Sovuq kutib oldi. U ham bosh og'riq dardida kelibdi, deb o'yabdi. Bir shisha pivo so'radi. Berdi. Yarmini ichdi. Xo'jayin: «Bor bisotini yo berib yuborsin, yo o'zi olib kelsin, uyda saqlamasin», — devdi. Shu gapni aytdi. «O'g'irlab ketishdi». «Laqillatma». «O'zlarin o'g'irlagansanlar»... Yana nima balolar deb yoqasiga yopishdi. Bo'g'a ketdi. Shunda shisha bilan boshiga bir urdi. Shilq etib yiqildi... Xotini dod dedi. E... shu yerda qochib chakki qilibdi. Xotinini tinchitish kerak edi. Bir urishda o'lmagandir, axir. E la'nati, ishni buzibdi shu yerda... Qiziq, pulni o'g'irlatdim, dedimi? Qanaqasiga o'g'irlatadi? Shuncha yil o'g'irlatmagan? Yo'q, bu g'alamis o'g'irlatmagan. Bahona qilyapti...

Shonazir yo'lda to'xtatmoqchi bo'lgan GAI inspektorlariga ham parvo qilmay pachoq mashinasini uchirib borardi. Omonturdiyev uni bog'da kutayotgan edi. O'sha yoqqa burildi.

To'xtamish shiyponda yonboshlab yotib telefon orqali kassir bilan gaplashardi. Kassir bo'lim boshqaruvchilarining kelib vedomostlarni to'ldirib ketishganini aytdi.

U kassir bilan xayrashmayoq go'shakni qo'ydi-da, o'midan turdi. Ammo pastga tushmadi. Shonazirning gaplarini ham tik turganicha eshitdi.

— Hayvon! — dedi u tishlarini g'ijirlatib.

— Zuhurmi?

— Sen! Nimaga urasan uni, ahmoq!

— Bo'g'ib o'ldirib qo'yardi.

— O'ldirsa savobga qolardi.

— Xo'jayin, hali u yoqdagi gaplarni bilmaysiz.

— Yana qanaqa gap?

— Mol qo'lga tushib qolibdi.

— Nima?! Qirq minglik mol-a?!

To'xtamish uning yoqasidan bo'g'ib urmoqchi bo'ldiyu, shashtidan qaytdi.

— Mollarning hujjatlari kimda? Zuhurdami? — To'xtamish undan javob kutmay baqirdi: — Murod!

Murod mug‘ambir avval oshxona derazasidan ko‘rinish berdi-da, so‘ng pildillab yurib keldi.

— Ikkoving shaharga tush yana. Taksida boringlar. Xunasani topinglar. Tirikmi, o‘likmi, topinglar. Avval «Tez yordam»ga boringlar. Shunaqa, oshnamiz edi, qishloqdan keldik, qaysi kasalxonada, uyidagilar ham bilmas ekan, deb so‘rab ko‘ringlar. «Tez yordam» chaqirmagan bo‘lsa, uyidadir. Uyiga yaqinlashmanglar, bitta-yarimta bolaga pul-mul qistirsalaring chaqirib beradi. Men soat o‘nda yetib boraman, o‘zimiz o‘tiradigan restoranda kutinglar.

Ular jo‘nashi bilan telefonga yopishdi. Xayriyat, su-yangan tog‘i idorada ekan. «Akajon, militsiyangiz tinch qo‘yadimi o‘zi? Kavushini to‘girlab qo‘yavermagan ekansiz-da, shu... yana qitmirlilikning hidi kelib turibdi. Ishonganim — siz, yana kimim bor...» U tornondan dalda beruvchi so‘zlarni eshitgach, ko‘ngli biroz tinchlandi. Ammo qo‘ldan ketgan naqd boylik esiga tushdi deganda lovullab ketaverdi. Kechgacha olov ustida yurganday bo‘ldi. «Itvachcha, sakson mingning boshini yedimi, a?! — dedi u o‘ziga-o‘zi. — Shu ishlardan qutulib olay, tinchitaman uni. Sasigan kartoshkalarini sotib yurasversin».

Zuhur Ergashevni To‘xtamish dastlab sabzavot do‘konida ko‘rgan edi. Uning sovxozi bayram arafasida shaharliklarga sovg‘a tariqasida sabzavot olib kelishi lozim edi. Bu haqda buyruq berilganda tomorqalar allaqachon qurib bo‘lgandi. Bundan tashqari, buyruqqa kiritilgan bodring, baqlajonlar sovxozdza umuman ekilmagan edi. Odamlar qalovini topib qorni yondirisharkan. Uch-to‘rt tonna sabzavotning ishi qiyin ekanmi? Omonturdiyev qizil karvon bilan izma-iz shaharga kelib Ergashevni ko‘rdi. Shu Ergashev ko‘magida olib kelgan «noz-ne’matlarini» shaharliklarga bir kun ichida «in’om qilib» qaytdi. Shushu ular qiyomatli oshna bo‘lishdi-yu, Zuhur do‘konni topshirib, Sibir tomonlarning hadisini oldi.

To‘xtamishning bir cho‘ntagiga boylik paxtadan oqib kirsa, ikkinchisiga Zuhurdan oqardi. Ana endi shu oqimga ko‘z tegib turibdi. Nima qilishni bilmay boshi garang. Ammo unga bir narsa aniq — Zuhurning bahridan kechish

kerak. Boshqa iloj yo'q. Faqat... yashirganlarini topib olish kerak...

* * *

Kelishilgan uchrashuv joyi — restoran ancha bo'shab qolgan edi. Murod mug'ambir shirakayf, Shonazir esa ancha aljib qolgandi. To'xtamish o'tirishi bilan ofitsiant issiq ovqat olib keldi. Shonazir konyak quymoqchi edi, To'xtamish ruxsat etmadni.

— Yana bo'kibsan-ku, — dedi unga nafrat bilan. Keyin Murod mug'ambiriga qaradi: — Qayerda ekan?

— Kasalxonada. Birinchi qavat, o'n yettinchi palata. Bir o'zi. Boshi yorilib, miyasi sal chayqalgan ekan. Esi joyida.

— Bordilaringmi?

- - Men kirib chiqdim.

— Kallang ishlaydimi, ahmoq!

— Meni birov tanib o'tirbdimi, tog'avachcham dedim.

— Menga qara, do'xtir, ofitsiant bilan hisob-kitob qilib, avtostansiyaga bor. Taksi-paksi olib jo'na. Turqingni qara, it ko'rsa, itning ham ko'ngli ayniydi. Biz ketdik.

Eski usulda qurilgan bir qavatlari kasalxona atrofi xo'-jako'rsinga panjara bilan o'ralgan edi. Darvoza yonidagi uychada qorovul baralla xurrak otar, ichkarida ham-shiralar ham kechki ishlarni tugatib, dam olishardi. Murod mug'ambir To'xtamishni siniq panjara orasidan olib o'tib, to'g'ri Ergashev yotgan xona derazasi tomon boshladi. Deraza qiya ochiq edi. Murod mug'ambir uni asta chertdi. Javob bo'lindi. «Uxlab qolgan, shekilli», — deb g'o'ng'illadi Murod mug'ambir.

Zuhur Ergashev uyg'oq edi. U ertalab boshiga tushgan shisha zarbidan emas, keyingi to'rt kun ichida duch kelgan kulfatlar zarbidagi karaxt edi. Hazilmi, misqollab topgan edi, botmonlab yo'qotdi. Kecha uyiga o'g'ri oralaganda ko'pam xavotirga tushmagan edi. Xotini vahima qilmaganida, qo'shnilar uyg'onib, telefon qoqishmaganida miliitsiyaga o'zi u dunyo-bu dunyo xabar qilmas edi. Militsiya kelgandan keyin nima deydi? «O'g'ri kirib, sayr qilib chiqib ketdi», — deydimi? «Nima yo'qolganini xotinim biladi», — dedi. Xotini og'ziga kelganini aytgan.

«Tergovchi kelib: «O‘g‘rini tutdik», — degan edi-ku? Pulni kim ilib ketdi?» Bu savolga javob topishi qiyin. Xayol ming ko‘chaga haydaydi. Buncha pul borligini kim sezgan bo‘lishi mumkin? Yo Kurganda birov orqasidan tushdimi?

Kurgan... Kurgan... Shuncha yil bag‘rini ochib kutilib olayotgan shahar... Nima bo‘ldi? Biron-bir qaltis ishning hidi yo‘q edi. Mol barvaqt keldi, quvondi. O‘zi itday bo‘lib tushirdi. (Hamisha shunday: pul begona bo‘lmasin deydi. Ammo xo‘jayin bilan hisob-kitobda mardikor haqini chegirib qolishni unutmaydi.) Qutilarni avval o‘rmon ichiga tushirdi. Keyin kampirning uyiga tashidi. Ermak qilay, deb bozorga chiqib qarasa, militsiya xodimlari suratga olib, hujjatlarni tekshiryapti. Qochdi. Ko‘ngli bir narsani sezdi. Pomidorlar tomorqasida yetishtirilganini isbotlovchi hujjatlari bo‘lsa ham qo‘rqdi. Kampirning uyiga kirishga yuragi betlamadi. O‘rmonga yashirindi. Tepalikda uy ko‘rinib turibdi. Militsiya xodimlari kelishdi. Uydagi molni ochib qarashdi. Kechgacha poyladi. Militsiya ketmadi. Pidjagi uyda edi. Pasporti, eng muhimmi, pullari shu pidjakning cho‘ntagida. Hech qayoqqa ketolmaydi. Oqshom cho‘kdi. Sovuqdan dildiray boshladи. Militsiya ketadiganga o‘xshamasdi. Yo‘q, ana, ketdi. U pastga qarab joni boricha yugurdi. Kampir uni ko‘rib: «Tez ket, yana kelishadi», — dedi. Pidjagini olib chiqib berdi. «Qozog‘istondan kelgan deng. Qozog‘istondan», — dedi u shoshib. «Aytdim, — dedi kampir, — gazetalaring bor ekan, ishonishmadи, ana, o‘zing qara». G‘azabdan nima qilishni bilmay qoldi. Pomidorlarning tepasiga gazeta yopilgan ekan: «Nurli haqiqat». E galvarslar!

Sovuqda diydirab, o‘rmon ichida tong ottirdi. Ertalab kampirning uyiga yuk mashinalari keldi. Molni orta boshlashdi. Uning ko‘zlaridan yosh tirqirab chiqdi. Axir salkam qirq minglik mol-a!! Qanday tushsin, qanday talashib-tortishsin. Tagiga yetishsa, olib borib o‘tqazib qo‘yishadi-ku?.. Chorasizlik, katta puldan ajralish alami, ochligi, sovuq... Hammasi bir bo‘lib uni burdalardi. U odam bo‘lib hali bunaqa azobga tushmagan edi.

Uyiga qaytgach, ochko‘zlik qildi. O, bu ochko‘zligini bir umr kechira olmaydi. Mol qo‘lga tushgani uchun

xo'jayin pullarning hammasini olib qo'yadi, deb o'yladi. O'z ulushini yashirishni, yashirish emas, bir bahona bilan chegirib olib qolishni o'yladi. Hech bo'lmasa yigirma mingi uniki edi.

Kasalxonada o'ziga kelishi hamon onasini esladi. Urushdan keyingi og'ir yillarda onasi ishdan keyin sigaret-papiros sotib kun ko'rardi. Bir kuni tramvayda pulini oldirib qo'yibdi. O'shanda uyga rangi oppoq oqarib, titrab kirib kelgan edi. Ikki kun ishga ham chiqmadi. Tomog'idan ovqat ham o'tmadi. Onasining titrab, oqarib kirib kelishi Zuhurning xotirasiga muhrilanib qolgan. O'sha kundan beri pul yo'qotishdan qo'rqardi. Tushida o'girlatsa ham anchagacha o'ziga kelolmay yurardi. Mana endi o'n-gida o'g'irlatdi. O'g'irlatganda ham birvarakayiga o'g'irlatdi...

Shu azoblarda to'lg'anayotganda deraza taqilladi. Kimdir g'udrandi. Keyin tanish ovoz keldi:

— Zuhur aka, uyg'oqmisiz, xo'jayin keldilar.

Keyin To'xtamishning ovozi eshitildi:

— Zuhur, tura olasanmi, bu yoqqa chiq, gap bor.

Ergashev turib, derazaga yaqin keldi.

— Nima gapingiz bor, birato'la o'ldirmoqchimisiz?

— E, sekinroq, esing bormi o'zi, bo'lar ish bo'pti, do'ppi ketsa ketsin, boshing ketmasin. Tush deyapman, vaqt ziq.

Ergashev picha o'ylanib turgach, deraza oshib pastga tushdi-da, To'xtamishning izidan yurdi. To'xtamish ovloqroq joydag'i daraxt tagida to'xtadi.

— Sen mashinada o'tirib tur, — dedi Murod mug'ambirga. Murod mug'ambir qo'lida ko'tarib yurgan qog'oz xaltani yerga qo'yib panjara tomon ketdi.

To'xtamish cho'nqayib o'tirib, xaltani yirtdi-da, qo'l-bola dasturxon qildi.

— O'tir, mendan nimaga ranjiysan? O'zing bo'g'ibsan-ku uni. Qani ol, salomatlik bo'lsin.

Ergashev konyak to'la piyolani ushlab ichmay turdi.

— Qirq uch ming edi... — dedi titroq ovozda.

— Qirq uch million bo'lmaydimi? Pulga achinma. Ich.

Ergashev yutoqa-yutoqa ichdi.

— Uyingni milisa bosgandir?

— Bilmadim.

— Ichvor, yengil tortasan. Pul kelsa shukr qil, ketsa achinma. Bunaqada o'zingni yeb qo'yasan.

Ergashev bu safar suvday simirdi. Badanlari yayradi.

— Qog'ozlar qayerda, yo'qotganmisan?

— O'zimga qaytib olib kelasan, degansiz-ku? Doim o'zingizga berardim-ku?

— Uydami?

— Ha.

— Hozir uyingga boramiz. Olib chiqasan. Seni yana shu yerga olib kelib qo'yaman. Birov bilmaydi. Uyingda yana pul-muling bormidi?

— Yo'q.

— Odam degan yolg'on gapishtidan oldin o'ylab olishi kerak. Senday baxil, senday ko'rnamak odamni uchratmaganman. Xasisliging boshingga yetay deb turibdi, bilyapsanmi? O'sha qirq uchni ham pastkashliging tufayli boy berding. Kallangni ishlat!

— Pul yo'q, rost aytyapman.

— Tilla-pillang bordir?

— ...

— Menga baribir. Tushganda sen chuv tushasan. Qirq uchni undirib oladi, deb qo'rhma. Bosh-ko'zimdan sadaqa u. Xohlasang yiqqan-terganlaringni menga berib qo'y, tinchiganingdan keyin qaytarib olasan. Qo'rqsang, tilxat beray. Ha... omonatlarim turgandir-a?

Ergashev o'ylanib qoldi. To'xtamish yuz mingning nari-berisidagi tilla tangalarни yashirib qo'y deb berib qo'yan, hozir uni xuddi arzimas narsaday, shunchaki gap orasida eslab qo'yganday edi. Bu bilan: «Men sen ga shuncha boyligimni ishonib qo'ysam-u, sen ishonmaysanmi?» — deb shama qilgan, Ergashev buni aynan tushungan edi.

— Quying, — u shunday deb piyolani uzatdi.

Ergashev qop-qorong'i xaltako'chaga kirib qolgan, To'xtamish boshlagan tomonga yurishdan boshqa imkon yo'q edi. U konyakni sipqorgach, o'rnidan turdi.

— Yuring...

To'xtamish mashinani bir ko'cha berida to'xtatdi.

— O'zing kirib chiq, — dedi Ergashevga qarab.

Zuhur tushib sal gandiraklab keta boshladi. To'xtamish xavotirlandi.

— Murod, tush, to'xtat uni, avval ko'chasiga qarab kel, tinchlikmikin?

Murod mug'ambir ko'cha kimsasiz ekanini xabar qilgach, Ergashevni qo'ltilqlab, sudrab ketdi. To'xtamish mashinadan tushib, ularga ergashdi.

Darvozani Ergashevning xotini ochdi. Ichkari kirib past ovozda iliq salomlashib, ko'ngil so'radi. Uyga kirishgach, Ergashev xotinini chiqarib yubordi. Yotoqxonaga o'tib, katta sandiq ustidagi shift baravar taxlangan ko'rpalarni yiqitdi-da, eng ostidagisining orasidan gazeta qatidagi qog'ozlarni oldi.

— Mana hujjatlar...

To'xtamish tunchiroq nurida tezgina qarab oldi.

— Endi anavi suratni oling. Men ololmayman. Boshim lo'qillab ketyapti.

To'xtamish Makkadagi machit suratini olib, to'shak ustiga qo'ydi.

— Orqasini oching. Tangalaringiz o'sha yerda. Meniki ham... Oltita javhar ko'z bor.

To'xtamish avval surat orqasini paypaslab ko'rdi. Qattiq narsalar borga o'xshadi.

— Balo ekansan, Zuhur, hech kimning aqliga kelmaydigan ish.

— Pul topgan odam yashirishni bilmasa topib nima qiladi?...

To'xtamish qog'ozni tatalab yirta boshladi. Qo'liga tanga ilindi. Shosha-pisha olib, chiroqqa tutdi: oddiy besh tiyinlik! Yana tatalab, bitta tangani oldi: yana besh tiyinlik! U vajohat bilan Ergashevni bo'g'di.

— Meni laqillatmoqchimisan, xunasa! Qani tangalar! Ayt, bo'lmasa o'ldiraman!

To'xtamish bu onda o'zini tamom yo'qotgan edi. Qirq uch mingning o'gurlatilgani, Kurganda shuncha pul keltirishi mumkin bo'lgan molning qo'ldan ketganiga chidagan edi, tillalarining yo'qolishi ko'zini qonga, yuragini beadoq g'azabga to'ldirib tashladи. U Ergashevni tobora qattiqroq bo'g'ar, nima gap ekanini hali fahmlab yetmagan Ergashev esa xirillab, tipirchilardi.

Shu payt kutilmaganda chiroq yondi-yu, ketma-ket yashin chaqnaganday bo'ldi. To'xtamish dovdirab Er-gashevni qo'yib yubordi. Eshik og'zida mayor Bo'tayevni ko'rib gangib qoldi. Dastlab nima voqeа yuz bergenini bilmay turdi. Keyin fikri tiniqlashdi-yu, mayorga bo'riday tashlandi. Mayor o'zini chetga oldi. To'xtamish suratkash yigitga urilib, uni yiqitib yubordi. Mayor To'xtamishni bilagidan ushlab, qayirdi. U toshdek qotdi.

To'xtamishni dahlizning o'ng tomonidagi katta xonaga olib o'tishdi. Xonada Nozima, To'xtamish tanimaydigan bir necha kishi va... viloyat ichki ishlar boshqarmasining boshlig'i polkovnik Sultonov bilan viloyat prokurori turardi. To'xtamish ikki yigit o'rtasiga o'tirdi. Dam o'tmay xonaga Murod mug'ambir bilan Shonazirni ham olib kirishdi.

— Ana, jamoa jam, endi tomoshani tugatsak ham bo'lar. Yana bir kishini taklif qilgan edik, u kishi o'tgan yili Omonturdiyevni tinch qo'yishimizni buyurgan edilar. Bugungi tomoshaga nima uchundir kela olmadilar. O'rtoq prokuror, hujjatlar bilan tanishgansiz. Grajdanim Omonturdiyev avvalo davlat mulkini talon-toroj qilishda, ko'zbo'yamachilikda ayblanadi. Shuningdek, yolg'on guvohlik berishda, qo'l ostidagi xodimani aldab, nomusiga tegishda, eng muhimi — qotillikka sheriklikda ayblanadi.

— Nima?! — To'xtamish xirildoq ovoz bilan baqirib yubordi.

— Ha, aynan qotillikda, bosh agronom Komil Sadirov o'ldirilgan. Latofat Hamidova uni aldab kanal yoqasiga olib borgan, Shonazir Shog'iyosov esa uni suv bo'yida poylab turgan. Hamidova kanalni suzib o'tib qochib ketgan. Komil Sadirov ko'p narsani bilardi. Omonturdiyev shundan hayiqqan.

— Yolg'on! U mening do'stim edi, hech kimga o'ldir demaganman!.. — To'xtamish yigitlarning qo'lidan chiqishga urinib tipirchilardi.

Jinoyatchilarni olib chiqib ketishdi.

Bu vaqtida tun yarmidan og'gan, tong yorishuviga picha vaqt bor edi.

***MURDALAR
GAPIRMAYDILAR***

(Qissa)

«Oyijon, «Baxtli bo'l», deb duo qilardingiz. Duolaringiz nima uchun qabul bo'l-madi? O'zim aybdormanmi? Endi nima bo'ladi? Dunyodan baxt nima ekanini bil-may o'tamanmi? Mening bo'larim bo'ldi. Bolalarim baxtli bo'lishsin, duo qiling, oyijon. Oyijon, duo qiling, menga ko'p umr-kerak emas. Zilolani kuyovga uzatganidandan so'ng bir yilgina yashasam yetadi. Zilolaning bolasini ko'rsam, beshik qilsam bo'ldi, keyin yoningizga chaqiring. Kuyovingiz bugun-erta qamoqdan chiqib kelsa ham men bolalarimni unga ishonib tashlab keta olmayman. U chiqib kelgani bilan baribir yana o'sha shiltasi bilan topishadi...»

...Nafsning kelajagi zulmdir, zulmning kelajagi esa xorlikdir. Biz ana shu oddiy haqiqatni bayon qilmoqchimiz. Badan pokligi badanga, ruh pokligi ruhga hayot bag'ishlar...

Bismillahir Rohmanir Rohiyim

«...Ana o'shalar hidoyatga zalolatni sotib olgan-dirlar. Va tijoratlari soyda keltirmadi hamda hidoyat topganlardan bo'lmadilar. Ular misoli bir o't (mash'ala) yoquvchiga o'xshaydilar. Olov endi atrofini yoritgani-da Alloh yorug'likni ketkazib, ularni hech narsani ko'r-maydigan holda zulmatlarda qoldiradi. Ular kar, soqov va ko'rdirlar. Bas, ular hidoyatga qaytmaslar...»

(Baqara surasi, 16—18-oyatlar)

MUALLIFDAN

Butun olamlar Parvardigori Allohga behad hamd bo'lsin va payg'ambarlarning oxirgisi — sayyidimiz Muhammad alayhissalomga salavot va salomlar bo'lsin.

Albatta, hamd Allohga xosdir. Biz unga hamd aytamiz, Undan yordam so'raymiz va Allohdan nafsimizning yomonliklaridan panoh berishini so'rab iltijo qilurmiz. Kimni Alloh hidoyat qilsa, uni adashtiruvchi yo'q. Kimni Alloh adashtrsa, uni hidoyat qilguvchi yo'qdur.

Eng ulug' so'zlar-u eng bilimli suhbatlar ham, shubhasiz, Tangri taologa shukrimizni keragicha ifoda eta olmaydi.

Yaratgan Robbimizga shukrlar bo'lsinkim, siz — aziz nafis adabiyot muhiblari bilan yana dillashish nasib etyapti. Bu safar ham adashgan bandalar hayotidan ayanchli lavhani bayon etishni niyat qildim. Chunki bu sinovli dunyoda adashgan bandalar ko'p. Ulug' va qudratli Robbimiz marhamat qilib derki: «Odamlarga ayollardan, bolalardan, to'p-to'p tillo va kumushdan, go'zal otlardan, chorvadan, ekin-tikindan iborat shahvatlarning muhabbati ziynatlandi. Ular dunyo hayotining matohidir. Allohning huzurida esa husnli qaytar joy bor». (*Oli Imron surasi, 14-oyat*).

Tafsirchi ulamolarning fikricha, «shahvat» so'zi urfdagi jinsga oid ma'noda ishlatsa-da, aslida o'zagi «ishtaha» so'zidan olingen bo'lib, ko'ngil tusashi, xohlashini bildirar ekan. Shunga ko'ra oyati karimada insonning ayollar-

ga, farzandlarga, boylikka ishtahasi mavjudligi, ya’ni shu narsalarga muhabbatchi chiroqli tarzda ziynatlangani ta’kid etilmoqda. «Demak, bu muhabbat insonning asl tabiatida bor ekan. Bunday holatning bo‘lishi tabiiy bir hol ekan. Modomiki, ushbu rag‘batlar inson tabiatida bor ekan, Allohning o‘zi insonni shunday yaratgan ekan, bu narsalar inson hayotini muhofaza qilishda, uning go‘zal va zavqli kechishida xizmat qilmog‘i lozim. Shuning uchun Islom dini mazkur narsalarni harom qilgan emas, balki muboh qilgan. Bu narsalarni man qilishni emas, tartibga solishni yo‘lga qo‘ygan. Islom kishilarni tarbiya qilib, shahvat daryosida halok bo‘lmashlikka chaqiradi. Inson mazkur shahvatlarning quli bo‘lib qolmasligi kerak. Balki ularning xojasи bo‘lib, o‘z tasarrufiga olishi darkor» (*«Tafsiri hilol»dan*). Oyati karima «Allohning huzurida esa hüsnlı qaytar joy bor», deb yakunlanadi. Bu joy — jannati naimdir!

Moziyda o‘tgan valilardan biri: «Dunyo — o‘tkinchi mehmonxonadir. Dunyodagi eng ulug‘ boylik — dunyoga berilmashlikdir. Dunyoni afzal bilgan kishi zillatga, xorlikka hukm etilib, halok bo‘lur», — degan ekan. Yana roviylar derlarki: dunyo yasatilgan kelinchakka o‘xshaydir. Ko‘zlar unga termilgan, qalblar unga mushtoq, nafslar esa unga oshiqdir. U makkor esa barcha oshiqlarni shafqatsiz holda birma-bir halok qiladir. Hayotdagi tiriklar o‘lganlardan, keyingilar oldingilardan ibrat olmaslar...

Hisob-kitob qilinmasdan burun nafsinu tiygan kishi yutadi. Nafsi bilan g‘aflatda qolgan esa zararga uchraydi.

G‘aflatda qolib nadomat chekkanlar qancha?

Qabriston bizga sukunat olami bo‘lib ko‘rinadi. Aslida oh-u faryodlar o‘lkasidir! Biz bu faryodlarni eshitmaymiz, bilmaymiz. Shu bois biz mayyitlarning kechmishidan ibrat olmaymiz. Agar tinglay olganimizda edi...

«Murdalar gapirmaydilar», — deymiz. Bizga shunday tuyular? Balki ular gapirarlar, biz eshitmasmiz? Eshitsakmi edi...

M U Q A D D I M A

Nafisani qarg'adilar:

- O'ynashi bilan yotgan ekan, sharmanda!
- ... Sharmanda... Sharmanda...
- So'yib o'ldiribdi. Xudoning o'zi jazolabdi!
- ... O'zi jazolabdi... Jazolabdi...

Nafisaga achindilar:

- Tirnoqqa zor o'tdi, bechora...
- ... Bechora... Bechora...

Sanjarni la'natladilar:

- Suyuqoyoqqa ilakishib yurgan ekan, yigit o'lgur!
- ... Yigit o'lgur... Yigit o'lgur...
- To'rt bolasi ko'ziga ko'rinnabdi-da haromxo'rga!
- ... Haromxo'rga... Haromxo'rga...

Sanjarga achindilar:

- Qo'y og'zidan cho'p olmagan bola edi, bechora!
- ... Bechora... Bechora...
- O'zi pokiza edi, shayton yo'ldan urgan!
- ... Pokiza edi... Shayton yo'ldan urmagan... Urman-

gan...

Ikki murda o'likxonada tekshiruvchilarning o'tkir tig'ini kutib yotibdi. Hademay o'tkir tig' ularning qorni, ko'kragi, boshini yoradi. O'lik hujayralarda yashiringan haqiqatni o'qimoqchi bo'lganday titkilashadi. So'ng yorilgan yerlarini tikib, o'liklarni egalariga beradilar.

Nima uchun o'lim topganlaridan bexabar qolgan ikki odam esa Qiyomatni kutib yotmog'i uchun qorong'i lachadga qo'yiladi.

So'ng pichir-pichirlar:

«Xotinlarga aralashadigan odati yo'q edi-ku?...»

«G'arko'z edi bu juvon...»

«Kim o'ldirgan ekan?»

«Eri avval ham bir-ikki ushlab, kechirgan ekan. Lalaygan bir erkak-da! Bu safar chidolmabdi, boyaqish...»

“Ikkovini so'yib yaxshi qilibdi...”

ARRALANGAN DARAXT

O'zini osmon tirgovichi deb faraz qiluvchi kekkaygan daraxt jazosini arra berdi: u o'zidan oldingi og'ochlar qismatiga yetdi — jon tomiri uzilib, yerga uzala tushdi.

Tursunali bu manzarani dastlab ko'rganida o'zining kechmishini shu daraxt qismatiga o'xshatgan edi. Uning qaddi ham shu og'och kabi adl edi. U makon topgan daraxtzor, nazarida, daxlsiz edi. Bu daraxtzorda istaganicha quyoshdan nur emishi, huzurlanib chayqalishi mumkin edi. Tomirlari tobora kuchliroq qudrat kasb etib borardi. Ammo kutilmaganda uning daraxtzoriga bolta oraladi: bir chekkadan chopacha boshladi. Navbat o'ziga yetganida unutilayotgan rivoyatni esladi. Emishki, bir o'rmonda bolta paydo bo'lib, daraxtlarga qirg'in keltiribdi. Og'ochlar unga qarshi chora topolmay, qari Emandan maslahat so'rashibdi. «Bolta deganlaring nima o'zi? U nimadan ishlangan?» — deb so'rabdi Eman. «Bolta — temirdan yasalgan bir matohdir», — deb javob beribdilar. «O'zi-ku temir ekan, dastasi-chi? Dastasi ham temirdanmi?» — deb so'rabdi Eman. «Yo'q, — debdilar, — dastasi og'ochdan, o'zimizdan». «Dastasi o'zimizdan bo'lsa, unga chora yo'q», — degan ekan Eman.

Tursunali makon topgan «daraxtzor»da «bolta» paydo bo'lishi bilan unga dasta bo'lishga oshiquvchilar ko'paydi. Oqibatda Tursunalining ildizlari chopildi-yu, sovxoz direktorligidan raykom sarkotibligiga o'taman, deb niyat qilib turgan odam egniga mahkumlarning paxtali kalta chophonini kiyib, uzoq sovuq o'lkadagi daraxt kesuvchilar safida o'zini ko'rди. Uyqusiz kechalarda bu baloga mubtalo bo'lish sabablarini ko'p o'yлади. Tuzini yeb, tuzlig'iga tupurganlarni la'natladi. Do'st libosidagi ilonlar boshini birma-bir yanchishni diliga tugdi.

Xudoning qarg'ishi tekkan bu joylarga kelgunicha bo'lган o'tmisht kunlarini eslasa, ko'z oldini zulumot pardasi qoplayveradi. Bu zulumotni gohi-gohida faqatgina bir nur yoritardi. Bu nur Nafisaning chehrasidan taralardi.

Shunday paytda Nafisaning dimog‘idan taralgan iliq nafas unga tirkilik shuurini berardi. Azobli kechalarda ham farzandlarining onasi, halol juftiga nisbatan shu Nafisani ko‘proq o‘ylardi, uni qo‘msardi. Bunga ba’zan o‘zi ham ajablanardi. «Nima bu? Shunchalik qattiq sevarmidim?» — deb o‘ylardi. Tursunali shahvoni hirs bilan sevgi farqini ajrata oluvchi aqlga ega emasdi. Buni sinamoq uchun Nafisaga nisbatan yoshroq, go‘zalroq, ishvalari shirinroq qiz ro‘para qilinsa, bas. U «sevgi» deb o‘ylab yurgan tuyg‘u o‘lardi-qolardi. Hozircha Nafisaning birinchi tunda shivirlab aytgan: «Munchalar yaxshi ekansiz», — degan gapi qulog‘i ostida turibdi. O‘zga iliq nafas bilan aytishi mumkin bo‘lgan shunday so‘z o‘tmish totli kechalar yuziga qora parda tortmog‘i tayin. «Ahmoq bo‘lib shu juvonga ilakishib yurgan ekanman. Dunyoning lazzati bu yoqda ekan-ku?” — demog‘i ham aniq edi...

Ammo hozir u bularni o‘ylamaydi, orzu qilmadi. Uning dardi ham, niyati ham bir — tezroq bu o‘laksazordan qutulish! Qachon, qanday qutuladi — bandasiga qorong‘i. Yurtida uning uchun kuyib-pishadigan, pul sarf qilib, ozodlikka chiqarish uchun tashvish chekadigan odami yo‘q. Demak, yana o‘n to‘rt yil mahbuslik libosida yurmog‘i rostga o‘xshab turibdi.

Tursunali ana shu og‘ir dard tog‘ini yelkasiga ortgan holda o‘ringa cho‘ziladi, sahar chog‘i shu yuk bilan qaddini rostlaydi. Ba’zi erkaklar yig‘laydilar. Ba’zilari dardlarini aytib, hasrat qiladilar. Tursunali dardini kimga aytsin, kimga yig‘lasin, kimga hasrat dasturxonini ochsin?!

Bir yigit kelib edi. Istarali bu yigitning pokiza odam ekanini yuzidan yog‘ilib turgan nur oshkor etib turardi. Tursunali: «Bu yigitni menga Yaratganning o‘zi yetkazdi», — deb quvongan edi. Bugun bu quvonch ham bal-chiqla qorishadiganga o‘xshab turibdi. Tursunali shu xavotirda daryo tomonga qarab-qarab qo‘yadi. Yigitni sohildagi qo‘lbola chayla tomonga boshlab ketganlar. Bu yerga kelgan kunining yo uchinchi, yo to‘rtinchchi kuni Tursunali ham shu chayladagi suhbatga chorlangan edi. O‘shanda qo‘liga bolta olib arralab yiqitilgan daraxt shoxlarini endi butay boshlagan edi. Pachoqburun bir mahkum yaqinlashib, he yo‘q, be yo‘q:

— Ey chuchmek, yur bu yoqqa! — deb buyurdi.

Tursunali u damda osiyoliklarning «chuchmek» deb atalishini bilmas edi. Shu sababli murojaat kimga qaratilganini anglamay:

— Menga aytyapsizmi? — deb so‘radi.

Pachoqburun hech bir takallufsiz Tursunali tomon chirt etib tupurdi-da, labini kafti bilan artdi:

— Senga aytyapman! — deb to‘ng‘illadi.

Chakalak orasidagi yolg‘izoyoq yo‘ldan borayotganida Tursunalining yuragiga vahm oraladi. U «zona» deb atalmish qamoq lagerlaridagi odam o‘ldirishlar haqida eshitgan edi. Bu Pachoqburunning so‘xtasi bunchalar sovuq bo‘lmasa! Onasidan tug‘ilibiq odamxo‘rlikni kasb qilib olganini basharasining o‘ziyoq aytib turibdi. Ana shu bshara Tursunalini qo‘rquvga soldi. Agar hozir unga: «Bu odam qotil emas, qulfbuzarlarning ustasi», — deb haq gap aytilsa ham ishonmagan bo‘lardi.

«O‘ldirgani olib ketyaptimi?» — deb o‘yladi Tursunali. So‘ng: «Nimaga o‘ldiradi? Endigina kelgan bo‘lsam?...» — deb o‘ziga-o‘zi tasalli berdi. Qamalganidan beri mutelik jandasini egniga ilib, soqchi «Yur!» deb buryurganda yurib, «O‘tir!» desa o‘tirib, «Qo‘lingni orqaga qil!» desa qo‘lni orqaga bog‘lab turishga ko‘nikib qolgan Tursunali bu safar ham yuvvosh qo‘y kabi «qassob» — Pachoqburunning yetovida yurib borardi. Tursunalidan qo‘y ham tuzuk. Qo‘y qassobni ko‘rganida ma‘rab qo‘yadi. Tursunali esa aqalli bir og‘iz gap aytishga ojiz.

Chakalakzordan o‘tib, daryo sohiliga chiqishdi. Shox-shabbalardan yasalgan qo‘lbola chaylaga yaqinlashganda Pachoqburun orqasiga o‘girilib:

— Shu yerda to‘xta! — deb buyurdi.

«Yuvosh soqov qo‘y» amrga itoat etdi.

Hali quyosh ko‘tarilib, borliqni ilita olmagan bo‘lsada, chayla xojalaridan ikki kishi yarim yalang‘och holda o‘tirib tamaddi qilishardi. Pachoqburun ularga yaqin borib, buyruq ado etilganini ma’lum qilgach, xojalardan biri Tursunali tomon qarab qo‘ydi-yu indamay lunjidagi taomni chaynayverdi. Pachoqburun u yerda, Tursunali esa yigirma qadam berida xoda yutganday tik turib, ularning

taomdan bo'shashlarini kudilar. Nihoyat, qorin to'yib, nafs orom olgach, yaqinlashmoqqa ijozat bo'ldi.

Tursunali ulardan birini tanidi: u ichki qo'shinlar mayori kiyimida yuradigan, oshxonadagi tartibni kuzatuvchi odam edi. Rezina tayog'ini ko'z-ko'z qilib, o'ynatib yuruvchi bu mayor tartib buzuvchining gardaniga ayamay urib qolardi. Qo'li qichib turgan bo'lsa-yu, tartib buzilmasa, sho'rvasini xo'rillatib ichayotgan odamning ham gardaniga tushirib qolishdan toymasdi. Mayor oshxonada kimning yoniga yaqinlashsa, o'sha odam iloji bo'lsa ovqatni chaynamayoq yutishga harakat qilardi. Chaynalma-gan ovqatni oshqozon hazm qilib yuborar, ammo gardan-ning rezina tayoq zARBini hazm qilishi qiyinroq edi.

Tursunali yaqinlashgach, mayor o'rnidan turib, ikki qadam naridagi ko'katlar ustiga tashlangan kiyimlar yoni-dan tayog'ini olib, chap kaftiga urib qo'ydi-da, uning or-qasiga o'tdi.

«Uradi, shekilli?» — deb o'yladi Tursunali. Orqadan zARB kutgani uchun u beixtiyor bukchaydi. O'tirgan odam uning bu holatini ko'rib kuldi-da:

— Qo'rhma, urmaydi, — deb ovutdi.

Bu odamning kulishi o'ziga yarashardi. Tim qora ko'z-lari pachoqburunni yoki orqada turgan malla mayorniki kabi yovuzlik bilan boqmasdi. Qaldirg'och mo'ylabi ham o'ziga yarashgan edi. Shu sababli Tursunali uni mahkum emas, shu yerning kattalaridan deb o'yladi.

— Men — Tengizman. O'tir, bugun sen menga qo'-noqsan.

Bu ismni eshitib Tursunali ajablandi. Chunki u kel-gan kuniyoq yotoqdagi qo'shiniidan: «Bu yerning asl xo'jayini polkovnik emas, ashaddiy o'g'riboshi Tengiz bo'ladi», — degan gapni eshitgandi. «Tengiz» deganlari umri qamoqda o'tgan, pachoqburun kabi xunuk bashara keksa odam deb o'yagan edi. O'zidan yoshroq bir yigit-nинг: «Men — Tengizman», — deyishi shu sababli ham uni ajablantirdi.

— Gapimni eshitdingmi? Kel, o'tir.

Tursunali itoat bilan xuddi qaynonasini kiga birinchi marta kelgan uyatchan kuyov kabi o'tirdi. «Ol, ye», —

degan taklifni o'rinalatib bajarolmadı. Bir-ikki tishlam non yeb, maydalangan go'shtga qo'l uzatmadı. Yegisi kelib turgan bo'lsa ham ko'ngli tortmadı. Qamalguniga qadar ovqatlarning sarasini yeb o'rgangan odam dasturxon ustidagilarni sarqit deb bilib, irgandi. Mehmonga kechikibroq borsa, darhol dasturxon yangilanardi... Endi o'sha kunlar ning sadag'asi ketsa arziydi...

Har bir harakatini diqqat bilan kuzatib o'tirgan Tengiz nafsn yengishga nima sabab bo'layotganini sezdi:

— Hazar qılıyapsanmı? Nega yemayapsan?

— Hazar qilayotganim yo‘q. Qornim to‘q.

— Hozircha yangisan. Yana uch-to'rt oy o'tsin, birov chaynab tashlagan chandirni ham ko'zingga surtib yeydigan bo'lib qolasan. Sen menga qo'noqsan. Ol, ye! Meni ranjitma!

Avvalgi taklif endi buyruqqa aylangach, Tursunali bextixtiyor go'shtga qo'l uzatdi. Bu buyruqdan so'ng «qorni to'q odam» dasturxonni yamlab yutayozdi. U ovqatlanib bo'lgach, Tengiz dasturxonning bir uchini qayirib yopidda, Pachoqburunga qaradi. Buyruqqa mahtal turgan mulozim bu qarashning ma'nosini uqib, dasturxonni yig'ib oldi-yu, nari ketdi. Tengiz mayorga ham bir qarash qilgan edi, u kiyimlarini qo'ltilqlab, chayla ortiga o'tdi.

— Toxtayev, gap bunday, — dedi Tengiz xoli qolishgach.

«Mening familiyamni qayerdan bila qoldi?» — deb ajablandi Tursunali. So'ng: «Qamoq lageri boshlig'idan ustunroq mavqedagi odamga shuni bilish qiyin ekan-mi?» — deb qo'ydi.

— Sen, albatta, tuhmat bilan qamalgan bo‘lishing kerak, a?

Qora bulut choki so‘kilib, birdan quyosh charaqlagan-day bo‘ldi: Tengiz Tursunalining ko‘nglidagi gapni topib aytgan edi.

— Ha, tuhmat bilan qamashdi, — dedi Tursunali yutinib.

— Bu yerdgilarning hammasi o‘zini passajir deb hisoblaydi. Seni bu yerga tuhmat boshlab kelmagan. Xassislik qilgansan. Pupkarlarni vaqtida moylash kerak edi.

¹ Passajir – qamoqda vaqtincha o‘tiruvchijar.

- Kimni?
- Milisani! Nima, bunaqa so'zlarga tushunmaysan-mi?
- ...
- «Passajir» — tasodifan qamalgan odam.
- Ularni... rosa moylaganman. Bekorga yeb ketishdi.
- Yetarli moylamagansan. Molning chanqog'ini to-mizg'ichdagi tomchi suvlar bilan qondirib bo'ladimi?
- Bizning ish Maskovning qo'lida edi. Ularni che-laklab ham sug'orib bo'lmas ekan.
- Bo'lmaydigan ish yo'q bu dunyoda, To'xtayev! Ni-ma uchun Moskva senlarga yopishdi, bilasanmi?
- Yo'q, bilmayman.
- Otam rahmatli aytib berardilar. Urush mahalida ik-kiita o'zbekka bitta miltiq berisharkan. «Bittang o'lsang, ikkinching olib otaverasan», — deyisharkan. Otalaring shunga ham ko'naverishgan. Senlar ham otalaringga o'xshagan laqmasanlar. Ahil emassanlar. Bir-birlaringni sotishni yaxshi ko'rasanlar. Kozyol¹ ham ko'proq sen-lardan chiqadi. Senga o'xshagan sovxozi direktori boshqa yerda yo'qmi? Muttaham, poraxo'r hamma yerda to'lib yotibdi. Bunaqlar Armanistonda yo'qmi? Be, senlardan ko'ra ko'proq u yerda. Lekin Gobelyan u yoqqa bormaydi. O'zinikiga tegmaydi. Senlarning yarningni qirib tashla-sa ham g'ing demaysan-da. Qani, Gorbach armanilarga tegib ko'rsin-chi! Moskvangning oyog'ini osmondan qilib yuborishadi. Senlar esa... — Tengiz hafsalasi pir bo'lib qo'l siltadi. — Senlar mishiqlaringni oqizib, «Tuhmatdan qamaldim», — deb yig'lab yuraverasanlar. Endi gap shu, bilmasang bilib ol: men — o'g'riman! Ochiqda yurga-ningda mendaqalardan nafratlanarding, a?
- Yo'q... nega?
- Talmovsirama. Biz, o'g'rilar, senlarning nazarla-ringda eng pastkash odamlarmiz. Aslida esa senlar past-

¹ Kozyol — qamoqxona ma'muriyatiga faol yordamchi, mahkumlar nazarida esa sotqin.

E s l a t m a: qamoqxonadagilar, xususan, o'g'rilar tiliga xos ayrim iboralarni tarjima qilmay, aslicha yozishni ma'qul ko'rdik (muallif).

kashsanlar. Biz o'g'rimiz, bu bilan faxrlanamiz. Bilib qo'y: eng halol odamlar bizlarmiz. Shuning uchun ham odamlar taqdirini hal qilish huquqiga faqatgina bizlar egamiz. «Chestnyaga» degan so'zni eshitganmisan? Ana o'shalar bizlarmiz. Bizda halollikdan bir enlik ham nari-beri chekinilmaydi. Do'stga xiyonat yo'q. Kim bunga jur'at etsa — boshi ketadi. Senlarda halollik bormi? Sadoqat bormi? Yo'q! Hech narsa yo'q! Oldingda ikki yo'l bor: agar tirik qolsang, o'n to'rt yildan keyin uyingga borasan. Umring qisqa bo'lsa, shu yerda o'lib ketasan. Bilib qo'y, bu yerlarda ilonlar ko'p. Bir chaqishda o'ldiradi. Agar xizmatimizni bekam-u ko'st qilsang, seni ilonlardan o'zimiz qo'riqlaymiz.

— Nima xizmat buyursangiz... tayyorman!

— Nima balo, pionermisan, doim tayyorman, deysan? Sen o'ylab, shoshilmay javob ber.

— Shoshilsam-shoshilmasam, menga suyanadigan bir tog' kerak-ku?

— Tog', dedingmi? Yaxshi aytding. Sen suyanadigan tog' bor. Ammo... — Tengiz jilmaydi. Bu jilmayish avvalgiday beg'ubor emas, balki ayyorlik yeli bor edi unda.— Ammo suyanish uchun tog' haqini to'lashing kerak. Ochiqlikda har oy maosh olardingmi? Ha, olarding. Xuddi shunga o'xshab suyanadigan tog' haqini har oyda to'lab turasan. Sen bugun xotininggami yo o'ynashinggami bir xat yozasan. Har oyda pul yuborib turadi.

— Pul? Qanchadan?

— Buni xat olib borgan odam aytadi.

— Pulni bu yoqqa yuboradimi?

— Bu sening ishing emas. Pulni bizga tegishli odam borib oladi. Agar shartimizni bajarmasang, avvaliga tramvaya qo'yamiz. Keyin bezpredelshik¹ning ermagiga topshiramiz.

Ertalabki mehmondorchilik ana shunday «shartnomani imzolash» bilan yakunlandi. Shart bajarilmagan taqdirda Tursunali o'zini qanday jazo kutishini kech yotar mahalida

¹ Sadizmni xush ko'ruchchi, hatto «qonundagi o'g'rilar»ning ham odatlarini tan olmaydigan vahshiysi sat odam.

bildi. Yotoq qo'shnisidan «tramvayga qo'yish» nima ekanini so'rab, «Seni hammomga olib kirib, yigirma-o'ttiztasi galma-gal «gplashib» chiqsa, tramvay bo'ladi», — degan javobni olganida badani muzlab ketdi.

Hozir, Nuriddin ketgan chayla tomonga qarab turgan chog'da ham shu tadbir esiga tushib, Tursunali bir seskandi.

Kecha zonaga olib kelingan yigit Tursunaliga xush yoqib, «Mening xaloskorim shu», — deb o'ylagan edi. Yoshi yigirma beshni qoralagan bu yigit o'zini Nuriddin deb tanishtirdi. Besh yil muqaddam qamoqqa solingan Nuriddin uchun bu yer uchinchi lager edi. Bu yerga kelguniga qadar avval Ukraina, so'ng Turkmaniston qumliklarida pishgan bu yigit yana o'n yil umrini shunday sarsonlikda o'tkazmoqqa mahkum edi.

Nuriddinning darhol Tengiz suhbatiga chorlanishi qamoqxona olami qonunlaridan uzoq bo'lgan Tursunali uchun tushunarsiz edi.

Tengiz Nuriddinni dasturxonga taklif etmadi — tog'iliklar odatiga sodiq qolmay, mehmonni izzat qilmadi. Bir necha daqiqa tik turgan holda gplashishgach, chayladan baquvvat yigit chiqdi-yu, olishuv boshlanib ketdi. Tepadan kuzatib turgan Tursunali yigitga achindi. Boltani ko'tarib yugurgisi, uni himoya qilgisi keldi. Ammo bu xohish chaqmoq umri kabi qisqa edi. Xohish chaqmog'i so'nib, joni ko'ziga ko'ringach, o'zini tiydi.

— Hay chuchmek! Sen uchun men ishlaymanmi?

Bu ovoz Tursunalini hushiga keltirdi. Chayla tomonga boshqa qaramay, daraxt shoxlarini butay ketdi.

Pastda nima voqeя yuz bergenini o'ng qoshi yorilgan, chap bilagi tilingan, badani musht va tepki zarblaridan mo'mataloq bo'lgan Nuriddin yotar mahalida aytib berdi.

«IMOM HAMZAT»

Bunday suhbatga chorlanish Nuriddin uchun yangilik emasdi.

Chakalakzordan o'tib, sohilga yaqinlashganida chayladan Tengiz chiqdi. Pachoqburunning amri bilan Nu-

riddin beriroqda to'xtadi. Tengiz uning ro'parasida turib olib, boshdan oyoq tikildi. So'ng u tomon uch-to'rt qadam qo'ydi.

— Senga «eshshak» deb laqab qo'yishibdi. Nima uchun aynan «eshshak»?

Nuriddin Tengiz tikilganida ko'zlarini olib qochmadi. «Sendan qo'rqa digan odam emasman», — deganday tik boqqanicha turaverdi.

— Gapimga javob ber: nima uchun seni «eshshak» deyishidi?

— O'zlariga o'xhatishmoqchi bo'lishgandir.

— Shunaqami? — Tengiz istehzoli jilmaydi. — Sen qaysar emishsanmi?

— Beayb Parvardigor.

— Shunaqami? — Tengiz unga yanada yaqinlashdi. — Sheringingni nima uchun otib tashlagan eding?

— Ablahligi uchun.

— Kofirligi uchun emasmi?

— Kofirning ham insofisi, vijdonlisi bor. Kofirning ham o'ziga yarasha e'tiqodi bo'ladi. U kofir emas, ablah edi.

— Bublikni taniysan, a?

Tanimay-chi?! Nuriddin Turkmanistondagi lagerga kelganidan to ketgunicha u bilan it-mushuk bo'lib yashadi. Boshdag'i soch yetmaganday, qoshlarigacha qirib yuruch'i bu odamni hamma «Bublik» der, ko'pchilik undan hayiqib yurardi. Nuriddin esa unga «maymun» deb laqab berib, bo'ysunishni istamagan edi.

— Bublikni taniysan, — dedi Tengiz undan javob kutmay. — Bublik sendan xafa. Xizmatidan bo'yin tovlabsan. Nega xizmatini qilmading?

— Men uning quli emasman.

— Qiziq... qiziq... Sen yanglishma, esh... bola, kimdir kimgadir qul bo'lishi kerak. Bu dunyo o'zi shunaqa. Sening qullikdan o'zga chorang yo'q. Yo qul bo'lib yashaysan, yoki o'lasan!

— Odamning qulligi to'g'ri. Lekin siz ham yanglishmang. Odam faqat Yaratgangagina quldir. Banda bandaga qul bo'lmaydi. Ayniqsa, musulmon kofirga qul bo'lmaydi.

- Men Tengizman! Mening xizmatimni qilasanmi?
- Yo‘q.
- O‘ylab javob ber.
- Bublikka nima javob qilsam, sizga ham javobim shu.
- Mendan qo‘rqmaysanmi?
- Nega qo‘rqishim kerak? — Nuriddin unga tik qaraganicha jilmaydi. — Siz meni urarsiz, nari borsa o‘ldi-rarsiz. Odamlar o‘limdan qo‘rqadilar. Ularning nodonligi ham shunda. Qo‘rqligining qo‘rqmasa baribir o‘ladiku? Men o‘limdan qo‘rqmayman. Demak, sizdan ham qo‘rqmayman. Men faqat Allohdan qo‘rqaman.
- Durustsan, bola! Ammo o‘limning har xili bo‘ladi. Yoshlikda o‘lib ketaverish alam qiladi. Men, masalan, hozir o‘lishni istamayman. Hali ko‘p yashashim kerak. Ko‘p odamlar bilan hisob-kitobim bor.
- Bu siz bilan mening istagimga qarab bo‘ladigan ish emas. Bu yog‘i taqdir yozug‘imizga bog‘liq. Lekin Xudo sizga uzoq umr berishi mumkin.
- Nega? — Tengiz Nuriddinning gapidan chindan ham ajablandi.
- Allohning va’dasi bor: ba’zi odamlar yanada ko‘proq gunoh qilib olishlari uchun ularning umrlarini uzoq qilar ekan.
- Bu gap Tengizga yoqmadidi:
- O‘chir ovozingni! — deb jerkib berdi.
- Bu mening gaplarim emas...
- O‘chir deyapman! Menga qara, qaysarliging uchun senga «eshshak» deb laqab berishgan. Xo‘s, eshshakligingcha qolasanmi yo biz aytgan yo‘lga yurasanmi?
- Siz aytgan yo‘lga yurmayman, ovora bo‘lmang.
- Unda o‘lasan.
- Buni Xudo biladi.
- Yaxshi, mardliging ham bor ekan. Mayli, seni itday xorlatib o‘ldirmayman, erkakday o‘lishing uchun imkoniyat yaratib beraman. Mening odamim bilan yakkama-yakka olishasan. Tanla: musht bilanmi yo tig‘ bilanmi?
- Tanlash huquqini sizlarga berdim. Odamingizning chog‘i nimaga kelsa, shunday olishsin.

— Katta ketma, bola! Demak, bunday: avval musht bilan, keyin tig‘ bilan!

Raqibini pichoq bilan nobud qilguday bo‘lsa, boshiga balolar orttirishi mumkinligini bilgan Nuriddin tig‘ni rad etdi:

— Ikkala imkoniyatni odamingizga berdim. Men mushtimga ishonaman.

— Katta ketyapsan, bola! Bilib qo‘y: bu olishuvda fagat bitta odam tirik qoladi.

Tengiz shunday deb uch qadam chekindi-da:

— Bifshteks! — deb chaqirdi.

Mushaklari o‘ynab turgan baland bo‘yli yigit hayallamadi. Har qanday raqibini qiymalab tashlashga qodir bo‘lgani uchun «Bifshteks» laqabini olgan bu yigit Tengizning birgina imosidan maqsadini anglab, jangga hozirlandi. Tengiz hali jang maydonini bo‘shatmay turib keskin tarzda bir aylandi-da, raqibining jag‘ini mo‘ljallab tepmoqchi bo‘ldi. Nuriddin garchi bu qadar tez hammani kutmagan bo‘lsa-da, jangga shay edi. Shu bois jag‘ini tepki zarbiga ro‘para qilib qo‘ymadi. Keskin engashib, shu asnoda mushtini ishga solishga ulgurdi. Bifshteks kuchli zarbaga mo‘ljallab havolatilgan oyog‘ini idora qilishga ulgurmay nozik yeridan musht yeb, bukchayib qoldi. Nafasi qaytib, ingrab yubordi. Nuriddin uning o‘ziga kelib olishini kutib, chekindi.

— Payti kelganda urib qol! — dedi Tengiz.

— Men nomard emasman, — dedi Nuriddin raqibidan ko‘z uzmay.

— Unda o‘zingdan ko‘r. U senga mehribonlik qilib o‘tirmaydi.

— Mehribonligiga zor emasman.

— Rostdan ham eshshak ekansan! — Tengiz shunday deb sigaret tutatdi. So‘ng o‘zini hanuz o‘nglay olmayotgan mulozimining ketiga tepdi. — Bir mushtlik holing bormi, bundan ko‘ra o‘lganining yaxshimasmi? Bo‘ldimi, ketaversinmi?

— Yo‘-o‘q! Bu yerdan bitta odam ketadi. Men hozir uni qiymalab tashlayman! — Bifshteks shunday deb

cho'ntagidan buklama pichoq chiqarib, tugmachasini bosdi; dudama tig' oftobda yaltillab ketdi.

Nuriddin uchun bu birinchi olishuv emasdi. Shu sababli dovdirab qolmadni. Yengil harakat qilganicha Bifshteksni chalg'itib, birin-sirin zarbalar bera boshladi. Faqat bir marta tig' uning chap bilagini tilib o'tdi. Tilingan yerdan sizib chiqqan qonni ko'rib Bifshteks mamnun jilmaydi. Buni jon olg'uvchi asosiy zarbaning debochasi deb o'yldi. Ha, chindan ham bu asosiy zARBalarning boshlanmasi edi. Ammo zARBalarni u emas, Nuriddin berdi. Ketma-ket tepki zARBalari uning hayot-mamotini hal qildi: avval jag'i siniib, iyagi uzilib, uchib ketay dedi. Keyingi tepki bo'g'zini pachoqladi. Nafasi bo'g'ildi. Ko'ziga qon to'lgan Nuriddin uning bu holini ko'rmadi. Chaqqon sakradi-da, ikkala oyog'i bilan uning ko'kragini mo'ljallab tepdi. Tepish asnosida o'zi ham chalqancha yiqilib, bir necha nafas huShini yo'qotdi. Hushiga kelgach, tepasida pichoq sanchishga tayyor turgan Bifshteks paydo bo'lishini kutdi. Sakrab turmoqchi edi, badani o'ziga bo'ysunmadi. Yana ikki-uch nafas behol yotib, so'ng qaddini asta ko'tardi. To'rt-besh qadam narida uzala tushgan Bifshteksni, tiz cho'kkanicha uning bilagini ushlab ko'rayotgan Pachoqburunni, uning tepasida sigaret tutatib turgan Tengizni ko'rib olishuv yakunlanganini fahmladi.

— O'libdimi? — dedi Tengiz sigaret qoldig'ini nari uloqtirib. — O'libdimi?! Nega baqaga o'xshab angrayasan?

Pachoqburun tasdiq ishorasini qilib o'midan turdi. Tengiz orqasiga o'girilib, Nuriddin tomon yurdi.

— Ko'rningmi? O'libdi. Eng yaxshi odamimni o'ldirding. Xo'sh, endi nima qilamiz? Qolgan o'n yilingni yigirma beshga aylantiramizmi? Yo menga qo'shilasanmi?

Nuriddin o'midan turib, labidagi qonni artdi.

— Sizga qo'shilsam, urishib o'tirmas edim.

— Sen oliftagarchilik qilma, baribir sinasan.

— Sinishdan oldin o'zimni o'ldiraman.

Tengiz bir so'kindi-da, o'girilib Pachoqburunga bairidi:

— Nimaga lallayasan?! Ko'tar, daryoga tashla.

Kumga¹ borib, Bifshteks qochdi, deb ayt. Keyin lepilani² boshlab kel.

Qamoq lagerining tabibi kelib, yarani bog'lab, muolaja qilib ketgach, Tengiz Nuriddinni chaylaga boshladи. Eski gazetalardan iborat «dasturxon» usti betartib edi. Pachoq-burun kirib, chala yegilgan non-go'shtlarni yig'ishtirib chiqib ketgach, Tengiz alumin krujkaga to'latib aroq quyi-da, mehmonga uzatdi. Nuriddin uni olish uchun qo'l ham uzatmadi.

— Ha, — dedi Tengiz qoshlarini chimirib. — Hazar qilyapsanmi?

— Ichmayman, — dedi Nuriddin. So'ng tarang vaziyatni yumshatish maqsadida qo'shib qo'ydi: — Shu payt-gacha ichmaganman.

— Namoz o'qiysanmi?

— Yo'q.

— Unda menga o'xshagan chala musulmon ekansan. Ichmaydigan odamlarni hurmat qilaman. Ichishni anavi to'ng'izlarga chiqargan. Bu nima, bilasanmi?

— Aroqni aytyapsizmi?

— Ha, sen bilan men buni aroq deymiz. Aslida bu bizning millatimizni qirib tashlovchi atom bomba. Bu enag'arlar bizlarni qanday quritishni bilishgan. Sen bilan biz buning fahmiga bormay ichaveramiz, ichaveramiz. Ichib olib bolalarni tug'diraveramiz. Borib-borib millat qirilib ketganini bilmay qolamiz. Senlar ko'psanlar, uncha bilinmas balki. Ammo biz kammiz. Hademay qirilib bitamiz.

— Siz... gruzinmisiz?

— Yo'q... — Tengiz miyig'ida kuldi: — Men — avarman! — Tengiz bu gapni iftixor bilan aytди. — Avar degan xalq bor bu dunyoda, eshitganmisan?

Nuriddin eshitmagan edi. Biroz xijolat bo'lgani holda bu haqiqatni tan oldi.

— Sen meni gurjiga o'xshatma. Ular Qofqazni so-

¹ Lager boshlig'i.

² Doktor.

tishgan. Mening boboblarim esa qofqazimizni bu kofir to'ng'izlardan himoya qilgan. Imom Hamzat, imom Shomil, Hojimurodlarni eshitganmisan? Ha, eshitmagansan.

— Men... o'qimaganman. Sakkizinchini bitirib, dalaga chiqib ketganman. Keyin harbiyga chaqirishib, Afg'onga tashlashdi. Keyin bu yerlar... Qo'llimga bitta kitob olib o'qimaganman sira.

— Unda seni «eshshak» deganlari to'g'ri ekan. Qaysarliging uchun emas, o'qimaganing sababli eshshaksan. O'qimagan odamning eshshakdan nima farqi bor? Sen mening tariximni bilmaysan. O'zingnikini bilasanmi? Sening hamzatlaring, shomillaring bormi? Bilmaysan! Eshshak ham o'zining ota-bobolarini bilmaydi. Gaplirimga hayron bo'lyapsanmi? «□□ridaham shunaqa gaplar chiqadimi?» — deyapsanmi? Men o'g'ri bo'lib tug'ilmagan edim. Ota-bobom ham o'g'ri emasdi. Men o'zimnikilarning ushog'iga ham xiyonat qilmaganman. Men yerimga o'g'ri bo'lib bosib kirganlarning mol-joniga qiron keltiraman. Men o'g'ri emas, qasoskor, xunxo'rman! Ammo o'g'ri degan unvonni olganman. Men uchun qasosning o'zgacha yo'li yo'q. Bilasanmi, men salkam oliv ma'lumotli faylasufman. Ha... meni to'tinchi kursdalgimda haydashgan. Leningradda o'qirdim. Bir professor bor edi, — Tengiz shunday deb istehzoli jilmaydi. — Nikolay Aleksandrovich Sagoyev degan. Qiziq, a? Ismi o'rischa, nasabi tog'liklarniki. Keyin bilsam asli Nazir Aliyevich Sagoyev ekan. Tilimni tiyolmay o'shangang bir kuni aytdim: «Muhtaram professor, mayli, o'zingizning ismingizni o'rischa qilibsiz, otangizning shunday chiroyli ismini nega o'zgartirasiz? Sizda tog'liklar nomusidan zarracha bormi?» — dedim. U enag'ar meni komsomol majlisiga qo'ydi. Mening qaysarligim tutib, majlisda avarcha gapirdim. O'sha professorning o'zi tarjima qilib turdi. O'ris deganlarning jazavalari tutganini ko'rsang edi. Qo'llaridan kelgani — meni komsomollaridan haydashdi. Sharitta turib: «Men avarman! Avarligimcha o'laman! Tupurdim senlarga!» — dedim. Shu bahona bo'lib o'qishdan haydashdi. Keyin men bu «o'qish»ga kirdim. Birinchi qil-

gan ishim — Sagoyevning uyini bosdim. Avar knyazlari ham unchalik boy bo'lishmagandir. Tog'lik yigitlarni o'qishga kiritib qo'yaman, deb rosa shilar edi u enag'ar. Uyini shilib, qolgan-qutganini yoqib yubordim. O'n yil badalida ikki marta qo'lga tushib, pishdim. O'n birinchi yili «qonundagi o'g'ri» martabasini berib, menga toj kiydirishdi. Endi bildingmi kimligimni? Bu to'ng'izlar meni qui qilish uchun yerimga bostirib kirishgan edi. Endi ularning o'zлari mening qulim. Bifsheksni o'ldirganining uchun zarracha afsuslanmadim. Bu enag'arlar qancha ko'p o'lsa, shuncha yaxshi. Sen esa... yashashing kerak! Men senga «Hamzat» deb nom beraman. Shomil bilan Hojimurod ham bizning qahramonlarimiz. Lekin men ularni uncha yaxshi ko'rmayman. Ular oxiri sinishgan. O'risga taslim bo'lishgan. Hamzat esa sinish u yodqa tursin, hatto salgina egilmadi. Joynamozning ustida boshi uzildi. Senda ham shunga yaqin fazilat ko'rdim. Shuning uchun senga mehrim tushdi. Shuning uchun bu gaplarni senga aytyapman. Ammo sen, bola, qaysarligingni arzon bahoga sotar ekansan. Sen mayda-chuyda gaplardan ustun tur. Sen millat uchun sobit bo'lishni o'rgan. Shunga aqling yetadimi? Yo'q, yetmaydi... Afsus, afsus, yetmaydi. Men o'zbeklar orasida senga o'xshagan mardini kam ko'rganman. Sen larning sinishlaring oson. Sen bu yerlardan sinmaydigan odam bo'lib chiq. Ko'zlaringni ochib, odam bo'lib chiq! Hamzat, bir kuni kelib gaplarimni eslaysan. Ana shunda bu o'g'ri unchalik ahmoq emas ekan, deb tan olasan.

Hayot-mamot olishuvi Nuriddin, endilikda Hamzat uchun kutilmagan hodisa edi. Qahrli o'g'rining bu gaplari esa mutlaq kutilmagan hoi bo'ldi. Bu gaplarning mag'zini chaqishga harakat qildi. Keyingi uchrashuvlarda yana shu haqda gap ochilarmikan, deb kutdi. Biroq Tengiz qahrli o'g'riboshi libosini yechib, ochilib gaplashmadi. Faqat ancha keyin, noxush voqealar so'ngida ajralar mahallari-da: «Sen mening himoyamdasan. Men o'lsam, odamlarim himoya qiladilar. Sen o'sha kungi gaplarimni unutmasang bo'ldi: aslo sina ko'rma!» — deb ta'kidladi.

«MURIK»

Qamoq olamining ikki tartib-intizomi bor. Birinchisiga huquq idoralari tartib berganlar. Bunisi qo'zozgashgan, muhrlangan. Unga kolda amal qilinmaydi. Ikkinchisi qo'zozgashgan, muhrlangan. Ammo unga bexato tarzda baysuniladi Qonundagi o'g'rilar tomonidan joriy etilgan tartib-qoidalarning buzilishi ulu bir fojia sanalib, buzunch kechirilmaydi.

Qamoqxonalar, lagerlar garchi simtsiqlabilan ra-lib, qurolli soqchilar bilan qriqlansa-dao'g'rilar turli alkalargashib yuborilgan boldsa-daularni bir-birlariga bog'lab turuvchi botiniy robita oyo atmustahkam edi. Belorussiyadagi lagerda bloyotga gaplarni Moskvadagi generallardan avval Borkutadagi mahkumlar eshitishardi. «Lager teletaypi» deb nomlanuvchi xabar xizmati bexato ishlardi. Generallar botiniy zanjir mavjudligini, uning har bir halqasini bilishsa-da, zlarin bilmaganga olishardi. Halqalarni uzib tashlash qollarida kelsa-da, botina olishmas edi. Zero, ta'bir joiz boldsa, zlarham shu zanjirning bir halqasi edilar.

Tartib etilgan qoidalarga kora «lager teletaypi» Murikning bu tomonlarga kelishini nbesh kun avval ma'lum qilgan edi.

Daraxt kesiladigan joy zgaribdaryo sohilidagi chayla ham k chirilgandi. Quyosh yoz fasliga xiyonat qilib, kuzning zaharli nafasi hukmini tkaz boshtagani uchun chayлага joylashgan «politbyuro»ning «shtab-kvartira»si barakka k chirilgandi. Bu yerlarning betayin havosi zin namoyish etgan — ezib yoganymirda n g oz fursat yuz ochuvchi oftob badanga harorat berishga ulgura olmas ham edi. Mahkulmlarni qiyratib tashlagan chivinlar kelgusi yozda uchrashish umidida issiq uyalariga kirib ketganlar. Chivinlar azobidan qutulgan mahkulmlar uchun shu shilta ayozli mavsum a'loroq tuyular edi.

Egniga paxtali kalta tnboshiga telpakni qiyshaytirib kiyib olgan Tengiz nam tortgan xashak ustida uzala tushib yotganicha pinakka ketgan edi. Pachoqburun kirib, uning oromini buzdi.

- Nima deysan? — Tengiz esnab qaddini ko'tardi.
- Naxodkadan ksiva bor.
- O'qi, kimdan ekan?
- Garbuzdan.

— Garbuz? — Tengiz: «Kim ekan u?» — deb o'yladi. Har qancha tirishsa ham Garbuzning kim ekanini eslay olmadi. Uning xotirasi yaxshi edi. Bir ko'rgan odamini, bir marta eshitgan ismni o'n yildan keyin ham qiyalmay eslardi. Leningradda o'qib yurgan kezlar u boshqa tababalar kabi daftar tutmas, muallimlarning ma'ruzalarini yozmas ham edi, eshitganlarini xotirasida saqlab qolardi. «Mening darsimni mensimaysan», — deb da'vo qilgan muallimga Leninning «Falsafa daftari»dan bir necha sahifani yoddan aytib bergach, do'stlari uni «tirik kompyuter» deb atay boshlagan edilar. Ana shunday mukammal xotira egasi Garbuzni eslay olmadi. Pachoqburun xatni o'qiy boshlagach, masala oydinlashdi. Pachoqburunning faqat burni emas, bilimi ham pachoqqina edi. Beshinchisinfda ikki yil sabot bilan o'qigach, oltinchi sinfga bormay qo'ya qolgandi. Rus alifbosidagi o'ttiz uch harfning teng yarmidan ko'prog'ini, ya'ni naq o'n etti harfni erkin o'qiy olish martabasiga yetgan bu «donish»ning o'ziga o'xshash bir o'g'ri qo'li bilan yozilgan maktubini hijjalab o'qishini tasavvur qiling-u, Tengizning chidamiga qoyil qolavering. Ammo Tengiz ham temirdan emas. Uch-to'rt jumla o'qilguncha chidadi, so'ng xatni Pachoqburunning qo'lidan yulqib oldi. Katak daftar sahifasining bir burchi yirtilib, Pachoqburunning barmoqlari orasida qoldi. Xatga ko'z yogurtirgan Tengizning yuragi battar siqildi. Bu odam qo'li bilan yozilgan xatmi yoki siyohga botirib qog'oz ustiga qo'yib yuborilgan o'rmon chumolisining izlarimi, buni ekspert aniqlab bermasa, oddiy odamning farqlashi qiyin edi. Tengiz unda-bunda harfni eslatuvchi belgilarni qo'shib, bir amallab o'qiy boshladidi: «□ □ r i l a r omon bo'l sin! Salom, Tengiz, salom qorindoshim! Senga yetib ma'lum bo'lsinkim, bu men — Oleg «Garbuz»man. Senga va Irkutsk sentralidagi barcha o'g'rilariga, «politbyuro» a'zolariga, sizlarning yelkadoshlaringizga birodar-

lik salomlarim bo'lsin! Qimmatbaho salomatliklar qalay?
Xudo barchalaringizga uzoq yillar omonlik bersin.

Qorindoshlar, jondosh o'g'rilar, bizning Naxodkada mendan tashqari Valdemar «Olov», Voris «Shimol» ham bor. Biz uch o'g'rimiz, ammo haligacha birontamiz toj kiyish baxtiga tuyassar bo'limgaganmiz. Malyavamning dastlabki satrlaridayoq o'z murod-u maqsadimni bayon qila qolay: men siz mehribon o'g'rilarining biringizga uka, biringizga do'st, ulug'larga esa o'g'il yoki jiyan bo'lib, mo'tabar o'g'rilar oilasining teng a'zosi sifatida qatorlaringizga kirmoqliknini orzu qilyapman. Men bundan buyongi hayotimni o'g'rilik mehrobiga atadim. Bundan buyon siz mehribon zotlar bilan yelkama-yelka turib, barcha dard-u alamlarni birga totmoqqa, teng baham ko'rmoqqa qaror qildim.

Qadrdom Tengiz! Men qamoqda hali ko'p o'tiraman. O'g'rilarining muqaddas oilasiga a'zo bo'lsam, «qonundagi o'g'ri» tojiga lozim ko'rilsam, balki qolgan umrimni ham qamoqda o'tkazarmagan. Bu masalada sizlar nima iroda qilsangiz, shu bo'ladi. Men ozodlikda yurganimda sizlar haqingizda ko'p eshitganman. Sizlar tomonga intilganman. Biroq sizlar bilan yuzma-yuz uchrashish baxti menga nasib etmadni. Xatimni o'qib bo'lgach, barcha kamchilig-u gunohlarimni yozib yuborarsizlar. Sizlarning ko'rsatmalariningizga amal qilib, bundan keyingi hayotim masalalarini o'g'rilar qoidasiga xilof qilmagan holda yechib borayin. Men qanday og'ir kunlarda sizlarni bezovolta qilayotganimni bilib turibman. Iltimosim qabul qilin-gan taqdirda ro'paramda qanday mashaqqatlar turganini ham his etyapman. Bu satrlarni yozish ham menga oson bo'lmadni. Bu xat o'zimning hayotim xususidagi bir hukmdir. So'nggi nafasimga qadar o'g'rilarining ulug' oilasiga sodiq qui bo'lib xizmat qilaman. Agar u dunyoda ham o'g'rilik hayotini davom ettirish lozim bo'lsa, u dunyoda ham faqat o'g'rilar oilasiga qulman.

Aziz va qondosh o'g'rilar! Endi o'zim haqimdag'i ma'lumotni yozay: men tulalikman. Birinchi marta 1978-yil 2-mart kuni mashina o'g'irlash paytida qo'lga tushib, olti yilga qamaldim. Bir yildan so'ng o'smirlar qamoq lage-

ridan kattalarnikiga o'tdim. Ikki yil Yaroslavlda o'tirdim. So'ng «etap» bilan Lvovga yuborildim. Zekvagonda Seryoja «Oqqush» bilan tanishdim. U menga ko'p narsalar ni o'rgatdi. Lvovda ekanimda o'g'rilar to'plantisi boidi. Sakson to'rtinchi yilda ozodlikka chiqdim. O'n besh kundan so'ng 212-moddaning uchinchi bandi bilan yana besh yil berishdi. Hali Tuladagi qamoqda ekanimda o'g'rilarning to'plantisi b oldi. Bitya «Kalina», Sulton Chechen bilan shunda tanishdim. (Sultonni Xudo rahmat qilsin, yotgan yeri momiq bo'lsin!) Sulton meni lagerdagi tartibga boshliq qilib ketdi. Ko'p o'tmay promzona komendanti o'ldirilib, hamma yoq ag'dar-to'ntar bo'ldi. Komendant zonada qanjiq-musorlarning to'plantisini o'tkazmoqchi edi. Mening bo'ynimga hech nima ila olishmadi. Ammo Tverga borgach, yana bir yarim yilni bo'ynimga ilishdi. Bu yerda boshqa o'g'rilar bo'limgani sababli sizlarning birodaringiz Ostap «Janjal» bu yerdagi tartib-intizomni boshqarishni menga topshirdi. Bu ishonch men uchun katta baxt edi!

Uchinchi marta bankka hujum qilganimda qo'lga tu-shib, mana shu yerda o'tiribman.

Iltimosimga javobni sabrsizlik bilan kutaman.
Siz — eng mehribon, eng halol o'g'rilarغا mustahkam sog'liq va ozodlik tilayman.

Siz u lu zotlarni g'oyibona bir-bir bag'rige bosuvchi tulalik Oleg «Garbuz». 26.08.1988. Naxodka.»

Tengiz xatni o'qib bo'lgunicha ko'zlarini tinib, gardanida og'riq paydo bo'ldi. Avval mijjalarini yengil uqablab, so'ng gardanini siladi. «Bitxat bo'lsa ham gaplarni topib yozarkan. Agar o'zining kallasidan chiqarib yozgan bo'lsa, ahmoqqa o'xshamaydi, — deb o'yładi Tengiz. — Lekin... Nima uchun shu paytgacha u haqda eshitmagan ekanman?» Tengiz shu xayol bilan Pachoqburunga qaradi. U buyruqqa mahtal holda somelik ila turardi.

— «Politbyuro»ni to'pla.

E'tiborli o'g'rilarni yarim soat ichida to'plab kelish uchun Pachoqburunga shu qisqa buyruqning o'zi kifoya qildi.

«Politbyuro» deganlari tojdor o'g'rilaridan iborat kengash edi. Garchi Tengizning obro'si qamoq lageri boshes»

lig'idan ham balandroq b[□]lsa-da[□]ayrim masalalarda bu kengash hukmiga xilofish k[□]rishg[□]huquqi yo'q edi.

Bifshteks [□]ldirilganidaheri «politbyuro» yi[□]ilmagan edi. Ha, [□]shand[□]Tengiz bir adashdi. U aslida Nuriddinning adabini berib q[□]ymoqch[□]edi, s[□]n g[□]z [□]tomon o[□]-dirmoqchi edi. Hirsday Bifshteksning bir tepki bilan [□]lib qolishi xayoliga ham kelmagan edi.

Lagerda Bifshteksning «qochgani» haqida xabar tarqalishi bilan Tengizni Balera «Q[□]tos[□]deb laqab olgan «politbyuro oqsoqoli» chaqirtirdi. Q[□]to[□]qlgan umrini qamoq lageriga ba[□]ishlagan[□] rilard[□]edi. U ozodlikka chiqishni istamasdi. Qamoq muddati nihoyasiga yetay deganda bir qiliq chiqarardi-yu, [□]ziningga'biri bilan aytilganda, «kurort mavsumi ch[□]zilardi» Uning asosiy vazifasi — kelajakda u[□]lu[□]o'g'ri b[□]li yetishishi mumkin bo'lgan yigitlarni aniqlab, tarbiyalash edi. Shu jihatdan qaralganda Nuriddinning tarbiyasi bilan avval «Q[□]tos» shu[□]ullanish[□]ozim edi.

Q[□]tosningy[□] qlovi Tengiz uchun kutilmagan b[□]l-madi. Bugunmi-ertami baribir r[□]par[□]lishin bilib, javoblarni tayyorlab q[□]yga[□]redi. Ammo Q[□]tosning belgilangan barakda yakka [□]z emas, «politbyuro» a'zolari bilan birgalikda kutib oglani Tengiz uchun kutilmagan hoi bo'ldi. Xayoliga: «Nima bu, to'ntarishmi?» — degan fikr chaqmoq nuriday urildi-yu, o'sha zahoti so'ndi. Chunki Tengiz shunday bo'lgan taqdirda ham og'ir ahvolda qolmasligini bilardi. Bunga o'xshash isyonlarning hisob-kitobini qilib qo'ygani uchun xotirjamligini yo'qotmadи.

Qofqazlik tojdor o'g'rilar bilan hazillashib bo'lmasligini bilgan «politbyuro» a'zolarida Tengizga qarshi bir ish yuritish fikri yo'q edi. Ular faqat Bifshteks taqdirini oydinlashtirib olmoqchi edilar.

Tengiz ostona hatlashi bilan Qo'tos o'rnidan turdi-da, unga peshvoz chiqdi.

— Knyaz, sen xafa bo'lma, favqulodda hoi bizni to'planishga majbur etdi, — dedi u Tengizga qo'l uzatib.

Qofqazlik tojdor o'g'rilar o'zlarining kelib chiqishlarini mashhur knyazlarga bog'laganliklari uchun asosiy laqablari qolib, hurmat yuzasidan ularga «knyaz» deb

murojaat qilish o'g'rilar olamida odat tusiga kirgan edi. Bu odat barcha «knyaz»lar qatorida Tengizga ham yoqar edi. Shajarasi, ya'ni yetti pushti oliymaqom xonadonga yo'l amasa ham u o'zini chinakam knyaz his qilardi. Qo'tosning «knyaz» deb murojaat qilishi esa vaziyatning aytarli keskin emasligiga dalolat edi.

Tengiz yig'ilganlar bilan birma-bir ko'rishgach, to'rga o'tdi. Qo'tos uning yoniga o'tirdi. Tengiz sigaret tutatgach, Qo'tosga yuzlandi:

— Nima bo'ldi?

— Bizni Bifshteks qiziqtiryapti. U hamisha sening yoningda bo'lardi?

— Ha, bo'lardi, — dedi Tengiz xotirjam ravishda. So'ng xuddi oddiy bir xabarni eslaganday qo'shib qo'ydi:— O'lmasidan ilgari...

— O'ldimi? — Qo'tos ajablanib to'planganlarga qarab oldi. Ular ham hayratlarini yashirmay Tengizga tikilishdi. Lager hayotida birovni o'ldirish yoki itday o'lib ketish aytarli ajablanarli hoi emas. Tojdor o'g'rilarни hayratga solgan narsa — yaqin odamlarining o'limi tafsilotidan vaqtida xabar topmaganlarida edi. Agar sheriklariga bu olamga begona kimsa qasd qilgan bo'lsa, kechiktirmay jazolashlari shart. Tengiz ularning bu fikrini ham uqsa-da, javobga shoshilmadi. Sigaretni yana ikki-uch chuqrchuqr tortib, nafsi orom toptirgandan keyingina javob berdi:

— Ha, o'ldi. Bir mishiqini eplay olmadi. Adabini berib qo'y, devdim, bir tepkini ko'tara olmay o'ldi. Bola balo ekan.

— Kim? Sen uni o'ldirdingmi? — Bu safar Qo'tosning ovozida tahdid sezildi.

— Ayb u bolada emas.

— Kimligini ayt bizga!

— Bilishga qiziqayotgan bo'lsalaring aytaman: «Eshshak», Bublikka egilmagan bola.

— Uni menga qo'yib berishing kerak edi!

— Bo Tar ish bo'ldi endi. Men sinab ko'rdim — mard bola ekan. Yaxshilab tarbiya qilsang, zo'r o'g'ri chiqadi undan. Ammo endi u «eshshak» emas, nomi «Hamzat» bo'ladi.

— Nega?

— Men shuni xohladim.

— Knyaz, sen haddingdan oshma! — Ukraina tomonlarda «Koshak» nomi bilan mashhur bo'lgan o'g'ri Tengizning so'zini dag'allik bilan uzdi. — Sen muslimoningni himoya qilib, zo'r yigitni o'ldirtirib yubording!

Tengiz sigaretini tutatib, unga tutun orasidan ko'zini sal qisibroq qaradi:

— Koshak, bilmasang bilib qo'y: mening dinim ham, millatim ham — o'g'ri! Qo'tos, sen bunga tushuntirib qo'y. — Tengiz shunday deb o'rnidan turdi. Ostonaga yetganida to'xtab, orqasiga o'girildi. — Koshak, bilib qo'y, bu olamda o'g'ri degan bittagina millat bor. Bu millat oldida boshqalari sariq chaqa. Agar shunga aqling yetmasa, sen o'g'ri emassan, mujiksan! — Tengiz eshikni bir tepib ochdi-da, tashqariga chiqdi. Uch-to'rt qadam yurib, to'xtadi. Uning fikricha, hozir ortidan Qo'tos chiqib kelishi lozim edi — yanglishmadi.

— Knyaz, sen xafa bo'lma. Koshakka yetadigan ahmoq bu dunyoda kam topiladi. Ahmoqona gaplarni ko'p gapiradi-yu, ammo yuragi toza bola. Ko'nglida kiri yo'q. Sening nima uchun achchiqlanganingni tushunmay o'tiribdi u ahmoq! Tushunganidan so'ng o'zi kelib sendan kechirim so'raydi.

— Xafa emasman, — Tengiz shunday deb jilmaydi, — oilamizga bir-ikkita shunaqa dovdir ham kerak. Bo'lmasa yashashning qizig'i qolmaydi.

— To'g'ri aytasan. Unga shu yerlarda chidash mumkin. Ozodlikda bunga sherik bo'lganning sho'ri quriydi.

Qo'tos to'g'ri aytgan edi — Koshak ikki kundan so'ng Tengizdan uzr so'radi. O'zining ham dunyoda yagona o'g'ri millatidan ekanini bayon qildi.

Ana o'sha voqeadan beri «politbyuro» endi rasmiy kengashga chorlangan edi. Oleg «Garbz»ning iltimos-nomasini o'qishdan avvalroq Tengiz «politbyuro»ni charqirishni reja qilib qo'ygandi. Kecha oqshomda qo'liga yetib kelgan bir xabar uni «politbyuro» bilan maslahatlashishga undagan edi.

«Politbyuro» to'plangach, Tengiz o'tirgan yerida ularga bir-bir qarab chiqdi.

— Knyazlarim, — garchi qofqazliklardan boshqalar bu nomga da'vo qilmasalar-da, Tengiz ularga bo'lган hurmatining baland ekanini bildirib qo'yish uchun gapini shunday boshladi, — knyazlarim, bugun biz ikki muhim masalada yagona qarorga kelishimiz kerak.

Tengiz birinchi masala deb Oleg «Garbuz» iltimosini bayon qildi. U gapini tugatmayoq Koshak e'tiroz bildirdi:

— Onasi o'n marta qayta tug'sa ham undan o'g'ri chiqmaydi, — dedi u stolga kafti bilan urib-urib qo'yib.— Kozyol u! Boshqa gap yo'q! Tulada nima uchun suvdan quruq chiqqan? Kozyol edi! Promzona komendanti bizning odam edi. Hech qanaqangi qanjiq-musorlarga aloqasi yo'q edi.

— Aniq bilasanmi? — deb so'radi Qo'tos.

— O'shanda men Kurskda edim. Aniq bilaman.

— Men «Garbuz» deganini endi eshityapman. Kozyol bo'lsa nima uchun shu paytgacha jazosiz yuribdi?

— Tutqich bermayotgandir-da. Agar unga toj kiydisak, hammamiz rasvo boiamiz.

— Agar kozyol bo'lsa... agar ayyor bo'lsa... — Tengiz o'ylanib qoldi. — Boshqa lagerlarga ham shunaqa xat yozgandir? Tezda aniqlash kerak. Qo'tos, o'zing shug'ullan bu ish bilan. Agar shunday qilgan bo'lsa, bosshiga toj o'rniqa sirtmoq ilish kerak. Ilganda ham pinhona emas, shov-shuv bilan osib o'ldirish kerak. Boshqa koz-yollar o'zlarini nima kutayotganini bilib qo'yishsin. Birinchi masala — tamom! Endi ikkinchisi — biz tomonlarga «Murik» kelayotgan emish, — Tengiz shunday deb o'tir-ganlarga savol nazari bilan boqdi.

— Murik? Kim u? — deb so'radi Qo'tos.

— Bilmaysizlarmi? — Tengiz istehzoli jilmayib yon cho'ntagidan bir varaq qog'oz oldi. — «Ch□mich»— Slava Galiulin. «MUR»ga xizmat qila boshlagani uchun laqabini □zgartirib «Murik» deb qo'yishibdi. Ma, o'qi,— u shunday deb xatni Qo'tosga uzatdi.

Qo'tos maktubga ko'z yogurtirib, bosh chayqadi-da, so'ng ovoz chiqarib o'qiy boshladi:

— «Irkutsk sentralidagi halol birodarlarimizga salom-lar bo'lsin. Salom yo'llovchilar — Pskov lageridagi

o'g'rilar — sizlarga omonlik tilaydilar. Qadrdon o'g'rilar, bu shoshqich xatimiz bilan sizlarni ogoh etamiz: biz bilan «Ch□mich»— Galiulin birga bo'ldi. Bilib qo'yinglarki, u bizning pok va muqaddas nomimiz — o'g'ri nomi bilan yashirinib yurgan bir qanjiqdir. Ha, bilib qo'ying, u O'G'RI emas, u qanjiqdir! O'g'ri nomiga isnod keltirgani uchun uni faqat qanjiq yoki ABLAH deb atash mumkin. O'zini hurmat qiluvchi har bir o'g'ri, har bir mahkum u bilan shu nomiga yarasha muomalada bo'lishi kerak. Shu bilan birga barcha qanjiqliklari uchun jazosini olishi shart! Yana bilib qo'yinglarki, Moskvada o'g'rilar to'plantisi bo'lib o'tdi va Cho'michga nisbatan qaror qabul qilindi. Qarorga binoan u QANJIQ deb e'lon qilindi. Moskva pupkarlariga xizmat qilgani uchun unga «MURIK» deb nom berildi. Uni qabul qilganlaringda shu qaror yoddan ko'tarilmasin.

Pskovda biz olti o'g'rimiz: Kato, Kuyov, Yo'lbars, Sibir, Avliyo va Olov barchalaringizga ozodlik tilab qoladilar».

Qo'tos o'qishni yakunlamay, Koshak stol ustiga musht urib, to'ng'illadi:

— Cho'mich kelishi bilan menga berasanlar. U bilan ozgina hisob-kitobim bor.

Bu gapni eshitib Tengiz unga tikilib qoldi. So'ng kengash a'zolariga savol nazari bilan bir-bir qaradi:

— Xo'sh, Murikni Koshakka beramizmi? — Tengiz shu savolni o'rtaga tashlab sukut qildi. O'tirganlardan sado chiqmagach, davom etdi: — Biz o'g'rilarining bir ahmoqligimiz bor. Faqat o'zimizning hisob-kitobimiz bilan qiziqamiz. O'g'rilarining muqaddas olami bilan esa ishimiz yo'q. Oilamiz qanjiqlar bilan to'lib ketyaptimi, irib ketyaptimi, sasib ketyaptimi — ishimiz yo'q. Xo'sh, Koshak, Murik seniki. Nima qilasan, o'ldirasammi?

— Qiynab o'ldiraman.

— Ana shu-da! Nima uchun qanjiqlik qilgan, nima uchun qamalib bu yoqlarga yuborildi? Bilish kerakmi? Gap shu: Murik kelaversin. Yuraversin. Biz esa go'yo hech nima bilmaymiz. Biladiganimizni bilib olaylik, ana undan keyin u Koshakniki. Istasa xomicha yesin, istasa

pishirib yesin. Boshqa gap yo'q. Takliflaring bo'lsa aytinlar.

— Taklif bor, — dedi Koshak tirjayib. U majlis qaroridan mammun edi, shu bois bir hazil qilgisi keldi. So'z-lashga ijozat berilgach, o'rnidan turib, yoqasini tuzatgan bo'ldi: — O'rtoq kommunistlar, majlisimiz nomidan KPSS bosh kotibi Gorbachga tabrik telegrammasi yuborsak.

Bu hazil to'mtoq bolta bilan o'tin yorishni eslatsa-da, o'tirganlar Koshakka qarab jilmayib qo'yishdi. Tengiz ham kulimsirab uning bu haziliga yakun yasadi:

— Yaxshi taklif. Telegramma yoz-da, yumaloq muhr o'rniga nozik yeringni bosa qol.

«Politbyuro» majlisi shu tarzda kulgi bilan yakunlandi. Oradan to'rt kun o'tib, Murik tashrif buyurdi. Unga qadar «lager teletaypi» orqali Tengiz muhim maTumotlar oldi.

XIYONAT

Matluba eridan xat olib kelgan yigitga boshdan oyoq razm soldi. Avvaliga: «Qamoqda birga o'tirganmikin?»— deb o'yladi. Ammo xushro'y yigitning jilmayib qarashida, rang-ro'yida qamoqning sovuq nafasidan asorat yo'q edi. Yigit «Ichkariga kiring», — degan taklifdan so'ng tarang qilmay, juvonga ergashdi. Tursunali qamalishidan ilgari, amal otini surib javlon urayotgan mahallarda bu uyni ko'rgan odam oradan bir yil o'tib-o'tmay yana ostona hatlab ichkari qadam qo'yguday bo'lsa, «Yopiray, kecha o'g'ri urib ship-shiydam qilgan, shekilli», — deb yoqa ushlashi tayin edi. Ko'zni qamashtiruvchi gilamlar, qandillar-u javonlar endi yo'q. Matluba eri qamoqqa olinib, mol-mulki xatga tushguniga qadar yashirishga ulgurgananini yashirdi. Qolgani esa musodara qilindi. Uy xo'jalik ixtiyorida bo'lgani, Matlubaning o'zi shu xo'jalikda ishlayotgani uchun tortib olinmadidi. Yangi direktor insof qilib, ularga: «Uyni bo'shat», — deb tiqilinch qilmay, yangisiga joylasha qoldi.

Matluba dardini kimga aytishni bilmay, to'rt devor orasida to'rt bolasi bilan kun kechirib yurgan edi. Davlat

boylikni tortib olgani bilan Xudo bolalaming rizqini qiymas ekan. Gilamsiz, billur qandilsiz uyda ham yashash mumkin ekan. Dunyoda tirik beva faqat u emas ekan. Tirik yetimlar ham ko'p ekan. Eri qamalgan xotinning joni chiqib keta qolmas ekan. Otasi qamalgan bolalar taqdirga tan berib yashayverar ekan, ulg'ayaverar ekan...

Qamoq — jinoyatchi uchun jazo. Bu dunyoda jinoyatga daxli yo'q odamlar uchun ham jazo bor ekan. Balki harom luqmaga sherik bo'lgani uchun bunday jazo joizdir? Matluba buni bilmaydi. Bu haqda o'ylab ham ko'r-magan. Bunga keyinroq aqli yetadi. Hozir bilgani — qo'-lidagi xatda yozilgan gaplar... Ya'ni har oyda «soliq» to'lab turish.

Matluba xatni to'rt marta o'qib chiqsa ham tushunmadidi. Yigitga savol nazari bilan tikilib qoldi.

— Cheksam maylimi? — deb so'radi yigit xotirjam ravishda. U juvonning hayrat iskanjasida ekanini bilib tursa-da, parvo qilmadi. Uy bekasi bosh irg'ab: «Chekavering», — degach, labiga sigaret qistirdi. Ammo o't oldirmay turib so'radi: — Tinchlikmi? Nima deb yozibdilar?

— Nima deb yozilganni... bilmaysizmi?

— Men birovning xatini o'qimayman, — yigit shunday deb sigaretini tutatdi.

— Xatni o'z qo'llari bilan yozib sizga berdilarmi?

— Yo'q. Menga birodarlarim keltirishdi. Men eringizni tanimayman. Mening vazifam — xolis xizmat.

— Soliqni... sizga to'laymanmi?

— Ha, soliqnimi? — yigit jilmaydi. — Hozircha men ga. Men kelolmasam, boshqa odamni yuborishadi.

— Yuborishadi? Kim yuboradi?

— Buni bilishingiz shart emas.

— Men... tushunolmayapman?

— Tushunolmayapman? Mayli, yaxshi xotinga o'xshaysiz, sizga tushuntirib bera qolay: sizga er kerakmi? Ha, albatta, kerak. Sizga er kerak bo'lmasa ham bolalaringizga ota kerak. Demak, u qamoqdan sog'-salomat qaytishi shart. Qamoqda esa, opaginam, ko'p odamlar bekordan bekorga o'lib ketadi. Birovlar bitta kichkinagina toshga qoqlib ham o'lib ketar ekan. Baxtsiz hodisalar ko'p-da.

Qamoqdagi birodarlarimiz eringizni himoya qilishadi. Uning bitta tuki ham bekorga to'kilmaydi. Siz «soliq» deyapsiz-u, aslida unday emas. Bu xizmat haqi. Hukumat qorovullarga ham maosh to'laydi-ku, to'g'rimi? Ana, siz ham shunaqa to'laysiz-da.

— Qanchadan to'layman?

Yigit darrov javob bermadi. Tutatib bo'lgach, kuldon o'rniqa qo'yilgan likopchaga sigaret qoldig'ini bosib ezdi-da, to'lanajak xizmat haqi miqdorini aytdi. Buni eshitib, Matluba bir seskandi. «Xato eshitmadimmi?» deb so'radi:

— Bir yilgami?

— Eringizning jonini hurmat qilmas ekansiz, opaginam. Har oyda to'laysiz. Balki uch oyligini, balki yarim yilligini qo'shib oldindan to'larsiz. Oldindan to'lasangiz, biroz kamaytiramiz, buni o'zaro kelishib olamiz.

— Menda buncha pul yo'q... Topganim bolalarim...

— Opaginam, siz topgan pulingizni bolalaringizga ishlatavering. Siz bizga eringizdan qolganidan cho'tal berib tursangiz yetadi.

— Erimdan... hech narsa qolmagan... Bori shu — ko'rib turganingiz. Davlat hammasini tortib oldi.

— Davlatga tuhmat qilmang. Bizning davlat, opaginam, odil davlat! Bilmasangiz bilib oling. Hech qachon hammasini tortib olmaydi. U-buni yashirib olishga imkon beradi. To'rtta bolangiz bor, a?

— Ha... — Matlubaning ko'ngliga yomon fikr kelib, qo'rqib ketdi: — Nimaga so'rayapsiz?

— Shunchaki qiziqdirm. Ular ham otalari qaytgunicha sog'-salomat yurishlari shart. Ota qamoqdan qaytsa-yu...

— Bolalarimga tegmang! — Matluba beixtiyor shunday deb baqirib yubordi. Mushtlari o'z-o'zidan tugildi.

— Opaginam, o'zingizni bosing. Bizlar odamxo'r emasmiz. Biz siz bergen xizmat haqi evaziga o'zingizni ham, bolalaringizni ham himoya qilamiz. Pul ketsa ketsin, jon ketmasin. Mening yana yarim soat vaqtim bor. Birinchchi xizmat haqini bugun olib ketishim kerak.

— Hozir yo'q menda bunaqa pul.

— Sizzdan hoziroq talab qilayotganim yo'q. Yarim soat vaqtim bor, deyapman-ku? Bo'la qoling, qimirlang.

Bu gapdan keyin ham Matluba bir necha daqqaq harakatsiz turdi. Yigit esa boshqa gapga hojat yo'q, deganday indamasdan o'tiraverdi. Matluba: «Yarim soat vaqtি bo'l-sa k□chag æhiqib, mashinasida □tiraqolmaydim?» — degan fikrda unga qarab-qarab qo'ydi.

U: «Uyda pulim yo'q», — deb yolg'on so'zlagan edi. Aslida esa «Biror kunimga asqatar», degan umidda yashirib qo'ygani bor edi. Ammo bu yigit shunday yalpayib o'tiraversa, u qanday qilib oladi? Undan tashqari, bu yigitning aytganlari shunchaki po'pisami yo jiddiyimi — hali to'la farqiga borolgani yo'q. Dastlab bu yigit ko'ziga xushro'y ko'rinishi edi. Endigi o'tirishi esa...

«He, go'laymay o'l!» — deb ichida qarg'adi.

— Yarim soat... Birovdan so'rab topgunimcha... Bir-ikki kundan keyin kelsangiz... topib qo'yardim.

— Kelib-ketish oson ekanmi? Men ammangizning qishlog'idan kelganim yo'q. Xo'p, mayli, bir-ikki kundan keyin men kelmayman. O'zingiz borasiz.

— O'zim boraman? Qayoqqa?

— Bahonada adangizni ko'rib kelarsiz?

— Adamni... bilasizmi?

Yigit istehzo bilan kuldil.

— Laqma xotin ekansiz. Uyingizni to'g'ri topib kelgan odam adangizning ikki yildan beri shol bo'lib yotgанини билмайдими? Xullas, ikki kundan keyin adangiznikida ko'rishamiz. Ismim Xursanali, siz ishlayotgan sovxozi ning hisobchisiman. Tushundingizmi, adangizga shunday deb tanishtirasiz. Bizning siz bilan bo'ladijan hisob-kitobimizni birov bilmasa faqat o'zingizga foyda. Milisadan umid qilmang. Milisa sizga emas, bizga xizmat qiladi. Biz sizga o'xshaganlardan xizmat haqi to'plab, hatto o'sha Maskovdagi generallargacha boqamiz. Shuni unutmasangiz bo'lgani. Siz bilan biz endi begona emasmiz. Ha, aytmoqchi, bizda «bir-ikki kun sabr qiling», degan gap bo'lmaydi. Bir safar mayli, kechiraman. Bundan keyin har bir kun uchun yuz-yuzdan qo'shiladi. Aql bilan ish yuritsangiz hamyoningiz zarar ko'rmaydi. Eringiz unda tinch, siz bunda bola-chaqalaringiz bilan tinchsiz. Xudo beraman, desa, shu-da!

Yigit o'rnidan turib, eshik sari yurdi. Ostonaga yetgach, orqasiga o'girildi:

— Mehmondo'st emas ekansiz. Mayli, xafa bo'lmayman. Osh-choyga qarzdorsiz, unutmang, — o'zini Xursanal deb atagan yigit bir jilmayib qo'ygach, tashqariga chiqdi.

Matluba unga xayr ham demadi, kuzatish uchun ostona ham hatlamadi.

Yigitning xuddi balo chaqiniday kelib-ketishi uning hushini oldi. «Tursunali akamdan xat olib keldim», — deb jilmayganida istaraligina bo'lib ko'ringan edi. «Osh-choyga qarzdorsiz», — deb chiqayotganida ko'ziga isqirt bir sulloh bo'lib ko'rindi. «Kim o'zi bu? — deb o'yldi Matluba. — O'g'ri desam, o'g'riga o'xshamaydi. Basharasi bip-binoyi. Balki cho'ntakkesardir yo kallakesarmikin? Unaqaga ham o'xshamaydi. Yo adasi meni sinab ko'rmoqchi bo'lib biror tanishini ishga soldimikan? E, yo'q. Shunaqasiga sinaydimi? Sinagisi kelsa, «Menga vafo qiladimi-yo'qmi?» — deb sinar. O'ziga o'xshagan biron ta shilqimni yuborar. Menga ilmoq tashlatib ko'rар... E, yo'q... Qorang o'chgur Nafisasi bilan sharmandasi chiqqanidan keyin mendan vafo talab qilib go'rga borsinmi?...»

Nafisaning nomi esiga tushib, battar tutaqib ketdi. Stol ustida turgan piyolani olib devorga qarata otdi. Piyola devorga tegib ham, taxta ustiga tushib ham sinmadi.

— Hu ko'zlarining go'rda chirisin!

Bu qarg'ishni ovoz chiqarib aytdi. Nazarida Nafisa ishvali ko'zlarini suzib qarab turganday bo'ldi. Bir qarg'ish bilan yuragidagi dard ko'tarilmay, ikkinchisini aytdi:

— Aft-basharang go'rda ilon-chayonlarga yem bo'lmasa, rozi emasman!

O, ayol qalbi! Dunyoda mavjud barcha fojialar sel bo'lib yopirilsa chidar-u, ammo erining xiyonatiga sira-sira chiday olmas! Ayniqsa, bu xiyonat □zuyida, □zto'-shagida sodir etilsa, yurakda yona boshlagan olovni hech nima o'chira olmas.

Erining xiyonatkor buzuq ekani Matlubaga ko'pdan ma'lum edi. Hali bu «qorang o'chgur Nafisa» paydo bo'l-

mayoq, erining suyug'oyoqligidan, bir unga, bir bunga sho'ng'ib yurishidan gumon qilardi. Gumoni isbot topganida janjal ko'taraman, dedi-yu, eplay olmadı. «Chidasang shu, — dedi eri. — Men senga yalinib uylanma-ganman, o'zing xushtor bo'lib tekkansan. Men bitta xotinga qanoat qiladigan erkaklardan emasman. Ko'ngling sovigan bo'lsa, ana, orani ochiq qilgin-u otangnikiga jo'nayver. Raykomga dod-voy deb borasanmi, undan narigami, menga baribir. Menden olsa amalini oladi. Sen esa erdan ayrilasan. Ikkita bola bilan seni birov olarmikan? Menga tegishda otangning roziliginı olmagansan. Ketsang, otangnikiga ham sig'maysan. Undan ko'ra nafasingni chi-qarmay yashayver... Sen xotinimsan. Ular bir o'ynash. Sen bilan ular orasida katta farq bor. Shuni tushunsang bo'lди».

Eri haq gapni aytgan edi.

Matlubaning Tursunaliga oshiq bo'lgani rost. Xatlar yozgani, she'rlar to'qigani ham rost. Kelishgan, chiroli yigitni undan boshqalar ham yaxshi ko'rishar edi. Yigit chirolyi bo'lsa, ustiga-ustak amaldor otasi cho'ntagidagi pulni aritmay tursa, xushtorlar sanog'iga yetish mushkul. Ammo Matlubaning yuragidagi olov hammanikidan kuchliroq edi. Keyin-keyin Matluba o'sha damlarni eslaganida: «Yuragim yonmay, chiribgina ketsa bo'lmasmidi, uni yaxshi ko'rmay o'lib qo'ya qolsam ming marta yaxshi edi-ya!» — deydigan bo'lди.

Taqdir qalami yozug'ini yozib bo'lganidan keyin bunday nadomatlardan ne foyda? O'sha kezları Odam Ato bilan Momo Havvoning nima sababdan jannatdan haydalgarlarini bilsami edi, es-hushini sal yig'ishtirib olarmidi...

Oldingilari, eri aytganiday, nafs balosini qondiruvchi vaqtinchalik o'ynashlar ekan. Eri ularga qattiq bog'lan-magan edi. «**ark zingga rda** **æhirigur Nafisa**» yomon chiqdi. Erini o'ziga tamomila qaram qilib oldi. Eri avvallari o'ynashga borgani bilan uni unutmasdi, ko'nglini ovlab turardi. Erining xiyonatkorligi oshkor bo'lganidan keyin ham Matluba yana ikki farzand ko'rди. Ammo «juvonmarg bo'lger Nafisa»ga ilakishgach, er ekani tamoman esidan

chiqdi. Matlubaning o'rindagi noz-karashmalariga ham e'tibor bermay qo'ydi. Bir kuni: «Yoshingga qarab qiliq qil», — deb o'rnidan turib ketgach, Matluba tirik beva bo'lib qolganini anglatdi.

«Yoshingga qarab qiliq qil...»

O'shanda Matluba hali o'ttiz uchga kirmagan edi... Hozir qirqning ostonasida. O'shandan beri er nimaligini unutayozgan.

Dardi zo'r... Ammo dardkashi yo'q... Dardi ichida.

Faqat bir marta «portladi». Portlamasa bo'lmas edi...

Shaharga borishi lozim edi. Biroq oyog'i tortmay, ko'ngli xijil bo'lib rayon markazidanoq iziga qaytdi. Qarasaki, kuppa-kunduzi eri «qon qusgur Nafisa» bilan bir ahvolda... bolalar maktabdan kelib qoladi, deb xavotir ham olishmabdi...

Matluba hali-hali tushunmaydi: sovxozi nomi «mehmonxona», aslida esa fohishaxona vazifasini bajaruvgchi joyi bor. Eri nima noma'qul narsa yesa, o'sha yerda yergi. Uyga olib kelgani nimasi u yuviqsizni?! Eri janjallahib o'tirmadi. Nafisani yuldirishga ham qo'ymadidi. «Uningni o'chir», — dedi-yu o'ynashini olib chiqib ketdi.

Matluba esa... o'ylay-o'ylay, axiyri ular yotgan o'rinto'shakni hovli o'rtasiga uyib, yoqdi. Bu bilan ham hovuri bosilmagach, karavotni ham yoqdi.

Bolalar qo'rquvda javdirashadi.

Qo'shnilar hayron...

Faqat Tursunali hayron bo'lmasdi. Ertasiga yugurdaklar iyu mashinasida yap-yangi karavot tashlab ketishdi.

Haromdan qaytmaydigan ana shu er qamalib, peshanasi devorga tekkach, ko'zi ochilganmikan? Oiladan ko'ra o'ynashning karashmasini afzal bilgan er: «Xotinim men ga vafo qilyaptimi?» — deb o'ylayaptimikan? Shunday deb o'ylashga haqqi bormi?

Vafo qilmaydigan xotin erining qamalib ketishini kutib o'tirar ekanmi? Erining buzuqlig daryosiga sho'ng'iganini bilgani hamon bu daryoga o'zini otmasmidi?

Xatida «vafodorim» debdi...

Vafodorim?

Matlubaning xayoliga bir fikr urilib, changalida g'i-jimlanib turgan qog'ozni shoshib tekisladi:

«Ha, «vafodorim» debdi. Qiziq, ismimni yozmabdi. Menga hech bunday demagan. Yaxshi kunlarda ham demagan. Anavi yer yutkurni aytgan bolishimumkin. Toxta, toxta.. Balki bu xat shangyozilgandir. U haromi esa menga jonatga**h**olsa-chi Boyagi turqi sovuq uning xushtoridir balki?..»

Shunga xshashfikrlar quyilib kelaverib, Matlubaning boshi oriqdazirillay boshladi. So'ng shu oribahona bo'lib hongrabyilalyubordi. U erini hibsga olishganda ham, mahkama hukmi qilgandham yilamaganaedi. To'g'ri, yuragi yomon uvishib edi. Ammo dost-dushman uning kozlaridaam kormagandi. Birov: «Dushmanlar oldida past ketmadi, yilamaganyaxshi boldi»,—desa, boshqalar: «Buncha bez ekan bu xotin? Hech bolmasa kiprigini tupuk bilan hollasa-chiqindi erini yana kora-dimi-yoqmi?»— deyishgan edi.

Yuragi faryod chekmasa, kozlarigayosh kelmasa nima qilsin? Yilaningfursati shu kunga belgilangan ekan, astoydil yilashuchun arning qamalishi bahona bololmaskan, xotin kishi ziningerlanganini his qilsa, bas ekan. Ayni damda Matluba xorlanish kuyining avj pardaga kotarilganinfahmladi. Daqiqalar u tgan sayin: «Bu maktub kozginangeshilgur Nafisaga yollangan-u, u juvonmarg makr ishlatib, xushtorini bu yoqqa jonatgan»,— degan fikriga astoydil ishona boshladi. Bu fikr tez orada mutlaq hokimlik shohsupasini egallab, qolgan barcha xayollarni quva ketdi.

Yagona fikrga mahkum bolgachbu zuoumdaqutu-
lish, qutulishgina emas, qarshi hujumga u tiboanimini
yakson qilish choralarini izlay boshladi. Donishmand ahli-
ning: «Johilga hilm ila munosabatda bol»,— degan nasi-
hatlariga erkaklar amal qilarlar-u, biroq u colosh qasdida
yonayotgan ayol ikki dunyoda quloq solmas. Bu sohada
ayollarning yagona shiori — «makrga makr qilichi bilan
hamla qilmoq kerak!»

Alam u tida yonayotgan Matluba makr bobida kun-
doshidan orqada ekanini tan oldi. Birovning erini u zig
rom qilgan makkoraga pul undirib olish qiyin ish ekanmi?
Matluba «uying kuygur Nafisa» ishlatgan yoki reja qila-
yotgan hiylalar haqida u ylayoshladi.

Qamoqda erining Tengiz ismli o'g'riboshiga yo'liq-qanini u bechora qaydan bilsin? Yaxshiki, u kundoshining ko'z ochib ko'riganini sog'inib Sibirga otlanayotganini, erini laqillatib ketish uchun bahona axtarayotganini bilmaydi. Bilsami, hozirgi ahvolini tutash desak, gurullab yona boshlashning qanday bo'lishini tasavvur qilavering. Yaxshiki, Tangri bandalarini ko'p narsalardan bexabar qilib yaratgan. Aksi bo'lgandamidi edi, dunyo xotinlarning g'alvasidan bo'shamay qolarmidi, vallohi aTam!

Matluba og'riq zo'ridanmi yo qorong'i xaltako'chada milt etgan nur topolmay gangib ezilganidanmi, boshini changallab o'tirdi. Maktabdan qaytgan katta qizi bu ahvoldagi onasini cho'chitib yubormaslik uchun past ovozda salom berdi. Onasi alik olmagach, yelkasidan quchoqladi. Matluba uni quchib, endi unsiz faryod chekdi. Erining xurmacha qiliqlaridan bezgan damlarida ba'zan: «Bu dunyoda yashab nima qildim?» — degan xayolga ham borardi. Ana shu badbinlik ko'chasida ivirsib qolganida Xudoning o'zi yomon yo'lidan qaytarardi — ko'ziga bolalari ko'rindari. Uch yil muqaddam o'ngida qilolmagan ishi tushida sodir bo'ldi — o'zini yoqdi! Ana shunda bo'zlayotgan bolalarini ko'rib, o'zi ham baqirib yubordi. Bor ovozi bilan baqirgani uchun o'zining ovozidan qo'r-qib uyg'onib ketdi. O'shanda to'ng'ich qizi ham uyg'onib, onasini quchoqlab olgan edi. Bu dunyoda uni ushlab turgan zanjir shu farzandlari. Shu topgacha otalik mehrini bermagan «zormanda er» kasriga endi bular ham azob chekishlari kerakmi?

Qizini quchoqlab o'tirgan Matluba shuni o'ylab, yuragi ezilib: «Bundan ko'ra otib tashlashganlari ming marta yaxshi edi», — deb o'yADI. Qizi esa onasi ma'yuslanib qolganida: «Adamlarni o'ylab siqilyaptilar», — deb o'ylab, xafalik sababini sira so'ramasdi. O'n oltiga yetib qolgan qizi Matlubaning baxtiga g'oyat aqli edi. U hatto ko'chada otasi haqida mish-mishlarni eshitganida ham dardini ichiga yutardi-yu, onasiga bildirmasdi. Ko'rpato'shaklar nima sababdan yoqilganiga fahmi yetgani uchun ham bu xonadonda yashash onasi uchun g'oyat azobli ekanini bilardi. Bilgani uchun ham onasiga suyan-

chiq bo'lishga intilardi. Lekin onasiga qanday suyanchiq bo'la olishiga bolalarcha aqli yetmasdi. Hozir ham onasini quchgan holda nimadir deb uni yupatgisi keldi. Ammo o'sha «nimadir»ni topolmasdi, aytolmasdi.

Qizining shu tarzda quchoqlashi ham Matluba uchun zo'r dalda edi. U chuqur nafas olib, xo'rsiniqni nari haydadi. Qizining peshanasidan o'pdi-da:

— Nasiba, jon qizim, Zilolani bog'chadan vaqtliroq olib kela qol. Maydonga qarab o't: Shohrux to'p tegpani chiqib ketuvdi. Hammayog'ini rasvo qilmasin. Farrux qani, nima uchun birgalashib kelmadilaring? — dedi.

— Farrux o'rtog'idan kitob olishi kerak ekan, hozir keladi.

Nasiba shunday deb onasi buyurgan vazifani bajarish uchun chiqdi. Qizi chiqishi bilan Matluba avvalgi hola-tiga qaytdi. Oradan besh-olti daqiqa o'tmay, o'g'li eshik-dan asta mo'raladi. Kitob-daftarini qo'yib, ko'chani mo'l-jallaganida Matluba uni chaqirib, «Vali akangni chaqirib kel», — deb buyurdi.

Valijon — besh uy narida turuvchi yigit. Bilganlar uni «Tursunalining mulozimi», deydi, bilmaganlar esa «Direktorning shopuri», deyishadi. Kim nima desa desin, ammo Valijon xojasiga bag'oyat sodiq edi. Tursunaliga qo'shib uch kun qamab qo'yishganda ham xojasining sirlarini ochmadi. Suddan keyin esa xotini bilan birgalikda chiqib, Matluba yangasiga dalda bergen, «Nima xizmat bo'lса, tortinmay aytavering. Akam qaytgunlaricha sizga ukaman», — degan edi.

Matlubaning unga buyuradigan xizmati yo'q edi. Shu bois ko'chada ro'para kelganida salomlashardi-yu, ortiqcha gap aytmas edi. Shu sababli yangasining yo'qlovi Valijonni shoshirib qo'ydi. Tomorqadagi ishini yig'ish-tirib, qo'l-betini chala-yarim yuvgach, xojasining uyiga shoshildi. Ichkari kirib hol-ahvol so'rashga ulgurmay, yangasidan kutilmagan savolni eshitib dovdirab qoldi:

— Akang boyliklarini qayerga yashirgan?

Bunday savolni tergovchi qayta-qayta so'ragan, har safar «bilmayman» degan javobni eshitaver-gach, axiyri tutaqib, uni rosa do'pposlagan edi. Endi esa yangasi xud-

di shærgovchiga xshabs rayapti. Yol oþ op pisa qilyaptimikin desa, ohangi ancha jiddiy.

— Siz bilmasangiz... men bilmayman, opa.

— Sen gørnham bilasan, ayt.

— Axir, opa, men oddiy bir shopur bølsam...

— Sen shopur emas, qoshmachisan Akangga qoshib seni ham qoshmaz qilish kerak edi.

— Unaqa demang, opa, bolalarim bor.

— Senda bor bola boshqalarda yeqimi Ma, qiammo birovga ingleya korma.

Matluba shunday deb xatni uzatdi. Valijon o'qib chiqach, «Men nima qilay?!» — degan savol nazari bilan qaradi.

— Men har oyda buncha pulni qayerdan olaman? Sen, qoshmachi, hamma baloni bilasan. Akang topganining yuzdan birini uyga olib kelardi. Qolgani qayerda? Yo topasan, yo bolalaringni garovga qo'ydiraman. Qamoqdan bitta kallakesar kelgan. Unga seni ro'para qilaman-u holingni ko'rib turaveraman.

— Xudo xayringizni bersin, jon opa! Unday qilmang, opajon! Menda nima gunoh? To'g'ri, maishatlarini bilar-dim. Ammo pulga ko'zim tushmagan sira. Aldayotgan bo'lsm — Xudo ursin! — Valijon shunday deb yig'lam-siray boshladi.

— Piqillama, erkak ham yig'laydimi? Menga anavi buzuqning qayerdaligini ayt hozir.

— Qaysi... buzuq?

— O'zingni go'llikka solma! Juvonmarg Nafisani ayt-yapman!

— U shaharda yashaydi-da.

— Shahardaligini bilaman. Qaysi ko'chada, qaysi uydida? Tirik bo'lsa uyini ayt, o'lgan bo'lsa go'rini ayt.

— Ko'chasining nomini bilmayman, opa. Metroning oxiriga yetgandan keyin ozgina yurilsa mehmonxona keldi. Keyin o'ngga. To'rt qavatli imorat.

— Meni boshlab borasan o'sha ishratxonaga.

— Xo'p, opajon, ertaga, ishdan so'rab kelaman.

— Hozir jo'naymiz.

— Iye, axir...

— Senga «hozir j□naymiz»dedim. Bor, yarim soatda tayyor bo'lib chiq.

Valijonni chaqirtirishidan asl maqsadi ham shu edi. «Akangning boyligi qayerda?» — deb s□roqqatutishi yigitni egib olish uchungina edi. Shunday qilmasa, u yo Nafisaning turar joyini yashirardi, yo olib borib k□rsatishni paysalga solardi. Yoki «akasining sevimli yosh xotinini» ogohlantirib q□yishi ham mumkin edi. Shularni nazarda tutib Matluba u bilan □ziga os b□lmaganda □abhangda gaplashdi. Yangasidan bunday muomalani kutmagan Valijon chindan ham q□rqdi Ayniqsa, «Bolalaringni garovga q□ydiraman»degan gapiga ishonib, esi teskari bo'lib ketay dedi. Yi□isham yol□on emas, rost edi. Bir tomonda qama-qama avjiga chiqqan, yana bir tomonda mashina □□irla \$ish kavagini kovlashday oson bo'lib qolgan, odamlar esa t□ppa-t□satdan y□qolayotganza monda oddiy p□pisaham haqiqat k□ - rinishini oladi. U xojasining ba'zi sirlarini biladi. Biroq pul bor-y□qligi, yashirilgan-yashirilmaganidan bexabar edi. Bilganida hozirgi p□pisada \$o'ng shart aytvorardi. To'g'ri, u kaltafahm emas, xojasining ayrim harakatlaridan bir narsani sezganday b□lardi. Ayniqsa, qama-qamalar dovuli boshlangan, biroq ularning viloyatlariga yetmay turiboq xojasi □imirla qolgan edi. Uch-t□mar-ta zargarlik d□konlarigakirib chiqqanida «□ynashlarga sov□a-salomolyaptilar, akaginam», — deb □ylagan edi. Idorada □tirgankakaginasi»ning q□llari gakishan solib olib chiqishgandan s□n.gov□a-salonolinmagani, qo□opullar tillaga aylantirilganini anglab yetdi.

KUNDOSHLAR

Dunyo ham ajoyibotlarga boy. «Yaxshi buzoq ikki onani emadi», — deganlaridek, ayrim mamlakatlarning bir emas, ikkita rahbari b□ladi Birini «qonuniy prezident», deydilar. Halolmi, □irrony □bilanmi, har holda, saylanadi. Bu rahbarni yoqtirmaganlar □zlarin □muxolafat» deb e'lon qiladilar-u bиронта xorij yurtga borib, □zlariga yoqqan odamni «muvaqqat taxtga» □tqazadilar. Bu en-

di «norasmiy prezident» bola diBu holat kichikroq doi-raga keltirilsa, ya'ni oila deb atalmish oz i g aos «mamlakat»ga qiyoslansa, kundoshlarni eslatadi. Shunga kora Matluba «qonuniy prezident» deyilsa, Nafisani «norasmiy boshliq» deb atash mumkin bolar Ba'zan xolis bir kuch ularni murosaga keltirishga urinadi. ortad taxt masalasi turganda ularning murosaga kelmoqlari it ila mushukning ittifoqini eslatadi, xolos.

Matluba bilan Nafisa orasida taxt muammosi yo'q. Bi-roq orada taxtdan ham muhimroq masala, talashsa arzigulik narsa bor. Odamga nisbatan «narsa» sozin ishlatish noorin lekin ikki ayol — biri «qonuniy», ikkinchisi «norasmiy» xotin bir erkakni xuddi «narsa» kabi tala-shadilar. Agar xolis bir kuch — jallod o'rtaga chiqib: «Unga ham bo'lmasin, senga ham bo'lmasin, kallasini uzib tashlay qolay», — desa, ikkala xotinning bu taklifga ko'nishi aniq. Er o'lsa o'lib ketaversin, birovi egalik qilib olmasa, bas. Er birovning to'shagidan ko'ra lahadda yotsa ming karra a'lo! «Mayli, shu erim kundoshimga bo'la qolsin», — deydigan xotin topilgudek bo'lsa, dun-yodagi qahramon ayollardan biri bo'ladi. Shoirlar unga bag'ishlab qasidalar yozadilar. Bunaqa xotin shoir zotiga ham yoqadi-da...

Matluba «xolis kuch» — Valijon hamrohligida kundoshi bilan ittifoq tuzish uchun emas, yuzma-yuz «jang»ga kirish uchun borar edi. Viloyat markaziga yetganlarida boshkentga boruvchi so'nggi avtobus ham jo'nab ketgan ekan. Ortga qaytishni ma'qul ko'rmay, chiqim sal ko'proq bo'lsa ham, yo'lovchi mashinaga o'tirdilar. Yo'l-yo'lakay churq etmasdan ketdilar. Ikkovi ham gaplashadigan ah-volda emas edi. Matlubaning xayoli bo'lajak «olishuv» rejalar bilan band edi. Valijon esa kutilmagan bu ofatdan qutulish choralarini izlardi.

Nafisaning uyiga yetib borishganda shahar qorong'ilik chodirida orom olishga hozir edi. To'rt qavatli bino yaqinida to'xtagan Valijon:

— Uxlab qolishmaganmikan? — deb Matlubaga yuzlandi.

— Uxlasa uxlар, o'lib qolishmagandir? — dedi Matluba zarda bilan.

Valijon: «Gapim yoqmadı, shekilli», — deb o'yładi. Aslida esa Matluba bo'lajak uchrashuvni o'ylab, asabiy-lashib turgan edi. Valijon bu savoli bilan qizib, cho'g'ga aylangan temir ustiga suv sachratgandek bo'ldi.

Eshikni Nafisaning eri Samandar ochdi. Matlubani ko'rib, avvaliga ajablandi. Bir necha soniyalik taraddud-dan so'ng esa orziqib kutgan mehmoniga yetishgan baxti-yor mezbon qiyofasiga kirib, jilmaydi.

— O Matlubaxonim! Salomlar, salomlarim bo'lzin! Qarang, niyatning xolisligini, bugun o'ylab turuvdim. Aslida bizlar odam emas, bemehr dinozavrlarmiz. Sizni bi-ir yo'qlab qo'yishga arzimadik. Lekin siz hamisha biz bilan birgasiz.

Matluba qosh-u kipriklarigacha malla bo'lgan Samandarning gaplariga e'tibor bermay, beliga bog'lab olgan guldar peshbandga ajablanib qarab oldi. Samandar bu qarashning ma'nosini anglab, xijolatlik bilan izoh berdi:

— Oshxonada... ozgina xizmat bor ekan.

— Xotiningiz... yo'qmi uyda? — dedi Matluba ichkariga o'g'rinchha nazar tashlab.

— Bor. Uyda... Iye, nega ostonada turibsizlar? Qani, Matlubaxonim, ichkariga marhamat, — Samandar shunday degach, orqasiga chekinib, yo'l bo'shatdi-da, xotinini chaqirdi:

— Nafis, jonim, bu yoqqa qarang. Aziz mehmonlar kelishdi.

Matluba dahlizga o'tib, poyabzalini yechishga shoshil-madi. Dovdiragan Valijon esa kirishni ham, orqasiga qaytib ketishni ham bilmay ostona ortida turaverdi. U vazifasini ado etib bo'lgan edi. Ammo «bolalarini garovga qo'yishga» qodir bu xotindan ijozatsiz keta olmasdi.

Erining hayajonli ovozini eshitgan Nafisa hayallamadi. Ichkari xonaga olib kiruvchi eshikni ochdi-yu, dahlizda turgan kundoshini ko'rib toshdek qotdi. Ular uydagi o'sha sharmandali to'qnashuvdan so'ng yuzma-yuz uchrashish-magan edi. Nafisa o'ynashi qamalganidan so'ng kundoshi bilan bu holda, o'z uyida uchrashishi mumkinligini o'ylab ham ko'rmagan edi. «Nimaga keldi ekan bu xotin?» — degan savolga javob izlab ostonada shumshayib turgan

Valijonga qarab oldi. Valijon bu qarashning ma'nosini uqib: «Xudo ursin, bilmayman», — deganday yelka qisdi.

Matluba ularning bu ishoralarini sezib, kundoshidan ko'z umzagan holda:

— Vali, sen ketaver, — dedi.

Bu ijozat Valijonning yuziga urilgan tarsakiday bo'ldi. Oh, shu paytda xojasining qadri o'tdi-ya! Xojasi bunaqa paytda hotamtoy bo'lib ichkariga olib kirardi, qornini to'yg'izardi-da, «Falon paytgacha b□shsan», — derdi. Ana shunda Valijon ham ayshini surib olardi. Xo'jayining o'ynashiday boimasa-da, uning ham o'ziga yara-shiqli erkalaguvchilari bor edi... E, u dorulamon zamonlar beqaror shamoldayin o'tdi-yu ketdi. Endi xo'jayin qamoqda, u esaostonada egasiz qolgan itday shumshayib turibdi.

«Ketaver, — deydi. — Bu begona shaharda qorong'ida qayga ham boradi, deymaydi», — Valijon shu alamli fikr bilan burilganda «norasmiy yangasi» joniga ora kirdi:

— Valijon aka, kiring, ovqat tayyor-a...

— Vali, boraver, bolalaring kutib qoldi.

Avvalgisi taklif edi, bunisi esa buyruq. Buyruqdan esa qo'rqqulik. Valijon turgan yerida «norasmiy yangasi»ga yengil ta'zim qildi-da, orqasiga o'girildi.

— Valijon aka, kiring...

Kirish u yoqda tursin, endi to'xtasa, orqasiga o'girilsa, baloga qolishi tayin, shu sababli taklifni eshitmaganday zinapoya tomon shoshildi.

Samandar bularning kundosh ekanini bilsa-da, dardini ichiga yutib, o'zini go'yo hech nimadan xabari yo'q Qadamday ko'rsatishga intilardi. Oshnasining marhamat qilib, o'z o'ynashiga uylantirib qo'yanini to'ydan keyin fahmlagan, o'shanda Nafisani tashlab ketay ham degan, ammo: «Endi menga kim ham tegardi», — deb taqdirga tan bergen edi. Ayniqsa, bu uyning in'om etilishi uning ko'p muammolarini hal etgan edi. U ilmiy safarlarda ko'p bo'lardi. Ba'zan ikki-uch haftalab qolib ketardi. Uyda yo'qligida oshnasining serqatnov bo'lishini sezib bir qaynardi-yu, so'nq sovirdi.

Hozir Matlubaning tashrifi zamirida noxushlik yotganini sezdi. Kundoshlarning bir-birlariga tikilib qolish-

ganini vulqon arafasidagi sukunat deb bilib, portlash yuz bermasidan o'zini chetga olishni ma'qul ko'rdi. Qaysi erkak ikki xotinning (ayniqsa, kundoshlarning) orasiga tu-shib, baraka topibdiki, Samandar topsin? Bir kuni yuragi siqilib ketgan Nafisa: «Siz ilmdan boshqa narsani ham bilasizmi?» — deb zorlanganida, Samandar: «Men hayotni ham bilaman», — deb javob qaytargan edi. Mana, ayni damda o'zi bilgan hayot qoidasiga amal qilib, suzishmoqqa shaylanayotgan ikki kundoshdan nari b - lishni istadi.

— Ha, Nafis, siz mehmonga qarang, men ishlarimni tugata qolay, — deb oshxonaga kirdi.

Shu onda Nafisaning ortida otasi ko'rindi. Mana shunisi Matluba uchun kutilmagan, ayni chog'da noxush hoi bo'ldi. Asli ismi Toshbolta bo'lgan bu odam sovxozi direktoriga oshpazlik qilgani uchun ko'pchilik uni «Oshbolta» der edi. Matluba esa «fohishaxona iti» deb undan nafratlanardi. Ayniqsa, bu benomus ota qizining nomusini ham xojasiga in'om etganini bilgach, Matluba u bilan salomlashmay ham qo'ygan edi.

— Ha, kim kelibdi? — dedi Toshbolta mensimagan bir ohang bilan. So'ng esa piching qildi: — lye, aziz mehmonmi? Ha, keling, kelinposhsha?

Uning: «Ha, keling...» — degani zamirida «Nega kelding, ket!» — degan ma'noni uqib, Matluba ichida: «Tur-qing qursin sening!» — deb qarg'adi.

— Ha, gapir, ish-pish bilan keldingmi yo eringni qidirib keldingmi? Ering yo'q bu yerda. U hov... Sibirda ayshini surib yurgandir.

— Dada! — Nafisa shunday deb otasiga o'girildi.

— Nima «dada»?! — deb o'shqirdi Toshbolta. — Ni-ma bor unga bu uyda? Gaplashib o'zingni pastga urma. Uyga ham qo'yma. Bu uy eridan qolgan matoh emas.

Matluba bu uy ostonasini bosib o'tishi bilan «hujum»ga tashlanishni reja qilib, aytadigan gaplarini yo'l-yo'lakay pishitib olgan edi. Matlubaning xom xayoli bo'yicha eshikni «itdan tarqagan Nafisa» ochardi-yu uni ko'rib qo'rqib ketardi, orqasiga tisarilib, titray boshlardi... Ana shunda Matluba hujumga o'tardi. Yulmas edi-yu, ammo undan battar qilardi...

□ ylaganlar □ amalga oshmadi. Ustiga-ustak «fohisha-xona iti» vovullab turibdi.

— Erimning... — Matluba «erimning» degan s □ z g a u r □ übermoqchi edi, ammo ovozi titrab chiqib s □ zini yamlab yubordi. Ovozi titragani uchun □ z i d a n □ z naf-ratlandi. «Bu maxluqlar oldida past ketishim mutlaqo mumkinmas», — deb □ z i g a l d a berdi. Bir necha nafas sukut qilib, so'ng gapini qaytadan boshladi: — Erimning Sibirda ekanliklarini yaxshi bilaman. Lekin bu yerga itla-rini bo □ la k etganlarini bilmabman.

— Nima deding, voy ena □ ar!

— Dada! — Nafisa otasining k □ kragida yengil itar-di. — Dada, ichkariga kiring, aralashmang.

— Sen!.. — Toshbolta unga ham ikki o □ i z shirin» gaplaridan aytmoqchi edi, qizining k □ zlarig a □ z tu-shib, shashtidan qaytdi.

— Bu safar siz «x □ p a l e n g ...

— Yaxshi, ammo gapni kalta qil. Sen uning erini bil-maysan, tanimaysan... Hech qanaqa qo □ ozig a □ h □ y -ma, — shunday deb iziga qaytgach, Nafisa eshikni yopdi.

Matluba □ s h a h a r m a n d a l i k u n d a , □ a z a b o l o v i d a yo-nayotgan damda unga tuzukroq qaramagan ham edi. Hozir □ □ r i n c h mas, dabdurustdan tikilib qaradi. Xushbichim, x u s h r □ y k a n i n i tan olgisi kelmadi. «Erim bekorga il-a-kishmagan ekan, menga: «Yoshingga yarashadigan qiliq qil», — deb bejiz aytmagan ekan. Bu ishva qilib turganda men yoqarmidim», — degan fikrni xayolidan quvdi.

Nafisa: «Mayli, t □ y g a n i c h q a r a b o l s i n », — deb inda-madi. Oxiri sabri chidamadi:

— Keling, opa...

— Opa? — Matluba zaharli iljaydi. — Men qachondan beri senga opa bo'lib qoldim? Men sendaqa singilni bila-sanmi nima qilaman?

Nafisa qaydan bilsin buni. T □ □ r i a y i t l s a , Matluba-ning o'zi ham bilmaydi. Hozir Nafisa: «X □ s h n i m a q i l a r dingiz?» — deb so'rasha dovdirashi tayin edi.

— Singlingiz emasman. Yoshingizni hurmat qilib aytuvdim. Boshqa demayman. Menga bir nima demoq-chimisiz?

— «Bir nima demoqchimisiz?..» — Matluba kundoshiga tlnigohini qadadi. — Sen menga qaysi xushstoringni yubording?

— Nima deyapsiz? — Nafisa ajablanib kafitini yuziga bosdi.

— Erimni kanadek srganlaringetmaganday, endi menga yopishmoqchimisanlar?

— Tushunmayapman, nimaga unaqa deyapsiz?

— Sen zingnmerovlikka solma. Bilib qo"y, sha xushtoringni ham, zingnham ldirtiriluboraman!

Bu gapdan keyin oshxona eshigi qiya ochilib, Samandering boshi krindi:

— Qizlar, nima gap, tinchlikmi?

— Eshikni yoping! — dedi Nafisa zarda bilan. Amri shu zahoti bajarilgach, Matlubaga qaradi. Endi uning kzlaridaham aza buchqunlari krindi.— Qli-ingizdan kelsa ldiringlekin menga tuhmat qilmang.

— Tuhmatmi? Mana bu ham tuhmatmi? — Matluba shunday deb sumkachasidan xatni chiqarib uzatdi. Nafisa xatni qiyotganidandan kzinuzmadi.

— Bu... Tursunali akamning xatlari-ku? — dedi Nafisa ajablanib. — Sizga kim berdi?

— Xushtoring.

— Tuhmat qilmang dedim sizga! Xudo ursin, bu xatni endi ko'rib turibman.

Matluba: «Rost aytyaptimi yo tonyaptimi?» — degan fikrda unga tikilib qoldi. Mo'ljalidagi «hujum» kuchi zaif bo'ldi. Natijasi esa undan-da zaif bo'ladiganga o'xshab turibdi.

Nafisa o'ylab bir to'xtamga kelishi uchun kundoshiga sharoit yaratib berdi. Ichkaridan esa Toshbolta yolg'on yo'tali bilan qizini shoshirdi. «Dadam ham ba'zida oshirib yuboradilar-da», — deb g'ijindi Nafisa. Matluba ham yo'talning ma'nisini tushundi. «He, o'pkaginangga qurt tushsin, iloyim shu yo'tal olib ketsin-a...» — deb qarg'adi.

— Agar ishonmasangiz, — dedi Nafisa kundoshiga tik qarab, — turmaga borib kelamiz. O'zlaridan so'raymiz.

— Nima? — Matluba bunaqangi taklifni sira kutmagan edi.

— Sibirga birga borib kelamiz! — Nafisa shunday deb taklifiga aniqlik kiritgach, oshxona eshigini ochdi. — Samandar aka, Irkutskka ikkita bilet olib kelasiz.

— Hozirmi? — dedi Samandar ajablanib.

— Ertaga... ertalab. Borish-kelishga olasiz. U yoqda sarson bo'lib yurmaylik.

— To'xta, — dedi Matluba. — Senga «Sibirga boram» dedimmi? Menga qara, sen erimning Irkutskda ekanini qayerdan bilasan? — Matluba savolni Nafisaga berib, «Ko'rib qo'y xotiningni», — deganday Samandarga qaradi.

Nafisani bu savol dovdiratmadı.

— Odamlardan eshitdim, — dedi xotirjam ravishda.

— Odamlar qayerdan eshitishibdi? Radiodan ayтибди? Yo gazetda chiqibdimi?

— Endi maydalashmay qo'yaqoling. Avval manavini hal etaylik, — Nafisa shunday deb xatni eriga uzatdi. — O'qing, o'rtog'ingizdan.

Samandar xatni o'qib, boshini qashidi. Malla kipriklari pirpiradi.

— Matlubaxonim... Men bilmadim-u, ammo Nafisdan bekor gumonsirayapsiz. Xohlasangiz Tursunalining oldiga o'zim borib kelaman. Agar yanglishmasam, bu xatni o'z xohishi bilan yozmagan. Aniqlash kerak. Turmalarda har xil voqealar bo'lib turadi.

— Aniqladingiz nima-yu aniqlamadingiz nima?

— Qanchadan to'lash kerak ekan?

Matluba aytdi.

— Har oydam? — dedi Samandar ajablanib. — Bu butun bir kapital-ku? Bilasizmi, Matlubaxonim, bunday qilamiz: birinchi vznosni biz beramiz.

— Yo'q!

— Rad etishga shoshilmang. Axir, Tursunali menga begona emas. Biz aka-ukadaymiz, axir.

«Aka-ukadaymisan yo kundoshmisan?» — deb o'yladi Matluba. Bu yerda ortiq to'xtagisi kelmadı. Bularga uch-rashgani uchun o'zidan o'zi nafratlandı. Xuddi tilanib

kelganday his qilib, o'zini o'zi yulib tashlashni istadi. Shart burilib, eshik tutqichiga qo'l yuborganida Samandar uni yelkasidan ushlab to'xtatdi.

— Bunday qilishga haqqingiz yo'q. Menda pul bor. Bu yil baribir kurortga bormaymiz. Ishdan menga ijozat yo'q. Undan tashqari, biz puldan sira qiyalmaymiz. Do'stim uchun men ham nimadir qilishim kerak.

— Siz do'stingiz uchun juda ko'p ish qilib qo'ygansiz, xayr, — dedi Matluba eshikni ochib. So'ng ostona hatlab orqasiga o'girildi: — Bilib qo'ying: men tilanchi emasman. Erimni ham, nomusimni ham o'zim himoya qila olaman.

Matluba shunday deb eshikni yopdi-da, tez-tez yurib zinapoyadan tusha boshladи. Samandar ham, Nafisa ham uning ortidan yurmadilar. Samandar: «Erini himoya qiliishi tushunarli, ammo nomusni nima uchun aralashtradi?»— degan xayol bilan xotiniga qaradi. Nomus masalasi bekorga eslanmaganini tushungan Nafisa eridan ko'zini olib qochib, «y□talbosilib qolgan» otasi huzuriga yurdi.

O'LIMNING BAHOSI

Matluba zinapoyalardan tushib, tashqariga chiqquni-cha xuddi najasxonadan o'tayotgandek nafasi qaytdi. To so'nggi zinapoyani bosgunicha har tashlagan qadamida o'zini la'natladi. Dastlabki soniyalarda bu yerga kelib xato qilganini anglab, pushaymon yedi. Uning o'ziga bo'lgan nafrati bu pushaymondan tug'ilmedi. Ko'ngilga taskin bera olguvchi «olishuv» bo'limgani, ulardan baland kelish u yoqda tursin, hatto teppa-teng gaplashishga jur'ati yetmagani, eng muhimi — bu xonadondan besamar ketayotgani uning g'azabini qo'zg'atgan edi. Ba'zan odam achchiqlansa, g'azab toshlarini birovga otib xumoridan chiqadi. Hozirgi holatda esa Matluba g'azab toshlarini fagat o'zigagina ota olardi.

Alhol, Matlubani dardga solgan yana bir sabab bor: Matluba kundoshining yayrab yashayotganini anglab, avval ichi kuydi, so'ng rashk qildi. Yo'q, eriga nisbatan emas, o'sha qosh-u kipriklarigacha malla Samandarga

rashk qildi. Eri do'stini: «Zo'r olim, faqat Maskov bilan gaplashadi», — degan edi. Ana shunday zo'r odam bir buzuqning quliga aylanishiga Matluba toqat qila olmadi. «Bu itdan tarqagan g'arko'zga er hayf. Nima qilib bo'lsa ham ajratib yuboraman. Yursin menga o'xshab beva bo'lib...» Matluba xayolidan yarq etib o'tgan bu fikrni chuqurlash-tirmadi. Hatto qanday qilib ajratib yuborishini o'ylamadi ham. Buni keyinroq mulohaza qiladi. «Samandarga borib hammasini aytaman. Qiz olmaganini bilib qo'ysin...»— deb qaror qiladi-yu, ammo ahdini amalga oshirishni galga solaveradi. Bu galga solishi ham besabab emas. Avvaliga ajratib yuborishni o'ylagan bo'lsa, keyinchalik «Juvon-marg Nafisa bu dunyoda yashamasligi kerak», — degan fikrga ko'proq yopishib oladi.

Bu o'y-qarorlar keyinroq tug'iladi. Hozir esa...

Matluba besh-o'n qadam yurgach, bolalar o'ynaydigan maydoncha qarshisida to'xtadi. «Tepadan kuzatishayot-gandir», — degan fikrda o'girilib ularning derazalariga qaradi. O'nlab derazalardan qaysi biri ularniki ekanini aniq bilmasdi. Uning mo'ljalidagi biron ta deraza ortida ham sharpa sezilmadi.

«Er jonivor idish-tovoq yuvayotgandir. Anavi buzuq esa otasiga hisob berayotgandir. Hamma gaplarni eshitib turdi u it! Yana yo'taladi-ya! He, o'pkalaring irib ketsin sening!»

Matluba noaniq derazaga shu qarg'ish toshini otgach, sal hovuri bosilganday bo'ldi.

Nim qorong'i tuyulishda to'xtab turgan odamning o'zi tomon yura boshlaganini ko'rib cho'chidi. Yuragiga qo'rquv oralab, tislangan mahalida tanish ovozni eshitdi:

— Opa, bu menman.

— Vali? Nima qilib turuvding?

— Kechqurun yolg'iz yurmang, dedim. Har holda, bu yerda yotib qolmasangiz kerak, deb o'yladim.

Matlubaga Valijonning bu ishi ma'qul bo'ldi. Ammo sir boy bermaslik uchun:

— Meni bo'ri yermidi? — deb to'ng'illab qo'ydi.

Katta ko'chaga chiqishganda Valijon:

— Opa, men bir moshin to'xtatayin. Adangiznikiga borasizmi? — deb so'radi.

— Yo'q, — dedi Matluba, — ukamnikiga boraman.
Sen ham yura qol, joyi bemalol.

— Rahmat, opa, mening boradigan yerim bor.

Matluba: «Boradigan yeri bo'limgani uchun meni poylab turgandir», — deb o'ylagan edi. Valijonning bu gapidan so'ng o'sha fikri uchun o'zi uyaldi.

— Yuraver, seni tanishadi, — dedi muloyimlik bilan.

— Yo'q, opa, bahonayi sabab bilan qarindoshlarni ko'-rib ketayin. Yana qachon tushaman bu shaharga...

Valijon Matlubani mashinada kuzatgach, o'zi temiryo'l bekatiga ketdi. U Matlubaga yolg'on so'zladi: shaharda uning qarindoshlari yo'q edi. Xojasining davrida orttirgan o'ynashlarinikiga borishning ma'nosi yo'q. U xotinlar: «Valijon akaginam qachon bag'rimga kelarkinlar?» — deb ko'z tikib o'tirmaydi. Allaqaqachon boshqa xushtorlar topib, maishatlarini davom ettirayotganlari aniq.

Valijon yomon bir o'yinda beixtiyor aralashib qolayotganidan ko'ngli xijil bo'lib, turli o'ylar changalida tong ottirdi. Yaxshi kunlari tugab, tashvishli davri yaqinlashganimidan darak beruvchi bu shahardan tezroq qochgisi keldi. Tongda bиринчи avtobusga o'tirib uyiga jo'nadi. Halqa yo'lдан uzilgach, xuddi tashvishlari ortda qolganday sal yengil tortdi.

Matluba esa mashinadan tushgach, ukasi yashaydigan hovli darvozasiga yaqinlashdi-yu, ammo qo'ng'iroq tugmasini bosishga shoshilmadi. Hozir u hech kim bilan ko'rishihsni, gaplashishni istamayotgan edi. To'g'ri, ukasi uni ko'rib: «Nega bemahalda kelding?» — demaydi. Bil'aks, quvonadi. oralaridagi farq bir yosh bo'lgani sababli ular Fotima-Husan kabi yaqin, aytish mumkinki, ma'lum ma'noda hatto sirdosh ham edilar. Yoshdag'i farq oz bo'lgani sababli ukasi uni «opa» ham demasdi, sizlamasdi ham. Matluba erga tekkanidan so'ng «opa» deb sizlay boshladi. Bu Matlubaga ham erish tuyuldi. Ukasi bilan uzoqlashib ketganday bo'lди. Ukasiga ham shunday tuyulib, yana eski odatiga qaytdi.

Erga tekkanidan so'ng ota-ona huzuriga kelib-ketish uning uchun o'lim chig'irig'idan o'tish kabi azob edi. Otasi Matlubani e'tiborli bir odamning o'g'liga berishni

mo'ljal qilib qo'yganekan. Mooljalning ziginabo'lsa koshki edi. Dostivakilligida gonzalqila qizi borligini malum qilibdi. U odam esa qadrdonlaridan birida qolli gamos qiz borligidan «xabar topib», sovchi ham yuborgan edi. Balo buluti yopirilib, balo yomirlarana shandan so'ng yotib boshladi. Otasiga qoshilishnasi avval yalindi, so'ng pispisapildi. Pispisapilishda akasi hammadan oshib tushdi, gapira turib bir-ikki marta doppplashdan ham qaytmadi. Onasi songgichora — koz yoshlarini ishga solganida Matluba chiday olmadi. Onasiga qoshilib yilaburib bir yigitni «juda yaxshi ko'rishini» ayt-di. «Bolmagangap, — dedi onasi, — yaxshi ko'rganiningni erga tekkaningdan keyin unutib yuborasan». «Unutolmayman, oyijon», — dedi yig'idan to'xtamay Matluba. «Agar o'sha yaxshi ko'rganingga tegaman, desang, mening o'ligimni hatlab o'tib chiqasan bu uydan», — dedi onasi qat'iy tarzda. «Oyijon, sizning bir tomchi ko'z yoshingiz uchun undan kechsam kechvorar edim, lekin... to'yning ertasiga kuyov tomon meni izimga qaytarib yuborsa... isnodga chiday olmaysizlar...» Onasi beixtiyor: «Nega?» — deb so'radi-yu, nima voqeа sodir bo'lganini anglab, labini tishladi, yuzini yuldi.

Matluba to'g'ri aytgandi — isnodga chiday olishmas edi. Bo'lib o'tgan sharmandali voqeadan xabar topishgach, dardlarini ichlariga yutmoqdan o'zga chora bo'l-madi. Agar bu uyatdan odamlar xabar topishsami?! Xudo ko'rsatmasin!

Matluba xohlagani — Tursunaliga tegdi. Unga dab-dabali to'y nasib etmadni. U alamli, azobli hayotni o'ziga ravo ko'rdi. Otasi esa «oziq-ovqat savdosi boshqarma»siga rahbarlik qilish niyatiga yetolmadi. Sir uch kishining orasida qoldi. Matlubaning akasi, ukasi uning Tursunaliga tegishini o'jarligidan, deb baholadilar. Otasi Matlubani rasman oq qilmagan bo'lsa-da, gaplashmay qo'ydi. Salomlariga ham alik olmadi. Faqat dardga chalinib, til-siz, harakatsiz qolganidan keyin qiziga qarab bir nimalar demoqchi bo'lib g'udranardi, ko'zlar yoshlanardi.

Otasini isnod emas, pul g'ami yiqitdi. Ulardan ikki uy narida qimorboz qo'shnilar bo'lardi. Bir kuni chiqib:

«Qimorni tashlamoqchiman. Ammo bu shaharda yashab turib tashlay olmayman. Samarqanddan joy topdim. Ota yurtimga j naymanjоy begona b lmasin Siz bizga k p yaxshilik qilgansiz. Uyimni sotib oling, sizga arzonroq qilib beraman», — debdi. Otasi ham qiziq, uygа muhtojligi yo'q edi. Katta b'zi bilan qolib, kichigi joy qilib chiqib ketgan edi. Lekin nafs qur ur «Arzonroq ol-u u yer-bu yerini tuzatib, ikki baravar ortiqqa pulla», — deb qutqu qilaverganmi, har holda, mahalladan uch-t rоdam chaqirildi, savdo pishdi. Pul t landi Q sh nikkı oydan so'ng k chishg jozat so'radi. Oradan ikki oy emas, yarim yil ts ham u joyidan jilmadi. Sakkiz oydan s n g k chishlozimligi eslatilganda u: «Nega k chaman?» — deb «ajablandi». Uyni sotganini aytishganda esa, «Qachon sotibman? Shunday uyni nimaga sotaman?» — deb yana «ajablandi». Guvohlar chaqirildi. Biri «eslay olmadi», boshqasi «bunaqa gap bo'lmagani»ni aytdi. Guvohlar chiqib ketishgach, otasi yiqildi, tilsiz, harakatsiz b l i boldi. Oradan uch oy tar- tma sasi uyqusidan uy onmadidi. M minayol edi, omonatini ham osongina topshirdi.

Onalar hech mahal farzandlaridan norozi b l i ketmaydilar. Shunday bo'lsa ham Matluba: «Onamdan rozilik ololmadim», — deb armonda qoldi.

Onasi o'tganidan beri ota uyiga borgisi kelmaydi. Akasi bilan yangasini ko'rishga tob-u toqati yo'q. Akasining o'sha urganlari uchun sira-sira kechirolmaydi. Hatto onasini behurmat qilganida ham xotinini chertmaydigan insonning singlisini do'pposlashi chindan ham kechirish mumkin bo'lgan hoi emasdi.

Janozadan keyin qaysi bir kuni ukasi yolg'on yig'isini avjga chiqarayotgan yangasiga qarab turib: «Onam boyaqish o'ldilar-u bu dunyodagi do'zax azobidan qutuldlar», — degan edi. Yomon kelindan Yaratganning o'zi asramasa qiyin ekan. Qayinsingillar turmushga chiqib ketishar, qayin inilar ko'chib ketishar, ota bilan ona esa bu dunyo azobiga dosh berib yashashdan o'zga choralar yo'q. Ularni bu azobdan faqat o'limgina qutqaradi.

Matluba shaharga tushganida: «Otamnikiga boraymi yo ukamnikigami?» — deb ikkilanib o'tirmas edi. To'g'ri,

otasini borib ko'rardi, ammo u yerda uzoq o'tirmas edi. Yangasining: «Qiz degan otaga qarab o'tirishi kerak», — degan fasod gaplariga javob bermay iziga qaytardi. Erining ishi sudda ko'rileyotganda bolalarini olib ukasinikiga ko'chib keldi, deyilsa ham bo'ladi.

Matluba ukasining darvozasi qarshisida turib yuragi uvishib ketdi. Bir qarasang atrofingda mehribon odamlar ko'p. Ular senga yaxshilik qilgisi keladi-yu, ammo nima uchundir qilmaydi. Dardingga malham qo'ygisi keladi-yu, ammo nimagadir qo'yimaydi. Senga qo'shilib yig'lagisi keladi-yu, ammo nimagadir yig'lamaydi. Boshing uzra baxt quyoshi charaqlab qolsa, uning nuridan sen bilan birga bahra olishga shoshilishadi. Bu baxt quyoshi yuzini abri balo qoplaguday bo'lsa, pana-panaga qochadilar. O'sha panada turib senga bo'lgan sadoqatlarini izhor etadilar. Matluba eri qamalgunicha buni bilmas edi. Balo buluti hamma yoqni zulmatga o'ragani bilan hayotni yaxshiyomonga ajratib, odamning aflat uyqusidagi ko'zini ochar ekan.

Shaharda qarindoshlari ko'p, tanishlari undan-da ko'p. Ammo ularga baxti kulgan Matluba kerak. Bir olam dard iskanjasidagi baxtiqaro Matlubani ular boshlariga uradi-larmi? Ularni ham ayplash qiyin, chunki dard masalasida ularning boshqalardan kam yeri yo'q. Matluba qaysi birlarinikiga hasratdosh izlab borsin? Ukasi... mehribon, ammo Matluba ayrim masalalarda unga yorila olmaydi.

To'g'ri, shaharda bittasi bor... Lekin u ham hasratdosh emas. Ammo agar gapi rost bo'lsa, Matluba uchun jonini berishga tayyor odam. Dorulfununga qabul imtihonlari paytida ishqib, to Matluba erga tekkunicha tinch qo'yimadi. Ismi Ramziddin bo'lgan bu yigitni oshiqligi sababli hamkurslar Romeo deb kulishardi. Bu ism uning o'ziga ham yoqib, Matlubani bir-ikki «Julyetta» deganida eshitadigan «shirin» gaplarini eshitib olgan edi. Bu Romeo tushmagur mulohaza, odob, muomala ko'chalaridan o'tmagan soddagina yigit edi. Matlubaga bo'lgan muhabbatini hech kimdan yashirmas, muhabbat yashirin tuyg'ular mevasi ekaniga fahmi yetmas edi. May bayramida namoyishga ketishayotganda Qizil maydonga

yetmay, ancha vaqt to'xtab qolishdi. Shunda bu Romeo tushmagur dabdurustdan: «Shu yil imtihonlardan so'ng uyinggasovchi yuboraman, yo'q desang uvolimga qolasan», — dedi. Matlubaning qitmirligi tutib: «Chindan yaxshi ko'rasisizmi?» — deb kului. Unga dugonasi qo'shilib: «Yaxshi ko'rsangiz hozir hammaning oldida isbot qiling», — dedi. «Qanday isbot qilishim kerak?» — dedi Romeo ajablanib. «Matlubaning qarshisida hoziroq tiz cho'king!» — dedi dugonasi shaddodlik bilan. «Tiz cho'kaymi?» — deb so'radi Romeo Matlubadan «y□q» degan javobni kutib. «Nega Matlubadan so'raysiz? Yaxshi ko'rsangiz tiz cho'king darrov! Amerikaliklar shunday qilisharkan. Zamonaviy yigitlar Amerikaga ergashishlari kerak», — dedi dugonasi bo'sh kelmay. Romeo yana Matlubaga qaradi. Najot bo'limgach, cho'ntagidan tanga pullarini olib qizning oyoqlari ostiga sochdi-da, ularni terib olish bahonasida tiz cho'kdi. Uning bu topqirligidan qoyil qolgan qizlar ko'chani boshlariga ko'tarib sharaqlab kulib yuborishdi. «Matlu, shundan boshqaga tegsang, xor bo'lsan», — deb hazillashishdi. O'shanda farishtalar «omin» degan ekanmi, boshqaga tegdi-yu xor bo'ldi...

O'sha kezлari esa Matlubaning ko'z oldidan Tursunali ketmas edi. Boshqa barcha yigitlar uning uchun arzimas bir odamchalar edi.

Romeo bilan turli tasodif tufayli keyin ham uchrashdilar. Har gal uchrashishganda u uylanmaganini, Matlubaning erdan chiqishini kutayotganini aytardi. «Sovuq nafas qilma, nega erdan chiqarkanman?» — derdi Matluba. «Sen u bilan baxtli bo'lomaysan. Yo ajralishasan, yo si-qilib o'lib ketasan. Boshqa yo'l yo'q senga. Mening ham bitta yo'lim bor — seni kutaman. Qariganingda bo'lsa ham senga uylanaman. Uylanmagunimcha □lmayman», — derdi u.

Tursunali qamalgach, yana uchrashishdi. Bu safargi uchrashuv tasodifiy boimadi. Romeoing o'zi qishloqqa qidirib bordi. Yana o'sha gapni aytdi. «Uni o'n besh yil kutmoqchimisan? Kutma», — dedi. «Ahmoq ekansan,— dedi Matluba. — Boshqa kelma, men ersirab qolmaganman». «Boshqa kelmayman, o'zing borasan», — dedi

u ishonch bilan. So'ng yondaftarchasining bir varag'iqa turar joyini yozib berdi. Matluba bu qog'ozni g'ijimladidi, ammo tashlab yuborolmadi.

Hozir ukasining darvozasi qarshisida shuni eslab bir entikdi. Bu yomon xayol domiga tushmaslik uchun qo'n-g'iroq tugmasini bosdi. Eri qamalganidan beri dam yarim tunda, dam erta saharda kelib yurgani uchun eshikni ochgan kelini bu tashrifdan ajablanmadи. «Keling, opa», — deb so'rashdi.

— Sarvar uydami? — dedi Matluba ostona hatlab ichkari kirgach.

— Uydalar, futbol ko'ryaptilar. Odatlarini bilasiz-ku, futbol desa o'zlarini tomdan tashlaydilar.

Sarvar chiqib, opasi bilan salomlashdi-da, «Choy-poy ichib tor, hozir tamom bo'ladi», — deb yana kirib ketmoqchi edi, xotini to'xtatdi:

— Odamni isnodlarga o'ldirib yuborasiz-a, futbol o'l-guringizni bir marta ko'rmasangiz nima qilibdi?

Bu gaplarni eshitib Sarvar qoshlarini chimirdi:

— Yana bir marta «futbol □lgur»desang, jiyyaxaltangni qo'ltilqlagin-u onangnikiga jo'nab qol.

— Axir, opam...

— Opam bo'lsa, o'zimning ming yillik opam. Mensiz yarim soat chidab o'tirishga qurbi yetadi. Sen kallangni ishlat: bunaqa o'yin to'rt yilda bir marta bo'ladi. To'rt yil kutaman men bunaqa o'yinni.

— Mening kelin degan nomim bor. Har qanaqasiga kim yomon — kelin yomon.

Matluba er-xotinning «olishuvi»ni eshitib, ma'yus jilmaydi.

— Sarvar, bor, kiraver, futbol ingdan qolma.

Shu payt ichkaridagi televizordan muxlislarning hay-qirig'i eshitildi. Nimadir demoqchi bo'lgan Sarvarning gapi og'zida qolib, sapchiganicha ichkari kirdi.

— Nazmixon, qo'ying, odatini bilasiz-ku. O'zining to'yida futboldan kechmagan odam shu paytda kecha-dimi?

— He, quribgina ketsin shu futbollari, — Nazmi shunday deb qaynegachisini mehmonxonaga boshladi.

Bu xonadondagi er-xotin yechishi mushkul bo'layotgan asosiy muammo futbol masalasi edi. Sarvar bu o'yining ashaddiy muxlisi bo'lsa, Nazmi ashaddiy dushmani edi. «Futbol — san'at! Sochi uzun, aqli kalta odam bu o'yinning gashtini bilmaydi». «Futbol — yigirma ikkita ahmoqning bitta to'p ketidan Ali akaning itiday halloslab yugurishi». Er-xotinning bu boradagi «falsafasi» shundan iborat. O'n yilning nari-berisida davom etayotgan «ilmiy» bahsda hali tomonlarning kelishuvidan darak yo'q. Hozirgi bu bir «ch[□] qishib»olish ham Matluba uchun yangilik emas. Har safar «qozilik» qilishga to'g'ri kelsa, kelinga to'ylarini eslatadi. Bu eslatuv Nazmiga yoqadi. Aslida Nazmi bu voqeani sira unutmaydi. Chunki bu unutdigan voqeа emas. Biron hajvchining qulog'iga chalinsa, yozib yuborishi turgan gap. Tasavvur qiling: nikoh bazmi avjida. Tabriklarning biri ikkinchisiga ulanadi. Shirakayf mehmonlar kelining yarim soatdan beri yolg'iz o'tirganini sezishmaydi. Ammo bunaqa holat ayollarning nazaridan qochmaydi. Tabiiyki, eng avvalo kelinposhsha bezovtalanadilar. «Hozir kelaman», — degan kuyovto'ra qayoqqa g'oyib bo'lishlari mumkin? Yangasi biqiniga asta turtib, «Qani kuyov?» — deb so'raydi. Nazmi qayerdan bilsin?

Xotinlarning shivir-shiviri tavonxonagacha yetib bora-di. «Opoqi, qudalar xavotirlanishyapti, o'g'lingiz bir soatdan beri yo'q emishlar». «Yarim soat» tavonxonaga «bir soat» bo'lib yetib bordi. Bu gap xotinlar tili vositasida ko'chaga chiqquday bo'lsa, «ikki soat»ga yetishi tayin. O'g'lining qayerdaligini ona bilmay kim bilsin? To'g'ri, bu gapni eshitib avvaliga yuragi «shuv» etib ketdi. Har holda, do'stdan dushman ko'p. Onaning ziyrak fahmi bu xavotirni darrov quvdi. «Voy sho'rginam, bugun futboli boridi-ya! To'yni ertaga ko'chiring, deganida qu-dalar ko'nishmovdi». Xullas, Sarvar yana o'n besh da-qiqadan so'ng «topildi». O'sha kuni u umrida yagona zo'r «jasorat» ko'rsatdi: futbol o'yinining faqat ikkinchi bo'limini ko'rди. Birinchi boiimini esa «umrida bir marta bo'ladijan tantana» — to'y uchun qurban qildi. Tabiiyki, Nazmi bundan o'sha paytda bexabar edi.

Kuyovto'ra xushnud holda joylarini egallaganlari-da kelinposhsha arazlaganday bir chimirilib qo'ydilar-u, tergamadilar, turmushning dastlabki daqiqalaridayoq ter-gashni o'zlariga ep ko'rmadilar. Bu ham o'ziga xos bir jasorat bo'ldiki, zikr etilmog'i, albatta, o'rinnidir. O'yin ko'ngildagiday tugagani uchun kuyovto'raning kayfiyatla-ri yaxshi edi. Barmoqlarining uchi bilan kelinposhshanning yumshoq joylarini o'g'rincha silab, quloloqlariga shivirladi-lar:

— Sizga bitta she'r aytib beraymi?

Kelinposhsha ajablanib, «She'r yozgani ketgan edi-nigizmi?» — degan savol nazari bilan qarab qo'ydilar-u bosh irg'ab, she'rni o'qimoqqa ijozat berdilar.

Kuyovto'ra yana quloloqqa shivirladilar:

— Ekin ekadig'on yering bo'laman, bugundan boshlab ering bo'laman.

Kelinposhsha «piq» etib kulib qo'ydilar. Bu kulgi ku-yovto'raning gunohlari kechirilganiga bir ishorat edi. Qa-dah ko'tarib tabrik so'zi aytayotgan mehmon go'yo ku-yovto'raning hozirginada she'r aytganlarini sezgандay «mushoira»ni davom ettirdi:

— Sarvarbek! — deb xitob qildi u. — To'y to'ylashib keldik elingizga, Xudo quvvat bersin belingizga! — To'y-xonani qiyqiriq bosib, xotinlarning farazlarga boy «shivir-shiviri»ga yakun yasaldi. Mana shu qisqa vaqt davomida Sarvar xotinlar tili bilan yasalgan mish-mish «uchar gila-mi»da «yaxshi ko'rgan qizi bilan uchrashib qaytishga» ulgurdi.

Nazmi har safar shu voqeani eslagenida bir entikib qo'yadi. Hozirgi entikish eriga bo'lgan arazni nari sur-di. Qaynegachisiga mehribonlik ko'rsatib, Matlubanining qarshiligiga qaramay, dasturxon tuzadi. Choy damlab kelgach, qo'ni-qo'shnilar, qavm-u qarindoshlar hayotidan qisqa-qisqa axborot berdi. Matluba kelinining bu odatini ham yaxshi ko'radi, ham ranjiydi. Yaxshi ko'rganining boisi — Nazmi bilan besh daqiqa birga bo'lса, bas, bar-cha yangiliklardan xabardor bo'ladi. Ranjiganining boisi — uning tashrifi haqidagi ma'lumot ham ertasigayoq «xotinlar telegrafi» orqali tarqaydi. Tursunali qamalgani-

dan beri bu «telegraf» to'la quvvat bilan ishlaydi. Matluba ba'/an: «Gap shu yerda qolsin», — deb keliniga qattiq taynlaydi. Kelinning «o □ z mahkam», Matluba ketguniga qadar bu gap ostona hatlamaydi. Matluba tushgan avtobus shaharni tark etmay, sir saqlanmog'i lozim bo'lган yan-gilik ozgina qo'shilgan, bezalgan holda «xotinlar telegratl»ga ulanadi.

Nazmi mahalla yangiligini tugatib, qarindoshlarga o't-ganida Matluba uning gapini bo'ldi:

— Vazirlikka hisobot olib tushgan edim. Qog'oz o'l-gur biram ko'p. Bitta-bitta tekshirib olgunicha kech bo'lib ketdi.

Matluba bu gapni «xotinlar telegrafi» uchun atay ayt-di. «Hisobot oladigan qo'ng'iz mo'ylov opamga bir-ikki ilmoq tashlash uchun atay kechgacha olib □tiribdi», — degan qo'shimchadan, shubhasiz, Matluba bexabar qoladi.

Futbol tugab, Sarvar chiqib keldi.

— Voy, opa, qarang, bir qarang, — dedi Nazmi, — shoxlari chiqibdi!

— Boya nima deding? — dedi Sarvar uning pichingi-ni tushunmaganday. — «Odamni isnodlarga qoldirasiz» dedingmi? Men futbolni ko'rmay shu gapingni o'ylab o'tirdim.

— Gapimga nima bo'pti?

— Qiziq-da. Odam isnodga qolsa, senga nima?

— Voy, savil, opa, ukangizning gaplarini eshityapsiz-mi? Men odam emas emishman...

— Men unaqa demadim, — Sarvar shunday deb choy ho'pladi. — Choyni yangila, sovibdi.

Nazmi opa-ukaga bir-bir qarab chimirildi-da, jahl bilan o'rnidan turib, tashqariga chiqdi.

— Ba'zan juda oshirib yuborasan-da. Choy issiq edi-ku? — dedi Matluba ukasiga norozi qiyofada boqib.

— Shunaqa demasam, vaysab o'tiraveradi. Ha, nima bo'ldi, tinchlikmi?

— Vazirlikka hisobot olib tushuvdim...

— Bo'ladijan gapni gapirsang-chi.

Matluba ukasidan sir saqlamas edi. Ammo bo'lib o'tgan gaplarni hozir aytgisi kelmadidi. Erining o'ynashi

oldida, o'zi «shaltoq, isqirt», deb hisoblagan bir ayol qarshisida past ketgani, aniqroq aytilsa, mag'lub bo'lganini tan olgisi kelmadi. Shu sababli «Bo'ladigan gaping nimas?» — deb ukasidan nigohini olib qochdi. Ziyarak Sarvarga shuning o'zi kifoya qildi.

— Bo'ldi, to'k dardingni, yana yorilib ketmagan, — dedi u opasiga tikilib.

Matluba bu qarashga bardosh bera olmadi. Bir soat avvalgi voqeа, mag'lubiyatdan toshgan dard-u alam daryosi ko'zlaridan yosh bo'lib quyila boshladi.

— Yorilasan, dedim-ku! Ayt, nima bo'ldi?

Matluba ro'molchasi bilan burnini chimdib qo'yib, «Hech narsa», — dedi-da, sumkachasidan erining xatini olib, uzatdi.

Sarvar xatni o'qib, biroz o'ylandi. So'ng: «Xato o'qimadimmi?» — deganday satrlarga yana ko'z yogurtirdi.

— Ha... tushibdilar akaginam... — dedi o'ziga-o'zi gapirganday.

— Nimaga tushadi?

— O'g'rilarning qo'liga tushibdi ering.

— Qanaqa o'g'rilar? — Matluba bu yangilikdan ajablanib yig'ini ham unutdi.

— Qanaqa bo'lardi, oddiy sovet o'g'rilar, — deb piching qildi Sarvar. So'ng jiddiylashdi: — Ularga soliq to'lanmasa ersiz qolasan.

— Sen buni qayerdan bilasan?

— Bilaman-da.

— Yo'q, ayt, qayerdan bilasan?

— Men bilan birga o'qigan Habib esingdami? «Zolotoy» derdik. O'ninchida o'qiyotganida qamalib ketuvdi. Esingda yo'qmi? Xo'p, unda esing Tursunali akang bilan band edi. Xullas, shu bola ikki marta o'tirib chiqqan. Sal-kam «взор в законе».

— Bu nima degani?

— O'g'rilarning zo'ri, degani. O'sha gapirib beradi menga bunaqa gaplarni.

— Uchrashib turasanmi? O'g'ri bilan-a?

— O'g'ri bo'lsa ko'chada o'g'ri. Uyda mening oshnam.

— Bu xatni unga ko'rsataylik.

— Foydasi yo'q.

— Nega?

— Tanish-bilishlik, iltimos degan narsa bizlarda bo'la-di. O'g'rillarda bunaqasi yo'q. Eringni shunga hukm qiliшибдими — tamom. Davlatning xazinasiga o'xshab ularning ham xazinasi bo'ladi. Tomib turmasa, quriydi bu xazina. Ular esa xazinalarining qurishiga sira yo'l qo'yishmaydi.

— Xazinasiga o't ketsin!

— Qarg'ama. Ularning ishi to'g'ri. Ular duch kelgan odamni tushirishmaydi. Pochchaginamga o'xshagan g'ir-romlarni o'marishadi. O'zing o'ylab ko'r, ishchidan yo dehqondan nimani o'marishadi?

— Pochchangdan hech nima qolmadi. U uyga tashimas edi.

— Bu bilan ularning ishlari yo'q.

— Men qayoqdan topaman shuncha pulni?! — Matlubaning titroq ovozi bir necha parda ko'tarildi. Oshxonada ivirsib yurgan, qo'li ishda, qulog'i esa mehmonxonada bo'lgan Nazmi ham bu ovozni eshitdi.

— Er kerak bo'lsa, topasan, — dedi Sarvar xotirjam tarzda.

— Bermasam o'ldirishadimi?

— Bilmayman. Agar shunaqa shart qo'yilgan bo'lsa—o'ldirishadi.

— Bolalarimga-chi? Tegishmaydimi?

— Bilmayman... Agar bolalarni garovga qo'ygan bo'lsa...

— Nega garovga qo'yarkan? Bolalarda nima haqqi bor uning?! Voy Xudoyim, qayoqdanam shu hayvonga tegdim!

— Bo'ldi, g'ingshima. Endi hayit o'tgan, xinani xoh-lagan joyingga qo'yasan.

«Xotinlar telegrafi» uchun qiziq ma'lumot bera oluvchi gapga shoshgan Nazmi kirib kelib, ikkovlari ham jim qolishdi.

— Bolalarning o'qishiga qattiq turganing yaxshi,— dedi Sarvar gapni burib. Matluba avvaliga ukasining mud-

daosini tushunmay ajablandi. So'ng keliniga bir qarab olib:

— Hozir o'yinqaroq payti. Otasi bo'lganida hayiqib turarmidi... — deb qo'ydi.

— Onasi, ertalab vaqtli ketaman. Kiyimlarimga daz-mol urib qo'y, — dedi Sarvar xotini uzatgan choyni olib.

Nazmi: «Kiyimlaringiz tap-tayyor», — deyishga og'iz jufitladi-yu, o'zining bu suhbatga ortiqchaligini anglab, o'rnidan tura qoldi.

— Menam vaqtli ketaman, — dedi Matluba. — Ertaga kelaman. Pul oladigan yigit adamlarnikini tayin qilgan.

— Men ham adamlarnikida bo'laman. O'sha yigitni bir ko'rib qo'yay.

— Ko'rмаганинг yaxshimikan? «Birov bilmасин» degan.

— Aytaveradi. Bu birov bilmaydigan ish ekanmi? Sen ko'p siqilaverma. Yolg'iz bo'lganiningda boshqa gap edi. Ahmoq bo'lsa ham, hayvon bo'lsa ham o'sha peshanangga bitgan ering. O'n besh yil bergen bo'lsa, o'n besh yil o'tirmaydi. O'n besh yilgacha yo podsho o'ladi, yo eshak.

Sarvar shunday deb o'rnidan turdi.

— Rostdan ham vaqtli ketishim kerak. Sen ham damningni ol.

Matluba bu xonadonga har kelganida kelini hurmat yuzasidan mehmonxonada yotmoqchi bo'ladi. Har safar ham Matluba uni yotoqxonasiga chiqarib yuboradi. Odat bu gal ham kanda bo'lindi. Mehmonxonada yolg'iz qolgach, Matluba o'ringa yonboshladi. Bir necha nafasdan so'ng yuragi bezovtalanib, qaddini ko'tardi. Xayollari cho'l shamoliday bebosh bo'lib ketdi. Tursunali akasini ilk bor ko'rgan kunini ham esladi. Eslay turib, o'sha kunni la'natladi. Asalday totli tuyulgan damlar zaharga to'la turmushning aldamchi debochasi ekanini kech angladi. Yu-muq ko'zlar ochilgan damda zaharga to'la hayot qo'yniga kirib bo'lgan, endi ortga yo'l yo'q edi. Hozir ham turmushning zaharli nishi yuragiga sanchilib, bezovta qila boshladi. Yuragi qattiqroq sanchganda beixtiyor: «Oyijon!» — deb yubordi.

Ona — farzandiga yopirilajak dard-u alamlar seli yo'lidagi bir to'g'ondir. Ona Alloh huzuriga qaytgach, bu to'g'on o'z-o'zidan yemiriladi. Matluba buni ham kech angladi. Faqat Matluba emas, ko'pgina farzandlar shundaydirlar. Oxir-oqibat «Voy, onajonim!» deydilar, nolayu faryod dengiziga g'arq bo'ladilar. So'ng esa to'g'on bo'lismi Onanining ruhidan umid qiladilar. Johil bandalar... ofatlardan Onanining ruhi emas, Yaratganning o'zigina saqlashiga aqllari yetmaydi... Yana Xudo biladi, onalarning ruhiga biron-bir qudrat kasb etilsa, borini hayotda qolgan farzandlari himoyasiga baxsh etarmi edilar... Bu shunchaki ojiz bir faraz. Aslida esa onalarning ruhlari farzandlar duosiga muhtojdirlar...

Matluba o'rnidan turib deraza oldiga keldi. Uyda dimiqib ketganday bo'lib hovliga chiqdi-da, taxta so'riga o'tirib, tirsagi bilan panjaraga suyandi.

«Oyijon, «Baxtli b□l»,— deb duo qilardingiz. Duolaringiz nima uchun qabul bo'lindi? O'zim aybdormanni? Endi nima bo'ladi? Dunyodan baxt nima ekanini bilmay o'tamanmi? Mening bo'larim bo'ldi. Bolalarim baxtli bo'lishsin, duo qiling, oyijon. Oyijon, duo qiling, menga ko'p umr kerak emas. Zilolani kuyovga uzatganimdan so'ng bir yilgina yashasam yetadi. Zilolaning bolasini ko'rsam, beshik qilsam bo'ldi, keyin yoningizga chaqiring. Kuyovingiz bugun-erta qamoqdan chiqib kelsa ham, men bolalarimni unga ishonib tashlab keta olmayman. U chiqib kelgani bilan baribir yana o'sha shiltasi bilan topishadi...»

Shu fikr xayoliga kelishi bilan o'sha «qon qusgur Nafisa» ko'z oldida gavdalandi-yu badaniga titroq yugurdi. Boshqa narsalarni o'ylashga harakat qilsa ham o'sha «kafansiz ko'milgur Nafisa» qarshisida tirjayib turaverdi. Shunda bir necha soat ilgari xayolini yoritib o'tgan fikr yana qaytaladi: «Bu baloginaga yo'liqqur o'lmas ekan, men tinchimni topa olmayman. U o'lmasa — menga hayot yo'q...» Bu fikr qat'iyasha boshlaganda ayyonda sharpa sezildi.

— Nima qilib o'tiribsan?

Matluba ukasining ovozini eshitib, o'girildi.

— Uyqung kelmayaptimi? Negadir men ham uxlay olmayapman. Ko'zlarimni yumsam, adam chaqirayotganga o'xshaydilar, — dedi Sarvar.

— Sog'ingandirlar. Qachon borib ko'ruvding?

— To'rt kun bo'ldimikan?

— Yo'ling-ku, kunda bir ko'rib o'tsang boimaydimi?

— Bo'ladi-ku, Ofatni kunda bir ko'rish menga ham og'ir-da. Kirishimdan sasishni boshlaydi, yarim soatga zo'rg'a chidayman. Shuni qo'ydirib, akamga boshqa xotin olib berishimiz kerak.

— Qo'ysang-chi.

— Sen nimaga uxlamayapsan? Siqilma, dedim-ku.

— Anavi o'g'ri o'rtog'ingni qachon ko'rasan?

— Xohlasam hozir, xohlasam ertaga. Nima edi?

— So'rab ko'rgin. Bitta odam o'ldirish qancha turarkin?

— Nima? — Sarvar hayratlanib opasining ko'ziga qaramoqchi bo'ldi. O'n kunlik oy yorug'ida ko'zlardagi ma'noni uqib bo'lindi. — Nima deding? Kimni o'ldir-tirmoqchisan? Pul so'rab kelgan bolanimi? Kallangdan chiqarib tashla bu xayolni! U o'lsa, boshqasi keladi.

— Uni emas... Bittasi bor.. So'rab bera qolgin.

— Narx bir xil bo'lmaydi. Odamiga qarab so'rashadi. Lekin Habib bunaqa ishga bormaydi. U o'g'ri, killer emas.

— Killering nima?

— Pulga odam o'ldirib beradiganlarni «killer» deyi-shadi.

— Eng arzoni qancha, bilib ber.

— Sen... esingni yig'. Agar killer qo'lga tushsa, bu-yurtmachi ham ketadi. Aqlingni yig'-u bunaqa ishlardan nari yur. Agar yaxshilab qarg'asang, o'ladigan odam shu qarg'ishing bilan ham jo'navoradi. Bo'ldi, kirib yot. Ah-moq bo'lib qolibsan.

Sarvar keyingi gapni zarda bilan aytib, opasini tirsagidan ushlab uyga boshlabdi.

Matluba yotgani bilan uxlay olmadi. Tongga yaqin ko'zi ilingan ekan, darvoza qo'ng'irog'i ketma-ket jiring-lab uyg'otib yubordi. Sarvar maykachan holda shoshilib

hovliga chiqdi. Darvozani ochishga ulgurmay, ko'cha tomonidan jiyaning ovozi eshitildi.

— Amaki, tez borar ekansiz, adam aytdilar. Men telegrafga borib ammamga telefon qilaman.

— Ammang shu yerda, — dedi Sarvar darvoza eshigi ni ochib. To'n kiyib, qiyiq bog'lab olgan jiyanini ko'rduyu otasidan ayrılganini anglatdi.

Ukasiga ergashib chiqqan Matluba ostona hatlay turib: «Adammi?» — dedi-yu, javob kutmay yig'lab yubordi.

— Kechqurun chaqirishlari bekorga emas ekan, g'afflatda qolibman-ku, — Sarvar ich-ichidan kelgan bir o'kirim bilan boshiga mushtlab ingrandi.

Opa-uka ota uyiga kelganlarida akalari k□chag qo'-yilgan stullardan birida yolg'iz o'zi shumshayib o'tirgan edi. Matluba akasini bu ahvolda ko'rib yanada xo'rligi kuchaydi-yu «Voy otam»lab aytib yig'lashni boshladи.

Marhum uy o'rtasiga solingan yangi ko'rpa-to'shakda yotardi. Jag'i tang'ib bog'langan bo'lса-da, og'zi xiyol ochiq edi. Ko'zlari ham butkul yumilmagandi. Xuddi berkinmachoq o'ynayotgan bolaning ko'zlariday yarim ochiq edi. Go'yo u jon bermagan-u, hazillashib o'zini o'lganday qilib yotib olgan edi. Yarim ochiq lablari hozir bir jilmayib, so'ng gapira boshlaydiganday edi.

— Ada! Adajon!!

Tabiiyki, javob bo'lmadи. Lablar jilmaymadi. So'zlar aytilmadi. Go'yo murda gapirib yubormasin, degan ehti-yotni qilib jag' tang'ib bog'langanday...

Matluba kirib kelgan yangasini quchoqlab olib yig'-ladi. Bilmagan odam quchoqlashib bo'zlayotgan bu ayol-larni bir-biriga mehribon opa-singil deb o'yashi ham mumkin edi. Ular bir-birini tinglamagan holda aytib yig'lashardi: «Mehribonim otam...» Yarim ochiq ko'zlar esa go'yo ularni kuzatardi, lablar esa go'yo pichirlar edi: «Aytayotganlaring rostmi? Chin dildan achinyapsanlar-mi?...»

Afsus shuki, murdalar gapirmaydilar. Ularga bir necha daqiqalik so'zlash imkonи berilsami edi... Bu olamda nimiralar yuz bermas edi-ya... Yana kim biladi, balki birovlar bu imkoniyatdan foydalanib kalimayi tavhidni to'xtatmay

aytarlar, birovlar: «Shuncha yil talashib-tortishib erishganimiz oqibat shu bo'ldi, ko'rib qo'ying, ibrat oling», — derlar, birovlar esa: «Falonchi mendan besh so'm qarz olib edi, g'aflatda qolmanglar, borib olinglar», — deb ogohlantirar?

Kimdir Yaratganning huzuriga borayotganiga shukr qilib ko'z yumar, kimdir lahadda yolg'iz yotishini o'ylab qo'rquv bilan jon berar, kimdir to'plagan boyligi qolib ketayotganidan achinib o'lar...

Bu dunyoni qanday tark etishidan qat'i nazar, barchalariga aza ochiladi. Bu dunyoda bir-birlari bilan tenglik qilmagan odamlar lahaddagi guvalaga bosh qo'yishlari hamonoq tenglashadilar. Ammo bu tenglik ham uzoqqa bormas. Savol-javobdan so'ng amalga qarab ajralish yuz berar — birov to Qiyomat kuniga qadar qabr azobiga giriftor bo'lar, birov esa bu azoblardan ozod etilar. Qiymatda esa uzil-kesil ajralish yuz berar...

Lablari ham, ko'zlar ham yarim ochiq marhum erishajak ajr ne bo'lar, yolg'iz Tangri biladi. Matluba esa astoydil aytib yig'laydi: «Joyingiz jannatdan bo'lsin, adajon!..»

Marhum dafn etib kelingach, yig'ini uyg'otayotgan ehtiroslar ham so'ndi. Tashqarida odatdag'i «Bandalik ekan», «Ollohnning irodasi», «Sabr bersin», — degan ta'ziya bildirishlar, ichkarida esa birdan boshlanib, birdan so'nuvchi yig'i tovushlari eshitilib turdi. Matlubaning yangasi ko'ngil aynitar gaplarini ana shundan keyin boshladи.

Odatda, qizlar ota uyida qirq kungacha o'tirishardi. Matlubaning qirq daqiqa o'tirishga ham toqati qolmadи. «Ta'ziyaga keluvchi xotinlarning keti uzilmasa-yu yan-gamning vaysashi uchun fursat boimasa», — deb orzu qildi.

Ertasiga yangasining navbatdag'i diydiyosi boshlanganda Sarvar ichkariga mo'ralab, Matlubani imlab chaqirdi.

— Xursanalı degan yigit so'rayapti. Sovxozingdan kelibdi.

— Bu o'sha, — dedi Matluba. — Endi nima qilamiz? Shunday kunda ham kelib, bez bo'lib turibdimi?

— Nima qilarding, to'laysan. Bularda to'y-aza degan

gap yo'q. — Sarvar shunday deb cho'ntagidan qog'ozga o'rالgan pul olib, opasiga uzatdi. — Ma, olib chiqib ber.

— Pulmi? Tayyorlab qo'yuvdingmi?

— Zolotoyga aytuvdim. Yordam bera olmasligidan af-suslanib, bu yilgi soliqni ko'taradigan bo'ldi.

— O'zi berib qo'ya qolmaydimi?

— Bunaqa hotamtoyligini bilib qolishsa, uni ham tinch qo'yishmaydi. Lekin odamlari bilan gaplashibdi. Bolalaringga tegishmaydi. Xotirjam bo'l. Seni ham himoya qilişhadi.

Sarvar keyingi gaplarni opasini dardini yengillatish uchun o'zidan qo'shdi.

Matluba pulni olib, ko'cha eshik tomon yurdi. Yigit uni ko'rib, o'zini chetga oldi. Birinchi soliq to'lash marosimi gap-so'zsiz bo'ldi. Matluba pulni uzatdi, yigit olib cho'ntagiga soldi-yu «Xayr, rahmat», deganday tirjyb qo'ygach, burilib jo'nadi.

Matluba iziga qaytayotganida akasi: «Ha, tinchlik-mi?»— deb so'radi.

— Tinchlik, — dedi Matluba, — sovxozungning kassiri. Qog'ozlari menda edi.

Akasi xavotirlanib emas, shunchaki so'ragan edi, bu javob bilan qoniqli.

DARBADAR

Birinchi qor yomg'irga aralashib yog'gani uchun tez erib ketdi. Qor bahonasi bilan yopirilib kelgan sovuq tunda kuchga kirib, faoliyatini yer sathini muzlatishdan boshladi. Bunaqa sovuqni endi ko'rayoutgan Tursunali diydirab, «Shu sovuqlarda muzlab, o'lib ketsam kerak»,— deb xo'rligi keldi. Bir qo'lida cho'kich, ikkinchisida belkurak ushlab saf bilan yo'lga hozir bo'lib turganida ro'parasida Tengiz paydo bo'ldi.

— Ha, zemlyak, ishlar qalay? Muncha shumshayasan? Nima, sovqotdingmi? Agar shuni sovuq desang, bir-ikki haftadan so'ng onangni ko'rар ekansan-da. Ha, xotiningga xat yozib, rahmat deb qo'y. Aqli ekan. Buyrug'ingni bajaribdi.

Tengiz shunday dedi-yu, burilib nari ketdi. Tursunali: «Meni bu azoblardan qutqaring», — deb iltimos qilmoq-chi edi, ulgurmadi, gapi o□z idaqoldi. Safga qarata «Yurilsin!» degan buyruq berildi.

Uch kundan beri ular daraxt kesishmaydi. Kesilgan yog'ochlar yig'ilib qolganmish. O'n chaqirimcha piyoda yurib, so'ng o'rmon ichida xandaq qazishadi. Bu ovloqda xandaqning nima keragi borligini hech kim bilmaydi. Aslida bu xandaqlarning birovga zarurati yo'q. Daraxt kesish vaqtincha to'xtatilgani sababli mahkumlar bekor yotishmasin, degan maqsadda xandaq qazdirishadi. Bir guruh kelib qaziydi. Ertasiga ikkinchisi kelib ko'madi.

Avvalgi kun Nuriddin ham Tursunali bilan birga edi. Kecha uni Tengiz yoniga chaqirib olibdi. Nuriddinsiz uning bo'lari bo'ldi. Belgilangan vazifasini bajara olmay kaltak ham yedi. Kechqurun Nuriddinga arzi hoi qilib: «Tengizga ayt, menga yengilroq ish olib bersin», — degan edi. Bugun Tengiz yaqinlashayotganini ko'rib bir ichi yorishdi-yu, keyin yana zulmat qo'ynda qoldi.

Nuriddin uning iltimosini Tengizga aytgan edi.

— Hamzat, — dedi Tengiz unga javoban, — sen hech qachon odamlarga, ayniqsa, bunaqalarga achinma. Bu odam kim bo'lgan, bilasan-a? Sovxoz direktori! Bu yerda sen bilan menga yalinib yuribdi. Amal otida kerilib, davr surayotgan damlarida bizni o'rnila ko'rarmidi? Bu xunasa boshqalarni eshshakday ishlatib, o'zi maishatini surib yurgan. Ana endi mehnat nima, azob nima bilib qo'yisin.

— U chidolmaydi, o'lib qoladi, — dedi Nuriddin.

— Qo'yaver, o'lsa ham mehnat bilan o'lsin. Sen daraxt kesish boshlanguniga qadar mening yonimda yura turasan. Ammo bir narsani unutma: men bilan bo'lganiningda ko'zing ko'r, qulog'ing kar bo'ladi. Ko'rganiningni ko'rdim demaysan, eshitganiningni eshitdim demaysan.

Nuriddin bu buyruqqa itoat etdi. Bu itoati bilan o'g'rilar olamiga dastlabki qadam qo'yanini o'zi ham sezmay qoldi. Shu paytgacha o'g'rilar sirtmog'iga bo'yin bermay kelayotgan edi. Tengiz ko'zga ko'rinnmas sirtmog'ini ustalik bilan tashladi. O'sha kuni «politbyuro»

to'plandi. Hal qilinadigan aniq masala yo'q edi. Shu bois «chefir» choy ichib, qarta o'ynab gaplashib o'tirishdi. Qo'tos ham, Koshak ham, boshqalar ham xizmatdagi Nuriddinga qarab-qarab qo'yishardi. Koshak nechta uyni bosgani-yu qancha odamni asfalasofilinga jo'natganini aytayotganida Tengiz uning gapini bo'ldi:

— Koshak, biz bu gaplarni bilamiz. Agar Hamzatni qoyil qoldirmoqchi bo'lsang, yanglishasan. Hamzat Af'onda o'ldirgan odamlami sen sanog'iga yeta olmaysan.

Koshak: «Shunaqami?» — deganday Nuriddinga zim-dan qarab qo'ydi. Tengiz aytmasa ham Nuriddinning kimligi, ochiqlikda nima qilgani bu yerdagilarning hammasiga ay on edi. Bu choyxo'rlik, bu xizmat bo'lajak o'g'ri bilan «yaqinroq tanishish» maqsadida uyuşhtirilgandi.

«Politbyuro» a'zolariga Nuriddin ma'qui keldi. Unga qarshi e'tiroz bildirilmadi. Tarqalish paytida Koshak:

— Uning tarbiyasini Qo'tosga ber, — deb talab qildi.

— Hozir emas, — dedi Tengiz. — Bu bola egar urilmagan asov ot. Hurkib ketadi. Uni o'zim egarlab, jilovlab beraman. Ana undan keyin Qo'tosning qo'liga tutqizaman.

Nuriddin Bifsheksni o'ldirgach, qamoq lagerida o'ziga nisbatan munosabat o'zgarganini sezdi. «Politbyuro» majlisidan so'ng esa lager boshliqlari ham unga yumshoqroq muomala qila boshladilar. Ana shunda Nuriddin: «Bularga bog'lanib to'g'ri qildimmi?» — deb o'ylandi. Bulardan uzoqlashishning turli yo'llarini izladi. U fahmi yetgan, bilgan barcha yo'llarning boshi berk edi. «Faqat o'limgina bulardan qutqarishi mumkin», — degan to'xtamga keldi.

Garchi qamoq lagerida erkinroq yurishga sharoit yaratilgan bo'lsa-da, u ruhini qafasdan bo'shata olmas edi. U Bifsheksdan zo'rroqlari bilan ham olishmog'i mumkin, ammo o'zini o'zi yenga olmas edi. «Ismingiz nima, otaxon?» — deb so'raganida, kulimsirab turib: «Darbardar», — degan o'sha qariyani qutqarib yuborolmagani uhun o'zini o'zi to o'lgunicha la'natlasa kerak.

* * *

Tayyorgarlik mashqlari davrida askarlar orasida «Af'g'onga tashlashar ekan», — degan mish-mish yurar-

di. Birovlar qo'rqib, najot istab uylariga xatlar yozsalar, boshqalar «baynalminal burch»ni bajarish, qahramonlik ko'rsatish ilinjida janggohga oshiqardi. Ba'zi yigitlar esa: «Afghaniston qaytganlar institatlarga imtihonsiz qabul qilinar ekan», — deb umid qilishardi. Institutlarga kirish uchun Afg'onidan tirik holda qaytish lozimligini esa o'yashmas edi. Har kuni o'nlab qora temir tobutlar selining oqib kelayotganini ular bilmasdilar.

Nuriddin esa: «Nima bo'lsa peshanamdan ko'rdim», — deb o'zini taqdir yozug'i ixtiyoriga bergan edi. U janggohda yetti uxlab tushida ko'rмаган fojialarga duch kel-di. Dastlab: «Bu wahshiyliklarni ko'raverib jinni bo'lib qolsam kerak», — deb o'yaldi. Yo'q, aqldan ozmadi, aksincha, diydasi qotib bordi. U afg'onlarning nima uchun urushayotganini tushunmas edi. Uning uchun bir narsa aniq — qarshisidagi dushman! Sen otmasang, u seni o'l-diradi. Chunki u uchun sen dushman! Bu dunyoda yashab qolmoq uchun ham qarshingdagini o'ldirishing shart. «Baynalminal burch», «Afghaniston ozodligi» degan tu-shunchalar minginchi darajadagi masala edi. Ajal o'qlari yog'ilib, faqat o'z joni ko'zga ko'rinish turgan onda fa-qat aqldan ozgan odamgina bunday burch haqida o'yashi mumkin. «Qarshimdagi dushman emas, musulmon biro-darlarim. O'z uyini, mol-u jonini himoya qilgan odam nima uchun dushman bo'lar ekan?» — degan tushuncha ham Nuriddinga yot edi. Qadimda Xuroson deb atal-mish bu yurtni bobolar bir tomonidan ingliz, shimoldan esa o'russ hamlasidan himoya qilib jon bergenlarini ham bilmas edi. O'russa qarshi jihodda jon bergenlarning avlodlari endi o'russa sherik bo'lib jon olsa... Bobolar o'russa Xurosonni bermagan edilar. O'russ Termiz bilan Ko'shkdan nari o'ta olmagandi. Nuriddin bularni ham bilmas edi. Bilganda-chi? Bilganda nima qila olar edi? «Bobolarim yurtiga qarab o'q otmayman», — desa, «Mayli, uka, siz uyingizga qayta qoling, bu yog'ini o'zimiz ep-lashtiramiz», — deyisharmidi? Be, insof qilishsa «xizmat-dan bo'yin tovlash» deb qamashardi. Rahm qilishmasa, shartta otib tashlashardi, vassalom!

Nuriddin o'zini Darbadar deb atagan qariya bilan uch-ragunicha aqsliz go'dak kabi edi. Darbadar otilganidan beri oradan to'rt yildan oshiqroq vaqt o'tdi. Qariyani otish uchun besh kishi chiqishdi. «Otilsin!» — deb buyruq berildi. U ham beixtiyor tepkini bosdi. Mo'ljalga olmadı. Balki o'qi xato ketgandir, qariyaga tegmagandir?

O'q otilmay turib qariya unga qarab jilmayib qo'ydi. Nega jilmaydi ekan? «Men Vatanning bir bo'lagiman, sen Vatanga qarab o'q uzmaysan, a?» — demoqchi bo'ldimi? Yo: «Ana, aytmovmidim, qui bo'lganing uchun ham bularga qo'shilib chiqding», — demoqchimidi? Nuriddin bu jilmayishning ma'nosini uqishga ko'p harakat qildi. Biroq tayin bir xulosaga kela olmadı. Badani o'qlardan ilmataeshik bo'lgan Darbadar ko'kragini changallab yana Nuriddinga tikildi. Bu safar jilmaymadi. Yo'q, yo'q, ko'zlar bir nuqtada qotdi: o'tkir nigohiga savol alomati muhrlandi. Nuriddin bu qarashning ma'nosini ham uqmadı.

O'sha fojiadan keyingi tunlar Nuriddin uchun behalovat, azobli tunlarga aylandi. Darbadar o'sha savol alomati muhrlangan nigohi bilan har tun uni ta'qib etadigan bo'ldi.

Asirlar saqlanadigan hibxonada Darbadardan bo'lak hech kim yo'q edi. Nuriddin hibxonani qo'riqlash uchun navbatni qabul qilganida bundan keyingi hayoti alg'ov-dalg'ov bo'lib ketishini o'ylamagan ham edi. Avvaliga: «Gapirish mumkin emas», — deb ogohlantirdi. Darbadar: «Sen gapirma, eshit», — deb so'zlayverdi. Xuddi tarix o'qituvchisi dars o'tayotgandek edi. «O'sha suhbatdan so'ng yigitning ongi o'zgardi, vatanparvarga aylandi», — desak lofga o'rinn bergan bo'lamiz.

Vatanni bir martagina bo'lsa ham ko'rishga zor ko'zlar jon taslim qilinganidan so'ng ham yumilmagan edi. Ana shu ko'zlar tunlari Nuriddinni uyg'otardi...

«Qo'lingni uzat, bo'tam, qo'rhma, kaftingni bir hidlay, undan Vatan hidi kelsa ajab emas. Imkonim bo'lsa edi, seni bir quchar edim. Axir, sen Vatanimning bir zarrasi-san. Men ham bir bo'lagiman. Taqdir o'yinini qaragin-a, Vatan ikkiga ayrilmish — biri qafasda, biri esa qullikda».

«Men qui emasman».

«Qulsan, b□tamqulsan. K□zlaryumuq qulsan. Aqli muhrlangan qulsan. K□zlarin ḡchiq bo'lsa edi, ozodlik sari yurgan bo'lar eding. Aqling qulflari buzilsa edi, kishanlarni urib sindirar eding».

«Kishan? Y□φizda kishan...»

«O, «K□ngilşen bunchalar nega kishanlar bilan d□stlashding, na faryoding, na doding bor...» B□tamşen bu satrlar ni bilarmisan? Ch□lponeşhitganing bormi?»

«Ch□lponeşhitganing bormi?»

«O millat, baxtiqaro millat! Seni zulmatdan yora□ - likka olib chiquvchi avlod shularmi edi?»

«Gaplaringizni tushunmayapman?»

«Vatan nadir? Millat nadir? Erk nadir? Anglarmisan □zing? Kulgan boshqalardir, yi□lagamenman... Hayvon qatorida sanalgan menman...» O millat, holing na bo'lar endi?»

«Ota, biron yeringiz og'rimayaptimi? Kasal emasmissiz?»

«Men sog'man, bo'tam, millatim xastadir. Men bugungi, ertami o'limimni toparman. Oqibat bu yorug' dunyo-ga sig'may qolarman. Vatan sog'inchi bilan tepayotgan yuragimga bittagina o'q kifoya. Vatanni bir martagini ko'rmoq umidimni o'zim bilan tufroqqa olib keturman».

«Vatan, Vatan, deysiz? Vatanda turibsiz-ku?»

«Bir jihatdan gaping to'g'ri, bo'tam. Bu Xuroson— bobolarimiz Vatani. Bizningda Vatandir bu. Ammo menning kindik qonim to'kilgan Vatan — Andijondir».

«Iye, men ham o'sha yerlikman».

«Qora qoshlaringga qarab ko'nglim sezib edi. Sen kiring bilan Vatan isi dimog'imga ufiirdi. Shu bois so'zlayverdim».

«Ismingiz nima, otaxon?»

«Ismim — Darbadar».

«Iye, shunaqa ism ham bo'ladiimi?»

«To'g'ri, bunaqa ism yo'q. Lekin shunaqa odamlar bor. Mingtepa degan joyni bilasanmi? Jannatmakon otamning kindik qonlari o'sha qishloqqa tomgan. Otam bir yoshta to'lmay turib bobomning yurak qoni shu qishloqda

oqqan. O'russa Mingtepa ariqlarida inson qonlarini oqizib, so'ng atrof qishloqdagilarni adirga haydaganlarini nahot eshitmagan bo'sang? O'zbeklarni darbadar qilib, ularning o'rniga o'russlarni ko'chirib olib kelib, «Marhamat, yashanglar!» — deganlarini ham eshitmaganmisan? Axir, o'sha fojiadan «Marhamat» degan nom xotira bo'lib qolgan-ku? Yo Rab, bu ne ko'rgilik? Dukchi Eshonni bilarsan balki?»

«Maktabda o'qiganmiz. Odamlarni aldab boyigan kishi ekan».

«Astag'firulloh! Eshon hazratlarining niyatlarini ko'krak suti kabi pokiza edi. Vatanni ozod etmoqni niyat qilib edilar. Jannatmakon bobom hazrat eshonning muridlari bo'lgan ekanlar. Ularning isyonini eshitganmisan?»

«O'qiganmiz. Uch-to'rt soatda bostirilgan ekan».

«Nima uchun shu qadar tez bostirilgan? O'ylab ko'rganmisan?»

«Biz o'qituvchi o'tgan darsga ishonamiz. O'ylamaymiz».

«Yo millat, holingga voy! Sen bir o'yla, bo'tam, Eshon hazratni fitna, ig'vo tuzog'iga tushirganlar. O'russlar eshon hazratdan qo'rqqanlar. Hazratning atrofiga odamlar tobora ko'p to'planaver ganlar. Yana bir yil qo'yib berilsa, Eshon hazrat g'oyat katta kuchga ega bo'lur edilar. Agar jihod bir yil keyin boshlanganida bu yurtlarda o'russning urug'i qurur edi. Bilib qo'y: millatni xor qilgan o'russlar emas, o'zimizdan chiqqan xoinlar, ig'vogarlar. Hazratimni ham shular badnom qildilar. Bularsiz o'russ hech nimaga erisha olmas edi. Ig'vogarlar turk sultonidan deb yolg'on maktub to'qidilar. Hazrat eshon bunga inonib bemavrid jihodga qo'zg'aldilar. O'zing o'yla-chi, qurol-yarog'siz ham jihodga chiqadimi kishi? Bobomning yo'llarini otam davom ettirdilar. Madaminbekka qo'shilib ikki yil jang qildilar. Bunda ham o'russlarga ig'vo ish berdi. Amir al-musliminning muborak bosqlarini o'z birodarlari uzishdi... Shundan so'ng yurtdan quvildik. Qashqarda makon topdik. O'russning bolshevigi Qashqarga yetib keldi. Biz esa bu yerlarga panoh izlab keldik. Endi o'russ bu yerdalarda urush qo'zg'adi. Ko'pchiligidiz tinchlik istagida Turki-

yaga yoxud Saudiya jo'nashdi. Men qoldim. Jihod istab qoldim. O'rusdan qachongacha qo'chamiz? Yo hayot, yo mamot! Seni duo qilaman, bo'tam, yurtga omon-eson qaytib bor. Qaytib borgin-u jaholatda yumuq bo'l mish ko'z-laringni och! Do'stlaringni ham uyg'ot! Vatanda bevatan yashama. Vatan bog'ini quritma. Inson o'z qoni ila sug'orib bo'lsa-da, Vatan deb atalmish muazzam bog'ning quri-mog'iga yo'l qo'ymasligi lozim, unutma! Millat xasta, o'g'lonlar esa tabibdurlar!»

Shu so'zlarni ayta turib xuddi nafasi siqilganday chur-qur tin olgan edi. So'ng ovozini pastlatgani holda bir bayt o'qib edi:

*Marizing bir tarafdin, bir tarafdin xorsan, millat,
Badandan doimo qon oldurar bemorsan, millat...¹*

Bolalikda she'r yodlashga uquvi durust bo'lgan Nuruiddin bir eshitishdayoq bu baytni eslab qolgan, so'ng mag'zini chaqmoq uchun tez-tez takrorlashni odat qilgan edi.

Darbadarning tunlari uyg'otib behalavot qilg'uvchi, savol alomati muhrlangan ko'zлари bilan shularni gapla-shadi. Hibxonadagi qisqa suhbat takrorlanaveradi.

Darbadar duo qildi. Lekin yurtga qaytish baxti Nuriddingga nasib etmadı. Bir qishloqqa hujum qilishganida chiday olmadi. Xonadondagi himoyasiz ayollar, bolalarni otayotgan sheringining boshiga qo'ndoq bilan urdi. So'ng avtomatning barcha o'qlarini uning ko'ksiga bo'shatdi.

Darbadarning umidi jasadi bilan birliglikda ko'mildi — jaholat, g'aflat uyqusidan uyg'onish, qullik tamg'asidan qutulishi zarur bo'lgan yigit Sibiriyaning ovloq yerlarida odam suratidagi maxluqlarga choy damlab, xizmat qilib yuribdi. O'sha tun uyg'onib, Darbadarning ko'zlariga ro'-para bo'lganida shularni aytdi:

«Siz, g'aflatdan uyg'on, dedingiz. Qanday uyg'onishni esa aytmadtingiz».

«Xudo senga aql, zehn bergan. O'yla, yo'lni top».

«Men bunaqa joylarda nima qilay endi?»

«Sen bu joylarda ozodlikning qadriga yetasan».

¹ Abdulla Avloniydan.

«Men bular bilan birga boshishni istamayman».

«Bularning millati yo'q. Sen millatsiz odamlar bilan birga bo'lib, millatni qadrlashni o'rghanasan...»

Nuriddin odati bo'yicha Darbadarning ko'zlariga qarab ko'p savollar berdi. Lekin javob ololmadi. Chunki u Darbadarning ko'zi bilan emas, balki o'zi bilan o'zi gaplashardi. Uning ongi esa ko'p savollarga javob topmoqqa ojiz edi.

«AZIZ MEHMON»

Daraxt kesishga ijozat berilib, keraksiz zovur qazish barham topdi. Yer yuzasi qalin qor bilan qoplangan kezlarda kutilgan «aziz mehmon» — o'g'rilar olamida «Murik» degan yangi laqab olgan Slava Galiulin paydo bo'lди. Tengiz qish kunlari ham barakda biqib yotmay, tashqarida yoqilgan gulxan yaqinida o'tirishni xushlar edi. Ayniqsa, qor bo'ralab yog'ayotgan damda uzoq o'tirardi. Bulutlarni yorib chiqqan cho'qqilari osmon bilan o'pishgan tog' bag'ridagi ovuli yodiga tushib, yuragi ezilardi.

...Yelkalariga bo'rklarini tashlab olgan ovul oqsoqlari gulxan atrofida suhabat qurishardi. Ergashib chiqqan nabiralarni bobolari bo'rkka o'rab olishardi. Bular orasida Tengiz ham bo'lardi. Ular xuddi xaltadan boshlarini chiqarib javdirayotgan kenguru bolalariga o'xshab ketishardi. Bobolari ularni sovuqdan asramoqchi bo'lishardi. Ammo bolachalar «kenguru xaltasida» uzoq o'tira olishmasdi. Tipirchilayverib bobolarining jonlariga tegaverishgach, «ozodlik»ka chiqishardi. Qorda yugurib-yugurib, dumalab-dumalab o'ynashardi...

Qani o'sha ozod onlar... Qani o'sha mehrli bobolar... Qani ularning yomon shamollardan asraguvchi bo'rklari... Qani ona ovul...

Ana shu hislar bilan o'tirganida kimdir gulxanga yaqinlasha boshladi. Ozod osmonlardan yayrab-o'ynoqlashib tushib, to bahorning issiq nafasiga qadar yastanib yotmoqni niyat qilgan qor og'ir qadam yukiga dosh berolmay zorlanib g'ijirladi. Tengiz: «Kim ekan bu?»—

deb Ⓛ girilmadiU «aziz mehmon»ning shu kezlar keli-shini kutayotgan edi, ziyrak zehni bu safar ham pand ber-madi.

«Aziz mehmon» ikki qadam narida to'xtab ovoz berdi:
— Salom, Knyaz!

Tengiz salomga darrov alik olmadi. Qo'lidagi kosov bilan gulgandagi o'tinlarni titib qo'ygach, orqasiga o'gi-rialdi-da:

— Ha, Cho'mich, keldingmi, o'tir, — dedi.

Tengizning o'rnidan turmagani, ko'rishmagani, at-rofida xira pashsha kabi har on g'ing'illab g'ashiga te-guvchi odamni ko'rganday ensasining qotishi sababsiz emas edi. «Murik»ning xoinligi xususidagi ma'lumot, garchi tekshirib, aniqlanmagan bo'lsa-da, unga iltifot ko'rsatmoqqa mutlaqo yo'l bermasdi. Tengiz hech narsa bilmaganday uni iliq qarshilashi, gapni aylantirishi mumkin edi. Lekin buni istamadi. Chunki u ayyorlikka nisba-tan tog'liklarga xos mag'rurlikni afzal bilardi.

Murik Tengizning sovuq muomalasidan ajablanma-di. Avvalo «knyaz» martabasidagi bu yigitning dovrug'inи eshitgani bilan o'zini endi ko'rishi. Garchi «qonundagi o'g'ri» degan maqomga Tengizdan avvalroq yetishgan bo'lsa-da, bu olamda yetarli darajada nom chiqara olma-gan edi. Shunday ekan, dovrulqi o'g'rining bu qadar be-pisandligi tabiiy bir hoi bo'l'mog'i aniq. Biroq Murik bu iltifotsizlik boisini yaxshi angladi. Qamoq lagerlarida maxsus topshiriq bilan yurgani o'g'rilar olamiga ma'-lumligini, o'ziga «Murik» degan laqab taqalganini u bilar edi. Bu ishga rozilik bergenidayoq oqibatni — o'g'rilar olamida la'natga uchramog'i aniqligini hisobga olgan edi. Ammo tarozining boshqa pallasidagi o'lja qarshisida bu la'nat arzirli gap emasdi. Ta'bir joiz bo'lsa, «qimor»ga juda katta boylik tikilgan edi. Murik nafs oldida ojiz qoldi — o'zini to'xtata olmay «Yo o'laman, yo boyib ketaman», — deb tavakkal qildi. «Ilohiy tuyg'ular ruhga hayot berur, hayvoniy orzular hayvoniy hislarga quvvat berur», — deganlaridek, yaxshilik ko'chasidan yurmagan bu odamning o'zgacha qarorga kelmog'i mumkin ham emasdi.

Murik Tengizning yelkasiga kaftini qo'yib, go'yo salomlashgan bo'ldi-da, qarshisiga o'tib, g'o'lacha ustiga o'tirdi.

Tengiz qo'lidagi kosov bilan gulxanni yana titib qo'ydi. Taqdirga tan bergenicha ohista yonib ado bo'layotgan o'tinlar bu titkilashga dosh berolmay faryod chekkanday hisobsiz uchqunlar sachratdilar: go'yo o'layotgan o'tinlarning bezovta ruhlari osmonga sapchiganday bo'ldi. Bu hoi uzoq davom etmay, alanga yana o'tinlarni yamlab yutaverdi. Uning mag'rur tillari uchqunlarni quvalab yuqoriga intildi. Ammo o'chgan uchqunlarning izlarini topolmay to'lg'andi.

Bir olamning ikki fuqarosi orasida gulxan ana shunday hunar ko'rsatmoqda edi. Tengiz kutilgan mehmonga qattiq tikildi. Murik esa bu nigohni sezmaganday xotirjam o'tirdi. Tengiz undan ko'zlarini uzmagan holda umrini yashab bo'lgan o'tin cho'g'lari ostidan kartoshkani kosovda tortib oldi-da, Murik tomon surdi. Bittasini o'zi tomon tortdi. Cho'g'da pishib yetilgan kartoshkalar po'stlari archilib, yeb ado qilinguncha gap-so'z bo'lmadi. Tashqaridan kuzatgan kishi bularning birdan bir maqsadi gulxanda isinib, kartoshka yeishdan iborat deb o'ylashi mumkin edi.

— Cho'mich, — dedi nihoyat Tengiz, — sen katta ishlar qilib yurgan odam eding. Uyni urishga urib, royalda o'ynaganingga¹ hayronman.

— Atay qildim bu ishni, — dedi Murik xotirjam tarzda. — Oldinroq zo'r bir ishni do'ndirib qo'ygan edim. «Ish» bosdi-bosdi bo'lgunicha ozgina sayohat qilib kela qolay, dedim. Bir xunasa bilmay turib gap tarqatib yuboribdi. Knyaz, sen aqli odamsan, har qanaqa gaplarga ishonaverma. Men nomiga isnod keltiradigan qanjiqlardan emasman.

— Sen isnodga qolib bo'lgansan, Cho'mich.

— Bir xunasaning sassiq ig'vosi bilan isnodga qolaveramanmi?

¹ Aslida «Сыгратъ на рояле», ya'ni «jinoyat sodir etilgan joyda barmoq izlarini qoldirmoq» ma'nosida.

— Xunasaning ig'vosi... degin. Yaxshi. Unda Gobelyan bilan nima uchun uchrashding? Sening ishing ra-yon prokuroridan nariga o'tmaydigan edi. SSSR prokura-turasida nima qilib yuribsan?

Murik bu savoldan gangimadi. Biroq javob qaytarish-ga ham shoshilmadi. Boshini egib, sovuqda eti junjikkanday bo'lib, kaftlarini gulxanga tutdi.

— Aytsam ishonmaysan, — dedi u shu holatda. — Bir shilta ishga aralashtirmoqchi bo'lishdi.

— Qanaqa shilta ish ekan?

— Ikki yil oldin bir «tovuqqqa» borib yurardim. O'sha-ni o'ldirib ketishibdi.

— Qanaqasiga qutulding?

— Alibi! O'sha kuni men Chorjo'yda edim. Qarindoshlarnikiga to'yga boruvdim. Nafsim buzuqlik qilib ko'p yevoribman. Ichburu bo'lib to'rt kun kasalxonada yotdim.

— Gobelyan ishondimi shu bahonangga?

— Nega ishonmasin?

— Yo Gobelyan ahmoq, yo sen... yoki... men.

— Nega... axir...

— Murikjan... — Tengiz bu so'zni armani lahjasida, erkalash ohangida aytди, — Murikjan... Sen aytgan shilta ish bilan MUR shug'ullanyapti. Gobelyanning ishi bosh-qa. O'zbekistonning tit-pitini chiqarib yurgan odam bir shilta ishni deb bir shilta o'g'ri bilan konyak icharkanmi?

— Konyak ichganim yo'q.

— Sen qulqorra lag'mon osma, Murik. Sening taqdiring hal etilgan. Gobelyanning xonasidan chiqishingda o'zingga o'zing hukm o'qigansan. Agar yuragingda bir tomchigina halol o'g'rining qonidan qolgan bo'lса ham hukmni o'zing ijro etishing kerak. O'zingni o'ldirsang, yaxshi nom bilan ketasan. Biz o'ldirsak «qanjiq» degan nom kafaning bo'ladi. Boshqa yo'ling yo'q, Murikjan.

— Knyaz, ikkita yo'l bor joyda uchinchisi ham topiladi. Menga imkon ber.

— Gobelyan nima dedi senga?

— Bu gap ikkimizning oramizda qolishi kerak, Knyaz. Bu juda nozik masala.

— Sen menga shart qo'yma. Gap shu yerda qoladimi yo teletaypga qo'yamanmi, o'zim hal qilaman.

— Yaxshi, Knyaz. Men sening aqlingga ishonaman. Gobelyan avvaliga meni o'sha shulta ish bilan qo'rqt-moqchi bo'ldi, ishon. Keyin bir taklif aytdi. «Yaqinda katta «ov» bo'ladi. Atrofingga ishonchli o'g'rilar ni to'pla. Agar shartimizga ko'nishsa, ham ozod bo'lleshadi, ham boyib ketishadi. Vazifa qoyilmaqom qilib bajarilsa, to o'l-gunlaricha ularga tegmaymiz», — dedi.

— Qanaqa vazifa? Qanaqa «ov»?

— Unisini aniq aytmadı. Gapining mazmuniga qara-ganda «Ov» O'rta Osiyoda bo'lishi kerak. Vazifamiz — g'alva chiqarib berish bo'ladi. Qolganini o'zları eplashadi.

— Yaxshi vazifa olibsan... Demak, sen o'g'rilar ni emas, qanjiqlarni to'plashing kerak ekan. Sen meni qanjiq deb yurarmideng?

— Knyaz, unday dema. Sen men hurmat qiluvchi eng buyuk o'g'rillardan birisan. Ular bizga yaxshi ish taklif qilişdi. Evaziga umrbod erkinlik...

— Hukumatning har qanday ishiga yordam berish qanjiqlik ekanini unutibsang, Murik!

— Bu alohida bir imkoniyat, Knyaz. O'g'rilar olamiga katta foyda keltiradi.

— Faqat isnod keltiradi.

— Yaxshi, Knyaz. Men bu taklifni faqat senga aytdim. Agar sen buni qanjiqlik deb hisoblasang, mayli, men ham bu ishga qo'l urmayman. Ikki yilni eplashtirib, tinchgina yuraveraman.

— Shunday qil: tinch yuraver, — Tengiz bu gapni ay-tib zaharli iljaydi.

Murik suhbat yakuniga yetganini anglab, o'rnidan turib nari ketgach, Tengiz u o'tirgan tomonga qarab tupurdi. Uning tupugi gulxanning olovli bag'rini yorib o'tolmadi — manzilga yetolmadi.

Gulxandan uzoqlashayotgan Murik: «Knyazni ishon-tirdim», — deb yengil tortib yanglishgan edi. Tengiz u o'ylagan darajada befahm emasdi. Gobelyanning asl maqsadi unga hozircha aniq bo'lmasa-da, Murikka «katta ov»ni va'da qilganiga ishonmadi. Ishonmasligiga bir

qancha sabablar mavjud edi. Agar chindan ham «katta ov» bo'lsa, buni allaqanday «Cho'mich»ga qo'yib bermaydi. Bu yoqda Arutyunyan, Nersesyan, yana allaqancha nahang baliqlar turganida bu itbaliqqa balo bormi? Gobelyan o'zining «yan»larini ishga solmadimi, demak, «ov» katta emas. Yomon nom chiqarishga arzimaydi. Bu birlamchi sabab. Ikkilamchisi — prokuratura janjal chiqarish bilan shug'ullanmaydi. Tengiz Murik bildirgan ishdan is-qirt bir siyosat hidi anqiyotganini sezdi. Demak, Murik Gobelyandan tashqarida yana bir kishi bilan uchrashgan. «Ammo kim bilan, qayerda? Agar uch harflilarga aralashgan bo'lsa, ish jiddiy, — deb o'yładi Tengiz. — «Ov» balki ularning rejasidir? Unda Gobelyan nima degan bu qanjiqqa?» Muammo botqog'iga botayotgan Tengiz kosovni jahl bilan bir-ikki gulxan bag'riga sanchdi. O'tinlarni ohistagina yamlab yutayotgan gulxan alanga-si norizo holda bir toig'andi-yu, yana yumushini davom ettiraverdi.

Mehmon uzoqlashgach, barakning darchasidan xojsini kuzatib o'tirgan Pachoqburun o'rnidan turdi-da, yelkasiga paxtaligini ilib, tashqariga chiqdi. Gulxan tomon borsammi yo yo'qmi, degan o'yda bir necha nafas turdi-da, so'ng: «Biron amri bordir», — degan o'yda xojsi tomon yurdi.

Tengiz ro'parasidagi g'o'lachaga o'tirgan Pachoqburunga bir qarab oldi-yu, indamadi. Gapirish o'rniiga amrni ijro etmoqni afzal biluvchi Pachoqburun bekorga qarab o'tirmaganini bildirib qo'yish uchun so'z aytdi:

— Jmura¹, — dedi u so'ng ovozini balandlatib qaytardi: — Jmura! — so'ziga xojsasi tomondan e'tibor bo'l-magach, qo'shimcha qildi: — Yelkanlarini poralab tashlash² kerak.

Tengiz uning bu hukmini eshitib, unga o'grayib qaradi.

— O'rani yop!³ — Tengiz shunday deb chirt etib tupoaldi-da, — Bikovatiy⁴, — deb ming'irlab qo'ydi. Tengiz

¹ «Qanjiq» demoqchi.

² Besoqolbozlik nazarda tutilyapti.

³ Aslida: «Закрой поддувало» yoki «Привяжи метлу».

⁴ «Aqlsiz, t□nka degani.

bu «unvonni» tez-tez ishlatardi. Ovoz chiqarib aytgan mahallari ham ko'p bo'lardi. Bu qamoq lageriga kelib, «taxt»ga o'tirgan onida Pachoqburunni «xos navkarlik»ka tavsiya etayotgan Qo'tos: «O'zi bikovatiy bo'lgani bilan ishimizga sadoqati zo'r», — deb ta'riflagan edi. Tengiz ta'rifhing ikkinchi qismini qo'yib, birinchi bo'lagiga e'tiborini qaratgan edi. Ba'zan shunday to'nkaza ro'para bo'lgani uchun taqdiridan nolib qolardi. Ammo tur, desa turib, o'ldir, desa o'ldirib keluvchi odamning ong darajasi bundan ortiq bo'lmasligini bilgani uchun ham chidar edi.

Pachoqburunning hozir ro'paraga kelib o'tirishi yoqmadi, g'ashiga tegdi.

— Sen juchok'larga tayinla, bundan uzoqroq yurishsin. Ammo har bir qadamini kuzatishsin. Aytib qo'y, kim bunga yaqinlashsa, tramvayga qo'yiladi.

— Xo'p, — dedi Pachoqburun mutelik bilan.

— Gapimni eshitdingmi?! — dedi Tengiz zardali ohangda.

— Eshitdim. Hammasiga aytaman.

— Eshitgan bo'lsang, tuxum bosib o'tirmay tur o'rningdan!

Pachoqburun kelib o'tirgani xojasiga yoqmaganini anglab, o'rnidan turdi-da, barak tomon yurdi. Ostona hatlay deganda orqadan ovoz keldi:

— Menga Hamzatni topib kel!

Amrga itoat etmoqqa odatlangan Pachoqburun ostona hatlamay yelkasidagi paxtaligini kiydi-da, daraxt kesayotganlar tomon yurdi. Daraxt arralayotgan Nuriddingga yaqinlashib, odatiga xilof qilmagan tarzda: «Bu yoqqa yur», — deb to'ng'illadi-yu iziga qaytdi. U amrga so'zsiz itoat etilmog'iga ishongani uchun ham «Kelyaptimikin?» degan xayolda orqasiga qarab ham qo'ymadni. Pachoqburunning kim ekanini yaxshi bilgan nazoratchi arrani qo'yib, unga ergashgan Nuriddindan: «Qayoqqa ketyapsan?» — deb so'ramadi ham.

Nuriddin gulxanga yaqinlashib, salom berdi. Tengiz salomga alik olgach, ro'paradagi g'o'lacha tomon imlab:

¹ Yosh o'g'rilar.

«□tir»,— dedi. Nuriddin o'tirgach, kosovning uchi bilan cho'g'ni titib, orasidagi kartoshkani u tomon surdi. Bit-tasini o'zi olib, sovitish uchun u kaftidan bu kaftiga otib o'ynadi.

— Musulmonlarning afzal tomoni nimada, bilasan-mi? — deb so'radi u kartoshka po'stlog'ini archayotib.

Nuriddin: «Bilmayman, o'zingiz ayta qoling», — deganday unga qarab yelka qisib qo'yidi.

— Afzalligi shundaki, musulmon hamisha boshqalarga yaxshilik tilaydi. Mana, sen menga sog'lik tilab yaqin-lashding. Men esam senga sihatlik bilan birga Allohning rahmatini so'radim. «Bu o'g'ri bunaqa gaplarni qayerdan biladi?» — deb hayron bo'lyapsanmi? Men bobomdan eshitganman bu gaplarni. Mening fojiam nimada, bilasan-mi? Chin musulmon bo'la olmaganimda. Bobomning chizig'idan chiqmaganimda bu yerda kartoshka yeb o'tirmas edim.

— Endi afsuslanyapsizmi?

— Afsuslanishimdan foyda yo'q. Bu ham dunyoning bir sinovi-da. O'lmasam yana Xudoni tanish yo'lliga o'tar-man. Lekin... unda kech bo'lib qolishi mumkin. Fir'avnni eshitganmisan?

Nuriddin: «Y □ q»,— deb bosh chayqadi.

— Ha, eshitmagansan. Qadimda Misr podshosi bo'll-gan. O'zini Xudo deb bilgan ekan. O'sha ahmoq Muso payg'ambarni quvib borayotganida suvgaga cho'kkani ekan. O'layoutib: «Bo'ldi, Xudoni tanidim», — deganida, Xudo ham: «Endi kech!» — degan ekan. Bu juda kuchli falsafa, Hamzat! Hayotda kechikmaslik muhim, juda muhim!

— Kechikmaslik uchun hozirdan boshlasangiz-chi?

— Hozirdan? — Tengiz unga qarab jilmaydi. — Hozir yoi yo'q... Hamzat, bir yangi odam keldi. Sen u bilan gaplashibsangiz. Kimligini bilasanmi?

— Yo'q, o'zi kelib gap boshladidi.

— Nima deydi?

— «Bizlar musulmon farzandlarimiz, bir-birimizni qo'llab-quvvatlaylik», dedi.

— O'sha «t□qqi zqaytgan» endi musulmon bo'lib qolibdimi? Bilib qo'y: u bir maraz! Undan nariroq yur. Ammo harakatini ko'zdan qochirma.

— Kim o'zi u?

— Vaqtি kelsa bilib olasan, — Tengiz shunday deb o'rnidan turdi-da, barak tomon yurdi. Nuriddin esa iziga qaytdi.

OSMON UZOQ

Bu odamning gaplari Tursunaliga moydek yoqdi.

«Men qamataverib pishib ketganman. Sen-da musulmanin, men-da musulmanin. Bir-birimizni suyab yurmasak, bu haromilar bizni yeb-da yuborishadi. Zemlyak, yaxshi odamligingni qora ko'zlarining aytib turibdi. Unchamuncha odamga so'zimni o'tkaza olaman, qamoqlarning tuprog'ini bekorga yalamaganman. Sen menga suyanaver...» Bunaqa yoqimli gaplarni o'ziga yaqin olib yurgan Nuriddindan ham eshitmagan edi. «Ko'zlar sovuq bo'lса ham Xudo ko'ngliga yaxshilik solibdi. Xudo mening rahmimni yeganga o'xshaydi», — deb o'yladi u. Qamoqxonalar tuprog'ini yalayverib to'yib ketgan bu «mehribon»ning ko'ngli nima uchun iyib ketganini u yana uch-to'rt kundan keyin biladi. Hozir esa... Xudoga shukur qiladi. «Xudo tavbamni qabul etdi», — deb ko'ngli taskin topadi. U qo'llariga kishan solingandan boshlab Xudoni tildan qo'ymaydi. Dam tavba, dam munojot qiladi. «Gunohim bo'lса kechir», — deydi. Ha, aynan shu so'zlar uchadi tilidan. «Yo yaratgan Egam, men gunohkor bandangman, bilib-bilmay qilgan gunohlarimni kechir», — demaydi. «Gunohim bo'lса kechir», — deydi. Haromxarish yurib, yeb-ichganlarini gunoh emas, odatiy yashash tarzi deb biladi. Zino qilayotgan paytda Xudoni eslamanagan edi. Qo'llariga kishan tushishi bilan yodga oldi. «Shayton vasvasalaridan qutqar», — deb so'ramagan edi, «Qamoqdan qutqarib ol», — deb nolalar qildi. Birovlarning haqqini yeganida bu dunyoning hisob-kitobli ekanini unutgan edi, qamoq zindonida xotirladi. «Nafs balolaridan qutqar», — deb so'ramagan edi, «Zindon azoblaridan qutqar», — deb faryodlar qildi. Yemoqning quasmog'i borligini bilmaganday yurdi, tepki zarbidan qayt qilganida bu haqiqatni anglaganday bo'ldi. «Nafsimni oldir», — deb so'ramagan edi, «zimnoldirma», — deb tavallolar qildi.

Bandaning holi shu: go'yo u yoki bu ishning gunoh ekanini bilmaganday yuraveradi. Boshi devorga urilib, zarba tufayli ko'zlaridan uchqunlar sachraganida Tangrini eslaydi. So'ng: «Gunohlarim bo'lsa kechir», — deydi. Shunday degani ham katta gap. Ba'zan: «E Xudoyim, qaysi gunohlarim uchun meni bunchalik qiyinarsan?» — deb zorlanib ham qo'yadi. «Haromdan saqlansam edim, nafsimni tiya olsam edim, bunchalar xorlikka yo'liqmas edim», — deb o'zini ayblamaydi. Bil'aks: «Falonchi mendan ko'proq yegan edi, begona to'shaklarni mendan ko'ra ko'proq gullatgan edi. U yallo qilib yuribdi, men esam bunda xorman», — deb Xudoni adolatsizlikda ayblab ham qo'yadi. Har bir odam o'z amalining asiri ekaniga esa fahmi yetmaydi.

Dunyo bamisli birdaniga ko'karib, tezda qurigan dala-ga o'xshashini, ehtiyyotsizlik qilinsa, bu manzara kishini aldab qo'yajagini, aldangach esa bir kuni hayoti sarg'ayib so'la boshlagach, ma'yus va g'amgin bo'lajagini anglamaydi. Dunyoni fohishaning quchog'iday totli deb o'ylaydi. Dunyoning botqoq yuzasini qoplagan o'tloqqa o'xshashini, o'ylamay tashlangan har bir qadam botqoqqa botirajagi mumkinligini fahm etmaydi.

Tursunali shunday bandalardan biri. U marhamat so'-rab Xudoga ko'p yolboradi. Ammo iymon kalimasi bilan yumshamagan tildan uchgan bu yolborishlar qabul bo'larmikin, vallohi a'l'am?! Insonlarni salomatga, saodatga erishtiruvchi yagona narsa iymondir. Bani Odam har qanday yomonlikni faqat iymon bilangina yengajagini va har bir zafarga faqat iymon bilan erishajagini anglab yetmoq shu qadar mushkulmi? Dunyo to'plashga yetgan aql bu haqiqatni tushunishga kelganda qosirlilik qilarmi? Yoki buni fahm eta olmaslikka qalblarning muhrlangani sababmi ekan?

Tursunali bir muttahamning aldov so'zlariga mahliyo bo'lib: «Xudo menga marhamat qildi», — deb o'tiribdi. Nodon banda bilmaydiki, bu odamning ro'para bo'lgani — gunohlariga yarasha va'da qilingan ajrlarning davomidir. «Gunohim nima edi?» — deb yanada battar yig'latadigan daqiqalarning debochasidir.

Tangrining marhamatiga erishmoq oson edi. Nafsi tiymoqqa kuch topsa, sabr eta olsa, kunni shukr bilan o'tkazsa, bas edi. Bu unga og'ir tuyulib, yanada mashaqqatliroq, azob oroliga yetaklovchi yo'lni tanladi. Hamonki shu orol nasib etgan ekan, o'zi pishirgan oshni ichmoqdan o'zga chorasi yo'qdir!

Tursunali Murikning shirin so'zlariga mast bo'lib o'tirganida pastdagi karavotda yotuvchi «qo'shni»si bexosdan: «Ablah, maraz!» — deb qichqirib yubordi. So'ng qo'lidagi maktubni pora-pora qilib yirtdi. Keyin esa duch kelgan narsani tortqilab irg'itaverdi. Bunga ham qanoat qilmay karavotni mahkam changallaganicha silkita boshladi. Atrofdagilar «hay-hay»lab ushlab qolishmaganida Tursunalining tepadan yerga qulashi aniq edi.

Chorasiz odam joyiga o'tirib yig'lay boshladi. Dunyodagi eng ayanchli narsa balki erkakning yig'lashidir. Qamoq lagerlarida esa tez-tez uchrab turgani uchunmi ayanchli tuyulmaydi. Kunduzlari butalar panasida, tunlari esa yostiqqa hasratlarini to'kkан tarzda yig'lash odatiy hoi. Lekin bu chorasiz odam kabi ho'ngrab, yelkalari silkinish darajasida yig'lamoq kamyob hodisa. Shu sababli ham: «Nima bo'ldi, nega dodlayapsan?» — deb so'raguvchilar topildi. Chorasiz odam avvaliga qo'l siltab qo'yib javob bermadi. Dam o'tmay ko'z yoshi daryosi qurib, hasrat dengizi esa tosha boshlagach, dardini aytdi:

— Xotnim mendan ajrashibdi. Ablah, iflos! Axir, men uni sevardim. Men uni deb o'tiribman bu yerda. Odanni men bosmaganman. Rulda uning padarla'nati ukasi edi. Mashinamni yashirinchha olib chiqqan ekan, hay von! Xotnim: «Yolg'iz ukamni qutqarib qoling», — deb yalinsa, men laqma bo'yninga olib o'tiribman.

— Ukasi yolg'izmidi? — chorasiz odamning talvasasi ni ensasi qotgan tarzda kuzatayotgan Qo'tos shunday deb unga yaqinlashdi.

- Ha, bittagina ukasi bor edi.
- Eri-chi? Eri nechta edi?
- Tushunmadim, o'rtoq, bu nima deganingiz?
- Ukasi bitta, ammo eri bitta emas ekan, demoqchiman.

— Unday demang, biz bir-birimizni sevar edik.

— Burningni art! He mishiqi! — Qo'tos shunday deb hech bir kutilmaganda tarsaki tortib yubordi. Zarbning zo'ridan chorasiz odam yonboshlab qoldi. Tarsakidan qanoatlanmagan Qo'tos unga qarab tupurdi.

— Sen ham erkakman deb yuribsammi? Bir-birini sevar emish! Bilib qo'y, «Sevgilim!» — deb quchoqlaganida xayolida sen emas, ketvorgan o'ynashi turadi. Hezalak! Xotinlarni senga o'xshagan hezalaklar buzadi. Eplash qo'llaringdan kelmasa nima qilasanlar uylanib?! Shu hollaringga yana ko'ngillaring begonalarni ham tu-saydi. Sen ham borarmiding begonaga? — Yuzini silab o'tirgan chorasiz odam indamadi. — Borarding. Begona bilan o'pishayotganingda xotinchang ham begona bilan ayshini surardi. Senlarning hayoting mana shunaqa ah-lat. Xotining seni qo'ygan bo'lsa nima bo'pti? Bu yerda o'lib ketmasang, chiqib, boshqasini topasan. Yuzta er ko'rib to'yungan shilta bir ishvasi bilan ko'zingga qizdek ko'rindi-yu, tamom, unga uylanasan. Bir-birlaringni sevib yuraverasanlar. — Qo'tos shunday deb chorasiz odamning oyog'iga tepdi-da, so'kinganicha nari ketdi. Soliqni vaqtida to'lamagan mahbusning masalasini hal qilishga kirgan Qo'tos ishni pishitib, chiqib ketgunicha birov lom-mim demadi.

Bu yerdagi bema'niliklarga, bekordan bekorga so'kishlar-u urishlarga ko'nikib qolgan Tursunali chorasiz odamning kaltaklangani boisini tushunmadni. Har qanday sharoitda ham o'zini chetga olish tinch hayotini ta'minlayajagini anglab yetgan Tursunali yana joyiga chiqib yonboshladи. Chorasiz odam esa yig'lamsirab, o'zicha bir nimalar deb o'tiraverdi. Unga dardkash topilmadi. Olam-olam dardni yelkalarida ortmoqlab yurgan odamlarga begona dardning hojati bor ekanmi? Shular kabi Tursunali ham o'z dardining asiri edi. Hozirgi voqeа sabab bo'lib ko'z oldiga xotini keldi. Shu paytga qadar «Xotinim men bilan ajralishi mumkin», degan fikr xayoliga kelmagan edi. Odatda, er xotinni qo'yguvchi edi. Xotin: «Javobimni bering», — deb so'raguvchi, er janoblari esa hushlariga kelsa taloq xatini berguvchi

edilar. Ajib zamonning ajib qonunlarini qarangki, endi xotin erni qo'yadigan bo'libdi. Yana «Qamoqdagi erimni q□ydim», — desa, qonun ham «X□p»deyaverar ekan. Tursunali shunisiga besh ketmadi. Hozir kaftlarini bolish qilib shiftga tikilib yotar ekan, «Bitta ahmoqning gapi-ga kirib Matluba ham ajralishsa-ya?!» — degan fikr xayoliga urilib dahshatdan sapchib ketayozdi. Davrini surib yurgan kezlarida xotini: «Javobimni bering», — deb qolsa, ko'p ham tarang qilmagan bo'lardi. Matluba ba'zan nolib qolsa: «Chidasang shu, chidamasang to'rt tomoning Toshkent», — deb ajralishga shama qilardi. Hozir esa «ajrash» degan so'z uni dahshatga soldi. «Yo'q, ajrashadi-gan bo'lsa o'ynash bilan tutganida tashlab ketardi. U meni yaxshi k□radi», — deb o'ziga-o'zi tasalli berdi. «Yaxshi k□radi...» «Biz bir-birimizni sevardik...» «Bilib qo'y, «Sevgilim!» deb quchoqlaganingda xayolida sen emas, ketvorgan □ynash turadi!...» «Begona bilan o'pishayot-ganiningda xotinchang ham begona bilan ayshini suradi...»

Bu gaplarni eslab Tursunalining yuragi uvishdi. Shu paytga qadar xotini begona erkak bilan don olishmog'i mumkinligini o'ylab ham ko'rmangan edi. «U ham ti-rik jon, unda ham nafs bor. Shayton uni ham vasvasaga soladi», — degan fikrdan uzoq edi. «O'ynash bilan nafsi ni qondirish erkakka yarashadi. Xotin o'z eriga sadoqatli bo'lmgog'i shart!» — Tursunalining bu sohadagi falsafasi shundan iborat. U o'zining buzuqligini xiyonat deb hisoblamagan, agar birov unga: «Bu qilig'ing oila deb atalmish oppoq, pokiza dasturxon ustida balchiqqa botgan oyoqlar bilan yurishdir», — desa, zaharli jilmayib: «Bu yigit uchun ayb emas, yigit kishiga qirqta xotin oz», — deb qo'ygan bo'lardi. Agar o'sha odam: «Bir juvonga qirq erkak oz», — desami, «Jinni ekansan!» — deb so'kib berishi aniq edi.

«Begona bilan o'ynashayotganingda xotinchang ham...»

«Yo'q, — dedi Tursunali o'ziga-o'zi, — Matluba bu-naqa haromdan hazar qiladi...»

«Harommi bu ish? Sen o'zing nima uchun hazar qilmading?»

Kimdir shunday deb qulog'i ostida pichirlaganday bo'ldi.

G'oyibdan berilgan bu savolga javob qaytara olmadi. Chunki haromdan nima uchun hazar qilmaganini o'zi ham bilmas edi. Shaharga tushgan kezлari mai-shat qilgan damlarida ko'z suzib turuvchi ofatijonlar ustidan pul sochgan onlarida bularning fohisha ekanini, kechagina yoki bir soatgina muqaddam boshqa bir erkakning ko'nglini ovlaganini, ertaga yoki bir necha soatdan so'ng bu ahvol takrorlanayajagini, unga «jonginam» deb cho'chhayayotgan lablar o'nlab yoki yuzlab erkakka ishva qilgani va qilajagini o'ylamas edi. Nafsni qondirishdan o'zga narsani bilmassi. To zahmga chalinguniga qadar pala-partish yurdi. So'ng tanlaydigan bo'ldi. Tanlaganni qursin! Pul evaziga o'zini sotuvchi ayolning yaxshiyomoni, tozasi-yu iflosi bo'larkanmi?! Oq it bilan qora itning farqi bo'lImaganidek, bularda farq yo'qligi, barchassi «fohisha», «buzuq», «shilta»... kabi «unvon»lar bilan xorlanishini uning oqsoq fahmi idrok qila olmas edi.

Ishtoni yo'qning hadigi cho'pdan, deganlaridek, o'zi botqoqqa botgani holda pokiza odamning etagi loy emas-mikin, deb gumonsirashi qiziq. «Yo'q, begonaga ya-qinlashmoqqa haqqi yo'q!» — deb hukm chiqarmog'i undan-da qiziq. Uyidagi pokiza to'shakka o'ynashini boshlashdan hazar qilmagan odam «haromdan hazar qiliш» xususida o'ylagani yanada qiziqroq.

Xotinining ko'rpa-to'shaklarni kuydirib tashlaganini bilib, «Bunaqa ahmoq xotin dunyoda yagona bo'lsa kerak», — deb o'ylagan edi. Hozir o'sha voqeani eslab yuragi ezildi. «Bu mallavoyning xotini boshqa. Matluba haromdan hazar qiladi», — degan fikri qat'iy lashdi. Sog'ingan qalbiga bir iliqlik yugurgiladi. Ammo... bu qalbning to'ri Nafisaga bo'shatib berilgan edi. Manfiy va musbat bulut parchalari yaqinlashganida yashin chaqnagani misol yuragi bir sanchdi. Haromga o'rgangan ko'ngil pokiza hislarga o'rin bermoqni ixtiyor qilmadi. Nafs tarozisining Nafisa turgan pallasi bosib ketaverdi.

Qo'tosning hozirgi gapiga qadar xotinini guman qilmagan, birovdan qizg'anmagan edi. Biroq... Nafisani

qizg'anardi. Uni d^ostig^aoshirib» yuborganidan keyin hatto oshnasidan ham qiz^aanadiganbo'ldi. Samandar o^oushidashva qilayotgan Naflsa k^o zoldiga kelsa, bandaniga muz yugurardi.

Raykom taxtini egallash uchun y^o bchilganida «O'y-nash haqidagi ma'lumot t^o a n dbq^olish imumkin»,— degan ogohlantirishdan s^on gNafisani d^ostig^auzat-gan» edi. «Gilam sotsang q^oshninggasot, bir chekkasida zing^otirasan»,— deganlari shu-da! Xotindan kuygan Samandar xotinidan ajrashib d^ostigaarzi hol qilganida Tursunali qulay fursat kelganini fahmlab, kayfi oshib chuldirab qolgan oshnasiga Nafisani r^opar^oildi. Nafisa yi^oladitarang qildi, so'ng tayinli bir erga, yana to'g'ri Moskva bilan gaplashadigan olim erga ega b^olishin^anglagach, k^on di Samandar ertalab bir qizning «qizlik nomusiga» tegib q^oyganin bilib, q^orqi^oketdi. Q^orqitishmasaham bu g^oza Juvonga uylanishga jon-jon deb k^onaverardi Xullas, «gilam q^oshnig^aotildi», «bir chekkasida rohat ila tirmoq^asa davom etdi. Biroq «Gilam egasi nima uchun gilamda tiradi?» degan has-sad qalbini yondiraverdi. Aslida «gilamni» sotmasa ham b^olarkan Raykomga olib boradi, deb faraz qilingan y^ol aldamchi ekan, chiroyli jilva qilayotgan bu y^obirdan qoron^oilashdi-yutaxtga emas, zindonga r^opar^oildi...

Bitta qozonda ikki q^ochqorningkallasi qaynamaydi, deganlari balki mubola^oadir. Qozon katta bo'lsa nta kalla ham qaynar. Ammo bitta yurak ikki ayolga bir xilda mehr-muhabbat bera olmasligi aniq. U qalbini xotini Matlubaga t^oli^oshati^oberishni istasa ham, haromlik bulo^oidansuv ichishga k^onik kamafs talvasaga tushib, Nafisani unutishga y^olq^oy maydi. «Matlubadan nima k^ording To'g'ri, avvaliga totli edi, keyin chaynab tashlangan turshakning z^ob^oldi-qoldi. Egov emasmi-di u? Har kuni umrni egovlamas edimi? — der edi nafs balosi.— Nafisa-chi? Bu dunyoning lazzatini kim berdi? Nafisa! Nafisa bor joyda jannatni orzu qilishning z^okulgili emasmi? Mingta Matlubani t^oplasang^attagina Nafisaning t^oshakdagit^ol^oanishi^oetmaydi...» Shundan so'ng k^ozlarinyumib, zin Nafisaning qucho^oida

ko'rardi. Hammasini unutardi: ahli ayoli, farzandlari ni ham, Xudoning balolariga uchraganini ham, bundagi azoblarni ham...

Shunday bo'lib kelgan edi. Hozir xotinidan tiriklayin ajralib piqillab o'tirgan notavonning alamli nolasi uni sergak torttirdi.

«Bu azoblardan qutulib borgach, seni kutib oladigan kim? Matluba! Bolalaring!.. Sen ulardan boshqa yana kim-ga keraksan? Hech kimga! Qariganingda shular asqatadi. Senga bir burda nonni shu farzandlar beradi. O'lganingda shular olib borib ko'madi. Sendan boshqa er bo'lganida sabr-toqati uchun Matlubaga haykal qo'yardi...» Nafs pinakka ketgan paytlarda ojiz vij donning pichirlab aytgan bu so'zlaridan endi sal quvvatga kirgandek bo'ldi. Ammo falakning gardishi bir aylanib, «Mulla Tursunali, biz xato qilibmiz. Siz aybsiz ekansiz, ozodsiz», — deyilsami, qanot chiqarib uyga uchardi. Uchardi-yu... ikki-uch haftada yana nafs qurg'ur Nafisasi sari yetaklab borarmidi...

«Ey Odam farzandi! Men Allohdurman. Bandalarni o'z qudratim bilan yaratdim, bas, kimlargadir yaxshilikni iroda qilib yaxshi xulqni berib qo'yaman. Kimlargadir yomonlik bo'lishni iroda qilsam, unga yomon xulqni beraman»,¹ deyiluvi besabab emas. Ammo Odam bolasiga tug'ilganidayoq yomon xulq berilmas, vallohi a'lam. Bu hoi shaytonga maylini berganlargagina nasib etguvchi. Derlarkim, agar Odam bolasি uchun ish ulug' martaba, ish haqi esa arzimas darajada bo'lsa, uning oliyjanobi mehnatdir, aniqroq bayon etilsa, bu mehnatni yaratguvchisi Tangridir. Agarchi U uchun ish ikkinchi yoki quyiroq darajada, ish haqi esa muhimroq yoki oliyroq martabada ekan, demak, U ish haqining qulidir. Ish haqining xojasi esa shayton ekan, shaytonlarning ham eng tubani ekan. Yoshlik chog'laridayoq ana shu eng tuban shaytonga muhabbat qo'ygan Tursunaliga yana qandayin xulq nasib etmog'i mumkin edi? Zulmning har turidan totib ko'rayotgan bandaga bu haqiqatni anglamog'i uchun yana qancha muhlat kerak, yana qancha sinovlar darkor?

¹ «Hadisi Qudsiy»dan.

«Xotinim menga vafo qilarmi yoki yo'qmi?» — degan xavotir bilan uyquga ketgan Tursunalini yana bir zulm o'z quchog'iga olmoqqa hozirlanar edi.

«Sen-da musilmanin, men-da musilmanin...» — degan gaplari bilan Tursunalining mehrini qozongan «mehribon» tushlik chog'ida unga yaqinlashdi. Kulimsirab kelayotgan Murikni Tursunali o'rnidan turib qarshi oldi. Zamonnning hukmini qarangki, ilgarilari faqatgina o'zidan ustunlar bilangina o'rnidan turib salomlashadigan, yuqori lavozimdagilar telefon qilishadigan bo'lishsa, ovozlarini eshitiboq o'rnidan tura qulluq qilganicha gaplashadigan odam endi bir tuban o'g'ridan ehtiromini darig' tutmasa...

Tursunalini yelkasidan quchgan Murik: «Zemlyak, ah-vollar nichuk? Orqamdan yur, muhim gap bor», — deb pichirlab atrofga alanglab olgach, butazor tomon boshladi. Tursunali ham beixtiyor ravishda alanglab qo'yib, unga ergashdi. Qor bosgan butazorda yurish og'ir edi. Shunday bo'lsa ham Tursunali takaning izidan boruvchi nodon qo'y singari ergashaverdi. «Gapingni shu yerda aytaver», — demadi. «Tengiz eplay olmayotgan ishni balki shu qoyillatar, meni oshxonaga joy lab qo'yar», — degan umidli o'y bo'yniga sirtmoq bo'lib tushgan, sirtmoq uchini esa Murikning qo'liga tutgan edi.

Murik kutilmaganda to'xtab, orqasiga o'girildi.

— Qalay, zemlyak, qizishib oldingmi? — dedi u tirjabyib.

— Ha... endi... — dedi Tursunali nima deyishni bilmay.

— Sen zolotoy odamga o'xshaysan, zemlyak, seni bik yaxshi ko'rib qoldim, — Murik shunday deb otini erkagan chavandoz kabi Tursunalining yuziga yengil shapatladi.

Bu qiliq Tursunaliga erish tuyulib tisarildi.

— Zemlyak, sen zolotoy odam ekansan, — deb takrorladi Murik unga qattiq tikilib. — Sening yordaming kerak. Agar yordam qilmasang bir odam xor bo'lib o'lib ketishi mumkin.

— Men... kimga.. qanday yordam qilishim mumkin, — deb ajablandi Tursunali.

— Arzimas yordam... to'rtta yoki beshtagina so'z ayt-sang kifoya.

— Qanaqa so'z?

— Qanday so'z deysanmi? — Murik shunday deb uning yuziga yana yengil shapati urdi. Bu safar Tursunali orqasiga tisarilishga ulgurmadi. Shapatilagan panja uni kekirdagidan oldi. — Zemlyak, mening bir oshnamga pul kerak. Bo'lmasa o'ladi.

— Menda pul yo'q, — dedi Tursunali uning qo'liga yopishib.

Shu onda Murik tizzasi bilan uning nozik yeriga tepib, bukchaytirib qo'ydi. So'ng ihranayotgan o'ljasining o'ziga kelishini kutib sigaret tutatdi. — Zemlyak, bu yerda puling yo'qligini bilaman. Ammo uyingda ancha puling qolgan. Berkitgan yeringni shu paytgacha o'zingdan boshqa hech kim bilmas edi. Endi bu sirga ikkalamiz egalik qilamiz. Men o'g'il bolacha ish tutaman: hammasini olmayman, yarmisi o'zingga qoladi. O'zingni qiynamay qayerga ya-shirganingni ayt. Hozir bilmasdani tizzam tegib ketdi. Bilib tepsam, yomonroq bo'ladi. Qani, ayta qol.

— Nimani?

Bu savol Murikka yoqmay bir so'kindi-da, yana kekirdakdan oldi. Tizza zarbidan hali o'ziga kelolmayotgan Tursunali xirilladi, rangi oqara boshladi. Murik uning ahvolini sezib, kekirdagini qo'yib yubordi-da, yuzini siladi:

— Sen zolotoy odamsan, zemlyak. Bilib qo'y, shu paytgacha hech kim mening bir gapimni ikki qilma-gan. Men sening izingdan shu yergacha keldim. Ahmoq bo'lib qaytib ketmayman. Sen esa... yo pullaringni qa-yerga berkitgananigni aytasan yoki bahorgacha shu yerda yotasan. Omadli odam bo'lsang, bahorda suyaklaringni yig'ishtirib olib ko'mishar. Xudoning qarg'ishiga uchragan bo'lsang, sen xunasaga shu ham nasib etmaydi. Qani, yechin.

— Nega?

— Negaligini keyin bilasan.

Tursunali yalang'och holda muzlab o'lishni tasavvur qilib, dahshatdan titrab ketdi.

— Aytaman, — dedi u jon talvasasidagi odamning ovozi bilan.

— Zolotoy odamsan demadimmi?! Seni o'ldirish hayf. Qani, ayt.

— Qishloqda...

— Faqat «molxona tagiga k□ milgan» dema. U yer kovlab tashlangan.

Bu gapni eshitib Tursunali hayratdan qotib qoldi. «Qayoqdan biladi?» — deb o'yaldi. Qo'liga kishan urilgan dastlabki kunlarda, dastlabki so'roqlarda shunday deb aldagani, so'ng buning evaziga rosa tepki yegan edi. O'lim xavotirida turgan Tursunali hozir shuni esladi. Ammo: «Bu □ shalarningherigimi?» — degan gumonga bormadi. Molxonani aytishga og'iz jufitlagan Tursunali uchun bu ogohlantirish durust bo'lди.

— Hojatxonada ham dema, u yerni titadigan ahmoq yo'q. Bo'l, ayt. Bilib qo'y: aldasant, it ko'rмаган azoblarda o'lasan. Bu — bir. Urug'ing bilan quriysan, bu— ikki. Tushundingmi? Bolalarining ham o'zingga o'xshab o'ladi. O'zing bittagina bola bo'lgan ekansan. Sendan o'sha bittasi ham qolmaydi.

O'lim talvasasi, ayni chog'da najot umididagi Tursunalining ko'z oldiga Tengiz keldi. «Nima qilib bo'lsa ham o'shangan yetib olsam bo'lди», — degan xayolda yana bir marta aldashga qaror qildi. Bu holda ham nafs g'olib chiqdi. O'zining joni emas, hatto bolalarining joni emas, berkitilgan boyligini saqlab qolish ilinji ustun keldi.

— Hozir aytaman, — dedi Tursunali unga najot nazari bilan boqib.

— Aytasan, aytmay qayoqqa ham borarding. Sen bilan biz musilmaninmiz, zemlyak. Bir-birimizni suyab-qo'llamasak, xor bo'lib o'lib ketamiz. Boylik yo'q bo'lib ketadigan narsa. Sen bu yerlardan chiqib borguningcha berkitgan pullaring chirib ado bo'ladi. Erta-indin Gorbach pulni almashtirsa, bundan battar bo'ladi. Sen zolotoy ekan san, zemlyak. To'g'ri yo'lni tanlading: puling ham chirimaydi, o'zing ham bu yerlarda chirib qolib ketmaysan. Uyingga soppa-sog' kirib borasan. Pul degani nima, bilasanmi? — Murik shunday deb Tursunalining bilagidan

ushladi-da, kaftiga sigaret kulini qoqdi. So'ng puflab, bu kulni to'zitdi. — Tushundingmi, zemlyak? Endi o'zingga kelib olgandirsan, a? Bo'la qol, tarang qilmay ayt.

«Buning orqasidan ergashib kelganimni Tengizning odamlari ko'r madimikan? Yordamga kelib qolishmas-mikan?» — degan ilinjdagi Tursunalining atrofga javdirashini ko'rgan Murik zaharli tarzda tirjaydi. U mamnun edi. Murik turli joylarda, turli holatlarda, turli boylardan pul undirgan, lekin bunaqangi vaziyat, bunaqangi odamga birinchi duch kelishi edi. Shu paytgacha hech kim birgina tepki zarbidan bunday hiqillab qolmagan edi. Kiyevga «gastrol»ga borganida Abramovich degan ziqnani to'rt kecha-yu to'rt kunduz temir quvurga kishanlab, och qoldirib, tepkilaganda ham aytmagan, to'rt kecha-kunduz najot kutib yashagan. Beshinch kuni o'lib ketishiga ko'zi yetgach, aytgan edi. Bu odamga esa birgina tepki kifoya qildi. «Bulardan qaysi biri aqlli roq? — deb o'yaldi Murik, so'ng o'z qarichi bilan hukm qildi: — Shunisi aqli. Qiy-nalib jon bergandan ko'ra boylikni osongina berib qo'ya qolgani durust...»

Murik: «Pul qo'lning kiri, pul chiriydi, pulni Gorbach almashtiradi...» — deb o'ljasining ko'ngliga g'ashlik solganday edi. Agar berkitilgan boylik qog'oz puldan iborat bo'lganida Tursunali bu qadar talvasaga tushmas-mi edi. «□□il bolac hsh qilaman, yarmini olaman», — deydi. Tilla-yu javohir, dur-u gavharni ko'rganda kim yarmiga qanoat qilar ekan? Tursunalini ayplash balki noo'rindir: boylikni peshana teri bilan topmagan bo'l-sada, tilla-yu javohirning jilosi yurak tomirlariga ko'z ilg'a-mas nurlar bilan ulangan edi.

— Endi haddingdan oshma, — dedi Murik unga tarsaki tushirib. — Zolotoy odam yaxshi gapning chegarasini bilishi kerak.

— Yerto'lada... to'sinlarning beliga qo'yilgan yettita ustun bor. O'rtadagi ustunning tagida... — Tursunali shunday deb yutinib qo'ydi-da, qassob qarshisidagi qo'zichoq holatida Murikka m□ltillabqaradi. «Qassob» esa «Hozir so'yayinmi yoki yana picha semirishini kutayinmi?» — degan kabi unga tikildi. So'ng bir qarorga

kelib, cho'ntagidan buklama pichoq chiqardi-da, tugmasini bosdi. «Aytdim-u qutuldim, jonim foydaga qoldi», — deb ko'ngliga xotirjamlik oralayotgan Tursunali pichoqni ko'rib qo'rqib ketdi.

— Yechin, — deb buyurdi Murik sovuq ohangda.
— Aytdim-ku! — dedi Tursunali jon holatda.
— Shu gapingga ishonadigan ahmoqqa o'xshaymanmi men?

— Rost aytdim, gapim rost, axir! — Tursunali yig'-lamsiradi. — Nega ishonmaysiz? Ustunning tagida chururcha bor. Chuqurchada ikki qavat yog'och qopqoq bor.

— Sen tirik odamning terisini qanday shilishganini ko'rganmisan? — Tursunali bu savolga javoban javdiraganicha bosh chayqadi. — Ko'rmagansan, — dedi Murik pichoqni bukib, cho'ntagiga solgach. — Agar aldasang— ko'rasan. Uch-to'rt kun ichida ko'rasan. Teringni shilib, bi-ir rohatlanaman. Ungacha birovga churq etmaysan. Og'iz ochishing bilan kuragingning tagida shu pichoqni ko'rasan. Bo'ldi endi, bor.

Tursunali qutulgani rostligiga bir ishonib, bir ishonmay iziga qayta boshladи. Uch-to'rt qadam bosgach, orqadan Murikning ovozi keldi:

— Zemlyak, ishtoning ho'l bo'lganga o'xshaydi, al-mashtirib ol, yana shamollab qolmagin. Sen menga tiriklayin keraksan, — u shunday deb hiringlab kuldi. Tursunali orqasiga qaramadi.

U Murikni aldamagan edi. Chindan ham yerto'ladiagi ustun ostida sandiqcha bor edi. Ammo bu sandiqcha bo'sh edi. Aniqroq aytilda, bu sandiqcha bir necha haftagina asqatdi — boyliklarni bag'rida yashirdi. Lekin Tursunalining ko'ngli to'lmay, to'plaganlarini boshqa joyga ko'chirdi. Hozir yerto'lani aytishga aytdi-yu, «Buning odamlari uyga borar, sandiqchani topib ochar, so'ng al-danganlarini bilib, xotinimni siuvuga olishar, bolalarimni qiyashar», — deb o'ylamadi. Uning uchun hozir eng muhimi — o'z jonini qutqarish edi. Niyati amalga oshib, Xudoga shukr qilgan tarzda joyiga qaytdi. Mahkumlar ovqatlanib bo'lismish, ishga tarqalishayotgan edi. Tursunali-javdiragan nigohi bilan Nuriddinni qidirdi. Tushlikdan

««

aval uni Pachoqburun chaqirib ketgan edi, hali ham qayt-mabdi.

Tursunalining qo'llari ishda, ko'zлari esa Nuriddin-ning yo'lida bo'ldi. Murik ikki marta unga yaqinlashib: «Horma, zemlyak, charchamayapsanmi?» — deb ketdi. Nuriddin ish oxirlay deganida paydo bo'ldi. Barakka qaytar mahallarida Tursunali uning yengidan asta tortib, past ovozda:

- Tengizni tez ko'rishim kerak, — dedi.
- Olib boraymi? — dedi Nuriddin.
- Yo'q, bexit joyda ko'rishim kerak. Anov yangi kelgan odam ishkal chiqaryapti.

Nuriddin: «Yangi» deganingiz kim?» — deb so'ramadi, chunki u gap kim haqida borayotganini darrov anglab yetdi. Nuriddin: «Qanday ishkal chiqaryapti?» — deb ham so'ramadi, chunki Tengiz ogohlantirgandayoq shu odamning bir baloni boshlashini fahmlagan edi. Lekin aynan Tursunali atrofida o'ralashayotgani unga yangilik bo'lsa-da, ortiqcha savolga hojat sezmadni. Kechki ovqat paytida Tengiz ko'rinnadi. Shu sababli Qo'tosning yonidan o'tayotib: «Knyazga zarur gapim bor», — deb qo'ydi. Qo'tos unga qaramagan holda «tushundim» deganday bosh irg'adi. O'sha kech «politbyuro»ning yig'ini belgilangan edi. Shu bois Tengiz Nuriddinni yo'qlatmadni. Pachoqburun uni ertasiga, nonushtadan so'ng chaqirdi.

Qor bo'ralab yog'ayotganiga qaramay Tengiz odatin kanda qilmagan — gulxan yaqinidagi o'mini egallagan edi. Boshiga, yelkalariga qo'ngan qorga qaraganda u joyida ko'pdan beri o'tirar edi.

Tengiz Nuriddinning salomiga alik olib, unga qo'l uzatdi. «Kel, Hamzat, o'tir», — deb ro'parasidagi to'nkani ko'rsatdi.

— Nima bo'ldi?

— Yangi odam Tursunali akaga ilakishib qolibdi. Bir ishkal chiqarmoqchiga o'xshayotgan mish.

— Ha... ilinibdi-da... — Tengiz shunday deb jilmaydi. — Uzumni yig'ishtiradigan payt kelibdi... Shu qorda ham uzum yig'ishtiriladimi, deb hayron bo'lyapsanmi? Bizda hikmat bor: bir o'rgimchak qarasaki, uzumzorda

kapalaklar ko'p emish. Darrov to'rini to'qib, ovga kiri-shibdi. Uzum pishgan payt ekan. Bog'bon uzum uzishni boshlabди-yu, o'rgimchakni to'rlariga qo'shib pachoqlab tashlabdi. O'rgimchakda nafs bor edi-yu, aql yo'q edi, tadbir yo'q edi. Cho'michvoy o'sha o'rgimchakka o'xshagan ahmoq. Tursunali akang esa kapalakka o'xshagan ahmoq.

— Cho'michvoy?.. — Nuriddin kulimsiradi. — Laqa-bi qiziq ekan. Kim o'zi u?

— Kim bo'lardi, bizga o'xshagan bir qul-da... Gapim yoqmadi, a? Xo'p, senga o'xshamagan, menga, hamtovoqlarimga o'xshagan bir qui. Sen esa ozod odamsan. Piching qilayotganim yo'q. Chindan ham hursan. Shuning uchun seni yaxshi ko'raman, senga havasim keladi. Sen Epiktet degan odamni eshitganmisan? Uni ko'pchilik bilmaydi. Dunyoda shunaqa faylasuf o'tgan. Leningradda o'qib yurganimda uning kitobi qo'limga tu-shib, esimni teskari qilib yuborgan edi. Bitta fikrini ay-tib beraymi? — Tengiz shunday deb iyagini siladi, go'yo kalavaning uchini topib olmoqchiday o'ylandi-da, siniq ovozda davom etdi: — Derlarki, Inson uchun eng ulug' dunyoviy ne'mat — uning ozod va hurligidir. Agar ozodlik ne'mat ekan, ozod insonning baxtsiz bo'lmosg'i mumkin emasdir. Agar sen baxtsiz insonga duch kelsang, qayg'u-hasratda yonayotganiga guvoh bo'lsang, bilki, u OZOD EMASdir. U, shubhasiz, kim yoki nima tomonidan ezilgandir. Agar ozodlik ne'mat ekan, ozod inson ablah bo'la olmaydi. Agar sen bir odamning boshqalar oldida past ketayotganini, laganbardorlik qilayotganini ko'rsang, bilki, u ozod emasdir. U bir quldir. U bo'ynini qullik sirtmog'iga tutib, buning evaziga bir tovoq ovqat yoki biron mansab, yoki shunga o'xshash biron nima undirmoq istaydi. Kim ozroq manfaatga erishibdi, demak, ozroq xushomad qilibdi. Zo'rroq xushomad bilan esa kattaroq boylikka erishadi. Ozod odam hech bir to'siqsiz egalik qilish mumkin bo'lgan narsaga egadir. Hech bir to'siqsiz nimaga egalik qilishi mumkin? Faqat O'Z-O'ZIGA! Agar sen odamning o'z-o'ziga egalik qilmay boshqalarga ham hukm o'tkazmoqqa jazm etganini ko'rsang, bilki, u ozod emasdir. U boshqalarga hokimlik qilishni istadimi, demak, u o'z istagi, nafsi qulidir...

Tengiz shunday deb boshini egdi. Qo'lidagi kosov bilan gulxanni titdi. Olov bag'ridan alam bilan otilib chiq-qan hisobsiz uchqunlarni qor zarralari yutdi. Tengiz hozir bir necha daqiqaga o'g'rilik botqog'ini ruhan tark etib, talabalik dunyosiga, faylasuf bo'lib yetishmoq orzusidagi yigitning pokiza olamiga qaytgan edi. Nuriddin uni bu holatda avval ko'rmagani sababli ajablanganicha o'tira-verdi. Unga biron so'z aytish yoki aytmasligini ham bilmadi.

— Bu oddiy gaplarga o'xshaydi, — dedi Tengiz boshini ko'tarib. — Lekin uni tushunish oson emas. Amal qilish esa mushkul... juda ham mushkul. Biz, o'g'rilar, o'zimizni ozod insonlar deb hisoblaymiz. Bu nisbiy tushuncha. Aslida esa Epiktet haq: biz qullarmiz!.. Ana endi o'ylab ko'r: bu dunyoda ozod inson ko'pmi yoki qulmi? Men Cho'michni ahmoq o'rgimchakka o'xshatdim. Aslida biz ham o'sha ahmoq o'rgimchaklarning birimiz. Fa-qat qaysi bog'bon qanday yanchib o'ldirishini bilmaymiz. Bizning qismatimiz shu — boshqacha bo'lishi mumkin emas... Shunaqa gaplar ham bor bu dunyoda, oshnam. Akangga aytib qo'y, talvasaga tushmasin. Cho'michni tin-chita oladigan aqlimiz bordir.

Nuriddin suhbat yakunlanganini anglab, o'rnidan turdi. Yarim soatdan so'ng Pachoqburun Tursunalini boshlab keldi. U kelguniga qadar Tengiz o'rnidan turib, egniga qo'ngan qomi qoqib, gulxan yaqinida u yoqdan bu yoqqa yurdi. Unga Murikning maqsadi oz bo'lsa-da ayon edi. Sobiq sovxoz direktoridan nimani istash mumkin? Pul. Balki Gobelyan unga shu ishni topshirgandir? «Uch harf»dan olgan vazifasi-chi? «Bu qanjiq hamma yoqni chigallashtirib tashladi-ku?» — deb g'ijindi Tengiz. Kalavaning uchini topa olmay yuragi siqilayotganda Tursunali yaqinlashib, salom berdi.

— Nima gaping bor? — dedi Tengiz salomga alik olmay.

Bunday qo'rsliklarga ko'nikib qolgan Tursunali joyida qotib, atrofiga qo'rquv aralash bir alanglab oldi.

— U meni o'ldirmoqchi bo'ldi, — dedi miskinlik bilan.

— Nega ouldirmadi?

«Nima uchun ouldirmoqchedi», — degan savolni kuttgan Tursunali javobga taraddudlandi.

— U: «Boylikni qayerga yashirding?» — deb zu o' um qildi.

— X o'sh aytdingmi?

— U yoqda boylik qolmagan o'zi...

— Seni Gobelyan s o'r o qilganmi?

— Ha.

— Boyliging qayerdaligini unga aytganmisan?

— B ols aaytaman-da.

— Qanjiq seni nega ouldirmadi?

— Unga aytdim.

— Demak, bor ekan-da? — Tengiz shunday deb unga o'azabli nigo hini qadadi.

— O'zi yo'q, bo'lsa sizga aytmasmidim. Unga aytgan yerimda sariq chaqa ham qolmagan. Meni qutqarish uchun xotinim hammasini sovurib ado qilgan.

— Boyliging qolmagan bo'lsa, nega qaqshayapsan? Nimadan qo'rqyapsan?

— U meni o'ldirmoqchi.

— O'ldirsa savobga qoladi.

— Nega, axir?.. — najot umidi bilan kelgan Tursunali sovuq tarzda aytigelan bu gapni eshitib bir seskandi. «Shartga binoan siz meni himoya qilishingiz kerakku!» — demoqchi bo'ldi-yu, da'vo qilishga tili bormadi — qo'rqli. «Nega, axir...» dan nariga o'ta olmadi. Da'vosini aytolmagan bo'lsa ham, Tengiz uning maqsadini anglatdi.

— Seni uning changalidan qutqarishim kerakmi? Kallang joyidami?! U sen bilan uchrashish uchun atay bo'yinni sirtmoqqa tutib bergen. Bekordan bekorga qamaladigan bolamas u. Bir narsaning isini sezmasa izingdan tushmas edi. Shu bugundan boshlab shartni bekor qilaman. To'laydigan solig'ing ham o'zingga siylov. Ertaindin uyingga odam borib, aytgan yeringni titadi. Hech narsa topolmasa, xotin, bola-chaqangni o'ldiradi. Keyin o'zing bu yerda it azobida o'lasan. Shunaqa bo'lgani durust. Sen ahmoqni himoya qilganim uchun men o'g'rilar orasida isnodga qolaman. Yo'qol, ko'zimga ko'rinchma.

— Nega ishonmaysiz? — Tursunali shunday deb yig'lab yubordi.

Tengiz: « □ bu kuningdan! » — deganday aftini buriشتirdи-da, burilib nari ketdi. To'rt-besh qadam yurib, gulxan yaqinidagi to'nkaga o'tirdi.

Tursunali nima qilarini bilmay gangigan holda turib qoldi. Yordamga ishongan edi, najotni Yaratgandan emas, shu yigitdan kutgan edi. Hozir ham umidining so'nggi iplarini shu odamga bog'ladi. Agar hozir bir mo'jiza yuz berib, Tangri taolo aytsaki: «Ey Odam bolasi, men butun olamlarning yaratuvchisiman, sen ham bandasan, u ham bandamdir. Najotni kimdan kutasan? » Nodonlik, jaholat chodiriga tamoman burkanib olgan, ko'z nurlarini, aql-farosatini shayton alayhill'a na ixtiyoriga butkul topshirgan bu banda hech ikkilanmay ikkinchi bandani ko'rsatar edi. (Astag'firulloh!)

U asta yurib, ho'ngrab yig'lagan holida Tengizga yaqin keldi-da, yonida tiz cho'kdi. Shu yoshga kirib biron marta bo'lzin Yaratganiga sajda qilmagan banda xorlik libosiga o'ralib, ikkinchi bir banda yonida tiz cho'kdi. Tengiz to'g'ri aytgan edi: erkakning bu qadar xorlanishidan ko'ra o'lib ketavergani ming karra afzalroq.

— Meni qutqaring. O'lguningizcha qulingiz bo'layin.

Tengiz salgina burildi-yu, uning yonog'iga musht tu-shirdi. Marhamat kutib tiz cho'kkан Tursunali bu zarbdan chalqanchasiga yiqildi.

— Mishig'ingni art, he xunasa! — Tengiz shunday deb kaftiga qor olib ishqadi. — Qui bo'larmish... Sendaqa erkakni moyagidan osib qo'yish kerak. Erkakman, deb yuribsanmi hali... — Tengiz xumordan chiqqunicha so'kib, unga qarab tupurdi. — Oilangning ehtiyyotini qilaman. Ular yemagan somsalariga pul toiab yurishmasin. Sen bilan ishim yo'q. Yo'qol!

« Hammang bir go'rsanlar! Hammang ablahsanlar! Hammangni qirib tashlash kerak! Urug'laringni o'ynatib tashlash kerak! » — Tursunalining xayolini shunday hay-qiriq to'zitdi, ammo bo'g'zi bu nidoni tilga ko'chishiga yo'l bermadi. Tengizning salgina yon bosgani unga dalda «g,

bo'lib o'rnidan turdi. Rahmat aytib, iziga qayta boshladi. O'n qadamcha bosib to'xtadi-da, najot ko'zлari bilan orqasiga o'girilib Tengizga qaradi. «Kel, bo'pti, o'zingni ham himoya qilaman», — degan gapni kutdi.

Ish joyiga qaytib, qo'liga bolta oldi. Amal kursisini egallab, raykom taxtiga yo'l ko'rsatgan aqli endi jonini saqlab qolish yo'lini aniqlashga ojizlik qilayotgan edi. Yuzlab odamlarning nonini yarimta qila olgan tadbirleri bu yerda o'limtik ahvolga tushdi. Aql ham, tadbir ham unga xiyonat qildi. Aql, tadbir deganlari shayton izmida bo'lgach, o'zgacha oqibat kutish mumkinmi?

Beixtiyor ravishda daraxt shoxlariga bolta urar ekan, qutulish choralarini izlaydi. Ammo sonsiz kapalak singari to'zigan fikrlari o'ziga bo'yusunmaydi. Shaytonning burchi uni jar yoqasiga yetaklab kelmoq edi — vazifasini ado qildi. Qadamini bir qarichgina nari tashlasa kifoya. Shu paytgacha shaytonning mehri bulog'idan suv ichib, quvvat olgan aqli uni asrab qola olarmikan?

Bu aql unga yagona najot yo'lini ko'rsata boshladi.

Najot — O'LIM! Qanday go'zal manzil! Bu azoblar, bu xorliklar birato'la barham topgusi. Birgina harakat kifoya, bir necha nafas kifoya. Yana ikki-uch kunmi, ikki-uch haftami azoblanib yashamoqdan ko'ra hoziroq o'lim topgani yaxshi emasmi!

O g'ofil banda! U dunyoda bu yerdagidan yuz, balki ming chandon ortiqroq azob hozirlab qo'yilganini fahm etsami, o'limga bu qadar intilmasmi edi...

Hozir esa... so'nggi najot yo'li unga afzal ko'ri-naverdi. Endi fahmi yetganicha o'limning tez va oson turini izlay boshladi. Nima qilsin: shu qo'lidagi bolta bilan peshanasiga qarsillatib bir ursinmi? Miyasining qatig'ini o'ynatib yuborsinmi? Shu fikrda boltaning tig'iga qaradi. Beixtiyor ravishda tig' ustiga barmog'ini qo'ydi. Tig' nazarida o'tmas bo'lib tuyuldi: bolta urish fikridan qaytdi. O'zini osish, tomirini kesish... barchasi og'ir tuyuldi. Shu asnoda peshinga qadar g'imirlab yurdi. «Bu ko'rgiliklardan ko'ra o'lganim ming marta yaxshi», — degan to'xtamga keldi-yu, ammo o'zini o'ldirmoqqa kuch topa olmadni.

Peshindan keyin esa... Pachoqburun pay do bo'lib, uni ovloqqa boshladi. Tursunali qor yuzasidagi bir tomonga qarab ketgan izlarni ko'rib, ko'pchilik o'tganini fahmladi. Biroq: «Ko'pchilik taqdirimni qanday hal etar ekan?» — degan jumboqqa javob topa olmadi. Butazor oralab ancha ichkarilashgach, sayhonlikka chiqishdi. Tursunali bu yerning qatl maydonchasi ekanini keyinroq bildi.

Ustidagi paxtaligi yechib tashlangan Murik ko'yłakchan holda maydoncha o'rtasida turardi. Ikki oyog'ining to'pig'idan bog'langan arqon uchlarini ikki yigit mahkam tutganicha tarang tortgan edi. Murikning orqa tomonidan Koshak, ro'parasidan Tengiz, sal naridan esa Qo'tos joy olgan edi. Uchovlari maydonchada pay do bo'lgan Tursunaliga oldinma-keyin qarab qo'yishdi.

— Sen o'zingni burgut deb o'ylovdingmi? — dedi Tengiz Murikka yuzlanib. — Ana, changal solmoqchi bo'lgan o'ljang keldi. Murikjan, seni kim o'g'rilar oilasiga tavsiya etgan, kim qabul qilgan, bilmayman-u, ammo unisi ham, bunisi ham o'zingdan battar ahmoq ekaniga yuz foiz ishonaman. O'g'ri degan sal aqlliroy bo'lishi kerak. Bu yerlarning xo'jayinlari bizlar ekanimizni yaxshi bilarding, a? Bilib turib bizning yerlarda ov qilmoqchi bo'ldingmi? «Bular bir laqma, og'ziga pashsha qo'ndirib yotishadi», — deb o'yladgingmi? Umuman fikringda jon bor. Men laqma bo'lsam kerak. Koshak, sen-chi? Sen ham laqmamisan?

Koshak xoxollar tushunishi mumkin bo'lgan tarzda bir so'kindi-da, Murikning gardaniga musht tushirdi. Oyoqlari bog'langan Murik uchun ana shu zarbaning o'zi kifoya qildi — yuztuban yiqlilib bir necha daqiqa harakatsiz yotdi.

— Suzishni bilmasang nima qilarding o'rdak ovlab. Qani, tur, tuqqan xotindek yalpayib yotma.

Murikning bu yotishi ayyorlik chegarasidan narida edi. Bundan oldingi mushtlarning zARBALARI qo'shib hisoblansa, uning ahvoliga achinish ham mumkin. Ne afsuskim, mazkur olam ongidan odam joniga achinish, ayash kabi tu-shunchalar o'chirib tashlangan. Alhol, Murikning holiga

achinmoq ham noo'rindir. Chunki «qaytar dunyo» deganlar-ku!

Murik qorga yuzini bosib picha orom oldi. Tengizning gaplari qulog'iga kirguniga qadar davom etgan bir necha lahma tanga ozgina rohat bersa-da, ruhi azobdan chir-qirayverdi. U Gogikning taklifiga uchgan onlarini eslab uni ham, o'zini ham la'natladi. Gobelyan nima uchun Gogikni bu ishga jo'natmaganini Koshakning biringchi mushtidan keyinoq tushunib yetdi. Hammasini o'ylagan edi, reja qilgan edi. O'g'rilar nafratiga uchrashi aniqligini ham bilgan edi. Faqatgina jazoning bu qadar tez kelishi va og'ir bo'lishini hisobga olmagan edi.

Yana picha orom olish maqsadida o'rnidan qimirlamagach, tovonidan tepki yedi. Shundan so'nggina qaddini ko'tara boshladи.

— Valeriy Ivanovich, sen burgutning o'rdak ovlaganini eshitganmisan? — dedi Tengiz Qo'tosga qarab. — Eshit, bu qiziq hangoma. Bir nodon burgut... Qara-ya, burgutlarining ham nodoni bo'lar ekan, o'sha nodon burgut o'rdak ovlamoqchi bo'libdi. Endi o'rdakka chang solaman, desa, o'rdak shartta suvga sho'ng'ib ketarmish. Shunda burgut astoydil qasd qilib o'rdak tomon o'qdek uchibdi. O'rdak bu safar ham suvga sho'ng'igan ekan, «Endi qutulib bo'psan!» — deb u ham sho'ng'ibdi. O'rdak esa suv yuzasiga chiqib, qanotlarini yoyibdi-yu, uchib ketibdi. Burgut esa suvga bo'kib o'libdi. Qalay, Valeriy Ivanovich?

— Nima demoqchisan? Shu itpashshani burgutga o'xshatyapsanmi? — dedi Qo'tos ensasi qotib.

— Yo'-o'q, Valeriy Ivanovich, kelib-kelib shuni burgutga o'xshatamanmi? Bu jonivor o'z nomi bilan Murik! Sen esa buni itpashshaga o'xshatyapsan. Itpashshalarni ranjitma. Valeriy Ivanovich, har holda, ular orasida qanjiqlari yo'qdir.

Murik qaddini rostlagach, Tengiz barmoqlari uchi bilan uning iyagini ushladi-da, boshini Tursunali tomon burdi:

— Xo'sh, bu laqmada nima ishing bor edi?

— Yolg'iz o'zingga aytaman, — dedi Murik.

— Xilvatda achenlashib turadiganlarga o'xshab gapningi qulog'imga aytasanmi? Koshakka ishonmaysanmi? Yo Valeriy Ivanovichdan hadiksirayapsanmi? Ularni qanjiq deb o'ylayapsanmi?

Bu gaplardan so'ng Koshak yana musht hozirlagan edi, Tengiz bir imo bilan uni to'xtatdi.

— Noz-ishvalaringni hali tramvayga qo'yganimizda qilarsan, — deb davom etdi Tengiz. — Qani, ayt!

— Bular boy bo'lishadi, — dedi Murik. — Ozginasini baham ko'rsin, devdim, hammasini olmayman, dedim.

— Qayerga berkitgan ekan?

— Molxonada...

Murik shunday deyishi bilan Tengiz uning qorniga mushtladi. So'ng yiqlilib tushmasin, deb sochlarini chanchallab, boshini ko'tardi.

— Bunchalar ahmoq bo'lmasang sen, xunasa! Bu laqma senga aytganini bizga aytmaydimi?

— Gapimni oxirigacha eshitmading, Knyaz! — dedi Murik ihranib. — «Molxonaga yashirganman», demagin, dedim unga. Keyin... aytdi... Yerto'lada ekan...

— Gobelyan bilan qanaqasiga kelishgansan?

— Uchdan biriga. Biri Gogikka, biri unga. Bu ishga meni Gogik tortdi. Qanjiq deyiladigan bo'lsa, o'sha g'irt qanjiq. Meni emas, uni o'ldirish kerak.

— Seni kim □ldirmoqchbo'lyapti, Murikjan?.. Gogikning esa o'z hisob-kitobi bor. Sen uning taqdiri uchun qayg'urmey qo'yaver. Sen bizga ikkinchi topshirig'ingni ayt.

— Avvalgi kuni o'zingga aytganman. Mening bilganim shu.

— Ular nima uchun seni tanlashdi?

— Bilmayman. Mening bilganim: yana uch-to'rtta odamga buyurilgan. Har xil lagerlarda odam tanlayapti. Ularning kimligini bilmayman. Knyaz, qo'rqiyyapti deb o'ylama. Ammo menga bir narsa bo'lsa, ular seni tinch qo'yishmaydi.

Tengiz tislanib, Tursunalini chaqirdi-da:

— Seni urdimi? — deb so'radi.

Tursunali Murikka xavotir bilan qarab sekingina: «Ha», — deb qo'ysi.

— Qanday урган bo'lsa, sen ham shunday ur. Haqqing qolmasin. Boradigan yeriga qarzsiz borsin. Qani, lallayma, ur!

Tursunali bu gap chinmi yo hazilmi ekanini bilmay gangib qoldi.

— Hoy it! Senga aptyapti, ur! — deb buyurdi Koshak.

Tursunali shunda ham jur'ati yetmagach, Tengiz so'kinib, boldiriga tepib qoldi. Tursunali bu zarbdan bir mun-kib tushdi-yu, o'zini tezda o'nglab oldi. So'ng buyruqni bajarmasa o'ziga yomon bo'lishini anglab Murikning yuziga teskari shapaloq tushirdi.

— Murikjan, sen shunday урганмидинг? — dedi Tengiz. — Ancha ishdan chiqib qolibsan-da. Hezalakchasiга uradigan o'g'ri o'g'rimi, a, Koshak? — Savolga javoban Koshak zaharli tirjaydi. Tengiz esa Tursunaliga qaradi: — Shu bitta shapaloqqa iching o'tib ketdimi? Koshak, bo'sh vaqt topib sen bunga urush qanaqa bo'lishini o'rgatib qo'yishing kerak ekan.

Koshakning bo'sh vaqtি hozirga to'g'ri kelib, buyruq ijrosini hayallatmadi. Tirjayan holda Tursunaliga yaqinlashdi. O'ng qo'li bilan yuzini silab turdi-da, chap qo'li bilan bexosdan qorniga mushtladi. Tursunali bukchayishga ulgurmay musht yeb uch qadam nariga uchib tushdi. Tengiz tepishga chog'laniб borayotgan Koshakning yo'lini to'sdi:

— Birinchi darsga shu ham yetadi. Endi Murikning pichog'ini olib ber. Cho'mich, sen o'g'rilar olamiga zar-racha foyda keltirmagansan. Shunday bo'lsa ham haqiqiy o'g'ri sifatida o'lishingga imkon beramiz.

— Knyaz, unday qilma, o'zingga yomon bo'ladi! — deb xitob qildi Murik jon achchig'ida.

Tengiz unga o'qdek nigohini qadab jim qoldi. Murik aytmasa ham o'ziga qiyin bo'lishini yaxshi biladi. Murikni yollab, vazifa yuklaganlar uning o'limiga achingan-lari uchun emas, balki topshiriq chala bajarilgani uchun ham g'azab otiga minadilar. Ilonning dumi bosib olinsa

chaqadi, deydilar. Ammo ilon ba'zan chaqolmasligi ham mumkin ekan. Lekin Murikni yollaganlar chaqmasdan qo'yishmaydi. Kechagi «politbyuro» yig'inida kutilajak bu holat ham nazardan chetda qolmagan edi. «Shunday qilish kerakki, ilon kimni chaqishni aniq bilmay chal \square isin», — degan to'xtamga kelgan «politbyuro» chalg'itish yo'lini izlab topishni Tengizga yuklagan edi.

Kecha Murik Tursunalini ovloqqa boshlaganidayoq Tengizga xabar yetgan edi. Tengiz birinchi «suhbat» «d \square stonab \square o'lishini bilgani uchun ularning izidan odam jo'natmadи. U uchun eng muhimi — Murikning Tursunaliga qopqon qo'yishi. Nuriddin Tengizni yo'qlaganida «politbyuro» aynan Murikning taqdirini hal qilayotgan edi.

Tengiz avvaliga limning yaxshi usulini topganday edi. Murikka: «Hech kimdan gumon qilmanglar, jonimdan to'yib o'zimni osyapman», — qabilida xat yozdirib olmoqchi edi. Hozir boshqa durustroq usul xayoliga kelib, dastlabki fikridan qaytdi.

— Murikjan, aqli bola pichog'ini o'zi oladi. Sen aqllisan, a? Koshak, to'xta, unga tegma. Sen ham pichog'ingni ol.

— Shu itpashsha bilan olishamanmi? — dedi Koshak norozi ohangda.

— Men senga pichog'ingni ol, dedim. Olishasan, demadim, — Tengiz Koshak uzatgan dudamani olib, cho'ntagidan ro'molcha chiqardi-da, yaxshilab artdi. Keyin cho'k tushib o'tirgan Tursunalini chaqirdi: — Hoy laqma, bu yoqqa kel. Tirik qolishni istasang, o'zingni himoya qil. Ma, ushla!

Tursunali pichoq emas, zaharga to'la chaqishga shaylanib turgan chayon uzatilayotganday seskanib ketdi. Bosh chayqab, yarim qadam tislandi.

— Men umrimda... odam o'lдirmaganman, — dedi g'udranib.

— Senga odam o'ldir, demadim. O'zingni himoya qilgin, deyapman. Yo o'lasan, yo o'ldirasan, boshqa chorang yo'q.

Koshak orqasiga o'tib yumshoq yeriga bir tepgach, Tursunali beixtiyor ravishda pichoqqa qo'l uzatdi.

— Ha, o'g'il bola, shunaqa bo'l sin. Murikjan, ana, hayoting o'z qo'lingda.

— Knyaz, ayt, oyoqlarimni yechishsin.

— E, yo'q, sen professionalsan, Murik, bu esa bir laqma. Erkak bo'lib bugun qo'liga pichoq olyapti. Bizni qiziq tomoshadan mahrum qilma, Murikjan, — Tengiz shunday deb bir arqonning uchini o'zi qo'lga oldi. — Qani, Cho'mich, burgutmisan yo itpashhamisan, boshla!

Murik Tengizga qarab oldi-da, so'ng gangib turgan Tursunali tomon qadam tashladi. Avvaliga arqonni bo'sh qo'yib berdilar. Murik uch qadam yurgach, kutilmagan-da sapchib Tursunaliga tashlandi. Yaxshiki u moijalni sal noaniq oldi — o'ljasiga ozgina yetmadi. Ammo pichoqning uchi Tursunalinin iyagini tilishga ulgurdi.

— Hoy it! Nimaga qarab turibsan, ur! — deb baqirdi Koshak Tursunalini turtib.

O'ljasiga yetolmay yuztuban yiqilgan Murik Tursunali tomonidan hamla kutib tezgina o'rnidan turdi. Tursunali esa pichoq urish o'rniqa tisarilmoxchi bo'ldi. Ammo orqasida turgan Koshak unga yo'l bermadi.

Shu paytgacha tomoshabin kabi chetda turgan Qo'tos Tursunaliga yaqinlashdi:

— O'lging kelmayotgan bo'lsa tashlan. Bu yerda ikkovingdan biring o'lishing shart. Qo'rhma. Odam o'ldirish sen o'ylaganday og'ir ish emas. Dahshat ham emas. Sen eng yaxshi ko'rgan odamingni ko'z oldingga keltir, sen o'sha yaxshi ko'rganing uchun yashashing kerak.

Eng yaxshi ko'rgan odami... Kim bo'lishi mumkin? Xotinimi? Bolalarimi yo... Nafisasi?.. Hozir ularni o'ylaydig'an ahvolda emas edi u. Hozir o'z jonini saqlab qolishnigina o'yldardi. Bu bejiz emas, chunki eng yaxshi ko'rgan odami — O'ZI edi.

Murik esa Tengizning gapiga inonib jonini saqlab qolish uchun astoydil hamla qilar edi. Oyog'i bog'lanmagan bo'lganida dastlabki daqiqadayoq Tursunali naq enasini ko'rishi aniq edi.

Gangib, dovdirashi chekingani bilan qo'rquv hali Tursunalini tark etmagan edi. Bir necha soatdan beri o'zini o'ladirish fikrida yurgan odam endi o'limdan qo'rqayotgan edi. U qorong'i lahaddagi guvalaga bosh qo'yib yotishdan (Ajab! Bu yerda o'lsa lahad ham, guvala ham nasib etmaydi unga), so'ng bo'lajak hisob-kitobdan, keyin esa naqd qilib qo'yilgan qabr azoblaridan, so'ng Qiyomat kunitagi ayanchli taqdiridan emas, bu aldamchi dunyo hayotini tashlab ketishdangina qo'rqardi.

Murik navbatdagi hamlasida yiqila turib Tursunalining paxtaligini tilib yuborishga ulgurdi. Shundan so'ng Tengiz arqonini tashlab, Tursunliga yaqinlashdi.

— O'lging kelmayaptimi? — dedi past ovoz bilan.— Yashashni xohlaysanmi? To'g'ri qilasan. Kel, savdoni pishirib qo'ya qolaylik: tarozining bir pallasiga joning, ikkinchisida yashirib kelgan boyliging turibdi. Qaysi biringi tanlaysan? Faqat boyligim yo'q, deb ming'irlama. Bu eski ashulang joninga tegdi. Men balki ahmoqdirman. Ammo Gobelyan ahmoq emas. Bir narsaning isini olmasa, shunchalik ovora bo'lmaydi. Men seni qiyagim kelmayapti. Agar xohlasang oyog'ingdan osib qo'yishim mumkin. Murikjan esa tovoningdan bo'g'zinggacha tilib bir rohatlanadi. Agar xohlasa teringni shilib, tuz sepib qo'yishi ham mumkin.

Bu gap Murikning kechagi po'pisasini eslatib, rostdan ham terisi shilinib tuz sepilganday badani qaqshab ketdi.

— Xo'sh, qaysi biri ma'qul senga? Boylikni sen mehnat qilib topmagansan. Senga baribir buyurmeydi. Hatto bizga ham buyurmasligi mumkin. Boylik o'zi shunaqa bo'ladi. Birovga vafo qilmaydi. Boylik nima, bilsanmi? Nozaninga aylangan bir ajdaho. Qip-yalang'och nozanin ko'rinishida qo'yningga kiradi. Vujuding rohatlanadi. Keyin esa asliga — ajdaho holiga kirib o't purkaydi, hammayog'ingni kuydiradi. Sen, ahmoq esa yashirganiningi hali ham nozanin deb o'ylayapsan. Senda kalla yo'q, u allaqachon ajdahoga aylanib bo'lgan. Bu yerdan tirik qaytganingda ham seni nozanin quchog'iga olmaydi. Ajdaho baribir kuydirib o'ladiradi. Men sen ahmoqni ajdahodan qutqarmoqchiman. Qani, ayt!

Tursunali o'g'ridan bunaqa ma'nili gap kutmagani uchun ajablandi. Tengiz esa uning pichoq ushlagan qo'lini mahkam changallab, tig'ni biqiniga tiradi. «Bir siltasa, tamom, — deb o'yaldi Tursunali. — Jon ham ketadi, mol ham birovlargal qoladi. Gapi to'g'ri bu o'g'rining. Hid olishgandan keyin topmasdan qo'yishmaydi. Buniisi bo'lmasa boshqasi izimdan iskab yuraveradi. Padariga la'nat! Otlar topib, eshaklar yeydigan zamon ekan. O'sha boylikni to'playman, deb boshim balolarga qoldi. Endi ham tinchitishmasa aytay, balodan qutula qolay... So'zida turmasa-chi? Ertaga shartni buzaman, deb tursa-chi? Nima bo'lsa ham peshanamdan ko'rdim. Aytaman...»

Shu qarorga kelib, aytди. Tengiz diqqat bilan eshitdi. «Aldamayapsanmi, aldasang — o'lasan!» — deb po'pisa qilmadi. Koshakka qarab bir im qoqdi-da, chetga chiqdi. Maqsadni anglagan Koshak jun qo'lqopni kiydi-da, tiz cho'kib o'tirgan Murikdan pichoqni tortib olib, Tursunali tomon yurdi. Tursunali nima gap bo'layotganini fahmlashga ulgurmadi. Koshak tijayganicha unga yaqinlashdi-da, chaqqon tarzda engashib, boldiriga pichoq urdi. Tursunali «Oh!» deganicha qoidagi pichoqni tashlab yuborib, boldirini changalladi.

— Dod dema, to'ygacha tuzalib ketadi, — dedi Qo'tos unga qarab kulib.

Koshak esa Tursunali tashlagan pichoqni o'ng qo'liga oldi-da, bu manzaradan ajablanib o'tirgan Murikka yaqinlashib oyoqlarini kerganicha tirjayib turdi. So'ng chap qo'lidagi tugmali pichoqni unga uzatdi. Murik pichog'ini qo'liga olib o'rnidan turaman, deganida Koshak uning bo'g'zini tilib yubordi. Favvora bo'lib otilgan qon qor yuzini birpasda qizilga bo'yadi. Koshak esa Tengizga qarab tirjayib qo'ygach, Murikning bo'g'zini kesgan pichoqni Tursunalining yoniga tashladi.

Yigitlar Murikning oyog'idagi arqonni yechib olishgach, barchalari bir zumda g'oyib bo'lishdi. Tursunali bu yerda qolishi xavfli ekanini anglab, sudralganicha iziga qayta boshladi. Lekin ko'p yurolmadi. Yugurib kelayotgan soqchilar qo'liga tushdi.

Ikkinchı bayon: farjom

DUNYO MANZILINING OXIRI

Nafisani qarg'adilar:

— O'ynashi bilan yotgan ekan, sharmanda! O'ldirgan odam savobga qolibdi...

Sanjarni la'natladilar:

— Suyug'oyoqqa ilakishib yurgan ekan, yigit o'lgur. To'rt bolasi ko'ziga ko'rinnabdi-da...

Bu gaplarga, xulosalarga hali fursat bor.

Hozir esa... miliitsiya telefoni jiringlaydi. Navbatchi leytenant qulog'iga tutadi. So'ng xirildoq ovozli odam: «Alio, qizimni olandirilketishibdi», — deydi-yu ho'ngrab yig'laydi. O'zini yig'idan to'xtatolmagan tarzda manzilni arang ma'lum qiladi.

Jinoyatga oid qidiruv bo'limining inspektori kapitan Omonullo Yigitaliyev tish og'rig'idan ezilib o'tirganida unga ikki odamning o'ldirilgani haqidagi xabarni yetkazdilar. «Duxtirgakirib kelaversam bo'larkan», — deb o'yladi u ma'lumotlarni yozib olgach. Omonulloning ayrim harakatlariga qarab hayron qolish mumkin. Qurolli jinoyatchiga yuzma-yuz bo'lishdan, otib tashlar yoki pichoq urar, degan xavotirdan yiroq bu odam em ignasidan qo'rqardi. Tish tabibi-ku uning ko'ziga Azroil kabi ko'rinar, nazarida u tishni emas, jonni sug'urib oladiganday bo'lardi. Ikki kundan beri jag' tishi zirqiraydi. Ikki kundan beri mo'jiza kutadi: og'riq o'z-o'zidan to'xtar, deb umid qiladi. Bu tun og'riq zabitiga olganda: «Tong otishi bilan borib shartta sug'urtirib tashlayman», — deb qasd qildi. Tong otdi. Ahdiga vafo qilib tish tabibiga bordi. Ammo uning shijoati, dadilligi tabib xonasining ostonasiga qadar yetdi. «Birpas nafasimni rostlay», — deb o'zini o'zi aldab oromkursiga o'tirdi. U kabi «botir»lar hali tabibga yetib kelmagan, qabulxonada uning o'zi tizzasi qaltiragan holda o'tirardi. Tabib qiya ochiq eshikdan qarab-qarab qo'yib, oxiri ostonaga keldida: «Menga kirmoqchimisiz?» — deb so'radi. Omonullo beixtiyor ravishda bosh chayqab: «Yor q», — dedi. So'ng ajablangan tabibga qarab: «Orto himkutyapman», —

deb izoh berdi. Nazarida tabibni ko'rishi bilan tish og'rig'i to'xtaganday bo'ldi. Tabib joyiga qaytishi bilan u o'rnidan turdi. Xuddi tabib yana qaytib: «Qani, bu yoqqa yurchi», — deb zo'rlaydiganday tez-tez yurib tashqariga yo'l oldi. Ishxonasiga yetib kelishi bilan og'riq yana o'z zulmini o'tkaza boshladi. Ana shu paytda telefon jiringlab, uni qotillik sodir bo'lgan manzilga da'vat qildi.

Omonullo prokuratura vakili bilan uy yo'lagida uch-rashdi. Dum-dumaloq ko'zлari kibr bilan boquvchi, sochlari silliq taralgan, sarg'ish qaldirg'och mo'ylovi o'ziga yarashmagan bu yigitni shahar prokuraturasida dastlab ko'rganida: «Ish bilan kelgan ashulachi bo'lsa kerak», — deb o'ylagan edi. Ikkinchи marta ko'rganida kim ekan, deb surishtirib, kimning □ □ леканини bilgach, «Ishqilib, shunga ro'para bo'lmay», — deb niyat qilgan edi. O'shanda farishtalar teskari duo qilishganmi, mana, bugun unga ro'para bo'lib turibdi. Omonullo o'zidan ancha yosh bo'lgan bu yigitdan salom kutib yanglishdi. Unga yaqinlashib, o'zini tanitdi.

— Men shahar prokururasidanman. Mels Abdullaevich Xo'jayev, — dedi yigit qo'l uzatib.

— Taniyman sizni, — dedi Omonullo iltifotsiz ohangda.

— Ishni mening nazoratimda yuritasiz, — dedi Mels unga buyruq ohangida.

Agar tishi zirqirab turmaganida ensasi qotganini yashirmay, odatiga xilof qilmagan tarzda «qulingiz bo'layin», degan mazmunda piching toshi otishi tayin edi. Hozir bu oliftaga shu pichingni ham ravo ko'rmay, qoshini chimirib qo'ya qoldi.

Zinadan ko'tarilishgan sayin dimoqlariga yomon hid urilib, ko'ngillarini behuzur qila boshladi. Omonulloga bunday hid tanish. Sasib yotgan murdalarni birinchi ko'rishi emas. Mels Xo'jayevning esa ko'ngli behuzur bo'lib cho'ntagidan ro'molcha chiqarib burnini berkitdi. «Bunaqa ishga endi ro'para bo'lqidir, — deb o'yladi Omonullo. — Lekin bu oliftaligiga qaraganda yuzinchi marta ro'para bo'lsa ham burnini jiyiraveradi. Bunaqa yigitlarga do'konda qizlarning siynabandini sotib o'tirish yarashadi».

Omonullo o'z aqli, bilimi bilan o'qib, ishda ham o'z farosati, tajribasiga suyanib yurgani uchun: «Falonching o'g'liman yoki jiyaniman», — deb tirgovichlar yordamida □ qiga nuyanchiqlar ko'magida ishlab, «nodir mutaxassis» sifatida amal pog'onalariga ko'tariladigan nusxalarni yoqtirmas edi. Mels Xo'jayevni shu toifadan deb bilib, hali uning aql-u farosatidan xabar topmayoq ensasi qotdi. Bepisand tarzda: «Ishni mening nazoratimda yuritasiz», — deyishi farosat darajasini o'lchash uchun kifoya qildi. Iriy boshlagan murdalar yotgan xonaga kirayotib Omonullo: «Ey Xudo, shu dumbulboyvachchaga ro'para qilguncha qolgan o'ttizta tishimni ham og'rita qolsang ming marta yaxshi edi», — deb qo'ydi.

Erkakning murdasi hammom eshigi ostonasida, ayolniki esa oshxonada yotardi. Mels Xo'jayev erkakning murdasi ustidan hatlab oshxonaga o'tdi-da, suratga olayotgan kishiga qarab:

— Murdalarni joyidan jildirmadingizmi? — deb so'radi.

Bu savoldan ajablangan suratchi yelka qisib qo'yib, Omonulloga qaradi. Uning ajablangani bejiz emas: shu sohada qirq yildan beri ishlayotgan bo'lsa, hali biron mar-ta murdani yotgan joyidan jildirmagan, boshqalardan bu kabi tanbehnamo savolni eshitmagan ham edi. Omonullo: «Xo'p deyaverasiz-da endi», — deganday ko'z qisib qo'ydi.

— Har bir buyumdag'i barmoq izlarini olinglar. Qo'shilarni so'roq qiling. Sinchiklab ishlanglar. Men o'zimda bo'laman, kirib o'tarsiz.

Mels Xo'jayev shunday deb ko'rsatmalar bergach, tez-tez yurib chiqdi. Turli jinoiy ishlar bo'yicha Omonullo bilan birga ish yuritadigan tezkor guruh a'zolari uning bu qilig'idan noroziliklarini yashirmay, bir-birlariga savol nazari bilan qarab qo'ydilar. Omonullo: «E'tibor ber-manglar», — deganday qo'l siltab, ayol murdasi ustiga choyshab yopayotgan tibbiy ekspertga yuzlanib so'radi:

— O'ldirilganiga uch kun boigandir?

— Ha, ikki-uch kun orasida. Ikkovi ham bir xilda pichoqlanibdi.

— Bir xilda?

— Ha, aniqroq xulosani yorib ko'rganimizdan so'ng aytaman. Hozir olib ketaveraylikmi?

Omonulloning ruxsati bilan murdalar choyshabga o'rabi lib olib chiqib ketildi. Shundan so'ng Omonullo: «Rayon militsiyasidanman», — deb o'zini tanishtirgan yigitdan: «Kim xabar qilibdi, bilingizmi?» — deb so'radi.

— Marhumaning otasi. Ichkari uyda o'tiribdi. Alaman dan kuyib ketyapti.

— Bolasi bo'lgandan keyin kuyadi-da. «Otamlatsang otamlatgin, b□tamlatmagan», — Omonullo shunday deb beixtiyor jag'ini ushladi.

— Nima dedingiz, tushunmadim? — dedi yigit.

— Shunaqa maqol bor, — dedi Omonullo og'riqdan aftini burishtirib.

— Tishingiz og'riyaptimi? Bugun o'zi g'alati kun bo'lди. Mening boshim og'riyapti.

— Tishim og'riganda oldirib tashlovdim, — dedi Omonullo yigitning izidan katta xonaga kirib.

Deraza tokchasiga tirsagini tiraganicha boshini chanchallab o'tirgan Toshbolta Omonulloning ovozini eshitib, orqasiga qaradi.

— Bandalik ekan, otaxon, Xudo sizga sabr bersin, — dedi Omonullo u bilan ko'risha turib.

Toshbolta yaqin odamidan hamdardlik so'zlarini eshitganday avval lablari titradi, so'ng ho'ngrab yubordi. Omonullo uni yelkasidan quchib, «Bardam bo'ling», — deb qo'ydi.

Toshbolta ovunguniga qadar xonaga nazar tashladi: televizor ustidagi surat uning diqqatini tortdi. Go'zal juvon yonidagi malla odamdan nari qochmoqni ixtiyor etib, o'ng tomoniga surilmoqchiga o'xshab o'tiribdi. Ko'zlariga baxtiyorlik emas, loqaydlik muhrlangan. Malla odam esa go'zal juvonga yaqinlashish istagida boshini u tomon sal egib olgan. «Bular kim bo'lди? — deb o'yladi Omonullo. — O'ldirilgan juvonmi? Yonidagisi-chi? O'l-gan erkak malla emasdi, yoshroq ham edi...»

— Qizingizmi bu? — deb so'radi Omonullo Toshbolta yig'idan to'xtagach.

— Ha, — dedi Toshbolta xorsinib.

— Yonidagi-chi?

— U... kuyov, eri...

— Eri? Qaysi? — Omonullo shunday deyishga deb, nojo'ya savol bergenini darrov fahmladi. Yaxshiki Toshbolta garangsib turgan edi. Yo'qsa bu savolni eshitib: «Nima demoqchisan? Qizimning o'nta eri bormi?!»— deb bobillab berishi tayin edi. Omonullo chalg'imaslik uchun gapni maromiga to'g'rildi:

— Demak, bu kishi kuyovingiz. O'ldirilgan-chi? U kim?

— Tanimayman u buqachani! — dedi Toshbolta zarda bilan.

«Buqacha? Nega unaqa deyapti? Qizining o'ynashimi u? Balki bu odam faqat qizining o'limidangina emas, nomus azobidan ham ezilayotgandir? Bechora...»

Shu fikrda Toshboltaga astoydil achindi. O'lim — haq. Rizq qirgilgan ekan, iloj yo'q. Ota bir kunmi, bir yilmi kuyar, oqibat dard sovib, taqdiriga tan berar. O'z umri shomining ham yaqinlashib qolganini fahm etib, farzandi bilan u dunyoda ko'rishmoq orzusida yashar. Lekin «*o'ynash bilan birga o'ldirilibdi*»,— degan isnod o'ti sovimas, to joni chiqquniga qadar yurak-bag'rini kuydirib xarob qilar.

Shunday fikrdagi Omonulloning unga rahmi kelardi.

O g'ofil banda! O'z qiziga o'lim eshiklarini ochib bergen zot aynan ana shu odam ekanini bilsami edi, unga achinmas, bil'aks, nafrat o'qlarining barini unga sochgan bo'lardi.

Dunyodagi odam zotining qarichi bir-biriga mos kelmaydi. Barmoq izlarining ham o'xshashi yo'q. Shu kabi baxt haqidagi tushunchalar ham bir-biriga o'xshamaydi. Agar baxt o'lchovli narsa bo'lsa edi, uni har kim o'z qarichi bilan o'lchaydi, demoq mumkin edi. Agar baxt ko'zga ko'ringuvchi narsa bo'lsa edi, uni har kim o'z ko'zi bilan ko'radi, desak yanglishmas edik. Ayrim odamlar rangni farqlay olmaganlari kabi baxt bilan baxtsizlikning chegarasini bilmaydilar. Mashoyixlar: «Senga asal bo'lib tuyulgan asli zahardir, zahar bo'lib tuyulgani esa asaladir»,— deb bejiz ogoh etmaganlar.

Bani Odam faqatgina baxt yoki baxtsizlik nima ekanini farqlay olmasa, unchalik ajablanmasa ham bo'lar, «Farosatsiz, adashgan banda», — deb qo'yilar. Ammo oltmis yilga yaqin umr ko'rgani holda nima uchun odam bo'lib tug'ilganini, nima uchun yashayotganini, kalta-kesakdan yoki suvarakdan nimasi bilan farqlanishini fahm etmasa, qanday xulosa qilmoq mumkin? Balki bunday kimsalar yorug' jahonda ozdir? Oz bo'lsa-da, shularning biri — hozirgina ho'ngrab yig'lab bo'zlayotgan ota — Toshboltadir. Balki olam aro yagonadir. Agar shunday bo'lsa, o'sha bittaginasi ham shuning o'zidir.

Omonullo uning ichini qandaydir dard, qandaydir pushaymon kemirayotgandir, deb xayol qildi. Kishida dard, pushaymon bo'limg'i uchun ham iymon lozimligini esa fahm etmadи.

*Ilohi bandaman, bechoradurman,
Havoyi nafs ila ovoradurman.
Erurman barcha nuqsonimg 'a iqror,
Musulmon o 'g'li qilmas ishlarim bor...'*

Bunday demoqlik uchun, bu iqror va tavba uchun Odam bolasiga nechog'liq iymon zarur?

Omonullo buni bilmaydi. Aniqroq aytilsa, bunday tu-shunchadan u ham yiroq.

Toshboltadagi iymon darajasini aniqlashga banda ojiz. Bu balki qabrga kirganda, balki qiyomatda aniq bo'lar, vallohi a'llam...

Ayni chog'da u kuyib yig'ladi. Shu oqibatga olib keluvchi muqarrar bo'lgan yo'lni o'zi tanlaganini esa o'ylamasdi. «Hozir dard ichida shundaydir», — dersiz? Balki... Ammo haqiqat shuki, dard soviganidan so'ng ham o'ylamaydi buni. «Qizimga o'zim o'lim hukmini yozganman», — demaydi.

Tursunalining osh-ovqatini pishirib yursa ham kam bo'lmas edi. Qo'shmachilik qilishiga balo bormidi? O'z qizining nomusini nafsi uchun qurban qiluvchi otalarni nima uchun yer yutmaydi ekan? Bundaylarni yer bag'rige

¹ Hazrat So'fi Ollohyordan.

olmoqdan hazar qilar, oqibatda bundaylardati hatto do'zax olovi ham nafratlanar...

Toshbolta xojasining nafsi buzuqligidan foydalanib uni qizining nomusi evaziga jilovlab olishni xayol qilgan edi. Bunga erishganday bo'ldi ham. «Bir isqirtga xotin bo'lib ko'yak-ishtonlarini yuvib yurgandan ko'ra direktorning o'ynashi bo'lib, zeb-u zarga burkanib yallo qilib yashagan afzal» — Toshboltaning hayotdagি falsafasi shu bo'ldi. Ajabki, bu «falsafa» qiziga ham ma'qul keldi. Tursunali ning xumor qarashlariga mast bo'lgan qiz otasi ko'rsatgan yo'lga osongina kirdi.

Jilva bilan chorlagan bu yo'lning oxirida yuragiga pichoq sanchilajagini, qarovsiz iriy boshlagan murdasini choyshabga o'rab olib chiqib ketajaklarini o'shanda o'ylab ko'ribdimi?

Endi diydiyodan ne foyda? Hukm ijro bo'ldi — qilmishga yarasha ajr berildi.

Omonulloga bu xonadon ahlining hayoti qorong'i. Xonadagi xorij jihozlarining ko'rksamligiga qarab turib: «Yomon yashashmas ekan», — degan dastlabki xulosaga keldi, xolos.

Murdalarga ko'zi tushganida: «Er-xotin ekan-da», — deb o'ylagan edi. Darvoqe, unga xabar berib, bu yerga yo'llaganlarida «Erkak-xotin oldirilgan», — deyishgan, Omonullo esa buni «er-xotin» deb tushungan edi. Bu odam esa «buqacha» deb turibdi. «Demak, o'ynashmi? Unda qotil kim? Erimi?.. Xotinini birov bilan aysh qilib yotganini ko'rib... Balki mana shu otaning o'zidir? Qizining qiligidan isnodga qolib... Ular o'ynashganmi?.. Ikkovi ham kiyimda... Hatto ayol uy kiyimida emas... Balki endi boshlashmoqchi bo'lishganda...»

Omonullo o'ng tomondagi eshik balki yotoqxonadir, degan fikrda o'sha tomon yurdi. Uning maqsadini anglagan Toshbolta: «Bu yer mening xonam», — deb izoh berdi. Bu izohning zamirida «Bu xonaga kirmaganingiz ma'qul», — degan maqsad ham mavjud edi. Omonullo bu maqsadni fahmlagan bo'lsa ham e'tiborsiz tarzda eshikni ochib, ichkariga bir qadam qo'ydi: deraza yonida javon.

Guldor gilam xonani enlab turibdi. O'rtada uchta katta jomadon, ikkita bo'g'cha...

— Bular siznikimi? — deb so'radi Omonullo ostonaga yaqinlashgan Toshboltaga o'girilib.

— Ha... Bugun yo'ldan keldim.

— Yo'ldan? — Omonullo ajablandi. — Qaysi yo'l-dan?

— Oshna-og'aynilar bilan qo'shilip Irkutskka boruv-dim.

— O'ynaganimi?

Omonullo bu yoshdagi odamlarning Sibir tomonlarga o'ynagani bormasligini bilsa ham atay shu savolni berdi. Lekin o'zi kutgan «Ha», degan javobni olmadi. Toshbolta jomadonlarga xavotir ko'zi bilan boqdi-da:

— Ozgina pamadori olib bordik. Tomorqadan... — dedi.

— Tomorqadan? Tomorqa... shu uydami?

— Bu uyda tomorqa nima qiladi? Men bu yerda mu-qim turmayman. Asli cho'lida yashayman. Bu buyumlar meniki emas. Sheriklarimniki. Ichida nimalar borligini ham bilmayman.

— Sheriklaringiz kim edi?

Toshboltaning rostdan ham sheriklari bor edi, ularni nomma-nom aytdi. Omonullo yondaftar chiqarib yozib oldi. Yoza turib: «Ishiga pishiq bu odam. Qizi o'lib yot-gan bo'lsa ham jomadonlarini olib kirib joylashga o'zida kuch topibdi. Qoyilman... Balki boshqa narsalarni ham joylab tashlagandir?...» — deb o'yladı.

— Sheriklaringiz uygacha birga kirishdimi?

— Yo'q, ular shahar aylangani ketishuvdi.

— Demak, biror soatlardan keyin kelib qolishadimi?

— Kim biladi? Balki kelishmas, qishloqqa jo'navori-shar.

— Buyumlari-chi?

— Buyumlari tursa turaveradi, sasib ketarmidi?

— Poyezdda keldingizlarmi yoki samolyotdami?

— Samolyotda bosh aylanadi ham qimmat. Bizlarga poyezd durust.

— Biletni tashlab yubormagandirsiz?

— Biz qishloqi odam, bilet-miletni bilmaymiz. Pravodnik bilan kelishib kelaverганмиз. Ketishda ham shunaqa bo'lgan.

— Pravodnikning otini bilasizmi? Nechanchi vagon?

— Nima, mendan gumon qilyapsizmi? O'z qizimniya?!

— Kimdan gumon qilishimni o'zimga qo'yib bering. Eshikni birinchi bo'lib siz ochib kirdgansiz, xabarni ham siz bergansiz. Mening odatim shunaqa, ishni shu birinchi-dan boshlayman. Qaysi vagonda kelgansiz?

— Yettinchি.

— Kuyovingiz qayerda?

— Kuyovim... ishda bo'lsa kerak?

— Ishda? Bular o'ldirilganiga uch kun bo'lgan. Kuyovingiz uch kundan beri ishdami? Kasbi nima kuyovingizingning?

— Kuyovim olim. Yoz paytlari bir kun uyda bo'lsa, o'n kun tog'da yuradi.

— Geologmi?

— Unisini bilmadim. Lekin to'g'ri Maskovning o'zi bilan gaplashadigan bola. Tagida vertolyoti bor.

— Farzandlari... yo'qmi?

— Yo'q...

— Turmush qurishganiga qancha bo'lди?

— Ikki-uch yil bo'lди... Qizim uning ikkinchi xotini. Avvalgisidan ajralib, ancha vaqt xotinsiz yurgan ekan.

Omonullo katta xonaga, undan dahlizga qaytdi. Oshxonaga qaradi. Hamma yoq sarishta. Yaqin orada birov bunda choy ham ichmagan. Omonullo chap tomondagi eshikni ochdi. Yotoqxona ham sarishta. O'rин usti hatto g'ijimlanmagan. Omonullo oshxonadagi ekspertni yoniga chaqirdi:

— O'rин ustini, piyolalarni tekshirish esdan chiqmasin. Eshik qulfini ham ko'rish kerak. Begona kalit tushgan-tushmaganini menga aniqlab berasiz.

Ekspert «Xo'p», deb iziga qaytgach, Omonullo yana Toshboltaga yuzlandi:

— Uyga kirib hech narsaga tegmadingizmi?

— Nimaga tegaman? O'zim bu ahvolda... — dedi Toshbolta yig'lamsirab. — Uka, shu yoshga kirib bir

roshnolikormaganodamman. Mening boshimga tushganlar itning boshiga tushmasin. Shu yoshga yetganimda menga ilmang bu qotillikni.

Omonullo bu gapdan achchiqlandi.

— Kim sizga ilyapti? — dedi ovozini balandlatib.

— Hozir-ku ilmassiz... Keyin jinoyatchini topolmasangiz, men siz uchun tappa-tayyor goshtman Bilaman, hali mening hayotimni ham kavlashtirasiz. Qamalib chiq-qanimni bilganingizdan keyin osongina menga ilib qoy a qolsiz. Xudodan qorqingyka, bunday qilmang.

«Nima qilay: sok i^{ber}aymi yo tushuntiraymi?» — deb oyalad Omonullo. Keyin sok is^{ham}, tushuntirish ham foydasiz, degan toxtamgakelib, xuddi hech qanday tuhmatni eshitmaganday soroq nkelgan joyidan bir maromda davom ettirdi:

— Uyga kirganizingizda yoziliqlasturxonni korgan-dirsiz yoki piyolalar yuvuqsiz bolgandir Shularni yilish-tirmadingizmi?

— Hech narsaga tegmadim, faqat tilpon qildim, — dedi Toshbolta zardali ovozda.

— Leytenant! — Omonullo shunday deb dahlizda turgan yigitni chaqirdi. Yigit chaqiriqa mahtal turganday shu zahotiyoy ostonada paydo boldi: — Murdalarning shaxsi aniqlandimi?

— Bittasi aniq: Nafisa Boltayeva. 1959-yilda tuoilgan. «Umid» kooperativida hisobchi boliboshlaydi. Yigitning chontagida faqat shu guvohnoma chiqdi, birga ishlashar ekan.

Leytenant shunday deb ko'k muqovali guvohnomani uzatdi. Omonullo guvohnomadagi suratda boqib turgan chehraga qarab: «Ko'r kam yigit ekan, o'ynash bo'lishga arziyi», — deb qo'ydi. So'ng yozuvlarni ovoz chiqarib o'qidi: — «Faoliyati cheklangan «Umid» kooperativi. Sanjar Ibrohimov, Bosh direktor o'rinnbosari...» Tanirmidengiz bu odamni?

— Yo'q, — deb javob qildi Toshbolta to'nglik bilan.

— Leytenant, kooperativga borib xabar qiling. Marhumlarning shaxsini aniqlab, natijasini oqshomda menga yetkazasiz.

Leytenant itoat bilan chiqqach, Omonullo Toshboltadan kuyovi ishlaydigan joyning telefonini so'radi. Toshbolta avvaliga yelka qisdi, so'ng qizil muqovali daftarni varaq-lab «O» harfli sahifani ochdi-da, yuqoriga katta-katta qilib yozilgan raqamlarga barmog'ini bigiz qilib ko'rsatdi:

— Shu bo'lishi kerak. Lekin o'zi tilponda o'tirmaydi, chaqirib berishadi. Qizim shunaqa deganday bo'luvdi.

Omonullo cho'ntagidan olgan ro'molchasi bilan go'-shakni ushlab ko'tardi-da, daftarchadagi raqamni terdi. Dam o'tmay: «Eshitaman, gapiring», — degan ayol ovozi keldi.

— Menga Samandar Ochilov kerak, — dedi Omonullo.

— Kim so'rayapti, nima ishingiz bor?

«Olim odam ishlaydigan joyda ham shunaqa qo'pol gaplashishadimi?» — shunday deb o'ylagan Omonullo savolga keskinroq javob qildi:

— Men militsiyadanman. Nima ishim borligini o'ziga aytaman.

— Ochilov safarda.

— Qayerda, qachon ketgan?

Ayol darrov javob qaytarmadi. Omonulloning nazarida u kim bilandir gaplashib olganday bo'ldi.

— Iltimos, o'zingizni tanitsangiz, — dedi ayol bir da-qiqalik sukutdan so'ng.

Omonullo kimligini aytgach, yana bir necha nafas jimlik hukm surdi. So'ng go'shakdan erkak ovozi eshitildi:

— O'rtoq kapitan, zarur gapingiz bo'lsa, kelib gap-lashing. Telefonda aytib bo'lmaydigan ma'lumotlar ham bo'ladi, o'zingiz bilasiz.

Erkak shunday deb manzilni qisqa tarzda tushuntir-gach, xayr-ma'zurni nasiya qilib aloqani uzdi.

Omonullo ularning gap ohangidan «to'g'ri Maskov bilan gaplashadigan bola»ning ishi «davlat siri» majmuasiga aloqador ekanini fahmladi. «Tagida vertolyoti bor» odamni topib gaplashish oson bo'lmasligini ham angladi.

— Qizingizning turmushi yaxshimi? Eridan hech nolimasimdi? — deb so'radi Omonullo go'shakni joyiga qo'ygach.

— Nimaga noliydi? Uyi bor, usti but, qorni to'q...

— Farzand-chi?

— Farzandmi?.. Kuyovning ishlariiga xalaqit berar ekan. Bu ishlari ham to'g'ri: itvachchalarni ko'paytirishning nima keragi bor?

Omonullo bu gapni eshitgach, etlari jimirlashib ketdi. «Bu asli odammi yo molmi? — deb o'yladi unga tikilib qarab. — Mol ham nasi qoldirishga o'zida tabiiy ehtiyoj sezadi. O'ziga nabira bo'lishi mumkin g□dakniktuvachcha» deyishi... Yo «Shu kuyovdan tug'ilgan bola «itvachcha» bo'ladi», demoqchimi? Kuyovni yoqtirmaydimi?»

— Qizingiz yosh, chiroyli ekan, — dedi Omonullo undan ko'z uzmagan holda. — Kuyovingiz rashk qilmas-midi?

— Bilmadim... Qizim siz o'ylagandek chakki yurma-gan.

— Men o'ylagan? — Omonulloning tishi zirqirab, ja-g'ini ushladi. — Men hali bunaqa o'yga kelmadim.

— Savollaringiz g'alati-ku? Surishtirishingiz ham... Qizimning chiroyli bo'lgani bilan nima ishingiz bor?

— Bilib qo'ying, — dedi Omonullo unga qo'lini bigiz qilib, — qizingizga aloqador gap — kattami, maydam — farqi yo'q — ishimiz bo'ladi. Sizning ishingiz esa mening savollarimga to'g'ri javob qaytarish, menga tanbeh berish emas. Tushundingizmi? Avval qamalgan bo'lsangiz, bunaqa gaplarni yaxshi bilishingiz kerak. Ana endi aytинг: kuyovingiz bilan qizingiz qayerda, qay tarzda tanishish-gan?

— Bilmayman. Qizimi qayerdadir ko'rib yoqtirib qolgan ekan. Sovchi qo'ydi. O'rtada nozik odam turgan edi, xo'p, dedik.

— Sovchi kim edi?

— Sovchimi?... U hozir yo'q.

— O'lganmi?

— Nega o'larkan? Qamoqda u. Sovxozimizning direktori edi, tuhmat bilan ketdi.

Omonullo Tursunalining ismi-nasabini yozib olish chog'ida ko'z qiri bilan Toshboltaga qarab unda yengil sarosima sezdi. «Har holda, bularning nikohida bir sir bor,— deb o'yladi u. — Yosh, go'zal qizning bunaqa tavyiga ikkinchi xotin bo'lib tegishi qiziq...»

Omonullo Tursunalini surishtira boshlaganida Toshboltaning ovozida hadik sezildi, barmoqlari esa yengil titradi. «Hali bu «bechora ota» bilan ko'p otamlashamiz, bugunga shu ham yetar», — degan fikrda daftarchasini yopib cho'ntagiga soldi-da, «Endi bardam bo'laverasiz, Xudo sizga sabr bersin», — deb yana bir marta ta'ziya bildirdi. So'ng doktiloskopistning¹ ishini birpas kuzatgan bo'lib, tashqariga chiqdi. Zina panjarasiga suyanib pichirlashib turgan uch ayol bilan qaytadan salomlashdi.

Omonullo: «Xotinlar bor joyda bizga ham, sudga ham hojat yo'q», — deb hazillashardi. Bu hazil bejiz emas. Jinoyat yuz bergen yerda kim birinchi pay do bo'ladi? Militsiyami yoki xotinlarmi? Militsiya jinoyatchini haftalab yoki oylab qidirib topadi. Sud ishni haftalab o'rganadi. Xotinlar esa bu yumushlarni bir necha daqiqada, nari borsa, bir soatda og'izlari bilan boplاب bajarib qo'yishadi. Hamisha qosh-qovoqqa qarab yashovchi ma'suma ayol ham bunaqa paytda «Siz aralashmang!» — deb erini uyiga kiritib yuboradi. O'zi esa norasmiy «sud hay'ati a'zosi» sifatida faoliyatini boshlaydi. Bu safar ham yozilmagan qoida amal qilgan, guvoh sifatida faqat xotinlar to'planishgan edi.

Omonullo ostonada paydo bo'lishi bilan ko'rinishi King Kongning uzoq qarindoshlarini eslatuvchi xotin ovozini sal balandlatib: «Otish kerak, — dedi. So'ng qanday otish lozimligini ham aniqlab berdi: — Stadionga yuz ming odamni to'plab, peshanasidan otish kerak. Televizorga ham olib, ko'rsatish kerak».

Omonullo suhbatni ana shu og'zi botir xotin bilan boshladi:

— Qaysi xonadonda yashaysiz, opa? — deb so'radi u cho'ntagidan daftarcha chiqarib.

— Mening uyim bu yerda emas, magazinning tepasidagi do'mda turaman, — dedi ayol.

— O'lganlarni tanirmidingiz?

— Yo'q-a, men nonga chiquvdim. Xotinlar gapirayotgan ekan, kelaverdim-da.

¹ Barmoq izlarini aniqlovchi mutaxassis.

- Oldirgan odamni kordingizmi?
— Voy, nega men k ra ekanman?
— Kimni peshanasidan otmoqchisiz?
— Sh o idirgan odamni-da.
— Kim u?
— Bilmayman.
— Non oldingizmi?
— Non? Nimagaydi?
— Eringiz nonsiz och tiribdiBoraqoling.
— Voy savil, meni tergaydigan ham, och tiradigan ham erim yo'q, Xudoga shukr. Haydamasangiz ham ketaman. Sassi inihidlاب turishga k zi muchayotgani y q! — Shunday deb minirlaganichazinadan pastga tusha boshladi.
- Biz bilganlarimizni yordamchingizga aytdik, — dedi ayollardan biri.
— Biz guvoh ekanmiz, ismlarimizni ham yozib oldilar, — dedi ikkinchisi.
— Nimalarni bilasiz? Nimalarni aytdingiz?
- Ularning bilganları: Nafisa q ni-q shnilar gacha aralashmaydigan «yovvoyiroqmi» yoki «kibrlimi» ayol. Ishga borish-kelishida y lakdayoki k chadak rishsa k rishardi boimasa yo'q. Bozor-chaqilganini, q l-lari tolib sabzi-piyoz k taritkelganini yoki d kondan non olganini birov k rmagan Er-xotining urishganlari u yoqda tursin, gap talashishganini ham eshitishmagan. Faqat ikki oymi, uch oymi avval bitta xotin kelib janjal qilganday b libdi Mana shu s ng g kabarda, Omonulloning nazarida, jon borday sezildi.
- Qanaqa xotin edi? — deb aniqlamoqchi bo'ldi.
— Biz tengi, o'rta yosh, — dedi Omonulloga yaqin turgan ayol. So'ng «chiroylikkina» deb alohida izoh berdi.
— Kimligini bilmaysizmi?
— Yo'-o'q, tanimaymiz u xotinni. O'sha kuni men qizimni kuzatgani chiquvdim. Shu yerda ro'para bo'lib qoldim. Yonida bir erkak ham bor edi. Erkagini sal tанидим. Oldingi eri bilan kelib turardi.
- Keyingi gap Omonullo uchun kutilmagan bo'ldi:
— Oldingi eri? — deb har ikki ayloga bir-bir qarab oldi. — Samandar Ochilov ikkinchi erimi?

— Oldingisini erimas, devdingiz? — dedi gapga qo'shilmay turgan ayol.

— Birpas jim turing endi, — deb jerkidi Omonullo bilan gaplashayotgani. — O'lgan odamlar haqida yomon so'z aytilsa gunoh bo'larkan. Erimi yo boshqasimi, kimligini ukamning o'zлari ajratib oladilar. Bu uyni olishganiga ancha bo'lgan. Avval muqim yashashmas edi. Birinchi eri bilan kelib-ketib yurishardi. Bir marta suv toshirib yuborib, pastdagilarning rasvosini chiqarishgan. Birinchi eri mard ekan, chiroyli qilib tuzatib berdi.

— Birinchi erining otini bilmaysizmi?

— Kim so'rabdi deysiz. Ikkinchisi bilan muqim yashayotgani uchun sal-pal taniymiz. Lekin bu ikkinchi erining ham yo'q bo'lib ketadigan odati bor.

— Janjal qilgan xotinni kundoshi devdingiz, a? — deb gapga qo'shildi nariroqda turgan ayol.

— Unaqa demaganman.

— Voy, devdingiz-ku...

— Demadim, o'xshatuvdim. Nafisaning anavi baqiroq otasi gapirib qoldi-da, «Bu yerda ering yo'q, ering Sibirda», — dedi. Qizimni kuzatib kelayotsam, yana shu xotinga ro'para bo'ldim. «Men tilanchi emasman!» — deb eshikni qarsillatib yopdi. Yuragim chiqib ketay dedi.

— Sherigi-chi? — deb so'radi Omonullo.

— Qaysi sherigi? Ha, anavi erkakmi? Uni ko'chada ko'rdim. U uyga kirmagan, shekilli.

— Keyingi bir haftami, o'n kundami notanish odamlar kelib-ketishmadimi?

— Buni biz bilmaymiz, opovsi. Bizning gap poyleydigan odatimiz ham, vaqtimiz ham yo'q. Bu d[□]m gaço-paradagi do'mga kim kelib-ketayotganini bilsa, Abduqayum biladi.

— Kim u?

— Tepadagi qavatda bitta bola bor. Belidan pasti ish-lamaydi. Uzzukun aravachasida o'tirib olib, ko'chaga qaragani-qaragan. Bir xil paytda suratga ham oladi.

— Samandar Ochilovni oxirgi marta qachon ko'rdingiz? O'n kun bo'ldimi yo yigirma kunmi?

— Voy, nega o'n kun bo'larkan? Uch kun yoki... ikki kun bo'ldi. Yo'lakdan chiqaverishda ro'para kelib qoldim.

Salom bersam, alik olmadı. Men ranjimadı. Shuna-qa telba-teskari odati bor odam-da u. Bir xil paytda o'zi salom beradi, bir xil paytda xo'mrayib o'tib ketadi.

— O'sha kuni Nafisanimi yo o'ldirilgan yigitnimi ko'rmadingizmi?

— Yo'-o'q, ko'rmadim...

Narida turgan ayolning yerga qaraganini sezgan Omonullo undan alohida so'radi:

— Siz ham ko'rmadingizmi?

Ayol unga qaramagan holda past ovozda «Y □ q»deb qo'ydi. Undagi o'zgarish Omonulloning diqqatidan chetda qolmadı. «Vaqti kelganda oydinlashtiraman», — degan maqsadda sir boy bermadi.

Uning sezgisi aldamagan edi: ayol uch kun oldin Nafisanı bu yigit bilan ko'rgan, «Juvon o'lgor eri yo'g'ida o'ynashini boshlab keldi», — deb sirdosh qo'shnisiga aytgandi. Hamma gapni aytaverib, keyin balolarga qolmaslik uchun ikkovi ham jim qolishni ma'qul ko'rishdi.

— O'ldirgan odamni topsangiz otiladimi? — deb so'radi Omonulloning savollariga javob berayotgan gapdon ayol.

— Siz otilsin, desangiz, otiladi, — dedi Omonullo piching bilan.

— Voy, menga nima, battar bo'lmaydim! Endi keta-veraylikmi?

— Yana ozgina turing, iltimos. Ekspertlarning ishi chiqib qolishi mumkin.

Omonullo shunday deb ayollar aytgan bola bilan uchrashish niyatida yuqoriga ko'tarildi. Eshik qo'ng'irog'i tugmasini bosishga ulgurmay ichkaridan:

— Kiravering, eshik ochiq, — degan ingichka, ammo jarangli ovoz eshitildi.

Omonullo bu taklifga binoan eshikni ochib, ostona hatlashi bilan o'sha ovoz «poyabzalni yechish lozimligini» eslatdi. Bir necha nafaslik sukutdan so'ng esa: «Endi to'g'ridagi xonaga kiravering», — deb taklif etdi.

To'g'ridagi xona eshigi lang ochiq edi. Omonullo ostona hatlay turib beixiyor o'ng tomonga qaradi: enli deraza yonidagi kichkina karavotda boshi katta

odamlarniki kabi, bo'ynidan boshlab to oyog'inining barmoqlarigacha to'rt yashar go'dakni eslatuvchi, bola desa bolamas, yigit desa yigit deyish mushkul bo'lgan, qo'llariyu yelkalari chandib bog'langan bir odam yostig'iga suyanib, chordana qurib o'tirardi. U salom bergach, ko'z ishorasi bilan stulni ko'rsatib: «Marhamat, o'tiring», — deb iltifot qildi. So'ng:

— Abduqayum Mahkam, — deb o'zini tanitdi. — Uzr, siz bilan qo'l berib ko'risholmadim. Falokatni qarang, suyaklarim sal ezilibdi. Chiqib kelayotganingizni oyoq tovushlaridan bildim. Xudo menga gavda bermagani bilan qulqoq bergen. — U shunday deb kului. Uning kulgisi beg'ubor, ko'z boqishlarida esa mas'udlik bor edi. Qorachadan kelgan bu yigitchaning yuzlarida Omonulloni ajablantirgan bir nur zohir edi. «Ajablantirgan» deyili-shining boisi — bu nur «iyemon nuri» deyilarki, bu marhamatga, bu ajrga qanday amallar evaziga yetishmoq mumkinligini Omonullo hali bilmas edi. Shu bois ham «Bunaqa ahvoldagi odam ham baxtiyor bo'luvi mumkinmi?»— degan fikr xayolini bir yoritib o'tdi.

— O'tgan kuni fotoapparatni sozlayman, deb yiqilib tushdim. Falokatni qarang-a!

Omonullo deraza tokchasidagi teleobyektivli fotoaparatga nazar tashlab qo'ydi. Buni sezgan Abduqayum:

— Bu mening ovunchog'im, — deb izoh berdi. So'ng mehmondan nigohini uzmagan tarzda: — Kelishingizni bilardim, — dedi.

— Qiziq... qanday bila qoldingiz? Folbinlik ham qo'ldan keladimi?

— Yo'-o'q, — Abduqayum yana kului. — Bunaqa gunoh ishlardan Xudo asrasin. Diqqat qiling-a, atrofimizda sodir bo'layotgan yoki endi bo'lувчи har bir voqeа bir-biri bilan mantiqan bog'langan. Biz faqat bunga e'tiborsiz yuramiz. Mantiqan bog'lanuvchi voqeani biz ko'pincha tasodif deb bilamiz. Sizning bu uyga kirishingiz tasodifmi yoki mantiqan bog'langan voqealar zanjirining bir hal-qasimi? Yoki siz tekshirayotgan qotillik tasodifmi yoki bir umrning mantiqiy yakunimi? Siz bilan men uchun bu fojia kutilmagan tuyuladi. Aslida-chi? Alloh hamma narsani mantiq iplari bilan bog'lab tashlagan.

Omonullo bu gaplarni eshitib lol qoldi. «Gavdaning o'rniga qulq bergan, deydi. Qulq emas, aql bergan ekan-ku», — deb o'ylab, uning gaplarini jimgina tinglayverdi. Abduqayum esa jiddiyashib borayotganini anglab, shirin jilmaydi:

— Mana, qarang, ajal tig'i ikki kishini o't o'rganday oldi-ketdi. Kasallik bilan jon berishsa birovning, ayniqsa, sizning ishingiz bo'lmas edi. Ular o'ldirilibdi. Aslida ularning rizqi tugagan. Alloh ularning jonini alohida-alohida, biron xastalik bilan olinishini ixtiyor etishi mumkin edi. Yo'q, Yaratganning xohishi aynan shu bo'ldi. Balki ular shunga yarasha gunoh qilgandirlar. Balki Robbimiz ularning bu holatini boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatmoqchi bo'lgandir. Buni bilmaymiz. Bilganimiz — zulm sodir bo'ldi. Zulm bo'lgach, militsiya keladi. Militsiya kelgach, albatta, qo'shnilar bilan gaplashadi. Qo'shnilar kim? Albatta, hamma narsadan xabardor bo'lishni istaydigan mening mehribon opoqilarim. Ular esa bilgan-bilmaganlarni qalashtirib aytib tashlashgach, oxirida mening ismimni tilga olishadi. «Bilsa shu bola biladi», — deyishadi. Opoqilarim tushmagurlar meni ko'chani ku-zatishdan boshqa tashvishi yo'q, deb o'ylashadi. Bozor-pozorga tushib chiqishgandan so'ng: «Biznikiga hech kim kelmadimi?» — deb so'raydigan odatlari bor. Militsiyaga ham menga o'xshagan odam kerak. To'g'rimi? Ana endi siz: «Uch kun oldin begona odam ko'rindim?» — deb so'ray siz.

Omonullo: «Hozirgi yoshlari urdi-surdi kinolarni ko'ra-
verib, kitoblarni o'qiyverib, hammalari izquvar bo'lib
ketishgan», — deb o'ylab, jilmayib qo'ydi.

— Ha, so'ramaysizmi? — dedi Abduqayum uning jim turganidan ajablanib.

— So'ramasam-chi? — dedi Omonullo kulimsiragan holda.

— Unda mantiq zanjiri uziladi: so'ramasangiz bu uyga kirmas edingiz. Siz mening qosh-u ko'zimni ko'rgani kir-magansiz, to'g'rimi?

— To'g'ri. Lekin men sizdan boshqa narsani so'rayman: uch kun oldin pastdan shovqin eshitilmadimi?

- Qanaqa shovqin?
- Masalan, erkak-ayolning janjalimi...
- Yo'q.
- Avvalroq-chi?
- Avval?.. Yo'q. Qotillik er-xotinning janjali oqibati desangiz yanglishasiz. U yer sokin xonadon edi.
- Lekin begona odamlar kelib turishgan ekan?
- Siznikiga kelishmaydimi? Mantiqning ildizi qayerda? Gap begonalarning kelishida emas, qanday maqsadda kelishida!
- Aytaylik... maqsad fahsh bo'lsin.
- Fahsh? Oshirib yubordingiz. Nafisa opa fohisha bo'lganida opoqilar adabini berib qo'yishardi.
- Lekin ular gaplarida shunga shama qilishdi.
- Birinchi eri bor, deyishgandir yoki o'ynashi deyishgandir? Bilaman bu gaplarni. O'sha odamni taniyman. Lekin u anchadan beri ko'rinxmay qoldi. Uch kun oldin kelgan yigit o'ynash bo'lmasa kerak.
- Demak, ularni ko'rgansiz? Bu odamni tanirmidinbiz?
- Bu savolni eshitib Abduqayumning chehrasi yorishdi:
 - Baribir so'raysiz, dedim-a! — Shunday deb kuldil. So'ng jiddiyashib bosh chayqadi: — Yo'q, uni tanimadim.
 - Unda nimaga asoslanib o'ynash emas, deyapsiz?
 - Yurishlari xotirjam edi. Hech qayoqqa alanglamay to'g'ri yurib kelishdi. O'ynash bo'lsa: «Birov kuzatmayaptimi, tanishlarim ko'rib qolmasin, ishqilib», — deb xavotirlanadi. U yoq-bu yoqqa qarayveradi. Hech bo'lmasa, yo'lakka kirishdan oldin orqasiga o'giriladi. Yo bo'lmasa ayol kirib ketadi, sal o'tmay o'ynash kiradi.
 - Siz bu gaplarni qayerdan bilasiz? Xuddi butun umr o'ynashlarni kuzatib yurgan izquvarga o'xshab gapiryapsiz?
 - Bularni bilish uchun unchalik ko'p aql zarur emas.
 - Boshqacharoq holat ham bo'lishi mumkinmi?
 - Albatta-da! Siz bilan biz begona ko'zlarni chalg'itishning mingta usulini sanab o'tirganimizda qaysi bir uydai o'ynashlar bizning xayolimizga ham kelmagan ming birinchi usulda ishlarini boshlayotgandirlar.

— Ha, fikringiz mantiqan to'g'ri. U holda ayol eri yo'q paytda begona erkak bilan nima maqsadda kelishi mumkin?

— Bunisini bilmadim. Bu faqat o'zlariga ma'lum edi. Afsus shuki, o'liklar gapirishmaydi.

— Ha... ayniqsa, biz uchun afsus aynan shunda, — deb Abduqayumning fikrini tasdiqladi. Omonullo. — Ular o'zlar bilan juda ko'p sirlarini olib ketadilar.

— «Qabr — dunyo manzilining oxiri. Oxirat esa manzilning boshidir. Modomiki, barchamiz qabrga kirar ekanmiz, qanday qilib kayf-u safoga berilib, rohat-farog'atda yuribmiz?»

Omonullo: «Bunchalar aqli ekan bu yigitcha», — deb o'yaldi. Abduqayum unig fikrini o'qiganday kulimsiradi:

— Aka, bu mening gaplarim emas. Bir valiulloh aytib o'tgan ekanlar. Shoshilmayotgan bo'lsangiz, yana bir fikrimni aytaman. Faqat bekorchi gap deb o'ylamang. Shu ishingizga aloqador bo'lgani uchun aytmoqchiman. Demak, gap bunday: dunyo nimadir? Dunyo — o'tkinchi bir mehmonxonadir. Dunyodagi eng ulug' boylik nimadir? Dunyoga berilmaslikdir. Dunyo boyligini afzal bilgan kishi zillatga, xorlikka, mol-dunyo to'plagan kishi esa qashshoqlikka giriftor bo'ladi. Dunyo nimaga o'xshaydi? Dunyo — yasatilgan kelinchakka o'xshaydi. Ko'zlar unga termilgan, qalblar esa mushtoqdir. Yasatilmish kelinchakka kimlar oshiq? Shubhasiz, NAFS oshiqdir. Bu kelinchak oshiqlarning barchasini halok etadi. Hayotdagि tiriklar o'liklardan, keyingilari oldingilaridan ibrat olmaaptilar. Uch xususni unutmaslik kerak: dunyoning o'tkinchi ekanini, ne'matlarning ham o'tkinchi ekanini, muqarrar o'limning haq ekanini.

Abduqayum: «Bu gaplar ta'sir qildimi, maqbul bo'l-dimi?» — degan savol nazari bilan Omonulloga tikilib qaradi. Uning gaplariga mos ravishda nazari ham o'tkir edi. Omonullo unga tik qaray olmadi.

— Yaxshi gaplarni aytgan ekan.

— Lekin... — Abduqayum kulimsiradi. — Hozir bu gaplarni eshitishga fursatingiz yo'q. Ko'nglimni og'ritmaslik uchun indamay tinglayapsiz. Balki menga rahmi-

ngiz kelayotgandir? Sizdan iltimos, rahmingiz kelmasin. Men o'zimning shu taqdirimdan ham roziman. Har holda, ko'ryapman, eshityapman, gaplashyapman. Axir, ko'r-maydigan, eshitmaydigan, tili aylanmaydiganlar ham ko'p-ku, to'g'rimi? Tan olaman, biroz ezmaroqman. Lekin laqma emasman. So'rang, so'rayvering.

— O'sha kunimi, oldinmi yo keyinmi Samandar Ochilov kelmadimi?

— Keldilar. O'sha kunning o'zida bir ko'rindilar. Novvotrang «Volga»da keldilar. Shoshib tushib, shoshilib yo'lakka kirdilar. Mashinada bitta harbiy odam ham bor edi. Pogoni ko'k, polkovnik. Ular ham shoshib turishgan ekan.

— Buni qayerdan bildingiz?

— Haydovchi uch marta signal berdi. Uchinchisida polkovnik eshikni ochib pastga tushdi.

— Ochilov taxminan qancha vaqt qolib ketdi?

— Taxminan yarim soatcha.

— Boltayeva bilan Ibrohimov bu paytda uyda bo'lgan-lar, shundaymi?

— Shundayga o'xshab qoldi.

— Ochilov shoshib kirgan ekan, qaytishda-chi? Qana-qa ahvolda qaytdi, kiyim-boshlarida o'zgarish bormidi?

— Kiyimlarida o'zgarish sezmadim. Lekin sekin-sekin yurib chiqdilar. Qo'llarida diplomat bor edi. Polkovnik bir nima devdi, unga javob qaytarmasdan indamay mashinaga o'tirdilar. Mashina yurishidan oldin derazalariga bir qarab oldilar. Lekin siz bundan darrov bir xulosa chiqarmang.

Abduqayumning keyingi gapi Omonulloga malol keldi. «Qimmatli maslahatingiz uchun rahmat, uka»,— deb piching qilmoqchi edi, tishi zirqirab, gapirtirmay qo'ydi. Mehmonning afti burishganini ko'rgan Abduqayum chegaradan chiqqanini fahmlab, uzr so'radi:

— Gaplarimdan xafa bo'lman, aka, mantiqan olib qaralsa, «er qotil» degan xulosa kelib chiqadi. Lekin bunaqa olim odamlarda rashk kuchli bo'lmaydi. Ular odam o'ldira olishmaydi. Nari borsa bir shapaloq urib, to'nini yelkaga tashlab chiqib ketishadi.

Abduqayumning gaplarida jon bo'lsa ham Omonulloga malol keldi. Bir yigitchaning yoshi ulug' odam kabi fikr

yuritishi, unga aql o'rgatishi g'ashini keltirdi. Abduqayumning tug'ilib, tilga kirganidan beri o'z tengdoshlari bilan o'ynab-kulolmay, yotgan yerida faqat kattalar bilan suhbatlashishi oqibatida shunday sergap, shunday maslahatgo'y bo'lib qolganining fahmiga yetmadi. Bu xonadonga kirib Abduqayum bilan suhbatlashgan har bir odam istasa-istamasa uning ko'ngliga qarashga majbur bo'lar edi. Omonullo garchi g'ashi kelgan bo'lsa-da, bu yozilmagan qoidaga beixtiyor bo'ysundi. O'zini kulimisirashga majbur etib:

— Sizdan xafa bo'lgan — o'g'ri, — deb hazil qildi. So'ng jag'ini ushlab izoh berdi: — Tishim og'riyapti.

— Tishingiz og'risa do'xtirga bormang. Men sizga davolashning osongina yo'lini o'rgataman. Tish nimaga og'riydi? Sovuq tekkani uchun. Sovuqni qanday haydaysiz? Bitta piyolani olib, ichiga yog' surasiz-da, so'ng qizdirasiz...

Hozirgina yigitchaning o'ta dono ekanligidan g'ashlana boshlagan odam endi bu gaplarni jon qulog'i bilan eshitdi. Maslahat so'ngiga yetguniga qadar nima maqsadda bu yerga kirganini unutdi. Yigitchaning maslahati bu safar moydekkina yodqi. Afsuski, hozirgi tashvish bilan yaqin soatlarda uyiga borolmaydi. Kechasi ham borish nasib etadimi yo yo'qmi — Xudo biladi. Ishdan xoli bo'lganida hoziroq borib shu yigitcha aytganday piyolani qizdirib, chap qulog'ini qo'yib yotarmidi, og'riq qaytib ko'zları moshdek ochilarmidtı...

Omonullo maslahatlar uchun rahmat aytib, o'rnidan turdi.

— Telefoningizni ayting, qo'lim tuzalsa qo'ng'iroq qilaman. Balki yangi gaplar esimga tushib qolar?

Omonullo yondaftarchaga telefon raqamlarini yozayotganida Abduqayum yana donoligini boshladı:

— Amerikada shunaqa jinoyat yuz bersa, «Qotilni topgan odamga yoki xabar bergan odamga shuncha ming dollar mukofot», — deb televizorlarida e'lon qilinadi. Shuning uchun ularda jinoyatchi tez topiladi.

«Xuddi Amerikada yashaydigan odamday gapiradiyal!» — deb o'yladi Omonullo. Abduqayum esa davom etdi:

— Sizlar esa hammasini tep-tekinga bajarmoqchi bo'lasizlar. Shuning uchun odamlar sizlardan qochadi. Ish yolg'iz o'zlariningizga qolib ketadi. Bunaqa ishda sizga nisbatan guvohlarga qiyin. Guvoh jonini garovga qo'yib aytadi aytadigan gaplarini. Yo noto'g'rimi?

— To'g'ri, — dedi Omonullo daftarchasidan sahifani yirtib olib unga uzatar ekan. — Mana shu ishni yumaloq-yostiq qilaylik, keyin ikkalamiz Amerika politsiyasiga borib ishlaymiz. Topganimiz — o'rtada, kelishdikmi?

Bu gapni eshitib Abduqayum kulib yubordi. Uning kulgisi yosh bolaning kulgisiday jarangdor va samimiy edi.

Omonullo bu xonadondan dastlabki gumoniga quvvat olgan holda chiqdi. Qotil qizning otasi bo'lishi ham mumkin, degan yana bir gumoni olinajak maTumotlardan so'ng haqiqatga yaqinlashganday bo'ladi. Bugun esa qora ro'yxatga birinchi bo'lib Nafisaning eri Samandar Ochilov yozildi.

Odatda, biron ayol qoqilib tushib jon bersa ham «Eri urib □ldirgandir» deb gumon qilinadi. Shunday ekan, Samandarning gumon o'qiga nishon bo'lmos'i tabiiy hoi. Agar tibbiy ekspert qotillik ikki yoki to'rt emas, aynan uch kun oldin yuz bergen deb tasdiqlasa, unda Samandarning boshiga balo toshlari yog'ilishi tayin.

QONLI GIRDOB

Abduqayum yanglishmadi: Samandar o'sha kuni uyiga kelgandi. Aslida uning uyga kelish niyati yo'q edi. Rejasি bo'yicha Nafisa ta'tilga chiqmog'i, u esa vertolyotni shaharga jo'natmog'i lozim edi. Odam yetib kelishi mushkul bo'lgan, ammo tabiatning mavjud go'zalliklarini o'zida mujassam etgan bu darada Nafisa uzog'i bilan bir hafita chidab yashay olardi. Cho'lda o'sgan bu juvonni go'zal manzaralar ham, tongda bulbullarning sayrashi ham, pokiza buloq suvlari ham maftun qila olmasdi. Bir necha olim-u xizmatkorlardan iborat bu «shaharcha»ga dastlab kelganidayoq «Zindonning o'zi-ku bu yer», — deb baho bergen, uch kunga arang chidagan edi. Samandarning

birinchi xotini ham tog'ga toqat qila olmasdi. U chodir atrofida o'rmalab yurgan ilonni ko'rGANidayoq chinqirib olamni buzgan, shu-shu bu yoqqa qadam bosmay qo'ygan edi. Samandar Nafisada ham birinchi xotinining qiliqlaridan bor ekanligini sezib g'ashlandi-yu, keyin o'z ishlari bilan andarmon bo'lib, e'tibor bermay qo'ydi.

Tursunali qamalgach, Nafisa bir necha hafta garangsib yurdi. Hatto eriga qaramay ham qo'ydi. Samandar: «Juda yaxshi ko'rар ekan-da», — deb o'yladi-yu, ammo xayoliga kelgan gaplarni tiliga chiqarmadi. Aksar odamlar tish faqat ovqat chaynash uchun mavjuddir, deb hisoblaydilar. Samandarning tishlari esa ikkinchi vazifani — tilga qo'riqchilik yumushini ham bajaradi. Uning tili bekordan bekorga tish hatlamaydi. Samandarning fe'lini yaxshi bilgan kishi: «Bu malla odamni tashqariga sochilmay, ichiga yutilgan dardlari sarg'aytirib yuborgan», — degan xulosaga keluvi tayin edi.

Samandar indamay qo'ya qolgani bilan qaynotasi jim turmadi: qizi Nafisani obdan siquvga oldi. Otasining gaplari ta'sir qildimi yoki sog'inch dardi qarib, kuchdan qoldimi, har holda, Nafisaning eriga bo'lgan munosabati yaxshi tomonga o'zgardi. Ikkovlari chinakam er-xotin martabasiga yetishganday edilar. Samandar uchun kutilmaganda Nafisa bu yerga kelish ixtiyorini bildirib, sog'inganini ma'lum qildi.

Ertalab nonushtada Samandar vertolyot uchuvchisiga: «Tayyorlan, shaharga tushib, yangangni olib kelasan», — deb tayinladi. Vertolyot uchishga ulgurmay uning o'zini markaz chaqirtirdi. Buyruq qisqa, ayni chog'da tushunar-siz edi: «So'nggi ma'lumotlar masalasida tezda Moskvaga yetib keling».

Vertolyot harbiy aerodromdagи o'z maydonchasiga qo'ngach, novvotrang «Volga» yonida turgan polkovnik uni qarshilab, o'zini tanishtirdi-da, «Sizni kuzatib borish menga topshirilgan», — deb vazifasini bayon qildi. So'ng markazni nima qiziqtirayotganini aytdi.

— Men uuga kirib chiqishim kerak, ba'zi hisob-kitoblarim uyda, — dedi Samandar.

Polkovnik avvaliga norozi bo'ldi. Samandar bu qo'g'ozlarsiz Moskvaga borish foydasiz ekanini aytgach, noiloj ko'ndi.

Samandar uyga kirdi-yu, nima uchun kelganini unutdi.
Abduqayum yanglishmagan edi:
... yarim soatcha qolib ketdi...

To'g'ri, buning orasida tashqariga bir chiqdi. O'sha onda qo'shni ayolga yo'liqdi. Zinadan pastga tushayotib, nima uchun kelganini esladi-da, iziga qaytdi. Uning bu harakatini kuzatgan qo'shni ayol: «Jinni-pinni bo'lib qolganmi yo mastmi?» — deb o'yładi. Ziyarak nigohi «bu telbaning» panjalari qon ekanini ham ilg'adi. «Bir balo bo'ldi», — dedi-yu, o'zini tezda ichkariga oldi.

Samandar uyiga qaytib, garangsigan bir ahvolda xonasiga kirdi-da, po'lat javondan kerakli qog'ozlarini oldi. Qo'lidagi qon yuqini yuvib tashlash xayoliga ham kelmadi. Faqat mashinaga o'tirganida polkovnik: «Qo'lingizga nima qildi?» — deb so'ragach, panjalari ga qarab ajablandi. Beixtiyor ravishda: «Shisha tilib ketdi», — dedi. Yaxshiki polkovnik: «Qanaqa shisha? Qanday tarzda?» — deb ezmalanmadı. Buning o'rniغا haydovchidan: «Aptechkang bormi?» — deb so'radi. Rad javobini olgach, cho'ntagidan ro'molcha chiqarib, Samandarga uzatdi-da, «Bog'lab oling, samolyotda aptechka bo'lishi kerak», — dedi.

Samandar ro'molchani qon tekkan panjalari ustiga tashlab, holsizlanayotganini his qildi. Ko'ngli aynidi. O'rindiqqa suyanib, ko'zlarini yumdi. Ko'z oldini qoplagan qora parda birdan qizil rang oldi. Samandar go'yo qon girdobida qolganday bo'ldi. Bu qon girdobi orasidan behisob qonli panjalar ko'tarilib uni bo'g'a boshladı. Nafasi qaytib, baqirib yuboray dedi. Shoshilib ko'zlarini ochdi.

Harbiy uchoqqa chiqqunlaricha ko'ngli behuzur bo'lib ancha toqatsizlandi. Uchoq o'rnidan qo'zg'almay turib polkovnik ensiz doka, dori ko'tarib kelib, «Yarangizni bog'lab qo'yay», — dedi. Garang bo'lib o'tirgan Samandar: «Qanaqa yara?» — deb yuborishiga sal qoldi. Yaxshiki, qo'lini «shisha tilib yuborgani» esiga tushdi. «□ z i m

yuvib, bog'layman», — deb doka, dorini olib hojatxonaga o'tdi, qo'lini yuvdi. Uchoq chayqala boshlagach, o'zini tutolmay qayt qildi. So'ng yuzlarini yuvib, ko'zguga qaradi. Ko'zguda uning aksi emas, Nafisaning «Gunohim nima?» deb baqraygan ko'zlarini ko'rib qo'rqib ketdi. Beixtiyor orqasiga tisarildi. Ko'zgudagi baqraygan nigoh yo'qolib, o'zining aksi ko'rindi. Malla rangi oqarib, o'lik tusini olganday tuyuldi o'ziga. Yuzlariga asta shapatiladi. So'ng panjasini doka bilan betartib ravishda bog'lab joyiga qaytdi. Polkovnik uning bog'langan qo'liga ajablanib qaradi-yu, «Adashdim, shekilli», — deb o'ylab indamadi. Yo'q, polkovnik yanglishmagandi: Samandar uyidan chiqib kelganda uning o'ng panjasini qon edi. Hozir esa chap qo'lini bog'lab olgandi.

Samandar polkovnik gapga tutmasin, degan maqsadda o'zini ish bilan band qilib ko'rsatish uchun qog'ozlarni varaqladidi. Biroz vaqt o'tgach, «ish bilan band» ekanimi ham unutib, ko'zlari bir nuqtada qotdi. Askar yigit yaqinlashib, qahva uzatganini ham sezmadidi. Polkovnik uning bilagiga qo'lini astalik bilan qo'yib:

— O'rtoq Bosh konstruktor, — dedi.

Samandar yengil seskanib, unga qaradi.

— Qahva iching, yengil tortasiz, — dedi polkovnik kulimsirab.

«Yengil tortasiz, — deb ajablandi Samandar. — Bir nimani sezdimi bu odam? O'zimni tutib olishim kerak. Uyda hech nima bo'lgani yo'q, hech nima... Bu tush edi, vahimali tush...»

Qahva ho'playotib shu tarzda o'zini o'zi ovutib, «tush ko'rayotgani»ga ishontirmoqchi bo'ldi.

— Qondan qo'rkar ekansiz, — dedi polkovnik kulimsirab.

— Yo'g'-e, — dedi Samandar aybi oshkor bo'lgan boladay.

— Ha, rangingiz aytib turibdi. Siz xijolat bo'l mang, ayrim odamlar shunaqa bo'lishadi. Qonga ko'zi tushishi bilan hushidan ketib qoladiganlar ham bor. Ko'nglingiz ayniganini mashinadayoq sezgan edim. Tag'in ham chida-dingiz.

Samandar bu lutfni qabul qilganday o'zini zo'rlab kulisiradi.

— Biroz dam oling, o'tib ketadi, — dedi polkovnik mehribonlik bilan.

«O'tib ketadi? Qani edi o'tib ketsa!.. O'tib ketadigan manzara emas bu...» — deb o'yladi Samandar. Polkovnikning taklifi unga ma'qul keldi: bekorchi suhbatdan qo'chishning yaxshi yo'li — dam olish. U qahvani ichib bo'lгach, suyanchiqni tushirdi-da, yotib, ko'zlarini yumdi.

Samandar shu bo'yи to uchoq Moskva yaqinidagi harbiy aerodromga qo'nguniga qadar qaddini ko'tarmadi. Polkovnik taomga taklif qilganida ko'zlarini yarim olib, «y□q ishorasini qilib, bosh chayqab qo'ya qoldi.

Ko'zlarini yumib yotgani bilan uxlamadi. Aslida bu holda yotish ham uning uchun azob edi. Biroq polkovnik bilan suhbatlashgandan ko'ra shu alfozda azob chekish ma'qulroq tuyuldi.

U ikki to'lqin iskanjasida edi. Biri — qon tusida uyidagi dahshat manzarasi, ikkinchisi — bir necha soatdan so'ng bo'lajak suhbatlar. Samandar birinchi to'lqinni yengishga, Nafisaning baqraygan ko'zlarini haydashga, girdobdan ko'tarilayotgan qonli panjalarni nari surishga intildi. Bir necha muddat bunga erishganday ham bo'ldi. Biroq nari ketgan manzaralar yana shiddat bilan o'z o'rning qaytaverdi.

Samandar turli tashvishlar nahrida bearmon suzgan, ammo bu kabi kuchli to'lqinlarga bandi bo'limgan edi. Yaratganiga banda bo'lomaganlarning ajri balki shudir — tashvish-u alamlarga bandi bo'lishdir...

U keyingi ma'lumotlarga kattalarning ishonishlari qiyin, balki siyosiy tus ham berilar, degan taxminni diliqa tugib yurgan edi. Uning kashfiyotiga asoslangan qurilmalar dunyodagi yadro poligonlarining har biridagi eng kuchsiz sinovni ham aniqlab, bilib berishi mumkin edi. Ammo o'n ikki kun avval kutilmagan holat yuz berdi: qurilma zaminning kuchsiz tebranganini xabar qildi. Zamining tebranishi yangilik emas, ammo tebranish markazi sira kutilmagan yerda edi. Ulardagi xarita bo'yicha bu

joyda yadro poligoni yo'q edi. Samandar hisob-kitoblarni qayta-qayta tekshirdi, solishtirdi. Raqamlar baribir o'jarlik bilan aynan o'sha joyni ko'rsatib turaverdi.

Samandar ma'lumotlarni bir kun kechikib yubordi.

Markaz tanbeh berar, deb o'ylayotgan edi. Shoshqich chaqiriluvi u uchun kutilmagan bo'ldi. Ayniqsa, uydagi voqe...»

Uchoq yerga qo'nib, belgilangan maydonchada to'xta-gach, Samandar qaddini ko'tardi. U go'yo uchoqda uch-madi, balki tanklar zanjiri ostida, egz'ilandi. Uchoq uni uyidagi voqeadan uzib olib, necha ming chaqirim nariga olib kelgani bilan xayoliga bog'langan tashvish iplarini uza olmagan edi.

Uchoq zinapoyasidan sal narida ularni ikki qora «Volga» kutib turardi. Polkovnik hamkasbi bilan salomlashib «vazifa ado etilgani»ni ma'lum qilgach, Samandar mashinaga o'tirdi. «Vazifasini bajargan» polkovnikka «Alovida buyruq bo'lgunicha kutinglar», — deyilgach, mashinalar o'rnidan qo'zg'aldi.

Samandar Moskva ko'chalarini yaxshi bilardi. Shu bois Mudofaa vazirligi joylashgan ko'chaga burilishmaganidan ajablandi-da:

— Qayerga ketyapmiz? — deb so'radi. Uni polkovnikdan «qabul qilib olgan» odam bamaylixotirlik bilan:

— Kremlga, — dedi.

— Kimning oldiga? — deb so'radi Samandar.

— Sizni o'rtoq Vaygildin kutyapti.

— Bazarovchi?

— Viktor Bazarovich ham o'sha yerda.

Bazarov deganlari vazirlik huzuridagi Markaz boshlig'i edi. Odatda, Samandar, asosan, shu odamga yo'li-qardi. Vaygildinning huzuriga kamdan kam hollardagina borishardi. Samandar bu safar to'g'ri o'sha yerga borila-yotganidan masalaning jiddiy ekanini angladi. Bir jihatdan Vaygildinga ro'para bo'lishi yaxshi. Farosatlari odam. Bazarovga o'xshab huda-behuda so'kinib baqiravermaydi. Har holda, unda harbiylikka nisbatan olimligi ustun turadi.

Kremlda to'g'ri Vaygildinga ro'para bo'lmasdi. Baribir avval Bazarovga yo'liqdi:

— Sen nima qilib qo'yding, bilasanmi? — dedi u sovuqqina salomlashib.

— Nima qilibman? — dedi Samandar ham sovuqroq ohangda.

— Butun razvedka oyoqqa turgan. Agar ma'lumoting isbotlanmasa, bilasanmi nima bo'ladi?

— Bilaman. Ishlarimning oyog'i osmondan bo'ladi.

— Faqat ishlaring emas, o'zing ham. Faqat o'zing emas, men ham...

— Shunaqa xatar bor ekan, ma'lumotni bularga ko'rsatmang edi.

— Sen shunaqa vaqillayverasan. Rost bo'lsa-chi? Unda yana bir balo! «Qayoqqa qarayapsanlar?!» — deb uchirib yuborishadi. Nima bo'lsa bo'ldi — tavakkal! Yur.

Vaygildin u qadar vahima qilmadi. Ma'lumotnomha, hisob-kitoblar xulosasi bilan tanishgan bo'lsa-da, Samandering tushuntirishlarini diqqat bilan tingladi.

— Ilmiy ekspertiza xulosalaringizning to'g'ri ekani ni tasdiqladi. Lekin hozircha uzil-kesil to'xtamga kela olmaymiz. Hozir orbital stansiyadagilarga ham topshiriq berilgan. Samandar Ochilovich, siz uch-to'rt kun Moskvada dam oling. Siz bilan Basiliy Ignatyevich ham ko'rishmoqchilar. Qurilmalaringizni Hindiqushta ham o'rnat-sak-chi? Nima deysiz?

— Afg'onistongami?

— Ha.

— Shartmi? Hozirgi joyi ham yetarli. Qurilma sezgirligini yana ham oshirish mumkin.

— Qanday qilib?

Samandar uydan olib chiqqan qog'ozlar taxlamini unga uzatdi.

— Hammasi hisob-kitob qilingan. Hindiqushta yangisini qurgandan ko'ra sezgirlik oshirilsa, yuz baravar arzon tushsa kerak.

— Sen bularni menga aytmovding? — dedi Bazarov norozi ohangda.

— To'ppa-to'g'ri bu yerga boshlab kelishlarini bilmabman. Aslida sizga ko'rsataman, deb o'ylovdim. Siz baribir o'rtoq Vaygildinga berardingiz.

— Bu hisobingiz ham to'g'ri, — dedi Vaygildin jilmayib. So'ng qog'oz yuzidagi qizil dog'ga ko'zi tushib, Samandarning bog'log'liq qo'liga qaradi: — Qo'lga nima qildi?

— Ha, shunchaki... shisha tilib ketdi, — dedi Samandar o'zini xotirjam tutishga intilib.

Vaygildin ularni uzoq ushlab o'tirmadi. Samandarni shahar chetidagi xos mehmonxonaga kuzatib qo'yishdi. Xonaga kirib, birinchi ko'rgani Hindiqush xaritasi bo'ldi. «Maqsadlari jiddiyga o'xshaydi, — deb o'yladi. — Agar Afg'onistonga ham o'rnatilsa, yangi o'ta sezgir qurilmaga hojat qolmaydi. Yo'lni to'sishadi». Shu fikr xayoliga kelib battar bo'g'ildi. Muzjavonni ochdi: baxtiga aroq bor ekan. Katta qadahga quyib, sahroda yo'l yurib chanqagan odam kabi yutoqib ichdi. Bittaga qanoat qilmasdan ikkinchisini ham to'ldirib ichgach, dasturxon ustidagi olmalardan birini olib, karsillatib tishladi. Nazarida aroqning quvvati ojizday tuyilib yana ikki marta ichdi-da, shisha beliga yopishtirilgan yorliqqa qaradi. Aroqning qirq daraja ekanini o'qib, ajablanganicha bosh chayqadi.

Eshik taqillab, askar yigit ko'rindi-da, «Yemakxonaga chiqasizmi yo ovqatni shu yerga olib kelaymi?» — deb so'radi. Samandar och bo'lsa-da, ovqat yegisi yo'q edi. Avvaliga «Kerakmas», — deb rad etdi. So'ng yigitni chaqrib, «Shu yerga olib kel», — deb buyurdi.

Aroq ta'sir qilib, badani qizidi. Boshi aylandi. Bog'-langan panjasiga qarab g'ijindi-da, dokani yechib tashladi. O'zicha bir nimalar deb g'udranib hammomga kirdi. Yuvinib chiqqanida xonani ovqatning yoqimli isi tutgan edi. Shishani bo'shatgunicha to'rt-besh cho'qim ovqat yeya oldi, xolos. Tomog'idan boshqa hech narsa o'tmadi. Yana bir shisha pivo ichgach, to'shakka ham yetib bora olmay, gilam ustiga cho'zildi.

...Nafisa ko'zlarini yarim yumganicha to'shakda aysini surardi. Samandarning kirib kelganiga na u, na-da xushtori e'tibor berdi. Samandar: «Hayvon! Buzuq!» — deb baqirmoqchi bo'ldi, ammo ovozi chiqmadi. So'ng... oshxonadan bolta olib chiqib, ularni chopaverdi, chopaverdi. So'ng... dahshatga tushdi. Bolta ularni qiy-

ma-qiyima qilib tashlagan bo'lsa-da, tanada bir tomchi ham qon ko'rinnadi. So'ng... qiymalangan tana busbutun holga kelib, qadlari k□tarildi «Ey nodon!» — deb unga qarab kuldilar, kulaverdilar. So'ng... Samandar ularga pichoq bilan tashlandi. Ular qochedilar, qochaverdilar. Samandar g'azabga kelib pichoqni otdi. Pichoq kinodagi mergan qo'lidan otilganday to'g'ri borib Nafisaning chap ko'kragiga sanchildi. Nafisa yiqlidi. O'ldi. Chinakamiga o'ldi! Ana, ko'kragidan qon sizib chiqyapti. Qon... issiq, qon. Ko'zlari esa baqrayib qoldi. «Gunohim nima edi?» — deb so'rayotganga o'xshadi. Samandar qo'rqb ketdi: «Nafis, seni o'ldirmoqchi emasdim. Tursunali bilan birgaligingni bilganimda ham kechirgan edim. Bu safar ham kechirardim. O'lma, Nafis...» Shunday deb turganida xushtor kelib boshiga to'qmoq bilan urdi, uraverdi. To'qmoq har urilganida jaranglab, aks sado taratdi, tarataverdi... Nafasi esa bo'g'ildi, bo'g'ilaverdi...

To uyqudan uyg'onguniga qadar shu tush asoratida azob chekdi. Qo'rquvdan uyg'ondimi yo eshikning taqillaganidan uyg'ondimi — farqlay olmadi. Har holda, eshikning taqillashi boshiga urilgan to'qmoq jarangiga monand edi. Boshiga urilgan to'qmoq tushida kechgan bo'lsa-da, gardani lo'qillab og'rirdi.

Avvaliga qimirlash u yoqda tursin, «Ha, kim?!» — deyishga ham majoli yetmadi. Aniqrog'i, qayerda, nima uchun yotganini idrok qilolmadi. Biroz garangsib yotgach, nonushtadan keyin bo'lib o'tgan voqealarni xira tarzda bo'lsa-da esladi. Shundan so'ng ko'zlarini arang ochdi. Eshik yana taqillagach, «Hozir!» — deb ovoz berdi-da, inqillab o'rnidan turdi. Uy xuddi osma ko'prikdir u yonbu yon tebranganday bo'lib chayqaldi. Gandiraklab borib eshikni ochdi.

Yengsiz ich ko'yakda turgan gavdali odam uni ko'rib jilmaydi:

— Xayriyat! Bu kimsasiz orolda bittagina insofli tirik odam bor ekan! — dedi u. — Hamma xonalarni birma-bir taqillatib chiqdim. Tirik odam yo'qmi, bilmayman. Bo'lsa ham ochishmaydi. Qo'rkishadimi, bilmayman. Men yolg'izlikni yomon ko'raman. Ichgim kelyapti, qo'shni, ni-

ma, men alkashmanmiki hadeb yolg'iz ichaversam. Ko'nglim shirin suhbatni istayapti. Siz menga sherik bo'la olmaysizmi? — U shunday deb qo'lidagi aroqni yuqori ko'tardi.

Boshi aylanib, og'zi qurib, ko'ngli behuzur bo'layotgan Samandarga bu taklif ma'qul keldi. Garchi u chaqirilmagan mehmonga zid o'laroq yolg'izlikni yoqtirsa ham, hozir ulfat bilan ichgisi keldi.

— Kiring, — dedi u tisarilib.

Mehmon ostona hatlab qo'l uzatdi-da, o'zini tanitdi:

— Medvedyev Sergey Lavrentyevich.

Samandar: «Marhamat qiling», — deb joy ko'rsatdi. Medvedyevning shimi yonidagi qizil hoshiyani ko'rib «Generallardan ekan-da», — deb qo'ydi. Medvedyev esa yozuv stoli ustidagi Hindiqush xaritasiga ko'zi tushib: «~~□~~ zimizda ~~ekan~~», — deb o'yladi.

— Ismingiz nima, qo'shni? — dedi Medvedyev ikki qadahga aroq quyib.

Kiyev universitetida, so'ng Moskvadagi aspiranturada ~~□~~ q i lyurganida Samandarni hamma «Sasha» deb chaqirardi. Shuni eslab u:

— Sasha deyavering, — deb qo'ydi.

— Sashok, salomatlik uchun! Men sendan xursandman. Bu yerdagi yagona tirik odam sen ekansan... — Medvedyev shunday deb tik turgan holida qadahni bir ko'tarishdayoq bo'shatdi.

Samandar qadahni labiga yaqinlashtirganida aroqning hidi dimog'iga urilib, seskandi. Ko'ngli battar aynidi. Mehmon qarab turgani uchun xijolat chekdi. Keyin churqur nafas oldi-da, bir zarb bilan ichib yubora qoldi. Dam o'tmay o'zini yengil his eta boshladi. Uchinchi qadahdan keyin esa picha o'ziga keldi. Bu yerga kirishdan avval ham bo'kib ichgan mehmonning «gap xaltasi teshilib», tinmay gapiraverdi.

— Sashok, men harbiy odamman. Mening kasbim jang qilish. Qog'oz titib idorada o'tiradiganlarga toqat qila olmayman. Rossiyanı kim xarob qildi, bilasanmi? Ana o'sha burniga ko'zoynak qo'ndirib, qog'oz titib o'tiradiganlar. Biz esa buyuk Rossiya shuhratiga shuhrat qo'shamiz. Bu — bizning burchimiz.

Medvedyev yana qadahlarni to‘ldirdi:

— Buyuk Rossiyamiz uchun, uning shuhrati uchun! —
U shunday deb xitob qilgach, qadahni odati bo‘yicha bir
ko‘tarishda bo‘shatib, kaftiga «kuf» deb qo‘ydi.

Samandar endi ichishga qiyalmadi. Og‘riqlar uni tark
etgan, ammo qulog‘i shang‘illab, mehmonning gaplarini
durust idrok qila olmayotgan edi. Medvedev esa «sukut
rizolik alomati» sanalganday, «Gaplarim Sashokka ma’qul
kelyapti», — degan fikrda jo‘shib so‘zlayverdi.

— Bu g‘alamislar Rossiyaning O‘rta Sharqdagi siyo-
satini o‘zgartirishmoqchi. Ochig‘ini aytaymi? Mixail Me-
chenniyning ishlari menga yoqmayapti.

Samandar Mixail Mechenniyning kim ekanini darrov
anglamadi. Keyinroq gap Gorbachyov haqida borayot-
ganini fahmlab, nimani tasdiq etayotganini o‘zi ham tu-
shunmay, bosh irg‘ab qo‘ydi.

— U bizning Germaniyani ikki qo‘llab topshirdi.
Germaniya uchun ruslar qancha qon to‘kishgan, bila-
sanmi? Endi esa Afg‘onistonni bermoqchi! Gorchakov
janoblari 1877-yilda nima qilgan, bilasanmi? Bilmaysan!
Granvillni bilasanmi? U o‘scha paytda Angliya tashqi ish-
lar ministri edi. Gorchakov u bilan sulk tuzdi. Hozirgi
Afg‘onistonning shimoliy chegarasini o‘scha ahmoq bel-
gilagan. Nega ahmoq, deyapsanmi? Shuning uchun-
ki, yana bir zarb berilsa, Afg‘oniston to‘laligicha biz-
niki edi. Hech bo‘lmasa yarmi bizniki bo‘lardi. Bugun
bekorga qon to‘kib yurmasdik. Endi Mixail Mechenniy
nima qilmoqchi? Bilasanmi? Bilmayman, dema, bila-
san. Bu yerda bekorga o‘tirganing yo‘qdir. Meni ham
shuning uchun chaqirtirishibdi. Bular Afg‘onistonni top-
shirishmoqchi! Qo‘sinni qaytarishmoqchi! Bunga chidash
mumkinmi?! Yo‘q! Sen chidasang chidayver, ammo
men chiday olmayman! Axir, u yerlar rus qoni evaziga
olindi. Xalqi tamoman qirib tashlansa ham Afg‘onistonni
qo‘ldan bermaslik kerak. Afg‘oniston — Pokiston kaliti,
Hindiston kaliti, Hind okeani yo‘li! Hindiqush-chi? Bun-
day strategik qulay joy yana qayerda bor? Endi sen ayt:
qaysi ahmoq kalitni o‘z ixtiyori bilan beradi?

U yana biroz asabiylashgan holda aroq quydi:

— Rossiya shuhratining so'nishiga sira yo'l qo'ymaymiz!

Samandarning ko'zlariga qadah avval ikkita, so'ng uchta bo'lib ko'rindi, keyin chirpirak bo'lib aylana boshladi. Rossianing shuhrati uchun ichishga qurbi yetmay, yoniga shilq etib yiqildi.

— O, Sashok, ichishni eplay olmas ekansan-ku!

Medvedyev shunday deb uni ikki qo'ltig'idan oldi-da, sudrab borib karavotiga yotqizdi.

— Bo'pti, Sashok, omon bo'l! Biroz ko'nglim yozildi. Ammo sen mening gaplarimni unut!

Shunday deb yarimdan ozaygan shishani ko'tarib, bir-oz gandiraklagan holda xonadan chiqdi. Dam o'tmay qo'shni xona eshigi taqillay boshladi. U endi ertalabgacha birga ichishi mumkin bo'lgan «tirik odam» izlardi.

Hamma yoqni bulg'ab tashlagan Samandarni esa ertalab harbiylar shifoxonasiga olib ketishdi.

ARMON

Tish og'rig'ining davosi ombur, deganlaridek, Omonullo o'zidagi qo'rquvni yengishga kuch topib, tish tabibiga kirdi-yu, bir necha daqiqada ko'zları moshdek ochildi, qorong'i dunyosi yorishdi. Avvalgi kuni e'tibor bermagan narsalar endi muhim bo'lib ko'rinaldi.

O'sha kuni Abduqayumning uyidan chiqqach, doktiloskopist uni ichkari xonaga chaqirdi-da, po'lat sandiqdagi qonli dog'ni ko'rsatdi:

— Eshik tutqichlarida ham ayni shu iz.

Omonullo po'lat sandiqni sinchiklab ko'zdan kechirdi: ochishga urinilmagan. Balki o'z kaliti bilan ochib yopilgandir? «Kim ochib yopgan? Ochilovmi? Pullarini olib qochganmi?» Omonulloning xayoliga kelgan birinchi fikr shu bo'ldi. Samandardan barmoq izlarini olib, qonli izlar bilan solishtirib ko'rilmagunicha aniq bir qarorga kela olmas edi. Shu sababli uning qayerdaligini aniqlash maqsadida ishxonasiga yo'l oldi.

Telefondagi savol-javobdan so'ng uning kelishini kutishayotgan ekan. Tashqaridan qaraganda ko'rimsizgina

bo‘lgan uch qavatli uy temir panjara bilan o‘ralgan edi. Omonullo darvoza yonidagi qorovulxonadan nariga o‘ta olmadi. Qorovulxona odatdagidan ko‘ra kengroq, uchdan ikki qismi bel barobar taxta to‘sinq bilan ajratilgan edi. Odamlar o‘tishi uchun mo‘ljallangan yo‘lak o‘rtasiga xuddi metrodagi kabi ochilib yopiladigan to‘sinq qo‘yilgan edi. Xuddi shu joyda to‘xtagan Omonulloning guvohnomasini ko‘rishdi. Avvaliga to‘sinq yonida turgan yigit harfma-harf o‘qiyotganday tikildi. So‘ng bir suratga, bir Omonulloga tikildi-da, guvohnomani xona to‘rida o‘tirgan o‘rta yosh, tepakal kishiga olib borib berdi. Tepakal ko‘zoynagini taqdi, bu ham kamlik qilib, tortmasidan toshoyna chiqarib guvohnomani sinchiklab tekshirdi. Keyin o‘ng tomondagi kompyuter tugmalarini bosib, besh-olti daqiqa davomida nigohini ekrandan olmay o‘tirdi. Ekranda javob yozuvilar paydo bo‘lganidan keyingina buyruq ohangida «O‘ting», — deb qo‘ydi.

Omonullo avval hovliga, keyin uch qavatli binoga o‘tsam kerak, degan fikrda «Qayoqqa boramiz?» — deb so‘radi. Yigit unga javoban jilmayib qo‘ydi-da, to‘sinqi ochib, «Bu yoqqa», — deb tepakal tomonga ishora qildi. Omonullo ichkariga o‘tib, tepakalning ro‘parasidagi stulga o‘tirdi.

- Ochilovda nima ishingiz bor? — deb so‘radi tepakal unga qattiq tikilib.
- Undan so‘rab-bilib oladigan gaplarim bor.
- Qanaqa gap?
- Siz bilishingiz shartmi?
- Shart.
- Aytaylik, bir jinoyatga oid gaplar bo‘lishi mumkin.
- Qanaqa jinoyat?
- Buni ham bilishingiz shartmi?
- Ochilovga tegishli bo‘lsa — shart.
- Uning xotini o‘ldirilgan.
- Qachon?
- Taxminan uch kun avval.
- Ochilov bir oydan beri safarda.
- Qayerda?
- Kerakli joyda.

- Uni ko‘rishim shart.
- Kelganida ko‘raverasiz.
- Qachon keladi?
- Kerak bo‘lganida keladi.
- Aniqrog‘ini hech kim bilmaydimi?
- Ochilov bilan ishingiz bo‘lmasin. Jinoyat yuz berdimi, jinoyatchini toping. Sizga maslahatim: bu tomonlarga boshqa kelmaganingiz ma’qul.
- Xotinining o‘lganini xabar qilish kerakdir? Murdani ko‘mish kerakdir? — dedi Omonullo biroz achchiqlanib.
- Xotinining hech kimi yo‘q ekanmi? — deb so‘radi tepakal pinagini buzmay.
- Otasi bor.
- Xotirjam bo‘ling, otasi ko‘maveradi. Eri ko‘mishi shart emas.

Tepakal: «Gap tamom, sizga ruxsat», — deganday guvohnomani uzatdi. Omonullo bu yerdagilarning oddiy qorovul emasliklarini tushunib yetgan bo‘lsa-da, tepakalning podpolkovnik unvonida ekanidan bexabar edi. Shunga qaramay, uning qo‘rsligiga qo‘rslik bilan javob bermadi. O‘rnidan turib xayrlashmoqchi bo‘lganida tepakal o‘tirgan yeridan qo‘zg‘almagan holda qo‘l uzatdi:

- Shashtingizga qaraganda Ochilovga boshqa ko‘z bilan qaramoqchiga o‘xshaysiz, — dedi u. — Sizga maslahatim: Ochilovni tinch qo‘ying. Unga tishingiz o‘tmaydi.
- Qonun oldida hamma teng, — dedi Omonullo bu safar qat’iyroq ohangda.

— Siz o‘qigan kitobda shunaqa yozilganmi? Hayotda esa, azizim, butunlay boshqa. Shuni hali ham tushunib yetmadingizmi?

...Tish og‘rig‘idan qutulib, fikri tiniqlashgach, o‘sha uchrashuvni, o‘sha tepakalning keyingi gaplarini eslab, o‘yga toldi: «Nima demoqchi? Qotil Ochilov bo‘lgan taqdirda ham qo‘lingdan hech nima kelmaydi», — demoqchimi? Shunchalar zirhi qalinmi bu idoraning? Xo‘p kunlarga qoldim-da! Jinoyat ildizini topib, «banditizm» desam, «Bunaqa gap yo‘q, partiya syezdida SSSRda banditizmga barham berilgan», deyilgan», — deb garang

qilishadi. Mana, jinoyatchini ushladim, desam, «To'xta, qamamay tur, kommunist ekan, avval partiyadan o'chirib olishsin», — deydi. Boshqasini «Deputat ekan», — deydi. Endi bunisiga nima deyisharkan?...»

Yaxshi hamki Abduqayum novvotrang «Volga»ning raqamlarini eslab qolgan ekan. Harbiy prokuratura orqali mashina haydovchisi ham, polkovnik ham topilib, so'ralgach, Omonullodagi gumon haqiqat sari yanada yaqinlashdi. Ayniqsa, Ochilovning o'ng qo'llini «shisha kesib ketgani», uchoqda esa chap qo'llini bog'lab olgani uning ahvolini ayon etganday edi. Uning nazarida Ochilovni hibsga olish uchun shu dalilning o'ziyoq kifoya edi. Ayni damda uni boshqa narsalar o'yantirardi. Sanjar Ibrohimovning qismati oilasiga ma'lum etilgach, ular uchun go'yo qiyomat boshlanganday bo'ldi. Yaqinlari: «Jasadni beringlar», — deb o'likxonani qamal qilib olish darajasiga yetdilar. Nafisaning murdasи esa yana ikki kun o'likxonada qolib ketibdi.

Kooperativ boshlig'i Omonullo yuborgan vakilga: «Ik-kovi ham suyug'oxyoq edi, endi haydamoqchiydim», — debdi. Sanjar Ibrohimovning ukasi esa Omonullo bilan suhbatda: «Bizning urug'da haromga yuradigan odam yo'q. Akam haromdan hazar qilar edilar», — deb gapni kalta qildi. Ibrohimovning xotini esa o'tinch bilan: «Adasidan bunday gumon qilmang», — deb ko'z yoshi to'kdi. Ularning bu zorli gaplari marhum xotirasini himoya qilish uchungina aytilmayotganini Omonullo sezdi. Bu gaplarga ishondi. Ammo «Eri safarda bo'lgan chiroyli yosh juvon bilan uning uyiga nima uchun keldi?» — degan savolga javob topa olmagani uchun marhumning ruhi chirqirasa ham, shu gumondan uzoqlashmaslikka majbur edi. Erkakning haromdan hazar qilib yurishi a'lo hol, biroq... o'rtada shaytoni la'in ham bor-da...»

Marhumlar xizmat qilgan kooperativning boshlig'i g'oyatda tez gapirganidan o'zining ham nafasi qaytib ketuvchi, chaqchaygan ko'zlaridan makkorlik nuri sachrab turuvchi odam ekan. Omonullo: «Odamning tili aldagani bilan ko'z qarashi alday olmaydi, men har qanday odamning ko'ziga bir qarashdayoq kimligini aytib bera

olaman», — deb maqtanishni yaxshi ko'rardi. Qaynatma sho'rvaning ko'pigi bo'lgani kabi bu maqtanishning chegaradan chiqqan yeri ham bor edi. Ammo Omonullo yuzdan yetmis holda adashmas edi, deyilsa haqiqatdan chetga chiqilmas. O'sha yuzdan yetmis holatning biri kooperativ boshlig'ini ko'rganida amal qildi. Shu bois ham: «Siz marhumlarni yaxshi bilarmidингиз?» — deb so'ramay, gapni aylantirdi.

— Kooperativda ishlar qalay, gullab-yashnayaptimi? — deb so'rab, boshliqqa tikildi.

— Ha, endi, qimirlab turibmiz. Hukumatga rahmat, hamma sharoitlar bor.

— Gapingiz to'g'ri. Sharoit zo'r. Xohlagan qing'irlik-larga shart-sharoit mixday yaratilgan, buni biz bilamiz, — Omonullo «biz» degan so'zni alohida urg'u bilan talaffuz etdi. Bu alohida ohang boshliqning miyasiga to'qmoqdek urilib, bir seskandi. Lekin o'zini go'llikka solib, xixilab kuldil:

— Iye, hali shunaqalar ham bormi? Qing'irlikdan Xudo asrasin. Hukumat shuncha sharoit yaratib bergeniga shukr qilib to'g'ri ishlaganga nima yetsin!

— Gaplaringiz zo'r... ammo sizda ham ozgina bor ekan, deb eshitdik.

Boshliq: «Buning gapi chinmi?» — degan fikrda kipriklarini pirpiratib, Omonulloga bir zum tikildi. So'ng yana quvlik ko'chasiga o'tib, jilmaydi. Jilmayganda lablarining sal titraganini Omonulloning ziyrak nigohi ilg'adi.

— Hazilingiz bor bo'lsin. Biz: «Xudo halolidan ber-sin», — deb yurgan bandamiz, akaxon.

— Shunaqami? Ibrohimov bilan Boltayeva bu qing'irliklarni ochamiz, deb yurishgan ekan-ku?

Omonulloning bu tagdor gapi soyasida «Ular sirni ochmoqchi bo'lganlari uchun o'ldirilganlar», — degan ma'no bor edi. Ana shu ma'no o'q kabi miyasiga sanchilib, butun tanasini zirqiratgan holda tovonidan teshib chiqqanday bo'ldi. Endi yuzidagi quvlik jilmayishi ham yo'qoldi. Biroz o'ylandi-da:

— Kim shunday degan bo'lsa, o'lgan odamning go'shtini yebdi, — dedi.

- O'lgan odamning go'shti? Gapingizga tushunmadim? — dedi Omonullo ajablanib.
- G'iybat bilan tuhmat — o'lgan odam go'shtini ye-yish bilan barobar ekan.
- Shundaymi? Unda siz nima uchun bu go'shtni yedingiz?
- Men-a? Astagfirulloh! Nega bunday deyapsiz?
- «Bular suyug'yoq edi, haydab yubormoqchiydim», degan kim, siz emasmi?
- Men shunday debmanmi?
- Xotirangiz yaxshi emasmi? Siz chet elning kino-larini ko'rmanmisiz? — Omonullo savolni berishga berdi-yu, javob kutmadi: — Tugmachaga joylashtirilgan magnitofonlari bor... Bizda shunaqasi yo'q deb o'ylaysizmi?
- Degan bo'lsam degandirman. Achomlashib yotishganda o'ldirib ketganidan keyin yana nima deyishim mumkin?
- Kim sizga «achomlashib yotishgan» dedi?
- Hammaning og'zida shu gap. O'zim ko'rmadim. Eshitganimni aytyapman.
- Siz shu odamlarning rahbari edingiz. Nega anig'ini so'rab-surishtirmadingiz?
- Menga buning nima qizig'i bor?
- Siz ularning suyug'yoq ekanliklarini isbotlay olasizmi?
- O'rtoq tergovchi, men sizning bunday savollaringizga javob bermayman. Meni go'l deb o'ylamang. Men ham yurfakni bitirganman. Uncha-buncha narsaga aqlim yetadi.
- Shundaymi? — Omonullo kinoya aralash jilmaydi. — Unda, o'rtoq hamkasb, siz ba'zi darslarga kirmay qochib yurgan ekansiz. Siz kirmagan darslarning birida «tergovchi ishga aloqador har qanday savolni so'rashga haqli», deb ta'lim berilgan.
- Hozirgi savolningiz ishga aloqadormi?
- Bo'lmasam-chi? Men ularning munosabatlarini biliшим kerakmi? Uyga nima uchun borishgan? Balki koo-perativdagi qing'ir ishlarni yozish uchun borishgandir?

Jahlingiz chiqmasin, bu shunchaki gumon, xolos. Biz siz bilan yana uchrashamiz. Iotasangiz, advokat yollang. Advokat ishtirokida gaplasting, bu sizning huquqingiz.

Omonullo shunday deb iziga qaytdi. Aslida «Kooperativdagi qing‘ir ishlarni fosh qilmoqchi bo‘lishganda o‘ldirilgan», — degan gumoni zaif edi. Lekin kooperativ boshlig‘ining sarosimasi bu zaif gumonga quvvat berib qo‘ydi. Yondaftarchasidagi «Qotil kim?» savoli ostiga yozilgan «Eri», «Otasi» degan javob yoniga «Boshlig‘i?» yozuvi ham paydo bo‘ldi. Ayniqsa, ertasi kuni boshliq nomidan advokatning kelishi uni ajablantirdi. «Oliy ma-lumotli yurist»dan bunaqangi harakatni kutmagan edi. «Bir balosi bor. Bo‘lmasa he yo‘q, be yo‘q himoyachi yollaydimi?» — deb o‘ylab, «Boshlig‘i?» degan yozuv tagiga ikki marta chizib qo‘ydi-da, Boshqarma boshlig‘iga uchrab, kooperativning moliyaviy ahvoli zudlik bilan tekshiriluvি lozimligи haqidagi fikrini bayon etdi. Fikr ma‘qullangach, ertasigayoq kooperativ muhrlanib, tekshiruv ishlari boshlandi.

Qotillikka oid tekshiruv qamrovi kengaygani sayin Omonullo savollar, jumboqlar girdobiga bandi bo‘lib boraverdi. Girdobdan chiqa olish yoki tamoman muvaffaqiyatsizlik bahriga g‘arq bo‘lishi o‘zining farosatiga bog‘liq ekanini u yaxshi fahmlardi. Bu kabi girdob uning uchun yangilik emas. Har bir jinoyatga doir ishning o‘ziga yarasha o‘ramasi mavjud. Shuning barobarida cho‘kishdan asrab qoluvchi himoya chambaragi topilmasa ham ushlab olishga yaraydigan daraxt ildizimi yo xasmi, albatta, bo‘ladi. Eng muhimi, ularni vaqtida ko‘ra bilish, mahkam ushlab olishda. Cho‘kayotgan odam xasga tirmashganidek, u ham biron-bir dalilga mahkam yopishadi. Hozirgi girdobda u xas emas, himoya chambaragini topganday edi. Nazarida uydagi qonli izlar aynan shu chambarakning o‘zi edi. Qolgan dalillar suv o‘rami kabi uni o‘ziga tortar, ammo u xaloskorlikni aynan o‘sha qonli izlarda deb o‘zini ishontirmoqchi bo‘lardi.

Omonullo boshlig‘iga kooperativda tekshiruv o‘tkazish haqidagi fikrini bayon qilib, uning rizoligini olgach, yengil tortdi. U Boshliq huzuriga kirishda «Siz jinoyatchini

topish bilan shug‘ullaning, kooperativning moliyaviy ishi sizga aloqador emas», deb qolarmikin», — degan hadikda edi. Yaxshiki, jinoyatning bir uchi shu ishga borib taqalishi mumkinligini Boshliq ham tushundi. Omonullo shundan xursand edi. Barcha sohalardagi kabi ularning ishida ham ba’zan boshliqlarga gap tushuntirish qiyin bo‘ladi. Aynan bir xilda fikrlaydigan, ish yuritadigan boshliq bilan xodimni topish qiyin emas. O‘z fikri, o‘z uslubi bo‘lmagan odamlargina boshliq bilan bir xilda ish yuritadilar. Aqlli boshliqlar bunday xodimlardan ehtiyoj bo‘ladilar. Bundaylarni o‘zlariga yaqinlashtirmaydilar. Ayniqsa, jinoyatga daxldor ishlarda boshliq chizgan chiziqdandan chiqmay yurish yaxshi natijaga olib kelmasligi mumkin. Boshliq qanchalar tajribali, bilimli bo‘lmashin, har holda, u idora odamiga aylanadi. Har bir jinoyat esa alohida olam. Bu olamning o‘ziga yarasha, boshqalarga o‘xshamaydigan past-balandliklari bo‘ladi. Idoradagi odam bularni o‘tgan tajribalariga suyangan holda payqashi qiyin. Boshliq shuni tushunsa, xodimning omadi yurishgani. Omonulloga bu safar shunday omad kulib boqqani uchun kayfiyati ko‘tarildi. Uyiga ertaroq qaytib hordiq chiqargisi, fikrlarini tiniqlashtirib olgisi keldi.

To‘qqiz qavatli uyning yo‘lagiga kirgach, ta’bi tirriq bo‘ldi: lift ishlamayotgan ekan. Yetinchi qavatga piyoda bosib ko‘tarilish malol keldi. Halloslab chiqib borganiga yarasha uni bir mehribon kutayotgan bo‘lsa ekan, das turxon tuzasa ekan, erkalab, mehribonliklar qilsa ekan...

Xotini Fotimani Hindistonga kuzatganidan beri uyi huvullab, kirgan odamni yutaman deydi. Sakkiz yil muqaddam Fotimaning barmog‘iga nikoh uzugini taqqanida, so‘ng suyib bo‘sса olganida xotinining nozli iltimoslariga, o‘jarliklariga qul bo‘lib qolishini o‘ylamagan edi. Ba’zan Fotimaning biron iltimosiga «xo‘p» deb qo‘yib, keyin o‘zi afsuslanib yurar edi. «Shu xotinning nimasini yaxshi ko‘raman? Nimasiga ishqiboz bo‘lib olganman? Bir og‘iz so‘zimga ilhaq bo‘lib yurganlar ko‘p edi-ku? Bo‘ldi! Endi bironta iltimosini bajarmayman!» — deb ont ichardi. Ammo bu qasam qo‘rg‘oni Fotimaning birligina shirin jilmayishidayoq vayron bo‘lib ketardi. Fotima uzun qora

sochlari bilan bog'lab olganmidi yo hamisha kulib turuvchi shahlo ko'zları bilan rom etganmidi, yo qaldirg'och qanoti kabi qoshi, qayrilma kipriklari bilan qalbini o'ziga bo'ysundirganmidi — Omonullo bilmaydi. Bilgani — Fotimani jondan ortiq sevadi. Fotima esa... Omonulloni sevadimi yo o'zining ilmiy ishinimi? Mana shu jumboq ba'zan yuzaga qalqib chiqib qolardi. O'shanda Omonullo: «Men sizga kimman? Bir qulman. Sizga eng muhimi — ilmiy ish! Nomzod bo'lib olay, dedingiz — bo'ldingiz. Endi doktor bo'lmoqchisiz — bo'lasiz. Keyin professor bo'lgingiz keladi. Keyin akademik bo'larsiz. Omonqul esa mishiqi boladay atrofingizda girdikapalak bo'lib, xizmatingizni qilib yuraveradi», — deb arazlaydi. Shunda Fotima yonar edi. Lov etib emas, atrofiga uchqunlar sachratib, «Yaqinlashsang — yutaman!» deb emas, mayingina, rohatijon bo'lib yonardi. O'zining eng ishonchli quroli — shirin jilmayishni ishga solardi, yuzidagi kulgichi erining araz o'tlarini so'ndira qolardi. «O'ttiz yoshimgacha chidaysiz, deb shart qo'yganmidim, siz o'shanda ko'nganmidingiz? Hozir to'qson foiz sizniki-man, o'n foiznigina ilmiy ishimga bergenman. Yoqlab olay, yuz foiz sizniki bo'laman. Boshqa unvonlarning orqasidan yugursam, betimga tupuring. Men uchun eng muhimi — ilm. Odamlarga nimadir berish. Agar aqlim bilan ilmim yetarli bo'lsa, siz aytgan martabalarning o'zi keladi. Nima, akademikning eri bo'lsangiz yomonmi? Akademik kiringizni yuvsa, akademik ikki bukilib choy uzatsa... yomonmi?» Shu gaplardan keyin Omonullo araz narvonidan pastroqqa tushardi: «Ha... endi siz ham, xonim, generalning xotini bo'lsangiz yarasharmidi... General bozoringizni qilib bersa, general gilamlaringizning changini qoqib bersa, general «Buyursinlar, xonim!» deb qo'l qovushtirib tursa...»

Ularning birov uchun achchiq, birovga nordon tuyulgan, o'zları uchun esa yoqimli, shirin bo'lgan turmushlari shu zaylda davom etardi.

Hind olimlari Bobur saltanatiga oid doktorlik ishni Hindistonda davom ettirishni taklif qilishgach, Omonul-loning yuragi bir uvishdi. Yarim yil yolg'iz yashash ha-

zilakam gapmi?! Fotima: «Bormasam bo‘lmaydi!» — deb ikki oyoqni bir etikka tiqib, janjal qilmadi. Odati-ga xilof ravishda: «Siz nima desangiz — shu. Astoydil rozi bo‘lsangiz, boraman, ko‘nglingizga xiralik aralashsa, qolaman», — deb qo‘ydi. Omonullo nima derdi: «Qirqi-ga chidagan qirq biriga ham chidayman», — deydi-da! Buning ustiga Fotima Omonullo uchun kutilmaganda tantanali va‘da berdi: doktorlik dissertatsiyasini yoqlagach, to ilmiy ish Moskvadan tasdiq etilib, diplom qo‘lga tekkunicha Hasan-Husan tug‘ib beradigan bo‘ldi. Bu gapni xuddi «Do‘konga chiqaman-u ikki quti gugurt yo tuz olib kelaman», degan tarzda aytdi. Omonullo esa ishondi. Uyi Hasan-Husanlar bilan to‘lib ketganday ko‘ngli yorishdi. To‘g‘ri, «Hasan-Husan emas, balki Fotima-Zuhra bo‘lar», deb ham o‘yladi. Lekin uning uchun bu muhim emas, muhimi — xotini tug‘ishga rozi! Rozi bo‘lganida ham belgilangan muddatdan ikki yil avvalroq tug‘ib bermoqchi. Matbuotchilarning tili bilan aytganda, «planni muddatidan avval bajarmoqchi»! Bu katta yutuq!

Shu paytgacha o‘ttiz yoshdan keyin, deb belgilagan muddatini astoydil himoya qilardi. Buni faqat o‘zining ilmiy ishlari bilan izohlamay, tibbiy jihatdan «ilmiy isbot» ham topgan edi. Nima emish, o‘ttiz yoshdan keyin tug‘sa, bolalari zehnli, aqli, ham jismonan baquvvat bo‘larmish. Bu da’voni eshitib, Omonullo kulgan edi. «Nimaga kulasiz?» — degan edi Fotima. «Mening bir tanishim bor,— deb javob qaytargan edi Omonullo. — U tug‘ilganida otasi yigirma bir yoshda, onasi o’n to‘qqizda bo‘lgan ekan. Men o’sha tanishimni ko‘p kuzatganman: zehni past ahmoqqa o‘xshamaydi. Har holda, u salkam fan doktoriya! Jismoniy jihatdan ham unchalik nozik emas...» Fotima o‘zi haqida aytilgan bu gapga javob berolmay, «Bu alohida masala», — deb qo‘ygan edi.

Hindistonga ketishdan o’n kun avval Omonullo uygaga yarim kechada qaytdi. Tunda qaytadimi yo sahar-dami — Fotimaning uxlamay kutishini yaxshi bila-di. Fotima boshqa xotinlarga o‘xshab xavotir olmaydi, desak noinsoflik bo‘lar. Haqiqatga ko‘chsak, o‘lchами yo‘q, sig‘imi mavhum bu xavotir deganlari o‘lchansa,

Fotimaniki hammanikidan ko'proq chiqar. Faqat u bosh-qalar kabi «Erim qachon kelarkan?» (yoki «Erim kim bilan ayshini surib yurganiykan?») deb jag'ini deraza tokchasiga tirab, ko'chaga tikilib o'tirmaydi. Omonullo qay paytda kelsa ham, uni yozuv stoliga muk tushgancha o'qib-yozib o'tirganini ko'radi.

Bu safar ham shunday bo'lди.

Fotima bu safar ham odatini kanda qilmadi — «Qayyoqlarda yuribsiz?» — demadi. O'rnidan turib salom ber-gach, oshxona tomon yurmoqchi bo'lganida eri to'xtatib, «Qornim to'q», — dedi.

— Hm, o'g'rilaringiz to'ydirib yuborishdimi? — dedi Fotima o'ziga yarashiqli kinoya bilan.

Boshqa xotinlar «O'ynashlaringiz», juda madaniy tarzda aytsa, «Xushtorlaringiz to'ydirib yuborishdimi?» — deyisharkan. Fotima esa hamisha «O'g'rilaringiz», —deydi, bu so'zni aynan aytadi, uning panasiga «o'ynash» degan ma'noni yashirmaydi.

— Qamashdan oldin ziyofatini yejish kerak-da, — dedi Omonullo xotiniga javoban, so'ng stol ustidagi kitoba ko'z tashladi. — Nima o'qiyapsan? Yana «Boburnoma»mi? Yuzinchi martami?

— Ming marta o'qishim kerak. Har o'qiganimda bittadan ma'no topsam mingta ma'no topgan bo'laman.

— Joningga tegmaydimi?

— O'g'rilaringiz sizning joningizga tegishmaydimi?

— Oh-oh... Ularsiz yashay olmayman, — deb kului Omonullo.

— Men ham bu kitobsiz yashay olmayman.

— Mensiz-chi?

— Gapni burmang. Siz ko'chada hushtak chalib yuradigan oddiy milisa emassiz. Oliy ma'lumotli, ziyoli odamsiz.

— Buning ustiga bo'lajak akademikning eriman.

— Ha, shunaqa desak ham bo'ladi, o'rtoq bo'lajak general. Lekin siz gapni burmay turing. Siz menga aytинг, Boburni bilmagan, tushunmagan odamni ziyoli deyish mumkinmi? Qani, mana bu yerga o'tiring-chi!

Omonullo kulimsiragan holda itoat etdi.

— Kulmang, devapman.

-- Xonim, tarix darsi uchun tunning qolgan yarmi yetarli bo'larmikan? Balki boshqa tunga qoldirarmiz?

— Yo‘q, hozir aytmasam, yorilib ketaman. Eshiting. — Fotima shunday deb kitobning kerakli varag‘ini ochib, o‘qiy boshladi: — ...Muhammad Humoyun... olti oygacha anda edi: zohiran ani yer va suyi xush yoqmadi. Isitma tutar ekandur, bora-bora uzoqqa tortar». Tushundingizmi? — Fotima kitobdan bosh ko‘tarib, eriga gapira ketdi: — Boburning o‘g‘li xasta ekan. Uni avval Dehliga, keyin kemaga o‘tqazib Agraga olib kelishni buyuryapti. Humoyun Mirzoga tabiblar chora topib berisholmagach, Mir Abulqosim degan kishi deydiki, — Fotima endi yoddan ayta boshladi: — «Ushmundoq dardlarga davo budurkim, yaxshi nimarsalardan tasadduq qilmoq kerak. Toinki Tengri taolo sihhat bergay. Mening ko‘nglumga keldikim, Muhammad Humoyunning mendin o‘zga yaxshiroq nimarsasi yo‘q. Men o‘zum tasadduq bo‘layin, Xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa, o‘zga muqarrablardin arzga tegurdilarkim, Muhammad Humoyun sihhat topar, siz bu so‘zi nechun tilingizga kelturasiz? G‘araz budirkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas, o‘sha olmoskim, Ibrohimni urushida tushub erdi...» Bu yerda dunyoga mashhur Ko‘hinur olmosi nazarda utilayotgan bo‘lsa kerak. Tushunyapsizmi? Ular: «O‘zingizni emas, shu qimmatbaho buyumni sadaqa qilsangiz ham yetar», — deyishibdi. Bobur nima debdi: «Tilga keldikim, dunyo moli aning evaziga nechuk bo‘lgay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkul bo‘lubdur. Ba andin o‘tuturkим, men aning betoqatligini toqat kelturg‘aymen. O‘shal holatga kirib, uch qatla boshidin o‘rgulub, dedimkim, men ko‘tardim har ne darding bor. O‘shal zamon men og‘ir bo‘ldum, ul yengil bo‘ldi. Ul sihhat bo‘lub qo‘pti. Men noxush bo‘lub yiqildim...» Xo‘sh, bunga nima deysiz? Qaysi podsho o‘g‘liga jonini sadaqa qilgan? Husayn Boyqaromi? Ikkovini solishtiring: biri nabirasini o‘ldirtirdi, biri jonini o‘g‘liga hadya qildi.

— Men ham gapirsam maylimi? — dedi Omonullo xuddi o'quvchi bola kabi qo'l ko'tarib. Fotima sal chega-

radan chiqqanini fahmladi-yu, ammo sir boy bergisi kelmay, biroz jilmaygan holda amr etdi:

— Gapiring, o'rtoq kapitan, so'z sizga!

— Birinchidan, bu satrlarni menga avval ham o'qib bergen edingiz, xonim. Ikkinchi gapim shuki, avval aytmovdim, endi aytaman: agar mening o'g'lim bo'lganida uch marta emas, uch ming marta atrofini aylanardim. Bitta emas, uch mingta jonim bo'lsa, hammasini sadaqa qilib yuborardim.

Fotima yarim tundagi suhbatning bu tarzda nozik torlarni chertib yuborishini sira kutmagan edi. Shu sababli taslim bo'lishdan o'zga chorasi qolmadi. Kitobni yopdi. Kipriklari nigohini to'sdi. Siniq ovozda:

— Ovqat yemaysizmi? — deb qayta so'radi. So'ng eriga iltijo bilan boqdi: — Yana ozgina sabr qiling...

Omonullo hozir uy yo'lagida turib shuni esladi. Hovlida o'ynab yurgan bolalarga qarab havasi keldi. «Uylangan yilim tug'ib bergenida hozir yetti yoshga to'lardi. Qo'lidan yetaklab yurardim. Maktabiga olib borib, olib kelardim. O'zi Hindistonida yursa yuraverardi...»

AJR

«Qizimni urgan qo'llaring akashak bo'lsin! Sen mening qizimni urding, seni Xudo ursin! Mening qo'llarim sening yoqangda! Qiyomatgacha qarg'ayman seni!»

Qaynonasining faryod bilan aytgan bu so'zları xotirasiga mixlanib qolgan.

O'shanda sud hukmini kutib o'tirgan edi. Qaynonasi ayyuhannos solib kirdi. Qarg'adi. Qarg'ab-qarg'ab xumoridan chiqmadi. Dod solib yig'layverdi. «Sud ishiga xalaqit beryapti», — deb uni qariyb sudrab olib chiqishdi. Uning faryodi tashqarida ham timmadi.

U avvaliga qaynonasining qarg'ishlariga tushunmadidi. Xotinining o'lganini keyinroq bildi. Bildi-yu, qo'rqib ketdi. «Agar bu o'limni ham yelkamga yuklashsa, rahm qilishsa, o'n besh yil berishadi, bo'lmasa otishlari tayin», — deb o'ylab yuragi orqasiga tortdi. «Traktorni mast holda haydagani, «Jiguli»ga urilgani, haydovchining

jarohat olgani...» qamalishi uchun kifoya qildi. Qo'liga kishan urib, sud xonasidan olib ketishdi. O'sha onlarni keyinchalik eslasa, «Baxtimdan o'rgilay», — deb qo'yadigan bo'ldi. Xotini o'sha kuni emas, ikki-uch kun avval-roq o'lganida otuvdan qutulib qololmasligi tayin edi.

Sudga nima, «Urganingda jigari yorilib ketgan», — deb qotillik jandasini bo'yniga iladi. Qaynonasinikiga borib janjal qilgani, xotinini quvib yurib urganini bilishgach, «Qasddan o'ldirgan», — deb hukm chiqarib yuboraverishadi.

Qasddan... Xotinini o'ldirish xayoliga kelganmidi o'sha damda? Qaynonasinikiga nima uchun borgan, xotinini nima uchun urgan — o'zi ham bilmaydi. Esida qolgani: shiyonda mehmon kutadigan bo'lishdi. Raisning muovini kelib, unga: «Traktoringni tutatma. Bugun nozik mehmon keladig'on, bi-ir pazandaligingni ko'rsat», — deb ketdi. Raisning mehmon kutadigan bog'i, o'zining oshpazi bo'lsa ham mehmonning bu yerda kutilishi ular uchun tushunarsiz hol edi. Uning pazandaligiga ko'pchilik qoyil qolardi. O'zi ham qozon atrofida yayrab ketardi.

Xullas, mehmon keldi. Ovqat yejishining tayini yo'q, ozg'ingina odam ekan. Jussasi nozikmidi yoki amali nozikmidi, bilisholmadi. Bilishga qiziqishmadi ham. Mehmon ketgach, ziyofatni o'zлari davom ettirishdi. Bir tomondan kunning issig'i, yana bir tomondan halqumlari ni qizdirib o'tgan shayton suvi ta'sir qilib, shomga qolmay yumalab qolishdi.

U shom salqinida biroz o'ziga kelib, ko'zini ochdi. Shishalarda, piyolalarda qolgan-qutganini to'plab, nafsi orom oldirtirgach, bir amallab traktoriga chiqib oldi. Uyga borgani esida. Onasi nimadir dedi. Nima deganini keyin hech eslay olmadi. So'ng qaynonasinikiga bordi... Qaytishda bir mashina ro'parasidan chiqdi. Keyin bilsa, uning o'zi traktori bilan mashina ro'parasidan chiqqan ekan.

«Shunga yosh umrini juvonmarg qilib qamash shartmidi?...»

Uning xulosasi shu edi.

Ko'p narsalar esidan chiqib ketdi. Lekin qaynonasinig faryodini unuta olmadi. Qamoqda yurganida ham, keyin

ham vaqtı-vaqtı bilan qulog‘i ostida jaranglayverdi. Har jaranglaganda bir cho‘chib tushadi. «...Seni Xudo ur-sin!..» Ibodatsiz bo‘lsa ham qo‘rqardi bu qarg‘ishdan. «Xudo qanaqasiga urar ekan?» — deb ko‘p o‘ylardi.

Toshbolta Xudoning qanaqasiga urishini mana endi bilganday bo‘ldi.

Bu ojiz banda, bu nodon banda, bu shayton izmidagi banda foniy dunyodagi har bir harakati, har bir aytgan gapi uchun ajr mavjud ekanini, hatto qizining o‘limi ham o‘ziga yarasha mukofot ekanini anglab yetmagan edi.

U «norasmiy kuyovi», bir vaqtlardagi o‘zining ta’biri bilan aytganda, «valine’mati» bo‘lmish Tursunalining qo‘liga kishan urilganida ko‘p ham qayg‘urmadi. Topartutari yaxshi, obro‘-e’tibori ham baland chin kuyovga yolchiganidan so‘ng Tursunali ko‘ziga shumshuk bo‘lib ko‘rinayotgan edi. Shilqimligi bir kunmas, bir kun qizining oilasini buzishi mumkinligini o‘ylay boshlagan, avvalgi fikrlaridan qaytgan, boy amaldorga o‘ynash bo‘lishning qisqa umrli baxt ekaniga tushunib qolgan edi. «Erta-indin urilib ketish ehtimolidagi amaldorga o‘ynash bo‘lishdan, tagida vertolyoti bor olimga xotin bo‘lish ming karra af-zal», — degan to‘xtamga kelganida uning mushkulotini Xudoning o‘zi yengillatib berdi — o‘ynashni yo‘ldan olib tashladi. Unga qadar «norasmiy kuyovi»ning marhamati bilan Sibiriya shaharlariga meva-cheva olib borib sotishni kasb qilayotgan edi. Bu ish bilan shu paytga-cha shug‘ullanib kelgan odamlari Tursunalining nazarida g‘irromlik yo‘liga o‘tishgan, uncha-buncha pulni o‘marib qoladigan bo‘lishgan edi. Gulday qizining nomusini hadaya etishdan qaytmagan Toshboltaning sadoqatiga ishonib, Magadanga olib boriladigan bir vagon pomidorni unga topshirdi. Toshbolta pulga qo‘sib, bu yerlarda topilishi qiyin bo‘lgan tilla-javhar buyumlarni olib kelib bergach, mo‘ljalni bexato olganidan o‘zicha quvondi. «Men buni bir laqma oshpaz deb yursam, baloning o‘qi ekan-ku!» — deb ishonch darvozalarini kengroq ochdi.

Toshboltaga aynan shu — ishonch darvozasidan o‘tib, ichkariroq kirib, yaxshiroq o‘rnashib olish kerak edi. Aslida u yulduzni benarvon uradigan toifadan emasdi. Tur-

sunali guman qilganidek, ozgina laqmaligi ham bor edi. Ammo kattaroq daromadning hidi dimoqqa urilsa, xiy-la bosh ko'tarib, laqmalikni quvar ekan. Vagon Magadanga yetib borgunicha sheriklarining suhbatlariga zehn solib, pulni pulga urishtirib tilla «yasash»ni o'rgandi. Magadandagi mijozlar esa «direktorga yaqin odam»ni o'zlariga og'dirib olish uchun bu kasbning sir-sinoatlarini o'rgatdilar. Pulning bir qismiga javhar ko'zli tilla uzuk olib borish ham ana o'shalarning maslahati bilan bo'lgan edi. Birinchi safardayoq kishi bilmas tarzda puldan o'marib qoldi. Tursunali uning «sadoqati»dan, «vijdonan ishlashi»dan mammun bo'lgan holda foydadan tuzukroq ulush ajratdi. Cho'ntak pulga to'lgach, yurish-turish ham bo'lakcha bo'ldi. «Ko'rmaganning ko'rgani qursin», — deganlari shu-da!

Tursunali qamaldi-yu, «norasmiy qaynota» ikki jumboq qafasida qoldi. Bitinchi jumboq — tilla bezaklarga oid edi. U Sibiriya tomonlardan har safar tilla-javhar bezak olib kelardi. Tursunali qamalib, uyi tintuv qilinganda «boylik chiqmagan» emish. «Boylik topishni bilgan yashirishni ham bilgandir, ammo qayerga yashirgan?» Toshboltaning tinchini olgan jumboqning asosiysi shu edi. Qizidan bir necha marta so'radi, Nafisa: «Bilmayman», — deb yelka qisib turaverdi. Ikkinci jumboq Sibirga qatnashning to'xtashi yoki to'xtamasligiga bog'liq edi. Uning baxtiga yangi direktor begonalardan bo'Imadi. O'zining qo'lidan taom yeb yurgan, Tursunalining mai-shatiga sherik bosh muhandis yigit direktorning kursisi-ga o'tirdi. Bir oy mobaynida bog'dagi mehmonxonaga qadam bosmadi. Kelgan mehmonlarni ham idoradan nari kuzataverdi. Yangi «halol» rahbarning ibratli ishlari haqida gap-so'zlar boshlangach, ustozining yo'liga pinhona tarzda o'ta qoldi. Meva-chevalar pishishi arafasida Toshboltani chaqirib, Sibirya safari haqida surishtirib, ishni avvalgiday davom ettirishi lozimligini aytdi. So'ng:
— Nafisaxon sog'-salomatmilar? Bu tomonlarga bir kelaman ham demaydilar-a? Kelsalar bexabar qolmaylik,— deb qo'ydi.

Bu bilan ustozining merosxo'ri sifatida o'ynashga ham ega chiqajagini shipshitgan bo'ldi.

«Obbo xunasa-yey, sening ham darding bormi?! — deb o'yladi Toshbolta g'ashlanib. «E bola, mening qizim fohisha emas, eri bor, uy-joyi bor!» — deb siltamoqchi bo'ldi-yu, o'zini tiydi. «Gapiraveradi-da, ko'z tikkani bilan qizim kelib to'shagiga yotib olarmidi», — deb o'zini ovutdi.

El og'zida: «Ot bosgan joyni toy bosadi», — degan naql yuradi. Shunga ko'ra Tursunali ot bo'lsa, shogirdi toy misol edi. Qo'polroq tarzda tavsif berilsa, ustoz tupurgan-u shogird esa yalab olgan edi. Ustozi qamalganida uning ham paytavasiga qurt tushdi. Har holda, ustozi oshni o'zi oshalaganli bilan unga yalatib turardi. Yangi direktor Yaratganga emas, rahbarlariga shukr qiladi: oshalaganlarni olishdi-yu, yalaganlarga marhamat darvozalarini ochishdi. Ular anglashmadiki, yaloqxo'r larning nafsi oshalaganlardan ham buzuqroq bo'ladi. Oshalagan qorni to'ygunicha yeydi. Yaloqxo'r esa ko'zi to'ygunicha. Ko'zning hech qachon to'ymasligi esa barchaga ayon. Xususan, kattalarning xizmatini qilib yurib fe'l-atvorlarini bilib olgan Toshboltaga ham ma'lum bu. Shu sababli qizi tilga olinganda uning ko'zlarini o'yib olgisi kelgan bo'lsa-da, o'z aravasini o'zi tortib ketishga qurbi yetmasligini bilgani uchun o'zini tiydi. «Yaloqxo'r» deb yangi direktordan nafratlangani bilan tirjayib, unga qulluq qilib turishga majbur edi.

Yangi direktor ham Toshboltani suymas edi. «Belida belbog'i bo'lsa gulday qizini xo'jayinga o'ynash qilib qo'yarmidi?» — deb g'ijinib yurardi. Bu g'ijinish po-kizalik alomati emas, balki rashk olovining mevasi edi. Tursunalining qilmishi haromning o'zi bo'lgani kabi buning g'ashligi halollik emas edi. Ba'zan bu go'zalning bir kechalik og'ushi uchun dunyosini berishga rozi bo'lib ketardi. Omadini qarangki, dunyosini bermasa ham jonon naqd bo'lib qoldi. «Bu Oshbolta deganlari hozircha xizmatimni qilib yuraversin. Vaqt kelganda bir teksam, enasnikiga kirib ketadi» — yangi direktoring mo'ljali shu edi.

Bir-birlarini yomon ko'rganlari bilan ularni nafs deb nomlangan ko'rinas zanjir mahkam bog'lagan edi. Nafs-

ning miqdorini o'lchaydigan tarozi bo'lganda ham qaysi biriniki buzuqroq ekanini aniqlab bera olmas edi. Nafsga bandi bandalar shu holatlarida bir-birlari bilan murosaga qila oladilar. Pokiza hayotni afzal biluvchilar esa arzimagan masalalar bo'yicha gap talashib, oqibatda ittifoq qila olmaydilar va oqibatda nafsga bandi bandalar yetkazgan zulmdan azob chekib noliv boshlaydilar.

Toshbolta ham, yangi direktor ham qimorbozning «Gardkam!» deyishi kabi tavakkal qilgan edilar. Dastlabki ittifoq ikkovlari uchun ham manfaatli edi. Ayni chog'da ikkovi ham ajralish onlariga tayyorgarlik ko'rardilar. Yangi direktor Toshboltaning avvalgi kabi sadoqat bilan ishlashiga ishonmagani sababli uning o'miga «o'z odami»ni tayyorlardi. Toshbolta ham yangi xo'jayin eskisi kabi marhamatli bo'la olmasligini anglab, mustaqil ish yuritishni, hatto boshqa yerga ko'chib ketishni ko'zlardi. Shu borishida Sibiriyada orttirgan oshnalari bilan maslahat qilib ayrim ishlarni pishitdi. Yangi direktorga topshiradigan puldan ko'proq urib qolib, noyob mollar xarid qildi. Safardan ko'ngli to'lib, yaxshi niyatlar bilan kelib qizi yashaydigan uy eshigini ochdi-yu...

Yaratgan tayyorlab qo'ygan mukofotlardan biri shu edi...

Ko'zlariga ishonmadi. Xuddi tush ko'rayotganday bo'ldi. Eshikni ochishi bilan dimog'iga sassiq hid urilganida: «Eri bilan ketgan bo'lsa, ovqat-povqati hidlanidi», — deb o'yladi.

Keyin... avval notanish erkakning jasadini ko'rib bir seskandi. So'ng qizining ahvolini ko'rib tanasidan jon chiqib ketganday bo'ldi. «Qizim! Nafis!» — deb baqirmoqchi edi, ovozi pichirlab chiqdi. Ko'z oldi qorong'ilashib, hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Ana shu qorong'ilik qa'ridan qaynonasining hayqirig'i otilib chiqdi: «Seni Xudo ursin!»

Militsiyaga xabar qilgach, yuklarni ichkari olib kirdida, jomadon ustiga holsizlanib o'tirdi. Boshini changallab, tebrandi. Yig'lashi kerak edi — yig'lay olmadni. Yig'i ham Allohning ne'mati ekan, rahm qilganiga berar ekan

bu ne'matni. Yaratgan Toshboltaga bu onda yig'isiz ruh azobini ravo ko'rdi.

Poyezdda kelayotganida yuragi g'ash edi. G'ashlikni yoyish uchun sheriklari uzatgan aroqni qaytarmay ichaverdi. Ikki tun ketma-ket bиринчи xotinini tushida ko'rdi. Xotini ozib ketgan, eti ustuxoniga yopishgan holda emish. Holsiz emish, xasta emish. «Meni qaraydiganim yo'q, mehribonim yo'q», — deb yig'lar emish. Ko'zlaridan oq-qan yosh muz donalariga aylanib qolarmish. Toshbolta: «Seni bu yerdan olib ketaman», — deb opichib olganmish. Xotini esa yig'lab, yalinib: «Yo'q, olib ketmang, o'zingiz keling», — der emish.

Toshbolta ertalab uyg'onib, bu tushidan ajablandi. U tush yo'yishni bilmas edi. Har holda, bu tush yaxshilikka ishora emasligiga aqli yetdi. Keyingi uyqusida xotinini yana ko'rdi. Xotini juldur kiyimda emish. Keyin qaynonasi paydo bo'ldi. U qarg'adi, qarg'ayverdi, xotini esa kului, kulaverdi...

Jomadon ustida boshini changallaganicha tebranib o'tirgan Toshbolta shularni esladı.

Keyin... odamlar kelishdi.

Keyin... tergovchi so'roq qildi...

Bularning hammasi tush kabi edi. Go'yo hozir uyg'o-nadiganday, dahshatli tush barham topadiganday edi.

Tekshiruvchilar tekshiradiganlarini tekshirib bo'lishgach (Sibiriyadan keltirgan mollari ham e'tibordan chetda qolmadı — xatga tushirildi), «Uyni berkitib, muhraymiz», — deyishdi. Qalbi muhrlangan banda uyni muhrlamoqchi bo'lganlarga nima ham deya olardi? Boshini xam qilib uydan chiqdi. Qizining nomusini sotilganda egilishi lozim bo'lgan bosh ajal tig'i qo'zg'al-gach, birato'la egildi.

Toshbolta uyiga anchagina mol-dunyo ko'tarib kelishni reja qilgan edi. Bu safar adoqsiz alam-g'am dunyosini yelkasiga ortmoqlab kirib keldi. Erini g'amnok ahvolda ko'rgan Adolat avvaliga ajablanib qarab turdi. Keyin uchto'rt qadam qo'yib peshvoz chiqdi-da, «Salomaykum», — deb savol muhrlangan nazarini eridan uzmay qarab tur-

di. Savol so'ralmagan bo'lsa ham Toshbolta bu qarashda: «Ha, nima bo'ldi, yuklaringiz qani?» — degan ma'noni uqib g'ijindi-da, ichida: «He, saloming boshingni yesin!» — deb qo'ydi.

...Toshbolta qamoqdan chiqib qishlog'ida uzoq yashay olmagan edi. Xuddi birov atayin uyuştirayotganday qaynotasiga, qaynog'asi, qaynilariga duch kelaverdi. Ular, ayniqsa, qaynonasi tilda gapirmasalar ham ko'z qarashlari bilan qarg'ardilar. Traktorchilikka birga o'qigan oshnasi cho'ldagi yangi sovxoza brigada boshlig'i ekan, onasining ziyyoratiga kelganda Toshboltani uchratib, ishga taklif qildi. Tasodifni qarangki, o'sha yili Adolat ham «qalb da'vati» va komsomol yo'llanmasi bilan «cho'l quvgani» kelgan ekan. Uning shahardagi qiliqlaridan bexabar Toshbolta jilmayib qo'yishlariga xushtor bo'lib, «O'qituvchi xalqi yaxshi bo'ladi», — degan fikrda odam qo'ydi. Adolat: «Qamalib chiqqan traktorchiga tegamanmi?» — deb nozlanib o'tirmadi. Zero, bu yerga kelishdan maqsadi cho'l quvish emas, biron laqmani topib er qilib olish edi. Unga nomi uchun er bo'lsa bas edi. Shunga binoan uning maqsadi shoirlarning tili bilan aytiluvchi «cho'lquvarlik» emas, balki «erquvarlik» edi. Toshbolta uylangach, «Xotinimning ismi o'ziga mos ekan», — deb qizini olib keldi. Dastlab turmushidan rozi edi. Adolat ko'p jihatlari bilan birinchi xotinidan a'lороq tuyuldi. Keyin-keyin asal oyulari tugab, zahar kunlari boshlangach, «Agar Adolat degani shu bo'lsa, adolatiga ming la'nat!» — deb peshanasiga shapati urdi. «Qo'shning yomon bo'lsa, ko'chib qutulasan, xotining yomon bo'lsa qo'yib qutulasan», — deyishadi. Toshbolta bu maqolni birinchi kim to'qiganini bilmaydi. Bilganida edi, o'sha aytgan odam hayot bo'lganida edi, unga tik boqib: «Bekor aytibsan! — derdi. — Gapimga ishonmasang, ana, Adolat degan shaytonning urg'ochisiga uylanib ko'r-chi, qo'yib qutula olarmikansan?!»

*Yomon xotun shayotun qamchisidur,
Qo'lung bog'laguvchi arg'amchisidur.*

*O'shal xotunki nomahram nazardur,
Agar u shams-u qamardur mochaxardur.
Agar chandiki buzrukzodadur ul,
Yaqin bil, to 'rt oyoqlik modadir ul...!*

Ayni chilla paytida brigadalariga bir muxbir kelib, qamish chaylada oshxo'rlik qilib, «yuzta-yuzta otib» o'tirishganda yomon xotindan gap chiqdi-yu, mehmon shu satrlarni o'qib berdi. Ayrim so'zlariga yaxshi tushunmasa ham she'r Toshboltaga ma'qul kelib, uch marta qayta o'qitti. Muxbir yigit: «Xotin oydek bo'lsa ham, quyoshdek bo'lsa ham, agar u yomon bo'lsa, urg'ochi eshshakning o'zidur», — deb izoh bergach, to'lqinlanib, ko'zлari yoshlanib: «Akam bo'lasiz!» — deb cho'lpillatib o'pib ketdi. So'ng satrlarni bir parcha qog'ozga yozdirib ham oldi. Kayfi tarqagach, she'rni ham, satrlar yozilgan qog'ozni ham unutdi. Ko'y lagi yuviladigan bo'lganda Adolatning qo'liga tushib, u labini burdi. She'rni o'sha muxbir yozgan deb o'ylab, eriga dashnom berdi-da: «O'shaningiz bekorlarning beshtasini aytibdi, shayton urg'ochi bo'lmaydi, erkak bo'ladi, she'rda ham yomon xotun emas, yomon erkak deyilgan», — deb donolik qildi. Uning ishonch bilan aytgan gaplarini tinglagan kishi: «Shaytonni shu tuqqanga o'xshaydi, shaytonning erkakligini aniq bilyapti-ku», — deyishi mumkin.

Er-xotin orasida birinchi janjal chiqqanida Adolatning o'zi unga: «Ovora bo'lmang, meni qo'ya olmaysiz. Men-dan faqat o'libgina qutulasiz», — deb dangal aytgan edi. Toshbolta nima qilsin, taqdirga tan berib yashayverdi. Fa-qat ichib olgan kezlari do'stiga hasrat qilib: «E oshnam, sen mening dardimni bilmaysan, peshanamning sho'rini o'lhash uchun traktor tortadigan tarozining ham kuchi yetmaydi», — deb nolirdi. Adolat esa mehribonlik qilib unga yana uchta qiz tug'ib berdi. Qizlari tug'ilgunicha bir navi edi. Ana undan keyin Nafisaning ham qora kuni-lari boshlandi. O'gay ona qanday bo'lmog'ini bilmox istaganlar Nafisadan so'rasalar edi, u aytib berardi. O'gay

¹ So'fi Ollohyordan.

onalarning zulmi haqida hikoyalar ko‘p. Adolat ular-dan o‘tsa o‘tardiki, kam emas edi. Nafisani Tursunaliga ro‘para qilish fikri dastlab aynan shu xotindan chiqqani inobatga olinsa, makr bobida tengsiz ekanini anglamoq mumkin.

... Toshbolta o‘likxonaga olib ketilgan qizining mur-dasini qachon olishi mumkinligini so‘rashni ham unutib, qishlog‘i sari yo‘l olganida Adolatning o‘sha fikrini esladi. Esladi-yu, bo‘g‘ildi. Shunda ham: «Ahmoq xotinning ga-piga kirgan — men ahmoq!» — demadi. Uning aqlsiz aq-liga bunday gapning kelishi mumkin ham emasdi. Buning o‘rniga: «Nafisani direktorga qo‘sing-u keyin Tursunalini sog‘in sigirday sog‘ib yuravering», — degan tillarini uzib otgisi keldi. Qanday qilib qo‘sishni o‘rgatgan bu xotinni o‘sha paytda o‘ldirmaganiga achindi. «O‘ldirganimda meni ham otishardi, bu azoblarga duch bo‘lmas edim...».

Toshbolta qizining shu yo‘l bilan baxtli bo‘lishiga ishongan edi. Dastlab baxt quyoshi charaqlagan ham edi. Bu nurdan uning xonadoni bahramand edi. Uylariga gi-lamlar... rangli televizorlar kirgan edi. Sibiriyaga qat-nay boshlagach, u ertakdagagi baliqchi cholga, Adolat esa kampirga aylandi-qoldi: teshik tog‘oraga qanoat qilmadi, saroyga ham... Uylari direktornikidan kam emasdi... Navbat «Jiguli»ga yetganda...

Baxt quyoshi birdan so‘ndi. Baxt quyoshi deb o‘ylab yurganlari aldamchi ko‘rinish ekan. Bu quyosh deb o‘ylaganlari nur emas, qon sachratayotgan ekan.

Toshboltaning nazarida bularning barchasiga Adolat aybdor edi. Uyiga kela-kelgunicha bu fikr qat’iy qaror quvvatini oldi. Shu bois ham salomga alik olmay, «Saloming boshingni yesin», — deb qo‘yan edi.

Toshbolta ayyvonga to‘shalgan ko‘rpachaga omonat o‘tirdi. U aslida uyga kirmay qishloqdagi oshnalarinikiga borib, boshiga tushgan kulfatdan ogoh qilmoqchi, «Qayerga ko‘mganimiz ma‘qul, shu yergami yo qishloqqam? Tog‘alariga xabar berayinmi yo yo‘qmi?»— deb maslahatlashmoqchi edi. Keyin fikrini o‘zgartirib, xotinka xabar berib qo‘yay, deb yo‘lni uyga burgandi. Ko‘rpachaga o‘tirgach, bir ho‘plam choy umidida xotiniga

qaradi. Xotin esa uning ro'parasiga o'tirib oldi. Toshbolta choy so'rashni ham, kulfat xabarini aytishni ham bilmay garang, Adolat esa erining ahvoliga tushunmay hayron edi. Xotin kishining sabr kosasi erkaknikiga nisbatan sayozroq bo'ladi. Shu bois ham birinchi bo'lib Adolat tilga kirdi:

— Ha, muncha, men yeb, siz quruq qolganday tumtay-yapsiz? Nima bo'ldi, yorila qoling!

Toshbolta uchun bu gaplar yangilik emasdi. Avvallari eshitganida: «E, o'chir!» — deb qo'ya qolardi. Hozirgisi go'yo o'q bo'ldi-yu, azob iskanjasidagi yuragiga qadaldi.

— Uningni o'chir, qanjiq! — deb baqirib yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

Kuchli, ayni damda alamli hayqiriq bilan otilib chiqqan bu haqorat Adolatning hushini oldi. Uncha-bunchaga gap bermaydigan, bo'yin egmaydigan bu xotin chindan ham «unini o'chirgani» ma'qulroq ekanini anglab, chaqqon o'midan turdi-da, oshxonaga qarab yurdi. Birozdan so'ng choynak-piyolani ko'tarib kelib, eriga choy quyib uzatdi:

— Dadasi, iching, hovuringiz bosiladi.

Iliq lafz bilan aytilgan bu gap ham Toshboltaga malol keldi.

— Hovurim bosilsinmi? Hovurim bosilishini istab qoldingmi?! He, enangni... He, seni menga ro'para qilganni... — deb turib tuyqusdan piyolani otdi. Adolat chaqqonlik qilib boshini egib qolmaganida piyola naq peshanasiga tegardi. Erining fe'lini yaxshi bilgan Adolat g'azab o'tining alanga olishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida chaqqon o'midan turdi. Bunday holatda ko'p ayollar qochishga, berkinishga harakat qilishadi. Adolat esa o'zini tank ostiga tashlaydigan jasur askar kabi eriga yaqin kelib, yelkasidan quchib oldi.

— Voy, dadasi, sizga nima bo'ldi? Sizni qaysi uying kuygur xafa qildi? — deb ovuta boshladi.

Adolatning makri amal qilib Toshbolta picha hovuridan tushdi. Bo'g'ziga yig'i kelib, ko'zları pirpiradi.

— Ayting, ayta qoling, yengil tortasiz, nima bo'ldi?

— Nafis... Nafisni o'ldirib ketishibdi... — Shunday deb yig'lashi lozim edi, ammo bo'g'ziga qadar kelgan yig'i zohirga chiqa olmadı.

— O'ldiribdi? Qaysi uying kuygur o'ldiribdi? Nima qasdi bor ekan?

Toshbolta: «Bilmayman», — deb bosh chayqadi.

Adolat bir zum jim qoldi. Keyin past ovozda:

— Bir kunmas, bir kun shunday bo'lishini bilardim, — dedi.

— Nimani bilarding? — dedi Toshbolta sergak tortib.

— Jahlingiz chiqmasin-u, g'ar bo'l, o'g'ri bo'l, insof bilan bo'l, deyishadi.

— Nima?! — Xotinining bu gapini eshitib Toshbolta ning ko'zlar kosasidan chiqar darajada olaydi: — Nima deding, qanjiq?! Hali mening qizim senga g'ar bo'ldimi?!

Toshbolta shunday deb xotinini tirsagi bilan turtib yubordi. Adolat kutilmagan zarbdan yiqlidi. Astoydil do'p poslashga hezlanib o'rnidan turayotgan erining vajohatini ko'rib, kurash qurolini o'zgartirishi lozimligini angladi. Harbiylarda: «Eng ma'qul mudofaa usuli — hujumdir», — degan haqiqat bor. Adolat harbiy emas, bu qoidani bilmaydi. Ammo xalqda mavjud «Qo'rqqan oldin musht ko'tar», degan maqoldan xabardor bo'lgani sababli eridan avvalroq o'rnidan turib, unga chekchaydi:

— Ha, g'ar bo'lmay go'rmidi? G'arligini bilmasmidng?!

Avvalgi janjallarda Adolat baqirib, sensiray boshlaganida Toshbolta: «Sen it bilan teng kelamanmi?» — deb chekinib qo'ya qolardi. Adolat bu safar ham shunday bo'lishiga umid qilib yanglishdi: bu shunchaki «er-xotinning urushi — doka ro'molning qurishi» emas, o'rtada fojiali o'lim topgan farzandning ruhi bor edi. Toshbolta uning sensirashiga ham, baqirishiga ham parvo qilmay Adolatni urib qoldi. Adolat: «Voy-dod!» — deganicha hovliga qochdi. Toshbolta uni quvlamoqchi bo'lganida oyog'i zinadan toyib ketdi-yu, yonboshiga gursullab yiqlidi. Chakkasi ayvon ustuniga urildi.

Adolat bu holatni ko'rib, avvaliga: «Ajab bo'lsin, battargina bo'l-a!» — deb o'yADI. So'ng erining qimirlamay qolganini ko'rib: «Voy o'layin, voy dadasi!» — deb yugurganicha yaqinlashdi. Toshbolta hadeganda hushiga kelavermagach, «Voy-dod, erim o'lib qoldi! Voy-dod,

shunqorimdan ayrilib qoldim!» — deb faryod ko'tardi. Uning ovozini eshitgan qo'shnilar chiqib, Toshboltani ko'tarib ayvonga yotqizishdi, vrach chaqirishdi. Vrach: «Shu yerda qimirlamay yotsinlar, qimirlatsanglar uzilishi mumkin», — dedi.

— Tuzalib ketadilarmi, axir? — deb so'radi Adolat.

— Umid qilavering.

Adolat bu javobni eshitib: «Do'xtur bo'lmay o'la-a, tuzatish qo'lingdan kelmasa, nimaga umid qilaman», — deb ming'irladi.

Ertasiga Toshboltaning xastaligidan xabar topgan oshnalari kelishdi. Yengil xurrak otib, harakatsiz yotgan do'stiga achinib qarab o'tirishdi. «Yo'lida urinib qolgandir?» — deb xulosa chiqarishdi. Shunda Adolat:

— Yo'l ham bir go'r, qizlarini o'ldirib ketishibdi. Shundan kuyib ketdilar, — dedi.

Oshnalar bu kutilmagan fojia xabaridan ajablanib: «Qachon? Qayerda?» — deb so'rashdi. Adolat: «Aytishga ham ulgurmey shunaqa bo'lib qoldilar», — deb bezrayib o'tiraverdi. «Dafn etishibdimi?» — degan savol ham javobsiz qoldi. Shunda ular: «Dafn etadig'on bo'lsa o'sha yerdan telpon qilib xabar berardi, uch kun o'tirardi», — degan to'xtamga kelishdi.

Biroz jimlikdan so'ng oshnalardan biri:

— Unda borib mayitni olib kelish kerak, dafn etish kerak, — degan taklifni aytди.

Ayvonning bir chetida o'tirgan Adolatga bu taklif ma'-qul kelmadи.

— Ko'madigan eri bor-ku? — deb tanbeh berdi.

Oshnalar bu xotin oldida maslahatlashish ortiqchaligini bilib, o'rinalidan turishdi. Bu xonadondan chiqib to'g'ri samovarxonaga bordilar-da, maslahatlarini davom ettirdilar. Oradan bir soat o'tmay uch kishi shaharga yo'l oldi. Bir kishi Toshboltaning qishlog'iga, Nafisaning tog'a-lariga xabar berish uchun jo'nadi.

Mayitni olib ketamiz, deb kelgan uch kishi kun bo'yi ovorayi sarson bo'ldilar. Maslahatni xom-xatala pishirib yo'lga chiqaverganlardan afsuslandilar. Marhumaning uyini bilishmasa, nasabini bilishmasa, erining kimligini

bilishmasa bu katta shaharda ular sarson bo‘lmay yana kim bo‘lsin? Ular yo‘lga chiqishganda: «O‘likxonaga borib, og‘aynimiz Toshbolta kasal bo‘lib qoldi, qizining jasadini beringlar», — deymiz-u jasadni moshinga yuklab shomgacha yetib kelamiz, bomdodga chiqaramiz», — deb mo‘ljal qilishgan edi. Avtobusdan tushishgach, bir tak-sini kira qilishib, «Bizlarni o‘likxonaga boshlab boring, uka», — deyishdi.

— Qaysi biriga? — dedi taksichi.

— Iye, o‘likxona ko‘pmi bag‘da? — deb ajablanishdi oshnalar.

— Katta kasalxonalarning har birida bor-da, — dedi taksichi.

— Unda eng kattasiga boshlang, — deyishdi oshnalar.

Kasalxonada: «Qachon o‘lgan, familiyasi nima?» — degan savolga yelka qisish bilan javob berishdi. Ikkinchи joyga borishganida ham shu savolga duch kelishib: «Egasiz murdalar bo‘lsa, ko‘rsating», — deyishdi. Ko‘rishdi ham. Uchinchi yerga borishganida «Qachonligini bilmaymiz-u, ammo bir-ikki kun ichida o‘ldirib ketishgan, shekilli», — deyishdi. Ana shunda masala sal oydinlashib, «Kasalxonalardan axtarmanglar, o‘ldirilgani aniq bo‘lsa, boshqa yerga boringlar», — deb qayerga borish lozimligini tushuntirishdi. U yerda ham «Familiyasi?» — degan savolni eshitib xunob bo‘lishdi.

— Hoy uka, tushunyapsizmi, juvonni o‘ldirib ketishgan, — deyishdi.

— Akaxonlar, yilda bitta juvonni o‘ldirib ketishgan bo‘lsa, gaplaringga tushunardim. O‘ntami-o‘n beshtami egasiz o‘lik yotibdi...

Oshnalardan biri tarang qilayotgan yigitning cho‘ntagiga pul qistirgach, ichkari kirib Nafisan ni tanidi.

— Shu juvon, o‘rab bering, uka, olib ketaylik, — dedi.

— Sizlar kimi bo‘lasiz, ruxsat oldilaringizmi? — degan savolga javob bo‘limgach, pul ham yordam berma-di. Uchovlari shomga yaqin izlariga qaytishdi. Ertasiga yetib kelgan Nafisaning tog‘asi bilan yana shaharga tu-shib, mayitni oldilar. Nafisaning tog‘asi janzoza qishlog‘ida bo‘lajagini aytgach, noilojunga ergashdilar.

Dafn marosimida kuyib yig'laguvchi bo'lmadi.

Faqat achindilar:

«Yosh ketdi, bechora...»

Otaga farzandining qabriga bir siqim tuproq tashlash
nasib etmadi. Xudo hattoki shuni ham ko'p ko'rdi unga...

Omonullo bu gaplardan bexabar bo'lgani uchun maysitning kechikib olib ketilishidan ajablangan edi. O'likxonadagilar bilan gaplashib, dastlab uch notanish odamning, so'ng ertasiga marhumaning tog'asi kelganini bilgach, Toshboltaning qishlog'iga borish ehtiyoji tug'ildi. Uning nazarida bu holatda ham qandaydir sir yashirin edi.

Omonulloni rayon ichki ishlar bo'limining vakili Toshbolta yashaydigan qishloqqa boshladи. Vakil hech bir lutfsiz, manziratsiz eshikni ohib, hovliga kirib bordi. Omonullo esa unga ergashdi. Toshbolta ayvonda, bir necha kun avval qo'shnilar yotqizib qo'ygan joydan jildirilmagan edi. Bemorning bosh tomonida o'tirgan oq do'ppili qariya Qur'onidan oyatlar o'qib, vaqtı-vaqtı bilan dam solib qo'yardi. Kir chayayotgan Adolat hovliga bostirib kirgan notanish erkaklarni ko'rib, qo'llarini peshbandiga artganicha o'rnidan turdi-da, ularga ro'baro' bo'ldi.

— Biz militsiyadanmiz, — dedi vakil, so'ng e'tiborsizlik bilan qo'shib qo'ydi: — Siz ishingizni qilavering. Domla o'qib bo'lgunicha kuta turamiz.

— O'qimay o'la qolsin, bu domla, bir foydasi bo'lsa ekan, — dedi Adolat ming'irlab.

Bu gaplar ming'irlab aytilgan bo'lsa-da, Omonullo eshitib ajablandi. «Bu xotinning esi joyidami o'zi?» — deb o'ylab ayvonga yaqinlashdi. Oq do'ppili qariya unga bir qarab oldi-yu, o'qishini, dam solishini davom ettirdi. Toshboltaning ochiq ko'zları shiftga qadalgan, faqat dam solingan paytda behalovat tarzda nimanidir izlaganday alang-jalang bo'lib ketardi. Qariya faqat o'zi eshitadigan tarzda pichirlab duo o'qidi-da, bemorning yelkalari, boshini uqalagach, o'rnidan turdi. Omonullo bilan hilmlik ila so'rashdi. Shunda Omonullo qariya yuzida ajib pokizalik, ajib nurni ilg'adi.

Adolat ayvonga yaqinlashib, sholchaning bir chetini ko'tardi-da, bir so'm pul olib: «Mang, ota», — deb uzatdi.

— Hojati yo‘q, singlim, — dedi oq do‘ppili qariya.— Men Allohnning roziligi uchun xolis xizmat qildim. Yaratgandan shifo tilang, ammo sergak turing. Umid — yolg‘iz Allohdan, — qariya shunday deb bir-ikki qadam bosdi-da, to‘xtab orqasiga qaradi: — Ha, darvoqe, singlim, Xudo xayringizni bersin. Zinhor-bazinhor «O‘qimay o‘la qolsin bu domla», demang. Gunohlardan o‘zingizni asrang. Ajrni berguvchi yolg‘iz Allohdir.

Adolat bu tanbehdan uyalib, qizarib o‘tirmadi, «Shuni ham eshitibdimi-ya?» — deb qo‘ya qoldi. Omonullo esa: «Ming‘irlab aytilgan bu gap qanday ma’lum bo‘ldi?» — deb ajablandi.

Oq do‘ppili qariya chiqib ketgach, Omonullo ayvonga ko‘tarilib bemor yoniga o‘tirdi-da, salom berdi. Ahvolni ko‘rib turgan bo‘lsa-da, ko‘ngil uchun:

— Salomatligingiz yaxshimi endi? — deb so‘radi.

Toshbolta uni ko‘rib, tanidi, ko‘zlar bejo bo‘ldi.

— Gapirolmaydi, til ketgan. Oyoq-qo‘l ham ketgan. Tirik o‘likning o‘zginasi, — dedi Adolat.

Bu qo‘pollik Omonulloga malol keldi.

— Kechirasiz, opa, siz bu kishiga kim bo‘lasiz? — dedi dag‘alroq ohangda.

— Xotiniman, — dedi Adolat ayvon chetiga omonat o‘tirib. Keyin izoh berdi: — Ikkinci xotiniman. O‘zingiz kimsiz?

— Men shahar miliitsiyasidanman. Nafisa Boltayevanning ishi bilan shug‘ullanayapman, — Omonullo shunday deb guvohnomasini uzatdi. Adolat guvohnomani olib, qiziqish bilan tikildi.

— O‘zi nima bo‘lgan? Qiz o‘lgurni nimaga o‘ldirihibди? — dedi u guvohnomani egasiga uzatar ekan.

— Eringiz aytmadilarmi?

— Aytolmadi. Shu zinadan yiqildi-yu, shunaqa ado bo‘ldi. O‘lib o‘lmaydi, jonlanib jonlanmaydi. Boshimga bitgan bir balo bo‘ldi. Traktorchiligidagi yag‘irlarini yuva-rib qo‘lim qavargan edi, endi isqirtlarini yuvish ham peshanamga yozilgan ekan. Peshanam sho‘r bo‘lmasa shunga tegarmidim. Shu savilga tegib men bir ro‘shnolik ko‘rmadim. Yotishini qarang. Bu yodqa uchta qizi yetilib

turibdi. Hali bittasining ham orzu-havasini ko'rganim yo'q. Ayting-ayting, o'lib qolmasin, o'lsa butun yiqqan-terganlarim sovriladi. Hali ham dorilari hamyonni o'pirib ketyapti. Arzonroq dorilar bo'lsa ham go'rga edi. Do'xtur o'lqur nuqlu qimmatini tanlab yozib beribdi.

Omonullo xotinlarning turli toifasini ko'rgan, ammo bunaqasini endi uchratishi edi. «Qani, gapiraversinchii», — deb biroz qo'yib berdi. Lekin uzoq toqat qila olmadidi. Adolat: «Shu aytayotganlarim bularga kerakmi?» — deb fikr qilmay, tiliga kelganini qaytarmay gapi-raverardi. Telba desa telbaga o'xshamasdi, sog' desa sog'ga. G'ashi kela boshlagan Omonullo uning gapini qoq belida shart bo'ldi:

- Eringiz traktorchimidilar?
- Traktorchi bo'lmay go'r bo'larmidi? Boshqa hunari yo'q.
- Irkutskka nima uchun borgan edilar? Traktor olib kelgani emasmi?
- Traktorga balo bormi? Ozgina meva-cheva olib ketuvdi.
- Tez-tez borib turarmidilar?

Adolatning ahmoq ham, telba ham emasligi shu savoldan keyin aniq bilindi. U miliitsiya xodimi bekorga savol bermasligini anglab, tilini jilovladi. Biroz o'ylagan bo'lib:

- Bu yil birinchi borishi, — dedi.
- O'tgan yillari-chi?
- O'tgan yili ham bir marta borgan.
- Sheriklari bormidi?
- Bilmayman.
- Boltayevaning uyida ancha mol bor ekan. «Sheriklarimniki», — dedilar. Irkutskdan olingan toza mollar ekan.

Adolat eriga g'azabli nigohini bir qadab oldi-yu, indamadi.

— Bu mollarni biz egalariga qaytarishimiz kerak. Egasid chiqmasa davlat hisobiga o'tadi.

Omonullo mo'ljalni nihoyatda aniq olgan edi. Adolat moldan ayrilishi mumkinligini his qilib bir seskandi-da, Omonulloga yomon qarash qildi:

— Davlatga o'tadi? Nimaga o'tarkan? Egalariga qaytaraman, deysizmi, kim ekan egasi?

— Sheriklari-da. Eringizning o'zлari menga shunday deganlar.

— Bekor aytibdi. Hech qanaqa sherik-perigi yo'q. Mol happy halol bizniki.

— Irkutskka qachon ketib, qachon keldilar?

— Ketganiga ancha bo'ldi, bir oydan oshdi. Kelishi... shu, avvalgi kuni. Keldi-yu shu baloga yo'liqa qoldi.

— Bizga ma'lum bo'lishicha, bir hafta oldin kelgalar?

Omonullo: «Otasi o'ldirgan bo'lishi mumkin», — de gan gumondan uzoqlashgan bo'lsa-da, yana bir qarmoq tashlab ko'rmoqda edi.

— Bir hafta oldin kelgan ekanmi? Qaysi go'rlarda yur gan ekan?

— Bu yerga kelmadilarmi?

— Kelsa bir qadam siljitmas edim.

— Nega?

— Uy-joyga ham qarash kerakmi? Erkak o'Igur qara mas, kim qaraydi? Men xotin boshim bilan yuguraymi?

— Siz «ikkinchи xotiniman» dedingiz, birinchisi qayer da?

— Go'rda.

Omonullo buni to'g'ri ma'noda aptyaptimi yo piching qilyaptimi, fahmiga yetolmay, savol nazari bilan qaradi.

— Ha, nimaga qaraysiz? Go'rda dedim-ku? O'Igan-da.

— Qachon?

— Bilmayman. Qamoqdan chiqib kelganidan keyin tekkaman men bu yer yutkurga. Aniq bilmayman-u, ammo xotinini urib o'ldirgan ekan. Shunaqa jinniligi bor, menga ham tashlanib qolardi.

— Urib o'ldirgan? Qamalish sababi boshqacha-ku?

— Boshqa bo'lsa boshqadir, men eshitganimni aytdim.

— Boltayeva bu yerga tez-tez kelib turarmidi?

— Kelardi, lekin tez kelarmidi-yo'qmi, hisoblamagan man.

Omonullo portfeldan Sanjar Ibrohimovning suratini olib ko'rsatdi:

— Shu odam bilan kelganmi hech?

Adolat suratga tikilib turib, bosh chayqadi:

— Tanimadim. To‘g‘risini aytaymi, bir-ikki marta sariq-mashak eri bilan kelgan edi. Keyin o‘zi kelib-ketib yuruvdi. O‘sha savil qolgur er bilan birga yurishga uyalganda. U odamni ko‘rgandirsiz? Qanday qilib ko‘ngli tortib er qildi, hayronman. Undan ko‘ra ersiz o‘tgani ming marta yaxshi. Shunaqa deyman-u, lekigin bu «shilta»ni o‘sha taviyadan boshqasi olmas ham edi-da.

Adolat shu gapni aytganidan keyin Toshbolta g‘alati ovoz chiqarib ingradi. Omonullo ovoz chiqishi bilan unga qaradi. Toshbolta kipriklarini pirpiratib, iltijo bilan boqardi. So‘ng ko‘zlarida yosh paydo bo‘ldi. «Xotinining gapi yoqmay bir nima demoqchi bo‘lyapti», — deb o‘yaldi Omonullo. Keyin tinmay javrayotgan xotinning gapini bo‘lib, so‘radi:

— «Shilta» deyishga biror asosingiz bormi?

— Voy, asosmi? Asos tiqilib yotibdi. Bu qiz o‘lgurning oldingi direktorga o‘ynash bo‘lganini yetti yoshdan yetmish yoshgacha hamma biladi. Endi yangi direktorning to‘sagini obod qilyatuvdi.

Bu gapdan keyin ham Toshbolta ingradi.

— Nimaga g‘ingshiyisz? — dedi Adolat ovozini balandlatib. — Bog‘ga borib kelganlaring yolg‘onmi? G‘ar bo‘l, o‘g‘ri bo‘l, insof bilan bo‘l-da! Boshingda ering bo‘lganidan keyin o‘tirmaysanmi uyingda...

Adolatning og‘zidan chiqqan keyingi gaplarni Omonullo bozor yo‘lida «Folingdan ochayinmi, molingdan ochayinmi», deb o‘tirguvchi lo‘li xotinlardan eshitib, bulardan boshqa tuzukroq gap chiqmasligini bilgani uchun ham achchiqlanmagan edi. Ammo eri bu ahvolda yotgan ayoldan shu gapni eshitib g‘azabi qo‘zg‘adi.

— Siz biron yerda ishlaysizmi? — deb so‘radi dag‘alilik bilan.

— Ishlamay nima, shunga boqimanda bo‘lib o‘tiramni? Maktabda ishlayman.

— Kim bo‘lib, farroshmi?

— Vey, nima deyapsiz? Men o‘qituvchiman. Oliy ma’lumotli o‘qituvchiman!

— O'qituvchi?.. Maktabning ham, bolalarning ham sho'ri qurigan ekan unda, — Omonullo shunday deb o'rnidan turdi.

— Voy, voy, og'zingizga qarab gapiring, nima deyapsiz?

— Og'zingizdan chiqayotgan gaplarni qarang.

— Gaplarimga nima bo'pti? Vey, sen kimsan o'zing menga tanbeh beradigan? Sen borib o'zingning xotiningga qil dag'dag'angni, bildingmi? Sen yigirma yil shunaqa traktorchi bilan yasha-chi, ko'raman ahvolingni!

— Hov opa, tilingizni tiying, bunaqa deyishga haqqin-giz yo'q, — dedi shu paytgacha jim turgan rayon vakili.

— O'zing tiy tilingni. Qani, bir jo'nab qolinglar-chi, huv qoralaring o'chsin-a...

Omonullo o'zini xotinning shallaqiliga e'tibor ber-maganday tutib, ko'cha eshik tomon yurdi. Hovli o'rtasiga yetganda to'xtab, vakilga topshiriq berdi:

— Leytenant, bu opangizni rayonga chaqirib so'roq qilasiz. Natijasini yozma ravishda yetkazasiz.

Vakil bu topshiriqnini po'pisa uchun berilganini anglab, baland ovozda:

— Xo'p bo'ladi, o'rtoq kapitan! — deb qo'ydi.

Bu po'pisadan keyin sal popugi pasayar deb o'ylash-gan edi, yo'q, aksi bo'lib chiqди:

— Rayoningga desang, rayoningga boraman. Kerak bo'lsa Maskovingga boraman. Meni qo'rqtmay qo'ya qol. Sen o'g'rini qo'rqt, banditni qo'rqt. Mening nimamni so'roq qilasan? O'g'rilik qilibmanmi, g'arlik qilibmanmi?

Omonullo bu xotinga hatto shayton ham bas kelol-masligini anglab, qadamini tezlatgan edi, kutilmaganda Adolat:

— To'xtang, hay, to'xtang, — deb qoldi.

Hozirgina sensirab, qarg'ash darajasiga yetgan ayol-ning sizsirashi, ovozining muloyimlashuvi g'alati edi. Shuning uchun ham vakil beixtiyor:

— Ha, opa, tinchlikmi? — deb yubordi.

— Senda gapim yo'q, sen ketaver, — dedi Adolat unga, keyin Omonulloga yaqinlashib so'radi: — Men mollarni olgani qachon boray?

— Qaysi mollarni? — dedi Omonullo xuddi tushunmaganday.

— Voy, qaysi deganingiz nimasi? Erim olib kelgan mollar-chi!

— Mollar sizga berilmaydi, egasiga beriladi.

— Egasini ko'rib turibsiz-ku?

— Yaxshilab qarang, tuzating. Tuzalganlarida borib oladilar.

— Voy savil, voy savil...

Adolat shunday deb qolaverdi.

Ko'chaga chiqib mashinaga o'tirishgach, Omonullo «uf» tortdi:

— Agar shu odam o'lsa, to'g'ri jannatga boradi. Bu odam bilan savol-javob bo'lmaydi, — dedi u.

— Nega? — deb so'radi vakil kulimsirab.

Omonullo bu xotinning shallaqiligidan bezib Fotima o'qib bergen satrlarni eslagan edi. Mirzo Bobur Husayn Boyqaroning katta xotini Beka Sultonbegimni yoza turib, «Ko'p kajxulq edi», deb «yaxshi kishining xonasidagi yomon xotun shu dunyoning o'zidayoq uning do'zaxidir», degan mazmundagi baytni yozgan ekan. Hozir shu bayt mazmuni yodiga kelib aytvordi shu gapni. Vakilning: «Nega?» — degan savoliga esa Boburdan misol keltirishni istamay, soddagina qilib: «Bu xotin bilan yashagan erkak do'zax muddatini o'tab bo'lgan hisoblanadi», — deb qo'ya qoldi.

Ular bu uydan chiqib to'g'ri sovxoz idorasiga bordilar. Yangi direktor: «Nafisa Boltayeva nima uchun kelgan edi?» — degan savolga «Men rahbar bo'lganimdan beri uni ko'rganim yo'q. Tursunali akamga kelib turardi», — deb javob berdi. Omonullo gapni har qancha chalg'itsa ham «Kelmagan, ko'rmaganman», — deb turib oldi.

Omonullo xayrashlar mahalida: «Yana kelamiz, uchrashamiz», — deganida ham u: «Yana kelsangiz ham gapim shu: ko'rmadim», — dedi.

Yangi direktor aldamadi: Nafisa kelganida u shaharda edi. Juvonning kelib-ketganini bog' qorovulidan eshitib: «Eh attang!» — deb afsuslangandi. Omonulloning savollaridan keyin «Yaxshi hamki u falokat kelganida yo'q ekanman», — deb shukr qildi.

LUQMA

(*Qotillikdan avvalroq sodir bo 'lgan voqeal*)

Tursunali boyligini qayerga yashirganini aniq aytgan bo'lsa ham Tengiz shoshilmadi. Qish o'tib bahor kelsa-da, xazina haqida gap ochmasdan yuraverdi. Bu orada Tursunalining yarasi tuzaldi. Lager huzuridagi hibsxonada yotib, tergovchi so'roqlariga javob berdi. Tursunalining baxtiga tergovchi uni urmadni, qiynamadi-yu, oxir-oqibat «o'zini himoya qilayotganida me'yorni oshirib yuborgani uchun» yana qo'shib berishdi. Lager hibsxonasidan chiq-qanida Tengiz uni yo'qlab, dalda berdi:

— Umrim qamoqda chirir ekan, deb afsuslanma. Agar aytganing rost chiqsa, seni yurtingdagi lagerga jo'nattiraman. Muddating yarmidan o'tishi bilan erkinlikka chiq-qasan. Mening gapim — gap!

Tursunali bu gaplarga bir ishonib, bir ishonmay yurdi. Ishonmagani — muddati yarimlagunicha kim bor-u kim yo'q. Ayniqsa, bu o'g'rilar olamida bugun bor odamning ertaga izsiz ketishi hech gap emas. Bu Tengiz deganlari ham kerilib yurgani bilan zo'rrog'iga duch kelsa, iniga kirib ketishi aniq. Tengizning gapiga ishonganining sababi esa undan bo'lak hech kim dalda bermadi. Va'da yolg'on on bo'lgan taqdirda ham har holda dalda edi. «O'g'rilar bir so'zli», — deb eshitgan. Uning umidi shundan edi.

Bahor yomg'iri ezib yog'ayotgan kunlarning birida Tursunali Tengizga duch kelib:

— Topdilaringmi, aldamabmanmi? — deb so'radi. Bu bilan: «Va'dangni qachon bajarasan?» — demoqchi edi. Tengiz uning maqsadini anglab, yuziga yengil shapati urib qo'ydi:

— Shoshilma, har ishning vaqtি-soati bor.

— Topdinglarmi o'zi? — dedi Tursunali Tengizning javobidan qoniqmay.

— Shoshilma, deyapman-ku. Cho'michga aytgan joyingga borishibdi. U yerda chindan ham yo'q ekan.

— Bolalarimga tegishmabdimi?

— Ha, ana, aqling joyida ekan-ku! Bolalaringni endi esladingmi? Cho'michga yolg'oni aytayotganingda

o‘ylamovmiding? Borishsa, topisholmasa, bolalarimni qiy-nashsa... Xotiningni, qizlaringni zo‘rlashlari ham mumkin edi, a? Sen bizdan qarzdorsan. Biznikilar bo‘lishmaganda qizlaring juvon holida erga tegardi. Nomussizlik sizlarda ham azob, a? Men oilangni himoya qilaman, deb va’da bergenmanmi, demak, shunday bo‘ladi! — Tengiz shunday deb uning yuziga yana yengil shapati urdi-da, yo‘lida davom etdi.

Tengizning: «Nomussizlik sizlarda azob, a?» — deb qo‘yishi Tursunalini tashvishga soldi. «Xotiningni, qizlaringni zo‘rlashlari mumkin edi», — degani esa badanini muzlatib yubordi. Shu paytgacha «Norasida qizlarimni birov zo‘rashi mumkin», — degan gap xayoliga kelmagan edi. Tengizning gapidan so‘ng esa shu dahshat sodir bo‘lgandek bir necha kungacha ezilib yurdi. Davroni kelgan paytlarda, ayshini surgan kezlarida: «Shular ham birovning qizi-ku?» — deb o‘ylamagan edi. Hatto Nafisanning nomusiga ega chiqqanida ham «Buning taqdiri nima bo‘ladi?» — deb fikr qilmagan edi. Alhol, Tengizning gaplaridan keyin ham bularni o‘ylamadi. U faqat o‘z qizlarining taqdiridan tashvishda edi.

Tengiz uning yuziga yengil shapati urib, o‘zini xotirjam ko‘rsatgani bilan tashvishi o‘ziga yetarli edi. U kim bilan o‘ynashayotganini bilardi. Agar bir it qoqsuyakning hidini olib yaqinlashsa-yu, bu suyakni birov bosib olsa, naq ilikdan tishlashi tayin. Gobelyan esa it emas, hid olgani ham qoqsuyak emas. U itga o‘xshab ilikdan ham olmaydi, naq bo‘g‘izga yopishadi. Lekin uning navbatdagi odami qachon paydo bo‘ladi, qachon va qanaqasiga tashlanadi — ana bu muammo edi. Yana bir muammo — bu safar kimni yuboradi? Tursunalining yolg‘on ma’lumoti bilan Murikning o‘limi orasida bog‘liqlik borligiga ularning aqlлари yetadi.

Tengiz shu savollarga javob izlaydi. Uning lagerdagи sheriklari esa betoqat bo‘lishadi. Tursunali besabrilik bilan so‘ragan kunning ertasiga «Politbyuro» yig‘ilishida Koshak xazina nima bo‘lganini so‘radi.

— Hozircha xazina yo‘q ekan, deb turaveraylik, — dedi Tengiz.

Bu gapni eshitib Qo'tos unga ajablanib qaradi. Koshak esa joyida bir qimirlab olib:

— Yolg'on gapirma, Knyaz, — dedi. — Sen bu xabar ni teletaypga qo'ymagansan.

— To'g'ri, qo'yunganman, — dedi Tengiz xotirjam. — Aqling bo'lsa, o'ylab ko'r-chi? Bu xabarni teletaypga qo'yish mumkinmi? Undan ko'ra Moskva radiosiga chiqib jar sola qolmaysanmi?

— Teletaypga qo'yungan bo'lsang, kim orqali chiqarding xabarni?

— Hech kim orqali chiqarmadim. Chiqarmayman ham.

— Knyaz, gapni burmay, to'g'ri tushuntir. Bizga yolg'on gapirma, — dedi Qo'tos norozi ohangda. — Bilasan, menga boylikning keragi yo'q. O'rtaga o'g'rilik nomusi tikilgan.

— Men nomusini sotadigan odamga o'xshayapmani? — dedi Tengiz ovozini bir parda baland ko'tarib. — Koshak, sen ham shunday o'ydamisan?

— Senga birov bunaqa degani yo'q. Shunaqa o'ylasam Murikring yonida yotgan bo'larding. Sen xazina yo'q, deyapsan. Biz yolg'on gapirma, deyapmiz.

— Yolg'on gapirmadim. «Xazina yo'q» ham demadim. «Xazina yo'q ekan, deb turaveraylik», dedim. Ni-ma, ruschaga tushunmay qoldilaringmi? Ozgina payt poylashimiz kerak. Cho'michni yuborganlarni ahmoq deb o'ylamanglar. Tuzoqlarini tayyorlab turishibdi ular. Koshakka o'xshagan bir ahmoq xabar chiqarar, yana bir ahmoq xazinani olgani kelar, deb poylashmaydimi? Mayli, ular bizni ahmoq deb kutishaverishsin. Kuta-kuta charchashadi. Shunda biz ishni boshlaymiz. Shunda ham lager teletaypidan chiqarmaymiz xabarni.

— Nima qilmoqchisan, ayt, — dedi Qo'tos.

— Hozir boshqa odam yuborishsa-chi? Bu laqmani boshqa lagerga jo'natishsa-chi? — dedi Qo'tos.

— Ha, shunaqa bo'lishi aniq, — dedi Koshak. — Vaqt borida uni ham gum qilish kerak. Agar birov hiqildog'idan olsa, gullab qo'yadi.

— O'ldirishga shoshilma. Boylik topishni bilgan odam sen bilan menga o'xshagan yuzta odamni laqillata olmay-

dimi? Cho'michni aldadi. Balki bizni ham aldagandir? Boyligi boshqa yerdadir? Bugun o'ldirsang, ertaga attang, deb yurasan.

— Knyaz, hamma gaplaring to'g'ri. Lekin chaynayotgan luqmangni oldirib qo'yma, — dedi Qo'tos ma'nodor ohangda.

Tengiz unga norozi qiyofada bir qarab qo'ydi. «Politbyuro» ahli undan uzil-kesil qaror kutayotgan edi. U biroz o'ylangan bo'ldi-da, o'midan turib, ahdini ma'lum qildi:

— Ovqatni qanday chaynab, qanday yutishni o'zimga qo'yib beringlar. Hali hech bir kavkazlik og'zidagi luqmasini birovga oldirib qo'ymagan. Dunyo turgunicha shunday bo'lib qoladi!

«Politbyuro» berkitilgan boylik va boylik egasining taqdirini hal qilayotganida Nuriddin bilan Tursunali o'zaro munosabatlarini oydinlashtirayotgan edilar. Aniqrog'i, Nuriddin oydinlashtirayotgan edi. Bu ovloqda bir-birlarini ko'rganlarida hali notanish bo'lsalar ham suyunib ketishgan edi. Har holda, begonalar orasida hamyurtlarning bir-birlariga dalda bo'lishi yaxshi-da. Kunlar, haf-talar o'tgani sayin fe'li, tabiat, dunyoqarashi turlicha bo'lган bu ikki mahkumning dastlabki suyunchlari so'na bordi. Ayniqla, Nuriddinda bu odamdan uzoqlashish istagi tug'ildi. Tursunalining ham bu mag'rur yigitga da'vosini ko'payib borayotgan bo'lsa-da, lozim paytda himoya qila olishi mumkinligi sababli undan nari ketishni xohlamadi. U: «O'zbekning kichigi bo'lgunicha kuchugi bo'lgin», — degan maqolni bu yerda ham amal qilishini istar edi. U avvaliga Nuriddinni «Tug'ishgandan a'loroq ukamsan», deb izzat qilib yurdi. Keyinroq «aka»lik martabasi kamlik qilib, «xojalik»ni da'vo qila boshladи. U hordiq chiqarish paytlarida o'zining mavqeyi, shon-shuhrati haqida, shu shuhrati oqibatida ko'p dushman orttirgani va tuhmat bilan bu baloga uchragani to'g'risida gapirardi. Shasharda hali ham baland martabali akaxonlari, og'aynilari borligi, Nuriddin ozodlikka chiqqach quchoq ochib kutib olajaklarini tez-tez pisanda qilardi. Bora-bora bu gaplar Nuriddinning me'dasiga tegdi. Pisanda soyasida: «Sen

menga hozir sidqidildan xizmat qilaver, ozodlikka chiq-qanidandan keyin mening valine'matlarim seni panohlariga olishadi», — degan ma'no yashiringanini ham fahm etdi. Shu bois Tursunalining hasrat daftari ochilishi bilan bir narsani bahona qilib turib ketadigan bo'ldi. Tursunali buni sezdi-yu, «Bilagida kuch bor-u, boshida aqli yo'q bu bolaning», — degan hukmga keldi. Dorulamon kunlari bo'lganda-ku, bu «boshida aqli yo'q bola»ni sariq chaqaga ham olmas edi-ya! Bu ovloqda suyanadigan boshqa odami bo'limgani uchun chidadi. Hatto bir kuni Nuriddin: «Aka, yukni hadeb menga yuklayvermang, aravangizni o'zingiz ham torting-da, judayla o'ligingizni tashlab oldingiz», — deb qo'rslik qilganida ham tishini tishiga qo'ydi. Bunga o'xshagan «manqa yigitlar» ilgari ostonasida sarg'ayib o'tirishardi. Bu esa...

«Politbyuro» ish boshlaganida qamoq lagerining tobelari kechqurungi ovqat bilan qorinlarini aldab, yotar joylarga tarqalayotgan edilar. «Qorinlarini aldab», deyilishining boisi — oshxonada alumin kosalarga suzib beriluvchi suyuqlikning nomigina «ovqat» edi. Tursunaliga o'xshab umri maishatda o'tganlarning oshqozonlari bunday aldovga chiday olmasdan qiynalardi. Xullas, navbatdagi aldovdan so'ng nazoratchi mayor dam olish umidida chiqib ketayotgan Tursunali bilan Nuriddinni to'xtatib: «Idish-tovoq yuvishga o'tinglar», — deb buyurdi. Agar: «Nima uchun biz yuvishimiz kerak?» — deb e'tiroz bildirilguday bo'lsa, bu kamlik qilib, tuni bilan ishlab chiqishlari mumkinligini bilganlari uchun, «mulla mingan eshak» holida buyurilgan ishni bajarishga kishidilar. Nuriddin uchun bunday yumushning og'irligi ham, malolligi ham yo'q, u bundan battar yumushlarni bajaraverib o'rganib ketgan. Tursunali uchun esa mazkur holat xorlikning bir ko'rinishi edi. Shu sababli nazoratchi sal nari ketishi bilan diydiyosini boshladi:

— Bu dunyodaadolat deganning o'zi yo'q, — dedi uming'irlab. — Kun bo'yi ishlab berganim kammi bunga? Shunaqa paytda Xudodan ham xafa bo'lib ketaman. Men xalqning noni butun bo'lsin, deb tun-u kun tinim bilmas edim. Terim paytida haftalab uygakelolmas edim...

Tursunali shu tarzda yana eski ashulasini boshladi. Nuriddin uning gaplarini eshitmaslik uchun kosalarни atayin bir-biriga urishtirib, shovqin chiqarib yuvardi. Tursunali esa buning fahmiga yetmay bitta kosani ko'tarib olganicha likopcha ushlab, katta ashulani olayotgan hofiz kabi turib, ming'irlashini davom ettirdi. Me'daga teguvchi bu «katta ashula» oxiri Nuriddinning sabr kosasini toshirdi:

— Juda-a ez-zib yubordingiz-da, aka! — dedi u zar-da bilan. — Nuqlu adolat deysiz, nuqlu halollik deysiz, birovlardan talab qilasiz. O'zingizda bormikin shu adolat, shu halollik?

Nuriddin shu gapi bilan Tursunalining betiga shapaloq tortganday bo'ldi.

— Vey uka, vey, Nuriddin, sizdan eshityapmanmi shu gaplarni, a? Biz kimmiz, axir, adolatsizlik qurbanlari emasmizmi?

— Meni o'zingizga tenglashtirmang. Sizning yo'ri-g'ingiz boshqa. Adolat bilan halollikni hamma gapirgani-da ham siz gapirmang.

— Vey uka, siz bu gaplarni bir gapirdingiz, ikkin-chi aytmang. Men siz o'ylagan noplardan emasman. Hammani bir xil qarichda o'Ichamang. Men halol yashab kelgan odamman.

Nuriddin bu gapdan iljaydi. Bu iljayish zamirida zahar borligini payqagan Tursunali tutaqdi:

— Kulmang. Men sizdaqalarning qanchasini... — Tursunali «o'ynatganman» demoqchi bo'ldi-yu, mavridi emasligini bilib, gap maromini burdi: — Sizdaqalarning qanchasiga yordam bergenman, o'qitganman, hunar o'rgatganman.

— Aka, — dedi Nuriddin qo'lini kir sochiqqa ar-tib, — bu gaplarni boshqaga aystsangiz ham menga aytib ovora bo'lmang. Men qishloqda o'sgan bolaman. Sizga o'xshagan «direktor buva», «rais buva»larning qiliqlarini juda yaxshi bilaman. Siz butun dunyoni aylanib bittagi-na halol raismi yo direktornimi topib, menga ro'para qiling, agar u chindan halol bo'lsa, men kallamni shart uzib, qo'lingizga tutqazayin.

«Kallangni pishirib ye», — dedi o'zicha Tursunali. Bahs o'zining foydasiga hal bo'lmasligini anglab, unga

javob bermay, qo'lidagi kosani yuvmoqqa kirishdi. Shu onning o'zida hisob-kitobni roslab olmoq ahdidagi Nuriddin esa «hujum»ni davom ettirdi:

— Halollik deysiz. Qaysi rais, qaysi direktor amalga bepul o'tiradi? Siz sarf-xarajat qilmaganmisiz? Keyin raykomlar-u obkomlarning tomog'ini moylab turmaganmisiz? Qayerdan olardingiz? Halol odam topa oladimi shuncha pulni? «Terim paytida haftalab uyg'a bormas edim», — deysiz. To'g'ri, bormas edinglar. Sizlarning shtablarining bo'lardi, a? Tunlari paxta punktlarida qiladigan ishlaringni qilib olardilar. Men ketmonchining o'g'liman. Esimni taniganimdan beri qo'limda ketmon. Lekin birimiz ikki bo'limgan sira. Plan yuz ellikdan pastga tushmagan, ammo cho'ntak pul ko'rmagan. Siz aytgan adolat shumi? Halollik shumi? Bu yerdagi o'g'rilar nima uchun sizga yopishib qolishdi? Tuhamatga uchragan odamga ular tegishmaydi. Qaytaga himoya qilishadi. «Halol»dan topganingiz ko'pdirk'i, tinch qo'yishmayapti. O'g'rini qaroqchi ursa, shunaqa bo'ladi.

— Vey bola, sen haddingni bil! O'g'rilaringga qo'shib iningga kirg'izvormayin tag'in! — Tursunali shunday deb kosani otdi. Nuriddin kosani kafti bilan bir urib, nariga uchirib yubordi.

— Ana, haqiqat istaysiz-u, haq gapga chiday olmaysiz.

— Shunaqami? Men haromxo'rmanmi? O'g'rimanmi? Sen o'zing-chi? Kimligingni bilmaymanmi?

— Kimligimni yashirmayman, qilgan ishlarim uchun uyalmayman. Men bir ablahn'i o'ldirdim. Bu yerda yana bittasini o'ldirdim. Ular tirilib qaytib ro'para bo'lishsa, baribir yana o'ldirardim. Bu yo'ldan qaytmayman. Bilib qo'ying: men siz kabi odamlardan nafratlanaman. Sizga o'xshaganlardan bu yerdagi o'g'rilar ming marta yaxshiroq. Ular o'g'irlaydilar, talaydilar, kerak bo'lsa o'ldiradilar. Lekin sizlarga o'xshab «Pokman!» deb miyani achitmaydilar. O'g'riliklarini tan oladilar. O'g'ri ekanliklari bilan faxrlanadilar. Siz-chi? Hammayog'ingiz shaltoq bo'lib yotibdi-ku, yana poklikdan, adolatdan gapirib, boshni qotirasiz. Agar ochiqlikda duch kelib shu afsonalariningizi aytsangiz, betingizga tupurvordanim, aka.

Bu yerda noilojlikdan salom-alik qilyapman. Atrofdagilar ikki o'zbek bir-biri bilan chiqishmas ekan, deyishlaridan xijolatdaman. Bu yerda yana bir kun birga bo'lamizmi yo bir yilmi, mayli, aka-ukadek yuraveraylik. Faqat mening oldimda o'zingizni pok ko'rsatishga tirishib jig'imga tegmang, aka. Men to'g'ri o'sgan bolaman. Tilim zahar bo'lsa ham to'g'risini aytib qo'ya qolaman. Endi kosalarini men yuvay, siz toza suvda chaya turing. Ishlamayotgani-nizni ko'rsa baloga qolasiz.

Nuriddin shunday deb yana ishga kirishdi. Tursunali uni g'ajib tashlagisi keldi-yu, noilojlikdan mushtumini qattiq qisishdan o'zga chora topmadni. Tengizning gaplari dan so'ng Tursunali uchun qizlarining tashvishi yetarli edi. Begona bir yigitning tilidan o'zi haqidagi haqiqatni eshitish og'ir bo'lidi. O'sha tun bir chimdimgina uyqusida Nuriddin bilan olishib chiqdi. Keyingi to'rt-besh tun ham shunday kechdi. Bir haftadan so'ng «sovib» bu taqdiriga ham tan berdi.

DUSHMAN

Samandar hushiga kelib, qayerda yotganini anglay olmadi. Uyiga kirgani... Nafisa... Begona erkak... bular nima, tushmi edi? So'ng Moskvaga kelgani, Kremlagi suhbat... Mehmonxona... Kimdir keldi, nimadir dedi. Kim edi? Nima dedi? Keyin-chi?

Xonadagi anjomlarga qarab, shifoxonada yotganini angladi. Shifoxonaning yoqimsiz hidi ko'nglini aynitib, o'qchiy boshladni. O'qchiq ovozini eshitgan hamshira shoshilib kirib, unga idish tutdi. So'ng vrach paydo bo'lidi. Tomirini ushlab, mijjalarini qayirib ko'rgach, hamshiraga qisqa, ammo buyruq ohangida ko'rsatmalar berdi. Shundan so'ng Samandar undan: «Qayerdaman?» — deb so'rab, harbiylarning markaziy shifoxonasida ekanini bildi. «Soppa-sog' edim-ku, bu yerga qanday kelib qoldim?» — deb o'ylab ajablandi. Savoliga javob topa olmay vrachdan: «Nega bu yerdaman?» — deb so'radi. Vrach unga qarab bosh chayqadi-da: «Bekordan bekorga o'lib ketmasligingiz uchun shu yerdasiz», — dedi. «O'lib

ketmaslik uchun? — yanada taajjublandi Samandar. — Nega o'lishim kerak?» Bu savoliga o'zi ham javob topa olmay yana vrachdan so'radi. Vrach yana bosh chayqadi: «Ba'zan shunaqa bo'lib turadi, — dedi u. — Odam o'zi bilmagan holda o'lim jari yoqasiga borib qolishi mumkin. Siz qariyb jarga qulagan edingiz. Tortib oldik». «Tortib oldik?.. Nega qulayman? Nega tortib oladi?..» Javobsiz savollar ko'p edi. Biroq vrach u bilan hamsuhbat bo'lishni istamay, tashqariga chiqdi. Uning topshirig'i bilan chiq-qan hamshira yana uch hamkasbi bilan qaytib kirdi-yu, Samandar uchun azobli daqiqalar boshlandi. «Agar jar-dan tortib olishi shunaqa azob bo'lsa, o'lib ketaverGANIM ming marta yaxshi edi», — deb o'yaldi. Uning ichaklarini yuvaverib holdan toydirib yuborishdi. Bu jarayon yana ikki kun davom etib, surobi to'g'ri bo'lib qoldi. Uchinchi kuni Bazarov yo'qlab keldi.

— Ha Gorinich, ahvol qalay? — dedi u. Keyin Samandarning kirtaygan ko'zlariga qarab kuldil: — Bo'ladiganing bo'lib qolibdi-ku? Eplolmasang nima qilarding ichib? Kelib-kelib Medvedyevga hamshisha bo'lasanmi? Sen «Volga» daryosini simirib tashlagan zmey Gorinichni eshitganmisan? Medvedyev aroqni xuddi o'sha daryoday simirib to'ymaydigan Gorinichlardan.

— Medvedyev? Kim u? — dedi Samandar uning gap-larini tushunmay.

— Hali kim bilan ichganiningni bilmaysanmi? General Medvedyevni eshitmaganmisan? Qiziq, u ham seni eslay olmadidi. Lekin aytib qo'yay: agar u bilan teppa-teng ich-gan bo'lsang — yomon emassan. Seni qahramonlikka tav-siya etish mumkin. Yana u bilan ichishsang ehtiyoTroq bo'lgin, yana qahramonlikni o'lganidan so'ng olib yur-magin. — Bazarovning keyingi gapi piching aralash ha-zil ohangida aytilgani bilan zamirida ozgina po'pisa ham mavjud edi.— Xo'p, bo'lar ish bo'libdi. Qalaysan endi? Turib yura olasanmi?

— Siz meni o'limtik odamga chiqarib qo'ydingiz-mi? — dedi Samandar norozi ohangda. — Hech qayerimda og'riq yo'q, shikoyatim ham yo'q, nimaga yotibman bu yerda o'zi?

— Ichingni tozalashibdi, endi qoningni ham tozalashlari kerak ekan. Yana uch-to'rt kun yotadiganga o'xshaysan.

— Ishlarimiz nima bo'ldi?

— Ishlarimizmi? — Bazarov mug'ambirona jilmaydi.— Ha, durust, esing joyida ekan, ishlarimizni unutmabsan. Ishlarimiz — besh, og'ayni, bundan battar bo'lishi mumkin emas. Sen adashmagan ekansan. O'sha yerda chindan ham yadro sinovi o'tkazilgan. Hozir hukumatning rasmiy bayonoti tayyorlandi. Bugun-erta e'lon qilinishi kerak. Shtatlarning popugi sal pasayadigan bo'ldi. Indalmasa, da'volari osmon baravar edi. Shunaqa, oshna, sen yengding. Vaygildin senga alohida salom aytdi. Moslamani kuchaytirish haqidagi taklifing ham o'tadiganga o'xshab turibdi.

— Hindqushga o'rnatish-chi?

— Bu taklif o'tmasa kerak. Afg'onistonidan askarlar olib chiqib ketilsa-yu, Hindiqushga harbiy kuzatuv markazi qurilsa, aqlsizlikning o'zi-ku bu? Kremlni ishontirdik, shekilli.

— Viktor Bazarovich, men o'n-o'n besh kun Moskva-da qolishim mumkinmi?

— Nima qilmoqchisan?

— Doktorlik dissertatsiyamga javob bo'lmayapti. Bir shug'ullanib ko'rsammikin, devdim. — Samandar shunday deb nigohini olib qochdi. Tabiatan yolg'ondan hazar qiluvchi bu odam ayni chog'da asl maqsadini — uydag'i fojiadan sal yiroqroqda yurish istagi borligini yashirmoqchi edi.

— Be, boshingni qotirmasang-chi! — dedi Bazarov qo'l siltab. — Senga shu diplom zarurmi hozir? Sen yuzta fan doktorining ishini bir o'zing qilib o'tiribsan. Shuning o'zi yetarli emasmi?

— Har holda...

— Ha, kerak, diplom ham kerak. Lekin sen shoshilmay tur. Men bu ishlarning hammasidan xabardorman. Sening bu ishlaring bilan ba'zilar qiziqib turibdi. Shuning uchun ham himoyang masalasi noaniq muddatga surilgan. Shuning uchun hozircha uyingga qaytaver. Ha, aytmoqchi, oila a'zolaring tinchmi?

Samandar bu savolni eshitib yengil titrasi-yu, yana ko'zlarini olib qochdi. «Nega so'rayapti? Xabar topganmi?» — deb o'ylab dovdiradi.

— Sen bu yerga kelishingda uyingga kirmaganmiding? — deb so'radi Bazarov unga sinovchan tikilib.

— Yo'q, yo'q, — dedi Samandar, — to'g'ri kelaver-ganman.

— Yaxshi. Bizga xabar berishdi: xotining kasal emish. Bolalaring bormidi?

— Yo'q...

— Yaxshi...

«Yaxshi? Nimasি yaxshi? Nega surishtiryapti? Xabar berishgan... Xabar berishgan...»

Samandarning ruhida sarosima boshlanganini Bazarov sezdi. U hali fojiadan bexabar edi. Bilgani: Samandarning xotini o'ladirgan. Bazarov unga achinib, ko'nglini ko'taruvchi gap izladi. Tabiatan qo'pol muomalali bo'lgan generaldan qalbni yumshata oluvchi, taskin bera oluvchi gapning chiqishi mushkul edi.

— Menga qara, u yerda dushmanlaring borligini bila-sanmi? — dedi u xuddi tomdan tarasha tushganday tarzda.

«Dushman? Qanaqa dushman?» Ruh po'rtanasidagi sarsari Samandarga bu savol g'alat tuyulib, Bazarovga savol nazari bilan qaradi.

— Nima, dushmanlaring yo'qmi? — dedi Bazarov.

— Qanaqa dushman? Men birovga yomonlik qilma-ganman?

— Dushman orttirish uchun birovga yomonlik qilish shart emas. Aqli bo'lsang kifoya, daraxting tagidan o't-sang ham tepangdan dushman yog'iladi. Agar bilsang, aql ham bir balo, boshqalarda kuchli rashk uyg'otadi. Rashk esa tappa-tuzuk do'st odamni dushmanga aylantiradi. Men sinaganman: senlarda shunaqa kasallik kuchli. Bizlarda ham bor-u, ammo unchalik emas. Senlar bir odamning orqasidan qora chaplab yozishni yaxshi ko'rasanlar.

«Bu kasal millat tanlamaydi, hammada bor», — deb o'yladı Samandar. U hozir bu mavzuda bahslashishni istamas edi. Shu sababli fikrini ochiq bayon qilib, hamsuh-batiga e'tiroz bildirmadi. «Gapini kalta qilib chiqib keta

qolsa edi», — deb umid qildi. Bazarov esa bu sukutni fikriming tasdig'i sifatida qabul qilib, xotirjam tarzda gapini davom ettirdi:

— Bilaman, sen «boshqalar ham xuddi shunday», deyishing mumkin. Lekin yanglishasan. Masalan, gruzinlar, armanilar, latishlar bunday qilishmaydi. Kotrikadzeni bilasan, a? O'zi yomon olim emas. Lekin to'g'risini aystsam, ishi Davlat mukofotiga arzimaydi. Nomzodi qo'yiladigan bo'lganda men shaxsan qarshi bo'lganman. Lekin Gruziya tomondan shunday himoya dovuli yopirildiki, oxiri oldi o'sha mukofotni. Bultur seni Lenin mukofotiga o'zimiz tavsiya etdik, a? O'zbekistondan shunday qarshilik dovuli yopirildiki, oxiri ololmading. Hatto Vasiliy Ignatyevich ham ajablanib, hech nima qilolmay qoldi. Mukofotga nomzoding qo'yilganini tor doiragina bilardi. «Ochilov—Lenin mukofotiga nomzod», — deb matbuotda e'lon qilinsa, bilmadim nima bo'lardi? Nega shunaqasanlar, a? — dedi Bazarov norozi ohangda bosh chayqab.

— Bilmayman, — dedi Samandar g'udranib. Hozir uni mukofot ham, dushmanlari ham qiziqtirmas edi. Gapning bu tarzda kalta qilinganini Bazarov yana boshqacha tushundi:

— Sen bilmasang men bilamanmi? Men tushunmayman, Ochilov, bitta xotinni qo'yib, ikkinchisini olishning ilmiy ishga nima daxli bor? Seni «qololoq feodal» deb yozishdi. Shaxsan menga kashfiyat muhim, ilm muhim. Kashfiyotni feodal qiladimi, burjua qiladimi — farqi yo'q. Dushmanlaring uchun esa bu muhim, juda muhim. Sendlarda bosh konstruktoring ikkinchi xotinni olishga sira haqqi yo'q. Esingdami, Sharifxo'jayev deganning disseratsiyasi uchun kuyib yurgan eding. «Do'stim», — deb menga tanishtirganding. Sening hurmatingni qilib, unga yordam beruvdim. Esing-da, a?

— Esimda.

— Xo'p, bilib qo'y endi: o'sha «do'sting» ham yozgan edi. «Bu kashfiyat faqat Ochilovniki emas», — deb yozibdi. Menga emas, to'g'ri «SK»ga yozgan. Nima, men ahmoqmanmi yoki Vaygildin ahmoqmi? Kashfiyotda ilmiy guruhning xizmati borligini bilmaymizmi? Le-

kin boshsiz tana nima qila olishi mumkin? O'sha Sharifxo'jayev ing bu tanada kim? Bir barmoqmi? Yoki bir tukmi? Dushmanim yo'q, deysan-a! Menga qara, balki Moskvaga butunlay ko'chib kela qolarsan, a?

— Moskvaga? Nima qilaman bu yerda?

— Nima qilarding? Ishlaysan. Sharoit yaratib beraman. Ochig'ini aytsam, Vaygildin bilan shu maslahatni pishirdim. O'ylab ko'r.

— Bu yerda aqlilik balosi yo'qmi?

— Bor, to'g'ri, ammo senlardagi darajada emas.

— Bu yerga kelsam, u yerdagi ilmiy guruh tarqatiladimi?

— Shubhasiz. Ammo yaxshi odamlaringni olib kelishning mumkin.

— Yo'q, u yerda hozir kuchli ilmiy guruh to'plangan. Bitta-ikkita ahmoqni deb tarqatib yubora olmayman.

— Ahmoqlik qilyapsan, bilib qo'y. Sen bu yerda eng kuchli guruhnini tashkil etishing mumkin. Istagan odamingni istagan respublikadan chaqirtiramiz. Moskva markazidan joy bersak, har qanday olim ham uchib keladi. Yo'q deyishga shoshilma.

— Xo'p, — dedi Samandar suhbatga yakun yasash uchun. Bazarov esa buni rizolik alomati deb tushunib, yelkasiga urib qo'ydi:

— Mana bu boshqa masala. Sen uyingga borib kelaver. Qolgan ishlarni menga qo'yib ber.

Bazarov shu gaplarni aytgach, xotirjam ravishda o'midan turib xayrashdi. U ketgach, Samandar o'zini tamoman yo'qotdi: xotini kasal... dushmanlari bor... Moskvaga ko'chib kelish... Generalning gaplari chiroqqa urilgan parvonalar kabi xayollarini to'zitib yubordi. «Nima qilardim uyga kirib, to'g'ri kelaversam bo'lmasmidi?»— deb o'zini o'zi koyidi. Uydagi manzara ko'z oldida gavdalanib, yana haykal kabi qotdi. Kirib kelgan hamshiraga ham ruhsiz tarzda qarab qo'ydi. Bilak tomiriga sanchilgan ignaga ham parvo qilmadi. O'ylay-o'ylay: «General balki to'g'ri aytayotgandir, Moskvaga ko'chib kelganim ma'quldir», — degan fikrda to'xtaldi. Bu fikr bora-bora

qarorga aylandi. «Oila, bola-chaqa menga nasib etmagan ekan, Xudo menga faqat ilm bergen ekan, oilam bo'l-maganidan keyin shu yerdə qolaverGANIM ma'qul...» Yana ikki kun shu qaror atrofida taraddudlanib, uchinchi kuni Bazarovga telefon qildi-da, ahdini bildirdi. Bu orada muolaja yakun topib, uni harbiy aerodromga kuzatib qo'ydilar.

Aniq bir qaror bilan qaytayotgan Samandar Omonul-loning intiq kutayotganidan bexabar edi.

NOMUS

Omonullo shaharga qaytmay, avtobusga o'tirib Tosh-boltaning qishlog'iga yo'l oldi. Adolatning «xotinini urib o'ldirgan», degan gapi unga yana bir muammo eshigini ochib bergen edi. Rayon markaziga, so'ng ichki ishlar vakili hamrohligida qishloqqa borgunicha qosh qoraydi. Nafisaning fojiali o'limi haqidagi mish-mishlar bilan yashayotgan qishloq miliitsiya xodimlarining surishtirib kelishganidan o'sha zahotiyoy xabar topdi. «Ikkita milisa surishtirib kelibdi», — degan xabar qishloqning narigi boshiga yetguncha «Illi moshin to'la milisa bosibdi», — degan vahimaga aylanib, Yigitali yashaydigan ko'cha jonlanib qoldi. Hangomatalablar hovliga kirishni istadilar-u, ammo darvoza ostonasida turgan yigitga yo'liqib izlariga qaytdilar. Biroq bu xonadondan uzoqlashmadilar. Ularning nazarida hozir bu uyda «bir nima» sodir bo'lishi kerak edi. Ular ana shu «bir nima»dan quruq qolmaslik uchun ham shikordagi ovchi misol sergak turdilar. Bu qiliqlari uchun ularni ayblastash noo'rindir. Qishloqda har oydamli, har yildami bir juvon o'ldirib ketilsa, surishtirib milisa kelib-ketib tursa, boshqa gap edi.

Odamlar «bir nima sodir bo'lishini» behuda kutdilar. Ichkarida hech qanaqa g'alati voqeal yuz bermadi. Balki Omonullo bilan Yigitalining oddiy savol-javoblari bo'lib o'tdi. Omonullo gapni uzoqdan boshlamadi. O'zini qiziq-tirayotgan muammolarni yecha olishga xizmat qiluvchi savoldan boshlab qo'ya qoldi:

— Jiyaningiz... Boltayeva bu yerga tez-tez kelib turarmidi?

— Yo‘q... — dedi Yigitali shop mo‘ylovini silab,— onam rahmatli hayotliklarida kelib-ketib turguvchi edi. Keyin oyog‘ini torta qoldi. Erga tekkanidan keyin hecham kelmadi. Eri qo‘ymadi, shekilli-da.

— Erini taniysizmi, ko‘rganmisiz?

— Yo‘q, ko‘rmaganman. To‘yidan bexabar qog‘onmiz. Toshbolta qishloqdan hech kimni aytmagan. Azaldan fe‘li chatoqroq shu bolaning.

— Singlingizni... — Omonullo «urib o‘ldirganmi?» deb so‘ramoqchi bo‘ldi-yu, tilini ehtiyyot qilib boshqacha tarzda so‘radi: — ... biron kasal bo‘lganmidi?

— Singlim kasalmasidi. Shu Toshbolta xunasa bir kuni deng, kelib uribdi-da. Men yo‘g‘akanman. Bor bo‘g‘animda o‘zining jig‘ini ezibla qo‘yardim-a. Bu xunasa ichishni evlolmasidi. Ichdimi, tamom, ishkalning uyasini kavlardi-da. Qattiq urganidan singlim bechoraning ichagi uzilib ketibdi. Do‘xtir shunaqa degan.

— Qamalishining sababi boshqa-ku?

— Ha-da, biz da‘vo qilmadik-da. O‘sanda bir nima deb qo‘ysak, umri qamoqda chirirdi. Shu Nafisani debla uni ayadik. Aslida Toshbolta o‘shanda tuhmat bilan ketdi, xudoning urgani shu, shuning o‘zi yetarli, dedik. Ayamasdan ottirvorsak bo‘larkan. Yo‘q bo‘lib ketovursa Nafisanning boshiga bu balolar ham yog‘ilmasidi.

— Nega?

— Nega bo‘lardi? O‘zim tarbiya qilardim. Shu qishloqlik quling o‘rgulsin yigitga erga berardim. Shaharga yubormasidim. E, endi gapirganning foydasi yo‘q, — Yigitali shunday deb qo‘l siltadi.

— Toshbolta akani tuhmat bilan ketgan dedingizmi?

— Ha-da, u traxtorini to‘g‘ri yo‘ldan haydar borgan. «Jiguli»dagi xunasaning o‘zi kelib unga urilgan. U ham mast bo‘g‘on-da. Omma-lekigin uning puli bor edi. Ishni teskari qib yubordi, qiztaloq. Buni ko‘rgan guvohlar bor edi-ku, omma-lekigin bir nima deyishga qo‘rqishdi. Menga aytishdi. Men nima, prokuormidimki, bir nima qila olsam. Peshanasida qamalish bor ekan, ketvordi.

Yanayam oson qutildi. Omma-lekigin orada qiziga javr bo'ldi. Singlim ham ketdi, jiyanim ham ketdi, hech kim qolmadi... — Yigitali shunday deb uf tortdi-da, kaftiga bir chimidim nos to'kib, so'ng tilining tagiga tashlab, bosh chayqab qo'ydi.

- Jivaningizning... dushmanlari bormidi?
- Iya, gapingiz qiziq, xotin kishida ham dushman bo'lami?
- Bo'lmaydi, deb o'ylaysizmi?
- Bo'lar-ku, omma-lekigin o'ldirib ketadig'on dushmani bo'lmasov.
- Unda kim o'ldirishi mumkin?
- Shunisini bilmayman, uka, — Yigitali g'udranib nosni tupurdi-da, mo'ylovini silab qo'ydi. — Men bundaqa gaplarni biladag'on prokuror emasman. Mening bilganim — kuni bitgan ekan, shunaqa o'lim topibdi. Ham-mamiz birin-sirin o'lib ketovramiz, dunyo esa orqamizda qolovradi.
- Jivaningiz avvalgi sovxozi direktori bilan yaqin bo'lgan ekan, shuni siz bilarmidингiz?
- Kim aytdi? Toshboltanikiga boruvdingizmi? Ha... unda ashi shaytonning urg'ochisidan eshitgansiz. Bekorlarni ayтибди u shilta! Bizdi urug'dan bunaqasi chiqmag'an! — Yigitali shunday deb shart o'midan turdi-da, xuddi to'nning etagini qoqayotgandek soniga urib qo'ydi. Omonullo uning bu holatidan ajablanmadı. Jivanining axloqi xususida bunday noxush gap eshitgan har qanday tog'aning g'azablanishi tabiiy. Tag'in ham Omonullo «yaqin bo'lgan ekan», deb pardalab aytdi, agar «o'ynashi ekan», degandami, bu chapanisifat odam qay holga tu-shardiykin? Yon-atrofdagilarga so'z bermay yuruvchi erkak nomussizlik ko'lankasida qolguday bo'lsa chidashi nihoyatda qiyin. Jivanining, hatto o'z farzandining o'limiga chidar, «taqdir ekan», deb o'zini yupatar, ammo nomussizlik tamg'asini ko'tarishga har qanday baquvvat bel ham chidamas. Yigitali jivanining qadam olishini bilmasdi emas, bilardi. Ular yashayotgan sovxozi dunyoning narigi chekkasida bo'lsa ekanki, gap-so'z yetib kelmasa. Unda birov aksirib yuborsa, yonidagi «sog' bo'ling»,

deyishga ulgurmay, aks sadosi qishloqqa yetib keladi. Yigitali bir eshitganida indamadi — «g‘iybat gap», deb o‘zini tiydi, ikkinchisiga chidadi. Uchinchisida borib jiyaniga indamadi-ku, ammo Toshboltani yoqasidan oldi. Tuprog‘i ko‘pchib yotgan ko‘chada og‘zi-burnini qora qonga belab urdi ham, yumalatib tepdi ham. Xumordan-ku chiqmadi-ya, lekin «endi tiyilar», deb umid qildi. Semirib ketgan qo‘chqorni homilador guman qilib tug‘ib berishini kutgan odam qanchalar laqma bo‘lsa, Yigitali ham bu sohada nodon edi: shiraga o‘rgangan pashshani yaxshilik bilan qaytarish mumkinmasligini fahmlamasdi. Bora-bora g‘ishtning qolipdan ko‘chghanini anglagach, jiyaniga: «Qishloqqa kamroq kel», — deb qo‘ydi. Nafisa buvisining janozasiga kelib, yettisi o‘tgunicha turmoqchi bo‘lganida Yigitali xotinlarning visir-visirlaridan bezib, jiyaniga: «Endi qizim, bu yerda turganing bilan buving tiri-lib qaytib kelmaydilar. Yaqinda er qilgan odamsan, uying-dan uzoqma. Endi qishloqqa kelib ovora ham bo‘lovurma. Sog‘inganimda o‘zim borib xabar olaman», — deb ku-zatib qo‘ydi. Shundan so‘ng u jiyanini sog‘inmadni, jiyan ham: «Tog‘am yo‘qlamayaptilar», — deb xavotirlanmadni. Yigitali jiyanining yashash joyini ham bilmadsi, bilishga qiziqmadi ham. Nafisa bilan birga o‘sgan qizining bordikeldi qilish haqidagi gapini ham shart bo‘lib qo‘ya qoldi. Otasining fe’lini bilgan qizi istagini bir aytdi-yu, boshqa tilga olmadi.

Omonulloning: «Avvalgi sovxoz direktori bilan yaqin bo‘lgan ekan», — degan savoli Yigitalining yarasini tirnab qo‘ydi. U savoldan norozi bo‘lib emas, ana shu tirlangan yara azobiga chidolmaganidan o‘rnidan turib ketgan edi. Yigitali shu savol-javobdan so‘ng tumtayib oldi. Buni sezgan Omonullo ezmalanib o‘tirmadi. Soatiga qaradi-da, kechki poyezdga ulgurish maqsadida o‘rnidan turib, xayr-lashdi.

Tongda poyezddan tushib, yuvinib, kiyimlarini almashtirish niyatida uyiga bordi. Qaynonasi yuvib, dazmollagan ko‘ylaklarni javondagi ilgichlarga ilib, uyni yig‘ishtirib, stol ustidagi kaftdek qog‘ozga qisqagina maktub yozib qoldirgan ekan: «Fotimangiz telpon qilib,

salom aytди. Ishlari tezlashyaptiykan. Dadangiz ikki-uch kelib-ketibdilar. Xavotir olyaptilar». Keyingi so'zlarni o'qib, Omonullo jilmayib qo'ydi. Qaynona «dadangiz» deganda Omonulloning tutingan otasini nazarda tutgan, «xavotir olyaptilar», deb borib ko'rishga da'vat qilgan edi. Tutingan otasi ulardan to'rt eshik narida turadi. Uni borib ko'radigan bo'lsa, qaynota-qaynonanı yo'qlashi ham tabiiy. Qaynonasi: «Biznikiga kirib o'ting», — demay, chiroyli tarzda maqsadni bayon qilib ketgan edi. Ona mehriga zor o'sgan Omonullo yumshoq ko'ngil, shirin muomala qaynonasini kuyov emas, chin o'g'il muhabbatı bilan izzat qilardi. Qaynonasi esa onalik mehrini bergen edi. Omonullo bilan Fotima orasida jiddiy to'qnashuv bo'lmasa-da, ikir-chikir masalalarda ham doimiy ravishda kuyovining yonini olib, qiziga qarshi turardi. Shunaqa paytlarda Fotima: «Oyi, men qizingizmanmi yo keliningizmanmi?» — deb kulardi. Qaynotasining ezmaligi yoqmasligini hisobga olmaganda Omonullo uni ham yaxshi ko'rardi. Vaqti bermalol bo'lsa, gaplarini indamay eshitardi. Ba'zan o'tirgan yetida mizg'ib ham olardi. Qaynotasining eng yaxshi odati: «Men shuncha gapirdim-ku, hamsuhbatim indamadi-ya» yoki «Gapimni yoqtirmay uxladi-ya», — deb sira ranjimasdi. Omonullo salom berib, «Qalay, ada, yaxshi yuribsizmi?» — deyishga ulgursa ulgurdi, ulgurmasa jim o'tirishga hukm bo'lardi. Qaynotasi gapira-gapira xumordan chiqardi-yu, mehmon ketgach, xotinining dashnom o'qlariga uchrab yana kamgap, «mo'min»ga aylanardi. Fotima ba'zan gapga tushib ketsa, Omonullo: «Ha, ota qizi!» — deb tegajoqlik qilib, uning jig'iga tegishni yaxshi ko'rardi.

Omonullo bugun ishdan barvaqtroq chiqib, ularni yo'qlashni ko'ngliga tugib, choy damlab ichdi-da, xizmatga yo'l oldi. Yo'l-yo'lakay prokuraturaga kirib, Mels Xo'jayevga uchradi. Safarga ketishdan avval ko'rishganida bu kibor yigit uni lol qoldirgan edi:

— Aka, siz haqingizda men ko'p yaxshi gaplarni eshitib, xursand bo'ldim, — degandi. — Men bu sohada yangiman. Tajribam yo'q, bilimim ham yetarli emas. Lekin

shu ishni yoqtiraman. O‘zim xohlab tanlaganman. Menga ish o‘rgating, iltimos, ish buyuravering.

— Ishni prokuratura buyuradi bizga, — degan edi Omonullo piching ohangida.

— Shunaqa demang-da. Odamlar: «Falonchining o‘g‘li», — deb menga havas qilishadi. Aka, bilsangiz shu narsa meni ko‘p qiyaydi, menga ko‘p zarar beradi. O‘qishda ham uchib yurib o‘qidim. Ba’zi domlalar ko‘ngil uchun ham so‘rab qo‘yishmasdi. Bu yerda ham qiyangilari kelmaydi. «Falonchining o‘g‘li» bo‘lganim uchun men aybdor emasman-ku? Qachongacha uchib yuraman. Bir kunmas, bir kun qo‘nganimda nima degan odam bo‘laman?

Omonullo taajjubini yashirmay unga tikilib qolgan, Mels Xo‘jayev ham «Gapim — gap!» deganday tik qara-gan edi.

Omonullo unga Samandar Ochilovga tegishli yangi fikrlarini aytib, ekspertiza xulosalarini bayon qildi. Mels Xo‘jayev harbiy prokuror orqali bitadigan navbatdagi ishlar bilan shug‘ullanishga va’da bergen edi. Omonullo safar xulosalarini bayon qilgach, u: «Biz ham bekor o‘tirmadik, aka», — degan ohangda hisobot bera boshladi:

— Shaxsan okrug harbiy prokurori bilan gaplashdim,— Mels Xo‘jayev bu gapni bolalarcha zavq, bola-larcha g‘urur bilan aytib, xuddi olqish kutganday Omonuloga qarab qo‘ydi. «Chakki emassan», — deb o‘yladi Omonullo, biroq bu gapni tiliga ko‘chirmadi. Mels Xo‘jayev yana shu zavq bilan gapini davom ettirdi: — Ochilovni kuzatib borgan polkovnik bilan suhbatlashgанингиздан okrug harbiy prokurorining xabari bor ekan. U: «Shundan boshqa yordam berishga ojizmiz», — deb aytди. Ochilov harbiy sohaga oid ilmiy ish bilan shug‘ullangani bilan o‘zi harbiy hisoblanmas ekan. Uning qayerdaligini surishtirishga yoki bizga tutib berishga ularning haqlari yo‘q ekan.

«Shunga aqling yetibdi, boqsa odam bo‘lasan. Qani, davom etaver-chi», — deb o‘yladi Omonullo. Uning jimgina tinglashi Mels Xo‘jayevda shubha uyg‘otib, bir

nafas tin oldi. «Biron nima dermikan», — deb kutdi. Omonullodan sado chiqmagach, davom etdi:

— Mening amakim shunga yaqin boshqa idorada ishlaydilar. Amakim orqali Ochilovning Moskvada ekanini aniqladim. U hozir harbiy gospitalda ekan. Yaqin kunlarda qaytar ekan.

«Yaxshi, qaytaversin, kutib olamiz», — deb o'yladi Omonullo.

— Lekin biz uni kutib ololmaymiz, — dedi Mels Xo'jayev uning fikrini o'qiganday. — Uni harbiylar samolyotida olib kelishadi. Samolyot harbiy aerodromga qo'nadi.

— Biz uni o'zining uyida kutamiz, — dedi Omonullo qat'iy ohangda.

— Men ham shunaqa deb o'ylovdim, — dedi Mels Xo'jayev. — Agar xohlasangiz shaxsini aniqlashtirish uchun bir odam bilan uchrashadirishim mumkin.

— Kim bilan?

— Ochilov bilan birga ishlaydigan odam. U amakim bilan maxfiy hamkorlik qilar ekan. U bilan uchrashasiz-u, ammo o'zining kimligini surishtirmaysiz.

— O'zingiz ko'rismadingizmi?

— To'g'risini aytam... ko'rdim. Amakim gaplashdilar, o'zim indamadim. Uning qotillikdan xabari yo'q ekan. Gaplariga qaraganda Ochilovni yoqtirmaydiganga o'xshaydi. «Jamiyat uchun zararli shaxs», — deb ochiq aytди.

— Nimasi zararli ekan?

— Ikkita xotini bormish.

— Ikkita xotinli odam jamiyatga zarar keltira olmaydi, — dedi Omonullo kulimsirab.

— Nega? — deb ajablandi Mels Xo'jayev bu gapning chinmi yo hazil ekanini farqlay olmay.

— Nega bo'lardi? — Omonullo: «Shuni ham bilmaysizmi?» deganday kului. — Bunaqa odam ikkita xotinni eplash bilan ovora bo'lib dunyoda sovet jamiyatni borligini ham unutib yuboradi. Hayron bo'limgan, hazillashdim. Agar u odamingizning gapi rost bo'lsa, ikkita xotinli odam jamiyatga zarar keltirsa, uchtami-to'rtta xotin olganlar ja-

miyatga o't qo'yar ekan-da. Siz to'g'ri fahmiagansiz: ichi qora odamga o'xshaydi. Yana nima deydi?

— Boshqalarning ilmiy ishlarini o'zlashtirib olar ekan. O'zini Lenin mukofotiga qo'yib, ololmabdi.

— Bo'ldi, tushunarli. U bilan hozir gaplashmasak ham bo'ladi. Zarurat bo'lsa, keyinroq uchrashamiz.

— Siz... Ochilovning birinchi xotini bilan ko'rish-dingizmi?

Omonulloning shunday rejasi bor edi. Biroq prokuratora xodimining jig'iga tekkisi kelib atay:

— Shartmi? — deb so'radi.

Mels Xo'jayev Omonulloning quvlik qilayotganini sezib, yelka qisib qo'ydi-da, ranjigansimon tarzda dedi:

— O'zingiz bilasiz, men sizga buyura olmayman.

Omonullo: «Fikrlaringiz durust, men shunchaki hazilashdim», — deb ovutmoqchi bo'ldi-yu, «past-balandga ko'niksin», degan xayolda indamadi. Xayrlishish uchun qo'l uzatganda Mels Xo'jayev unga bir parcha qog'oz uzatdi:

— Nima bu? — dedi Omonullo ajablanib.

— Ochilovning birinchi xotini shu manzilda turadi, — dedi Mels Xo'jayev bu safar kiborlarcha boqib. Omonullo uning qarashidagi: «Bunisiga nima deysiz?» — degan ma'noni uqib, jilmaygancha javob qildi:

— Qoyilman, gap yo'q!

Omonullo ishxonasiga kiraverishdagi navbatchi uy-chasi yonida turgan Adolatni ko'rib, ajablandi. Bu ayolning kelishiga amin ediku-ya, biroq bu qadar tez yo'qlar deb kutmagandi. Adolat uni ko'rди-yu, kuyoviga peshvoz chiqqan qaynonaday jilmayib qarshi oldi. U yaltiroq ipli sariq ko'ylyak kiyib olgan, oyog'ida yoshlarga rasm bo'lган poshnali qora tufli, qosh-u ko'zlariga qalam tortgan, labiga och qizil bo'yoq surtib olgan edi. Qilik'i o'ziga yarashmagan bo'lsa-da, har holda, avvalgi ko'rinishiga qaragan-da sal odambashararoq edi.

— Voy, Xudoyimga shukr-ey, — dedi u salomlashgach. — Kelmay qolarmikinsiz deb yuragim taka-puka edi-ya!

- Keling, opa, tinchlikmi? Xo'jayin tuzukmilar?
- Ha, yotibdi, g'o'ldir-g'o'ldir qilib. Nafisaning uyi-dagi mollarni olib kel, deb yubordilar.
- Iye, shunaqami, gapirayaptilarmi?
- Qayoqda? Til o'sha-o'sha — ketgan.
- Til ketgan bo'lsa qanaqasiga: «Mollarni olib kel», dedilar?
- Voy... — Adolat tilidan ilinganini bilib sal saro-simalandi-yu, lekin sir boy bermay, o'zini qo'lga oldi:— Til o'lgur bo'lmasa ham ko'zlar ochiq-ku? Imo-ishora bilan gapiryaptilar. Shuncha yil birga yashagandan keyin ko'zlariga qarab turib, nima demoqchi bo'layotganlarini bilib olaman.
- Ovora bo'lib kelibsiz, opa, mol egasiga beriladi.
- Voy, shoshmang, nachalnik uka, men sizga bir muhim gap aytaman.
- Xo'p, aytинг.
- Bu yerda idorangiz bormi? Ko'chada aytadigan gap emas.
- Omonullo uni xonasiga boshlab kirdi. Adolat stulga o'tirayotib tor xonaga bir razm soldi-da:
- O'ldirgan odamni qidiryapsiz-a? — deb so'radi.
- Qidiryapmiz, — dedi Omonullo.
- Hali topmadingiz-a?
- Zehningizga qoyilman: topmadim.
- Topa olasizmi?
- Bilmadim. Har holda, burun bo'lsa, ro'molcha topiladi, degan gap bor.
- Men sizga bir gapni aytsam, osongina topasiz.
- Shunaqami? Menga aytib o'tirmay o'zingiz topa qolmaysizmi?
- Opovsi, siz menga bunaqa piching qilmang. Men sizga qishloqda tappi changallab yurgan savodsiz xotin emasman. Bilmasangiz bilib oling: ikki marta raysovetga deputat bo'lganman. Bir narsani bilmassam shundan shunga ahmoq bo'lib kelmasiydim. Yer yutkurning sirini men bilmay, yana kim bilsin?
- Yer yutkur... kim? Otasimi yo qizimi?
- Ikkoviyam bir go'r.

- Qanaqa sir ekan, aytinq-chi?
- To'xtang, oldin kelishib olaylik. Men sizga bilgalarimni aytaman. Siz esa menga mollarni olib ketishimga ruxsat berasiz.
- Aytadiganlaringiz shunchaki g'iybat bo'lsa-chi?
- Voy savil, men g'iybatchiga o'xshaymanmi?
- Nafisa Boltayeva avvalgi direktor bilan don olishardi, devdingiz. Tog'asi: «Bo'limgan gap», — deb rad etdi.
- Tog'asimi? Anavi mo'ylov jinnimi? U qayoqdan bilarkan? Jiyanini abort qildirgani kim olib borgan ekan, so'ramabsiz-da. Bir marta bo'lsa ham go'rga edi. Uch marta olib borganman. Men g'iybatchi bo'lsam Matlubadan so'rang. Juvonmarg bo'lgurni ko'rningizmi o'zi?
- Sobiq direktorning xotinini aytapsizmi? Borsam uyida yo'q ekan, shaharda deyishdi.
- Voy savil qolsin, shaharda balo bor ekanmi? Uyidan atay chiqmagan. O'lguday qo'rqadi.
- Nimadan qo'rqadi?
- Eri qamalganidan beri rosa obiska¹ qilishyapti. Anavinda ham kelib-ketishgan ekan.
- Qachon?
- To'xtang, avval kelishib olaylik, keyin so'rang savolningizni.
- Boltayeva!
- Men Boltayeva emasman, Xudoga shukr, Nizombekovaman! U yergina yutkurning familiyasiga o'tmaganganman.
- Nizombekova, bu yer sizga bozor emas. Savdoshmang. Agar bilganingizni yashirsangiz yo chalg'itmoqchi bo'lsangiz, qonun bo'yicha jazolanasiz.
- Voy o'layin, holvani hokim yeb, kaltakni yetim yeydimi endi? Birov kelib qizimni o'ldirib ketsin-da, siz o'ldirganni topmang-da, men jazo olayinmi? O'lmay o'la qolsin, bu qiz o'lgur, boshginamga bitgan balo bo'ldi. U yoqda otasi yotibdi: «Ana o'laman, mana o'laman», deb. Bu yoqda bu kishim o'tiribdilar: «Aytmasangiz qamay-

¹ «Tintuv» demoqchi.

man», deb. Hoy, menga qarang, qamashga mendan boshqa odamingiz yo'qmi?

— Men qamayman, demadim, jazo olasiz, deb ogohlantirdim.

— Qamayman deysizmi yo jazo olasan, deysizmi — bir go'r emasmi? Hech nima bilmayman, deb turib olsamchi? Ichimdag'i gapni yorib olasizmi? Undan ko'ra molimizni berib yuboring, men sizga kerakli gaplarni aytay.

Omonullo bu «shayton qamchisi» bilan savdo pishishi qiyinligini anglab, telefon go'shangini ko'tardi-da, qo'shni bo'limga qo'ng'iroq qildi:

— Hafizxon aka, Boltayevaning uyida ro'yxatga olingen mollarni hozir berib yuborish mumkinmi? — Omonullo shunday deb Adolatga qarab oldi. Adolat masala o'zining foydasiga hal bo'layotganidan mamnun holda bir qimirlab oldi. Omonullo esa suhbatini davom etdi: — Ha, odam keldi. Boltayevaning o'gay onasi, — Omonullo: «Bu qo'pol gap ta'sir qilarmikin?» — deb Adolatga tikildi. Adolatda norozilik alomati sezilmadi. — Mumkin emasmi? — Shu savoldan so'ng Adolat bir chayqalab oldi. — Ilojini qilish kerak. Eridan tilxat olib kelsa-chi? Ha, albatta, guvohlar ishtirokida. — Omonullo shunday deb go'shakni joyiga ildi. — Tushundingizmi? Bir haftadan so'ng tilxat bilan kelasiz. Qani, endi ayting gapingizni.

— Kecha siz ketganingizdan keyin esimga tushdi. Xotiram o'lgur sal o'tmaslashib qolibdi, — deb gap boshladi Adolat. Omonullo esa o'zicha: «O'tmaslashgan aqlda o'tkir xotira bo'larkanmi?» — deb xayolidan o'tkazdi.

— Uch oymi, to'rt oymi avval Valijonni ko'ruvdim.

— Kim u? — Omonullo shu savolni berib qog'ozga «Valijon» deb yozdi.

— Valijonmi? Tursunalining ishongan sho'piri. Tursunalini bilasiz, qamalib ketgan direktor. Qorang o'chgor Matluba eri qamalsa ham ko'chib ketmadi.

— Ko'chishi kerakmidi?

— Eri qamalganidan keyin ketmaydimi kelgan joyiga. Bir nimadan ilinji bor u megajinning. Hozirgi direktor erining yaqin odami edi. Uyiga ham tegmadi. Nega tegmadi,

bilasizmi? Yer yutkur Tursunali Nafisaga ilakishib yurganida, Matluba bu odamning ko'ngilchasini ovlab yurgan.

- Ko'rganmisiz?
- Nimani?
- Ko'ngilchasini ovlaganini?
- Ko'rib nima, men uning lozimiga qorovulmanmi, qachon yechib, qachon kiyganini poylab yuribmanmi?
- Xo'p, bu gaplarni qo'ying, siz Valijonni ko'rudingiz?
- Ha, ko'rdim, — Adolat shunday deb g'ashi kelgani ni bildirish maqsadida bir chimirilib oldi: — Bir kuni Matluba chaqirib, to'ppa-to'satdan: «Shaharga boramiz», — debdi. Valijon: «Ertaga boraylik, kech bo'ldi», — desa ham ko'nmabdi. Keyin Valijon uni yer yutkur Nafisanikiga boshlab boribdi. Borishganidan keyin Matluba Valijonga: «Sen chiqib tur», — debdi. Nafis o'lgur esa: «O'tiring, Valijon aka, choy iching, osh pishyapti», — desa ham ko'nmabdi. Xullas, Valijonni chiqarib yuborib, janjalning uyasini qo'zg'abdi.

- Nega?
- Unisini bilmadim. Eri qamalmasidan ilgari jimgina pisib yurardi.
- Erining o'ynashi borligini bilmasmidi?
- Baloni bilardi u yergina yutkur. Qip-yalang'och us-tidan chiqib qolganida ham damini chiqarmagan.
- Unda nima uchun janjal qiladi?
- Bilmadim-u, ammo bir nima talashgan.
- Erini talashmagan xotin endi nimani talashishi mumkin?
- Nimani talashardi? Boylikni-da. Juvonmarg bo'lgur Tursunali topganlarini yashirib ketganga o'xshaydi. Yer yutkur Nafis oxirgi kelganida otasi bilan pichirlashib qoldi. Sekin quloq soldim. Qulog'imga kirgani Nafis o'l-gur nimanidir: «Topish kerak», — dedi. Keyin: «O'sha kechasi oshxonha tomonga qarab yuruvdi», — dedi. Keyin ikkoviym ketdi, bilsam o'shanda bog'ga borishibdi. Juvonmarg o'lgur bog'ga nimaga boradi? Erkaksirab boradi-da. O'ynashi qamoqda bo'lsa, er jonivor haftalab yo'q bo'lib ketsa... Maishatni sog'inadi-da. Direktor

o'lgur ham bularga laqqa tusha qoldi. Qaytishganida qarasam, qulog'ida yangi zirak, barmog'ida qo'sh uzuk. Naq tilla! Ko'zlar niq javhar! Ko'rdim-u, indamadim.

Omonullo bu gapni eshitib ekspertiza xulosalarini esladi: quloqlaridan zirak yulib olingan, barmoqlarida to'rtta uzuk izlari bor...

— Barmoqlaridagi uzuklar ikkitamidi?

— O'zi azaldan ikkita bor edi. Bittasi nikoh uzugi, yana bittasi yoqut ko'zli tilla uzuk edi. Bog'dan qaytishganda yana ikkitasi paydo bo'ldi, deyapman-ku, tushunmadingizmi? Erkak zoti ham g'irt ahmoq bo'ladi. Nafis o'lgur kim edi? It g'ajib tashlagan bir suyak edi. Shu sar-qitning barmog'iga ikkita uzuk taqasanmi? Shunaqa sarf qilar ekansan, svejiylaridan topmaysanmi?

Adolat yangi direktorni laqmalikda ayblab, yana bir-ikki gap aytdi. Omonullo esa yangi direktor bilan bo'lgan uchrashuvini ko'z oldiga keltirdi. «Nafisa Boltayevani ko'rghanim yo'q», — deb tonganini esladi. Sovxoza ishni xom bajarganini anglab, yana borishni diliqa tugdi-da:

— Xo'sh, endi Valijonning gapi chala qoldi-ku? — dedi.

— Ha-ya, Valijon o'lgur ham laqma-da, «chiq» desa chiqib ketaveribdi. Kundoshlarning qirpichoq bo'lishlarini mazza qilib ko'rmaysanmi! Matluba shumshukkina bo'lib yurgani bilan balo-da. Nafis o'lgur-ku tog'asiga o'xshagan jinni. Yulib tashlashdan ham toymaydi. Bir marta meni yulgan u qo'ling singur. Ammo men ham haq-qimni qo'yaganman.

— Xo'p, qoyilman, opa, Valijon nima dedi?

— U juvonmarg aytdiki, Matluba chiqqanida vajohati juda ham yomon ekan. «Shu jalabni o'ldirtirib yubormasam yurgan ekanman», — debdi.

— Valijonga shunday debdimi?

— Yo'q, Valijonga aytarmidi shunaqa gapni. Uydan chiqib kelayotganda o'ziga-o'zi gapirib kelayotgan ekan, yer yutkur sho'pir qulog'ini ding qilib eshitib qolibdi. Keyin menga aytди: «Shunaqa-shunaqa gaplar bo'ldi, qizingizni ehtiyoq qiling», — deb qo'ydi. Endi tushundingizmi?

— Tushundim. Aytadigan gaplaringiz shumidi?

— Ha, shuncha gapim kammi sizga? Bo'pti, agar kamlik qilgan bo'lsa, yana eshitsam yo eslasam kelib ay-taman,— Adolat shunday deb o'rnidan turib xayrlashdi. Lekin darrov chiqib ketmadi. Ostonada turganicha «yer yutkur» va «o'lgor»lar haqida yana allaqancha gaplarni aytib tashladi. Omonullo uni bilagidan ushlab, yo'lga boshlamasa, kechgacha gapirishdan ham toymaydigan edi.

Adolatni kuzatgach, Omonullo boshliq huzuriga kirib qotillik yuz bergen uyni nazorat ostiga olish masalasida kelishib oldi.

AZOBBLARNING MUQADDIMASI

«Ha-ha! Baribir urdi-ku Xudo!! Hali bu ham kam senga, bir tomchi suvgaga zor bo'lib o'lasan. Ha, sen qiyanalib o'lasan, men esam rohatlanib tomosha qilaman!».

Bu ovoz... qaynonasining ovozi... O'zi qani? Qayerda turib gapiryapti?

Harakatsiz yotgan Toshboltaning ko'zlarini javdiradi. «Uxlayapmanmi, tush ko'ryapmanmi? — deb o'yaldi Toshbolta. — Yo'q, uyg'oqman. Hamma yoq yop-yorug'. Avval domla o'qiyatuvdi, keyin milisa keldi. Bu ham tushmi? Yo'-o'q... «Adol bilan gaplashdi-ku u milisa? Adol... harom o'lgor Adol, mendan oldin sen o'lsang yaxshi edi. Bir kun bo'lsa ham sendan keyinroq o'lishni orzu qillardim-a, bir kun bo'lsa ham odamga o'xshab yashab qolardim-a... Milisaga nimalar deb sasiding-a, qanjiq! Menga tekkuningcha nima qilgan bo'lsang qilgansan. Hammasini eshitgan edim, lekin senga rahmim kelib indamovdim. O'shanda seni o'ldirvorsam bo'larkan. Sen... ilon... hammamizni chaqib o'lording... Bir soatga bo'lsa ham tuzalsam edi, o'rnidan turib bo'g'ib o'lording sen ablahnini. Yo'-o'q... avval tilingni kesar edim, so'ng bo'g'ardim. Nafisning oldiga yuzim yorug' bo'lib borardim...»

«Ha-ha! Seni Xudo urdi-ku!»

Yana o'sha ovoz. Toshboltaning ko'zları yana javdi-radi. So'ng nigohi qotdi: yonginasida qaynonasini ko'rdi. Qaynonasi o'tirib olganicha eski ko'rpachani so'tyapti.

«Nima qilyapsiz?» — deb so'radi Toshbolta.

«Senga kafan bichmoqchiman», — deb javob berdi qaynonasi.

«Eski ko'rpachaning astaridan ham kafan bo'larkan-mi?» — dedi Toshbolta.

«Senga shu ham hayf. Itday o'lib, itday ko'milishing kerak», — dedi qaynonasi.

«Meni buncha yomon ko'rasiz-a? Qizingizni urgan bo'lsam jazosini totdim-ku? Xudo bir alvastiga ro'para qilib qo'ydi-ku?» — dedi Toshbolta.

«Nafisaning hayotini bulg'ab tashlading. Menda ham ayb bor: uni senga berib yubormasligim kerak edi», — dedi qaynonasi.

«Men qizimning baxtli bo'lishini istagan edim. Baxtini topgan edi», — dedi Toshbolta.

«Nomi buzuq bo'lib topilgan baxt baxt ekanmi? Ayt o'zing, jon qizim, baxtli edingmi?»

Shu payt qaynonasining orqasida Nafisa ko'rindi: eski, kir ko'yakda, ko'zlarida yosh, ma'yus qarab turibdi. Toshboltaning hech esidan chiqmaydi: qamoqdan qaytib, qaynonasinkiga kelganida Nafisani shu holatda ko'rgan edi. Ko'rib, yurak-bag'ri ezilib ketgan edi.

«Qizim, buvingga aytgin, men senga hech yomonlikni tilaganmanmi?»

Nafisa indamay, shu holatida qarab turaverdi.

«Qizim, meni qiynama, o'ladigan bo'lsam ham qiynal-may o'lay, ayt, baxtli eding-ku, axir?»

«Nafisa senga gapirmaydi», — dedi qaynonasi.

«Nega gapirmas ekan?» — dedi Toshbolta.

«O'liklarning gapirganini qayda ko'rgansan?» — dedi qaynonasi.

«Siz gapiryapsiz-ku?» — dedi Toshbolta.

«Men senga kafan bichish uchun atayin kelgan-man», — qaynonasi shunday deb qah-qah otib kula bosh-ladi. O'zini to'xtatolmay to'xtovsiz kuldil, sonlariga shapati urib kuldil, Toshboltaning naq tepasiga turib olganicha

kinolardagi yalmog'iz kampir kabi xunuk kului. Kulgi ja-rangidan Toshboltaning qulqlari shang'illab ketdi.

— He, turqing qursin senlarning, jigarlarining qurt ke-mirib quritsin!..

Bu kimning ovozi? Toshbolta sergak tortdi: qaynonasi emas, Adolatning shang'illashi bu. Kimni qarg'ayapti?

— Molni egasining o'ziga berarmish. Kim egasi? Onangning mahriga tushgan mol ekanmi?

Shang'ish ovozi tobora yaqinlashib, ro'parasida Ado-latning qahrli chehrasi ko'rindi.

— Qanaqa erkaksan o'zing?! G'irt ahmoq odam ham shuncha molni o'sha yerga tashlab kelavermaydi. Milisa-ning gaplarini eshitdingmi? E, er bo'lmay o'libgina ketgin sen! Senga tekkanimdan beri birim ikki bo'ljadi-ya! Endi seni bitimga boqamanmi? Bitta ukoling necha pul, bil-yapsanmi. Tuzaladigan bo'lsang, tuzal, bo'lmasa o'zim bo'g'ib o'ldirib qo'ya qolay. Boqishga arziyidigan erkak bo'lsang ekan sen...

«Noshukur bo'lma, shuncha topib kelganim kammi senga? Uchta emas, o'ttizta qiz uzatishga yetadigan mol yig'ding-ku? Tilla taqinchoqlarni sotsang ikkita mashina beradi-ku? Buncha noliyan, qorashaqshaq?!» — shunday demoqchi edi, til aylanmadidi. G'o'ldiragan ovoz chiqdi.

— Nima deyapsan, qaytar-chi? — dedi Adolat yoniga tiz cho'kkanicha qulog'ini ding qilib.

«Hadeb voyvoylab o'pkangni ko'rsatavermay bit-ta qo'y olib so'ydirib xudoyi qilib yubor. Bizga balo yog'ilyapti. Xudoyi qilmasang bo'lmaydi. Boya domla o'qiyotganida shu ko'nglimga keldi».

Toshbolta shu so'zlarni aytmoqchi bo'lganida ko'zları qassobga qarayotgan qo'zichoq ko'zları kabi javdiradi.

Adolat bu nigohga zuhr bo'lgan ma'noni o'z aqli yet-ganicha o'qidi:

— Mollarni borib olib kelaymi?

«Kallangni ishlatsang-chi: balo yog'ilyapti, deyapman senga. Qo'y olib so'ydir, xudoyi qil, deyapman. Baloga men uchradi, mayli, endi qizlarga urmasin. Sen alvasti-ga ham Xudoning atagani bordir, esingni yig'sang-chi!..»

Ularning bu tahlitda gaplashishi soqov bilan so‘qirning suhbatini eslatardi.

— Ha, bo‘pti, nima demoqchi bo‘lganiningni tushundim,— dedi Adolat. — Erta yo indin borib olib kelaman. Milisa bo‘lsa o‘ziga, men indamay qo‘yib berarkanmanmi? Noshud bo‘lmay qaro yerga kirgin sen. Shuncha molni uyga qo‘ymay, xaridorga topshirib kelsang o‘larmiding? Bu yoqqa hovliqib Yugurganing bilan qizing tirilib qolarmidi? Mana, Yugurganing bilan ko‘mish baribir senga nasib qilmadi-ku? Xudo bizga mehribon-da, seni shu ko‘yga solmaganda mo‘ylov jinning o‘la qolsa jiyani ko‘mmasdi. Butun xarajat bizning gardanimizga tu-shardi. Eri o‘lgur qaysi go‘rlarda ekan? Xotin olmay o‘la qolsin u so‘tak. Qiz bilan juvonning farqiga bormasa...

Toshboltaning yuragi sanchib, og‘riqqa chidolmay ingrab yubordi. Ancha bosilib qolgan kuragida og‘riq ham uyg‘ondi. Oyoqlari yuzlab chayonlar hukmiga topshiril-ganday azob cheka boshladi. Ingrash o‘kirikka aylandi. Yonog‘iga yosh tomchilari dumaladi.

«Bo‘g‘ib o‘ldirsang o‘ldira qol», — degan iltijo bilan xotiniga boqdi.

— Ha, shunaqa, — dedi Adolat o‘rnidan turib. — To‘g‘ri gap tuqqaningga yoqmaydi. Sog‘ paytingda ham quturgan tuyaga o‘xshab o‘kirib qolarding. Hozir ham shuning xumori tutdimi, he o‘kirmaygina o‘lgin sen...

«To‘xta, hech bo‘lmasa oyoqlarimni silab qo‘y, bu azob bilan o‘lmay. Jonim chiqmasidan oldin sen ham menga bir yaxshilik qil» — til bu gapga ham aylanmadidi. Alhol, bu iltijo tish hatlab aytilgan taqdirda ham xotin tomonidan ijobatga olinmog‘i mahol edi. Javob tariqasida uning tilidan: «Endi sening isqirt oyoqlaringni qashilash qoluvdi», — degan gapning uchmog‘i ehtimoldan xoli emasdi.

Toshbolta azoblar iskanjasida yotganida Nafisa ko‘rindi.

«Qizim, jon qizim, kel, sen qutqar bu azoblardan».

«Qanday qutqaray? Bu azoblarni men bermadim sizga, men qutqara olmayman».

«Buvning meni beto'xtov qarg'ayaptilar. «Seni Xudo urdi», — deb quvonyaptilar. Men Xudoga nima yomonlik qildim. Mendan besh battarlari ham yuribdilar-ku, yallo qilishib? Bittagina aybim — onangni urganim. Undan keyin men ham odamga o'xshab yashayin deb harakat qildim, xolos. Boshqalar yeb-ichib, maishat qilib qornini silab yotganida, men och-nahor yashashim kerakmidi? Nima, nafs bitta menda bormidi? Nafsi o'pqonlar-chi? Qani, gapir, nega jim turibsan?»

«Dada, men nafsni o'lchaydigan tarozibon emasman. Mening bilganim — bizlarni shu nafs sharmanda qildi».

«Sharmanda qildi? Tirikligingda ham shunaqa devding. Sharmandalik nima o'zi? Ko'zga ko'rinnmasa, qo'lga ushlab bo'lmasa, yeb bo'lmasa, kiyib bo'lmasa... Odamlarning gapimi? O'shanda ham aytuvdim, hozir ham aytaman: tupurdim o'sha odamlarning o'zlariga ham, gaplari-ga ham!»

«Dada, unday demang, shu odamlar erta-indin sizni ko'tarib mozoringizga olib borishadi».

«Baribir tupurdim! O'lGANIMdan so'ng ko'tarib olib borishadimi yo hojatxonaga tashlab yuborishadimi — menga baribir. Sen, qizim, buvingga tayinlab qo'y: hadeb meni qarg'ayvermasinlar. Uch-to'rt kun bo'lsa ham tinch yashay. Kelsang o'zing kel, buving kelmasin. To'xta, buvingga qo'shilib sen ham meni qarg'ayotganing yo'qmi?»

«Nimaga qarg'ayman, dada?»

«Tursunaliga ro'para qilganim uchun-da. Lekin sen bilib qo'y: bu mening kallamdan chiqqan aql emas edi. Alvasti o'gay onang aytuvdi, men laqmaga ma'qul keluvdi. Qarg'asang o'shani qarg'agin. Lekin... o'zing ham Tursunalini yaxshi ko'rarding-ku, a?»

«Yaxshi ko'rardim, dada».

«Yaxshi ko'rsang baxtsiz emas ekansan-da? Buni buvingga aytgin. Og'zimiz endi oshga yetganida, boshimiz toshga yetdi. Oxirgi marta bog'ga borganimiz esingdami? O'choq tagidan topgan taqinchoqlarimiz esingdami? «Qorashaqshaq» buni boshqacha tushunibdi. Yangi direktor bilan o'ynashib, shuning haqqiga olgan, deb o'ylabdi u haromi. Seni fohisha deb hisoblaydi. Senga avvallari

aytmovdim, dardim ichimda edi. Menga tegmasidan avval o'zi shunaqa bo'lgan. Shuning uchun boshqalarni ham o'ziga o'xshatadi u haromi. Qarg'asang o'shani qarg'a. O'choq tagidan topgan taqinchoqlarni taqib oluvding. O'lib yotganingda qarasam, ziraklaring ham, uzuklaring ham yo'q. O'zing olib qo'yganmiding yo... ering olib qo'yuvdimi?»

Nafisa bu savolga javob bermay ma'yus tikilib turaverdi.

«Bilmaysanmi? Unda seni o'ldirgan odam olib qo'ygan. Nafis, qizim, ayt, seni kim o'ldirdi? Yoningdag'i yigit kim edi? Faqat «O'ynashim edi», demagin. Men ishonmayman. Sen unaqa shilta emas eding, qizim. Seni ering o'ldirmagan, undan gumonim yo'q. Agar u o'ldiradigan bo'lsa, Tursunalini o'ldirardi. U Tursunalini yaxshi ko'rishingni bilardi. Bir marta mast bo'lvolib menga yig'lagan, senga aytuvdim. «Tursunali bilan uchrashmasin», — deb yalingan. O'ldiradigan odam bunaqa bo'lmaydi. Unda kim o'ldirdi seni? Karvon bormaganmidi uyingga? O'choqni buzgan kunim bir nimani sezib is olganday bo'luvdi. Meni ko'rolmaydi u nokas. Bog' qorovulligini mendan olgunicha atrofimda itpashshadek aylandi. Keyin-keyin qiliq chiqardi. Mening gumonim o'shanda. Sayfini tanirding, a? Yettinchi bo'limning boshqaruvchisi. Sengasovchi qo'ydirganida unamaganman, esingdam? O'sha Tursunali bilan gap talashib qolganida Karvon: «Sen hali xo'jayinga gap qaytaradig'on bo'p qoldingmi?!» — deb itday po'palab tashlovdi. Men o'rtaga tushmasam o'lib ketardi bola bechora. He, at-tang... shu gaplarni milisaga aystsam bo'larkan...»

Nafisa otasining gaplariga e'tibor bermay tisarila boshladi.

«Qizim, ketma, sen kelib, azoblarim sal nari bo'lyatuvdi. Meni qutqar, qizim...»

«O'zimning azoblarim o'zimga yetadi, dada».

«Azob? Qanaqa azob? O'lgan odamda qanaqa azob bo'ladi? O'lim hamma azoblardan qutqaradi-ku?»

«Yo'q, dada, o'lim siz bilan men uchun azoblarining boshlanishi...»

«Unday dema...»

«Yaqinda o'zingiz ko'rasiz...»

Shunday deb ko'zdan yo'qoldi. Toshboltaning qulog'iqa azobli faryod ovozi eshitilib, atrofiga alang-jalang qaradi. Is bosgan ayvon shipi, bo'yog'i ko'chgan ustundan boshqa hech nima ko'rinnadi.

Kimdir ingradi... Kimdir oh urdi...

POKLICK

— Qo'lingni ko'tar! G'iring desang, otaman!

Gardaniga sovuq bigiz uchi tiralganday bo'lib, Omonulloning eti bir seskandi. Lekin tanish ovoz uni jilmagan tarzda orqaga o'girilishga majbur etdi. Sinfidosh do'sti Safarning qilig'i unga ma'lum: poylab turib, orqadan pisib kelib, shunaqa deyishni yaxshi ko'radi.

— Otadigan odam to'pponchani biqinga tiraydi, qalamni gardanga sanchmaydi, harif! — dedi do'stining qo'lini ehtiyotlik bilan qayirgan bo'lib. Keyin ularning harakatini kulimsirab kuzatayotgan navbatchiga qaradi:— Meni «shoshilinch tarzda yo'qlayotgan xotin» shumi? Serjant, bu yolg'on uchun nima qilaman, bilasanmi?

— O'zimizning akaxonimiz-ku?

— Bo'ldi, ukaxonga sasima. Sen kapitan bo'lsang, men — Nishonovman! «Nishonov» deganda hozir kapitan tugul generallaringning ham ichi o'tib ketadi. Bo'ldi, yur, ketdik.

— Qayoqqa?

— Bugun qanaqa kun? Ikkinci payshanbami? Ikki marta shtrafga tushib turibsan o'zing.

— Yo'g'-e?

— Ha-ye! Endi seni himoya qilmayman. Bolalar po'stagingni qoqib olishadi.

— Avvalgi «gap» kuni kasal edim.

— Kasal-pasaling bilan ishimiz yo'q. Ahmadjon nima degan? Kasal tugul o'lib qolsang ham o'ligingni «gap» bo'layotgan uy yonidan olib o'tishlari kerak. Ketdik.

— Ishim bor.

— Ish-pishing bilan ishim yo'q. Serjant ukaxon, xo'ja-

yinga aytib qo'ying: o'rtoq Safar Nishonov shaxsan kelib, muhim bir ish bilan olib ketdilar deng. Nishonovga qarshi bir nima deydigan odam hali tug'ilmagan.

Omonullo Safarning odatini biladi. Tanaga yopishgan kanani yoki zulukni olib tashlash mumkin-ku, ammo Safar bir nima deb yopishdimi, undan o'lib ham qutulib bo'lmaydi.

— Xo'p, mashinadamisan?

— Mashinadaman, xizmat bormi?

— Bor. Hozir dadamnikiga kirib o'tamiz.

— Tushunarli. Qaynonangni sog'inibsan, u yerga kirib o'tishimiz ham tayin, a? Uyalmay aytaver, men atay bir yarim soat oldin keldim. Sening qilig'ingni bilaman.

— Ertaga bo'shmisani?

— G'irt bo'shman, o'g'ri oviga olib borasanmi? Benzin topib bersang bo'ldi, dunyoning narigi chetiga ham ketaveraman.

Omonullo xonasiga kirib stol ustidagi qog'ozlarni tartibga keltirib, tortmasiga solgach, tezgina iziga qaytdi.

Tabiatan serg'ayrat bo'lgan Safar mashinani ham behalovat tarzda haydardi. Yashil chiroqning o'chganiga parvo qilmay chorrahadan o'tishi bilan yo'l harakati nazoratchisi ola tayog'ini ko'tarib, to'xtashga ishora qildi.

— Qizilga o'tmadim, shekilli? — dedi Safar to'ng'il-lab. — Mashinada milisa olib yurishning hech xosiyati yo'q, shunaqa ishkalga ro'para bo'laveraman.

— Naq qizilning o'zida o'tding. Men guvohman. Huj-jat ketdi, deyaver, — dedi Omonullo tegajog'lik qilib. — Ovora bo'lma, yoningni olmayman.

— Senga ahmoq odam yalinadi. Qarab tur, hozir to'xtatganiga pushaymon qildirvoraman.

Safar shunday deb mashinani to'xtatdi-yu, ammo pastga tushmay o'tiraverdi. Haydovchilarning yugurib kelib, qo'shqo'llab ko'rishishiga ko'nikkan nazoratchi biroz kutdi, so'ng mashinaga yaqinlashdi. Safar oynakni tushirib bosh chiqardi.

— Ha, ukaxon, tinchlikmi?

— Tinchlik, hujjatlariningizni ko'rsating?

— O'zing kimsan, nega tanitmaysan?

— Inspektor Nuriyev. Hujjatingiz?

— Meni tanimadingmi?

— Tanimadim, aka. Hujjatingiz? Iltimos, mashinadan tushing. — Nuriyev shunday deb Omonullo tomonga qaragan edi, u: «Bopla, qo'ymaysan!» — deganday imlab qo'ydi. Safar esa sumkasidan hujjatini olib, mashinadan tushdi. Nazoratchi hujjatlarni ko'rib chiqqach:

— Safar aka, nega qizilga o'tdingiz? — deb so'radi.

— Nima deding? — Safar shunday deb xuddi bemorni ko'rayotgan tabib kabi unga tikildi. — Men ko'k bilan qizilning farqiga bormaydigan ahmoqqa o'xshaymanmi? Menga qara, mabodo o'zing daltonik¹ emasmisan?

— Haqorat qilmang, aka.

— Vey, men seni haqorat qildimmi? Guvohing bormi? O'zing menga ikki marta tuhmat qilyapsan. Men seni daltonik dedim. Bu so'kish emas, ma'nosini xo'jayiningdan so'rab ol.

— Aka, nima desangiz deng, qizilga o'tdingiz. Protokol yozaman.

— Uka, sen hujjatni ko'rtingmi?

— Ko'rdir.

— Familiyani ko'rtingmi? Familiyani?

— Ko'rdir.

— Nima deb yozibdi?

— Nishonov.

— Nima degani bu?

Serjant bu mahmadona odamning: «Nishonov respublikanining kattasi, men esa uning urug'imani», — demoqchi bo'layotganini anglasa-da, sir boy bermadi:

— Bilmayman, Nishonboy akaning yo o'g'li, yo nabirasi deganidir-da, — deb Safarning hafsalasini pir qildi.

Safarning doimiy quroli ish bermay, Omonulloga qarab qo'ydi-da, endi boshqa tomondan hujumga o'tdi:

— Mashinadagi akangni taniysanmi?

— Tanimayman. Protokol tuzaman, — Nuriyev shunday deb qog'ozlarini chiqardi.

— To'xta, hovliqma, anavi akang o'zlarindan, pod-

¹ Ranglarni farqlay olmaydigan odam.

polkovnik. Mening qiz o'rtog'im bo'ladi. Vey, Omon, tush bu yoqqa.

Omonullo kulimsiraganicha tushib, nazoratchi bilan ko'rishdi.

— Starshina, sigaretdan oling, — dedi bir ko'zini qisib qo'yib. Chekmaydigan Safar ham nazoratchi uzatgan sigaretdan olib labiga qistirdi. Omonullo starshinaga o't tutib, so'ng o'zi ham tutatdi-da, Safarga qaramadi. — Starshina, siz haqsiz: bu o'rtoq chindan ham qizilga o'tdi. Agar protokol yozmasangiz, o'zingizdan ko'ravering. Bu o'rtoq ikki marta aldayapti: men podpolkovnik emasman.

Omonullo ko'z qisib qo'ygani bilan bu gaplarning hazilmi yo chin ekanini anglay olmayotgan nazoratchi Safarga ajablanib qaradi.

— Omon, qo'y bu gaplarni. Podpolkovnik bo'lmasang mayordirsan, mayor bo'lmasang kapitansan. Lekin mening nazarim tushgan bolasan. Podshozodalarning nazari tushgan milisa erta-indin general bo'lib ketadi. Sen bu bolalarga hazillashma, bular hazilni tushunishmaydi.

— Nimasi hazil ekan? Qonun hamma uchun bir. Qoidani buzganidan keyin jazosini ol.

— Shunaqami? Buvam rahmatli: «Milisadan oshnang bo'lса, yoningda oyboltang bo'lsin», — deganlarida ishonmagan ekanman, — dedi Safar piching ohangida.

— Ikkita oshna o'zlarining kelishib olaveringlar. Men protokol yozaman, — dedi nazoratchi.

— Ha, yozing, — dedi Omonullo atay qitiqlab.

— Yozsinmi? — dedi Safar po'pisa ohangida.

— Yozaman, aka, oshnachilik o'z yo'lliga, ish o'z yo'lliga.

— Bo'lmasa, ma! — Safar shunday deb unga mashina kalitini uzatdi. — Xo'jayiningga berib qo'y. Mashinani shaxsan o'zi olib borib beradi.

Nazoratchi kalitni oldi-yu, savol nazari bilan Omonulloga qaradi. Omonullo yana ko'z qisib qo'yib, sigaretni tutataverdi. Safar esa: «Qo'ying, aka, hazillashdim», — degan lutfni biroz kutib, labiga qistirig'lik tutatilmagan sigaretni chetga uloqtirdi-da, qo'l siltaganicha nari keta boshladi. Shundan so'ng Omonullo o'zining

guvohnomasini ko'rsatib, uzr so'ragach, mashina hujjatlari bilan kalitni olib, haydovchi o'rindig'iga o'tirdi. Safar o'n besh-yigirma qadamcha yurib to'xtab, o'tayotgan mashinalarga qo'l ko'tara boshladi. Omonullo undan uchto'rt qadam o'tib mashinani to'xtatdi-da, pastga tushib so'radi:

— Akaxon, qaysi tomonga borasiz? Yo'l-yo'lakay bo'lsa olib ketay, harna benzin puli chiqsin.

— Ukaxon, katta xolangiznikiga ketyatuvdim, naq yo'limning o'zi, — Safar shunday deb to'ng'illadi-da, haydovchi yonidagi o'rindiqqa o'tirdi.

— Sariqmassan-ku, buncha tutab ketding? — dedi Omonullo mashinani yurg'izgach.

— Hazil deb gapiroverasanmi? GAI hazilni tushunadimi?

— Unaqada o'zing ham katta ketma.

— Katta ketib nima debman?

— «Senga yalingan — ahmoq», degan kim edi? Endi ahmoqligingni tan oldingmi?

— Seni oshnam deb yurgan odam ahmoq bo'lmay nima bo'lardi?

— Bo'pti, ming'illama. Bir joyda zo'r pivo bor, olib boraymi?

— Pivoning dodaxo'jasini hozir borib ichasan. Bavariyanikidan topib qo'ygan.

Pivo bahonasida chalg'igan Safar arazni unutdi. Omonulloning tutingan otasinkiga borishgach, u: «O'zing kirib chiqaver», — deb mashinadan tushmadi.

Ikki tabaqali eshik qiya ochiq edi. Omonullo qo'nig'iroq chalib o'tirmay ichkari kirdi. Uch oyoqli kalta narvon ustiga chiqib olib gilos terayotgan Bobomurod Omonullo ovoz bermaguniga qadar uning kirib kelganini sezmadni. Omonullo ana shundan ajablandi. Tabiatan sezgir bo'lgan Bobomurod ichkari uyda o'tirsa ham ko'cha eshigi ochilganini bilardi.

Tutingan o'g'lining ovozini eshitishi bilan gilosga uzatgan qo'lini tushirib, pastga qaradi. Omonullo uning qarashida ham sustlik sezib, «Qariyaptilar», — deb ko'nglidan o'tkazdi. Otasining holatidagi o'zgarish sababini keyinroq

bildi, Omonullo so'ramasa ham Bobomurodning o'zi ayt-di:

— Opangning mazasi qochib qoldi, ertalab kasalxonaga tashlab kelganman. Hozir yana ketaman. Kechasi yonida bo'lishim kerak. Harna dalda-da.

— Safar og'aynimning mashinasidamiz. Kuzatib qo'yamiz, — dedi Omonullo.

— E, yo'q, hali ovqat qilishim kerak. Vaqting bo'lsa, ertalab xabar ol.

Bobomurod «opang» deb atagan ayol Omonulloga yetti yot begona edi. Oxirgi marta qamoqdan chiqib qaytayotgan Bobomurod Penza bekatida g'aribgina kiyingan, sochlari to'zib, ko'zları kirtaygan ayolni ko'rib, e'tiborsiz o'tib keta olmadi. «Ruslarga o'xshamaydi-ku bu ayob», — degan o'y bilan qaraganida vagonlarga tikilib, kiprik qoqmay turgan ayol bexosdan gapirib qoldi:

— Biz uch kishi edik: Valya Namanganskaya, Gulya va men. To'g'ri, o'g'irlik qilmaslik kerak edi...

Ayolning o'zbekchalab gapirib qolishi Bobomurodni to'xtatdi.

— Singlim, sizga nima bo'ldi? — deb so'radi.

Ayol uning gaplarini eshitmadni, holatini o'zgartirmay, kiprik qoqmagan holda yana o'sha gapini takrorladi:

— Biz uch kishi edik...

Bobomurod yana qayta so'radi. Ayol o'zgarishsiz o'tiraverdi.

«O'tirib chiqqanga o'xshaydi, — deb o'yladi Bobomurod. — Boshiga urishgan bo'lsa, esi og'ib qolganmi...»

Bobomurod nima qilishini bilmay turganida militsiya mayori unga yaqinlashib hujjatlarni ko'rsatishni so'radi. Hujjatlarni sinchiklab tekshirgach, qaytarishga shosilmay, Bobomurodga sinovchan boqdi-da:

— Hamyurting, shekilli? — deb so'radi.

— Shunaqaga o'xshaydi, — dedi Bobomurod.

— Hamkasbing bo'lishi ham mumkin, — dedi mayor.

— Ha, shunaqaga o'xshaydi.

— Bu ham qamoqdan chiqqan. Ikki-uch kundan beri shu yerda. Jinnixonaga berib yuborsammikin, deb turuvdim. Agar odamgarchilik qilish qo'lingdan kelsa, o'zing

bilan olib ket. Yurtida qarindoshlari bordir. Jinnining millati bo'lmaydiku-ya, ammo xor bo'lib o'lishi yaxshi emas.

Bobomurod miliitsiya xodimlarini yoqtirmas edi, deyilsa juda yumshoq qilib aytilgan bo'ladi. O'n to'rt yoshidan beri to'rt marta qamoq lagerlarining tuzini totgan odamning nafratini hech nima bilan o'lchab bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da, mayorning hozirgi gaplari ko'ngliga yoqdi. «Nahot senda tuyg'u bo'lsa?» — degan ma'noda unga qarab oldi-da:

— Bir amallab olib ketaman, — dedi.

— Sen bu o'tirishiga qarama, saldan keyin o'ziga keldi, — mayor shunday deb hujjatlarni qaytarib berdi-da, nari ketdi.

Ayol kipriklarini pirpirata boshlagach, Bobomurod:

— Singlim, Toshkentga ketyapman, birga ketaylik, — dedi.

Ayol unga yalt etib qaradi-da, yaqin mehribonini ko'r-gan odamday suyunib, jilmaydi:

— Men uyimga ketaman! — deb kafti bilan burnini artdi.

Bobomurod yoshi o'ttizga yetmagan, ko'rinishidan esa elliklarni qoralagan ayolning fe'li, tabiat qanday ekanini yo'l-yo'lakay bilib oldi. Ayol miliitsionerni ko'rsa qalqib ketardi, jinoyatdan yoki qamoqdan so'z ochilsa, lablari oshkora titrardi. Bobomurod shu sababli manzilga kelgunicha ham bu mavzuda so'z ochmadi. Ayol turar joyini unutgan edi. Bobomurod hujjatiga qarab uni qishlog'iga boshlab bordi. Ayol tug'ilib o'sgan uy ostonasiga yetishganda hali shom namoziga azon chaqirilmagan edi. Bobomurod eshkinki taqillatgach, qirq yoshlardagi odam chiqib ayolni ko'rdi-yu, ostona hatlagan yerida turib qoldi. Ayol ham unga qarab kipriklarini pirpiratgancha tek qotdi.

— Sen kimsan, erimisan yo sherigimisan? — dedi uy egasi dabdurustdan.

— Eri ham emasman, sherigi ham emasman. Yo'lda uchratib qolib, qog'ozlariga qarab boshlab kelyapman. O'zing kimsan?

— Hech kimi.

- Hech kimi? Tanimaysanmi bu ayolni?
- Taniyman... — dedi uy egasi mujmal ohangda. — Men... akasi edim.
- Akasi edim? Endi-chi, akasi emasmisan?
- Ota-onam oq qilishgan, men ham oq qilganman.
- Nega oq qilasan?
- Ishing bo'lmasin, bu isqirtni ol-u jo'na bu yerdan. Isnodga qoldirma bizlarni. — U shunday deb o'girilmoqchi bo'lganida Bobomurod giribonidan oldi-da, qor-niga musht urdi:
- Menga qara, hey harom! Singlingni Penzada ko'rib qolib, yetaklab keldim. O'sha yerda bir o'ris, o'ris bo'l-ganda ham bir ment singlingga rahm qildi. Bu yerdarda xor bo'lib o'lib ketmasin, dedi. Sen nima deyapsan? Men to'rt marta o'tirib chiqqan odamman. Beshinchisida nima uchun o'tirarkinman, deb yuruvdim. Sening qoningni ichib o'tiraman, shekilli? Qani, joningni sug'urib olmasimdan ayt-chi, nima uchun oq qilgansan?
- Shaharda o'qiyapman, deb o'g'rilarga qo'shilib ketibdi. Bizlarni nomusga qo'ydi.
- Senda hali nomus ham bormi, harom! Kasal sing-lingni oq qildim deb, ko'chaga haydab qo'yib, yana no-musdan gapirasamni! Ota-onang qani?
- O'lib ketishdi.
- Qovurg'angning orasiga panjamni tiqib yuraging-ni sug'urib olgim kelyapti. Lekin shu singlingning hur-mati uchun hozircha tirik qolasan. Seni yo'qlab alohida kelaman. Nomus nima, insof nima, vijdon nima — gap-lashib olamiz. Hozir esa hamma qo'shnilaringni chaqir.
- Aka avvaliga ko'njadi, biroq yumshoq yeriga uch-to'rt tepki tushgach, buyruqni bajardi. Ayrim qo'shni ayollar toshdek qotib turgan ayol bilan ko'rishmoqchi bo'lishdi. Ba'zilari esa ostonalaridan uzoqlashmay cho'-chigan holda qarab turaverishdi.
- Qo'shnilar, bilib olinglar: mana bu harom odam aka ekan. Bu iftos odam singlisini oq qilganmish. Qamal-gan qizlar oq qilinsa, ko'chalarda xor bo'lib o'lsin, degan qonun bormi o'zi? Qaranglar, singlisi kasal. Shu ayolga bir o'risning rahmi keldi, akasining esa rahmi kelmaydi.

Endi men shu ayolning nomidan gapiraman: u akasini oq qildi, bilib qo'yinglar! Endi men unga aka, u menga singil! Omin! Fotiha beringlar!

Birov fotiha qilgan bo'ldi, birov qimir etmadi.

— Biz uch kishi edik: Valya Namanganskaya, Gulya va men. To'g'ri, o'g'rilik qilmaslik kerak edi...

Ayol bu gapni avval sekinroq aytdi, so'ng baland ovozda qaytardi-da, qah-qah otib kuldi, kulaverdi...

Bobomurod hayron bo'ldi: shu paytgacha ayol kulmagan edi.

Qo'shnilar birin-sirin uylariga daf bo'ldilar. Akaning ham qorasi o'chdi. Bir piyola choyga taklif etuvchi insof egasi topilmadi.

Qishloqdan chiqishganda qosh qoraygan edi. Bobomurod biron xonadon eshigini taqillatib boshpana so'rashni istamadi. O'z mayliga qo'yib berilgan keksa tulpor kabi yo'lning o'rtasidan asta yurib boraverdi. Ayol ikki qadam orqada, unga mutelik bilan ergashgan edi. Bobomurod ko'p zulm ko'rgan, zulm ham qilgan, oqibatsizlik tuzini totgan, o'zi ham oqibatsizlik zahrini boshqalarga yalatgan, oz bo'lsa-da mehr sharobidan lazzat olgan, oz bo'lsa-da boshqalarga ham ilingan, insonning hayvondan ham tubanroq tarzda xorlanishi mumkinligini ko'rgan, vaqtি kelsa, boshqalarga ham ko'rsatib qo'ygan odam edi. Ammo bugungiday holatni uchratish nima ekan, eshitmagan, hatto xayoliga ham keltirmagan edi.

U ham, izidan kelayotgan ma'suma ham, Bobomurodga fotiha bergenlar ham, bermaganlar ham Allohnitanishmas edi. Buning uchun ularga ayb jandasini kiydirmoq noinsoflik bo'lar. Tug'ilganlaridan to ayni damga qadar biron-bir iymon egasi Yaratgan Tangrini tanishga da'vat etmadi. Yaxshilik bilan yashaganlarga jannat eshkiali ochilajagi-yu yomonlik qilganlarga bu dunyodagi qamoqdan tashqari do'zax azoblari borligini hech kim aytmadi, tushuntirmadi. Ularning har birlari insof, vijdon, iymon, mehr-oqibat tushunchalarini o'zlaricha anglashardi. Bu dunyo sinovli dunyo ekanini, har bir harakat, har bir so'z imtihon tarozusida tortilajagini o'ylab ko'rishmagan

edi. Ayni damda zo'r bir imtihon sodir bo'layotganidan ham bu g'ofil bandalar bexabar edilar.

Qo'shnilar uy-uylariga kirkach, sodir bo'lgan voqeani o'zlaricha muhokama etib, o'zlaricha baholar edilar:

— Xudo yomon uribdi bechorani. Ota-onaning qarg'i-shi yomon-da.

— Xudo jazołabdi...

— Jazosini beribdi...

Alhol, Tangrining jazosiga uchragan kim? Ayolmi, akasimi yo shu qo'shnilarmi? Vallohi a'lam bissavob...

Yo'lda borayotgan Bobomurod bularni o'ylamaydi. Ruhoniy masalalar, ruhoniy hukmlardan uzoq bo'lgan bu odamning o'z dunyosi, o'z o'Ichamlari, o'z hukmi, nihoyat... hukmning ijrosi bor. U: «Xudoga soldim», «Bir kunmas, bir kun ularni Xudo uradi» yoki «Xudoyim, o'zing jazolarini ber», — deb o'tirmaydi. Masalani o'zicha osongina hal etadi: o'zi hukm chiqarib, o'zi ijro etib qo'ya qoladi. Hozir ham shart iziga qaytgisi, akaning yuragini sug'urib olgisi, bu bemehr yurakni itlarga tashlagisi keldi. Juda-juda istadi shunday qilishni. Biroq og'ir-og'ir qadam tashlab kelayotgan chorasisiz ayolning qismatini o'ylab, o'zini bosdi. Hozir qaytib akani chertscha ham qamalib qolishi oqibatida ayol ko'chada xorlanishi yoki jinnixonada azob chekib yotishi mumkinligini u bilardi.

Tuni bilan yurish foydasizligini anglab, tashlandiq shiypon yaqinida to'xtadi. Biroz o'ylanib turgach, shiyponga qarab yurdi. Xas-xashaklarni oyog'i bilan sidirib tozalagan bo'ldi-da, o'tirdi. Ayol Bobomurodga yaqin kelishdan qo'rqqandek shiypon yonida turaverdi. Bobomurod avvaliga indamadi. So'ng:

— O'tir, — deb qo'ydi.

Ayol taklifni eshitmagandek tek turaverdi.

— O'tir, singlim, — dedi Bobomurod yumshoqroq ohangda. — Ertalabgacha dam olamiz shu yerda.

Ayol go'yo shiyponni qimirlatib yubormay debmi, ehtiyyotlik bilan qadam bosib chiqdi-da, nariroqqa borib cho'nqaydi.

— Endi men akangman. Endi sen xor bo'l maysan. Sen

ulardan ranjima. Ular o'g'rini odam o'mida ko'rishmaydi. Men esa ularning o'zlarini odam qatoriga qo'shmayman.

— Men o'g'ri emasman!

Sekingina aytilgan bu so'z aslida qalbning portlashidan hosil bo'lgan nido edi. Bu uchtagina so'z ko'p yillik g'am-anduhlar zanjirini uzib tilga chiqqan edi. Bu gapni uyi oldida akasiga aytmoqchi edi. «Baribir ishonmaydi», — deb aytmadidi. Yangi akasiga aytdi. Qonsiz lablardan uchgan bu so'zlarni Bobomurod eshitdi.

— O'g'ri emasligingni bir qarashimdayoq bilgaman, — dedi u. — O'g'ri bo'lganiningda seni yetaklab yurmas edim, o'zingni o'zing eplarding. Sendan yashirmayman: men o'g'riman. To'g'rirog'i, o'g'ri edim. Qamoqda ont ichdim: bu hunarni tashlayman. Mening bir o'g'lim bor, shu yurishim bo'lsa, uni baxtsiz qilib qo'yaman. U yaxshi bola... endi u sening jiyaning. Sen hali yoshsan, singlim, hadeb siqilaverma. Siqilgan bilan birov senga rahm qilmaydi. Undan ko'ra mazza qilib yashayvergin-u odamlarning gaplariga ham, qiliqlariga ham e'tibor berma. O'ylab ko'r-chi, seni o'g'ri deganlarning o'zları tozamikan? Agar tozasi shunaqa bo'lsa, nahs bosgani qanaqa bo'larkan? Biz endi bir-birovimizga suyanib yashaymiz. Bu ham katta bir baxt. Dunyoda suyanchig'i yo'q yakkamoxov odamlar tiqilib yotibdi.

Bobomurod shu gaplarni aytib ancha yengil tortdi. Ayol esa unga javob qaytarmadi.

Qorong'i osmonga yulduzlar toshib, samo husnini bezadi. Bobomurod jag'ini tizzasiga tirab bu mo'jizaga boqdi. Yulduzlar — sayyoralarmi yo katta-kichik samoviyl jismlarmi — u bilmaydi. Unga ma'lumi — yulduz uchgani kimningdir joni uzilganidan nishona. Hali o'zini tutolmay, akani o'ldirib qo'ysa, hozir bitta yulduz uchgan bo'larmidi... «Nahotki hammaning joni shu yulduzlarda bo'lsa? — deb o'yladi u. — Nahotki iflos odamlarning ham joni shunday beg'ubor, shunday pokiza osmonda bo'lsa? Bunaqa odamlarning joni hojatxonaga tashlansa, hojatxona ham bulg'anadi... Yo'-o'q, yulduzlar odamlarning joni emasdир. Balki... shu ayolga o'xshab xo'r-

langanlarning ko‘zlaridagi yosh osmonga uchib, yulduzlarga aylangandir... Qiziq... bu nima uchun yig‘lamaydi? Shuncha gapdan keyin ham yig‘lamadi. Yig‘lasa bo‘lardi, yengil tortardi...»

— Singlim, sen mendan tortinma, yig‘laging kelayotgan bo‘lsa yig‘layver. Erkak bo‘lsam ham ba’zan yig‘lagim keladi...

Ayol javob bermadi.

Tun yarimlaganda Bobomurodning uyqusи keldi. Tizzasiga bosh qo‘yanicha mizg‘idi. Besh-o’n daqiqadan so‘ng cho‘chib uyg‘ondi-da, «Ketib qolmadimikan?» — degan xavotirda ayol tomon qaradi. Ayol toshdek qotib o‘tirardi. Bobomurod bir necha marta mizg‘idi. Har safar cho‘chib uyg‘onib, xavotirlangan tarzda ayol tomon qarardi.

Tongni shu zaylda qarshi oldilar...

O’shandan beri ayol shu uyda yashaydi. Omonullo uni dastlab ko‘rganida: «Otam u yoqlarda uylanibidda», — deb o‘yladi. So‘ng boshqa-boshqa xonalarda yotishlarini bilib, muomalalarida er-xotinlik mehri yo‘qligini sezib, ajablandi. Otasidan: «Kim bu?» — deb so‘ramadi. Bobomurod esa: «Singlim», — deb gapni qisqa qilib qo‘ya qoldi. Ayolning: «Biz uch kishi edik...» — degan gaplarini eshitgach, qanaqa singil ekanini o‘zicha taxmin etdi. Taxmin noto‘g‘ri ekanini keyinroq bildi. Bir kuni Bobomurod uning tiliga chiqarolmay yurgan barcha savollariga birato‘la javob berdi:

— Men hammasini aniqladim: bu qiz bir nomardning qo‘liga tushib qolgan. Bir o‘g‘irlikni shu bechoraning bo‘yniga qo‘yib yuborishgan. Tuhmat bilan ketgan. Hammasini aniqladim, hammasi hal bo‘ldi.

Omonullo:

— Nima hal bo‘ldi? — deb so‘raganida, Bobomurod:

— Tuhmat qilganlar jazolarini oldilar. Bu pok ayol, istasang «amma» degin, istasang «opa», — degan edi.

Omonullo otasining ko‘ngliga qarab «opa» dedi. Ayolni har ko‘rganida unga achinardi. Keyinchalik ayolning rang-ro‘yi yaxshi tomonga o‘zgardi. Chehrasida yoqimli nur ham paydo bo‘ldi. Lekin «Biz uch kishi edik...»

boshlanganida betlari birdan qorayib, ko'zlaridan nur qochib, xunuk holatga kelib qolar edi.

Bu ayoilning kelganiga o'n ikki-o'n uch yil bo'ldimi yo undan oshdimi, Omonullo aniq eslolmaydi. Qamoq-daligida: «O'g'lim, bundan bu yog'iga faqat sen bilan birga bo'laman», — deb xatlar yo'llagan odam ayoilning atrofida parvona bo'lishdan ortmay qoldi. Ayol ko'p ga-pirmasdi, ovoz chiqarib kulmasdi. Bir narsadan xursand bo'lsa, salgina jilmayib qo'yardi, xolos. U jilmayganida Bobomurodning nazarida butun olam charog'onlashib ketardi. Tundlashsa, uning yuragi siqilib ketardi. Shunday paytlarda ba'zan: «Hoy, gapirsang-chi, soqov emassan-ku, axir!» — deb koyib ham berardi. Shunda ayol zaifgina jilmayish hadya etib, uning ko'ngligini ravshanlantirmoqchi bo'lardi.

Omonullo otasining bugungi kayfiyatidan sezdiki, ayoilning kasali shunchaki o'tkinchi xastalik emas. Shu bois Omonullo: «Otamga dalda bo'lar», — deb biroz gaplashib o'tirmoqchi edi, Bobomurod unama-di. «O'rtog'i bilan kelgan bo'lsa, hoynahoy, biron yoqqa ketishayotgandir», — degan xayolda: «Menga xalaqit berasan», — deb kuzatdi.

Qaynonasnikiga Safar ham kirib, bir-ikki piyola choy ichishgach, izlariga qaytishdi.

— Xafa bo'l'magin-u, og'ayni, opangni ko'rsam yura-gim siqilib ketadi, — dedi Safar mashinaga o'tirgach.

Omonullo unga bir qaradi-yu, indamadi. Safarning bu ayloga achinganidan emas, irgangani uchun kirmaganini bilardi.

Ayol bu uyda paydo bo'lganida shu atrofda yashov-chilarning ayrimlari undan hayiqishdi, ba'zilari esa ir-ganishdi. Shu ko'chada, shu uyda tug'ilib unib-o'sgan Bobomuroddan barcha hayiqardi. Qamoqdan qutulib ke-lib, keyin yana qamatib ketguniga qadar birov unga yu-rak yutib tik qaray olmasdi. Bobomurod bu mahallada birovning cho'pini olmagan, birovni chertmagan, birovni so'kmagan bo'lsa-da, «o'g'ri» degan nom bilan yurgani uchunoq hamma hayiqardi. Ayoldan hayiqishlariga sabab ham aynan shu edi. Ayol ko'chaga kam chiqardi. Chiqqan

mahalida o'ziga xavotir bilan qarab turganlarini sezsa, jilmayishga harakat qilardi. Irganayotganlarini sezsa, yuzini teskari burib olardi. Bir yili Omonullo Safar bilan kiganida opasi kasallik xurujidan endi xoli bo'lib turgan payti ekan. Esi o'ziga qaytgani bilan rangidagi tundlik tarqamagan, parishon sochlarini tarashga hali ulgurmagan ekan. O'shanda ayol Safarning qarashidanoq uning irganayotganini sezdi. Ular uyg'a kirib o'tirishgach, xonasiga o'tib o'ziga oro berdi. So'ng dasturxon tuzadi. Choy qu'yib, avval Bobomurodga, keyin Omonulloga uzatdi-da, «O'rtog'ingizga», — deb pichirlab qo'ydi. Omonullo shundan so'ng Safarning irganganini ham fahmladi, opasining odatini ham bildi.

O'shandan beri ancha yillar o'tdi. Safar bilan yana bir necha marta keldi. O'shandan beri Safar ostonaga qadar keladi-yu, ichkari kirmaydi. Har gal «yuragi siqilib ketishini» aytadi. Safar qanchalik yaxshi do'st hisoblanmasin, mana shu kabi odatlari, kibrga bandaligi Omonulloga yoqmaydi. Ba'zilar do'st tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ba'zilar esa boriga shukr qilib yuradilar. Omonullo ana shu ikkinchi toifaga mansub. Bolalar uyida orttirgan do'stlari turli tomonlarga tarqab ketishdi. Ikkitasi xastalik tufayli, uchtasi esa jinoyatchilarga qo'shilib qolib bu dunyoni tark etdi. Institutdagilar ham turli shaharlarda ishlashadi. Birining bo'sh vaqtı ikkinchisiga to'g'ri kelmagani uchun ham kam uchrashishadi. Oyda bir uchrashib turadigani — shu sinfdoshlari. Xudo unga sinfdoshlarni tanlab-tanlab bergen. Kibrli, xudbin, dardi mol-dunyo bo'lgan bolalarning bir sinfga qanday jamlanib qolganini Yaratgan bilmasa, bandasi bilolmaydi.

Bularning ichida xokisori ana shu Omonullo edi. Bolalik chog'lari sinfdoshlar uni oshkora tarzda mensishmasdi. Bular orasida faqat Safargina mehribon edi unga. Ota-onasi ham Omonullo kirguday bo'lsa, ko'kragidan itarmay, o'g'lining suyumli mehmoni sifatida izzat qilishardi. Maktabni bitirgach, besh-olti yilmikan, sinfdoshlari bilan deyarli ko'rishmadi. Militsiyada ishlay boshlagach, ulardan birining ishi tushdi-yu, «gap»

deb atalmish ziyofatga chorlanadigan bo'ldi. O'shandan beri har oyning ikkinchi payshanbasida ular bilan «gap yeydi». Garchi ular bilan mактабда birga o'qigan bo'lsada, o'zining bu davraga begonaligini his qilib turadi. Ularning yashash tarzlari, dunyoqarashlari, fikrlarini hazm qila olmaydi. Ayniqsa, keyingi paytlarda o'zini tortishga bahona qidiradigan bo'lib qolgan. Davrada holahvol so'rashayotganida: «Bola-chaqalar omonmi?» — deyilganida uning yuragi uvishadigan odat chiqargan. O'rtoqlari unga: «Xotining nega tug'mayapti?» — deb dashnom berishmasa ham, shu savol ko'ndalang turganday o'ng'aysizlanaveradi. Ayrimlar beixtiyor ravishda, savolni kimga berayotganini, oqibati nima bo'lishini o'ylab ko'rmagan tarzda: «Bola-chaqalar qalay?» — deyishganda Omonulloning yuragidan bir tomir uzilganday bo'laveradi.

Hozir Omonullo ruhini temir iskanjaga oluvchi dava sari borardi. Safar o'zi kelmay, telefonda eslatganida bormaslikning chorasini topardi. Otasinikiga kelgunicha do'stiga qitmirlik qilib, ko'nglini xushlamoqchi edi. Safarning «yuragi siqliganini» eshitib o'zining ham ko'ngli xufston pardasiga o'rala boshladi. Tumtayib olmasa-da, gapirgisi kelmadi. Safar unga qarab-qarab qo'yib:

— Menden xafa bo'ldingmi? — dedi uzrli ohangda.

— Sen xafa bo'lishga arziydigan odammassan, — dedi Omonullo zardali piching bilan.

— Xo'p, hisob — bir-u bir. Arazlagan — o'g'ri, — Safar shunday deb kaftini uzatdi. Omonullo ruhsiz holda shapati urib qo'ydi-da:

— Opam kasal ekanlar, — dedi. — Ertalab kirib o'tamiz.

— Bo'pti, — dedi Safar jonlanib. — Zo'r kabobning o'g'il bolasi mendan.

— Kabob yemasalar kerak. Reanimatsiyada ekanlar.

— O'zлari yemasalar do'xtirlar yeyishadi. Do'xtir-larning to mog'ini yog'lab tursang, yaxshiroq qarashadi. O'zingdan ibrat olmaysanmi? Do'xtir nima-yu milisa nima? Milisani moylamasang — qamoqqa jo'natadi, do'xtirni moylamasang, undan ham battar — narigi dunyoga

jo'natadi. — Aytgan gapi Safarning o'ziga xush yoqib, huzurlanib kuldii. — Gapim yoqmasa ham ko'ngil uchun salgina tirjayib qo'y, hey «kayfitang».

Yo'lning qolgan qismi Safarning mazali-mazasiz, yojimli-yoqimsiz hazillari bilan bosib o'tildi. «Gap» deb atalmish ziyofatga barvaqtroq borib qolishgan ekan, Safar maqtagan pivoning «dodoxo'jasii»ni ichib rohatlanib o'tirishdi. Uy egasi paytdan soydalanib o'zini qiziqtirgan siyosiy masalalarini oydinlashtirish maqsadida Omonulloni gapga soldi:

— «Vremya»ni ko'rdingmi, Berlin devorlarini yiqitishibdi-ya! — dedi ajablangansimon. — Men bultur boruvdim o'sha yerga. Zo'r do'konlari bor edi. Ular ham ketganmikan?

Omonullo darrov javob bermadi. Pivoni simirib unga qarab oldi. Berlin devorlarining yiqilishidan, yarim asrdan ziyodroq ayri-ayri yashagan xalqning qo'shilishidan dunyo nima tashvishda-yu, nima quvonchda? Buning g'ami esa devorga yaqin yerdagi mayda do'konlarda.

— Devorni nimaga buzishyapti, bilasanmi o'zing? — dedi Omonullo g'ashlangan tarzda.

— G'isht-pishti kerak bo'lib qolgandir yo paxsa devor ekanmi? — dedi Safar qitmirlik bilan.

— Sen jim tur, — dedi uy egasi uni jerkib, keyin Omonullo qarab yelka qisdi: · Shunga hayronman. Tuppaturuzuk baland devorlar edi.

— Kallani ishlat: o'sha yerda ko'rgan do'konlaring kichiklik qilib qolibdi. Devorni buzib, o'mniga katta do'konlar qurishadi. Ikkita eshigi bo'ladi. Bir tomondan g'arbiy berlinliklar kiradi, ikkinchisidan sharqliklar.

— Gapni ham ezvorasan-da, a? Vey, milisa bo'lmasam ham u-buga aqlim yetadi. G'arbiy Berlinni uzoqdan bo'lsa ham ko'rganman. U yodqa zo'r «importniy» mollar bo'larkan. Ana endi boradigan bo'ldi Berlinga.

Ulfatlar birin-sirin kelishib, «Berlin devori» masalasi surildi. Buning o'mniga «besh yuz kun» deb nom olgan iqtisodiy reja muhokama qilinib, bu reja eski shahardagi go'sht bozori talablariga javob berolmagani uchun inkor etilgach, somsalarni yeb, sho'rvalarni ichishdi-yu:

— Qani, ko‘mirxonaga o‘tdik, — degan taklif bilan dasturxonadan picha uzoqlashib, uy burchagida davra qu-rishdi.

«Ko‘mirxona» — qimor o‘ynaladigan joy. Bir-biriga ahil, bir-biridan jonini ayamaydigan do‘sstar besh-o‘n tiyin tikishdan boshlab so‘mlarga o‘tadilar. «Ko‘mirxona»da faoliyat boshlamay turib bir-birlarining hatto necha yuz so‘mlik qarzlaridan kechib yuboradigan mard, mehribonlar qimorda o‘n-yigirma tiyin ustida so‘kishib, yoqa bo‘g‘ishib ketadilar. «Gap»ga kechikibroq kelgan do‘sstariga: «Qalay, yaxshimisan?» — deb o‘tirgan yeralarda qo‘l uzatib qo‘ya qoladilar. «Bola-chaqa yaxshimi?» — deb hol-ahvol so‘rashga fursatlari ham, farosatlari ham yetmaydi. Omonullo qartaga usta bo‘lgani uchun «ko‘mirxona»dan umrbod badarg‘a qilingan. Qaysidir yili Omonullo Moskvaga borganida to‘rtta bir xil ko‘rinishdagi qarta to‘plami olib kelib, har bir to‘plamdagisi «tuz»larni aralashtirib tashladi. O‘ttiz oltita qartada to‘rtta o‘rniga o‘n oltita «tuz» mavjudligini «ko‘mirxona»dagilar keyinroq bilib qolishdi. Mana shu hazil bahona bo‘lib Omonullo jazolandı — o‘yindan tamoman chetlashtirildi. U hatto birovga maslahat berish huquqidan ham mahrum edi.

Omonullo, o‘yin qizimay turib, Safar bilan ertalab uchrashishni kelishib oldi. O‘yin «Sen g‘irrom qilib yutapsan», deydigan darajaga yetganda sekingina turib, chi-qib ketdi.

FITNA

(Qotillikdan avvalroq sodir bo‘lgan voqeasi)

Omonullo Berlin devorlari qismati haqida piching so‘zlarni aytayotgandan, o‘rtoqlari esa besh yuz kunga mo‘ljallangan iqtisodiy rejani inkor qilib o‘tirishgandan ancha ilgari, tunda, qamoq lagerida bir fitnaga tayyorgarlik boshlangan edi.

Nuriddin o‘sha kuni uyidan maktub olib avval quvondi, keyin ko‘ngli cho‘kdi. Maktubda dilga og‘ir botuvchi satr-lar yo‘q edi. Qishloqdagi hammaning sihat-salomatligi ha-



qida yozilib, oxirida: «O'rtog'ing Sherdor uylanyapti», — degan xushxabar aytilgandi. Nuriddinning nazarida shu xushxabar botinida onasining armonlari yashiringanday bo'ldi. Harbiyga ketayotgan paytida onasining ma'yus uzori yana ko'z oldida gavdalandi. Nuriddinni sakkizinchisinfidan so'ng o'qitishga qo'llari kaltalik qildi. Harbiydan olib qolishga esa undan-da kaltalik qildi. Shunda ham noshukur bo'lmay, umid bilan kuzatgan edi. «Birortasini xushlab qolgan bo'lsang aytib ket, unashtirib qo'yay, kelishing bilan, Xudo xohlasa, to'y qilamiz», — degan edi. Nuriddinning xushlagani bor bo'lsa-da, onasiga dadil aytishga jur'ati yo'q edi. O'rtoqlari birin-sirin uylanyapti. Har birining to'yida onasining yarasi yangilanadi. Nuriddin onasining shu holatini ko'z oldiga keltirib, ezildi. Barcha uyquga ketganida ham u mijja qoqmay yotdi. Tun yarimlaganda mizg'iganday bo'ldi. Tush ham ko'rdi, shekilli... Biroq bu tushmi edi yo ro'yomi, farqlay olmadi. Nazarida ko'zlar ochiq edi. Darbadar to'satdan paydo bo'lmadni, barak eshigini ochib kirdi-da, taxtalarni g'ijirlatib yurib kelib, uning ro'parasida to'xtadi. Ha, taxtalarning g'ijirlaganini aniq eshitdi.

— Ha, toy bola, uyqu kelmayaptimi?

Nuriddin ajablandi: uni kichikligida «toy bola» deb erkalashganini Darbadar qayerdan bildi ekan?

— Sen bunda bedorsan, yurtda esa barcha g'aflat uyunquisidadir. Ozodlik istovchi qalblar muhrlangandir. Qalblarning qullikka moyil ekanini bilurmisan, bo'tam? Uyg'onish fursati kelganini anglayurmisan, bo'tam? Yurak qonlari ila Vatan bog'in obod qilmoqni fahm etmasmisan, bo'tam?

Darbadar savollar berdi-yu, nechundir javob kutmadi. Balki Nuriddinning bu savollarga javob qaytarmog'iga aqli qosir ekanini bildimi ekan? U taxtalarni g'ijirlatib yurib kelgan edi, turgan yerida tutunga aylandi-yu shipga ko'tarilib ko'zdan yo'qoldi. Nuriddin bu sir-sinoatni tushunolmay garang bo'lib yotganida mahkumlardan biri unga yaqinlashib, yelkasidan asta turtdi-da, «Tashqari-ga chiq, kutishyapti», — deb tezgina iziga qaytdi. Nuriddin bu yerda «Kim chaqiryapti, nima uchun?» degan

savol berilmasligini bilgani sababli indamadi. Bu yerlarda chaqirildingmi, bas, chiqishga majbursan. Yaxshilik bilan chaqirilgan bo'lsang, yaxshilik bilan qaytasan, tongni o'z o'rnингda qarshilaysan. Yomonlik qasdida chorlangan bo'lsang, to'shaging yetim qoladi.

Nuriddin bir necha daqiqa harakatsiz yotgach, qad-dini ko'tardi. Barakdan sal narida, maydon chekkasidagi daraxtga suyanib sigaret tutatayotgan Tengizni tanib, xavotirsiz ravishda o'sha tomon yurdi.

— Ha, Hamzat, — dedi Tengiz uning salomiga alik olib, — uyqungni harom qildimmi?

— Yo'q, uyqum kelmay yotuvdim, — dedi Nuriddin.

— Odamning ko'ngli sezgir bo'ladi, yomonlikni tez payqaydi.

— Yomonlikni? Qanaqa yomonlikni?

— Bu yoqqa yur, — Tengiz shunday deb uni barak-ning chiroq nuri tushmaydigan qorong'i tomoniga boshla-di. — Bir fitna tayyorlanyapti. Yomonlikni bizning qo'li-miz bilan amalgalashmoqchi.

— Birovni o'ldirish kerakmi?

— Birovni o'ldirish uchun bosh qotirib fitna yasash shart emas. Bir janjalning uyasini kovlab berishimiz kerak.

— «Biz» deganingiz kim?

— Sen, men, mening atrofimdagilar, yana besh-oltita ahmoq. Bir-ikki kun ichida Yanis amakingga o'xshab Boltiq bo'yalaridan kelganlar yoppasiga do'pposlanishi kerak. Ular ham kaltak yeishlari kerak, ham janjal bosh-lagan, degan aybni bo'yinlariga olishlari shart. Balki biz tomonidan odamlar yaralanar, balki o'lar. Menga aniq ay-tishmagan bo'lsa ham ko'nglim shuni sezib turibdi. Agar ko'nglim aldamasa, odam o'ldirilsa, eng avvalida Yanis amaking ketadi.

Tengiz «Yanis amaking» deb aytayotgan odam bilan Nuriddin ko'pincha birga ishlardi. Tursunalidan be-zib, uzoqlashgan paytda unga shu muloyim odam bilan sherik bo'lib ishslash ma'qil kelib qolgan edi. Yoshi oltmishdan oshib, kuchdan qolgan, ba'zan xastalik xuruj qilganda azob chekuvchi bu odam o'zini mehnatdan olib

qochmasdi. Imkoni boricha o‘z vazifasini bajarishga intillardi. Nuriddin ko‘maklashmoqchi bo‘lganida: «Har kim o‘z aravasini o‘zi tortishi kerak», — deb unamas edi. Ana shu beozor odam nima gunoh qilibdiki, uni do‘pposlashsa, so‘ng esa «qotil» degan tuhmat bilan ayplashsa...

— Gapimga tushunmading-a? — dedi Tengiz. — Sen juda xomsan, bola. Ha, xomsan! Yanis amaking nima uchun qamalgan, bilasanmi?

— Ha, ishxonasida elektr choynakdan o‘t chiqqan ekan...

— Bu bir bahona, Hamzat. Yanis amaking aslida siyosiy mahkum. Lekin bizning «erkin va ulug‘» sovetlar mamlakatidan siyosiy qarashlar uchun qamash mumkin emas. Uning tajribaxonasiga o‘t qo‘yishib, tuhmat bilan qamashgan. Aslida u zo‘r fizik olim bo‘lgan. Vatanini ruslar bosib olganini ochiq aytgan, xalqini ozodlik yurishiغا da‘vat etgan. Mana, sening ham, mening ham yurtimni ruslar bosib olishgan. Biz shuni ochiq ayta olamizmi? Yo‘q. Mayli, men bir o‘g‘riman, bunaqa gaplarga aqlim yetmas. Sen ham g‘o‘rsan, yoshsan, ilmi yo‘q bir qovoq kallasan. Seni ham ayblab bo‘lmaydi. Lekin olimman, zo‘rman, deb kerilib yurganlarimiz aytishadimi? Yo xalqiga yuzlanib, turlaring, ozodlik uchun kurashinglar, deydimi? Shuning uchun ham Yanis amakingni hurmat qilaman. Hozir Moskvada Yanisga o‘xshaganlar rus hukumati bilan teppa-teng olishadigan bo‘lib qolishgan. Nazarimda ular siyosiy mahkumlarini ozod etishni tabab qilishyapti. Bu hukumatni chaqayotgan eng muhim narsa — ular Sovet Ittifoqidan ajralib chiqay deb turishibdi. Moskva endi ularni shirin yolg‘onlari bilan ushlab turolmaydi. Fitnasiz ish bitirishi qiyin. Shuning uchun hamma yerda har turli fitnalar ko‘tarishga buyruq kelganga o‘xshaydi. Bu yerdagi fitna bizning qo‘limiz bilan bo‘ladi.

— Ko‘nmasak-chi? Ur, desa uraveramizmi? O‘g‘rlarning or-nomusiga to‘g‘ri kelmaydi-ku bu? Siz tomonidan xoinlik bo‘lmaydimi?

— Bu gaplarni qo‘y, Hamzat. O‘g‘rlilar hech qachon bularga xizmat qilmagan va qilmaydi ham. Gap yanislarning taqdiri ustida ketyapti. Ularni urmasak bo‘lmaydi.

— Nega? — Nuriddin ajablanganidan ovozini bir parda ko'targanini o'zi ham sezmay qoldi.

— Baqirma, — dedi Tengiz yelkasini mushtlab. — Aqlingni ishlat: biz urmasak, boshqalar o'ladigan qilib uradi. Avval menga topshirishdi bu ishni. Keyin Koshakni ham chaqirishdi. Unga nima deyishgani noma'lum. Agar yo'q, desak, payimizga tushishadi. Men-ku bundan qo'rqlayman, sendan xavotirdaman. Erta-indin muddati tugaydigan ahmoqlar bilan Koshak ishga kirishguday bo'lsa, yomon qiladi. Shuning uchun seni chaqirib aytisha, haqiqat talashma, jig'iga tegma. «Yaxshi bo'ldi, qo'lim qichib turuvdi», — deb qo'ya qol. Urush chiqsa sen Yanis amakingni urasan. Unga tayinlab qo'y, u boshqalarga aytsin, olishib, mushtlashib yurishmasin, qo'llariga hatto temir qoshiq ham olishmasin. Faqat o'zlarini himoya qilishsin, boshlari bilan biqinlarini ehtiyyot qilishsin. O'zing ham ehtiyyot bo'l. Ola-tasilda Koshakka o'xshagan bir ahmoq sengami yo mengami pichoq tiqvolishi mumkin. Angladingmi? Bor, endi uxla.

Shu gaplardan keyin odamning uyqusi kelar ekanmi? Nuriddin bir to'p chaqirtikanak ustida yalang'och yotganday qiynalib chiqdi. Siyosat bobida ongi past darrjada bo'lgan bu yigit qamoqdagi bir keksa odamning Moskvadagi hukumatga qanday yomonlik qilishi mumkinligini bilolmay garang edi. Har qanday raqib uchun, ayniqsa, siyosiy muxolif uchun odamning jismigina emas, balki fikri, ruhi ham xavfli ekanini anglash martabasiga yetmagan edi. Buni Darbadar tushunishi mumkin edi. U yo'qlik dunyosida, fikrlari esa muhojirot tuproqlariga singganicha qoldi. Faryodlarini tog'-u toshlar bag'riga ololmadi, ko'zlaridan oqqan alamli yoshlardan zamin seskandi.

Nuriddin Darbadar bilan Yanis taqdirida o'xshashlik topmadi. Zohiran shunday, u haq edi. Biroq qalblar yarasi ikkovida birday edi. Darbadar: «Oh, Vatan!» — deb jon berdi. Yanis ham shu qalb faryodi bilan bu azoblarga yo'liqdi. Endi esa yana bir do'zax azobiga hukm qilinib turibdi.

Nuriddinning izidan qarab qolgan Tengiz barakka, yotar joyiga kirmadi. Qamoq lagerining hamma uchun majbur bo‘lgan qat’iy qoidalariiga amal qilmaslik uning odatiy holi edi. Faqat o‘zi emas, balki uning iltifotiga sazovor bo‘lganlar ham bu qoidalarni buzishga haqli edilar. Ana shuning uchun ham Nuriddin tunda barakdan, kunduzi esa ish joyidan nari ketsa birov tanbeh bermasdi. Tengizning o‘ziga-ku bu yer nomigagina qamoq edi. U «o‘ziga xon, o‘ziga bek» bo‘lsa-da, bosar-tusarini bilmay qadam bosmasdi. Qamoq lageri xojalariga bo‘ysunmaganday yursada, ular tomonidan tasodifiy zarbani kutib yashardi. Bu oqshom yanislarga uyuşhtirilayotgan fitna uni sergak torttirdi. Qamoq lageri boshlig‘ining muovini chaynalib, gapni aylantirdi. «Yuqorida buyruq kelganini, bajarishga majbur ekanini» afsus bilan aytди. Aslida «yanislarga hech bir da’vosi yo‘qligini» bildirib qo‘yishni ham unutmadi.

Tengiz yuqorida buyruq kelgach, bu bechoralarning bajarishga mahkum ekanliklarini yaxshi bilardi. Shuning barobarinda «ulug‘ og‘alar»ning kichikroq xalqlar va-killariga zug‘um qilishdan lazzat olishlari ham ma’lum unga. Yanislarga qarshi fitnani ular afsus bilan emas, bil’aks, rohat bilan, bajonidil bajaradilar. Agar bu buyruq o‘zlarinikiga nisbatan bo‘lsami, chindan ham afsusda qolishlari muqarrar.

«Bugun — yanislар, ertaga kimlar? — deb o‘yladi Tengiz. — Balki mendirman, balki ozarbajjonlar...»

«Tengiz o‘limdan qo‘rmaydigan mard o‘g‘ridir», — demoqlik ta’rifning ko‘pigidi. Chunki odamga, o‘g‘rimi yo to‘g‘rimi, farqi yo‘q — jon shirin! Qamoqdamni yo erkinlikdami, yigitmi yo cholmi, farqsiz o‘laroq, yashagisi kelaveradi. Qamoq lageri rahbariyatining iltimosini qabul qilishi, Nuriddin aytganidek, u uchun isnod edi. Halollik ila mulohaza qilinsa, Murik bilan uning orasida farq chegarasi sezilmas edi. Tengiz buni bilgani uchun ham, boshqa chorasi bo‘lmagani uchun ham o‘zicha ezildi. Bu masalani «politbyuro»ga qo‘ygan taqdirda ham rahbariyatning topshirig‘ini «blatkomitet»ning ma‘qullashi aniq edi. Ular buni «hukumatga xizmat qilish» emas, «o‘g‘rilar olamini daxlsiz saqlab qolish» deb ta’riflagan bo‘lishardi.

Bu shunday g'atali olamki, uni bir qal'a tasavvur etilsa, kiraverishidagi ark peshtoqiga: «Harna qilsang qilaver va ijozatimizsiz hech narsa qilishing mumkin emas», — degan shior yozib qo'ysa ham bo'lardi. Bu olam arki juda hashamatli, fusunkor. Bokira qiz kabi o'ziga chorlaydi. Qizning husnidan bahramand bo'laman, kiraman-u chi-qaman, degan xushtor odam esa yanglishadi. Chunki bu bokira ko'rinishidagi olam eshigi bittagina. Kirmoq bor-u, o'z oyoqlari bilan yurib chiqmoq yo'q. Ortga faqat tobut ichida qaytiladi.

Tengiz bu haqiqatni avvaldan bilardi. Bu olam uning ko'zlariga bokira bo'lib ko'rinnagan. U bor fasodlarini, mavjud botqog'-u balchiqlarini bilgani holda qadam qo'ygan bu olamga. «Bir boshga — bir o'lim bo'lgach, qayerda va qanday holatda jon berishning nima farqi bor? Eng muhimi — dunyodan ko'ngling talab qilgan darajada lazzatlanasan, dunyodan o'zing istagancha qasos olasan». Tengiz kashf etgan falsafa mag'zi shu edi. Ammo bu «falsafa»ga zid o'laroq, ko'ngil o'tmish hayotini qo'msab turardi. Shunda u ikki kemaga ikki oyog'ini qo'yganday his etadi o'zini. Bu holatda uzoq suza olmasligini, g'arq bo'lajagini biladi. Bilsa-da, holatini o'zgartirmoqni istamaydi.

Tengiz kimsasiz maydon chetida junjikkanday qunishib turdi-da, to'rtinchi barakka borib, Koshakni chaqirtirdi. Koshak maykachan chiqib, Tengizga yaqinlashgach, og'zini baralla ochib esnadi. Dimog'idan ufurilgan qo'lansa hiddan Tengiz aftini burishtirdi. «Xo'jayin bo'ktirib ichiribdi-da», — deb o'ylab g'ashlandi.

— Nima deysan, Knyaz? — dedi Koshak junjikib.

— «Enze»dan ol, uyqu qochdi, — dedi Tengiz ham homuza tortib.

Koshak: «Menda yo'q», — demoqli bo'ldi-yu, Tengizning o'tkir nigohiga qarshi bora olmay, ichkariga qaytdi-da, uch kesim kolbasa bilan yarmi ichilgan aroq shishani ko'tarib chiqdi. Tengiz chindan ham ichgisi kelayotgan odam kabi shishani uning qo'lidan tortib olib ko'tardi. Koshak uzatgan kolbasani olmay «kuf» degach, labini kafti bilan artib qo'ydi.

— Koshak, ko'ngil Sochini, Yaltani qo'msayapti. Dengiz... sohil... jononlar... restoranlar... — Tengiz shunday deb yana ikki qultum ichdi.

Shu turganicha aroqni asta-sekin ichib bo'shatish asnosida gapni chuvaladi. Koshak chaqirilgan zahotiyog «Knyaz xo'jayinlarning gapini so'raydi», — deb gumon qilgan edi. Biroq uning kutgani bo'lindi: Tengiz chaqiruv sababini so'ramadi. Aroq ko'ngil taftini bosganday bo'lgach, xayrashib, o'zi yotadigan barakka qarab ketdi.

U Nuriddin kabi uxmlay olmay qiynalmedi. Aroqning quvvati allalaganday bo'lib, kipriklariga uyqu qo'na qoldi.

Nuriddin ertasi kuni chekish bahonasida dam olayotgan Yanisni kutilajak ofatdan xabardor etdi. Yanis Nuriddin kutganidek sapchib tushmadi, g'azablanmadi ham. Shimolliklarga xos sovuqqonlik bilan o'zgarishsiz o'tiraverdi. Nuriddin bu fitnada o'zining ishtirot etishi mumkinligini aytmadı. Aksincha:

— Siz xafa bo'lman, biz sizni himoya qilamiz, — deb uning ko'ngliga dalda bergisi keldi. Bu shunchaki manzirat emas, yigit qalbining ahdi edi. Uyqusiz kechgan tun uni shu qaror bilan tongga yetkazgan edi. Tengizning ogohlantirishiga qaramay, shu maqsadda to'xtaldi.

— Yo'q, Nuriddin, kerakmas, — dedi Yanis. — Qamoqda har bir odam o'zini o'zi himoya qilishi kerak.

— Odam odamga bo'ri bo'lib yashashi kerak, demoqchimisz?

— Bo'rimi... — Yanis shunday deb kulimsiradi. Uning bu nim kulgisi quvonch yeli bilan emas, afsus shamoli bilan uyg'ongan edi. — Bo'rilarni kansitma, Nuriddin, agar odamlarda bo'ri tuyg'usi bo'lsaydi, odam boshqacha yashardi.

Nuriddin Yanisning bu gaplarini fahm etmadı, tushunmaganini yashirmay so'radi:

— Odamlar bo'rige o'xshasa deysizmi?

— Ha, bo'rige o'xshasa... Bo'rilar odamlar kabi bir-birlarini g'ajimaydilar. Ular ahil yashaydilar. Ular ozodliklarini hech nimaga alishmaydilar. Bunday ahilik, bunday mag'rurlik boshqa hech bir jonzotda yo'q. Sen sirkda bo'rini o'ynatganlarini hech ko'rganmisan?

Ha, ko'rnigansan. Fildan tortib ilongacha bir luqma ovqat uchun insonlarga masxara bo'ladi. Faqatgina bo'ri bo'ysunmaydi. Sen turkiylardansan. Ajdodlaring e'tiqod qilgan ramz nima bo'lgan, bilasanmi?

Nuriddin aybdor odam kabi nigohini olib qochib, yelka qisib qo'ya qoldi.

— Qurt, ya'ni bo'ri. Turkiylar bayrog'ida bo'ri tasviri bo'lgan, deb eshitganman. Turkiylar qadimda shunday erksevar bo'lgan ekanlar. E, u zamonlar o'tib ketdi. — Yanis shunday deb xo'rsindi. — Biz ham ozodlik sevuchi xalqmiz. Men bu qamoqni nazarda tutayotganim yo'q. Mening-da, sening-da vataning ulkan bir qamoqqa aylan-tirilgan. Bizlarning yurtdoshlarimiz esa tutqunlar. Mening xalqim tutqunlikka ko'nikib yashaydigan toifadan emas. Sen hozir: «Yanis amakimga yangilik aytdim», — deb o'layapsanmi? Men shunday bo'lishini kutardim. Bugun bo'lmasa ertaga, albatta, qilishardi shu ishni. Seni bo'lmasa boshqalarni yollashardi. Nafsga qul bo'lganlar ozmi bu dunyoda?

— Men yollanganim yo'q, — Nuriddin shunday dediyu, ammo unga tik qaray olmadi.

— Men shunchaki misol tariqasida ayt yapman. Sen bilan biz ikki tomonlama mahkummiz. Bundan qutularmiz, biroq Vatan tutqunligi-chi? Sen: «Bularni nima uchun qiyasharkin?» — deb garang bo'layotgandirsan? Bilib qo'y: biz uchun dunyoda eng shirin so'z — ozodlik! Ular shu so'zni aytuvchi tillarni kesadilar. Erkin nurga tashna ko'zlarni o'yib oladilar. Bunga ajablanmaslik kerak. Axir, sen mol so'ygan qassobga qarab ajablanmaysanku? Nuriddin, sen hali yoshsan, ko'p narsalarga tushunmaysan. Tutqunlikda tug'ilganing uchun ko'zlarining ocha olmaysan. Men esam vatanimning qanday tutqun bo'lishini o'z ko'zlarim bilan ko'rdim. Bir tasavvur qilgin-a, qassob o'z onangni ko'z oldingda bo'g'izlasa... Men ana shunday odamman. O'lGANIMdan so'ng yuragimni tilib, ochishsa, qon o'mida zardob ko'rishadi. Sizlar buni «taqdir» deysizlar. Biz esa bunga murosa qila olmaymiz. Men, agar bilsang, shu azoblarga duch kelganimdan xursandman. Uyida qorin g'amida yotgan tuy-

g‘usiz odam qatoriga tushib qolmaganimdan quvonaman. O‘lib ketsam ham ranjimayman, axir, ruhim ozod tarzda qoladi-ku? Agar mening o‘limim vatanim ozodlik onlarini bir daqiqaga ham yaqinlashtira olsa ming-million martabab qayta-qayta o‘lib berishga roziman. Agar bilsang, yer yuzidagi hamma jonzotlar o‘z uyasini qadrlaydi, himoya qiladi. Biz esa... shularchalik ham emasmiz, mening armonim shu, xolos. Ovqat yeishni bilamiz, kiyinishni bilamiz, maishatni bilamiz, chiroyli so‘zlashga ustamiz, ammo Vatan qadrini bilmaymiz. Uyimizga o‘g‘ri tushsa, dod solamiz, Vatanni talasalar, indamaymiz. Sen bularni tushungin, Nuriddin. Bu yerdan chiqib borganingdan keyin sen ham qorin g‘amiga tushib qolmagin. Ular bizlarni xuddi tramvay kabi o‘z izlaridan yurmog‘imizni, ular istagan yerda to‘xtab o‘tmog‘imizni xohlaydilar. Biz tramvay emas, unutma, bizlar erkin qushlarmiz. Qani edi, burgut bo‘la olsak...

Nuriddin bu gaplarni eshitib ajablandi. Bugunmi yo erta-indinmi boshiga kulfat yog‘ilay deb turgan odam o‘z qayg‘usini o‘ylamay, shu gaplarni aytib o‘tirsa?! Kulfatni tik turib qarshi olish — mutelikmi yo mardlikmi? Alhol, Nuriddin bu savolga javob topa olmadi. Shundan so‘ng qo‘li ishda, xayoli esa Yanisda bo‘ldi. O‘zi istamasa-da, beixtiyor ravishda unga tez-tez qarayverdi. Nuriddinning holatini anglagan Yanis sir boy bermay, sovuqqonlik odatiga xilof qilmagan tarzda ishi bilan mashg‘ul bo‘laverdi. Yana bir chekish bahonasida hordiq chiqari-shayotganda:

— Sharqliklarning juda zo‘r hikoyasi bor, aytaymi, eshitasanmi? — deb qoldi. Nuriddin Yanisning indamay ishlayotganidan siqla boshlagan, hozir hikoya aytadimi yo boshqa bir balonimi, unga farqsiz, sherigi gapirsa bas edi. Shu bois: «Ayting», — deb darrov ko‘na qoldi.

— Taqdir degan bir odamning fahm-farosatda tengi yo‘q, oqlila va go‘zal qizi bor ekan. Taqdir qiziga qarab: «Aql, Davlat va Umid degan uch odamdan sovchi kelyapti, qaysi biriga rozi bo‘lasan?» — deb so‘rabdi. Shunda qiz: «Dada, Aql — insondagi eng ulug‘ fazilatdir, Aqlga suyanib turib do‘sni dushmanidan, hushyorni

devonadan farqlash mumkin. Lekin aqlning bir aybi bor: kishini chalg'itib, xatarli yo'llarga solib qo'yishi mumkin. Davlat esa ham ishbilarmon, ham hukmdordir. Lekin Davlat hech qachon hech kimga vafo qilmaydi. Men Umidni ixtiyor qilaman. Chunki Umid hech qachon Insonga xiyonat qilmaydi, undan ajralmaydi. Butun jahon undan manfaatdor», — degan ekan. Biz ham o'sha Taqdirning dono qiziga o'xshab Umidni tanlasak, adashmaymiz.

Yanisning bu gaplari Nuriddinga qiziqarli, ayni damda sirlı tuyuldi. Shu sababli yana qaytarishni iltimos qildi. Yanis ensasi qotmasdan, bu safar soddarоq qilib tushuntirdi. Garchi u Taqdirning dono qizi kabi Umidni tanladim, degan bo'lsa-da, aslida o'zi birdaniga ikki erni ixtiyor qilgan qiz kabi edi. U Umiddan avval Aqlni tanlagan edi. Aql uni shu holatga soldi, endi esa «Ko'z ochib ko'r ganim— Umid», — deb o'tiribdi.

OILA

Eshik qo'ng'irog'inining asabiy jiringlashidan uyg'on-gan Omonullo darrov soatiga qaradi. Telefon ishlamay qolgan kezlari hamkasblari yarim kechami yo erta tongmi, chaqirib kelaverishardi. U o'zi ishlaydigan sohada vaqtida hordiq chiqarish yoki bayramlarda dam olish yo'qligiga allaqachon ko'nikib ketgan. Qatorasiga ikki kun uxlamay, endi ko'zi ilinganda chorlashganida ham indamay turib ketishga odatlangan. Hozir ham tezda kiyinib, eshikni ochdi-yu, Safarni ko'rib, ajablandi:

— Ha, so'fi tahirat qilmay kelibsan? — dedi norozi ohangda.

— «Ko'mirxona»dan endi turdik. O'yin ja-a qizib ketdi. Uyga bormay, to'g'ri senikiga kelaverdim, — Safar shunday deb taklifni kutmayoq ostona hatlab ichkari kir-di. — Sen ham erkaklarga o'xshab «gap»ning oxirigacha o'tirsang, billalashib kelardik.

— Agar «gap»da o'tirishlarin hisobga olinmasa, sen-larning erkak ekanliklarini bilib ham bo'lmaydi, — Omonullo shunday deb yuvinish maqsadida yon tomon o'tdi.

— Menga qara, hov erkak, — dedi Safar, — ma, kalitni ol, xohlasang men uyingda yota qolaman, rayoningga o'zing borib kel.

— Birga boramiz, — dedi Omonullo. — Meni himoya qilasan. Mabodo seni ham o'ldirib qo'yishsa, bahonada bitta medalli bo'lib ketasan bu dunyodan.

— Sen uchun o'lish biz uchun sharaf, akovsi, — dedi Safar kinoyaga kinoya bilan javob berib. — O'lishdan oldin bir uxlab olmasam bo'lmaydi. Men mashinada yotaman, uyg'otma. Qog'oz xaltaga u-bu solib berishgan. Xohlasang ye, ich.

Omonullo yuvininib, yengil tamaddi qilib olgach, ko'chaga chiqdi. Orqa o'rindiqda ikki buklanib yotgan Safar ning xurragini tashqaridan ham bema'lol eshitish mumkin edi. Mashina o'midan siljigach, u bir silkinib, ko'zlarini yarim ochib qarab qo'ydi-yu, uyquni kelgan yeridan davom ettiraverdi.

Safarning bu qadar barvaqt kelishi, orqa o'rindiqda uxlab yotishi Omonullo uchun ma'qul keldi. Safar ko'ngliga yaqin do'sti bo'lsa-da, uning ba'zida me'yordan o'tuvchi safsatalari me'dasiga tegib ketardi. U kasalxonaga o'tib, tutingan otasining uyqusizlikdan kirtayib, qizargan ko'zlaridan opasining ahvoli uncha yaxshi emasligini tushundi. Kechki payt yana xabar olishini aytib, Matluba bilan uchrashish niyatida cho'lga qarab yo'l oldi.

Ko'chada harakat siyrak bo'lgani uchun mashinani yeldek uchirdi. U Matluba bilan bo'lajak uchrashuvni, berajak savollarini xayolida yana bir pishirib olgach, kechagi uchrashuvni beixтиyor tarzda esladi. Omonullo Adolatni kuzatib qo'ygach, doktiloskopist bilan suhbatlashib, ayrim narsalarni yanada aniqlab oldi-da, Samandar Ochilovning birinchi xotini bilan uchrashishga otlandi. Mels Xo'jayev yozib bergen manzilga borib qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Eshikni qorachadan kelgan, yuzlari lo'ppi, ko'zları kulib turuvchi istarali ayol ochdi. Pastga tushishga harakat qilayotgan jingalak sochli shiringina o'g'ilchasini bag'riga mahkam bosganicha kutilmagan mehmonga: «Keling?» — deb savol nazari bilan qaradi. Omonullo o'zini tanitgach, «Adamiz uyda yo'q

edilar», — dedi uzrli ohangda. Omonullo uyg'a kirmoqqa ijozat yo'qligini anglab, ostonada gaplashib qo'ya qoldi. Samandarning birinchi xotini tabiatan kamgapmidi yo savol-javoblarga xushi bo'lmadimi — Omonullo bilolmadi. Ayoldan ishga asqatadigan yangi gap ham ololmadi. Ajralishganlaridan so'ng bir yil o'tgach tur mush qurgan ayol birinchi erini o'shandan beri ko'rmagan, uylan-ganini eshitmagan ham edi. Ajralishi sababini esa biroz qiynalibroq aytdi. «Farzandsizlikdan...» — deb yerga qaradi. Omonullo: «Ochilov farzand ko'rolmaydigan erkak ekanmi?» — deb o'yldi. Bu o'yni o'qigandek ayol unga izoh berdi: «Farzand ko'rishdan qo'rquardilar... Urush bo'lib qolsa bolalar azoblanadi, deb cho'chirdilar. Xayollarida ertami-indimmi urush boshlanib, hamma yoqni atom bomba bosadigandek edi... Birinchi homilamni oldirib tashlatmoqchi bo'ldilar. Men unamadim. Tug'ilganida xursand bo'ldilar baribir. Lekin... xavotirlari ko'tarilmadi... Bolamizning umri qisqa ekan, atom bom-basiz ham bizni tashlab ketdi... Keyin shu masalada baribir chiqisha olmadik. O'zları juda yaxshi odamlar, chivin-ga ham ozor bermaydilar... Lekin xayollari g'alati...»

Omonullo xayrlashib qaytar mahalida ham bu gaplarni ko'p o'yldi. Bunaqa toifani uchratmagani uchun Saman-darning qilig'iga sira tushunmadı.

Hozir cho'lga, Matluba bilan uchrashuvga oshiqayot-gan damda ham kechagi suhabatini eslab, tushunishga urindi — uddasidan chiqolmadi...

Safar to manzilga qadar, to'g'rirog'i, mashina qish-loqning notekis ko'chalariga kirib chayqala boshlagunga qadar uyg'onmadi. Avval rayon vakili bilan kelgan Omo-nullo Matlubaning uyini qiyalmay topib bordi.

Maktabga otlangan bolalarini kuzatib chiqqan Mat-luba yonginasida to'xtagan mashinaga xavotir bilan qa-radi. Keyingi oylar ichi uning yuragi qush hadigi bilan uradigan bo'lib qolgan edi. Hovlidagi musichalar bexos patillab urishib ketsa ham, tomdagi mushuklar miyovlab, tunukalarini taraqlatib yugurib qolishsa ham, qo'shnining eshagi hangrab yuborsa ham bir titrab olardi. Bemahalda ko'chadan mashina ovozi kelsa, «Illoyim to'xtamasin», —

deb yurak yutib o'tirardi. Mashina to'xtaguday bo'lsa, yuragi ham urishdan to'xtaganday bo'lardi. Bu tun ko'-chalaridan ikki marta mashina o'tib uyqulari o'chib ketgan edi. O'sha vahmdan qutulmay turib, yonginasida shaharning mashinasini to'xtadi-yu, rosmanasiga cho'chitib yubordi.

Omonullo eshik og'zida turgan Matlubaga o'zini taniishga ulgurmay, Safar ham mashinadan tushib, unga ya-qinlashdi. Dumaloqdan kelgan, jingalak sochli, bo'yniga ham, o'ng bilagiga ham tilla zanjir osib olgan Safarga Matluba xavotir bilan qaradi. Safar uning xavotirli nigo-hini anglamay, tomdan tarasha tushgani kabi:

— Opa, hojatxona qayerda? — deb so'radi.

Omonullo do'stining befarosatligidan ranjib, unga no-rozi qiyofada qarab oldi-da, Matlubaga uzrli ohangda:

— Bu mening og'aynim, uzoq yo'lda hamroh bo'lib keldi, — dedi.

Matluba: «Milisaning o'rtog'i shunaqa bo'ladimi?»— deganday Safarga yana bir qarab olib, hovlisi tomon che-kindida, etak tomonni imlab ko'rsatdi.

— Avvalgi kuni ham kelgan edim, yo'q ekansiz? — dedi Omonullo.

— Ha, ha, eshitdim kelib-ketganizingizni. Men... shaharda edim. Dadamning marosimlari bor edi.

Omonullo Adolatning so'zlarini eslab, «Rostmi?» deganday qarab turaverdi.

— Keling, ichkariga kiring, — Matluba shunday deb ayvon sari yo'l boshladi.

Omonullo liqillab turgan, ammo bitta odamni ko'ta-rishga yaraydigan stulga omonat o'tirdi. Ikkinci stulni Matluba egallab, qaynonasi oldida mulzam bo'lgan kelin kabi boshini quyi egib, barmoqlariga tikilib qoldi. Omonullo esa atrofga shoshqich razm solib, «Direktoring uyi obodroq bo'lardi, mulkini musodara qilishganmi yo berkitib ulgurishganmi?» — deb o'ylab qo'ydi.

— Akamdan xat-xabar bormi, tinchmilar? — Omonullo o'zining nima maqsadda kelganini bildirib qo'yish uchun gapni shunday boshladi. Matluba esa: «Militsiya

bekorga surishtirmaydi», — degan xavotir bilan titroq ovozda:

— Kimni so'rayapsiz? — dedi.

— Xo'jayiningizni so'rayapman, — dedi Omonullo yanada samimiy ohangda.

— Xo'jayinimning yana chala ishlari qolgan ekanmi? — Matluba shunday deb unga o'g'rinch qarab oldi. — Qamasalaring ham tinch qo'ymas ekansizlar-da, a?

Omonullo Adolatning gaplarini eslab:

— Menden oldin ham so'rab kelishuvdimi? Kim edi, qachon keldi, nimaga kelishdi? — deb so'radi.

Matluba unga yalt etib qaradi-da, «Atay sinash uchun so'rayapsizmi, rostdan bilmaysizmi?» — degan savol muhrlangan nigohini unga qadadi. Matluba «so'nggi tintuv»da: «Yuragim yorilib o'lib qolsam kerak», — deb o'ylagan edi. Dastlab ko'ringanda nafratini qo'zg'atgan Xursanali o'shanda joniga oro kirgandi...

... O'shanda bolalari endigina uyquga yotishgan edi. Ko'chada, ularning darvozalari yonida mashina to'xtadi, ammo motori o'chirilmadi — g'irillab turaverdi. Jing'iroq ishlamas edi, mashinadan tushgan odam darvozani qat-tiq taqillatdi. Matluba o'rnidan turib tashqariga chiqishni ham, chiqmaslikni ham bilmay turganda tashqaridan: «Matluba!» — degan ovoz keldi. Matluba ovoz egasini tanib, ham yengillik, ham xavotir bilan o'rnidan turdi. Tashqarida sovuq izg'irin ekanini unutib, egniga paltosini ilmay hovliga chiqdi. Besabr Sarvar esa yana darvozani taqillatib, bu safar «Opa!» deb chaqirdi. U kamdan kam hollardagina «opa» derdi. Uning bu safargi lutfining sababi darvoza ochilgach bilindi: Sarvarning yonida Xursanali turardi. Begonaning huzurida «opa» deyishga majbur bo'lganini Matluba tushundi.

— Voy, tinchlikmi? — dedi u bir qadam ortga chekinib.

— Tinchlik, — dedi Sarvar ichkariga qadam bosib. — Bolalarining kiyintir. Faqat hovliqma, lekin tez bo'l. Nima gapligini keyin aytaman.

Sarvar Xursanali bilan ichkari kirdi-da, ayvon zinasiga yetganda opasidan: «Podvalning chirog'i bormi?» — deb

so'radi. «Ha», — degan javobni eshitgach, «Yoq!» — deb buyurdi.

Ayvon zinasining yon tomonidagi pastqam eshikni olib, Sarvar, ketidan Xursanali yerto'laga tushishdi. Ayvon ensiz bo'lgani uchun to'sinlarning beliga tirkak qo'yilmagan edi. Biroz egilgan holda katta uy yerto'lasiga o'tdilar: Xursanali olingan xabarda bayon qilingandek, yettiha ustun sanadi-da, o'rtasidagisiga yaqinlashib, engashdi:

— Shu yerda bo'lishi kerak, — dedi batartib terilgan g'ishtlar ustiga kaftini qo'yib. — Tesha olib tushing, opangizni ham chaqiring, tushuntirib qo'yay.

Sarvar «xo'p», deganicha shoshilib chiqdi-yu, dam o'tmay kalta soplifi eski teshani ko'tarib qaytdi. Xavotirdanmi yo sovuqdanmi titrayotgan Matluba unga ergashib keldi.

— Opaxon, xo'jayiningiz u yoqda gullab qo'yibdilar: shu ustun tagida xazina bormish.

Matlubaning xayoli yorishib, «Shu yerga ko'milgan ekanmi, aytib ham ketmabdi-ya, u g'alamis. Endi bularga yem bo'ladimi?» — degan fikr o'tdi. Tili esa:

— Xazinasini yer yutsin, — dedi.

— Xazina bo'lsa, yer yutmasin, opa. Xazina bo'lsa, odamlarning kuniga yarashi kerak. — Xursanali shunday deb gapirganicha ustunni dam yuqorisiga, dam pastiga urib-urib siljitti-da, so'ng g'ishtlarni asta ko'chirdi. Keyin ikki qarichcha qalinlikdagi tuproqni teshada tatalab chiqardi. Teshaning uchi taxtaga tekkach, tuproqni kaftlari bilan sidirdi. Hali chirishga ulgurmagan taxtaqopqoq tutqichidan ushlab ko'tardi. Keyin yana bir qarich qalinlikdagi tuproqni oldi. Ikkinci yog'och qopqoqni ham ko'targach, bir jomadon bemalol sig'adigan o'ra ko'rindi. Nomi xazina bo'lgan bu o'ra bo'm-bo'sh edi.

— Akaxonga besh ketdim: aldabdi, — dedi Xursanali qaddini ko'tarib. — Bir-ikkita harif xazinaning isini olib, pochchakamizning kekirdaklariga chang solgan ekan, shu yerda, deb gullabdi u ahmoq. Ahmoq deganimga xafa bo'lmanq, opaxon, bugun-erta xazina bor bu yerda, deb laqillab kelib qolishadi.

— Kim?

— Kimligini Xudo biladi. Lekin kelishlari aniq. Agar-da bu yerda hech narsa topilmasa, avval sizlarga qiyin bo'ladi. Akaxon esa chiqqan joylariga kirib ketaveradilar.

— Quribgina ketsin shu boyligiyam! O'lar bo'lsam o'lib bo'ldim! — dedi Matluba yig'lab.

— To'xtang, opaxon, o'lmay turing. Avval bu ishlar-ni bir yoqlik qilib olaylik. Hozir hammamiz ketamiz. Bolalaringizni ukangiznikiga tashlab, ertalab qaytib kela-siz. Sarvar ham bir-ikki kun siz bilan shu yerda turadi. Biz ham shu atrofda bo'lamiz. Ishni bexit qilish kerak. Mabodo ishkal chiqsa, o'zimiz tinchitamiz. Opaxon, mana bu suratga qarab, yaxshilab tanib oling bu ta'viyani, — Xursanali ichki yon cho'ntagidan surat chiqarib ko'rsat-di. — Chap oyog'i kaltaroq bu odamning. So'rashsa, eng avvalo cho'loqligini aytasiz. Chap qulog'ining yarmi yo'q, burni pachoq. Gapirganda pishillaydi. Nima de-ganini o'risi ham, chulchiti ham tushunmaydi. Panja-lari katta-katta, menikiga ikkita keladi. Xullas, bir kuni kechqurun shu cho'loq badbashara bostirib kirgan. Yonida bir malla xotin ham bo'lgan. Pichoq chiqarib, do'q urgan. Sizni bolalaringiz bilan birga uyga qamashgan. Podvalda bir nimalarning taqillaganini eshitgansiz. Ular indamay ketishgan. Siz podvalga tushishga qo'rqsiz o'shandan buyon. Shularni aystsangiz, bas.

— Kim o'zi bu? — dedi Matluba titroq ovozda.

— Ko'nglingiz aynisa ham bu ta'viyaga yaxshilab to'-yib oling. Uch-to'rtta suratga aralashdirib ko'rsatishlari mumkin. Tanib olishingiz shart. Adashmang. Bu odam xo'jayiningiz bilan zekvagonda birga bo'lgan. Zonaga borganda qochgan. Bu tomonlarga kelib ishkal chiqaruv-di, o'zimiz tinchitib qo'ya qoldik. Xitlar buni bilishmaydi, qidirib yurishibdi hali ham. Xazinani shu olgan, desak, siz ham tinchsiz, u yoqda akaxonga ham chivin qo'nmaydi. Biz sizni himoya qilamiz, deb shartlashganmizmi, demak, sizni chertishga birovning haqqi yo'q, — Xursanali cho'ntagidan tanga chiqarib kaftiga qo'ydi. Matluba buni avval besh tiyinlik deb o'yladi. Sinchiklab qaragan edi, Nikolay podshoning tilla tangasini ko'rdi.

— Toza tilla, — dedi Xursanali izoh berib. — Siz uchun qurban qilamiz.

Tanga o'ra ostiga terilgan pishgan g'isht ustiga tushib, jiringladi, xira chiroq nurida ojiz tovlandi. So'ng ustiga bir sidra tuproq tashlanib, qopqoqlar avvalgisiday qilib berkitildi.

— Opaxon, siz chiqib bolalaringizni kiyintiravering,— Xursanali shunday degach tuproqni tortib, oyoqlari bilan shibbaladi, g'ishtlarni batartib terdi, ustunni joyiga o'rnatdi.

Ular kutgan mehmonlar uzoq kuttirishmadi — ertasigayoq kelishdi. Lager teletaypingin tezligi shu o'rinda ish berdi. Kelganlar o'zlarini «SSSR prokuratura-sidanmiz», — deb tanishtirishdi, hujjatlarini ham ko'rsatishdi. Uyni tintishdi. So'ng: «Har ehtimolga qarshi yerto'lani ham ko'rib qo'yaylik», — deb pastga tushishdi. Matluba o'zini bosishga qancha tirishmasin, ularning maqsadlarini avvaldan bilgani uchun ham titrayverdi. «Tintunga ruxsatnomangiz qani? Ikkita xolis guvoh qani?» — degan talab esa xayoliga ham kelmadidi. U-ku xotin kishi, xavotirda o'zini yo'qotadi. Opasiga dalda berishi lozim bo'lган Sarvar ham dovdirab qoldi. Birozdan so'ng ularni pastga chaqirishdi. O'rtadagi ustun atrofini, sochilgan tuproqni ko'zdan kechirayotgan qirraburun:

— Bu yerda nima bor? — deb so'radi.

— Bilmasam, — dedi Matluba. — Qo'yadigan narsamiz ko'pam yo'q, hadeb tushavermayman bu yerga.

— Bu yer kavlangan. Nega kavlangan? — dedi qirraburun qaddini rostlab.

— Bilmadim... balki...

— Nima balki?

— Aytaverayinmi?

— Bizni chalg'itishga urinmang, biz hammasini bila-miz.

— Bilsangiz... aytmay qo'ya qolaymi?

— Bilganlaringizni gapiring!

— Bilganlarim... Ancha vaqt o'tdi-da... Kuz payti-da edi, kechasi bir erkak, bir ayol uyimizga bostirib kiri-shdi. Darvoza qulf edi, hovliga qanday tushishganini

bilmayman. Erkagi cho'loq ekan. Vish-vish qiladi, gapi-ga tushunmayman... — Shu zaylda Xursanalini o'rgatgan gaplar aytildi. Ular ishonib-ishonmay bir-birlariga qarab qo'yishdi.

— Miliitsiyaga xabar qildingizmi? — deb so'radi qirraburun. Bunaqa savol Xursanalining rejasida yo'q edi. Shu sababli Matluba dovdiradi.

— Miliitsiyaga nima uchun xabar bermadingiz? — dedi bu safar qirraburun dag'allik bilan.

— Miliitsiyaga aytsang, o'ldiramiz deyishgan, bolalarni ham... — Matlubaning tiliga kelgan bu gapdan ular qoniqishib, boshqa narsa so'rashmadi. Ularning buyrug'i bilan Sarvar ustunni chetga surdi, g'ishtlarni ko'chirdi, tuproqni surdi, qopqoqlarni ochdi. Ochdi-yu, «Agar titish-masa tanga qoladi», — deb umid qildi. Qirraburun bo'sh o'raga biroz qarab turdi-da, so'ng engashib, barmoqlari bilan tuproqni titib, tilla tangani topdi. Qaddini ko'tarmay turib tangani chiroq yorug'iga tutdi, tishlab ko'rdi. Keyin yana tuproq titdi. So'ng ketishdi. Ertasiga qirraburunning o'zi keldi. Beshta odamning suratini ko'rsatdi. Matluba Xursanalini ko'rsatganni tanidi. Tanidi-yu:

— Faqat bitta joyi o'xshamaydi, — dedi.

— Qayeri? — dedi qirraburun unga qattiq tikilib.

— Qulog'inining yarmi yo'q edi. Yo bu eski rasmimikan?

Qirraburun suratlarni cho'ntagiga solib «xayr» ham demay iziga qaytgan edi...

Hozir Omonulloning: «Kim edi, qachon keldi, nimaga keldi?» — degan savoli o'sha voqeani chaqmoq umrichalik lahzada eslashga majbur etdi. Esladi-yu, ammo sirtiga chiqarmadi: Xursanalining amrini bajardi.

Omonullo suhbatini boshlamay, Safar kelib ayvon panjarasiga o'tirib oldi. Matluba unga qarab qo'yib, o'ng'aysizlandi.

— Safar, kalit mashinada qolibdi, — dedi Omonullo ma'nodor ohangda.

Safar do'stining maqsadini anglab, o'rnidan turdi-da, ko'chaga chiqib ketdi. Ranjiganini sezdirmadi, ammo

ichida do'stini avra-astarini ag'darar darajada bo'ralab so'kdi.

Omonullo arqonni uzun tashladi. «Tursunali To'xtayev bilan qachon tanishgansiz, qachon turmush qurgansiz, bolalar...» kabi savollarga olinajak javoblar u uchun muhim emasdi. Shu sababli: «Bu ayol to'g'ri gapiryaptimi yo yo'qmi?» — deb tahlil etmadni. Matluba to'g'ri javoblardan chekinib, o'zi istagan gaplarnigina aytmoqchi bo'layotgani bilan qarmoqdagi xo'rakka aldanajagini bilmas edi. U Nafisaning o'limidan xabar topgani bilan o'zining bu fojiaga aloqador deb gumon qilinayotganidan, Omonullo aynan shu ish tufayli kelganidan bexabar edi. «Erimni qamab ham tinchishmas ekan», — degan fikr uni chalg'itib qo'ygandi.

— Savolimga javob bermadingiz, opa, mendan oldin ham birov keldimi? — Omonullo ayoldagi sarosimani sezgani uchun savolini takrorladi.

Xursanalı bo'lib o'tgan tintuvning «isini chiqarmaslik»ni tayinlagani sababli Matluba sir boy bermaslik uchun nigohini olib qochdi.

— Adamizni ushslashganidan beri nechtasi kelib, nechtasi so'roq qildi, nechtasi tintdi. Hisobi yo'q bularning. O'lar bo'lsam o'lib bo'ldim. Adamizning ayblari bor ekan, qamadilar. Bizning gunohimiz nima? Bolalarimning gunohi nimada? Aybimiz bo'lsa, bizlarni ham qamanglar, otinglar, — Matluba shunday degach, yig'lay boshladi.

Omonullo ovutishni istamay, biroz kutdi. Matluba yonog'iga yumalagan ko'z yoshlarini kafti bilan artib, xo'rsingach, so'rog'ini davom etdi:

— Tursunali aka bilan munosabatingiz yaxshi edimi?

— Bu nima deganingiz? — Matluba ajablangan holda unga tik qaradi.

— Oralaringizdan ola mushuk o'tmaganmidi?

— Ola mushuk? U kishi... bolalarimning otasi... ko'z ochib ko'rganim. Ola mushuk deganingiz hammaning uyida bor. Er-xotinning orasidan gap qochmay iloji yo'q. Savoliningza qaraganda odamlardan bir ig'vo eshitganga o'xshaysiz. Indamasangiz odamlar nimalar to'qimaydi?

— To‘g‘ri aytasiz, ba’zan odamlar ko‘pirtirib yuborishadi. Lekin... shamol bo‘lmasa daraxtning uchi ham qimirlamaydi.

— Maqsadingiz nima, ochiq aytavering?

— Tursunali aka... sizga xiyonat qilarmidilar?

Bu savoldan so‘ng Matlubanining egilgan boshi yanada egildi. Titroq barmoqlariga tikilib jim qoldi.

— Ochiq aytavering. Agar sir bo‘lsa, oramizda qoladi.

— Sir... bilmayman, odamlar ig‘vo qilaverishadi. Bolalarimning otasi, axir...

Omonullo tushundi. Tursunalining xiyonati faqat bu ayolga emas, voyaga yetib borayotgan bolalarga ham isnod keltiradi. Ayniqsa, xonadondagi qizning bo‘yi yetib qolgan bo‘lsa og‘ir, yanada og‘ir. Erta-indinsovchi eshik qoqib kelsa-yu «Otasi buzuq ekan», — deb iziga qaytsa naqadar fojia... Xiyonatdan xabar topgan ayol qanchalik qonsiramasin, farzandlari taqdirini o‘ylab, dardini ichiga yutadi.

Omonullo iztirob cho‘g‘lari ustida o‘tirgan ayolni qiy-namaslik uchun muddao o‘qlarini aniq nishonga ola qoldi:

— Nafisa Boltayevani tanirmidингиз?

— Nafisa... — «Yer yutsin uni», deb o‘yladi Matluba, ammo tili boshqa gapni aytdi: — Eshitganman...

— O‘zini ko‘rmaganmisiz?

— Ko‘rganman. Lekin... yaxshi tanimayman.

— Odamlarning gaplariga qaraganda...

— Odamlarning gaplarini menga aytmang. O‘zingiz ko‘rib, qo‘l bilan ushlagan bo‘lsangiz aytинг. Adamizga shuncha azob kammi? Endi nomlarini ham bulg‘ash-yaptimi?

— Begonalar emas, Boltayevaning onasi ham aptyapti.

— Adolmi? Juvonmarg bo‘lsin u ofat! O‘zining qizlari o‘tirib qolganiga alamini o‘gay qizidan oladi. Nafisaning boshida eri bor. Uning buzuqligini birov ko‘rmagan.

— Boltayevaning erini tanirmidингиз?

— Sal-pal taniyman. Adamizning o‘rtoqlari.

— Bu yerga ko‘p kelarmidi?

— Yo‘q.

— Kasbi nima, bilasizmi?

- Olim, shekilli?..
— Oilalari tinch edimi?
— Buni o'zlaridan so'rang. Men ularnikiga qadam bosmaganman.
— Nega?
— Savolingiz g'alati-ku? Hozir yaqin qarindoshlar ham bordi-keldiga vaqt topolmaydilar.
— Tursunali aka borib turarmidilar, har holda, oshna ekanlar?
— Bilmayman.
— Siz hozir «qadam bosmaganman», dedingiz. Ikki oymi, uch oymi avval, kuz paytlarida borgansiz-ku?
— Kim aytди?
— Kerak bo'lsa guvoh bilan yuzlashtiramiz. Ungacha savolimga javob bering: nima uchun bordingiz? Siz o'sha kuni qattiq g'azabda bo'lgansiz. Nimadan norozi edingiz?
— Esimda yo'q.
— Hatto «o'ldirtirib yuboraman», degansiz?
— Yolg'on!
— Men shu yolg'oni aytish uchun kelibmanmi? Bir narsadan shubham bo'lmasa gapirmayman.
— Shubha?.. Hali... uni men o'ldiribmanmi?
— Kimni?
— Nafisani aytyapsizmi?
— O'lganini bilasizmi? — Omonullo shunday deb Matlubaga ajablanayotgan odam ko'zi bilan qaradi.
— Men kecha osmondan tushganim yo'q-ku? Eshitmaymanmi?
— Qanday holatda o'lganini ham eshitdingizmi?
— Eshitdim... bittasi bilan... ekan.
— Ishondingizmi?
— Ishondim nima-yu ishonmadim nima?
— Kim o'ldirgan bo'lishi mumkin?
— Bilmayman.
— Har holda... nima uchun o'ldirgingiz kelgan edi?
Matluba qafasga qamalgan qush holiga tushdi. Nodonligi tufayli qafasga tushdi, endi yana nodonlik qilib, o'zini qafasga urib qanotlarini yaralashni istamadi.

Biroz sukul qilgach, eridan olgan o'sha maktubdan gap boshladi.

Matluba bir yig'lab, bir sukul qilib, bir g'azab jilovida ezilib gapirardi. Nafisaning o'limini eshitganida: «Battar bo'lsin!» — deb quvongan edi. Bunday o'limidan battarroq yana nima bo'lishi mumkinligini o'ylab o'tirmay, birovning o'limidan quvonishning gunoh ekani ni fahmlamay shunday degan, shunday quvongan edi. «Xudo mening rahmimni yebdi», — deb ham fikr qilgandi. Hozir o'tmish kundoshining o'limidan o'ziga zaracha naf yo'qligini endi angladi. Uning o'limini istagan ni rost, qarg'agani rost, o'ldirish yoki o'ldirtirish uchun harakat qilmagani ham rost. Ammo rost gapga bu odam ishonarmikin? Matluba shu armon, shu o'kinch bilan Omonulloga qarab-qarab qo'yardi.

Omonullo uning gaplarini bo'lmay eshitdi. «Shu ayol o'ldirgandir», — degan gumon unga hukmini o'tkazmagan bo'lsa-da, fikrdan uzoqlashishga haqqi ham yo'q edi. To chin qotil topilmagunicha shu ma'sumadan ham shubhalanishga haqli edi.

Omonullo Matlubaning so'zlarini eshitish asnosida beixtiyor Adolatni ko'z oldiga keltirdi. O'shandan gumonsiraganda ham tinch qo'ymas edi. Bu ayol... boshqachaga o'xshaydi. Ezilgan ruhi, toptalgan umidi uchun xun talab qilsa ham arzir. Ammo... bolalarining otasi bo'lgani uchun ham uning nomini himoya qilyapti, uni umid bilan kutyapti. Har qanday ayol erini qizg'anadi. Qalbini yiring bosgan Matlubaning ham qizg'anishi tayin. Ammo bu rashk, bu qizg'anish qotillikka undashi mumkinmi? Omonullo uchun bu mubham bo'lib qolaveradi.

U Matlubadan erining maktublarini ko'rsatishni iltimos qildi. Matluba biroz ikkilangan holda uyga kirib to'rtbeshta maktub olib chiqdi-da, soliq to'lashga undovchi xatni ajratib berdi. Omonullo satrlarga ko'z yugurtirgandayloq, lager qamoqxonasidagi ahvolni angladi.

— Boltayevadan shubhalanganingiz o'rinsiz. Eringiz qamoqdagi katta baliqlarga yem bo'lgan.

— Bilasizmi shuni? Bilsangiz... nega yo'l qo'yib berasiz?

— Buni o'sha yoqdagilardan so'rash kerak. Bizning vazifamiz boshqa. Agar biror kishi pul talab qilib kelgan bo'lsa, ayting. Ular bilan shug'ullanamiz.

Matluba Xursanalining ogohlantirishini eslab: «Yo'q, yo'q, hali hech kim kelmadi», — deb qo'ydi.

Omonullo bunga ishonganday bo'ldi-yu, yana uchrashishga shama qilib, ko'cha tomon yurdi. Matluba ostonaga qadar kuzatib borib, Omonulloning ortidan eshikni yopdi.

Safar orqa o'rindiqda kavshanib o'tirardi. Omonullo mashina eshigini ochishi bilan dimog'iga aroq, kolbasa hidi urildi.

— Ha, ochofat, darrov yutdingmi? — dedi Omonullo unga qovoq uyib qarab.

— Boshga quvvat bo'ladi, o'zing ham qittakkina olvol, GAI senga indamaydi.

Omonullo: «Nafsing qursin», — dedi-da, mashinani yurg'izdi. U direktor bilan uchrashib yangi gap ololmagach, bog' qorovuli bilan gaplashishni ixtiyor qildi. Direktor obkomdan vakil kelayotganini aytib, unga bir yugurdagini qo'shib berdi. Nomi bog' qorovuli, aslida xo'jayinning ham mahrami, ham oshpazi bo'lmish ukkiko'z Karvon Tursunali bilan qizini shu yerda ko'rganini aytdi. Aravakash otasining «Karvon» laqabini meros qilib olgan bu odam bilganlarini yashirmadi: «Direktor buva Toshkentda edilar. Xo'jayin yo'qliklarida ishlarimni qilvolay deb rayon markaziga tushuvdim. Qaytib kelayotsam, Toshbolta bilan qizi chiqib kelishyapti. Toshboltaning da'vosi katta — u o'zini menga ustoz deb biladi. «O'choqni harom qilibsan, buzib tashladim, ertamatan kelib yangisini qurib beraman», — deydi. «Nimasi harom?» — desam, «O'choqning ichida it yotibdi», — deydi. It ilgari ham yotardi, harom-parom demasdi, qachondan beri haromni haloldan ajratadigan bo'libdiyikan, deb qolovurdim. Nazarimda, u qizini yangi direktorga qo'shgani olib kelgan-u, ishi unmagach, alamdan o'choqni buzib tashlagan. O'choqni o'sha kuniyoq

o'zim-la o'nglab qo'ydim. Xo'jayin yarim kechada qaytib, ovqat qil, deb buyursalar, «Ertalab Toshbolta o'choq qurib bersin, keyin ovqat pishiray», deymanmi?»

Omonullo Karvonning gaplarida bir ilmoqni sezdiyu, bo'lib o'tgan voqeani oydinlashtirishga ojizlik qildi. Savollarni qalashtirgani bilan kerakli javoblarni ololmadni. Nafisaning qishloqqa kelishi, bog'ga borishi, o'choqning buzilishi... Quloqlariga tilla ziraklar, barmoqlariga tilla uzuklar taqib qaytishi...da sir yashirin edi. Bu sirdan voqif odamning biri tuproq ostida, ikkinchisi tildan qolgan...

... O'sha kech Matlubanining nogahoniy tashrifidan so'ng Samandar: «Ishim bor», — deb xonasiga kirib ketdi. Ota-bola televizorda zerikarli bir tomoshani yarmiga qadar toqat qilib ko'rishgach, Toshbolta qizidan:

— Tursunalining boyligi ko'p edi, milisa topolmadi. Xotini bilmasa... qayga berkitdi ekan? — deb so'radi.

Nafisaning ko'zları teleekranda bo'lsa-da, xayoliga shu savol hukmron edi. Otasiga qarab «Bilmayman», — deb yelka qisib qo'ydi-yu... keyin so'nggi kechalardan birida yuz bergen voqeani esladi. Aslida o'sha voqeani unutmag'an, lekin qama-qama boshlanib, bog'ga borishga qo'rqiб yurgan edi. Televizorni yana biroz tomosha qilgan bo'lib, so'ng o'sha voqeani otasiga bayon qildi...

... Tursunalining kayfiyatni xush edi. Maishatni boshlashdan avval Nafisaning quloqlariga tilla zirak, barmoqlariga tilla uzuklar taqdi. So'ng nafs qongach, tongga yaqin yechib oldi. Avvallari bunaqa odati yo'q edi — sovg'alarini qaytib olmasdi. «Zamon nozik bo'lib turibdi. Taqib yoursang, odamlar gap qiladi, ering ham shuhbala-nadi. Shu yerda tura tursin», — dedi-da, tashqariga chiqdi. Nafisa o'midan turib yelkasiga choyshab tashlaganicha derazaga yaqinlashib, tashqariga o'g'rincha qaradi. Tursunalining o'choqboshi tomon qayrilganini ko'rди. «Karvon shu yerda bo'lsa bu ahvolda duch kelmay», — deb tashqariga chiqishga qo'rqiб. Tursunali o'choqboshidami yo etakdag'i qo'yxonadami, Nafisa aniq bilolmadi, ancha qolib ketdi. Mehmonxonaga kirishdan oldin qo'llarini yuvdi. Ichkari kirib yotdi-yu, kun yoyilgunicha uxladi...

Bu voqeadan avvalroq boxabar qilmagani uchun Toshbolta qizini g'adabladi. Ertasiga tongdayoq ota-bola yo'lga otlandilar.

O'choq ostidan topilgan ziraklar, uzuklarni Nafisa joni uzilguniga qadar taqib yurdi. Adolat bu taqinchoqlarni yangi o'ynashning hadyasi deb o'yladi. Samandar esa dastlabki kunlari xotinida yangi taqinchoqlar paydo bo'l-ganini hatto payqamadi ham. Nafisa: «Erim so'rasha, «Dam-dam olib berdilar», deyman», — deb javobni naqd qilib qo'ygan edi. Sinchkovlik, xotinlarga e'tibor degan tushunchalardan begona Samandar taqinchoqlarni ko'rganda ham indamadi. «Maoshlarini yig'ib olgandir», — deb qo'-ya qoldi.

Taqinchoqlar tarixidan bexabar Omonullo issiq kunda aroqning kuchi bilan yanada qizib olgan Safarning ezmaligidan horigan holda uyiga qaytdi.

MAG'LUBIYAT BA G'ALABA (Qotillikdan avvalroq sodir bo'lgan voqeal)

Tursunali zekvagon'da yonma-yon kelgan badbasha-ra odamning laqabi «U dav» ekanini Tengizdan eshitdi. Eshitdi-yu, bular bilan hazillashib bo'lmasligiga yana bir karra ishondi. Baxtini qarangki, u o'sha «U dav» bilan vagonda birga bo'libdi, «Bo'g'ma ilon» laqabi bilan nom chiqargan bu nodon qochibdi, uning xazinani o'g'irlaganiga Gobelyanning odamlari ishonibdi. Ishonishmaganda nima bo'lardi, qochmaganida nima bo'lardi, vagonda boshqa o'g'ri bilan kelganida nima bo'lardi? Xayolida shu savollar uyg'onganida Tursunalining yuragi orqasiga tortib ketaverdi, ko'z oldida bolalari, Matlubasingning ma'yus chehralari gavdalaniib, ezilaverdi. Nechundir o'z joni ham arzimasday tuyula boshladi. Nechundir Nafisadan olgan maktubi dardiga malham bo'la olmadi. Kunlar, haftalar shu zaylda o'taverdi. O'chakishgandek, Nuriddin ham teskariligidicha qolaverdi. O'chakishgandek, oshxonada boshlangan ola-to'polonda do'pposlanib, o'lar

¹ Mahkulmlarni tashuvchi qamoq vagoni.

holga keldi. Janjal nimadan boshlanganini anglashga ul-gurmadi ham. Nazoratchilar nima sababdan mushtlashuvni bostirishga urinishmayotganidan ajablandi. Qamoq shifoxonasida ko'zlarini tinib, boshi aylanib yotganda bu haqda ko'p o'yaldi. Chala o'lik, chala tirik holda azob dengiziga bir g'arq bo'lib, bir yuzaga qalqib chiqib yotganida o'zini «Prokuraturadanman», deb tanishtirgan odam beshta surat ko'rsatib, «Qaysi biri bilan zekvagonda kelgansan?» — deb so'radi. Tursunali Tengizning ogoh-lantirishini eslab «Udav»ning suratini adashmay ko'rsatdi. «Prokuraturadanman», — degan odam nechundir boshqa narsani so'ramadi.

Oshxonada janjal boshlanganida, ayniqsa, jag'iga birinchi musht tushganida Nuriddinni izladi. Keyinroq esladi: Nuriddin o'sha kuni ertalabdan ko'rinnagan edi. Yo'q, hatto tunda ham joyida yotmagan edi. «Qayoqqa yo'qoldi! Yo qochib ketdimi u nodon?» — deb o'yaldi Tursunali. Nuriddinning qamoq hibsxonasida ekanini bilgach, «Omadli bola ekan», — deb qo'ydi. Bu masalada u haq edi. Chunki bir necha kunlik hibs Nuriddin hayotini omon saqlab qoldi, deyish ham mumkin.

Tayyorlanmish fitnadan ogoh bo'lgan kunning ertasiaga oqshomda Nuriddin hovlida boshliq muoviniga duch keldi. Salom berib o'tib, ikki qadam ham bosmagan edi-ki, mayor: «To'xta!» — deb buyurdi. Nuriddin to'xtagach, bo'ralab so'kib, «Nega salom bermading?» — deb ba-qirdi. «Salom berdim-ku?» — deb ajablangan Nuriddinni mayor: «Hali gap ham qaytarasanmi?!» — deb urib qoldi. Nuriddin javob qaytarish u yoqda tursin, himoyaga chog'lansa ham battar bo'lismeni bilgani uchun tobe holida turib berdi. Mayor urib, so'kib bo'lgach, Nuriddinni hibsxonaga boshlab borib, «salom bermagani, gap qaytargani va lager ichki intizomini qo'pol buzgani uchun» qamadi. Botqoqqa tashlangan odam: «Nechun bunda loy ko'p?» — deb ajablanmagani kabi Nuriddin: «Bu qadar nohaqlik bo'larmi, axir?!» — deb hayratlanmadi ham, g'azablanmadi ham. Bu tarzdagi hibsxonada o'tirishlar uyga yuborajak va olinajak mujdalar sonini kamaytirishi-



ni, oqibat ozod bo'lib chiqish onlariga salbiy ta'sir etajagini bilgani uchun afsuslandi, xolos.

Hibsdan qutulib chiqishi bilan uni Tengiz chorlatdi. Yomg'irdan so'ng adlqomat oq qayinlar nozikbadan kelin-chaklarday ko'zni quvontirardi. Tengiz daraxtning silliq badaniga kaftini qo'yib atrofga suqlanib boqardi. Uning ovulida, archalar orasida, unda-bunda shunday oqbadan qayinlar ko'zga tashlanardi. Ularni birov atayin olib kelib ekkanmi yo qadimdan bormidi — Tengiz bilmaydi. Tog' archalari orasida begonasiramay o'sayotgan bu daraxtlarga qarab zavqlanardi. Bu yer o'z yurti bo'lganidanmi, oq qayinlar o'zgacha jilva qilardi.

Nuriddinni boshlab kelgan Pachoqburun sal berida to'xtab: «Knyaz, keldi», — deb ovoz berdi. Tengiz orqasiga o'girilgach, o'zi nari ketdi. Nuriddin esa u tomon yurdi.

— Ha, Hamzat, kel, mana buni qara: agar dunyoda pokizalik istasang, daraxtlar-u ko'katlardan izla. Odamlardan qidirma — ovora bo'lasan. Kaftingni qo'y bu yerga, so'ng tabiatning shiviriga quloq tut.

Nuriddin Tengizning aytganini qildi. Ammo hech narsani sezmadni, tushunmadni. Tengiz esa xuddi o'ziga-o'zi gapirganday she'r o'qiy boshladi:

*Angladim: nomusning qotili — qullik,
Ko'rdim: tojli boshlar ta'zimga keldi.
Bulbullarim o'ldi chamanzorlarda,
Bulbuli maqomi cho'g'zimga keldi.
Haqoratlar yedim. Tahqir, haqorat —
Tirnog 'imdan tortib bo'g'zimga keldi...*

Ruschalab aytilgan satrlarni Nuriddin yaxshi tushunmadni. Yaxshiki, Tengiz: «Angladimmi, Hamzat?» — demadi. So'raganida uning dovdirashi aniq edi.

Bu satrlar Tengizning xasta yuragidan potrab chiqib beixtiyor tilga ko'chgan, Nuriddingga aytish uchun mo'l-jallanmagan edi. Tengiz ham, boshqa sheriklari ham o'zlarini «ozod inson» hisoblasalar-da, aslan o'zlarini barpo etgan zindonga mahbus edilar. Dastlab hashamatli qasr

bo'lib ko'ringan bu zindondan hech kim osonlikcha, aniqroq aytilsa, tirikligicha qutulgan emas. Ko'pchilik qu-tulish choralarini o'ylamaydi ham, izlamaydi ham. Tengiz esa bu qasr ostonasiga qadam bosgunicha bo'lган chin ozodligini qo'msaydi. Yuragi ba'zan qanoti singan qush singari uchmoq istaydi. Qaysi zamonda, qay makonda qanolari singan qush erkin osmonga parvoz qilibdiki, Tengizning qalbi bunga yetishsa...

— Bu daraxt bechoralar bizlar tufayli tutqunda, bizlarni deb bular ham tikanli qamoq simto'rlari bilan o'ralgan... — Tengiz bu gapni ham Nuriddin uchun emas, o'zi uchun past ovozda aytdi.

Ularning makoni pokiza hislarga bandi bo'lib turishga ko'pam imkon bermaydi. Bunda qalblar bir necha lahzagina asliga qaytishi mumkin. So'ng... yana buzuqlik, yovuzlik, nafrat chodirlariga o'raladi. O'ralganda ham chir-mab o'raydi, ezadi, siqadi. Ozgina fursat yayragan hislar esa nola chekadi, ingraydi, oqibat — ovozi o'chadi.

Tengiz shunday holatda edi.

Zulmat chodiri qalbni o'radi — kaftini daraxt badanidan oldi.

— Mazza qilib chiqdingmi? — deb Nuriddinning yelkasiga yengil mushtladi. — Eshitgandirsan, o'sha fitna xuddi men aytganday amalga oshdi. Yanis og'ir yotibdi. Bugun-erta jon bersa ham ehtimol. Bir mo'jiza bilan tirik qolsa ham, otuvga hukm etiladi. O'ldirilgan uch mahkumining xuni uning bo'yniga ilindi. Yana uchta sherigi ham ketadi. Sen bilan biz esa maishatlarimizni qilib yuraveramiz. — Tengiz keyingi gapini achchiq kinoya bilan aytdi-da, daraxtni tepdi. — Ular yurtlariga ozodlik urug'i sepgan edilar. Bu yerga kelib o'lim mevasini undirib edilar. Ayb bizda emas, Hamzat, sen hali bunday tomoshalarning ko'pini ko'rasan.

— Meni nimaga qamashdi?

Nuriddin aslida: «Siz qamattingizmi?» — deb so'ramoqchi edi. Tengiz savolning mag'zini uqib, bosh chay-qadi:

— Bilmayman, Hamzat. Ko'ziga xunuk ko'rinish qolgandirsan, — Tengiz shunday deb ko'zlarini lo'q qilga-

nicha unga tikildi. Ayrim odamlar yolg'onni sezdirmaslik uchun nigohini olib qochadi, Tengiz esa aksincha, tik qaraydi.

Nuriddinning gumanida jon bor edi: u Tengiz istagi bilan qamalgandi. Tengiz kechasi Koshakning arog'ini ichgach, ko'p o'yldi. Ertasiga Koshakni chorlab, gapni aylantirib so'radi. Koshak aniq javobdan bo'yin tovlasa ham, Nuriddinning o'limga hukm qilinganini ishora bilan ma'lum qilib qo'ydi. «Shogirding ham sinaladigan bo'lib turibdi», — deyishidanoq Tengiz uning shumligini pay-qadi. Angladi-yu, mayorni ishga soldi. Mayorning osonlik bilan ko'nganidan bildiki, Nuriddinning nishonga aylanishi qamoq lageri boshliqlarining fikri emas, Koshakning shaxsiy tashabbusi. Shu bois ham Nuriddin qutulib chiqishi bilan uni chaqirtirdi.

— Hamzat, sening bog'cha bolalik davring o'tdi. Endi maktabdag'i o'qishni boshlashing kerak. O'jarlikni yig'ishtir, sen uchun eng to'g'ri yo'l — bizning yo'limiz. Birinchidan, joningni asraysan, bu yerdan tirik holda, ikki oyog'ingda yurib qaytasan uyingga. Ikkinchidan, bilib qo'y: uyingga qaytganingda birov seni odam o'mida ko'rmaydi. Hatto eng yaqin qarindoshlarining uchun ham sen «qamalib chiqqan odam»san. Birovnikiga mehmonga borsang ham sendan xavfsirab turishadi. Igna yo'qolsa ham sendan ko'rishadi. Ular orasida endi halol yashay olmaysan. Hamonki sendan shubhalanishyaptimi, yaxshisi chinakam o'g'ri bo'lib yashayverganing ma'qul. Sen bizning kasbimizdan nafratlanma, avval ham aytganman, yana aytaman: biz halol odamlarmiz. Biz biron-bir ishchingning yoki maktab muallimining uyiga bostirib kiradigan ahmoq emasmiz. Xo'p, kirdik ham deylik, nima olamiz bu uydan? Yuvilaverib yoqalari titilib ketgan ko'ylaklarnimi? Men sentabr oyida ovga chiqishni yaxshi ko'rardim, Hamzat. Nimagaligini bilasan, a? — Tengiz shunday deb huzurlanib jilmaydi. — Ha, aytmoqchi, Hamzat, sen nima uchun institutda o'qimading? Istamadingmi?

Nuriddin Tengizning maqsadini tushunmadni. Shuning uchun avvaliga: «Nima edi, nima uchun qiziqib qoldingiz?» — deb so'ramoqchi bo'lди. «Qutulib chiqqa-

nimdan so‘ng o‘qishga joylashtirmoqchimi?» — deb ham o‘ylab, to‘g‘risini aytib qo‘ya qoldi:

— Sakkizinchini bitirib undan u yog‘iga o‘qiy olmanman.

— Nimaga o‘qimagansan, Hamzat, biliming kammidi yo aqling kammidi?

Keyingi savol Nuriddinning hamiyatiga tegib, to‘nglik bilan javob berdi:

— Pulim kam edi.

Bu javob Tengizga ma’qul kelib, kuldil:

— Shunaqaligini bilardim, — dedi u Nuriddinning yelkasiga yana yengilgina musht urib. — Sendaqalar ko‘p bu mamlakatda. O‘ninchini tugatganingda ham baribir institutga kirolmas eding. Yozdagil kirish imtihonlarida o‘qituvchilar dengizga to‘r tashlagan baliqchilarga o‘xshab nodonlarning pullarini yig‘ib oладilar. Men esam to‘rimni ularning ustiga tashlayman. Qani aytchi, kim ko‘proq gunohkor? Ularmi yo menmi? Biz halol o‘g‘rimiz, Hamzat, endi sen ham bizning oilamizga qo‘silasan.

— Men...

— Jim bo‘l! Gapingni eshitishni ham istamayman. Qarorim qat‘iy — shikoyatga o‘rin yo‘q! Sen bugundan boshlab Qo‘tosning shogirdisan. Menga qara, o‘jar, sen uning hunarinini astoydil o‘rganaver, ozodlikka chiqqanidan keyin nima qilishni o‘zing bilasan. Ha, aytmoqchi, chap qo‘lda ovqat yeyishni bilasanmi? — Tengiz shunday deb mug‘ambirlarcha jilmaydi-da, savoliga javob bo‘limgach, gapini davom ettirdi: — Qadimda eng zo‘r o‘g‘rilar Bag‘dodda bo‘lar ekan. Senga o‘xshagan bir ahmoq o‘g‘rilikni o‘rganaman deb Bag‘dodga kelib, eng zo‘rini topib, arzini aytibdi. Zo‘r o‘g‘ri: «Bo‘pti, shogirdlikka oldim seni», — deb uni mehmon qilibdi. Ammo: «Ovqatni chap qo‘lda yeysan», — deb shart qo‘yibdi. Ahmoq shogird qancha urinmasin, ovqatni chap qo‘lida yeyolmay, «Shu shartmi?» — deb norozilik bildiribdi. «Shart, — debdi ustoz, — o‘g‘rilikning eng asosiy sharti — chap qo‘lda ovqat yeyish. Chunki o‘g‘ri ertamikechmi pand yeb, hibsga olinadi. Pand yedimi, tamom, shariat hukmiga binoan o‘ng qo‘li kesiladi. Sening qisma-

ting ham shunday bo‘ladi. Ovqatni chap qo‘lda yeishni hozirdan o‘rgansang, keyin qiyalmaysan». Bu gapni eshitib, haligi ahmoq orqasiga qochvorgan ekan. Lekin sen xavotir olma, bizning hukumat odil, qo‘lni kesmaydi. To‘rt yilmi, besh yilmi boqadi, dam beradi, senga o‘xshagan dumbullarning malaka oshirishiga imkon yaratadi. Keyin qo‘yib yuboradi, — Tengiz shunday deb kului.

Nuriddin uning bu kulgisi zamirida xushchaqchaqlik, quvonch nurini emas, alam va iztirob zahrini sezdi.

Nuriddin o‘sha kuniyoq Qo‘tosning qo‘liga «tantalali suratda» topshirildi. Qo‘tos dastlabki kuntari uning «g‘oya»sini boyitish bilan shug‘ullandi. O‘g‘rilar olamiga xos tartib-qoidalar bilan tanishtirdi. U har bir tartib yoki qoidaning ahamiyatini erinmay tushuntirar, xuddi rivoyat aytuvchi roviy kabi qissadan hissa yasab, bu qoidalarni buzganlarning qanday jazoga yo‘liqqanlarini batatsil bayon etardi. Qo‘tos — jar labidagi so‘qmoqdan, qirg‘oqlarni bog‘lovchi qil ko‘priordan ko‘zlarini chirt yumib olib ham yugurib ketaveradigan odam, go‘dakni yetaklab, bu yo‘ldan adashmay yurmoqni o‘rgatardi. O‘rgata turib: «Orqaga qaytishni o‘ylama, hatto ortingga burilib qarama», — deb uqtirardi. Tengiz: «Ozodlikka chiqqach, nima qilishni o‘zing bilasan», — degani bilan Nuriddin to‘rga o‘ralib borayotganini sezib turardi. Sezardi-yu, qutulmoq chorasi topolmay garang edi.

Navbat «siyosiy» tayyorgarlikdan «amaliy» mashg‘ulotga o‘tib, Qo‘tos temir javonlarning, ulardagi qulflarning turlari haqida tushuntirib o‘tirganda Koshak yaqinlashib, yon tomonqa xunuk tarzda tupurdidi:

— Knyazingning kuni bitdi, — dedi Qo‘tosga qarab.

Bu kutilmagan xabar Nuriddinni ham, Qo‘tosni ham tang qoldirdi.

— Nima bo‘ldi? — dedi Qo‘tos o‘rnidan turib.

— Nima bo‘lardi, — dedi Koshak Nuriddingga qarab zaharli tirjayib, — kuni bitgandir-da. Qo‘llariga kishan urib, hibxonaga tashladilar.

— Kim tashladi? Nimaga tashladi?

— Nimagaligini ulardan so‘ra. Knyazing keyingi paytda o‘zini rostdan ham «knyaz» deb ishonib qoluvdi. Uni uch harf tinchitadi endi.

— Koshak, sen bundan quvonyapsanmi? — dedi Qo'-tos achchiqlanib.

— Bo'imasam-chi! Endi bu yerda men Knyazman!

— Bekor aytibsan! Biz hali o'ylashib ko'ramiz. Sen birodaringning musibatidan quvonib, qonunni buzyapsan!

— Qo'tos, sen o'zingning ishingni bilib qilaver. Lekin mana bunaqa itvachchalarni yo'qot, — Koshak shunday deb yonidan buklama pichoqni chiqarib sopi yonidagi tugmani bosdi. Ostobda yaltillagan pichoq tig'ini Nuriddining kekirdagiga tiradi: — Ana endi himoyaching yo'q, Bifshteks uchun javob beradigan vaqtin keldi, — shunday deb tig'ni asta botirdi.

— Koshak, bu bizning odam!

— Bekor aytibsan, bu itvachchalar hech qachon bizning odam bo'lishmaydi. Men Bifshteks uchun buni o'ldiraman, deganmanmi, demak, o'ldiraman. Mayli, hozir emas, ozgina yashasin, qutulib chiqsin, uyiga borsin. O'sha yerda... buning sassiq onasini o'zining ko'z oldida tramvayga qo'yaman... Keyin...

Keyin nima bo'lishini ayta olmadi. «Sassiq onasini...» deganidayoq Nuriddinning joni halqumiga keldi, «tramvayga qo'yaman», deganida esa qalbida nafrat va g'azab vulqoni portladi-yu, ko'z oldi qorong'ilashdi. Tomog'iga pichoq tirab turilganini ham unutib, Koshakning naq qanshariga musht tushirdi. Nariga uchib tushgan Koshakni tepmoqchi bo'lganida Qo'tos yo'lini to'sdi. Dam o'tmay Koshak o'midan turib, yerga sanchilib qolgan pichoqni yana qo'liga oldi:

— Qo'tos, qoch, bu itni menga qo'yib ber! — dedi u xirillab.

— Faqat o'zingni himoya qil, — Qo'tos Nuriddingga qarab shunday dedi-da, o'zi chetga chiqdi. Koshak esa o'sha zahoti quturgan mushuk misol Nuriddingga tashlandi. Nuriddin uning hamlalariga chap beraverib, bir necha daqiqa sarson qildi. Hamlalari bekor ketgani sayin Koshak bo'ralab so'kar, beto'xtov ravishda tupurar edi. Uning bu qiliqlari Nuriddinning joniga tegib, oxiri Koshakning pichoq tutgan qo'lini mo'ljallab turib bilagiga qattiq tepdi. Nariga uchib tushgan pichoqni Qo'tos oldi-da, tig'ini buk-

lab, o‘zining cho‘ntagiga soldi. Keyin qo‘lini changalla-ganicha tiz cho‘kib o‘tirib qolgan Koshakka yaqinlashib, bilagini ushlab ko‘rdi:

— O‘lmaysan, singan bo‘lsa tuzalib ketadi. Besh-o‘n kun qitmirlig qilmay o‘tira turasan.

— Men uni o‘ldirmay qo‘ymayman, — dedi Koshak, keyin Nuriddinga qarab baqirdi: — Ey it! Endi sen o‘liksan, tushundingmi, o‘liksan!

Nuriddin tushundi. Bular: «O‘liksan», deb hukm chiqarishdimi, demak, muddaoga yetishmaguncha tinchishmaydi. Demak, yashab qolishning yagona chorasi bor: uni o‘ldirish!.. Nuriddin shu to‘xtamga kelgani bilan qarorini amalga oshirish yo‘l-yo‘rig‘ini bilmas edi. Urushda bo‘lsa ekanki, shartta quroq tepkisini bosib, o‘q yog‘dirib yuborsa. Bunda quroq yo‘q, musht bilan esa biron natijaga erishish qiyin. «O‘ychi o‘yiga yetgunicha, tavakkalchi to‘yiga yetibdi», — deganlaridek, u biron yo‘l izlab topgunicha bular masalani hal qilib qo‘ya qolishlari mumkin. Bugun kechasimi yo ertasigami, har holda, cho‘zib o‘tirishmasa kerak.

Kechasi ziyrak holda yotgan Nuriddin yanglishmadi. Hamma shirin uyquda ekanida Qo‘tos kelib: «Mening o‘rnimga o‘tib yot», — dedi. Oradan bir soatlar o‘tgach, barak eshigi ochilib, Koshak yonida to‘rt yigit bilan kiriib kelib, to‘g‘ri Nuriddin yotgan joyga qarab yurdi. Yigitlardan ikkitasi yotgan odamni Nuriddin deb fahmlab, imo-ishorasiz holda ikki oyog‘ini tappa bosgani hamon, qolgan ikkitasi qo‘ldan olishga ulgurmay, Qo‘tos qaddini ko‘tardi:

— Koshak, yana xato ketding, men esam yanglishmadim, — dedi u ovozini pastlashga harakat ham qilmay. — Bolaga tegma, dedimmi, demak, tegmaysan. Jo‘na endi!

Koshak so‘kinganicha chiqib ketdi.

Qo‘tos esa o‘tirgan yerida o‘yga toldi. Knyazning hibsga tashlanishi bilan Koshakning bu qadar quturishi sabablarini izlab topmoqchi bo‘ldi. Koshakning har bir bosgan qadamini kuzatib yurgan maxfiylar tongda Qo‘tosga kutilgan va kutilmagan xabarni yetkazdilar. Qo‘tos Koshakning Tursunalini siquvga olajagini gumon

qilgan, ammo hibsxonadagi Tengiz huzuriga kirishini o'ylamagan edi. Qamoq lageriga Moskvadan odamlar kelishi, Knyazning qo'liga kishan urilishi va Koshakning quturishi bir zanjir halqalari bilan bog'langanini fahmladi. Avvaliga «politbyuro»ni shoshqich ravishda to'plamoqchi bo'ldi. Biroq o'g'rillardan yana qanchasi Koshak tomonda ekanini aniq bilmagani uchun biroz kutishga qaror qildi.

O'g'rilar olamida tug'ilib, voyaga yetgan, suyagi qotgan Qo'tosning aqli bu safar ham o'ziga xiyonat qilman, voqealarni bog'lab turgan ko'rinnmas zanjir halqalari ni aql ko'zi bilan ko'ra olgan edi.

TALVASA

Omonullo bir varaq qog'ozni to'rtga bo'ldi-da, biriga «Samandar Ochilov», ikkinchisiga «Toshbolta», uchinchisiga esa «Matluba To'xtayeva», to'rtinchisiga esa «kooperativ» deb yozib, so'roq belgisi qo'ydi. So'ng qarta chiylayotgandek aralashtirgach, stol ustiga yoyib, bir narsa o'qimoqchi bo'layotgan folbinday tikilib o'tirdi. Keyin Toshbolta zikr etilgan qog'oz parchasini nari surdi. Dam o'tmay Matlubaning ismi yozilgani ham chetga surildi. Shu o'tirishida diqqati oshgandan oshib, to'rtinchi qog'oz parchasiga hisobsiz so'roq belgilari chizib tashladi-da, chuqur «uf» tortdi. Ana shunday tarzda siqilib o'tirgan chog'ida telefon jiringladi. Go'shakni istamaygina quloqqa tutdi-yu, beixtiyor sapchib turib ketdi. Chetdan qaragan odam u telefon go'shangini emas, adashib qizib turgan dazmolni qulog'iga tutdi-yu, kuydi, deb o'ylashi ham mumkin edi. Aslida esa Omonulloni sapchib turishga boshliqning xabari majbur etgan edi. Bir necha daqiqada tezkor guruhning barcha yigitlari hovlida to'planishdi-yu, navbatchi mashinada Samandar Ochilovning uyiga yo'l olishdi.

Uyning eshigi lang ochiq, qo'llari kishanlangan Samandar mehmonxonadagi deraza yonida ko'chaga tikilgанича tek turardi. Qadam ovozlarini eshitib burilib qaradiyu, Omonulloning nigohiga ro'para bo'ldi. Omonullo qosh-u kipriklarigacha malla bo'lган bu odamga bir zum

tikildi-da, so'ng uyda poyloqchilik qilgan hamkasbiga qaradi. Hamkasb yigit bu qarash zamiridagi savolni uqib qisqa tarzda axborot berdi:

— Xotirjam kelib qulfga kalit soldi. Eshikni olib, ostonada birpas qimirlamay turdi.

— Hech narsaga tegmadilaringmi? — deb so'radi Omonullo atrofga bir razm solib.

— Yo'q.

— Qo'llarini bo'shat.

Samandar kishandan bo'shagan bilaklariga ma'yus tililib qoldi.

— O'tiring, Ochilov, — Omonullo ikkita stulni birbiriga qarama-qarshi qo'ydi-da, o'zi derazaga orqa qilib o'tirdi. Samandar otasidan tarsaki tushib qolishidan qo'rqqan boladay hadiksirab turdi.

To uyiga yetib kelguniga qadar Samandarning ruhi go'yo behisob chayonlar hukmida bo'ldi. Uyida qandaydir noxushlik kutayotganini yuragi sezib, ezilgan bo'lsada, «Militsiya xodimiga duch kelarman, ostona hatlashim bilan qo'llarimga kishan solinar», — deb o'ylamagan edi. Poyloqchi yigitga: «Ochilov kelishi bilan qimirlatmaysan», — deb buyurilgan, u Samandarning kimligidan bexabar bo'lgani sababli uni ashaddiy qotil gumon qilib, qo'lini kishanlab qo'ya qolgan edi. Samandar esa buni uzil-kesil hukm deb tushunib hushidan ketayozdi.

— O'tiring, — dedi Omonullo bu safar qat'iyoq tarzda.

Samandar stulning suyanchig'ini ushlab astalik bilan o'tirgach, Omonullo o'zini tanitdi-da, so'rog'ini boshladi:

— Moskvada hamisha ko'p qolib ketasizmi?

— Ishga qarab, — dedi Samandar unga tik qaray olmay, — ba'zan ertalab borib, kechqurun kelaman. Bu safar sal tobim qochdi...

— Nima bo'ldi?

— Yoqmaydigan narsa yeganman, shekilli... sal zaharlanibman.

— Sizni olim deyishdi... Nima bilan shug'ullanasisiz?

— Buni aniq aytishim mumkin emas.

— Umumiy tarzda-chi?

- Umumiy tarzda... zilzilaga oid desam ham bo'ladi.
 — Bu ishga chet elliklar ham qiziqsa kerak?
 — Bilmadim... balki qiziqar...
 — Sizga birov shu ish bo'yicha taklif qilganmi yo...
 — Yo'q. Nega so'rayapsiz?
 — Dushmaningiz yo'qmi, demoqchiman.
 — Dushman... bilmadim... bo'lmasa kerak.
 — Nafisa Boltayeva sizning ikkinchi xotiningizmi?
 — Ha... — Samandar shunday deb nigohini olib
 ochdi.
 — Hozir u qayerda?
 — Bilmayman... uyda bo'lishi kerak edi.
 — Oxirgi marta qachon, qayerda ko'rgansiz?
 — Esimda yo'q...
 — Qiziq... xotiningizni qachon ko'rGANINGIZNI ham
 eslolmasangiz... Bizni bu yerda ko'rib hayron bo'lma-
 dingizmi?
 — Hayronman...
 — Moskvaga ketishingizdan oldin bir polkovnik ham-
 rohligida kelib uyingizga kirib chiqqansiz, qo'lingiz nima
 uchun qon edi?

Bu savol Samandarning boshiga og'ir gurzi misol
 urilib, tovoniga qadar zirillatdi, hushini yo'qotib, aqdan
 ozgan devonaday baqrayib qoldi. Aftodavash bu odamning
 ko'zlariga Omonullo jon olg'uvchi Azroil bo'lib ko'rindi.
 O'shanda polkovnik so'raganida savol o'qidan «Shisha ti-
 lib ketdi», — deb qutulgan edi. Hozir tiliga shu javob ham
 kelmay, soqov holida turaverdi. Omonullo savolni yana
 qaytargach: «Esimda yo'q, balki kesib olgandirman», —
 deb g'udrandi.

— Chap qo'lingizni kesuvdingizmi yo o'nginimi?
 Samandar ajablanib qo'llariga qaradi: darvoqe, qaysi
 qo'li qon edi? Savol yana takrorlangach, «O'ng qo'lim», —
 dedi.

— Yaxshi, buni hali mutaxassislarimiz aniqlab beri-
 shadi. Nima bilan, qanday kesganingizni ham eslab tu-
 ring. Endi asosiy gapga o'taylik: uyga kirganingizda kim
 bor edi?

— Bugunmi? — deb so'radi Samandar.

- Yo‘q, o‘sha kuni.
— Hech... hech kim yo‘q edi.
— Xotiningiz, men ikkinchisini nazarda tutyapman, hozir qayerda?
— Bilmasam... uni tog‘ga olib ketsam, deb keluvdim.
— Shu gapingizga o‘zingiz ishonasizmi?
— Meni nima uchun bunday so‘roq qilyapsiz? Aybim nima?

— Aybim, dedingizmi? Sizning tilingizda bu «ayb» deyilsa, bizningcha «jinoyat» deb, yanada aniq aytilsa, «qotillik» deb yuritiladi, — Omonullo shunday deb portfelidan o‘liklarning suratini olib ko‘rsatdi. Samandar bir qaradi-yu, darrov ko‘zlarini olib qochdi. — Qarang, nima uchun qaragingiz kelmayapti? Nima uchun ularni o‘ldirdingiz? Rashk qildingizmi yo boshqa sabab bormi?

Samandar bu savollarni eshitgach, ko‘zlarini kattakatta ochib Omonulloga qaradi. Omonullo uni kuzatib, bamaylixotir o‘tiraverdi, boshqa so‘z aytmadi. Mana shu qisqa muddatli sukut Samandarga ajal o‘qining azoblaridan ham battar tuyuldi. U o‘shanda o‘liklardan qo‘rqib qochgan edi, bu qochqinligi, bu qo‘r quoqligi evaziga «qotil» degan nishonga erishuvini o‘ylab ko‘rmagandi. Bo‘yniga sirtmoq osongina tusha qolishi yetti uxlab, bir tushiga kirmagan edi. «Nima uchun o‘ldirdingiz?» — degan savol uy devorlariga urilib aks sado beraverdi.

— Nima deyapsiz?... Men.. o‘ldirganim yo‘q, — deb pichirlashi bilan dardini to‘sib turgan to‘g‘on buzilib, yig‘lay boshladi.

«Birinchi xotini to‘g‘ri aytgan ekan», — deb o‘yladi Omonullo.

— Siz o‘ldirmagan bo‘lsangiz... kim qilishi mumkin bu ishni?

— Bilmayman...

— Pichoq sopida barmoq izlaringiz bor, — Omonullo buni taxminiga asoslanib aytди. Pichoq sopi, eshik tutqichi, temir javon, yana ayrim buyumlardagi bir xil iz Ochilovga tegishli, deb gumon qilingan edi. Gumon haqiqatga aylanishi uchun bir necha daqiqadan so‘ng Saman-

darning barmoq izlari olinadi. Unga qadar esa taxminga suyanib ish ko'rish ham mumkin.

— Men o'ldirganim yo'q, ishoning. Men kirganimda ular...

— O'lganmidi?

Samandar bosh irg'aganicha go'dak kabi yig'layverdi.

— Unda nima uchun «ko'r madim» dedingiz?

— Qo'r qdim...

— Nimadan... yoki kimdan?

— O'likdan... o'likdan qo'r qaman.

— Qiziq... siz qo'rqsangiz, men qo'rqsam, murdani kimdir ko'mishi kerak-ku? O'likni ko'ra turib qochib qolganingiz aqlga sig'maydigan ish. Deylik, siz qotil emas-siz. Lekin kirdingiz, ko'r dingiz, xotiningiz bu ahvolda, yonida esa bir erkak. Tanirmidingiz uni?

— Yo'q, yo'q, tanimayman.

— Xotinim bilan o'lib yotgan bu erkak kim ekan, deb qiziqib qaradingizmi o'zi?

— Yo'q... ochig'ini aytсан... qaradim-u, yuzini ko'r madim. U... yuztuban yotgan ekan.

— Nima? Yuztuban? Adashmayapsizmi?

Samandar biroz o'ylanib, so'ng aytganini takrorladi. Omonullo esa ajablanib chalqancha yotgan murdaning suratiga qarab oldi. «Agar bu o'ldirmagan bo'lsa, demak, qotil uyda edimi, u chiqib ketganidan keyin murdani o'girib qo'ydimi?» Omonullo bu masalada turli gumonlarga bordi. Biroq bu ishni Toshbolta ham qilgan bo'lishi mumkin degan fikr unga xiyonat qildi — gumonni oydinlashtirmadi.

— Demak, siz kirganda bular o'lib yotishgan ekan. Eslang-chi, pichoqdagi qon iliqli midi yo qotib qolganmidi?

— Iliq edi... seskanib ketdim, qo'r qdim.

— Barmoqlaridagi uzuklarni, quloqlaridagi ziraklarni nega olib qo'ydingiz?

— Nima deyapsiz? O'likdan yechib olamanmi?!

— Balki yechib olib seyfga qo'ygandirsiz?

— Siz... tuhmat qilyapsiz, meni kechiring...

— Unda seyfni nima uchun ochdingiz?

— Moskvaga olib boradigan hisob-kitob hujjatlarim

bor edi. Shuni deb atay keluvdim. Bo'lmasa to'g'ri ucha-verar edim.

- Seyfning kaliti xotiningizda ham bormidi?
- Yo'q. U yerda faqat mening qog'ozlarim turadi.
- Oching.

Sarosima to'ridagi Samandar cho'ntaklarini paypaslab kalitni qidirdi. So'ng diplomatini ochib yo'g'on kalitni olgach, temir javonni ochdi-da, o'zi ikki qadam chekindi. Omonullo temir javon ichida tilgan qog'ozlarga diqqat bilan razm solib ayrim sahifalardagi qonli dog'ni ko'rdi. Javonda pul ham, qimmatbaho buyum ham yo'q edi.

- Qarang-chi, hech nimangiz yo'qolmaganmi?

Samandar narsalarni ko'zdan kechirib, «Hammasi joyida», degach, Omonullo ekspertlarni chaqirib qon tekkan qog'ozlarni ajratib olib, ularga bermoqchi bo'ldi. Samandar bunga e'tiroz bildirgach, qog'ozning dog' qismini qaychida ehtiyyotlik bilan qirqib olishdi. Shundan so'ng Omonullo Samandarni dahlizga boshlab chiqdi.

— Endi shoshilmay, bir boshdan aytib, ko'rsatasiz. Aytadigan har bir so'zingiz yo foyda beradi yoki aksincha, o'zingizga zarar keltiradi. Olim odam ekansiz, mayli, suhabatimiz boshidagi dovdiraganingizni kechiray, ammo bundan buyog'iga esingizni yig'ib oling. Sizni «qotil» degim kelmayotgan bo'lsa ham dalillar baribir sizga qarshi turibdi. Demak, siz zinadan ko'tarilib chiqdingiz. Yo'lida kimni ko'rdingiz? Ro'parangizdan notanish odam o'tmadimi?

— Yo'q... to'xtang... ha, qo'shni xotinni ko'rdim, shekilli?

- Eshigingiz qufl edimi, uni kalit bilan ochdingizmi?

— Qufl... — Samandar shunday deb xuddi qo'lida kalit turganday kaftiga qarab oldi. — Ochiq edi, shekilli... Ha, aniq... ochiq edi. Eshikdan kirishim bilan dimog'imga gaz hidi urildi. Nafisaxonning g'alati odatlari bor edi. Ikkita-uchta chovgumni eritib, o'zlarini Xudo bir asragan. Qishloqda gazga o'rganmaganlar-da, chovgumni olovga qo'yib esdan chiqarib ketaverGANLAR. Yana shunqa bo'ptimikan, deb o'ylabman. Xayolim gazda bo'lib, xavotirda oyog'im ostiga qaramabman. Oshxonaga o'taman, deb bu... o'likka qoqildim...

— Yiqildingizmi?

— Yo‘-o‘q... yiqilmadim-u... lekin Nafisaxonga ko‘zim tushdi.

Samandar Omonulloning buyrug‘iga itoat etib, murdalarning qay holatda yotganini ko‘rsatib berayotganida suratchi chaqqonlik bilan suratga olib turdi.

— Xo‘p, xotiningizni siz o‘ldirmabsiz, lekin pichoq sopini nega ushladingiz?

— Sug‘urib olmoqchi bo‘lgandirman... Ha... lekin ushladim-u tortib olishga qo‘rqdim. Keyin... gaz nafasimni bo‘g‘ib qo‘ydi. Derazani ochib, gazni berkitdim.

Omonullo ochiq derazaga qaradi. Dastlab bu oshxonaga kirganida ham deraza tabaqalarining ochiqligiga e‘tibor bergen edi, ammo murdalarning hididan behalovat bo‘lgan hamkasblar xonani shamollatish uchun ochgandirlar, deb o‘ylagandi. Omonullo gaz plitasiga ham diqqat bilan qarab uchala buragichning ochiq turganini ko‘rdi. Samandar Omonulloning nazarini uqib, tezlik bilan izoh berdi:

— Men yuqorida burab berkitdim. O‘zimning odatim shu: uydan chiqadigan bo‘lsam, albatta, yuqorisini burab o‘chiraman, shunisi ishonchliroq bo‘ladi. Nafisaxonga gapiraverib hech o‘rgatolmadim...

Chindan ham plita ulangan quvur belidagi buragich gaz yo‘lini to‘sgan edi. Bu Omonullo uchun katta jumboq bo‘ldi: «Nafisa Boltayeva ochsa bitta buragich buralardi. Bunda esa uchalasi ochiq... Demak... to‘rtinchi odammi? Bu olim piqillab yig‘layotgani bilan o‘z ishiga puxta bo‘lsa-chi? Aybsizligini isbotlovchi dalillarni pishitib qo‘ygandir balki?...»

Shu jumboq to‘riga o‘ralayotgan damda Mels Xo‘jayev kirib keldi. Omonullo uni Samandarga tanishtirdi. Samandar beixtiyor tarzda: «Tanishganidan xursandman», — deb lutf qilib, qo‘l uzatdi. Faqat Mels Xo‘jayev emas, hatto Omonullo ham bunday tanishuvga endi duch kelishi edi. Jinoyatga aloqadorlikka gumon qilinayotgan odamning prokuror bilan tanishgandan xursandligi bu soha odamlari uchun g‘alati tuyuluvchi hol edi. Yolg‘on manziratdan uzoq bo‘lgan Samandar «tanishganidan xursandligini» chin dildan aytgan edi. Zero, u prokuratura va-

kili bilan jinoyatga oid qidiruv inspektorining vazifalarini aniq farqlay olmasdi. U olamga tatifilik olim martabasiga yetgani bilan huquq sohasida deyarli hech narsa bilmasdi. Hozir maxsus vakil emas, prokuratura bog'boni yoki farroshi kelib siquvga olsa ham «Menga savol berishga haqqingiz bormi?» deb o'tirmay javob qaytaraverishi mumkin edi.

Samandarni oshxonada qoldirib, Omonullo Mels Xo'jayevni mehmonxonaga boshlab o'tdi-da, savol-javobning bayoni bilan tanishtirdi.

— Qo'rqoqligi ayon, lekin qo'rqoqning ham nayrangi bo'ladi. Bu uyga begona odamning yashirinchka kiriishi mumkinmi? Harbiy sir hisoblangan ish bilan mashg'ul odamni narigi idora nega qo'riqlamas ekan? Bir surishtirib ko'rolmaysizmi?

— So'rab-surishtirdim, — dedi Mels Xo'jayev mag'-rur ohangda. — Faqat uning o'zini poylasharkan.

— Tushunmadim?

— Agar uyda bo'lsa, uy atrofida bo'lisharkan. Uyda yo'qligida kuzatishmas ekan. Tog'da bo'lgani uchun o'sha kunlari qarashmabdi.

— Nima qildik? Hibsga olsak, jinoiy ish ochsak...

— Hozircha boshqarmadagi vaqtincha hibsxonaga tashlang. Boshqa idora aralashsa, o'zlar bilishadi. Bosh-qacha ehtiyyot chorasi qo'llash mumkin emas.

Samandarning gaplarini eshit turib: «Shahardan chiqmaslik haqida tilxat olib, uyida qoldiraveraylik», — degan fikr kelgan, ammo bu fikr zaif tuyulib, qaror dara-jasiga yetmagan edi. Mels Xo'jayevning gapidan so'ng «Ma'qul», — deb bosh irg'adi.

Mels Xo'jayev prokuraturada kutishayotganini aytib, iziga qaytgach, Omonullo deraza yoniga borib ko'chaga qaradi. Uning o'yga tolganini ko'rib, Samandar: «Mening ishim bitdi, shekilli, bu jinoyatga aloqam yo'qligiga ishondi», — degan xulosaga kelib:

— Endi ketaveraymi? — deb so'radi.

Bu savoldan Omonullo ajablandi. «Esi joyidami bu odamning?» — deb o'ylab unga tikilib qoldi.

— Qayoqqa ketmoqchisiz?

- Tog'ga... U yerda kutishyapti.
- Kutishyapti?.. Kuta turishadi.
- Bu nima deganingiz? — ko'ngli yomonlikni sezgan Samandarning ovozi titradi.
- Siz... masala oydinlashgunicha bizning... — Omonullo «hibsxonada o'tira turasiz», demoqchi bo'ldi-yu, fikridan qaytib yumshoqroq ohangga ko'chdi: — Mehmonimizsiz...
- Qamaysizmi?
- Bizning vazifamiz qamash emas, jinoyatchini tutish. Sud degan idora bor, qamashadimi yo otishadimi, o'shalar hukm chiqarishadi.
- Haqqingiz yo'q... men jinoyatchi emasman. Keyin afsuslanasiz!
- To'g'ri aytdingiz. Keyinroq afsuslanmaslik uchun biz bilan birga bo'lib turasiz. Aybingiz bo'lmasa, sizni hech kim ushlab tura olmaydi. Gunohsiz ekaningizni isbotlash uchun esa vaqt kerak.
- Bu gaplarni eshitib Samandarning lablari titradi, ko'zlarini pirpiradi-yu, yig'lamadi, o'zini tutdi — taqdiriga tan berdi.
- Olti kishiga mo'ljallangan vaqtinchalik hibsxonadagi derazaga yaqin karavotda bir yigit chordana qurbanicha ovqatlanib o'tirardi. Yoziqli dasturxon ustidagi osh-u kabob, somsa-yu olma-anor, pomidor-u bodringga qara-ganda uning maishati chakki emasdi. Dasturxonni kim kiritgan bo'lsa ham yigitning hamxonalari nafsi nazarda tutgan ko'rindi. Yigit Samandarni ko'rib, o'rnidan turib so'rashdi-da, dasturxonga taklif qildi. Samandar bu xonaga bir zumgagina kirgan odamday karavot chetiga omonatgina o'tirdi. Yigit sermanzirat ekan, «Oling, oling», — deb undayvergach, Samandar noiloj kabob go'shtidan olib og'ziga soldi. Qorin och bo'lsa-da, luqma-ning tomog'idan o'tishi qiyin bo'ldi. Shunda yigit yostiq ostidan shisha chiqardi-da:

— Qittak-qittakka tobingiz bormi? — deb so'radi.

Moskvadagi harbiylar shifoxonasida Samandarga ichish qat'ian mumkin emasligini aytishgan edi. Ular ogohlantirishmasa ham aroqni o'ylasa ko'ngli ayniyidi

gan bo'lib qolgandi. Hozir esa yigitning taklifidan so'ng ichgisi keldi. Shisha ichida jilva qilayotgan suyuqlik uni darddan qutqaruvchi xaloskor bo'lib ko'rindi-da, «Quying», — dedi. Yigit piyolani to'ldirib uzatdi. Samandar ikki qultumdan ortiq icha olmay, qalqib ketdi. Piyolani dasturxon chekkasiga qo'yib yigitga uzrli nigohi bilan qaradi. Yigit uni xijolatdan qutqarish uchun yana taomga taklif qildi.

— Olim odamga o'xshaysiz, aka, siqilavermang. Boshga tushganni ko'z ko'radi, — dedi kulimsirab.

Samandar bu gapdan ajablanib, yigitga qarab qoldi.

— Ha, akaxon, menga tikilib qoldingiz? Qaysi baloga uchrabdi, deyapsizmi? — yigit Samandarning fikrini o'qiganday kuldi. — Yosh yigit tuhmatga uchragandir, deyapsizmi? Yo'q, tuhmat bo'ljadi. O'zim ahmoqman. Garovda yutaman, deb qo'lga tushib qoldim. Kechgacha chiqib ketaman. Nari borsa ertaga ertalab qo'yib yuborishadi. Suyanadigan tog'imiz ja-a mustahkam, ha!

Samandar garov bog'lab qamoqqa tushish mumkinligini sira eshitmagani uchun ajablandi. Yigit esa kulganicha izoh berdi:

— Mening gulday hunarim bor, aka, hech qachon xor bo'lmayman. Men mashina o'g'risiman. Lekin siz mendan qo'rwmang. Aslida men o'g'rimasman. Men qulfni ochib beraman, boshqalar o'g'irlaydi. Qulfning ming xili bo'lsa mingtasini, million xili bo'lsa milliontasini ochib tashlayman. O'tgan kuni «qittak-qittak»ning ustida og'aynim bilan bahslashib qoldik. Oling, akaxon, sovimasin, ichib qo'ying, dardingiz yengillashadi. Xafa bo'lavermang. Bu yerning nomi xunuk, o'zi yomon joy emas, bir-ikki kun dam olsa bo'ladi. Shunday qilib, o'sha og'aynim bilan garov o'ynadim. Garovga yangi, moyi qurimagan «Gaz—31» tikildi. Shunaqa mashinadan kechadigan ahmoqmasman-ku, to'g'rimi? Bir uyga bexitgina kirib, seyfidagi kalitni olib, mashinani ochib berishim kerak ekan. Ha, mashinaga ham, garajiga ham chet eldan olib kelgan allambalo qulf o'matilgan ekan. Shu ham menga ish bo'libdimi? Lekin og'aynim nomardlik qil-

di. Qorong‘ida qaramagan edim, orqada ment yashirinib yotgan ekan. G‘ip tomog‘imdan olib, shu yerga tashladi. Xuddi kinodagiga o‘xshaydi, to‘g‘rimi? Menga-ku baribir, o‘sha og‘aynimga qiyin bo‘ldi-da. Oling, akaxon, oxirigacha ichib qo‘ying, dunyoning tagiga yetasiz. Bir-pasdan so‘ng yana dasturxon kiradi, qarab turasiz. Oshna-og‘aynilar omon bo‘lishsin, meni xorlatib qo‘yishmaydi.

Bu gapni Samandar: «Sizda ham oshna-og‘ayni bormi?» — degan savol ma’nosida tushundi. Ilgari xayoliga shunday savol kelmagan ekan. «Boshimga tashvish tushsa dalda beruvchi do‘stim bormi?» — deb fikr qilgan Samandar hozir o‘zini sahro o‘rtasidagi yakka daraxt kabi his etdi. Endi bu daraxt suvsab, oftob nurida qovjiraydimi? Bu yigit bir necha soatdan so‘ng chiqib ketishini bilyapti. Samandar esa hibxonada necha kun yoki necha yil bo‘lishidan bexabar. Bu yer bir necha kunlik qamoqxona ekanini, ayb sirtmog‘i bo‘yniga astoydil solinadigan bo‘lsa, boshqa joyda alamlar tuzini totmog‘ini ham bilmaydi. Uni hozir izardrobga tashlayotgan narsa — o‘n yil yotsa ham, hatto qotil deb otib tashlansa ham birov bilmay qolishi mumkin. Bilganda ham afsuslanmasligi, kuymasligi aniq. Opa-singillarining kelishi ham mahol. Ular o‘z oilalari, o‘z tashvishlari bilan band. Bu shaharga hali biron marta ham kelmagan to‘ng‘ich opasining turmush tashvishlaridan ortib, qamoqdagi ukasini yo‘qlashini tasavvur qilish qiyin. Qishloqqa ikki yildan beri bormayotgani inobatga olinsa, mehr-oqibat iplarining zaiflashib, balki chirib, uzilishga moyil bo‘lib qolgani tabiiydir. Amakivachchalari-yu xolavachchalari bilan qachondan beri bordi-keldi qilmasligini hatto eslay olmaydi.

Sermanzirat yigitning gaplaridan keyin xayolini o‘zidan uzoqlashgan do‘silari, qarindoshlari to‘la egal-lamadi. O‘zini yo‘qlovchi mehribon yo‘qligidan biroz o‘ksindi-yu, so‘ng bo‘lajak taqdirini o‘yladi. Yigitning manziratlari ham, ezmaligi ham yoqmay qoldi. Uzr aytdida, eshikka yaqin karavotga o‘tib, cho‘zildi. Yigit ham nafsini qondirib bo‘lgach, taomlarni dasturxonga o‘rab qo‘ydi-da, bo‘sh karavotga o‘tib yotdi. Yotgan joyida

kerishib, rohatlandi. Dam o'tmay yengil xurraq ota boshladi.

Samandar esa shu topda o'z siriga mahram bo'la olguvchi odamga hojat sezdi. Ahbobga muhtojlikning qamoq azoblaridan ham battarroq ekanini fahmladi. Odamning fojiasi o'lim emas, vohidlik ekanini anglab yetmoq mushkul. Odam bolasi istaydimi-yo'qmi, qochmaydimi yo qochadimi — farqsiz — o'lim sharobini ichadi. Vohidlik esa o'zining ixtiyori bilan yuzaga keluvchi ofatdir. Hozir Samandar bu ofatning tariqday mevasini totdi. Bir necha soatdan so'ng tamaki hidiga to'lib ketgan bu dim xonani tark etib uchoqqa o'tirganida, Moskva sari uchganida esa bu azoblarni, bu fojalarni yana unuta boshlaydi.

Hozir esa hamqishloq do'sti Tursunali bilan shaharda uchrashib qolgan onlarini la'natlay boshladi. Moskvalik mehmonlar bilan restoranda o'tirganida maishat qilish maqsadida kirgan oshnasi bilan uchrashgan edi. Keyin sovxoziqa taklif qildi. Bog'da maishat qilishdi. Choy ko'tarib kirayotgan Nafisaga suqlanib qaradi. Bu qarashning ma'nosini uqqan Tursunali shu tunning o'zidayoq kayfi oshgan do'stining nafsini qondirish choralarini qildi. Chora amal berdi-yu, o'sha tun bahonasida Samandar xotinlik bo'lib oldi. Endi esa... o'sha tunni ham la'natladi...

Umrining turli nuqtalariga la'nat toshlari otib o'tirganida eshik ochilib soqchi kirib keldi-da, yigitni turtib uyg'otgach:

— Qo'lingni orqaga qil! — deb buyurdi.

— Nega endi, akaxon? — dedi yigit uyqusiragan holda.

Soqchi unga javob bermay qo'lini qayirib kishanladida:

— Endi, uka, shahar turmasiga ko'chadigan bo'lding. Prokuror senga ish ochganga o'xshaydi, — deb afsusini bildirib qo'ydi.

— Menga ish ochadimi, menga ish ochadigan prokuror hali onasining qornida yotibdi!

— Bo'ldi, baqirma, yur, — soqchi shunday deb uni yelkasiga turtib, olib chiqib ketdi.

Ozod bo'lishga ishonchi komil bo'lgan yigitning ahvoli shu bo'lidan keyin Samandarning ahvoliga maymunlar yig'lamasmi? Samandar shu fikrda ezilib yotganida yana eshik ochildi, ammo soqchi emas, notanish bir yigit kirib, salom berdi-da:

— O'rtoq Ochilov, yuring, anglashilmovchilik bo'lib-di, — dedi.

Shu anglashilmovchilik tufayli Samandar kutganidek uning holiga maymunlar yig'lamaydigan bo'lishdi.

Samandar hibxonada ezilib o'tirganida Omonullo Nafisa bilan Sanjar ishlagan kooperativga yana bordi. Bu korxona moliyaviy ahvolining tekshirilushi Omonulloga zarar yetkazdi: xodimlar u bilan yanada cho'chibroq gaplashishdi. Oqibatda Nafisa bilan Sanjar munosabatlarini oydinlashtira olmadi. Nima uchun uyga borganlari u uchun mavhum bo'lib qolaverdi.

Ertalabdan beri quyosh bilan berkinmachoq o'yna-yotgan o'rakach-o'rakach bulutlar osmon-u zaminga hukmronlik o'tkazish qasdida birlashmoqqa kirishgan edilar. Oftob nuridan bebahra yer yuzi momaqaldoqlarni kutib dim bo'lib oldi. Azaldan dim havoga toqatsiz Omonulloni ter bosdi, nafas olishi esa og'irlashdi. Qo'nalg'adagi joyidan jilayotgan avtobusni ko'rib hushtak chalgan edi, haydovchi insof qilib to'xtadi. Omonullo oldingi qatordagi bo'sh o'rindiqqa o'tirishdan oldin oynani yon tomonga surib ochdi. Shabada iliq bo'lsa ham ko'kragiga rohat berdi. Bo'yniga oq chit ro'mol tashlab olgan haydovchi radio ovozini balandlatib, ashulaga mast bo'ldi. To'yalmi gullatayotgan bu qo'shiq Omonulloga ham ma'qul kelib, xufton dili jindek yorishdi. Ashuladan so'ng bir shoir bosiq, dardli ovozda she'r o'qiy boshladi:

— Qaytayapman, o'zimni ko'mib...

She'rning birinchi satriyoq Omonulloning diqqatini o'ziga jalb qildi:

*Tog'lar — g'arib, bog'lar — tashlandiq.
Men ko'milgan tuproq it bo'lib
Yuzlarimni yalay boshladi.*

Bu satrlarni eshitib Omonulloning eti seskandi. Haydovchi radio ovozini pastlagan edi, «Og'ayni, eshitaylik!»— deb iltimos qildi.

*Ey so 'qir zot, ko 'zlarin och!
Ko 'zlarimda qonim qaynaydi.
Qaro kiygan qaro qayrag 'och
Bu kun mendan tona olmaydi.
... Siynalari pajmurda, zahil
Daraxtlarga termular ayol...*

Tiriklik holida ko'rinnmagan Nafisa nechundir Omonulloning nigohi oldida gavdalandi: o'lik ayol emas, ko'zlar ochiq juvon ko'rindi. Dardli nigohi, savolli nazari bilan qaradi: Nafisaning ko'zları: «Meni kim o'lirdi? Nima uchun o'lirdi?» — deb so'rар, radioda esa shoir bo'g'ilib she'r o'qirdi:

*Odam — hissiz buyuk haqiqat,
Odam — go 'rda tirlig'an armon...
Odam — qatra zardobrang hasrat...
Odam — beun, besukun xayol...
Odam — boshi kesilgan bulut...
Odam — og 'ir oyoqli Ayol...
Odam — armon va...
Odam — umid...*

Omonulloning ko'z oldida o'sha savolli nigoh: «Nima uchun meni o'lirdilar? Gunohim nima edi?» Omonullo buni bilsa edi, aytardi. Holbuki bilmaydi, alhol uning asosiy vazifasi buni bilish ham emas. U eng avvalo «Kim o'lirdi?» degan savolga javob topishi zarur. «Gunohim nima edi?» degan savoliga esa Nafisa Qiyomatda javob oladi... Hozir esa Omonulloning xayolini shoirning dardli ovozi band etgan:

*... Xayr endi, mening xazonim,
Tanho go 'rga sig 'dik ikkimiz.*

*Yig'layotir, kuylayotir jim,
Joni kuzda chiqqan jismimiz.
Xayr endi, mening yaprog 'im,
Bir dunyoga sig'dik hammamiz.
Yosh to'kmasin biz uchun hech kim —
Biz qaytamiz,
Bir kun qaytamiz.
Xayr endi...¹*

She'rdan so'ng dardli kuy berilib, Omonulloning ko'ngliga hazinlik ega chiqdi. Shu hazinlik hukmida ishxonasiga qaytdi. Navbatchi yigit uni kutilmagan noxush xabar bilan qarshi oldi: kimdir qora «Volga»da kelib, Samandarni olib ketibdi. Xo'jayin Omonulloni kutowtganmish...

Boshliq huzuriga kirmasidanoq Omonullo Samandar Ochilovni kim olib ketganini taxmin qildi. Shunday bo'lishini kutgan edi, ammo kutgani bu qadar tez amalga oshuvi uning aqlini shoshirdi. Boshliq Omonulloga hayratomuz yangilik aytmadi — uning gumonini tasdiqladi, xolos. «Ishga tikib qo'y», — deb bir varaq qog'oz uzatdi. Samandarning shaharni tark etmay turishi haqidagi tilxatiga Omonullo e'tiborsiz qarab qo'yib chiqib ketmoqchi edi. Boshliq to'xtatib, so'radi;

— Boshqalardan gumoning yo'qmi?

Omonullo darrov javob qaytarmadi. Kooperativ boshlig'i bilan Matluba To'xtayevaga oid ojiz gumonlarini aytgisi kelmadi. Shu bois biroz o'ylanib turib:

— Dalillar yetarli emas, — deb qo'ydi.

— Ochilov ekanini isbot qilib bera olarmiding?

Begona uy ostonasiga qadam qo'yayotgan odam ichkaridagi jihozzlarni ta'rif-u tavsif qilishdan ojiz bo'lganidek, Omonullo bu savolga javob berishga qodir emasdi. Boshliq uning ahvolini sezib, javob talab qilmadi, aksincha, dalda berdi:

¹ Nuktadon shoirimiz Asqar Mahkam she'rlaridan foydalandik. Marhum birodarimizni Alloh rahmat etsin (T.M.).

— Bo'pti, ishingni davom ettiraver. Biror gap chiqsa, huzurimga kirarsan. Sen xafa bo'laverma. Uni bir marta so'roq qilishga ulguribsan, shu ham katta gap! Agar daililar Ochilovga qadalib qolaversa... sen zo'riqma... biz ilojsizmiz. Boraver...

Bir necha kun avval Samandarning ishxonasidagi suhbatda: «Qonun oldida hamma teng», — deb katta ketgan Omonulloning qulqlari ostida tepakalning: «Hayotda esa, azizim, butunlay boshqa. Shuni hali ham tushunib yetmadingizmi?» — degan gaplari jarangladi. Omonullo o'zini og'zidagi luqmasini oldirib qo'ygan anqov holida deb hisoblamadi — o'ksinmadi.

Omonulloning ish uslubi hamkasblaridan ozgina farq qilardi: u biron jinoyatga aloqador deb ikki kishidan gumon qilsa, uchinchi, noma'lum odam uchun ham joy qoldirardi. Mazkur uslub foyda bergen damlar ham bo'lgan: gumondagilar ozod qilinib, mo'ljalda yo'q noma'lum odamning iziga tushilgan. Agar Samandarning gaz masalasidagi gaplari nayrang mahsuli bo'lmasa, Omonullo kalavaning bir uchini topdi, deyish mumkin. Kimdir chindan ham gazni olib qo'ygan bo'lsa, demak, o'sha «kimdir»ni qidirish kerak. Samandar Ochilovga da'vo yo'q — o'likni ko'rib qochgan odam jinoyatchi hisoblanmaydi. Xotinining o'ligini ko'mmasa ham, dafn etilgan yerini ziyorat qilmasa ham jamiyat ayblamaydi. Bularning ajri ham Qiyomatda beriladi.

Omonullo xonasiga qaytib joyiga o'tirdi-da, stol g'alandidan ismlar yozilgan qog'oz parchalarini olib, yana folbin kabi yoydi. Keyin to'rtinchchi qog'ozdag'i so'roq belgilari yoniga undov belgilari qo'ygach, «Samandar Ochilov» deb yozilgan varaqni chizib-chizib tashladi-da, jahl bilan g'ijimlab, yelim to'rsavatga uloqtirdi. Ko'zlarini yumib, behol odam kabi harakatsiz o'tirdi. Keyin o'rnidan turib g'ijim qog'ozni olgach, kaftlari bilan silab, tekislab joyiga qo'ydi.

Derazaga o'matilgan sovitkichdan iliq havo ufurilayotganday nafasi bo'g'ilib, tashqariga chiqdi. Hovlida harakatsiz turishidan bir ma'no ko'rmagach, ko'chaga yo'naldi. Bozorga borib qog'oz xaltani to'ldirdi-da, shifo-

xonaga qarab yo'l oldi. Opasining ahvoli yaxshilangani uchun umumxonaga o'tkazilgan ekan, kirib uni ziyorat qildi-yu so'ng otasini, shu bahonada qaynona-qaynotasini ham yo'qlashni maqsad qildi.

Hovliga suv sepib salqinlatgan Bobomurod Omonullo kirib kelganida bo'y cho'zib qolgan rayhonlarning gullarini chimdib uzayotgan edi. Tutingan o'g'lini ko'rib chehrasi ochildi. Bu dunyoda bir tutingan singlisi-yu bir tutingan o'g'liga suyanib yashayotgan Bobomurodning quvonishi uchun ko'p narsa zarur emas: singlisining ochiq yuz bilan gaplashib o'tirishi yoki Omonulloning eshikdan kirib kelishi uning uchun baxtli daqiqalar hisoblanardi.

Omonullo ichkari kirishga unamay ikki qulochli uzun taxtadan yasalgan o'rindiqqa o'tirdi. Bobomurod ichkari kirib likopchada gilos ko'tarib qaytdi-da, Omonulloning yoniga o'tirib, likopchani o'rtaqa qo'ydi. Omonullo ota-sining ko'ngli uchun gilosdan tatib ko'rdi.

— Opangni Xudo bir qaytib berdi, hozir tuzuk. Dardini ichiga yutaverib-yutaverib yuragini abjaq qilib tashlagan.

— Kirib ko'rdim, ruhlari tetik.

— Balki shu bahona bo'lib anavi kasallaridan ham qu tulib ketar, a?

— Kim biladi?..

Omonullo shunday deyishga dedi-yu, tilini tishladi. Otasi umid bilan so'ragan edi, «Ha, tuzalib ketadi», — desa bu umid quvvat olardi. U esa mujmal javobi bilan o'sha umidni ham bo'g'a qoldi.

— Shunaqa hodisalar bo'lgan, eshitganman, — dedi-yu, ammo fursat o'tgan, umid chinnisi allaqachon yerga tushib, darz ketgan edi. Keyingi gap darzni chegalagani bilan izni yo'qotmasdi.

— O'zing qalaysan? Ishingning mazasi yo'q, shekilli, a?

— Ishlab yuribman...

— Menga qara-chi? — Bobomurod shunday deb uning ko'zlariga tikildi.

Yo'q, Omonullo bu o'tkir nigohga dosh berolmaydi. Dastlab uchrashganida ham qaray olmagan.

O'shanda ovozi rasta bo'layotgan yoshda edi. Qo'shni sinfdagi qizga ko'ngil qo'ydi. Yursa ham, tursa ham faqat o'sha qizni o'ylardi. Hatto ota-onasidan sog'inchini ham unutgan edi. Qizlar bayrami yaqinlashib, yigitchani sovg'a masalasi qiy nab qo'ydi. Uning nazarida bayram sovg'asi barcha muammolarni hal qilib berishi lozim edi. Yechilajak muammolardan biri — qizdan hech bo'limganda bittagina o'pich olishga erishmoqlik edi. Aynan shu birinchi o'pich umid daryosini to'sib turgan to'g'oni buzar, visolning nurli cho'qqisini in'om etar edi. Ammo... ota-onasidan ajrab yetimxonaga tushgan o'smirda pul nima qilsin? O'ylay-o'ylay chorasini topdi: umrida bir marta, ha, faqat bir martagina o'g'irlik qilish ahdi bilan avtobusga chiqdi. Qaysi cho'ntakda pul borligini aniqlash san'atidan mahrum bu bolaning o'sha kuniyoq qo'lga tushib, qamalib ketishi hech gap emas edi.

O'sha kuni, o'sha daqiqada, xuddi o'sha avtobusda Bobomurod ham bor edi. Uning ziyrak nigohi qo'nalg'ada javdirab turgan Omonulloga tushganidayoq, bolaning shum niyatini payqadi. Shu sababli odamlar orasidan o'tib, orqa eshikka yaqinlashdi-da bolaning yoniga turib oldi. Omonullo titroq qo'llari bilan duch kelgan cho'ntakka tushmoqchi bo'lganida bilagidan mahkam ushlidda, avtobus to'xtagunicha qo'yib yubormadi. Avtobus to'xtagach, «Qani, yur», — dedi-da, bolani qariyb sudrab tushdi. Qo'rqib ketgan Omonullo qarshilik bildirolmadı. U: «Milisa ushlab oldi, tamom, endi qamaydi», — deb o'ylagan, o'g'rining qo'liga tushgani xayoliga ham kelmagan edi.

Bobomurod uni bog' tomon boshlab borib, o'zi o'rindiqqa o'tirdi-da, bolaning ko'ziga tikildi:

— Qani, menga qara-chi, faqat to'g'risini ayt, nimaga o'g'irlik qilmoqchiyding?

Omonullo piqillab yig'lay boshladı.

— O'chir! Mishig'ingni art! — deb do'q urdi Bobomurod. — Soqol-mo'yloving chiqib qolibdi-ku, erkakmisان o'zing?! Nimaga yig'layapsan?

— Qo'limni qo'yib yuboring...

Qo'yib yuborish o'miga Bobomurod uning bilagini yanada qattiqroq qisdi:

— Ayt deyapman: nimaga birovning cho'ntagiga tushmoqchi bo'lning?

— Tushmoqchimasiydim.

— Sen o'g'il bola bo'lsang — mard bo'l, to'g'ri gapdan qochma. To'g'risini aytsang, qo'yib yuboraman, aldamoqchi bo'lsang — o'zingga qiyin. Shu qo'lingni avval kuydirib, keyin terisini shilib olaman. Kissavurning jazosi shu bo'ladi. Aslida-ku kesish kerak, mayli, yosh ekansan, ayayman, kuydirib qo'ya qolaman.

Bobomurod xuddi shu ishga jazm qilganday ishonarli ohangda aytib, bolaning esxonasini chiqarib yubordi.

Omonullo bu odamdan osonlikcha qutula olmasligini anglab, yig'lamsiragan holda:

— Oyim og'ir kasallar, doriga pul yo'q... — dedi.

U ham o'z xayolida bu gapni ishonarli ohangda aytgan bo'ldi. Titroq ovozi ishontirishga undasa-da, ko'zlar alday olmadi.

— Qani, menga qara-chi, — dedi Bobomurod, bolanning dahanini ushlab. — Yana yolg'on gapyryapsanmi? Mening ko'zlarimga bir qaragin: bular ko'z emas, rentgen. To'g'risini aytsang, kerakli pulni o'zim beraman. O'g'il bola gap — shu!

Omonullo yana bir marta aldagach, Bobomurod uning yuziga tarsaki tortib yubordi.

— Sen o'g'ri emassan, sen qo'rkoqsan, sen hezalaksan! O'g'irlik ham qo'lingdan kelmaydi!

Bu gaplar qo'rquv qopqonidagi Omonulloning yarador qush kabi potrayotgan yuragiga dalda bo'ldi-da, to'g'risini ayta qoldi. Ammo shunda ham qo'li bo'shamadi.

— Endi qo'yvoring, — dedi yalinib.

— Hali bizning savdomiz pishmadi, bolapaqir. Senga va'da berdimmi, demak, bajaraman. Qo'lingga-ku pul bermayman. Magazinga boramiz-u ko'nglingga yoqqan narsani ko'rsatasan, narxiga qaramaysan, million so'm bo'lsa ham olib beraman, o'g'il bola gap bitta bo'ladi! Ungacha bitta-ikkita narsani so'rayman, javob berasan: nima uchun otingga yo onangga aytmading yo uyaldingmi, a?

Ota-onasiga doir har qanday savol Omonullo uchun g'oyat og'ir yuk edi. Yetti yoshida yetim qolganini aytish chog'ida go'yo uning yuragi to'xtab qolganday bo'laverardi. Otasi bilan onasi ishdan qaytayotganda tushgan avtobus muzlagan yo'lda tiyg'anib, chuqur jarlik tubida oquvchi anhorga qulagan, ularning murdalari ertasiga chiqarib olingan, er-xotinning jasadi uyda bir kecha «mehmon» bo'lib, tongda yerga qo'yilgan edi. Beli bog'langan yetti yoshli Omonullo ikki tobut oldida bo'zlab borgandi.

Hozir notanish odamga shularni aytib berishi kerakmi? Og'ir bo'lsa ham aytgisi keldi. «Rahmi kelib qo'yib yuborar», — degan niyatda uzuq-yuluq so'zlar bilan holini bayon qildi. Amakisinikida yarim yil yashab, so'ng bolalar uyiga berilganini ham yashirmadi. Bu safar Omonullo adashmadi: chindan ham Bobomurodning unga rahmi keldi. Chap qo'li bilan boshini siladi-da, yoniga o'tirg'izdi.

— Sen faqat qochib ketma, bolapaqir, — dedi horg'in ovozda. — Men milisa emasman. Teringni ham shilmayman. Shunchaki seni qo'rqtish uchun aytgandim. Agar rost gapirayotgan bo'lsang, hayoting menikiga o'xshab ketarkan. Men ham senga o'xshab g'irt yetimman. Sen birpas qimirlamay o'tir, — Bobomurod shunday deb sigaret tutatdi.

Dastlab: «Bola o'zi istab shu ko'chaga kiryapti, shogirdlikka bop ekan», — deb o'yladi. Sigareta chekib bo'l gach, do'konga borib, sovg'ani olib berdi, so'ng Omonulloni bolalar uyiga kuzatib qo'ydi. Eshik og'zida:

— Biron nimaga muhtoj bo'lsang, menga ayt, — deb tayinladi. Keyin: — Agar xohlasang, meni «amaki», de. Xohlasang, tarbiyachilaringdan so'rab uyimga olib ketay, bugun mehmonim bo'l, — dedi.

Omonulloga bu taklif ma'qul keldi. Omonullo: «Bu odamning ota-onasi ham bir kunda halok bo'lishgan ekan», — deb o'yladi. Bobomurodning o'smir chog'ida ilk marta qamalganida isnod o'tida kuygan ota-onaning bir yil ichida oldinma-keyin qaytish qilganini ancha keyin, aniqrog'i, Fotimaga uylangach, qaynotasidan eshi-

tib bildi. Bobomurodning o‘g‘ri ekanini esa bu xonadonga ikkinchi marta kelgan tuni tasodifan bilib qoldi. Yarim tunda bexos uyg‘onib, sherigi bilan maslahatlashayotgan Bobomurodning gaplariga qulqoq tutdi. Avvaliga qo‘rqi. Ertalab nonushta ham qilmay qochvormoqchi edi, Bobomurod qo‘lini ushlab, to‘xtatdi:

— Hech qachon birovlarining gaplariga o‘g‘rincha quloq solma, xo‘pmi? — dedi po‘pisa ohangida. — Gap poylamasang ham kimligimni o‘zim aytardim. Men g‘irrom o‘ynaydigan dayuslardan emasman.

— Endi men ham o‘g‘ri bo‘lamanmi?

Kechasi bilan o‘ylab chiqqan shu gapini aytishi bilan yuziga zarbli tarsaki tushdi. So‘ng Bobomurod sochini changallab tortdi. Omonulloning ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqdi.

— Kim aytdi buni senga, ahmoq! Bilib qo‘y: sen o‘g‘ri bo‘lmaysan, o‘qysan, sen odam bo‘lasan!

Bobomurod shunday degach, Omonulloning sochini qo‘yib yubordi. U: «Sening odam bo‘lishing uchun hamma narsadan voz kechaman, hatto hunarimni ham yig‘ish-tiraman», — demoqchi bo‘ldi-yu, «Bola buni tushunmaydi», — degan fikrda tilini tiydi-da, «O‘tir, choyingni ich!» — deb buyurdi.

Chindan ham Omonulloni deb o‘g‘irlikni tashlamoqchi edi. To qamalguniga qadar ahdida turolmadi. Qamalgach, ozodlikda qolgan sheriklariga xat chiqarib, Omonullordan xabar olib turishni tayinladi. Qamoqdan boshqa hunar qilish ahdi bilan chiqdi. Yo‘lda ayolni uchratgach, bu ahdi qat‘iylashdi.

Omonullo mustaqil ish boshlaganida Bobomurod unga maslahatlar berib turdi. «Tabib — tabib emas, boshidan o‘tgan tabib», — deganlaridek, jinoyat olamining nozik yerlarini Bobomurod yaxshi bilardi.

— Menga qara-chi, menga qara deyapman, — Bobomurod o‘ng qo‘li bilan Omonulloning iyagini ushlab, ko‘zlariga tikildi: — Ishlaring «besh»ga o‘xshamayapti, bolapaqir?

— «Besh» bo‘lmasa, «to‘rt»dir-da, — deb hazillashmoqchi bo‘ldi Omonullo.

— «To'rt»ga ham tortmaydi. Qanaqa ish ko'ryapsan?

— Qotillik. Ikki kishi o'ldirilgan.

Omonullo shunday deb ishning bayoni, gumon-u taxminlarini ma'lum qildi.

— Hali ham xomsan, — dedi Bobomurod bir-ikki savol berib, javob olgach. — Sen, bolapaqir, o'qishda yo yomon o'qigansan, yo darslardan qochib yurgansan, yo eski pichoqqa sop ham bo'la olmaydigan domlalardan ilm olgansan. Har holda, bo'sh kallang bo'shligicha qolgan. Menga o'sha uyni bir ko'rsatmaysanmi?

— Mumkin emas.

— Men sendan: «Mumkinmi yo mumkin emasmi?»— deb so'ranganim yo'q. Odam bo'laman desang, harakatingni o'sha «mumkin bo'laman» ishlardan boshla. Sen men ga uyni ko'rsat, men sening xomligingni isbotlab bera man. Tur, ketdik.

TUTQUNLIK

(*Qotillikdan avvalroq sodir bo'lган воqeя*)

Koshak Qo'tosga «xushxabar» yetkazgan, so'ng Nurredinga hamla qilayotgan paytda Tengiz hibxonada moskvalik yigit so'roqlariga javob berayotgan edi.

Ularning savol-javoblari dastlab samimiyl suhbat tarzi da boshlandi:

— Ahvollar qalay, Knyaz? — dedi yigit kulimsiragan holda. — «Knyaz» deb yanglishmadimmi?

Tengiz unga duch kelishi bilan boshdan oyoq razm solib, kimligini aniqlamoqchi bo'ldi: kiyinishidagi orastalik, o'zini kibrli tutishi, ayniqsa, qarashidagi bezovtalikdan bildiki, u militsiyadan emas, jiddiyroq idoradan. Boshliqqa qarab, mensimagan holda: «Siz bo'shsiz», — deb qo'yishi taxminini tasdiqladi. «Suhbat»ning jiddiy bo'lishini fahmlagan Tengiz uning kulimsirashiga mos jilmayish bilan javob berdi:

— Yanglishmadingiz, Knyazman.

— Bu sizning laqabingizmi?

— Yo'q, bu mening martabam, men knyazlar avlo didanman.

— Qiziq, Dog'iston tarixida knyaz Aliyevlar borligini olimlar bilishmas ekan-da?

— Men ona tomondan knyazman. Knyaz Ibrohimbekning avlodiman.

— Shundaymi? — yigit bu yangilikdan ajablanmay, bamaylixotir ravishda sigaret tutatib, Tengizni ham lutfan siyladi. — Siz sanqi o'g'rilardan emassiz, Aliyev, o'qigan odamsiz. Moddiyunchilik nuqtayi nazaridan qarasak, tomiringizda knyazlar qonining oqishi sariq chaqalik gap. Aksilmoddiyunchilik nuqtayi nazaridan qarasak, nasli toza odamning pastkash o'g'ri bo'lishi aqlga to'g'ri kelmaydi. Bu falsafaga nima deysiz?

— Kitobdagagi falsafa hayot falsafasiga to'g'ri kelavermaydi. Hayot qonunlarini falsafa vujudga keltirmagani qanchalik rost bo'lsa, falsafani odamlar yaratgani shunchalik haqiqatdir. Odamlar esa adashuvchilardir.

— Hayot qonuni yanglismaydimi?

— Yo'q. Biz olam kitobini yanglish o'qiymiz-da, «u bizni aldaydir», deymiz.

— Shundaymi? Hali ham durust ekansiz falsafaga.

— Bu mening gapim emas, hindlarning Thakur degan yozuvchisi bo'lgan, eshitganmisiz?

— Bo'lsa bordir. Ayting-chi, Knyaz, tun bilan kun o'rnnini almashtirish mumkinmi? Mumkin emas, a?

— Mumkin bo'lganda nima hodisa yuz beradi? — dedi Tengiz. — Yana o'sha kun, yana o'sha tun.

— Ha, ana endi o'zingizga keldingiz. Siz «olam kitobini yanglish o'qiymiz», deb turibsiz. Holbuki, aslida hammasi yanglish tuzilgan. Dunyo asli makr poydevoriga qurilgan imorat.

— Sizdan bunday gap eshitish menga g'alati tuyulyapti, — dedi Tengiz. — Biz, sharqliklarda, makkorlik — ojizlar ishi, deyiladi. Siz dunyonи ojiz qilib qo'yyapsiz.

— Ha. Siz ana shu ojizlikdan foyda ko'rmaysizmi?

— Men?

— Ha, aynan siz va sizning hamtovoqlaringiz.

— Bizga xos olam bilan siz yashayotgan olam bir xil falsafaga, bir xil hayot qonuniga bo'ysunmaydi.

— Bilaman. Siz: «Insonlar taqdirini faqat biz hal etish-

ga haqlimiz», — deb da'vo qilasiz. Hech mahal itbaliq osmonga ustun bo'ladi? Hatto nahangning qo'lidan kelmaydi bu ish. Fikrimga qo'shilasizmi?

— Qo'shilmasdan bo'lak ilojim yo'q. Qo'li kishanlangan odam bilan ozod odam teng emas-ku, axir?

— Deylik, kishan mening qo'limda, siz esa ozodsiz. Hayot uchun nima o'zgaradi? Xuddi kun bilan tun al-mashganday bo'lmaydimi? Shunday ekan, olam kitobi us-tida bosh qotirib, bahslashmaylik. Nima deysiz?

— To'g'ri. Har holda, bir o'g'ri bilan falsafa bobida bahslashaman, deb kelmagandirsiz. Bu yerda gaplashayot-ganiningza qaraganda, jiddiy masala borga o'xshaydi.

— Siz uchun jiddiy tuyulishi mumkin. Aslida esa unday emas. Biz sizga, yana ayrim do'stlaringizga, — yigitning bu safar «hamtovoqlaringiz» o'rniغا «do'stlaringiz» deganiga Tengiz ahamiyat berib, yanada sergak tortdi, — hamkorlikni taklif etmoqchimiz.

— O'g'rilarning qonuni hukumat bilan hamkorlikka yo'l bermaydi, buni bilmaysizmi?

— Bu gaplarni qo'ying, Knyaz. Qonunni o'zgartirish mumkin yoki umuman bo'ysunmaslik ham mumkin. Biz o'rtaga juda ko'p narsa tikkanmiz: siz ozod bo'lasiz, boylikka erishasiz, istagan chet mamlakatga bemaolol chi-qib ketasiz.

— Ha, ko'nga zo'r narsalar tikdingiz. Yutib olish uchun nima qilishim kerak?

— Siz avval rozililingizni bering. Qolganini keyin gaplashamiz.

— Aytaylik, rozi bo'ldim...

— Meni «aytaylik...» qanoatlantirmaydi. Menga mard o'g'rining gapi kerak.

— Mard o'g'rining... ko'zları ochiq bo'ladi. Baland minoraga chiqib olib ko'lma kalla tashlamaydi. Dar-yogami, dengizgami boshlab bormasangiz ham, hech bo'lmasa uzoqdan ko'rsating, ma'qul kelsa sho'ng'ishga tayyorlanaylik.

— Uzoqdanmi? Ha, uzoqdan ko'rsatishimiz mumkin. Sizning tog'liklaringiz bir vaqtlar yoppasiga ko'chi-

rilganlar. O'ttiz besh yildan beri ezilib yashaydilar. Hozir ular yashayotgan yerning egalari ularga qarshi zulm tayyorlayaptilar. Siz sheriklaringiz bilan ularni himoya qilasiz.

Bu mavhum gapni eshitib Tengiz o'ylanib qoldi, «Murik»ning aytganlarini esladi. Yigit javob ber, deb shoshiltirmadi. Tengiz tog'liklar kim ekanini, qayerda zulm tayyorlanayotganini fikran aniqladi. Zulm yerliklar tomonidan emas, boshqa tomondan hozirlanayotganini ham fahmladi-da:

— Hukumat himoya qila olmaydim? — deb so'radi.

— Hukumat aralashgunicha sizlarning himoyangiz kerak bo'ladi. Xalqaro vaziyat og'ir hozir. Birdaniga biz aralashsak, katta milliy shov-shuv bo'ladi. Darrov chet el burnini suqmoqchi bo'ladi.

— Shov-shuv deng? Men esa inglizlarning maqolini esladi.

— Qani aytinq-chi? Aytavering, siz bilan suhbatlashish menga yoqyapti.

— Inglizlar aytisharkanki, agar itni bexos o'ldirib qo'ysangiz, uni quturgan, deb e'lon qiling, shunda unga hech kim achinmaydi.

Yigit bu gapni eshitib astoydil kului.

— Inglizlar balo xalq, — dedi u. — Ular kamdan kam hollarda adashishadi. Siz esa chuqurlashmang. Chuqurlashish — halokat belgisi. Taklifimga hozirning o'zida javob bering, demayman. Mayli, o'ylab ko'ring. Xotirjam o'ylang, deb bu yerga taklif qildim. Sizga maslahatim: katta o'g'ri bo'lsangiz ham katta ketmang. Eshitishimga qaraganda bu yerda «Bifshteks», «Cho'mich» laqabli o'g'rilar bo'lgan ekan. Ularni kimdir o'ldirganmish. Biz hozircha bunga ahamiyat bermayapmiz. Bitta-ikkita o'g'ri o'lsa o'libdi-da, nima dedingiz? Ammo siz yaxshi ko'ruchchi sharqliklarning bitta gapi bor: aytadilarki, hokimlarning g'azabi olovdek bo'lib, ozgina shamol tursa alanga olarkan-u bu alangani minglab chelak suv bilan ham o'chirib bo'lmas ekan. Siz shamoldan ehtiyoj bo'ling, Knyaz.

— Maslahatingiz uchun tashakkur, lekin ayting-chi, nima uchun bu ishga meni tanladingiz? Bunaqa taklifga jon-jon deb ko'nuvchi shaltoqlar ko'p-ku?

— Biz, Knyaz, shaltoqlar bilan hamkorlik qiluvchilar-danmasmiz. Shaltoq deb to'g'ri aytdingiz. Ish tugagan-dan keyin ularning shaltog'ini kim tozalaydi? Men sizga dengizni ko'rsatdim, siz esa kalla tashlab tubiga yetaman, deb ovora bo'l mang. Biroz suzib rohatlaning-u sohilga chiqib, so'ng istagan ishingizni qiling. Boshqa narsani o'yamang.

Yigit shunday degach, yana lutf qilib unga sigaret tut-di. Tengiz bu karamdan minnatdor ekanini bildirib, kibor-larcha bosh egib qo'ydi.

Moskvalik yigit marhamat eshiklarini haddan ziyod katta ochdi: o'ylab ko'rmoq uchun Tengizga keragidan ham ko'proq fursat berdi. Quyosh nuri tushmaydigan, uzunasiga uch, eniga ikki qadam keluvchi hibxonada vaqt o'lchovi yo'q edi. O'limtik chiroq nuri bunda madfun odamga lahadda emas, yorug' dunyoning bir katalagida jonli holda yotganini dalolat qilar edi. Tengiz hibxonaga kiritilayotgan ovqatlarning soniga qarab oradan ikki kun o'tyapti, deb chamladi. Vaqt o'tayotgani uchun ko'p ham yuragi siqilmadi. Ikki-uch kun nima ekan, dastlabki qamalganida bundan torroq, zaxroq, sassiqroq hibxonada o'n bir oy yotib ham sinmagan — sheriklarini sotmagan edi. Mana shu kabi saboti uchun ham boshqalarga nis-batan ertaroq toj kiyish martabasiga yetgan edi. Hozirgi ahvoli o'shandagisiga taqqoslansa, rohatlanib dam olish uchun yaratilgan sharoit deb ham atash mumkin. Tengiz ana shu sharoitda moskvalik yigitning har bir so'zini fikr chig'irig'idan o'tkazib tahlil qildi. Tog'liklarni himoya qilish haqidagi gaplari uni ko'p o'ylashga majburlama-di. Yigitning maqsadni ishora bilan emas, balki yuzdan sakson foizini ochiq bayon qilishi uni sergaklantirdi. Qimorda: «Qartani ochib qo'yib o'ynash», — degan gap bor. Zo'r kelganda, raqibga ruhiy ta'sir ko'rsatish uchun to'rt qartaning uchtasi yoki uchning ikkisi, yoki ikkinining biri ochib qo'yiladi. Mardlar to'qnash kelgudek bo'lishsa, barcha qartalarни ochib qo'yishlari ham mumkin, kamdan

kam hollarda sodir bo‘luvchi bu vaziyatning oqibati ham mardona tugaydi: yo mol ketadi, yo jon. Ba’zida esa... ikkalasi ham baravariga... Moskvalik yigit shunday o‘yin qilib, javobni kutyapti.

Yigit kirib qolar, deb kutib yotganida eshik ochilib, Koshakning kuydirgan kallani eslatuvchi tirjaygan basharasi ko‘rindi. Uning o‘ng qo‘lida bir shisha aroq bilan stakan, chap qo‘lida esa qog‘ozga o‘rog‘lik yeguliklar bor edi.

— Omonmisan, Knyaz, — u shunday deb qo‘lidagilarni so‘ri ustiga qo‘ydi-da, Tengizni quchoqladi: — Sog‘intirib yubording-ku, a?

— Sen sog‘ingan bo‘lsang, chakki odam emas ekanman, — dedi Tengiz uning ko‘zlariga sinovchan tikilib. Koshak bu nigohga dosh berolmay ko‘zlarini olib qochdi. Sarosimasini yashirish maqsadida chaqqonlik bilan shisha og‘zini ohib, stakanni yarimlatib quydi-da, «Sog‘ bo‘l, Knyaz!» — deb bir ko‘tarishda bo‘shatdi. So‘ng stakanni to‘ldirib Tengizga uzatdi.

Tengiz uch qultum ichib, stakanni so‘ri ustiga qo‘yidda:

— Koshak, nimalar bo‘lyapti, sen bilmaysanmi? — deb so‘radi.

— Bilmadim, jinlari qo‘ziganga o‘xshaydi. Meni ham «etap»ga tirkab qo‘yishibdi. Bugun-erta jo‘natvorishadi, shekilli? «Murik»ning o‘limidan baribir xitlanishgan. Hammamizni har tomonga otishsa kerak.

— Xayrlashgani kirdingmi? — dedi Tengiz undan nigohini uzmagan holda.

— Shunaqa desak ham bo‘ladi. Knyaz, ikkovimiz hisob-kitobni to‘g‘irlab qo‘yishimiz kerak. Sen Bifshteksni bekordan bekorga o‘ldirtirib yubording.

— O‘ldirtirganim yo‘q, o‘zi lallaydi, uning o‘limi bir tasodif.

— Tasodifmi-yo‘qmi — baribir sening qo‘lingda o‘ldi. Men u bilan katta ishlarni mo‘ljallab qo‘yuvdim. Biladi-ganlarini o‘zi bilan olib ketdi. Men ko‘p narsa yo‘qotdim. Shuning tovonini to‘lashing kerak.

— Koshak, sen bu cho‘pchagingni boshqa biror laqma-ga borib aytgın. Bifshteks senga o‘xshagan ahmoq bilan sherik bo‘ladigan ahmoq emas edi. Gapni aylantirmaginda, maqsadingni ayt.

— Knyaz, sen uchun hamma ahmoq. Faqat sengina aqlisan. Xo‘p, agar chindan ham aqli bo‘lsang, men ahmoqqa anavi to‘nka chuchmekning boyligi qayerga berkitilganini aytasan.

— Aytmasam-chi?

— Unda to‘nkaga qiyin bo‘ladi. Jonini sug‘urib bo‘lsa ham bilib olaman.

— Unga tegma.

— Aytasanmi?

— O‘ylab ko‘raman.

— Yaxshi. Shu aroqni quritgunimizcha o‘yla.

— Koshak, sen «etap»ga tushdim, deyapsan. Agar Vorkutaga borib qolsang nima bo‘ladi? Axir, boylik ja-nubda-ku?

Koshak o‘tirgan yerida bir qimirlab olib, «Ishing bo‘lmasin», — deb g‘udrandi. Bo‘lajak fitna qayerda tayyorlanayotganini aniqlash uchun Tengizga shuning o‘zi kifoya qildi. «Demak, Koshakka ham aytishgan, u ahmoq jon-jon deb ko‘ngan. Unda nima uchun menga ham aytishyapti? Nima uchun bu yerga tiqib qo‘yishdi?» Bu savollariga ro‘parasidagi Koshak ham javob berishi mumkin bo‘lsa-da, «Bu yerga tushib qolishimda shu ta-viyaning xizmati bor», — degan fikrdan Tengiz uzoq edi. Boltiq bo‘ylaridan kelganlarni kaltaklash oddiy ig‘vo emas, balki undan-da zo‘rroq fitna uchun «odam tan-lash» marosimi yoki sinov-tajriba ham ekanini u bilmasdi. Ana shu marosimda o‘zini ko‘rsatgan Koshak sinovdan o‘tib, kelgusi zulm uchun ayni mos deb topildi. Suhbatda Koshak ko‘p ham tarang qilib o‘tirmadi. «Qayerga? Nima uchun?» — deb ham garang qilmadi. «Pul, ozodlik, chet el» uning uchun kifoya edi. Ammo o‘ziga «qanqiq» degan «unvon» taqalishini bilib, o‘zini himoyalash uchun bir-ikki shart qo‘ydi: shartlardan biri — Knyazni yo‘q qilish yoki chet elga o‘tib ketgunicha hibsdami, «etap»dami saqlash edi. Shuning barobarida yana bir-ikki zirapchalarning

bahridan o'tishga izn so'radi. Ular ko'ndilar. Koshak: «Shartlarini to'la bajarishadi, Knyaz shu yerda chiriydi», — deb o'yab yanglishdi. Tengizga ham shunday taklif aytishlari, uning rozi bo'lishi mumkinligini u hisobga olmadi.

Aroq ichib bo'lingach, Koshak: «Qani, ayt!» — deb baqraydi. Tengiz gapni chalg'itishga urindi, «Ertaga kel», — deb ham ko'rdi. Koshak g'azablana boshlagach:

— Aytaman, faqat men bilan teng bo'lishasan, — deb shart qo'ydi.

— Bekor aytibsan! Senga sariq chaqa ham bermayman,— dedi Koshak.

Shu tarzda savdolashib, boylikning to'rtdan biri Tengizga beriladigan bo'lgach, sir oshkor etildi.

Koshak hibsxonadan quvongan holda chiqib, Tursunalini siquvgaga oldi: hali kaltak zarbalaridan to'la tuzalmagan, bitta chertgulik holi bor odamni he yo'q, be yo'q bo'yniga chilvir tashlab bo'g'di. Tursunali bilan Tengizning gaplari bir yerdan chiqqach, Koshak mamnun jilmaydi.

Tengiz qachonlardir shunday bo'lishini bilgani uchun boshqalarni chalg'itish maqsadida Tursunalini pishitib qo'ygan edi. «Murik»ka aytilgan joyda boylik bo'lmasada, boylikka mo'ljallangan o'ra mavjud edi. Keyin aytilgan yerda esa o'shanday o'ra ham yo'q edi.

To'g'ri yo'ldan borayotgan odam qoqlisa, nari borsa yiqilib, biron yeri lat yeydi. Ularning yo'lidagi kimsa toygudek bo'lsa, yiqilmaydi, peshanasi g'urra bo'lmaydi — jonini berib qo'ya qoladi. Bu yo'lda ochiq ko'z bilan, teran fikr bilan yurishga odatlangan Tengiz Koshakning qilig'idan hayratga ham tushmadi, g'azablanmadni ham. U chap kuragi ostiga pichoqni begona emas, «bratva» deb e'zozlanuvchi o'zining «birodar»laridan biri sanchishini kutib yashardi. Bir kunmas, bir kun ramziy ma'nodami yoki chin ma'nodami shunday bo'lishiga ishonchi komil edi. Faqat aniq vaqtini bilmasdi. Koshakning hozirgi harakati o'sha ramziy ma'nodagi pichoq sanchish edi. Ramziy ma'no bilan chin ma'no orasi esa uzoq emas — qilcha bo'lsa bordir. Roviyalar derlarki, «Allohning she-

rigi bor», — deyishdan saqlanuvchilar hech qachon bir-birlariga dushman bo'lmalar». Tangrini tanimagan inson do'stni taniydi, deb ishonuvchi odam yerga ekilgan tosh yomg'ir yog'ishi natijasida ko'karib chiqdi, degan gapga ham ishonishi kerak bo'ladi. Birodarlik — bir-birlariga sadoqat asosiga qurilgani bilan, vaqtি kelsa zulm oloviga ko'mishdan ham qaytilmasligini Tengiz bilmaydi deysizmi?

Tengiz Koshakning pattasini qo'liga berib yuborgach, o'zining taqdirini o'ylay boshladi. O'g'rilar qonuniga sodiq qolib moskvalik yigitga rad javobini aytsa, boshi uzra to'planayotgan abri balo o't yog'dirib uni mahv etmog'i tayin. «Hech narsadan qo'rqlmayman», — deb kerilib yuruvchi har bir birodari kabi Tengiz ham bir narsadan — o'limdan qo'rqlardi. Ular o'lim ostonasidagi tan azoblaridan emas, dunyoni, uning ishvali hayotini erta tashlab ketayotganlardan qo'rqlishardi. Do'stlari kabi Tengiz ham «O'lim — g'am-tashvishli hodisa emas, o'lim — nikoh kechasidir», — deguvchi naqldan benasib edi. Oxirat va abadiy hayat nima ekanini bilgani bilan amal qilmovchi Tengiz uchun o'limning munis bo'lmog'i amrimahol edi. «O'lim — Haqni sevganlar uchun to'y va bayram, nafsni sevganlar uchun esa g'am-alamdir», — deyilganda Tengiz kabilar nazarda tutilganmikan? O'limni beedad g'am-alam deb fikr qiluvchi Tengiz hayatni arzon-garovga pullashni istamadi. Moskvalik yigit kirganida biroz gapni chuvalagan bo'ldi-da, bitta shart qo'ydi:

— Vazifani bajarganimdan keyin yana qamoqqa qaytarasiz. Muddatim oxirlab, ozodlikka chiqqanimdan keyin chet elga ketaman.

Yigit bu gapni eshitib, ma'noli jilmaydi:

— Knyazlarga xos fikr yuritdingiz, Knyaz. Men sizdan aynan shunday javob kutgan edim. Endi, Knyaz, ishga daxlsiz bir savol so'ramoqchiman, o'zim uchun biliishni istadim: nima uchun hamkorlikka rozi bo'ldingiz? Qo'rqedingizmi?

— Qo'rqedim?.. Yo'q. Savoliningizga javob oddiy — bu ishni men qilmasam boshqalar qilishadi. Men to'g'on emasman, oqar suv bo'lginim durust.

Bu yolg'on gap Tengizning o'ziga ham ma'qul kelib, jilmaydi.

Tengiz rozilik bergen bo'lsa-da, hibsxonadan ozod etilmadi. Moskvalik bu masalaga izoh bermadi. Tengiz qamoq lageri hibsxonasidan chiqqach, Koshak bilan yana ikki yigitning «etap»ga jo'natilganini Qo'tosdan eshitdi.

— Hamzatingga ko'p osildi. Ammo men yo'l bermadim, — dedi Qo'tos. — Sening ruxsatingsiz yana bir ish qildim: Koshakning qanjiqligini teletaypga qo'ydim.

— Boplapsiz. Endi «politbyuro»ni to'plab, unga hukm chiqarishimiz kerak. Hukmnini balki o'zim ijro qilarman.

— Qanaqasiga?

— Agar ularning niyatlarini to'g'ri payqagan bo'lsam, meni ham erta-indin «etap»ga qo'yishadi. Balki u bilan uchrasharman. Agar men haqimda «qanjiq» degan gap ko'tarilib qolsa, ishonmang. Boshqalar ham ishonishmasin. Agar ularning shartiga ko'nsam, bu roziligidim Koshak bilan uchrashib, hisob-kitobni to'g'rilash uchungina bo'ladi.

— Qanaqa shart?

— Buni hisob-kitobdan keyin aytaman.

— Koshakni borgan yerida saranjomlashadi, sen urinma, Knyaz.

— Yo'q, u meni haqorat qildi. Qasos faqat mening qo'limda. Siz... Hamzatga ko'z-quloq bo'lib turing. Mehnatingizga achinmaysiz, undan zo'r o'g'ri chiqadi, bunga men kafisman.

Tengizning ishonchli ohangda aytgan gaplari Qo'tosda shubha uyg'otmadi.

— Chuchmekning boyligi nima bo'ladi? Koshak uning atrofida ham aylandi.

— Uning boyligi — bizniki, o'rtaniki. Unga hech kim ega chiga olmaydi. — Tengiz bu masalani maydalab tu-shuntirib o'tirmadi. Qo'tos ham: «Ochiq ayt», — deb zo'rلамади.

QULFNING KALITI

Samandar Ochilov yashagan uyg'a yaqinlashishganda Bobomurod to'xtab, atrofga sinchiklab razm soldi-da:

— Ko'cha gavjum emas ekan, — deb qo'ydi. Zinadan ko'tarilayotganda esa yana takrorladi: — Ko'cha gavjum emas ekan.

— Bunga o'sha kuniyoq e'tibor bergenman. Begona odamni payqash oson, — dedi Omonullo.

— Durust, buni bilar ekansan.

— Bir-ikkita darsga kirib o'qishga to'g'ri kelgan, — deb javob berdi Omonullo piching bilan.

U eshik qulfiga kalit solayotganida Bobomurod har bir harakatini diqqat bilan kuzatdi.

— Kalit kimniki? — deb so'radi u eshik ochilgach.

— Juvonning otasiniki. Birinchi kuni olganman.

— Otasi kelganda eshik ochiq ekanmi yo qulfnmi?

Omonullo bu savolni eshitib, peshanasiga bir shapaloq urgisi keldi: shu oddiy narsani Toshboltadan so'ramaganiga afsuslandi.

— Qulf bo'lган, — dedi Bobomurod xuddi o'ziga-o'zi gapirayotganday. — Ochiq bo'lганida o'liklarning sassig'i chiqishi bilan qo'shnilar bilishardi. — Bobomurod shunday deb qulfn kuzatdi: — Odamlaring qulfn olib tekshirishmabdi-ku? Qulfn nimada ochib kirgan? O'zining kalitidami yo begona kalitdam, yo mixoch-qichdam? Tekshirtirmaysanmi?

— Tekshiringlar, devdim, — deb o'zini oqladi Omonullo.

— Sen deyaverasan. Ular esa o'z bilganlarini qila-veradi. Sen eng avvalo o'zing kriminalist bo'lishing kerak. Qara, kulfn mahkamlab turgan burama mixning ariqchasiiga bo'yoq to'lib qolgan. Buragich tegmagan. Demak, qulf olinmagan, tekshirilmagan. Qani, ichkari kir, ko'rsat.

Omonullo oshxona tomonga o'tib, o'liklar yotgan yerni ko'rsatdi. Bobomurod uning so'zlarini eshitayotgan bo'lsa ham, uncha e'tibor bermay, yuvinish xonasini qayta-qayta ko'zdan kechirdi-da:

— Bular kirishganida qotil shu yerda yashirinib turgan, eshikni avval erkak ochgan, — dedi.

— Avval ayol ochgan bo'lishi ham mumkin. Qotilni ko'rib, dod deganicha qochgandir, keyin erkak qaragan-u ko'kragidan pichoq yegan. Keyin ayol...

— Balki shundaydir. Har holda, «O'ynashlar maishat qilib o'tirishganda yoki yotishganda eri kirib qolgan-u...» degan taxminni bekor qilganing to'g'ri. Bu yerga «o'y-nash», «rashk» degan gap sig'maydi.

Bobomurod boshqa uylarni ham erinmay kuzatib chiqdi.

— Ayolning qulog'idan, barmog'idan taqinchoqlar olingan bo'lsa... o'g'rining ishi bo'ladi, — Bobomurod shunday deb Toshboltaga ajratilgan xona ostonasida to'xtab qoldi. Deraza tomondagi javonga, uchi biroz qayrilib qolgan gilamga tikildi:

— Javonni senlar surdilaringmi?

— Yo'q, joyida qimirlamay turibdi.

— Xonada shuncha bo'sh joy turib, javon hech zamonda derazaga taqab qo'yiladimi? — Bobomurod shunday deb «Javon avval qayerda turgan bo'lishi mumkin?» deb chamladi, so'ng devorga yaqinlashib jimir-jimir gulli qog'ozlarga bitilgan harflarni o'qimoqchi bo'layotganday tikildi: — Javon uzoq vaqt mana bu yerda turgan. Yaxshiroq qaragin, chang izlarini ko'rasan. Endi pastga qara: gilamning chetlarini javon bosib turgan. Uni kim, qachon surgan?

Bobomurod savoliga javob kutmay gilamning bir uchini ehtiyyotlik bilan tutdi-da, Omonulloga: «Bu uchini ushla», — deb buyurdi. Ikkovlashib gilamni o'rab, chetga surdilar. Uy o'rtasidagi to'rtta poltaxtaning ko'chirilganini aniqlash uchun kriminalist bo'lish shart emasdi. Bobomurod: «Qalaysan endi?» — degandek Omonulloga qarab qo'ydi-da:

— Hech mahal poltaxtaning buragich mixlar bilan qoqliganini ko'rganmisan? — deb so'radi.

Omonullo undan ko'zlarini olib qochdi. Xuddi shu yerda o'sha kuni Toshboltaning jomadonlari turgan, shuning uchunmi, gilamni ko'tarib qarash hech kimning xayoliga kelmagan edi.

— Odamlaringni chaqir, tekshirishsin. Bu yerda nimadir bo'lgan, — dedi Bobomurod. Omonullo navbat-chiga qo'ng'iroq qilgach, «Anavi vunderkind bolangni bir ko'rmaymizmi?» — deb taklif qildi.



Omonulloga bu taklif ma'qul keldi. Aslida Samandar bilan bo'lgan uchrashuvdan so'ng yuqori qavatga ko'tarilmoxchi edi. Vaqt ziqligi uchun: «Bola yana ezmalanib, aql o'rgatishni boshlasa ishlarim qolib ketadi», — deb uchrashuvni keyinroqqa surgan edi. «Hozir ayni payti», — degan fikrda yuqoriga yo'l boshladи. Qo'ng'iroq tugmasiga qo'l yuborganida ichkaridan: «Kiravering, eshik ochiq», — degan ovoz kutdi. Kutgan taklif eshitilmagach, ajablangan tarzda qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Ikkinchi marta bosishga ulgurmay eshik ochilib, past bo'yli, ozg'in, rangpar ayol ko'rindi-da, «Kelinglar», — deb ularga xavotir bilan qaradi. Omonullo o'zini tanishtirgach, «Abduqayum bilan gaplashmoqchi edim», — deb maqsadini aytди. Ayol Bobomurodga biroz tikilib qaradi-da, «Kiringlar», — deb ichkariga chekindi.

Omonullo ichkari kirib Abduqayumning bo'sh karavotiga ko'zi tushdi-yu, ko'ngliga noxushlik oraladi. Bo'sh karavot, ayolning horg'in ko'rinishidan xayoliga turli fikrlar yog'ila boshladи. Ayol ko'rsatgan joyga o'tirgach:

- Abduqayum qayerdalar? — deb so'radi.
- Surat ishlayapti, hozir chiqadi. Uning ovunchog'i shu...
- Siz onalari bo'lsangiz kerak?
- Ha.
- Avval kelganimda yolg'iz ekan.
- Aytdi. Men ishda edim. Adamiz safardalar... — ayol nogiron bolasini yolg'iz tashlab ketganidan o'n-g'aysizlanib izoh berdi: — Yaqinda ishga kirdim. Avval uyda edim. Abduqayum: «Katta bo'lib qoldim, o'zimni o'zim eplayman», — deb zo'rлади. Hadeb atrofida parvona bo'lishim ham yoqmay qoldi, shekilli. Shu bolamning ko'ngliga qarayman-da. Nomigagina ishlayman. Uch-to'rt soatga borib kelaman.

Ayol gaplarini tugatmay, ichkaridan Abduqayumning: «Oyijon, men hozir tugataman, mehmonlarga choy berdingizmi?» — degan ovozi keldi. Ayol: «Xo'p, jonim», — deb qo'yib javon tortmasidan oq dasturxon olib stol ustiga yoydi. U oshxonaga chiqqach, Bobomurod

o‘rnidan turib derazaga yaqinlashdi-da, ko‘chaga qarab oldi.

Bir piyoladan choy ichishga ulgurishmay ichkari xona dan Abduqayumning: «Oyijon, men bo‘ldim», — degan ovozi eshitildi. Ayol oshxonadan qariyb yugurib chiqib eshikni ochdi-da, chiroqni yoqdi. Keyin ichkariga kirib aravachada o‘tirgan o‘g‘lini olib chiqdi. Abduqayum ochiq chehra bilan salom berib, xuddi yosh boladek quv nab ketdi.

— Ertalab kelganingizda uchrasharmikansiz, devdim. Chiqmaganingiz yaxshi bo‘ldi, hozir sizga «syurpriz» tay yorlab qo‘ydim.

Abduqayum shunday deb «Bu kishi kim?» degan ma’noda Bobomurodga qarab oldi.

— Ustozim... — dedi Omonullo o‘gay otasini tanish tirib.

— Siz Samandar akamni qamab qo‘ymadingizmi, ish qilib? — dedi Abduqayum mug‘ambirlik bilan jilmayib.

— Yo‘q. Qamashim kerakmidi?

— Shunaqa rejangiz bo‘lgan-ku, to‘g‘rimi?

— To‘g‘ri. Lekin menda reja emas, gumon bo‘lgan.

— Hammasidan ham ana shu gumon yomon-da. Gu mon — bir tomondan haqiqatga qo‘shni, ikkinchi to mondan zulmga. Haqiqatning devori balandroq, darvo zalari mustahkamroq bo‘larkan. Darvozani ochishga qiy nalsangiz, baland devordan oshib tushishga erinsangiz, devorining tayini yo‘q bu qo‘shniniziga kira qolasiz, to‘g‘rimi?

— Unchalik to‘g‘ri emas, gumon ko‘chasidan o‘tmay, haqiqat saroyiga kirilmaydi.

— Lekin siz gumonga asoslanib ham qamaysiz-ku, to‘g‘rimi? Yana «qamoq» demaysiz, «ehtiyot chorasi» deysiz, a?

Omonullo: «Ko‘rdingizmi bu bolani, «vunderkind» deb to‘g‘ri aytdingiz», — degan ma’noda Bobomurod bilan ko‘z urishtirib oldi-da, o‘smirning donoligi erish tuyulsa ham, fikrlarini davom ettiraversin-chi, deb arqonni uzun tashlab, savollariga shoshilmay javob beraverdi:



- Ehtiyot chorasi ba'zan zarur bo'ladi.
— Qochib ketmasligi uchunmi?
— Ba'zan unday, ba'zan esa bir odamni sheriklarining hamlasidan asrash uchun ham shunday chora ko'rildi.
— Samandar aka qaysi biriga kiramidilar?
— Samandar akangiz ayni paytda ozodlikdalar, tilxat olib, qo'yib yuborganmiz.

— Iye, bo'lar ekan-ku? Opoqim: «Qo'llarini kishanlab olib ketishdi», — deganlariga siqilib o'tiruvdim. Sizlarga baribir-da, olim odamni ham kallakesarning yoniga qo'yib qamayverasizlar.

— Qamoqda olim odam uchun alohida imtiyozli xona bo'lmaydi. Bunaqa imtiyozlar, unvonlar, martabalar ozodlikda bo'ladi. U yerda hamma teng. Martabalari ham, imtiyozlari ham bab-baravar.

— Kitobdagagi gaplarni aytysiz menga. Birinchi marta o'tirgan odam bilan uchinchi yo to'rtinch'i marta qamalgan odamning sharoiti bir xil bo'lmaydi-ku? Bizning bir qarindoshimiz borlar. Uch-to'rt yil qamoqda o'tirsalar, ozodlikda bir-ikki oygina yuradilar. Yana bir balo qilib qamaladilar. O'sha odam Samandar aka bilan o'tirsatenglik bo'larmidi? Choyi bo'lsa choyini ichib qo'yar, sigareti bo'lsa chekib qo'yar... Menga o'zлari aytib berdilar: odamlarni laqillatib qarta o'ynarkanlar. «Prosto tak, «durak» o'ynaymiz», — derkanlar. Keyin: «Про CTO deganman», — deb yuz so'mni bo'yniga qo'yarkanlar. Siz aytgan tenglik shumi? Nega kulyapsiz?

Bobomurod miyig'ida kulgan edi, yigitchaning ziyrak nigohi shuni ham ilg'ab, uni savolga tutdi:

- Men kulgili gap aytidimmi?
— Xuddi qamoqxonada yashab chiqqanday gapiryapsiz, uka, — dedi Bobomurod.
— Gaplarim noto'g'rimi?
— To'g'ri. Lekin har bir joyning o'z qonunlari bo'ladi. Bu hayotda lallaygan odam ertami-kechmi qamoqqa tu-shishi mumkin. Qamoqda lallaygan odam esa lahadga tu-shadi. Hayot ham urushga o'xshagan narsa, uka. Kim lal-laysa yo tuhmat o'qiga uchraydi, yo kambag'allik to'riga

ilinadi, yo yana boshqa bir baloga uchraydi. Jang paytida kerishib esnayotgan odamning miyasini o'q o'pirib yuboradimi? Hayotda ham shunday. Ziyarak odam yashab qoladi.

— Sanjar aka lallaygan laqmalarini.

— Unaqa deganim yo'q. Men u odamni tanimayman. Tanimagan odamimga esa baho bera olmayman.

Shu payt Abduqayum surat ishlab chiqqan xonada nimadir chirsilladi.

— Oyijon, suratlar quridi, quritkicnni o'chirib qo'ying, iltimos, — dedi Abduqayum oshxona tomonga qarab. Onasi darrov chiqib, aytilgan ishni bajardi. — Bugun qo'l-larimga ancha jon kirib, suratlarni ishlab qo'ya qoldim, — Omonullo Abduqayumning panjalari bu safar yengilroq bog'langaniga e'tibor berdi. — Aka, siz ketganingizdan keyin men ko'p o'ylandim. Odamlar tug'iladilar, yashaydilar, o'ladilar. Tug'ilsa — quvonamiz, o'lsa — xafa bo'lamic. O'sha o'lgan odam tirikligida yaramas ishlarni ko'p qilganiga qaramay achinaveramiz, afsuslanaveramiz. Men avval ko'rishganimizda ham aytuvdim: Nafisa opani siz qidirayotgan odam o'lдirmaganida ham baribir boshqa bahonayi sabab bilan bu dunyoni tashlab ketardilar. Siz hozir qotilni emas, sababchini qidiryapsiz. Bilasizmi, men odamning o'lganiga achinmayman. Chunki o'lim hamma uchun atalgan ne'mat. Men iymonsiz ketgan odamlarga achinaman. Iymonsiz ketsa, u dunyodagi ahvoli nochor bo'ladi, men shunga afsuslanaman. Nafisa opa ancha iymonga kirib qolay devdilar... savol-javoblari oson bo'lsin, ishqilib... Oyijonim ba'zan menga qarab turib ranjiyidilar, mening bunaqaligimdan eziladilar, o'zlarini aybdor deb hisoblaydilar. Do'xtirlar: «Sizga tug'ish mumkinmas», — deyishgan ekan. Do'xtirning aytgani emas, Allohning xohlagani bo'ladi. Alloh oyijonimga farzand berishni ixtiyor qildimi — do'xtiringiz nima deya oladi? Ko'p gapiryapti, deb g'ashingiz kelmasin. Shu gaplarni aytish uchun rosa o'yladim-da. Siz qotilnimi yo boshqa jinoyatchinimi izlaysiz, ushlaysiz, qamaysiz. Lekin biri ni qamasangiz, ikkinchisi tayyor turadi. Sizdan oldingilar

ham qamab tugatolmagan, sizlar ham tugatolmaysiz, keyingilar ham. Nima uchun, bilasizmi? Amaki, aytaveraymi, jahlingiz chiqmaydimi?

Bobomurodga bu yigitchaning yoshiga yarashmagan tarzda aqlii gaplarni aytayotgani avvaliga sal erish tuyulgan bo'lsa-da, endi xush yoqayotgan edi. Shu bois Omonullo bilan ko'z urishtirib olib:

— Gapiravering, fikrlaringiz menga yoqyapti, — deb to'g'risini aytib qo'ya qoldi.

— Sizlarning ishingizda bitta xato bor: «Shu odam nimaga qo'liga pichoq oldi, nimaga o'ldirdi, nima-ga o'g'irladi?» — degan savolga javob qidirmaysiz. Siz uchun bu odamning jinoyatni bo'yniga olgani muhim. Sabab muhim emas. Siz o'tni o'rib olasiz. Ildizi esa qolaveradi. Men o'ylab-o'ylab shu ildizning nimaligini bilganga o'xshayman. To'g'risi, bitta kitobni o'qib turib shu fikrga keldim. Hamma jinoyatning bir qanoti NAFS, ikkinchi qanoti QALBning nursizligi, qalbning bo'shligi ekan. Oyijonim shu kitobdan bir necha satrni yozib berdilar, o'qiysizmi?

Abduqayum shunday deb aravachasi yonidagi qop-chiqdan to'rtta buklangan bir varaq qog'oz chiqarib, Omonulloga uzatdi. Omonullo qog'ozni ochib avval satrlarga shoshqich ko'z yogurtirdi-da, so'ng ovozini chiqarib o'qiy boshladi:

— «Qalbingizni o'ylang! Inson qalbi bir go'sht par-chasidan iborat emas. Qalbda ma'naviy haqiqat, Rabboniy latofat jo etilgan. Qalb ayni paytda inson ko'nglining eshigi, derazasidir. Derazadan tashqariga qaraganingizda yerlarni, osmonni, yulduzlarni ko'rganingizdek, qalbingizga boqqaniningizda ham ko'ngil olamingizni mushohada qиласиз. Bu olam — nuroni olam: tengsiz, keng, teran olam bo'lib, arshi a'loga qadar uzanib ketgan. O'zingizni ana shu olamga o'tganiningizni, har tarafingizning nurga to'lib-toshganini his qiling...» — Omonullo xatni o'qib bo'lib avval o'gay otasiga, so'ng jiddiy nigohini qadab o'tirgan Abduqayumga qadadi:

— Tayyorlab qo'ygan syurprizingiz shumi?

Omonullo shu savol bilan satrlar ma'nosini teran his etolmaganini oshkor qildi. Abduqayumning o'zi bu satr lardan g'oyat ta'sirlangan, boshqalar ham shu holatda bo'ladimi, deb fikr qilgan edi. Bu chaqiriqning Omonullo uchun oddiy gapday tuyulganidan ranjib, aftini oshkora burishtirdi.

— Bu Jo'shon hazratning gaplari. Syurpriz keyinroq bo'ladi. Siz avval so'raydiganingizni mendan so'rab oling.

— Bizni bir narsa qiziqtirayapti: pastdag'i uyda taraqlagan ovoz eshitilmadimi? Masalan, mix qoqilganimi yo taxtaning taraqlaganimi? — deb so'radi Bobomurod.

Abduqayum biroz o'ylab o'tirgach:

— Eshitildi, — dedi. — Lekin men slesarlar ishlayaptimikan, deb o'ylovdim.

— Qanaqa slesarlar? Qachon ishlashdi?

— Quvurlarni, isitkichlarni almashtiramiz, deb yurishgan ekan.

— Siz ularni ko'rdingizmi?

— Yo'q, biznikiga kirishmadi. Avval pastki qavatdagilarnikini almashtirisharkan. Opoqimga uchrashibdi. Nafisa opam ishda ekanlar, «Qachon keladi?» — deb so'rashibdi.

— Opoqingiz aytdimi?

— Ha.

— Omonullo, JEKKa qo'ng'iroq qil. — Omonullo «kech bo'lidi», degan ma'noda soatiga qaragan edi, izoh berdi: — Navbatchi bo'ladi.

— Ha, navbatchi bo'ladi, — deb quvvatladi Abduqayum, so'ng onasini chaqirdi: — Oyijon, JEKKning telefonini bering.

JEKK deb atalmish idora navbatchisi telefon go'shagini darrov ko'tara qolmadi. Omonullo to'rtinchi marta raqam tergach, norozi ohangdagi: «Alyo» — degan tovush eshitildi. Omonullo o'zini tanitganidan so'ng: «Isitish quvurlarini qachon almashtirishga kirishasizlar?» — deb so'radi.

— Buni xo'jayinlardan so'rang. Bugun shanba, ertaga yakshanba. Indinga kelib so'raysiz. Biz kichkina odamiz, — deb javob qaytardi navbatchi.

— Xo'jayinning uylaridagi telefonni bering, — dedi Omonullo.



Navbatchi biroz ikkilanib turgach, telefon raqamlarini aytdi. Boshliq uyida ekan. Omonulloning savoliga «1989-yilgi rejada bunday ish yo‘q», — deb qisqa va lo‘nda javob berdi. Omonullo uning gapini Bobomurodga aytgach, Abduqayum jonlandi:

— O‘zim ham shundaydir, deb o‘ylagan edim, — dedi quvonch bilan.

Undagi bu o‘zgarish mehmonlarni ajablantirdi.

— Oyijon, iltimos, suratlarni olib chiqib bering, — deb yalindi Abduqayum. Ayol turli hajmdagi o‘nga yaqin suratlarni olib chiqib bergach, Abduqayum ular orasidan ikkitasini ajratib, Omonulloga uzatdi: — Qarang: mana shu odam bir kun oldin «Slesarman», deb kelgan edi. Opoqim bilan shu gaplashgan bo‘lishi kerak. Ertasiga ham kelgan. Men surat yaxshi chiqadimi yo yo‘qmi, deb gumonsirab, sizga aytmovdim.

— Bu odamning kirganini ko‘rgansiz, chiqqanini-chi?

— Ko‘rdim.

— Qo‘lida tugunmi yo shunga o‘xshash narsami bormidi?

— Yo‘q.

— Uyda taxminan qancha vaqt bo‘ldi?

— Bir soatchadir.

— Samandar akangizdan oldin keldimi?

— Ha. Nafisa opamlardan ham oldinroq kelgan.

— Samandar akangizdan oldin chiqdimi yo keyinmi?

— Keyin, shekilli... Ha, keyinroq chiqdi.

Omonullo: «Uyda berkinib turganmi? Unda gazchi? Ochilov gazni o‘chirib, derazani ochgan ekan. U chiqib ketganda ham uyda qolgan bo‘lsa, nima uchun derazani berkitib, gazni yana ochmadi? Yoki... nima uchun Ochilovni ham o‘ldirmadi?...» — degan ma’noda Bobomurodga qarab qoldi. Bobomurod ham ayni shu xayolda edi.

— To‘xtang... — dedi Abduqayum o‘ylanib olib. — Samandar aka mashinadan tushganlarida kimdir yuqori qavatga ko‘tarildi. Samandar aka qaytganlardan keyin pastga tushdi. Keyin... shu odam ko‘chaga chiqdi.

Omonulloning: «Zinada ro'para kelib qolishdan cho'-chib yuqoriga ko'tarilganmi?» — degan savol nazariga Bobomurod tasdiq ishorasini qildi.

— Bu suratni bizga berib tura olmaysizmi? — deb so'radi Omonullo.

— Marhamat, siz uchun atay ishladim...

— Lekin... biz haq to'lamaymiz-da? — dedi Omonullo kulimsirab.

Abduqayum avvalgi uchrashuvdag'i gapiga shama qilinganini fahmlab kuldidi:

— Amerikaga borganimizda to'laysiz, — dedi.

Bobomurod bu hazilga tushunmay, bir tutingan o'g'liga, bir yigitchaga ajablanib qaradi. Abduqayum esa qolgan suratlarni ham Omonulloga uzatdi:

— O'sha kuni qo'lim shikastlangunicha olgan suratlarim: Samandar aka ham borlar.

Chindan ham mashinaga o'tirayotgan Samandar suraga tushib qolgan edi. O'rindiqqa o'tirayotib uy derazasiga o'girilib qaragan Samandarning ko'zlarida hadik muhrangan edi. «Bechora er», — deb o'yładi Omonullo uning javdiragan ko'zlariga qarab.

Uy bekasining: «Ovqat tayyor bo'lib qoldi, o'tiringlar», — deyishiga qaramay, xayrlashib, pastga tushdilar. Omonullo qo'shni eshik qo'ng'irog'i tugmasini bosdi. Abduqayumning opoqisi slesar haqidagi gaplarni tasdiqlab, suratdagi odamni ham tanigach, Bobomurod: «Xomligingni isbot qildimmi?» — degan ma'noda mug'ambirlik bilan kulimsiradi.

Bu orada yetib kelgan tekshiruvchilar guruhi Omonulidan topshiriq olib, beto'xtov ravishda ishga kirishdilar. Omonullo Bobomurodni: «Vazirliddagi ustozim», — deb tanishtirgani uchun «ustoz» ularning ishlariga aralashdi. Ko'chirib, so'ng o'rniga qo'yilgan taxtalarini olish qiyin bo'lindi. Bu yerdan nimadir qidirligani aniq edi. Ammo o'sha «nimadir» topilganmi yo yo'qmi — shu noma'lum edi. Bobomurod har bir nuqtani sinchiklab tekshirishni tabab qildi. Oqibatda burab olinib so'ng joyiga qoqilmagan mixga qon tekkani aniqlandi. Shu mix qalpog'ida barmoq

izlarining qolgani ular ko'ngliga chiroq yoqdi. Barmoq izlari poltaxtalari ostida qolib ketgan qo'l bola buragichda ham bor edi.

— Barmog'ini urib olgan yoki nimadir kesgan. Buragichni yo'qotib, topolmagan. Shubhasizki, shoshilgan. Agar izlaganini topolmagan bo'lsa, asabiyashgan, — dedi Bobomurod.

— Asabiyashsa taxtalarni joyiga qo'yib, gilamni yoparmidi?

— Hamma yoqni ag'dar-to'ntar qilib tashlab ketardi, demoqchimisan? Agar xom o'g'ri bo'lsa, shunday qiladi. Durustroq narsaning isini olgan bo'lsa, darrov sir boy bermaydi. Bu yerdan bo'lmasa boshqa joydan chiqishini kutadi. Payt poylaydi. Har holda, u uy egalarining kelib qolishlarini kutmagan. Agar ular hammomga mo'ralab uni ko'rib qolishmaganda, o'lishmagan bo'lishardi.

... Shu kabi turli taxminlar bilan yarim kechada uylariga qaytishdi. Ertasiga barmoq izlari va surat bo'yicha tegishli so'rov yuborildi. Javobni uzoq kutishmadi: «Pavel Onopko. Xersonda tug'ilgan. Laqabi — Koshak. Ukraina SSR jinoyat kodeksining (...) moddalari bilan ozodlikdan mahrum etilgan. Hozir Irkutskdagi (...) qamoq lagerida...»

Irkutsk? Omonullo Toshboltaning: «Irkutskka boruvdim», — degan gaplarini esladi. Esladi-yu, «O'sha yerda iziga tushdimi?» — degan savol xayolini yoritdi. Keyin: «Axir, u qamoqda bo'lishi kerak-ku?» — deb o'ylab, navbatdagi so'rovni yubordi. Bu orada Nafisaning o'ynashi yodiga tushib, tortmadagi qog'ozlar orasidan Matluba bergen xatlarni ajratdi-da, manziliga qaradi. Qaradi-yu, ro'parasidagi zimiston yorishgandek bo'ldi. Eshik qulfining kalit bilan emas, yasama mixochqich bilan ochilganini dalillovchi xulosa esa unga endi ahamiyatsizdek tuyuldi.

Yakshanbani arxivga oid ma'lumotlarni o'rghanish bilan o'tkazib, uyiga kech qaytdi. Uyquga to'yib ulgurmay telefon jiringi uyg'otdi...

NAFISA

Bu dunyodagi hayot qilko‘priq emas, undan-da xavfli, undan-da battarroqdir. Balki ustara tig‘i ustida yalangoyoq yurishga qiyoslash o‘rinlidir? Boqeant shunday. Ustara tig‘i desak-da, qilko‘priq desak-da farqsiz — Nafisa bu yo‘lda yura olmadi — toydi. Unga bu yo‘lda qanday yurmoq lozimligini o‘rgatmadilar. Zaharni «asal» dedilar — ishondi, zulmatni «oydinlik» dedilar — ko‘ndi, azobni «rohat» dedilar — ma‘qulladi... Sassiq ko‘lni mavjli dengiz deb xayol qilib adashganini, oydin yo‘l degani baxt saroyiga emas, do‘zax qopqasiga yetaklaganini kech angladi. Agar uyida o‘lim topmaganida, balki «kech angladi» demog‘imiz o‘rinsiz bo‘lardi. Harom-halolning farqiga endigina borayotgan juvon uchun pokiza dengiz yo‘llari ochilarmi endi?..

Bir kuni ishxonasidagi ayolning: «Har bibi seshanba kuni osh damlab, muhtojlarga chiqaraman, shuning uchun Xudo mushkullarimni oson qiladi», — degan gapi Nafisaga ta’sir qildi. Farishtali oila deb atalmish baxtdan boshqa hamma narsasi bor Nafisa keyingi haftalarda o‘zi sezmagan, o‘zi istamagan holda ezila boshlagan edi. Tursunali akasi u yoqda, eri tog‘da bo‘lgan juvonning yolg‘iz qolishi azob edi. Yo‘q, Nafisa o‘gay onasi ta’rif etgan darajadagi toifadan emasdi. Ersirab qolgani ham yo‘q edi. Faqat ayollar oilalaridan gapirishsa, hatto turmush qiyinchiliklaridan nolishsa ham ularga havasi keladigan bo‘lgan edi. U er hukmron bo‘lgan ko‘p bolali oilaga ega bo‘lish orzusida yashay boshlagan edi. Chiroyli yoki puldor er havasi shamolda qolgan shamchiroq singari umri poyoniga qarab borardi. Shinam oila orzusida u osh damladi. Ikki yon qo‘senisinikiga bir kosadan chiqardi, bir kosani olib yuqori qavatga ko‘tarildi. Abduqayum uyda yolg‘iz edi. Nafisa ochiq eshikdan kirib, kosani aravacha ga moslangan stol ustiga qo‘ydi. Nafisa qo‘shti ayollar ning bu xonadonga kirib, gaplashib o‘tirishlarini bilardi,

«Bu bola ko'p kitob o'qiydi, bola emas — balo!» — degan ta'rifni ham eshitgan edi. Shu sababli Abduqayumning: «Nafisa opa, birpas gaplashib o'tiring», — degan taklifini rad etgisi kelmadı.

Shundan so'ng yolg'izlik azobiga Abduqayumning suhbatlari malham bo'la boshladı. Shu yerda uning tosh yuragi yumshaganday bo'lib, zulmatdagi qalbiga iymon nuri asta mo'raladi.

Omonullo Nafisaning ishxonasiga borganida stoli tortmasidan o'n ikki varaqli daftar olinganini bilmas edi. Nafisa bu daftarga nimalarnidir yozar, keyin uzoq tiki-lib o'tirar edi. Bu holatga qiziqqan hamxona ayol uning o'limidan so'ng daftarni olib o'qidi-yu, ammo joyiga vaqtida qo'yishni unutdi. Omonullo kelganida esa daftarni uning qo'liga tutqazishdan cho'chidi. Shu bois Nafisaning qalbidan o'tganlari sir bo'lib qolaverdi.

Nafisa Abduqayumning kitoblardan o'qib bergenlarini eslab, ayrim gaplarni esa yozib qo'yishni odat qilgan edi.

«Seni haqiqatdan uzoqlashtirib, yomon odatlarga ya-qinlashtirgan kimsa eng iflos odamdir...» — Abduqayum shunday dedilar. Unda... Eng yaqin odamlarim... eng iflos odamlar ekan-da... Voy Xudoyim, bu ne ko'rgilik...»

«Ey Odam farzandi! Dunyoga yomonlik tarqatganni aslo olqishlama! Bu olqishing seni zulmlarning eng dahshatlisiga olib boradi...» Xudo shunday degan ekan. Men shunday qildimmi? Endi zulmning eng dahshatlisiga uch-raymanmi? Voy Xudoyim, bu ne ko'rgilik...»

«Ey boyligi bilan mag'rur bo'lgan inson! «Falonchiman!» deb kibrilnma, balki: «Asli o'zim kimman?...» — deb fikrla. Bugun moliga maftun, avlodiga majnun bo'lgan ey inson! Ko'z yumgan kuning achchiq-achchiq haqiqatni ko'rgach tushunasan... Mol-dunyong ko'pligidan sevinma, halol qo'lga kiritganidan sevin. Chunki harom daromad seni oqibat azobga duchor qiladi...» — Bu azoblar hali menga kammidi... Voy Xudoyim, bu ne ko'rgilik...»

«Qalbida iymon nuri bo'lмаган inson — uyqudadır. Uni faqat o'lim uyg'otadi. Shu sababli Rasululloh:

«Insonlar uyquda, o‘Iganlarida uyg‘onadilar», degan ekanlar...» Men qanday uyg‘onar ekanman, voy Xudoyim...»

Hamxona ayol bu satrlarni o‘qib ko‘p ham ta’sirlanmagan, «Eskichaga o‘qiyotgan ekan-da», — deb qo‘ya qolgan edi. «Qalbning nurlanishi» degan tushunchadan uzoq bo‘lgani uchun ham Nafisaning satrlariga ko‘chgan tuyg‘ulariga hamroz bo‘la olmagandi. Daftarni Omonullo o‘qigan taqdirda ham «Qotilni aniqlashga yordam beruvchi dalil yo‘q», — deb qo‘ya qolar edi.

Idora xo‘jayini: «Milisaga «g‘ing» desalaring onalarining ko‘rsataman», — degani sababli hamxona ayol Omonulloga bor gapni aytishdan qo‘rди.

... Nafisa o‘sha kuni ertalab bozorga kirib issiq non, qulupnay ko‘tarib kelib idoradagilarni mehmon qildi. Mehnat ta’tilini tog‘da, eri bilan o‘tkazajagini hamxona ayolga aytди. Shunda: «Yo bugun, yo ertaga olib ketishlari kerak, hammomda kran o‘lgurdan suv oqyapti. Usta chaqirmsam kelmayapti, yo‘g‘imda suv sharillab oqib ketsa, qo‘snilardan balolarga qolaman», — deb nolidi. Shunda hamxona ayol: «Voy, Sanjarga ayta qolmaysizmi, menikini birpasda tuzatib bergen, asli kasbi santexnik-ku, bilmasmidengiz?» — dedi-da, chaqqonlik bilan turib yigitni chaqirib keldi.

— Ishdan keyin borolmayman. Agar «xo‘p» desangiz hozir borib tuzatib kela qolay...

Taklif ma’qul bo‘lib yo‘lga tushdilar...

Ularning birga kelayotganlarini Abduqayum ko‘rdi...

Ko‘rdi-yu, ko‘ngliga shubha oralamadi, yomon fikrga bormadi...

Uch kundan keyin Nafisani qarg‘adilar:

— O‘ynashi bilan yotgan ekan, sharmanda!

... Sharmanda... Sharmanda...

Uch kundan keyin Sanjarni la’natladilar:

— Suyug‘oyoqqa ilakishgan ekan, yigit o‘lgur!

... Yigit o‘lgur... Yigit o‘lgur...

Hamxona ayol ham bu gaplarga ishondi va aytdiki:

— Ilgaritdan ko‘z suzishib yurardi-da...

KOSHAK

Koshak necha marta «etap»ga qo'yilgan bo'lsa ham bunchalik quvonmagan edi. Hali toj kiyish darajasiga yetmagan, ammo «Ot!» desa otishdan, «Os!» desa osishdan, «Bo'g'ib tashla!» desa bo'g'ib tashlashdan qaytmaydigan ikki yigitning ikki qanotiga kirishi unga baxt va omad darvozalarini lang ochib beradiganday bo'ldi. U yo'l-yo'lakay: «Parijda yashaganim yaxshimi yo Florida-dami?» — degan masalada ham bosh qotirishga ulgurdi. U o'zi yoqqan zulm o'tida o'zining qovrilajagini bilmay xomxayollariga bandi bo'lib maza qildi.

Ularni shahar chetidagi to'rt qavatlari uyning uchinchi qavatidagi besh xonali uyga joylashtirdilar. Derazalariga o'rnatilgan yangi panjaralarga qaraganda uy bularning tashrifি uchun maxsus «jihozlangan» edi. Ertasiga ertalab yana yetti kishi, peshinda esa besh kishi kelib, uy to'lib qoldi. Ko'ngil istagan barcha narsalar: aroq deyilsa — aroq, nasha deyilsa — nasha, qora dori deyilsa — qora dori muhayyo etib turildi. Koshak hatto: «Boquv shunaqa bo'lsa, chet elga jo'nashning hojati ham yo'q», — degan xayolga bordi. Bo'lajak ish rejasiga bilan tanishtirishga shoshilishmadi. Shunda Koshak ularni kuzatib turgan boshliqdan «bir uydagi omonatini olib kelish» uchun ruxsat so'radi. Boshliq kattalari bilan maslahatlashib unga ikki kunga ijozat berdi. Koshak o'zi bilan kelgan yigitlarning birini yoniga olib Samandarning uyini topdi. Kuzatdi. Ertasiga slesar qiyofasida kirdi. Kichik xona polining taxtalarini ko'chirdi. Ko'chirdi-yu, laqqa tushganiga amin bo'lib, mushtumini g'azab bilan qisdi. Qo'lida uchli burama mixni ushlab turganini ham unutdi. Mix barmog'i uchiga sanchilgandan keyingina o'ziga keldi...

Jahl otiga minganicha chiqib ketmoqchi edi, ammo boshliqning: «Birorta iz qolsa, o'zingdan ko'r, u yer sen o'ylagan onangning uyi emas», — degan topshirig'ini eslab, taxtachalarni joyiga qo'ydi. Javonni o'miga surishga esa ulgurmadi. Eshikdan tashqarida ovozlar kelgach, o'zini hammomga urdi...

Tugmali buklama pichoq bilan erkakni bir hamlada o'ldirdi.

Ayol dod solib oshxona tomonga qochdi. Chap qo'li bilan og'zini yumib, o'ng qo'lidagi pichoqni qovurg'asi ostiga sanchdi. Ayol yiqilib tipirchilay boshladи. Uning qulog'idagi zirakning ko'zi yaltillab ketdi — ikkala zirakni shart qulodidan uzib ola qoldi. So'ng barmoqdagi uzuklarni oldi — har holda, quruq ketmayotganidan quvondi. Ayolning jon berishi og'ir bo'ldi. Unga rahmi keldi — stol ustidagi pichoqni olib, yuragiga sanchib, bu dunyo azoblaridan qutqardi. Pichoq sopini ro'molchasi bilan artib qo'yishni unutmadi. Boshliqning iz qoldirmaslik haqidagi topshirig'ini eslab, buning ham chorasini topdi — gaz yo'llarini ochdi.

Juma kuni ularning vazifalari ayon bo'ldi. Ular joylashgan uchta «RAF» boshkentni tongda tashlab chiqdi. Tog' oshib, yana ancha yurishdi. Manzilga yetgach, shomga qadar dam olishdi. Shaharchadagi qaysi uylarda badavlatroq odamlar turishini alohida-alohida ko'rsatishdi. Shundan so'ng guruh ikkiga bo'lindi. Birinchi guruh — keyin kelgan yetti yigit — uchragan odamlarni o'ldirib, jasadlarni ham, uylarni ham yoqib ketishi kerak edi. Koshak esa ikki sherigi bilan badavlat xonadonlarni tabab, so'ng o't qo'yishni zimmasiga oldi. Qo'lga kiritilgan boylik teppa-teng halol bo'linishi qayd etildi. Vazifa yashin tezligida bajarilishi shart edi. Shanba kuni kechqurun ularni shu ko'chalardan ikki marta olib o'tishdi. Ertasiga kun yoyilganda, uzoqda olomon ko'rinishi bilan ular vazifalarini bajarishga kirishdilar. Aldangani uchun g'azab otiga mingan Koshak bu vazifalarni keragidan ortiqroq darajada bajarishga harakat qildi. Birinchi uyga bostirib kirganidayoq xonadon sohibi uning ko'ziga dam Tursunali, dam Tengiz bo'lib ko'rini pichog'ini sanchaverdi... sanchaverdi... Har tig' urganida ko'ngli rohatdan yayrayverdi... yayrayverdi...

To'mtoq aqli esa hademay o'zining qoni ham oqajagini idrok etmadni.

Vazifalar ado etilib, butun dunyo bu shaharchada yuz bergen fojia haqida bosh qotirayotgan kunlarning birida

Tengiz «oilasidan xabar olish» uchun ijozat so‘rab Tur-sunalining ota uyiga bordi. Amakivachchalar «SSSR pro-kuraturasidan kelgan» Tengizga monelik qilishmadi. Bog‘ o‘rtasi kovlanib, temir quticha olindi. «Akt» yozilib, amakivachchalar guvoh sifatida imzo chekdilar. Bir necha yil tuproq ostida «jon saqlagan» temir quticha ertasigayoq yana Tengiz uchun ishonchli bo‘lgan joyga ko‘milib, ega-si ozod bo‘lib qaytguniga qadar kutdi...

TENGIZ

U hayoti yo‘lida tikanlar, toshlar borligini bilardi-yu, ammo olovlargacha duch kelarman, deb o‘ylamagan edi. Tengiz: «Koshak bilan vazifamiz bir bo‘lsa, u haromi bilan uchrashaman», — deb yanglishdi. Vazifa o‘taladigan joy bir bo‘lgani bilan bajarilushi lozim bo‘lgan yumush boshqa-boshqa edi. Ta’bir joiz bo‘lsa, xuddi bolalarning «Oq va Qizil» o‘yiniga o‘xshardi. Bir guruh bola Oq, bir guruhi Qizilga ayrilganidek, Koshak bilan Tengiz ham bo‘lingan edilar. Koshak yerli xalq nomidan vahshiylikni boshlagach, Tengiz tog‘liklar nomidan qarshi zulmni ko‘tarishi lozim edi.

Tengiz o‘zining guruhi bilan shahar turmasida vazifa boshlanish onlarini kutdi. Ularni shanba kuni kechqurun shahar yonboshidagi tog‘liklar zich yashaydigan mahallaga olib kelib, pastqamroq uygaga joyladilar. Koshak guruhidan farqli o‘laroq, ular makon topgan hovliga qurolli soqchilar qo‘ydilar. Tengiz va uning sheriklari sodiq xizmat qilmoqqa va’da bergenlari bilan ularga to‘la ishonch yo‘q edi. Shanba oqshomida vazifa bilan tanishtirishgach, «Agar bajarishdan bosh tortsangiz yoki qochmoqchi bo‘lsangiz, joyida otib tashlaymiz», — deb ogohlantirishdi.

Kechasi Tengiz uxbor olmadi. Chekish bahonasida hovliga chiqqanida bir odamning darvoza ustuniga mato bog‘layotganini ko‘rib soqchiga ajablanib qaradi. Soqchi unga: «Ishing bo‘lmasin!» — deganday qo‘l siltab qo‘ydi.

Kun yoyilganda boshlashdi.

Avval bir to'da o'tdi. Uylardan qora tutun o'rlay boshladi.

So'ng kichik to'da paydo bo'ldi. Oldindagi Koshakni ko'rib Tengiz darvozadan otilib chiqay dedi. Soqchi: «Hali vaqt bor», — deb ko'kragidan itardi.

Ko'chaga qo'yilishi bilan Koshakni izladi. Topdi.

Sandiq kovlayotgan Koshak orqasida sharpa sezib o'girildi, ammo o'zini himoya qila olmadi — Tengizning qo'lidagi pichoq bo'g'ziga qadaldi-yu, tomog'idan otilgan qon sandiq ichidagi pullarni qizilga bo'yadi. Dam o'tmay uning jasadi o'zi o'ldirgan uy egalarining murdalari bilan birga yona boshladi...

O'sha daqiqalarday oq mish-mishlar alangasi hamma yoqni qamrab oldi:

— Yerliklar tog'liklarni tiriklayin yondirishibdi...

— Tog'liklar avtomatlar bilan qurollanib katta kuch bilan shaharga yopirilishibdi...

Tahlika, vahimada qolgan aholi lochin changalidan qo'rqqan palaponlarday najot tilab qaqshar edilar.

Televizorda esa mosh yutgan xo'rozday bo'lib olgan notiq kulimsiragan holda va'z aytardi:

— Hamma janjal qulupnaydan chiqibdi... Odamlar ham nodon...

OMONULLO

Ishxonada televizor tomosha qilib o'tirgan Omonullo bu gaplarga ishondi. Ikki kundan so'ng u moskvalik tergovchilarga qo'shilib fojia sodir bo'lgan shaharga uchdi. U ketgach, so'roviga javob keldi: «So'rovingizga binoan shuni ma'lum qilamizki, Pavel Onopko (laqabi Koshak) qamoq lageridan qochishga uringanida 1989-yil 20-may kuni otib o'ldirilgan».

Uch oy davomida moskvaliklarga yordam bergen Omonullo ishxonaga qaytib bu javobni o'qidi-yu nimani dir sezganday bo'ldi. Irkutskka borib kelishni iltimos qildi. Avval ijozat berishdi, keyin esa: «Ovora bo'lmay ishni yopib qo'ya qoling», — degan maslahatda to'xtashdi.

Shu to‘xtamga kelingan kuni oqshomda prokuraturadan Mels Xo‘jayev qo‘ng‘iroq qilib: «Aka, Irkutskka bormoq-chi emishsiz, agar maslahatimga ko‘nsangiz, bormang. Sababini keyinroq bafurja gaplasharmiz», — dedi.

Bu orada Fotima Hindistondan qaytdi.

Va’daga binoan bahorga chiqib o‘g‘il tug‘ib berdi.

Dissertatsiyasini himoya qilayotganda Omonullo be-shikdagi o‘g‘lini so‘rg‘ichda ovqatlantirib o‘tirar edi. Boltayevaning o‘limiga oid ishni to‘xtatishdan voz ke-cholmagani uchun iste‘foga chiqishga majbur bo‘lgan Omonullo uchun o‘g‘il boqib o‘tirish ulug‘ bir baxt bo‘lib tuyular edi...

SO‘NG...

Adolat Omonulloga qatnayverib, oxiri erining molini qo‘lga kiritdi. Omadini qarangki, sovxoznning yangi direktorini ham qo‘lga kiritishga erishdi — katta qizini unga qo‘sib qo‘ya qoldi. Toshbolta olib kelgan boylikning bir ulushi sovxozi direktoriga tegishli edi. Adolat shu boylikni olib ketish uchun uni uyiga taklif etdi. Yedirdi, ichirdi, so‘ng...

Ichkarida yangi direktor huzurlanar...

Bu yoqda Adolat quvnar, orzulardan tilla saroylar qurar...

Ayvonda esa jon berayotgan Toshboltaning lablari bir tomchi suvgaga zor...

VA NIHOYAT...

O’n yil ichida dunyo o‘zgarib ketdi. Ko‘p yurtlarni bosib yotgan qorong‘ilik chekindi, balo bulutlari tar-qaganday bo‘ldi. Oftob charaqlagan kunlarning bida Omonulloni xizmatga qaytardilar. Uchinchi o‘g‘li tug‘ilganida u polkovnik darajasiga yetgan edi.

Oftob nuridan gul ham, chaqir tikan ham bahramand bo‘lganiday, o‘pkasini sovuqqa oldirgan Tursunali ham uyiga barvaqt qaytdi. O‘zini tuhmat balosiga uchragan

mazlum sifatida ko'rsatib, hech bo'Imaganda sovxoz direktorligini qaytarish ilinjida ko'p urindi. Ammo urinishlari zoye ketdi. Yaxshiki, shogirdiga insof kirib, uni qanotiga oldi. Tursunali buni shohsupa sari bosilgan birinchchi qadam deb o'yadi. Ammo nafs yana o'z ishini qildi: bir vagon ma'dan o'g'itlarini pullayotgan paytda qo'lga tushdi-yu, o'zi bilan birga shogirdini ham chohga tortdi.

Oqibatda:

Adolatning qizi o'ynashsiz qoldi...

Matluba yana ersiz...

Matlubaning birinchi kelinini uy ostonasiga olib chiqib «Qaynotasiga salom...» deyishayotganda salom ega-si Qarshidagi qamoq lagerida o'z taqdirini la'natlab o'tirardi.

Nuriddin esa...

Qo'tosning saboqlari zoye ketdi. Uyiga qaytgach, Nuriddin ota kasbini qildi — odam o'ldirgan qo'llarning ketmon dastasiga ko'nikishi qiyin bo'lsa-da, baribir iziga qaytmadi.

Bir kuni shomda g'o'zalarga suv tarayotgan damda shiypon yaqinida mashina to'xtab, undan bashang kiyin-gan odam tushdi. Brigada boshlig'i ham ketib bo'lgan, dala-da Nuriddin yolg'iz edi. «Xo'jayinlardan biri keldi», — deb o'ylab, shiyponga yaqinlashdi-yu, Tengizni ko'rди. U bilan qanday ko'rishishni bilmay taraddudlanganida Tengiz quchoq ochdi:

— Hamzat! Salomatmisan, birodarim! — deb quchoq-lab oldi.

Nuriddin: «Meni yana o'g'irlikka tortgani kelgan», — degan fikrda rad javobini qanday qilib aytishni bilmay o'tirganida Tengizning o'zi mushkulini oson qildi:

— Seni olib ketgani kelganim yo'q, qo'rqma, — dedi u. — Sendan o'g'ri chiqmasligini bilardim. Seni u tomonlarda saqlab qolishning boshqa yo'li yo'q edi. Men yurtingdan ozroq qarz bo'lib qolgan edim, to'g'rirog'i, tovon to'lashim kerak edi, shuni to'lagani keldim. Ataganimni beraman-u ketaman. Endi zamon boshqa, Hamzat,

hayot ham boshqacha bo‘ladi. Sen bolalaringni o‘zingga o‘xshatib tarbiyalama. — Tengiz shunday deb mashinadan ixcham jomadon olib ochdi. Uning ichidagi pul-u javohirni ko‘rib Nuriddin lol qoldi. Tengiz pullardan bir taxlamini olib Nuriddinga uzatdi:

— To‘yingga kelolmadim, bu senga to‘yona.

Nuriddin olmayman, deb chekingan edi, Tengiz pulni uning qo‘njiga solib qo‘ydi.

— To‘yonadan qaytmaydi, ahmoq! Sendan bitta iltimosim bor: o‘g‘illaringdan birining ismini Hamzat deb qo‘y, maylimi? — U shunday deb jomadonni yopdi. — Bunisi yurtingga to‘laydigan tovon...

Shunday deb ketdi...

Nuriddin uni boshqa ko‘rmadi...

Tengiz uning uchun shirin xotira bo‘lib qoldi...

AYTAR SO‘ZLARIM SHUKI:

Har bir narsaning ibtidosi bo‘lgani kabi intihosi ham mavjuddir. Tangri taoloning buyuk lutfi, karami va marhamati ila bayonimiz shu yerda nihoyasiga yetdi. Shoni Aziyim bo‘lgan Allahga behad hamd-u sanolar bo‘lsin. O‘qiganingiz mazkur bayonlarda yutuqqa arzirli jihatlar bo‘lsa, Allohning marhamatidandir. Sizni ishontirmagan, g‘ashingizga tekkan, hafsalangizni pir qilgan yerlari bor ekan, bu qalamimiz ojizligi, e’tiborsizligimiz, loqaydigimiz va yana allaqancha ayblarimiz tufaylidir. Buning uchun siz, aziz kitobxonlardan, uzr so‘rab, Yaratganning oldida tavbalar qilamizkim, shoyad tavbalarimiz qabul bo‘lib, bunday keyingi bitiklarda Haq yo‘ldan adashtirmasa.

Bayonlarda qora bo‘yoqlar ko‘proqmikan, deb ajablan-narsiz balki? Ajablanmang, bu xato mahsuli emas. Atayin shunday qilindi. Zulmdan qochmoqlikning, zulmga nafrat qilmoqlikning yo‘llaridan biri — zulm aslan qanday ekanini yaxshiroq va aniqroq ko‘rish, anglash, tah-lil qilmoqlikdir. Nafsning kelajagi — zulmdir, zulmning

kelajagi esa — xorlikdir. Biz ana shu oddiy haqiqatni bayon qilmoqchi bo'ldik. Badan pokligi badanga, ruh pokligi ruhga hayot bag'ishlaydi.

Alloh Taborak va Taolo «Mulk» surasining ikkinchi oyatida marhamat qilib aytadiki: «Bismillahir Rohmanir Rohiyim. Allaziy xolaqol mavta val hayata liyabluvakum ayyukum ahsanu amalan. Ba huval azizul G'ofur» (s.a.). (Ma'nosi: Ey Odam farzandlari! U o'limni va hayotni sizlarning qaysi birlaringiz amalda yaxshiroq ekanliklarigizni sinash uchun yaratgandir. U barchadan G'olibdir va gunohlarni kechuvchidir.) Qarang, insonni sinash uchun o'lim va hayot yaratilgan ekan. Ajab, nima uchun bu oyati karimada avval «o'lim», so'ngra esa «hayot» kalimasi kelyapti? Ba'zi ulamolarning aytishlaricha, buning hikmati odamlarni yaxshi amallarga chorlash ekan. Boshqa ulamolar esa, «Tafsiri hilol»da ta'kid etilganidek, buning hikmatini «o'lim» kalimasining mazmuni «hayot» kalimasining ma'nosidan teranroq, qamrovliroq ekani-da, deb biladilar. Ya'ni hayot — bu o'tkinchi dunyoning qisqa davri, o'lim esa boqiy dunyodagi abadiy hayotning boshlanishini bildirar ekan. Demakki, o'lim — foniy dunyo intihosi va boqiy dunyo ibtidosidir. Shunga ko'ra o'limni eslagan odam doimo unga tayyorgarlik ko'rishi va foniy dunyonи tark etgach, sharmanda bo'lmaslik uchun o'zini yaxshi ishlarga safarbar qilmog'i lozim ekan. Ammo biz — ojiz, notavon, gunohkor bandalar, bunga hamisha ham amal qilavermaymiz.

Bu dunyoni tashlab ketganlar gapira olsalar edi, biz bu gaplarni eshitma olsak edik, g'aflatdagи yumuq ko'zlarimiz moshdek ochilarmi edi...

Biz «gapirmaydilar», deymiz, aslida ular gapiradilar, ammo biz eshitmaymiz, eshitsakmi edik, qalblarimiz poralanib ketarmi edi... Ularning afsuslari, chekkan nolalaridan quloqlarimiz qomatga kelarmi edi...

Suyukli payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat qilganlar: «Jonim qo'lida bo'lgan zotga — Allohga qasamki, sizlar mening so'zla-

rimni ulardan (ya’ni o’liklardan) yaxshiroq anglaguvchi emassizlar, faqat ular javob qila olmaydilar, xolos...»

Bu muborak oyat-u hadislarning ma’nosiga yetmog’imizni Alloh barchalarimizga nasib etsin.

Necha kunlaringizni, tunlaringizni, soatlaringizni aymay biz bilan hamsuhbat bo‘lganingiz uchun sizlardan benihoya minnatdormiz. Alloh barchalaringizning xonardonlaringizga qut-barakot berib, kuntu ofatlardan asrasin.

Barchalarimizga ruh pokligi nasib etsin! Omiyn ya Rab, al-olamiyn!

1999-yil.

MUNDARIJA

CHARXPALAK

3

MURDALAR GAPIRMAYDILAR

231

TOHIR MALIK

MURDALAR GAPIRMAYDILAR

(Qissalar)

«Sharq» nashriyot-maṭbaa
aksiyadorlik kompaniyasi

Bosh tahririyati

Toshkent — 2019


Muharrir *Rustam Yarlaqabov*
Badiiy muharrir *Bahrom Bobojonov*
Rassom *Nilufar To'ychixonova*
Texnik muharrir *Juldiz Kadirova*
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*
Musahihih *Ma'mura Ziyamuhamedova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-yil.

Terishga berildi 05.12.2018. Bosishga ruxsat etildi 01.02.2019. Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. «Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 28,6. Nashriyot-hisob tabog'i 27,9. Adadi 10000. Buyurtma № 474. Bahosi kelishilgan narxda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41.**

TOHIR
MALIK



MURDALAR
GAPIRMAYDILAR

*Nafsning kelajagi zulmatdir,
zulmatning kelajagi esa xorilikdir.
Biz ana shu oddiy haqiqatni
bayon qilmoqchimiz. Badan pokligi
badanga, ruh pokligi ruhga hayot
bag'ishlar...*



18+

ISBN 978-9943-26-874-6

9 789943 268746